

**RAXMONOVA GULLOLA SHAVKATOVNA
HAKIMOVA NARGIZA SUPHONOVNA**

UMUMIY PEDAGOGIKA
5111800-maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun
o'quv qo'llanma

O'QUV QO'LLANMA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**RAXMONOVA GULLOLA SHAVKATOVNA
HAKIMOVA NARGIZA SUPHONOVNA**

UMUMIY PEDAGOGIKA

*5111800-maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun
o‘quv qo‘llanma*

“KAMOLOT NASHRIYOTI”

Buxoro -2022

UO'K 37.013(091)

75.03

Raxmonova Gullola Shavkatovna, Hakimova Nargiza Suphonovna / Umumiy pedagogika [Matn], o'quv qo'llanma. – BUXORO. “BUXORO DETERMINANT” MCHJ Kamolot nashriyoti-2022 370 b.

KBK 74.03 r75

Mazkur o'quv qo'llanma 5111800-maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan bo'lib, talabalarda pedagogikaning umumiy asoslari, o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish, o'quv-me'yoriy hujjatlar bilan ishlash hamda ta'lim olganlikni tashxis etish qonuniyat va tamoyillari, milliy va jahon pedagogik fikrlari taraqqiyoti bilan tanishtirish hamda pedagogik merosdan samarali foydalanish ko'nikma va mapakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Taqrizchilar:

BuxDU maktabgacha ta'lim kafedrası mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD): **R.A.Qo'ldoshev**

BuxMTI dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi: **Sh.X.Samiyeva**

ISBN: 978-9943-8333-3-3

Ushbu o'quv qo'llanma Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil “17” martdagi “106”-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berildi. Ro'yxatga olish raqami 106-248

© **Kamolot nashriyoti**

©**Raxmonova Gullola Shavkatovna**

©**Hakimova Nargiza Suphonovna**

KIRISH

Shaxs va uning kamoloti muommosi o‘z taraqqiyotining yuksak cho‘qqisiga intilayotgan jamiyat uchun eng dolzarb masalalardandir. O‘zining taraqqiyoti yo‘lida borayotgan O‘zbekiston Respublikasida har bir fuqoroning ma‘naviyati, shaxsiy rivoji va kamolati, shaxs va jamiyat manfaatlarining uyg‘unligi har qachongidan ham muhim qadriyat sifatida qaralmoqda. Yosh avlod tarbiyasi va uning mukammal ta‘lim va tarbiya olishi masalalari davlat siyosati maqomidarajasida qilinayotganligi – bu fikrning yorqin isbotidir. Shuning uchun ham shaxs va jamiyatning o‘zaro uyg‘unligini uzviy bog‘liq dolzarb muammo tariqasida o‘rganuvchi fan va ilmiy-tadqiqot sohasi, ular tomonidan qo‘lga kiritiladigan yutuqlar aynan mamlakatimizda “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunni ijtimoiy hayotga tadbiq etishda o‘z hissasini qo‘shmog‘i lozim. Bu borada maktabgacha ta‘lim yo‘nalishlarida o‘rganadigan “Umumiy pedagogika” fani o‘zining maqsadi va vazifasi nuqtai nazardan kata ahamiyatga molikdir.

2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunda jamiyat kishilarining, ayniqsa, yoshlarning aqliy zakovati va ruhiy-ma‘naviy salohiyatini yuksaltirish uchun ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish, uning mazmuni va tuzilishini jahon andozalariga muvofiqlashtirish, o‘quv-tarbiya sohasidagi muammolarni izchillik bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirish nazarda tutilgan. Yangilangan ta‘lim tizimi, o‘qitish mazmuni asosida o‘quv darsliklari, o‘quv qo‘llanmalarining yangi avlodini yaratish, o‘quv-tarbiya jarayonini, o‘qituvchi faoliyatini texnologiyalashtirish, dars shakllarini loyihalashtirishga yangicha yondashishni talab qilmokda.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim islohotlari, pedagogika fanining mavzusi, ilmiy tadqiqot metodlari, shaxs, uning shakllanishi, rivojlanishi va tarbiya, tarbiya nazariyasi, ta‘lim nazariyasi hamda turli tarixiy davrlarda pedagogik bilim, maktab, maorif masalalari yangi pedagogik ta‘lim konsepsiyasi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgan.

1-MAVZU.O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Tayanch tushunchalar: *“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, ta’lim tizimi, ta’lim turlari, ta’lim shakllari, ta’lim prinsiplari, pedagogik faoliyat.*

1.1. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi islohotlar.

Ta’limni modernizatsiyalash – an’anaviylikdan zamonaviy o‘qitish shakllariga o‘tish, jahon standartlari darajasida ta’lim mazmunini takomillashtirish, texnik bazani mustahkamlash, ta’lim taraqqiyoti va kadrlar raqobatbardoshligini ta’minlovchi jarayondir

Bugungi kunda ta’limdagi eng muhim strategik yo‘nalish – ta’lim tizimini modernizatsiya qilishdir. Zamonaviy sharoitda ta’lim sivilizatsiyaviy (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy) funksiyalarni bajaradi, shuningdek insoniyat to‘plagan ilmiy bilimlarni, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish, kreativ shaxsni shakllantirish, pirovardida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Bu boradagi ko‘zlangan maqsadlarga ta’limning mazmunini isloh etmasdan erishib bo‘lmaydi.

Ta’limni modernizatsiya qilishdan maqsaduning mazmunini takomillashtirishdan iborat.

Ta’lim, fan va ishlab chiqarish hamkorligidan kelib chiqib, “kadrlar bozori”ga raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash

Ijtimoiy ehtiyoj, ta’lim oluvchilarning talablari, mintaq va xududning manfaatlarini inobatga olish

Ta’limtarbiyaning shakl va metodlari, pedagogikpsixologik shartsharoitlari, omillari, vositalarining o‘zaro nisbatini, uyg‘unligini ta’minlash

O‘qituvchining kasbiy kompetentligi, kreativligi, mahorati, ilmfanning ilg‘or yutuqlaridan xabardorligi va chet tili savodxonligi.

DTS, o‘quv reja, o‘quv dasturlarni davr talabi asosida takomillashtirishning muntazamligi, moddiytexnika bazani mustahkamlash, innovatsiyalarni keng joriy etish va xorij tajribalari asosida yanada boyitish.

Uzluksiz ta’lim tizimida ta’limtarbiya samaradorligini oshirish – ta’lim mazmunini modernizatsiyalashning poydevoridir.

Ta’limni modernizatsiya qilishning asosiy masalalari:

- “Ta’lim natijasi va uning sifat darajasi qay darajada bo‘ladi?”

- “Kim uchun o‘qitish kerak?” (qanday talabani, qanday talablar asosida, kimlar uchun)

- “Qanday tartibda va qaysi tizimda o‘qitish kerak?” (qanday pedagogik texnologiyalar asosida)

- “Qancha o‘qitish kerak?” (qanday me'yoriyuslubiy baza sharoitida)

- “Kimlar o‘qitishi lozim” “Kimlarni o‘qitish kerak” “Nimani o‘qitish kerak?” (qanday sharoitida va qanday talablar asosida)

- “Qanday moddiy texnik baza asosida o‘qitish lozim”.

Ta'lim tizimida modernizasiyaning vazifalari:

Davlat tomonidan teng huquqli to‘liq ta'lim olish imkoniyatlari va kafolatlarini ta'minlash;

- Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasbhunar va Oliy ta'limni yangi zamonaviy sifat darajasiga erishish;

- Ta'lim tizimiga byudjetdan tashqari mablag‘larni jalb etish va ulardan foydalanishning me'yoriy–huquqiy va tashkiliyiqtsodiy mexanizmlarini takomillashtirish;

- Ta'lim sohasidagi xodimlarining ijtimoiy mavqei va professional salohiyatlarini oshirish va bunda davlat va jamiyat tomonidan qo‘llab quvvatlashni yanada kuchaytirish.

Ta’lim tizimini modernizatsiyalash

Ta'limning maqsad va funksional vazifalarini belgilab olish

AKT ning rolini ta'lim tizimida oshirish

Ta'lim va o‘quv muhitini takomillashtirish


Zamonaviy ta'lim tizimida o‘qituvchining rolini o‘zgartirish

Ta'lim oluvchilarda ta'lim olish va uni tashkillashtirishga bo‘lgan motvasiya (xohish va istaklar)ni kuchaytirish.

1.2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

Mamlakatimizda mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab ta'lim sohasida eski yondashuvlardan butunlay voz kechilib, yangicha tamoyillarga, milliy qadriyat va an‘analarimizga, ilg‘or jahon tajribasiga asoslanib, hayotimizni tubdan yangilash, uzoq va davomli maqsadlarimizni amalga oshirish uchun ta'lim va tarbiya sohasiga ustuvor ahamiyat qaratilib, bor kuch va imkoniyatlar shu yo‘lda safarbar etilib kelinmoqda.

O‘zbekistan Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunlari



O‘zbekiston Respublikasining amaldagi “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma’qullangan va 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan.

Mazkur Qonunning maqsadi ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni 11 bob va 75 moddadan iborat.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

davlat akkreditatsiyasi — davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta’lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta’lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablariga hamda o‘quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e’tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon;

davlat ta’lim muassasasi — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo‘lgan molmulk negizida tashkil etilgan, davlat ta’lim standartlariga va davlat ta’lim talablariga muvofiq ta’lim beradigan muassasa;

davlat ta’lim standartlari — davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta’lim talablari — ta’limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shartsharoitlariga, shuningdek ta’lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan majburiy talablar;

malaka — shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma’lumot to‘g‘risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko‘nikmalar darajasi;

mutaxassislik — malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

Oldingi tahrirga qarang.

nodavlat ta'lim tashkiloti — davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

tarbiya — aniq maqsadli hamda ijtimoiytarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviyaxloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

ta'lim kampusi — yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiytadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'limtarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborotresurs markazlarini (kutubxonalarini), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish ob'ektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviyaxloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'limtarbiya muhiti;

ta'limtarbiya jarayoni ishtirokchilari — ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning otaonalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi — ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

1.3. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari.

Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

ta'lim ustuvorligining tan olinishi;

ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;

ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;
ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;

ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
ta'limning uzluksizligi va izchilligi;

o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;

davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;

insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;

jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;

ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;

bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;

ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;

ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

Ta'lim olish huquqi:

ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;

ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llabquvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish;

ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limni va boshlang'ich professional ta'limni bepul olish;

oilada yoki mustaqil o'qish orqali ta'lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiy o'rta ta'lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o'tgan davlat ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

1.4. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimi.

Ta’lim tizimi:

davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini;

davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlarini;


ta’lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;

ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiypedagogik muassasalarni;

ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim tizimi yagona va uzluksizdir.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim turlari:



Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviyaxloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar);

tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar);

o'rta ta'lim (X — XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasbhunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

Professional tashxislash va kasbhunarga yo'naltirish, shuningdek ta'lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'lim umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi.

Oʻrta maxsus taʼlim akademik litseylarda toʻqqiz yillik tayanch oʻrta taʼlim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va taʼlim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasbxunarga va shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim olishini taʼminlaydi.

Nodavlat taʼlim tashkilotlarida umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim toʻlovshartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Iqtidorli va isteʼdodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktabinternatlar tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari boʻlgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj boʻlgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan taʼlim muassasalarida, umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda taʼlim oladi.

Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) taʼlim oluvchilar soni oʻttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

Professional taʼlim egallanadigan kasb va mutaxassislik boʻyicha quyidagi darajalarni oʻz ichiga oladi:

boshlangʻich professional taʼlim;

oʻrta professional taʼlim;

oʻrta maxsus professional taʼlim.

Boshlangʻich professional taʼlim kasbhunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi taʼlim shakli boʻyicha umumtaʼlim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Oʻrta professional taʼlim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki toʻlovshartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha boʻlgan kunduzgi, kechki va sirtqi taʼlim shakllari boʻyicha umumiy oʻrta, oʻrta maxsus taʼlim hamda boshlangʻich professional taʼlim negizida amalga oshiriladi.

Oʻrta maxsus professional taʼlim texnikumlarda umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, boshlangʻich professional va oʻrta professional taʼlim negizida davlat buyurtmasi yoki toʻlovshartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil boʻlgan kunduzgi, kechki va sirtqi taʼlim shakllari boʻyicha amalga oshiriladi.

Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar oʻrta maxsus, kasbhunar taʼlimi (toʻqqiz yillik umumiy oʻrta va uch yillik oʻrta maxsus, kasbhunar taʼlimi) olgan fuqarolar ham oʻrta professional va oʻrta maxsus professional taʼlim olish huquqiga ega.

Kasbhunar maktablari, kollejlari va texnikumlar taʼlim oluvchilarning oʻzi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega boʻlishini taʼminlaydi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi professional taʼlimni olish huquqiga ega.

Oliy taʼlim bakalavriat taʼlim yoʻnalishlari va magistratura mutaxassisliklari boʻyicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini taʼminlaydi.

Oliy maʼlumotli kadrlarni tayyorlash oliy taʼlim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy oʻrta (oʻn bir yillik taʼlim), oʻrta maxsus (toʻqqiz yillik tayanch oʻrta va ikki yillik oʻrta maxsus taʼlim), boshlangʻich professional taʼlim (toʻqqiz yillik tayanch oʻrta va ikki yillik boshlangʻich professional taʼlim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar oʻrta maxsus, kasbhunar taʼlimi (toʻqqiz yillik umumiy oʻrta va uch yillik oʻrta maxsus, kasbhunar taʼlimi) olgan shaxslar oliy maʼlumot olish huquqiga ega.

Oliy taʼlim ikki bosqichga — bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Bakalavriat oliy taʼlim yoʻnalishlaridan biri boʻyicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va koʻnikmalar beradigan, oʻqish davomiyligi kamida uch yil boʻlgan tayanch oliy taʼlimdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik boʻyicha oʻqish davomiyligi kamida bir yil boʻlgan oliy taʼlimdir.

Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq boʻlgan bakalavriat taʼlim yoʻnalishlarining roʻyxati taʼlim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy maʼlumotni olish huquqiga ega.

Oliy taʼlimdan keyingi taʼlimni oliy taʼlim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin.

Oliy taʼlimdan keyingi taʼlim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur oʻrganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan

tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiypedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiypedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiypedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiypedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Ilmiy va ilmiypedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish tartibi, shuningdek harbiy, tibbiyot va boshqa ta'lim tashkilotlarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim olish xususiyatlari qonunchilikda belgilanadi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limning davom etish muddati qonunchilikda belgilanadi.

Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi.

Maktabdan tashqari ta'lim

Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniyestetik, ilmiy,

texnikaviy, sport yoʻnalishidagi maktabdan tashqari taʼlim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.

Maktabdan tashqari taʼlim bolalarga uzluksiz taʼlim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning isteʼdodi va qobiliyatini rivojlantirishga, maʼnaviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari taʼlim tashkilotlari jumlasiga bolalar, oʻsmirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, «Barkamol avlod» bolalar maktablari, bolalar oʻsmirlar sport maktablari, bolalar musiqa va sanʼat maktablari, studiyalar, axborotkutubxona hamda sogʻlomlashtirish muassasalari kiradi.

Maktabdan tashqari taʼlim berish tartibi taʼlim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Taʼlim olish shakllari

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda taʼlim olish (kunduzgi);
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda taʼlim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
- dual taʼlim;
- oilada taʼlim olish va mustaqil taʼlim olish;
- katta yoshdagilarni oʻqitish va ularga taʼlim berish;
- inklyuziv taʼlim;
- eksternat tartibidagi taʼlim;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

- 1. Modernizatsiya jarayonlari haqida maʼlumot bering.*
- 2. Taʼlimni modernizatsiyalash deb nimani tushunasiz.*

3. *O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim sohasidagi davlat siyosati mazmuniini tushuntiring.*

4. *O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan.*

5. *O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”ti Qonunini o‘qib chiqing va oldingi qonunlar bilan solishtiring.*

6. *Ta‘lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini izohlang.*

7. *O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta‘lim tizimi haqida ma‘lumot bering.*

8. *Ta‘lim olish shakllariga izoh bering.*

9. *Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi haqida ma‘lumot bering.*

2- MAVZU: PEDAGOGIKA SHAXS TARBIYASI VA RIVOJLANISHI TO‘G‘RISIDAGI FAN. ILMIY-PEDAGOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI VA METODLARI

Tayanch tushunchalar: pedagogika fani, asosiy kategoriyalar, pedagogik fanlar tizimi, ta‘lim, tizim, tarbiya, taraqqiyot, sifat, ilmiy tadqiqot.

2.1. Pedagogika fani va uning asosiy kategoriyalari.

XXI — asr aql zakovat, ma‘naviyat, ma‘rifat uzluksiz rivojlanib boruvchi asr desak adashmagan bo‘lamiz. Bunda insonparvarlik, komillik iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotning huquqiy, axloqiy estetik tamoyili sifatida erkin, demokratik fukarolik jamiyatini qurishning bosh mezoni bo‘lib qoladi. Shunday jamiyat kishilarini, asosan yosh avlodda komillik, insonparvarlik his to‘yg‘ularini shakllantirishi, hayotiy zaruriyatga aylanishi qonuniyat bo‘lib qoladi. Shunga asosan tarbiya to‘g‘risidagi fan ijtimoiy siyosiy fanlar tizimida eng muhim fanlardan biriga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan yondashilganda pedagogika fani keng qamrovli, yangicha axloqiy estetik g‘oya, tushuncha, fikr, ta‘lim tarbiyaning yangicha metodologik asosini boshlab beruvchi fan sifatida maydonga keladi. Zero, pedagogika fani tarbiyashunoslik to‘g‘risidagi fandır.

Darhaqiqat, kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davrida pedagogika fanning alohida o‘rni, funksiyasi, ilmiy bilish sohasi

bo'lgan va shunday bo'lib koladi. Chunki, pedagogika tarbiya to'g'risidagi fandır. Tarbiya esa yosh avlodga ijtimoiy siyosiy tajribasini zarur bilimlar va amaliy ko'nikmalar ko'rinishida berish vositasini o'tagan, ularni mehnatga va hayotga tayyorlash omili bo'lgan. Shuning uchun ham yosh avlodni tarbiyalash pedagogika fanining predmeti bo'lib hisoblanadi. Tarbiya ijtimoiy hayotning tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hamma davrlarda tarbiya jamiyat, ishlab chiqaruvchi kuchlarini, mehnat jarayonlarini, insonni o'zini, uning ma'naviy va jismoniy imkoniyatlarini rivojlantiruvchi kuch bo'lgan. Shuning uchun jadid tarbiyashunosligining namoyondalaridan biri Abdullo Avloniy «tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir», deb bejiz aytmagan. Shunday qilib, pedagogikaning predmeti (o'rganish sohasi, mavzusi) barkamol avlodni tarbiyalash, uni hayotga, mehnatga, ijtimoiy foydali faoliyatga tayyorlashdan iboratdir.

Tarbiya hamma vaqt ham jamiyat uchun, ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot uchun juda muhim vazifasini bajargan. Zero, u avvalo har bir insonning o'ziga qaratilgandır. Ammo tarbiya har bir taraqqiyot bosqichi uchun o'z maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakl, metod va vositalari bo'yicha o'zgarib boradi. Bu o'zgarishlar ijtimoiy munosabatlarning shaxs munosabatlari bilan chambarchas boglanib borishi bilan bog'liqdir. Mamlakatda qanday ishlab chiqarish kurollarining xukmronlik qilishiga karab, ushbu jamiyat uchun mazkur ishlab chiqarish kurollari, vositalarini amalga oshiruvchi tayyorgarlikka ega bo'lgan kishilar talab etiladi. Bunday kishilarni tayyorlash uchun har bir ijtimoiy — iqtisodiy taraqqiyot davrida tarbiya o'z tizimiga ega bo'ladi. Bu tizim mazkur jamiyat va davr talablarini hisobga olishga qaratilgan. Natijada tabiatdagi, jamiyatdagi muammolar insoniyatni ma'naviy axloqiy, ruhiy aqliy rivojlanishga yo'naltirib, unga o'zining yangi xazinalarini ochib beraveradi. Tarbiya hamma vaqt yosh avlodning barkamol ruhiy dunyosi, ma'naviy axloqiy yetukligi, jismoniy sog'lomligi va bakuvvatligini ta'minlashga xizmat kilib keldi va shunday bo'lib qoladi.

O'quv - tarbiya masalalaridagi o'quv jarayonida tarbiya, ta'lim va ma'lumot o'zaro bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Har qanday fan o'rgatilishi mobaynida o'qituvchi o'quvchilarga fan asoslarini bayon etadi, shu ma'lumotlar (tushuncha, qoida

ta'riflar) asosida ta'lim — tarbiyaning biror elementi yoxud tomoni hal etiladi, o'quvchilar dunyokarashi shakllantiriladi, ma'naviy — ma'rifiy sifatlari tarkib topa boradi.

Tarbiya ijtimoiy hodisasi va qadimiy tushuncha bo'lganligi

sababli pedagogika fani ham qadimiy fanlar toifasiga kiradi. Shunga asosan: pedagogika so'zi qadimiy Yunonistonda paydo bo'ldi. **“Pedagogika”** so'zi yunoncha “paidagogos” (pais, paidos – bola va + agogos – yetaklovchi) so'zidan olingan bo'lib, to'g'ridan to'g'ri “bola yetaklovchi” degan ma'noni anglatadi. Bu yerda quldorlar bolalarini maktabga kuzatib ko'yadilar, o'quv anjomlarini maktabga va maktabdan uygacha olib boradigan qullar pedagog deb atashgan.

Keyinchalik manufakturasining rivojlanishi, ishlab chiqarish qurollarining murakkablanishi va maktab ta'limi tarbiyasi mazmunnig o'zgarishi munosabati bilan maxsus tayyorgarlik ko'rgan va ta'lim tarbiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan shaxslarga pedagog deb atala boshlagan. Ko'p vaqtlar pedagogika ilmiy fan sifatida faqat yosh avlodning ta'lim tarbiyasini o'rganadi deb unga tor ma'noga qaralgan. Ammo, hayot tajribasi olamning moddiy — ma'naviy tuzilishi, qurilishi, rivoji, insonning imkoniyatlari, yashash sharoiti, doimiy ravishda uning aqliy- axloqiy, jismoniy xususiyatlari bilan bog'liqligi tarbiyaning faqat bolalargina emas, balki kattalarga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Shuning uchun ijtimoiy - siyosiy hayot va taraqqiyotning keyingi bosqichlarida pedagogika fanini yoshlar va katta yoshdagi kishilarni tarbiyalash, o'qitish va ma'lumotli qilishning qonuniyatlari, shakl, vositasi metodlarini o'rgatuvchi fan sifatida qabul qilishga asos solindi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogika faninig o'rganish sohasi (predmeti) tarbiya – ta'lim - ma'lumot bo'lib, u yosh avlodni, tarbiyalash, o'qitish, ma'lumotli qilishning qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalarini o'rgatadi. Shuningdek pedagogika fani o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish, intellektual jihatdan rivojlantirishning ma'naviy didaktik shart-sharoitlarini yaratish va ta'minlashtirishni nazarda tutadi.

Shunga asosan hozirgi davr pedagogika faning maqsadi umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim maktablarning

bo'lajak o'qituvchilarining, ishlab chiqarish korxonalarining bo'lajak rahbarlarini ma'naviy-axloqiy ta'lim tarbiyaning ilmiy nazariy asoslari, kasb ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirishda pedagogika fani kuyidagi vazifalarni o'qitishni nazarda tutadi:

Yosh avlodni o'qitish, ma'lumotli qilish, tarbiyalashning davr talablari asosida mazmun, shakl, usul vositalarini ishlab chiqish;

Ta'lim tarbiya jarayonini optimalashtirish (qulaylashtirish) loyihalashtirish, unga tizimli yondashishning metodologik asoslarini ishlab chiqarish;

O'quv tarbiya jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishning ilmiy metodik asoslarini yaratish;

O'qituvchi (tarbiyachi)ning pedagogik mahorat, ijod, tajribalarning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish;

O'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalarini test usuli va xalqaro dasturlar doirasida baholashning ilmiy pedagogik asoslarini ishlab chiqish.

Insonshunoslik fanlari tizimida pedagogika faning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u shaxsni shakllantirish va rivojlantirish uchun tarbiya, ta'lim, ma'lumot qonuniyatlarini o'rganadi va ularning yaxlitligini, uyg'unligini ta'minlash uchun pedagogik shart sharoitlar yaratadi. Shu bois **pedagogika fanining asosiy tushunchalari (kategoriyalari)** tarbiya, ta'lim va ma'lumotdir.

Pedagogikaniig birbiri bilan uzvny bog'langan muhim tushunchalari quyidagilardir: tarbiya, ta'lim, ma'lumot, inson kamoloti, insonning shakllanishi, o'qitish, tarbiyaning asosiy qonunlari va maqsadi, pedagogik jarayon, pedagogik muhit, tarbiya turlari (aqliy, huquqiy, iqqisodiy, mehnat, ekologik, axloqiy, jismoniy va estetik), tarbiya uslublari, ta'lim metodlari, pedagogikpsixologik tushuichalar (ruhiyat, shaxs, faoliyat, o'zo'zini anglash, muloqot, ruhiy jarayon va holat, malaka, qobiliyat, jo'shqinlik, xarakter, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, sezgi, hissiyot, o'rgannsh va o'rgatish).

Yuqorida keltirilgan pedagogik tushuncha (kategoriya) larning barchasiga ta'rif berish va izohlash mavzuimiz hajmiy darajasi imkonidan tashqari bo'lganligi bois pedagogikada eng ko'p qo'llaniladigan asosiy tushunchalargagina izoh berishni lozim topdik.

Tarbiya har bir insonning hayotda yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayoni.

Ta'limga umumiy tarzda quyidagicha ta'rif berish mumkin:

ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, rejali ravishda amalga oshiriladigan o'qituvchi o'quvchilarning o'zaro muloqotmunosabati bo'lib, o'quv fanlariga oid tushinchalarni va yetakchi g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirib borishga asoslanadi. Buning natijasida o'quvchida ma'lumot, tarbiya va umumiy shakllanish, rivojlanish amalga oshadi.

Ta'lim berish o'quvchilarga bilimni tartibli bayon qilish jarayonidir. Ta'lim va tarbiya uzviy bog'langan jarayon bo'lganligi sababli tarbiyalangan komil inson aqliy kamolotiga tartibli ta'sir ko'rsatish orqali ilmi, barkamol inson bo'lib yetishadi.

Ta'lim inson aqliy kamolotini yuzaga chiqaruvchi pedagogika tarbiyashunoslikning bir qismidir. Pedagogikaning didaktika bo'limi uni atroflicha o'rganadi.

Ma'lumot o'qitish va o'zicha mustaqil bilim olish jarayoni bo'lib, uning natijasida kishida bilim, iqtidor, malaka va ijobiy qobiliyatlarning rivojlanganligi, ilmiy dunyoqarashning shakllanganligi nazarda tutiladi. Pedagogik ma'lumot o'rta va oliy darajada bo'lib, o'rta ma'lumot maxsus akademik litsey, pedagogik kollejlarda bosqichln shaklda boriladi. Natijada o'rta ma'lumot haqidagi guvohnoma beriladi. Oliy pedagogik ma'lumotli mutaxassislar universitetlarda, pedagogika institutlarda, bakalavriat va magistratura bosqichlarida tayyorlanadi

Odam biologik mavjudot sanaladi, tabiiy, biologik va ijtimoiy qonuniyatlarga bevosita bo'ysunadi. Boshqacha qilib aytganda, shaxs, inson tirik organizmdir, shu sababli uning hayoti biologiyaning umumiy qonunlariga, yoshlaranatomiyasi va fiziologiyasining maxsus qonunlariga bo'ysunadi. Bulardan tashqari odamning komil inson bo'lib yetishuvida aniq maqsad asosida tashkil etilgan xatti-harakat, iroda sifatlarining kamol topipga asosida ayrim nuqsonlarning bartaraf etilishi qiyinchiliklarni yengib o'tishga bo'lgan ishonchi ham muhim ahamiyatga egadir.

Tarbiya pedagogik kategoriyadir.

Har bir fan o'zining tushunchalari, qonuniyatlari, prinsiplari qoidalari sistemasiga ega. Fanning mohiyatini ifodalovchi eng

muhim, asosiy tushunchalarni k a t y e g o r i y a deb atayodilar. Pedagogika tarbiya haqidagi fan bo'lganligi uchun keng pedagogik tarbiya, shuningdek unga kiruvchi ma'lumot, o'qitish va ancha tor ma'nodagi tarbiya uning asosiy kategoriyalaridir.

Sotsial ma'nodagi "tarbiya" tushunchasi insonning tevarak – atrofidagi sotsial sharoitlar, inson yashayotgan ijtimoiy tuzumning unga ta'siri sifatida tushuniladi.

Tarbiya haqida unga keng pedagogik ma'no bergan holda gapiriladigan bo'lsa, ta'lim – tarbiya muassasalari sistemasida amalga oshiriladigan butun o'quvtarbiya protsessini biror maqsadga muvofiq oldindan qo'yilgan xolda tashkil etilish tushuniladi. Biror maqsadga qaratilgan, yaxshi tashkil etilgan tarbiyaning maqsadi mehnat va ijtimoiy faoliyatga hamda Vatan xizmati va himoyasiga tayyor bo'lgan, har tomonlama va garmonik rivojlangan shaxsni tarkib toptirishdan iborat.

Tor ma'nodagi tarbiya so'zi "tarbiyaviy ish" tushunchasiga tengdir. U tarbiyaviy ishda e'tiqod, axloqiy, estetik sifatlar, did, ijtimoiy ahloq normalarini tarkib toptirishga qaratilgan bo'ladi.

Ta'lim – shunday bilish jarayoniki, unda o'quvchilar (bilim oluvchilar), o'qituvchilar (bilim o'rgatuvchi) rahbarligida ilmiy bilimlar bilan qo'rollanadilar, dunyoqarashlarini shakllantiradilar, ma'naviyaxloqiy salohiyatlarini yuksaltiradilar, aqliy (intelektual) va jismoniy kuchlarini rivojlantiradilar.

Ilm olish va ta'lim berish.

Ilm olish deganda ilmiy bilimlar hamda bilishga oid malaka va ko'nikmalar sistemasini egallab olish natijasi va ularni egallash protsessi tushuniladi. Ular asosida shaxsning dunyoqarashi, ahloqiy sifatleri tarkib topadi, ijodiy qobiliyati rivojlanadi.

O'qitish o'qituvchi bilan o'quvchilarning o'zaro munosabatidan iborat bo'lgan, biror maqsadga qaratilgan protsessdir. Bu protsess davomida o'qituvchi bilim, ko'nikma va malakalar sistemasini beradi, o'quvchilar esa bularni o'zlashtirib oladilar, bu protsessda inson tarbiyalanadi va kamol topadi. Agar o'qituvchining rahbarlik roli o'quvchilarning bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashdagi aktivligi bilan qo'shib olib borilmasa o'qitishdan ko'zlangan maqsadga erishilmaydi. O'qituvchi faqat bilim berib qolmaydi, balki o'quvchilar bilish faoliyatining tashkilotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari shaxs kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi. Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: shaxs, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, ma'lumot, shakllantirish, rivojlantirish.

Shaxs – psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xattiharakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulqatvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulqatvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Ta'lim – o'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, kompetentlikni tarkib toptirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, umumlashmalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Ko'nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish layoqati.

Malaka – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Kompetensiya – egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Ma'lumot – ta'lim tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Shakllantirish – shaxsda barqaror xususiyat va sifatlarni belgilangan talab va me'yorlar asosida tarkib toptirish jarayoni.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Xullas, pedagogikaning asosiy kategoriyalari tarbiya, ta'lim, ma'lumot jarayonida o'quvchilar ma'naviy axloqiy yuksaklikning ko'tariladigan, qo'lga kiritilgan ilmiy bilimlar yordamida dunyoqarashlarini shakllantiradilar, intellektual qobiliyatlari, ijodiy

tafakkurlari, aqliy faolliklarini o'qitadilar, jismoniy kuchlarini rivojlantiradilar.

2.2.Pedagogika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi.

Dastlabki pedagogik vazifalar va ularning yechimini topishga karatilgan faoliyat hamda pedagogik fikr taraqqiyotiga Qadimgi Rim faylasuflari – Lukresiy Kar (yer.av.9954yillar), Mark Fabiy Kvintalian (4218 yillar), o'rta asrlarda Kvint Tertulian (160220 y.), Avreliy Avgustin (354430yy.), Foma Akvinskiy (12251275yy.). Uyg'onish davri mutafakkirlari Viterino da Feltre (13781446), Xuan Vives (1442 – 1540y), Yerazm Rotgerdamskiy (1469 – 1536 yy.), Fransua Rable (1494 – 1533y.), Mishel Monten (15331592y.)lar o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shdilar.

Pedagogika mustaqil fan va nazariy pedagogik soylar sohosi sifatida XVII – XX asrlarda rivojlandi. U dastavval ingliz tabiatshunosi Fridrix Bekon (1561 – 1626) tomonidan falsafa fani mazmunidan ajratilib ta'lim va tarbiya qonuniyatlarini o'rganuvchi mustaqil fanpedagogika fani bo'lishi lozim degan g'oya asosida nazariy pedagogik fikrlar soha degan tavsiya asosida erkin rivojlandi. So'ngra pedagogika fani chex pedagogi YaN Amos Kolinskiy (15921670 y) "Buyuk didaktika" (1657) asarida ta'lim prinsiplari, shakllari, o'qitish mazmuni, sinfdars tizim g'oyalarning iste'molga kiritilishi pedagogikaning fan sifatida mustaqil rivojlanishi asos bo'ldi.

Pedagogikaning tarbiya fani sifatida rivojlanishida ingliz faylasufi va pedagogi Jon Lokk (1632 – 1704) va uning asari "Tarbiya haqida fikrlar", fransuz ma'rifatparvari J.J.Russo (1712 – 1778)ning "Erkin tarbiya" nazariyasi, shveysariyalik pedagog I.G.Pestalossi (1746 – 1827)ning bolalar tarbiya protsesslarida nazariy g'oyalarni, amaliy faoliyat bilan qo'shib olib borish thg'risidagi g'oyasi, nemis filosofi, psixologi va pedagogi I.F.Gerbardt (17761841)ning tarbiyalovchi ta'lim nazariyasi, A.Disterverg (17901866)ning rivojlantiruvchi ta'lim g'oyalari pedagogika fanining mustaqil fan sifatida taraqqiy etishiga asos bo'ldi.

Rossiyada V.T.Belinskiy(1811-1848y.), A.I.Gersen (1812 – 1870yy.), N.A.Dobrolyubov (1826 – 1861y.), N.G.Qernishevskiy (1828 – 1889yy.), L.N.Tolstoy (1828 – 1900yy.), A.I.Piragov (1810-

1881yy.), K.D.Ushinskiy (1824 – 1871yy.), V.A.Suxomlinskiy (1918 – 1971yy.)lar pedagogika fanining rivojiga katta hissa qo‘shib, uning tarbiya nazariyasi sifatidagi fundamental fan ekanligini ilmiy asoslab berdilar.

Pedagogika fanining yuqorida izohlangan konsepsiyalar yo‘nalishlarida shakllanishi va rivojlanishida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ulushlari ham beqiyos... IX – asr ensiklopedist – mutafakkiri Muhammad Muso al-Xorazmiy (780-850) o‘zining “Kitob al jabr almuqobala”, “Ziji Xorazmiy”, “Astrolyabiya bo‘yicha risola”, “Quyosh soati haqida risola”, “Musiqqa bo‘yicha risola”, “Tarix haqida” kabi asarlari bilan pedagogikaning ta‘lim nazariyasini boyita oldi. O‘qitishning teskari aloqa metodini ilmiy asoslab, uning didaktik xususiyatlarini amaliy jihatdan izohladi.

Ijtimoiy tarbiya, axloqiy shakllanish g‘oyalari bilim har tomonlama insonni va insoniyatni rivojlantirish to‘g‘risida ta‘limotni ilgari surgan **Abu Nasr Forobiy (873-950)** pedagogikani ilg‘or ilmiy g‘oyalar bilan boyitdi. Uning “Fozil shahar aholisining qarashlari,” “Baxt – saodatga erishish haqida traktat”, “Donolik javhari”, “Musiqqa xaqida so‘z” nomli risolalarida insonning fozillikka, mukamallikka erishuvi, yaxshilik ko‘rsata olishi, uning ahloqiga, aqliga, bilim va ma‘rifatga egaligiga bog‘liqligini ta‘kidlab, bilim olish, tarbiya ko‘rish insonni baxtsaodatga erishtiruvchi kalit deb bildi. Shuningdek Forobiy o‘z asarlarida ta‘lim, tarbiya, baxsaodat, bilim, ko‘nikma, malaka to‘g‘risida so‘z yuritib pedagogika nazariyasi va amaliyotini boyitdi.

Xorazmlik buyuk olim, mutafakkir **Abu Rayxon Beruniy (973-1078)** garchi pedagogika faniga doir maxsus asar yozmagan bo‘lsada, o‘zining “Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar”, “xindiston”, “Saydana”, “Mas‘ud qonuni” kabi asarlarida axloqiy – ma‘rifiy masalalarni ko‘tardi. U birinchilardan bo‘lib, o‘qitishning ko‘rgazmalilik, ketmaketlik, maqsadga yo‘nalganlik, bilim oluvchining yoshiga, kuchiga, o‘rganish qobiliyatiga mosligi kabi prinsiplarini tavsiya qilib, ularning ilmiy yo‘nalishlarini asosladi. “Mening butun fikryodim, qalbm, deb yozadi Beruniy, bilimlarni berishda o‘quvchilarning kuchiga, yoshiga qarab berishga qaratilgan. Chunki bola yoshiga mos bilimlarni tez o‘zlashtiradi va undan lazzatlanadi. Bu esa bola uchun katta baxt” (Beruniy).

G'arbda va Sharqda "Shayx ur rais – olimlar boshlig'i" unvoniga ega bo'lgan, jahon madaniyati va ma'rifatining rivojiga katta hissa qo'shgan, benaziralloma **Abu Ali ibn Sino (980-1037)** pedagogika fanining rivojiga salmoqli hissa qo'shganlardan hisoblanadi. U o'zining "Donishnoma", "Kitob ul – insof", "Solomon va Ibsol", "Hayy ibn Yaqzon" kabi asarlarida tarbiya va ta'limga oid g'oyalarni aks ettirdi. Ibn Sino tarbiya jarayonini aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, estetik tarbiya, ahloqiy tarbiyaning o'zaro bog'liqligi, yaxlitligida deb bildi. Shunga asosan tarbiya bolalarda yuqorida ta'kidlangan tarbiya komponentlarining mezonlarini singdirish va ularga kasb o'rgatishdan iborat bo'lmog'i darkor deb bildi va shunga tavsiya qildi. U jamoaviy va guruhiy o'quv shakllarini qo'llashga da'vat etdi. Bunday o'qitishda bilim oluvchilar birbirlariga taqlid qilib, birbirlariga tayanib, qiziqib bilim oladilar deb bildi.

Uning axloqiy qarashlari va odobxloq to'g'risidagi g'oyalari "Solomon va Ibsol" qissasida bayon etilgan. Bunda halollik, rostgo'ylik, sadoqat, pok muxabbat va iroda makr va axloqsizlik ustidan g'alabasi ko'rsatadi. U o'zining pedagogikasida "ezgulik", "yovuzlik", "kamtarlik", "axloqiylik", "iroda", "sabrtoqat" tushunchalarining falsafiy pedagogik izohini keltiradiki, bu o'sha davr pedagogikasi uchun ilg'or g'oya edi.

Shuningdek, **Yusuf Xos Hojib (XI asr)** – "Qutadg'u bilig'", ("Baxtga eltuvchi bilim"), **Ahmad Yugnakiy**– "Hibatul haqoyiq", **Alisher Navoiy (1441 – 1501)** "Lison uttayr", "Maqbul ul qulub", **Abduqodir Bedil (1644-1721)**, **Ahmad Donish (1827-1897)** "Navodir ul voqea" ("Nodir voqealar"), **Abdulla Avloniy (1878-1934)** "Turkiy guliston yoxud axloq" va **Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Siddiq Rajabovlar** pedagogika fanining rivojiga munosib hissa qo'shgan ma'rifatparvarlar hisoblanadilar. Ularning orif inson, fozil inson, komil inson to'g'risidagi ta'limotlari, o'qish, o'qitish yo'nalishidagi qarashlari, tavsiyalari hozirgi davr pedagogikasi ya'ni shaxsga – yo'naltirilgan tarbiya va ta'limini joriy etishga qaratilgan yangi insonparvar pedagogikani rivojlantirish uchun dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Davlat va jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyoti va ma'naviy – madaniy hayoti yosh avlodning ta'limtarbiyasi bilan

bog'liq. Zero, ular insonning ma'naviy – ahloqiy yuksalishini ta'minlab, jamiyat taraqqiyotini tezlashishini yo'lga qo'yadi. Chunonchi, tarbiya har qanday tarixiy ijtimoiy davrlarda jamiyat hayoti va taraqqiyoti bilan bog'liq holda shakllanib, takomillashib borgan. Shu bois tarbiya – ijtimoiy hayotning zaruriy hodisasi xisoblanadi. Zero, tarbiya jamiyatning yanada rivojlanishi mamlakatdagi ishlab chiqarish kuchlarini, mehnat jarayonlarini yosh avlodni, insontafakkurini, ma'naviy, madaniy imkoniyatlarini takomillashtirishning zaruriy shartidir., mehnat jarayonida kattalar yoshlarga o'z ish tajribalarini o'rgatishga majbur bo'lishgan. Keyinchalik, hayot taqazosi bilan mehnat qurollarini tayyorlash, ulardan mehnat jarayonida foydalanish, to'g'onlar qurish ishlari birmuncha murakkablashganligi sababli, mehnat qurollarini yasash va ulardan o'z faoliyatlarida foydalanini o'rgatuvchilarga ehtiyoj sezilgan va bu vazifa kattalarning zimmasiga tushgan. Ular yosh avlod to'g'risida g'amxo'rlik qilganlar va to'plangan tajribalarini yoshlarga o'rgatganlar, ularni hayotga tayyorlaganlar. Bunday faoliyat kattalarni ustoz maqomiga ega qilib, yoshlarni hayot va mehnatga tayyorlash uchun tarbiya bilan shug'ullanganlar. Ularni shu davrdan boshlab bolalar va yoshlarni hayot va mehnatga o'rgatuvchilar, ya'ni tarbiyachilar deb atay boshlaganlar. Shunday qilib **tarbiya** –birinchi marotaba faoliyat turiga aylanib, yosh avlodni hayotga o'rgatish, ularni mehnat qilishga yo'llash, tushuni soxasi bo'lib qolgan, hamda inson faoliyati, ongini rivojlantirishning muhim omili sanalgan. Agar faoliyat (tarbiyani amalga oshiruvchi) bo'lmaganida mamlakat va jamiyat katta avlod tomonidan to'plangan tajribalarni yosh avlodga va jamiyat katta avlod tomonidan to'plangan tajribalarni yosh avlodga yetkazish va o'rgatish metodi sifatida qaralmaganda, har bir ijtimoiy taraqqiyot davrida yangi avlod xammasini boshidan boshlashga to'g'ri kelardi. Mana shunday tarzda pedagogika fani maydonga keldi va ijtimoiyiqtisodiy taraqqiyot, ma'naviy ma'rifiy hayotning muhim omili sifatida rivojlandi va davrning o'zgarishi bilan mazmunan va shaklan o'zgarib yangi ko'rinish kasb etdi.

Yuqorida bayon etilgan fikrlar, buyuk mutafakkirlar va ma'rifatparvarlarning pedagogik asoslari, nazariyalari, qarashlarini kuyidagi ilmiypedagogik bilimlarga ajratish mumkin;

- pedagogik bilimlar va g'oyalarning falsafa fani negizida rivojlanishi.

- tarbiya to'g'risidagi qarashlar, nazariyalarning falsafiy – pedagogik ta'limot mazmunida ifodalangan fan sifatida shakllanishi;

- taxminiy, faraziylik va utonik nazariya va qarashlarga asoslangan pedagogikadan, ilmiy asoslangan ta'limotlarni, nazariyalarni ifodolovchi fan sifatida rivojlanish...

- nazariy bilimlarning hayotiy tajriba va amaliyotda natijalarni qamrab oluvchi fan sifatida taraqqiy etganligi.

2.3. Pedagogik fanlar tizimi.

Pedagogika tarbiya, ta'lim o'qitish ma'lumot haqidagi qator nazariy va amaliy fanlarga bo'linadi. U bunday bo'linishiga uzoq tarixiy jarayonda o'qitish o'qish muammolari bilan shug'ullanuvchi fan sifatida shakllandi va o'zining ilmiy nazariy, metodik amaliy xillariga ega bo'ldi.

Pedagogika fanlari tizimiga quyidagilar kiradi:

1. **Umumiy pedagogika** – ta'lim va tarbiyaning asosiy qonuniyatlarini tadqiq qiladi.

2. **Yosh pedagogikasi** – turli yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. Maktabgacha pedagogika, maktab pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi, katta yoshdagilar pedagogikasi (andragogika)ga bo'linadi.

3. **Maxsus pedagogika (defektologiya)** aqliy, ruhiy, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni o'qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini, printsiplarini, maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini hamda shaklini o'rganuvchi fandır. Bu o'z navbatida to'rt yo'nalishga bo'linadi:

a) surdopedagogika – kar va soqov bolalarning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

b) tiflopedagogika – ko'zi ojizlarni bolalarning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

s) oligofpenopedagogika – aqliy jihatdan zaif bolalarning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

d) logopediya – nutqi yaxshi rivojlanmagan bolalarning ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

4. **Metodika** – pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, matematika metodikasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi va shu kabilar.

5. **Pedagogika tarixi** – turli tarixiy davrlarda pedagogik g‘oyalarning va tarbiyaning taraqqiyotini o‘rganadi.

6. **Ijtimoiy pedagogika** – ijtimoiy munosabatlar jarayonlarida pedagogik g‘oyalarning tutgan o‘rni va roli, shaxsni ijtimoiy faoliyatga yo‘naltirish muammolarini o‘rganadi.

7. **Qiyosiy pedagogika** – turli mamlakatlarning ta’limtarbiya tizimini, maorif taraqqiyotini taqqoslashni o‘rganuvchi pedagogikaning mustaqil sohasidir.

8. **Xalq pedagogikasi** – turli xalq, millat va elatlarning xalq og‘zaki ijodidagi ta’limtarbiya to‘g‘risidagi pedagogik g‘oyalarning mohiyatini, mazmunini o‘rganuvchi pedagogikaning mustaqil sohasidir.

9. **Pedagogik mahorat** – bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o‘rganadi.

Hozirgi davrda fanlar integratsiyasi jarayonida paydo bo‘lgan pedagogikaning zamonaviy tarmoqlari ham shakllanib, rivojlanib bormoqda.

Pedagogik aksiologiya pedagogik yangiliklar, innovatsiyalarning pedagogik jamoatchilik tomonidan o‘zlashtirilish darajasini baholash, idrok etish haqidagi nazariy bilimlar.

Pedagogik akmeologiya – o‘qituvchining kasbiy faoliyatining eng yuksak bosqichiga etish muammolarini o‘rganuvchi fan.

Pedagogik riskologiya – pedagogik vaziyatlarda eng muhim qarorlar qabul qilish jarayonida tavakkalchilik xususiyatlarini o‘rganadi.

Pedagogik kvalimetriya – pedagogning faoliyat jarayonida erishadigan sifat va samaradorlik darajalarining o‘lchovi va mezonini o‘rganadi.

Neyropedagogika inson miyasining ijodiy imkoniyatlarini aniqlash va amaliy (funktsional) rivojlantirish, shaxsda faoliyatga nisbatan faol, ongli munosabatni qaror toptirish, ijtimoiy xulqatvorni psixologik korreksiyalash, bolalar ruhiy rivojlanishni tashxislash va bashoratlashning yangi ilmiy dasturlari, samarali shakl va metodlarini, yangi turdagi maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini tadqiq etadi¹.

¹ Клемантович И. П., Леванова Е. А., Степанов В. Г. Нейропедагогика: новая отрасль научных знаний //Педагогика и психология образования. – 2016. – №. 2.

Badiiy pedagogika pedagogika va adabiyotni birlashtirishga asoslangan pedagogika fanining sohasi, ta'lim va inson taraqqiyoti qonunlarini badiiy adabiyot orqali o'rganish.

Artpedagogika san'at pedagogikasi bo'lib nazariya va amaliyotni rivojlantirish bilan shug'ullanadi, badiiy rivojlanish jarayonining nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishni, badiiy ijodiy va ijodiy faoliyat orqali individual madaniyatning asosini tashkil etadi. San'atni rivojlantirish orqali shaxslarni tarbiyalash, tayyorlash va rivojlantirish; badiiy madaniyatning asoslarini shakllantirish va turli xil badiiy faoliyat turlari bo'yicha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish.

Musiqiy pedagogika musiqiy ta'lim va tarbiyaning samarali usullarini, shakllarini o'rganish va rivojlantirish, shuningdek musiqa sohasida turli yo'nalishlarda ijodiy ko'nikmalarni, tajriba va amaliy malakalarni shakllantirish va rivojlantirishni o'z ichiga olgan pedagogika fanining sohasi.

Harbiy pedagogika harbiy pedagogik jarayonning qonuniyatlari, harbiy kadrlar va harbiy guruhlarni o'qitish usullari, ularni muvaffaqiyatli jangovar operatsiyalar va harbiykasbiy faoliyat uchun tayyorlashga qaratilgan pedagogika fanining bir bo'limi.

Mehnat pedagogikasi asosan axloq tuzatish muassasalarida jinoyatchilarni tarbiyalash va qayta tarbiyalashning shartsharoitlari va xususiyatlarini o'rganadigan pedagogikaning sohasi.

Teatr pedagogikasi zamonaviy pedagogikaning amaliy jihati bo'lib, ta'lim jarayonida voqelik, yashash, shaxsiy ijodiy harakatlar va improvizatsiya tamoyillarini tatbiq etuvchi, intellektual, hissiy tuyg'ularni aks ettiradigan fan.

Muzey pedagogikasi muzeylarning madaniy va ma'rifiy faoliyatining xususiyatlari, ularning turli toifalari bo'yicha shaxsga ta'sir o'tkazish usullari, muzeylarning ta'lim muassasalari bilan o'zaro munosabatini o'rganadigan fan.

Turizm pedagogikasi bu turizmning gumanitar va ijtimoiy funksiyalari kontekstida shaxsning tarbiyasi, ta'limi va rivojlanish jarayonlarini o'rganadigan fan.

Tibbiy pedagogika shaxsga psixologikpedagogik va tibbiy ta'sir ko'rsatishning zamonaviy vositalari va usullarini, inson ruhiyatining umumiy va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish to'g'risidagi fan.

Elektron pedagogika pedagogik faoliyatda kerakli interaktiv o'quvslubiy qo'llanmalarni yaratish qoidalari va texnologiyalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish va o'ziga kerakli fanlar bo'yicha elektron interaktiv darsliklar mustaqil yaratish uchun amaliy ko'nikmalar hosil qilish to'g'risidagi fan.

2.4. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Pedagogika fan sifatida boshqa fanlarni nazariyalaridan ijodiy qo'llash natijasida rivojlanadi. Pedagogik hodisa va jarayonlarni bilish va tadqiq qilishning umumiy yondashuvlarini falsafa ko'rsatib beradi. Pedagogika sohasidagi tadqiqotchilar tarbiya mazmunini ishlab chiqishda, maqsadni belgilashda, uning metodologiyasini aniqlashda falsafiy bilimlar tizimiga tayanadilar. Fiziologiya, anatomiya, psixologiya kabi inson to'g'risidagi fanlar inson shaxsini shakllanishi, qonuniyati va mohiyatini har tomonlama chuqur o'rganishda yordam beradi.

Pedagogika psixologik bilimlar asosida samarali o'quv-tarbiyaviy tizimni yaratadi. Pedagogika va psixologiya fanlarining integratsiyalashuvi pedagogik psixologiya fanining paydo bo'lishiga olib keldi.

Pedagogika mustaqil yetarli darajada rivojlangan, o'zining alohida tadqiqot sohasiga ega bo'lishiga qaramasdan boshqa fanlar bilan aloqada bo'lmasdan mavjud bo'la olmaydi. Tarbiyaviy faoliyat obyekti o'suvchi, rivojlanuvchi inson bo'lganligi uchun pedagogika birinchi navbatda insonni o'rganuvchi fanlar bilan aloqada bo'ladi.

Insonni jamiya a'zosi sifatida ijtimoiy fanlar, biologik evolutsiya natijasi sifatida biologik fanlar, ongli, fikrlovchi mavjudot sifatida psixologik fanlar o'rganadi. Pedagogikani ijtimoiy fanlar bilan aloqasini ko'rib chiqamiz. Ijtimoiy fanlar tarbiya maqsadini va mohiyatini aniqlashga yordam beradi.

Pedagogika ijtimoiy fanlardan falsafa bilan uzviy bog'liq. Falsafiy ta'limotlar pedagogikaning metodologik asosi hisoblanib, ta'lim va tarbiya maqsadini anglashga yordam beradi. Falsafiy qarashlar tizimidan (materialistik, ekzistensial, pragmatik, neopozitivistik v.b..) pedagogika tadqiqotchilari tayangan holda pedagogik izlanish yo'nalishlarini belgilab, ta'lim jarayonini texnologik xususiyatlarini, maqsadini, mohiyatini aniqlaydilar.

Pedagogika va falsafaga tegishli qator umumiy savol va muammolar mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi.:

- tarbiya maqsadi muammosi;
- dunyoqarashni shakllanishi muammosi;
- jamoa va shaxs aloqadorligi;
- bilish nazariyasi bilan bog'liq gnoseologik muammolar.

Pedagogika shu bilan birgalikda falsafaning mustaqil sohalari etika va estetika bilan ham uzviy bog'liqlikda rivojlanadi. Ular axloqiy, estetik tarbiya hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish kabi pedagogik vazifalarni hal etishda yordam beradi.

Pedagogika aholining turli guruh va qatlamlari rivojlanishining asosiy tendensiyalarini, ijtimoiylashuv qonuniyatlarini, ijtimoiy muhitning insonga ta'sirini, shaxsning turli ijtimoiy institutlardagi tarbiyasini tadqiq qiluvchi sotsiologiya bilan uzviy bog'liq.

Pedagogika biologik fanlar bilan ham uzviy bog'liq. Ular pedagogika va psixologiyaning tabiiy-ilmiy tayanchi hisoblanadi.

Pedagogika buyuk rus fiziologlari I.M.Sechenov, I.P.Pavlovlarning birinchi va ikkinchi signallar tizimi, insonni ruhan rivojlanishi, tabiati, sezgi organlarining rivojlanishi va funksiyalari to'g'risidagi fundamental ishlariga tayanadi.

Ayniqsa, ta'lim-tarbiya masalalarini hal etish, mehnat qilish va dam olish tartibini ishlab chiqish inson organizmi funksiyalari va xususiyatlari to'g'risidagi yosh fiziologiya, maktabdagi turli mashg'ulotlarni tashkil etishning gigiyenik masalalarini o'rganuvchi maktab gigiyenasi muhim rol o'ynaydi.

Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqalari tahlil natijasida quyidagi bir-birini to'ldirish shakllarini ifodalashimiz mumkin:

boshqa fanlar tomonidan umumlashtirilgan, asosiy nazariya va g'oyalardan pedagogikada ijodiy qo'llash va foydalanish;

boshqa fanlarda qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlaridan(matematik modellashtirish, sotsiologik so'rov)foydalanish;

psixologiya, fiziologiya, sotsiologiya va boshqa fanlarda olingan aniq natijalarni pedagogikada qo'llash;

kompleks tadqiqotlarda ishtirok etish.

Pedagogika aniq tanlov asosidagi ma'lumot va faktlardan maxsus pedagogik qayta ishlovlardan so'ng foydalanadi.

Shunday qilib, pedagogika umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismidir. U tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya konsepsiyalari ilmiy va umummadaniy qadriyat hisoblanadi.

2.5. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish.

Ilmiy tadqiqotning natijalari amaliyotda va nazariyada qo'llanila boshlaganidan so'ng ilmiy izlanish ishi tugallangan bo'ladi. Ta'lim-tarbiya sohasini yaxshilash takomillashtirish, davr talablari asosida yangi metod, usullar yaratish maqsadida, ilmiy, izlanishlar olib boriladi. Ilmiy izlanishining natijasida aniqlash metod yordamida aniqlanadi.

Metod (lotincha *metodos* yo'l so'zidan) tadqiqot yo'li, nazariy, ta'limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida «metod» so'zi keng ma'noda aniq maqsadga erishish yo'lini, tor ma'noda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari va qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish usulini bildiradi.

Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodi deganda turli pedagogik hodisa va muammolarni yechishga qaratilgan usul va jarayonlarning yig'indisi tushuniladi. Ob'ektiv voqelikni bilishning metodlari juda ko'p. Pedagogik tadqiqot metodlariga suhbat, anketa, intervyu, pedagogik eksperiment, statistika ma'lumotlarini tahlil qilish, matematik va kibernetik kiradi. Bu metodlar pedagogika fanning mazmun mohiyatini boyitishda, yosh avlodni o'qitish, tarbiyalash ma'lumotli qilishning ichki aloqa va munosabat tekshirish, bilish, aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Ilmiy tadqiqot usullari qanchalik to'g'ri tanlansa ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratiladi.

Pedagogik kuzatish metodik asosini tadqiqotchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarni biror maqsadini ko'zda tutib idrok etish tashkil etadi. Kuzatish rejalashtiriladi va uning dasturi tuziladi. Bunday kuzatishlar tezligi, soni, kuzatish obekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va boshqalar hisobga olinadi. Kuzatish bevosita bo'lishi mumkin. Metodning ushbu turida biror bir hodisaning okibatlarini haqida fakat materialni boshqa shakllar orqali yoki qandaydir asbobni ko'llash vositasida olishga imkon beradi. Ilmiy

texnika tarakkiyoti asrida kuzatishning vizual usullari xilma-xil texnika vositalari (kino-foto s'yomka, videozapis, televideniya va h.k) ham qo'llaniladi.

Pedagogik so'rash metodi tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayonidan iborat. Pedagogik so'rash savollarning mantiqiy o'ylangan tizimini, nisbatan kamchiligi (3 — 5 ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat'iy shakldagi («ha» «yo'q») javobini taqozo etadi.

Suhbat metodi pedagogik so'rashning bir turi bo'lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgalik ko'rishini talab etadi, chunki u tekshirilayotgan shaxs bilan bevosita aloqa bo'lish vaqtida og'zaki suhbat tarzida, suhbatdoshning javoblarini yozmasdan erkin muomala shaklida qo'llaniladi. Suhbat metodida o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasi bilan ota — onalar va keng jamoatchilik bilan yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Suhbat metodi qo'llanilganda quyidagi talablarga rioya qilish lozim;

Har bir suhbat uchun vaqt, savollar mazmunini oldindan belgilash;

Suhbat ishtirokchilarining tarkibini oldindan kelishib olish;

Suhbatdoshni erkin gapirishiga imkon berish;

Sergap, bachkana bo'lmaslik;

Biografik ma'lumotlarni hisobga olish;

Olingan ma'lumotlarni o'z vakgida ishlab chiqish, kerak bo'lsa qo'shimchalar kiritish.

Intervyu metodi oldindan belgilangan savollar yordamida izchil qo'yilgan savolga javob olish tushuniladi. Bunda javoblar yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so'rash nazariyasi va amaliyotida intervyu metodini tashkil etishning quyidagi usullaridan foydalaniladi: guruhliy; intensiv (tezlashtirilgan), sinfiy, standartlashtirilgan va h. k.

Bunda o'quvchilarni ijodini o'rganish, ularning individual faoliyatlariga doir masalalar o'rganiladi va tahlil qilinadi.

Anketa metodi, yozma savollarga javoblarni ommaviy amalga oshirishni nazarda tutadi.

Anketalarni ishlab chiqarish murakkab ilmiy jarayondir. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketa mazmunidagi savollarning puxtaligiga bog'liq. Hozirgi davr pedagogikasining

talablariga ko'ra ma'lumotlarni EHMda ko'llab matematik statistika metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi.

Ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish, rejalashtirish hisobga olish va nazorat qilishda doir rahbar va pedagogik xujjatlarni, shuningdek o'quvchilarni yozma, grafik va ijodiy ishlarni o'rganish kontent tahlil metoli orqali olib boriladi. Hujjatlarning yetarli darajada aniqlik bilan shunday tahlil kilinishi aniq pedagogik jamoalarning real faoliyati sababli bog'lanishlari va bog'liqlarini aniqlashga yordam beradi.

Pedagogik eksperiment har qanday ilmiy pedagogik tadqiqotning asosidir. Pedagogik eksperiment yordamida ilmiy farazlarni ishonchligi tekshiriladi, pedagogik tizimlarning aniqlanadi. Pedagogik eksperimentning quyidagi bosqichlari mavjud. Eksperimentni rejalashtirish, eksperiment o'tkazish va natijalarni sharhlash. Rejalashtirish eksperiment maqsadi va vazifasini belgilash, eksperiment natijasida, ta'sir etuvchi faktorlar va ular darajasining miqdorini aniqlashni, kerakli kuzatishlar soni eksperiment o'tkazish tartibini olingan natijalarni tekshirishni o'z ichiga olinadi. Eksperimentni tashkil etish va o'tkazish belgilangan rejaga qat'iy amal qilgan holda olib borilishi kerak. Sharhlash bosqichida ma'lumotlar yig'iladi va qayta ishlanadi. Eksperiment o'tkazish ishi ishonchligi qoidasiga javob berishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilinadi; tekshiruvchilar soni va tajribalar miqdorini eng qulay bo'lishi; tadqiqot usullarining ishonchligi; farqlarning statistik jixatdan ahamiyatligini hisobga olish zarur.

Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish metodi ta'lim sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larni doimiy o'sib borishini, darslik, o'quv qo'llanmalari sonining o'sib borishi, qo'llanma qurollar, ta'lim - tarbiya muassasalari qurilishi, xo'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'lar hisoblanishi nazarda tutiladi.

Matematika va kibernetika usullari ta'lim - tarbiya nazariyasi va amaliyotdagi ma'lumotlar, ularning rivojlanishi darajasini hisoblash mashinasi va kibernetikasi yordamida turli tillarda tarjima kilinishi dasturlashtirilgan ta'lim va uni mashinalar yordamida boshqarish, kompyuterli ta'lim samaradorligini aniqlash, differensial va individual ta'limning mohiyati, maxsuldorligini va maktab o'quv tarbiya jarayonining o'sish darajasini aniqlash mashinalar yordamida amalga oshirilishini nazarda tutadi. Bunda odatda o'rtacha arifmetik

mikdor, modda, mediana, dispersiya tanlab olinadigan to'plam majmuining o'rtacha kvadratik chetga chiqishi, o'rtacha olingan qiymat xatosi, belgilarni tuzatish koeffitsientlari hisoblab chikiladi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *Pedagogika fani nimani o'rganadi?*
2. *Pedagogika fanining obyekti va predmetini izohlang.*
3. *Pedagogika fanining asosiy vazifalariga izoh bering.*
4. *Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?*
5. *Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligini asoslang.*
6. *Pedagogik fanlar tizimini shartli ravishda asosiy, yordamchi va mustaqil fan sohasi yo'nalishlariga turkumlang.*
7. *Pedagogika fani metodologiyasi tushunchasiga izoh bering.*
8. *Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari haqida gapirib bering.*
9. *O'zbekistonda pedagogika fani taraqqiyoti haqida ma'lumot bering.*
10. *Pedagogikaning taraqqiyot tendeniylariga nimalar kiradi?*
11. *Pedagogika fanining kuzatish metodi qaysi usullari o'z mazmuniga oladi?*

3-MAVZU. SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI

Tayanch tushunchalar: *individ, shaxs, rivojlanish, ijtimoiylashuv, irsiyat, muhit, tarbiya, ta'lim, faoliyat, yosh davrlar.*

3.1. Insonni biologik va ijtimoiy rivojlanishi hamda uning shaxsini shakllanishi

Pedagogika nazariyasi va amaliyotining asosiy, murakkab muammolaridan biri shaxs, uning shakllanishi, rivojlanishi va ijtimoiylashuvi masalasidir. Ushbu muammoning turli aspektlarini turli fanlar tomonidan: falsafa, sotsiologiya, fiziologiya, anatomiya, psixologiya va b. o'rganiladi.

Pedagogika ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsni rivojlanishi, shakllanishi va ijtimoiylashuvi uchun samarali sharoitlarini yaratilishini o'rganadi.

Bu sharoitlarni o'rganishdan oldin mavzuga tegishli asosiy tushunchalarni ko'rib chiqaylik. Ushbu tushunchalar inson, shaxs, individ, individuallik.

Odam — bu nutq va tafakkurga ega bo'lgan, mehnat qurollarini yaratuvchi va uni hayot jarayonida qo'llash qobiliyatiga ega, o'zida jismoniy va ma'naviy, tabiiy va ijtimoiy, irsiy va kashf qilingan xususiyatlarni o'zida ifodalovchi tirik mavjudot.

Shaxs - bu ijtimoiy rivojlanishning mahsuloti, mehnat, muloqot va bilish subyekti sifatida aniq tarixiy sharoitda yashab, ijtimoiy funksiyani bajaruvchi inson hisoblanadi. A.N.Leontevning fikricha, shaxs ijtimoiy-tarixiy va insonni ontogenetik rivojlanishi mahsuli hisoblanadi.

Individ tushunchasi insonni tug'ilishiga taalluqli bo'lib, aniq ijtimoiy va psixologik xarakteristikaga kirmaydi. Individuallik tushuncha sifatida individni boshqalaridan farqlovchi, ontogenez jarayonida shakllangan jismoniy va psixologik xususiyatlarni ifodalaydi. Individuallik insonni qobiliyatlarida va ehtiyojlarida, xarakterida va temperamentida ifodalanadi.

Mutaxassislar «odam», «individ», «shaxs», «individual» tushunchalarini qiyoslash natijasida odam individ sifatida tug'ilib, shaxs sifatida shakllanib, individuallik xususiyatlarini namoyon qiladi deb ta'kidlaydilar.

Quyida falsafa, psixologiya va pedagogikada rivojlanish, shakllanish, ijtimoiylashuv tushunchalarini farqlanishini ko'rib chiqaylik.

Rivojlanish deganda nima tushuniladi?

Ta'kidlash lozimki, rivojlanish — bu tabiat, jamiyat va insonni umumiy xususiyatlaridir. Rivojlanish tabiatda asta-sekinlik bilan va har xil o'zgarishlar bilan, jamiyatda evolutsion va revolutsion, insonda filogenez (insonni tarixiy rivojlanishi) va ontogenez (individning tug'ilgandan o'lguncha rivojlanishi) ko'rinishlarda amalga oshadi.

Falsafiy, psixologik va pedagogik adabiyotlarda ushbu tushunchaga har xil yondashuvlarda qaraladi. «Falsafiy ensiklopediyada» rivojlanish harakatning yuqori turi sifatida, materiya va ongning o'zgarishi, bir xil sifatdan ikkinchi sifatga, eskidan yangiga o'tish sifatida qaraladi. Psixologiyada «rivojlanish» atamasi an'anaviy tarzda — progressiv (tizimni murakkablashuvi)

yoki regressiv (tizimni o'zgarishi) o'zgarishlar bo'lganda qo'llaniladi, masalan, xotirani, diqqatni, hissiy sohalarni rivojlanishi v.b.

Pedagogikada rivojlanish deganda, shaxsdagi bir yosh davrdan ikkinchi yosh davrga o'tganda kuzatiladigan sifat va miqdor o'zgarishlar tushuniladi.

Rivojlanish - shaxsiy, irsiy, biologik, ijtimoiy — iktisodiy bilimlarning yo'nalishini kengayishidir. Inson tirik organizm sifatida ma'lum maqsad asosida faoliyat ko'rsatadi va shu faoliyati davomida o'sib, rivojlanib boradi. Rivojlanish bola vaznining oshishi, suyak va muskul tizimining, tana, gavda a'zolarining, nerv funksional faoliyatining kamol topishi akl - zakovatining o'sib borishidir. Shunday kilib, inson o'sib, rivojlanib shaxs sifatida shakllana boradi. Xo'sh shakllanish nima?

Shakllanish - biron bir narsaning bir joyga to'planishi, yigilishi demakdir. Shaxsning shakllanishi deganda, uning xulk - atvorida, ijtimoiy va biologik omillarning ta'sirida tajribalar, munosabatlar, axlokiy sifatlarning to'planishi tushuniladi.

Masalan, armiya bo'limlarining bir joyga to'planishini, yigilishini armiyaning shakllanishi deb aytishimiz mumkin. Bunga «shaxs» shakllanishya tushunchasi misolida izohlaydigan bo'lsak - inson shaxsidagi, jismoniy, axlokiy, psixologik, xususiyatlarning ko'payib, to'planib, mustaxkamlanib borishi tushuniladi.

«Tarbiya» kishining kamol topishida rivojlanishga doir bo'lgan xususiyatlarning maqsadli reja asosida ta'sir etishini tashkil etadi.

Ayni paytda tarbiyaning vazifasi, mazmuni, metodlari doimo tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlar darajasiga bog'liq bo'ladi va pedagogikaning biror maqsadga qaratilgan ishlari ta'sirida o'zgaradi.

Tarbiyalash - o'sib borayotgan yosh avlodni davr va ijtimoiy - iktisodiy talab xamda extiyojlar asosida kattalar tajribasini egallashga, undagi ijtimoiy hayotga ko'shilishi uchun amalga oshiriladigan zaruriy va majburiy faoliyat.

Shaxs - odamning jamiyat a'zosi sifatida o'z - o'zini anglashi, tafakkurini, faoliyatning ob'ektivligini, mulokot xamda biluvchanlikni tashuvchanligidir.

1) Keng ma'noda inson - kishi individi.

2) Tor ma'noda - muayyan jamiyat a'zosi bo'lgan individning ijtimoiy jixatdan ahamiyatli, barkaror xislatlar

majmui.«Shaxs» tushunchasini «individ», - «individual», (biologik zot, har birkishi) va «Individuallik» (insonning takrorlanmas o'ziga xos xususiyatlari) tushunchalaridan fark qilishi kerak. Individual muayyan ijtimoiy munosabatlarning xosili bo'lgan takdirdagina shaxsga aylanadi.

Shaxs ong va o'z - o'zini anglash paydo bo'lganidan so'ng vujudga keladi. U filofosiya, psixologiya, sotsiologiya va pedagogikaning o'rganish ob'ekti hisoblanadi.

Shunday qilib, rivojlanish — bu insonni organizmidagi, ruhiyatidagi, aqliy va ma'naviy sohasidagi tashqi va ichki, boshqariladigan va boshqarilmaydigan omillar ta'siridagi miqdor va sifat o'zgarishlaridir. Insonni hayoti davomida biologik va ijtimoiy rivojlanish bo'lib o'tadi.

Biologik rivojlanish morfologik (bo'yi, og'irligi, hajmi.); biokimyo (qon tarkibi, suyak, muskul); fiziologik (ovqat hazm qilish, qon aylanishi, jinsiy rivojlanish) o'zgarishlari bilan bog'liq.

Ijtimoiy rivojlanish psixik (xotirani, tafakkurni, hissiyotni, xarakterni shakllanishi); ma'naviy (axloqiy shakllanish, ongni o'zgarishi); intellektual (bilimlarni kengayishi va chuqurlashuvi, aqliy o'sish)o'zgarishlar bilan bog'liq.

Insonni biologik, ijtimoiy rivojlanishi—bu ko'p omillar ta'sirida kechadigan murakkab, uzoq davom etadigan, ziddiyatli, jarayon. Shaxs rivojlanishining ko'rsatkichlari insonni dunyoga bo'lgan munosabatidagi, faoliyatidagi, xulqidagi, ongidagi sifat o'zgarishlari hisoblanadi. Rivojlanish natijasi — insonni biologik tur va ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishi hisoblanadi.

Odatda, agar morfologik, fiziologik, psixologik o'zgarish ro'y bersa rivojlanish atamasi, agar xulq-atvorda axloqiy, ma'naviy o'zgarishlar ro'y bersa shakllanish atamasi qo'llaniladi.

Shunday qilib, inson dunyoga biologik mavjudot sifatida kelib, rivojlanish natijasida ijtimoiy munosabatlar va faoliyat subyekti sifatida shaxs bo'lib ijtimoiy mavjudotga aylanadi.

Shaxsni rivojlanish jarayonini turli falsafiy yo'nalish vakillari turlicha tushuntiradilar. Uch xil biologik, sotsiologik, biosotsiologik konsepsiya mavjud.

Biologik konsepsiya vakillarining fikricha, shaxs bu tabiiy mavjudot, inson xulq-atvori tug'ilgandan ehtiyojlar, instinktlar

asosida paydo bo‘ladi deb ta’kidlaydilar. (3. Freyd v.b.). Ularning fikricha:

Inson - tabiiy mavjudot.

Shaxsning ma’naviyati biologik asosga ega.

Insonni rivojlanishi va xulq-atvori tug‘ilgandan boshlab ehtiyojlar, instinktlar asosida paydo bo‘ladi.

Tarbiya rivojlanish jarayonini tezlashtiradi yoki sekinlashtiradi.

Sotsiologik konsepsiya vakillarining fikricha, inson biologik mavjudot sifatida tug‘ilib, hayot faoliyati jarayonida asta-sekinlik bilan muhit ta’siri ostida ijtimoiylashadi. Muhit shaxs shakllanishining asosiy omili hisoblanadi. Tarbiya xarakterni tuzatishga xizmat qiladi.

Biosotsiologik konsepsiya vakillarining fikricha, inson biologik va ijtimoiy mavjudot hisoblanadi. Psixik jarayonlar (sezish, his etish, tafakkur v.b.) biologik xarakterga ega.

Shaxsni qiziqishlari, qobiliyatlari, yo‘nalishlari ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy muhit ta’siriga obyektiv va maxsus tashkil etilgan ta’sir natijasida shakllanadi.

Pedagogika fani shaxsni biologik va ijtimoiy ajratmagan holda bir butun hodisa sifatida o‘rganadi. Biologik va ijtimoiy omillar ikkita parallel yoki bir- biriga bog‘liq bo‘lmagan omillar emas. Ular insonga bir vaqtda kompleks tarzda ta’sir qiladi.

Shaxs rivojlanishi to‘g‘risidagi turli konsepsiyalar asosida pedagogik nazariyalar shakllanadi, ta’lim-tarbiyaning metodlari, vositalari, shakllari ishlab chiqiladi. Shaxsni tarbiyalanganligi shaxsni tashqi dunyoga va o‘z hayotiga; insoniy qadriyatlarga (umuminsoniy qadriyatlarga, madaniyatga, fan-texnika yutuqlariga, ta’limga, ilmga, axloqqa, ozodlikka, aqliy-diniy tenglikka); jamiyatga, vatanga, xalqqa, tarixga, tilga; hayotdagi muammo va qiyinchiliklariga; jamoaga, guruhga; ijtimoiy faollikka; odamlarga (do‘stlik, insoniylik, halollik, tartiblilik, g‘amxo‘rlik); hayotdagi o‘z imkoniyatlariga hamda o‘ziga bo‘lgan munosa- batlarida ifodalanadi.

So‘nggi paytlarda pedagogikada shaxsning rivojlanishi, shakllanishi tushun- chalaridan tashqari shaxsni ijtimoiylashuvi tushunchasi keng qo‘llanilmoqda. Ijtimoiylashuv deganda insonni jamiyat bilan aloqasi, shaxsni ijtimoiy muhit bilan o‘zaro aloqasi jarayonida uni jamiyatga moslashuvi tushuniladi.

Ijtimoiylashuv insonni o'zi yashab turgan jamiyat me'yorlarini, qadriyatlarini, xulq-atvor normalarini, ijtimoiy tajriba va ijtimoiy aloqalarini o'zlashtirishni aniqlaydi. Ijtimoiylashuv butun hayot davomida insonni muhit bilan maqsadga yo'naltirilgan aloqasida va stixiyali sharoitlarda amalga oshadi. Ongli nazorat qilinadigan ijtimoiylashuv tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Tarbiya shaxsga ta'sir etuvchilarni tartibga solib, uni ijtimoiylashuvini tezlashtirish uchun sharoit yaratadi.

3.2. Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari va harakatlantiruvchi kuchlari

Shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuch qarama-qarshiliklar hisoblanadi. Qarama-qarshilik — bu qarama-qarshi tomonlarni nizolarda to'qnashuvidir.

Qarama-qarshiliklar ichki va tashqi, umumiy va individual turlarga bo'linadi.

Ichki qarama-qarshiliklar insonni individual hissiyotida ifodalanib, o'zi bilan kelishmay qolganda hosil bo'ladi. Masalan, insonni yoshiga qo'yilgan talablari bilan o'z organizmi, o'z imkoniyatlari orasidagi qarama-qarshiliklar.

Tashqi qarama-qarshiliklar insonni boshqa odamlar bilan, jamiyat, tabiat bilan munosabatlarini stimullashtiradi. Masalan, o'quv muassasalarining talablari va o'quvchilar xohishi orasidagi qarama-qarshiliklar.

Umumiy qarama-qarshiliklar har bir odamni va barcha odamlarni rivojlanishini ta'minlaydi. Masalan, moddiy va ma'naviy ehtiyojlar va obyektiv omillar ta'siri natijasida hosil bo'ladigan real imkoniyatlar orasidagi qarama-qarshiliklar.

Individual qarama-qarshiliklar alohida olingan odam uchun xarakterli.

Qarama-qarshiliklarni bartaraf etish faoliyatni yuqori darajasi orqali amalga oshiriladi. ehtiyoj qondiriladi, qarama-qarshilik hal etiladi. Natijada inson yuqori rivojlanish pog'onasiga ko'tariladi. Ammo ehtiyoj qondirilganda, undanda yuqori ehtiyojlar tug'iladi. Mavjud qarama-qarshilik boshqasi bilan almashadi va rivojlanish davom etaveradi.

Tadqiqotchilar insonni rivojlanishini o'rganishi natijasida rivojlanish jarayoni va uning natijasi o'rtasidagi aloqalarni, qator bog'liqliklarni, ya'ni qonuniyatlarni aniqladilar.

Rivojlanishning asosiy qonuniyatlariga quyidagilar kiradi:
inson rivojlanishi ichki va tashqi sharoitlarni muvozanatlashtiradi;

insonni rivojlanishi o‘z-o‘zini shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘z faolligi natijasida amalga oshadi;

inson rivojlanishi faoliyatda kechishi;

insonni rivojlanishi u ishtirok etayotgan faoliyat mazmuni va motivlariga bog‘liq.

insonni rivojlanishi ko‘p omillar ta'sirida bo‘lishi.

Shaxsni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar

Inson shaxsini shakllanishiga tashqi va ichki, biologik va ijtimoiy omillar ta'sir qiladi. Omil - u yoki bu hodisa, jarayonni harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Ichki omillarga faoliyat va muloqotdagi shaxsni shaxsiy faolligi, qiziqish va motivlari kiradi.

Tashqi omillarga tabiiy va ijtimoiy makro, mezo va mikroomillar hamda keng va tor ijtimoiy va pedagogik ma'nodagi tarbiya kiradi.

Muhit va tarbiya — bu ijtimoiy omillar, irsiyat esa — biologik omil hisoblanadi.


Irsiyat — bu ota-onaning ayrim belgi va xususiyatlarini genlar yordamida farzandlarga o‘tishidir. Irsiyat orqali bolalarga:

anatomo-fiziologik tuzilma, insoniyat vakili sifatida individning tashqi xususiyatlarini ifodalovchi nutq layoqati, to‘g‘ri yurishi, tafakkuri, mehnat faoliyati;

jismoniy xususiyatlari: tashqi milliy xususiyatlari, gavda tuzilish xususi- yatlari, yuz tuzilishi, sochi, ko‘zi, terisi rangi; fiziologik xususiyatlari, modda almashinuvi, arterial bosimi va qon guruhi;

asab tizimi xususiyatlari: bosh miya qurilishi, uning ko‘rish, eshitish, hid bilish sezgilari, odat va oliy asab faoliyati turini aniqlovchi asab jarayonlari xususiyatlari;

organizmdagi anomal rivojlanish: daltonizm; irsiy kasalliklarga moyillik: gemofiliya (qon kasalligi), qandli diabet, shizofreniya, endokrin kasalliklar. Irsiyatdan tashqari shaxsni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillardan biri muhit hisoblanadi.



Muhit — bu inson rivojlanishi amalga oshadigan real borliq. Shaxsni shakllanishiga geografik, milliy, maktab, oila muhiti ta'sir qiladi. Shaxsni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillardan biri muloqot hisoblanadi. Muloqot — bu shaxslararo munosabatlar shakllanishidagi, odamlar o'rtasidagi kontaktlarni rivojlanishi va shakllanishidagi shaxsning universal faolligi hisoblanadi.

Shaxsni rivojlanishi faqat faoliyatda amalga oshadi. Inson hayoti davomida hamisha turli xildagi o'yin, o'quv, bilish, mehnat, ijtimoiy, siyosiy, badiiy, ijodiy, sport faoliyatida ishtirok etadi.

Faoliyat inson mavjudligining yo'l va shakli sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- insonni hayotini moddiy sharoitlarni yaratishni ta'minlaydi;
- tabiiy insoniy ehtiyojlarni qondirilishini ta'minlaydi;
- tashqi dunyoni qayta shakllantirish va bilishni ta'minlaydi;
- insonni ma'naviy dunyosini rivojlantirish omili hisoblanadi;
- insonga hayotdagi maqsadlariga erishishlarida, imkoniyatlarini amalga oshirish vosita vazifasini bajaradi;
- insonga ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zini namoyon qilishi uchun sharoit yaratadi.

3.3. Shaxs shakllanishining yosh davrlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari

Shaxsning shakllanishida unga berilayotgan ta'lim-tarbiyaning

mazmuni, metodlari va vositalari bolannig yosh hususiyatlariga muvofiq kelishi muhim sanaladi. O'qituvchi o'quvchilarning ruhiy hususiyatlarini bilishi, ma'lum yoshdagi o'quvchilarning diqqat hotira, tafakkur layoqatlarini inobatga olishi asosida faoliyat tashkil etishi lozim. Shaxsning aqliy va jismoniy kamolotida doimo ilgariga qarab rivojlanish ro'y beradi. Bolaning jismoniy va ruhiy kamoloti qaror topib borar ekan, bir qancha bosqichlarni bosib o'tadi.

Shaxsning rivojlanib kamol topishi, hayotning hamma bosqichida bir hil bo'lmay, balki yosh hususiyatlari va hayot tajribalariga qarab har hil bo'ladi. tarbiya jarayonida o'sayotgan avlodning yosh va o'ziga hos hususiyatlarini bilish va hisobga olish juda zarur. Ma'lumki, bir hil yoshdagi bolalarning, o'quvchi-talabalarning har birini o'ziga hos hususiyatlari, psihik jarayonlari mavjud.

Bu o'ziga hoslik rivojlanish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. yosh hususiyatlarni hisobga olish, bola hususiyatiga moslashish emas, balki shu yosh davrida bola imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishlarini tashkil etish demakdir. SHundagina Shaxs rivojlanishiga tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi.

Tibbiyot, odam anatomiyasi, yosh fiziologiyasi va maktab gigienasi, psihologiya hamda pedagogika fanlari asoslariga ko'ra bolaning yosh davrlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin.

Bolaning jismoniy va psixik kamoloti davrlari

Go'daklik davri – chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo'lgan davr

Bog'chagacha bo'lgan yosh davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.

Maktabgacha ta'lim yoshi – 3 yoshdan 7 yoshgacha

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar –7-11-12 yoshgacha.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar –7-11-12 yoshgacha.

Katta yoshdagi maktab o'quvchilari (o'spirinlar) – 16-18 yosh

Yosh davrlari shartli ravishda guruhlanadi. Unda muayyan yosh davrining boshqasidan ajratadigan chegara yo'q. Yosh davrlarining guruhlanishi bolaning rivojlanish hususiyatlaridagi o'zgarishlarga qarab ajratiladi. Quyida yosh davrlariga qisqacha ta'rif berib o'tamiz.

Go'daklik davri. YAngi tuo'ilgan bolada barcha sezgi turlari mavjud bo'ladi. Ushbu sezgilar murakkab bo'lmay, oddiy holatdadir. Chaqaloq bir holat faol bo'lib, bu faollik avvalo, qo'l-oyoqlarning refleks yo'li bilan harakatlanib turishida ko'rinadi. Huddi shunday reflektor harakatchanlik bolaning chinqiriqlarida ham namoyon

bo'ladi. Bolada vujudga keladigan shartli reflekslar 5-6 haftalarda yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Masalan, u onasining ovozi taniydi, uni eshitsa tinchlanadi. Begona odamlarni "yoqtirmay" bezovtalanadi.

Go'daklik davrida bola birmuncha tajriba to'plashi bilan uning idrok va tasavvurlari tarkib topa boshlaydi. Odatda, besh-olti oylik bola o'tiradigan bo'ladi, so'ngra emaklab, tik yurishga harakat qila boshlaydi, bir-ikki yoshda qadam qo'yib yura boshlaydi.

Bola yarim yoshdan oshgach, "o'oldirab" so'zlaydi hamda atrofdagilarning gaplarini tushuna boshlaydi va unda asta-sekin passiv nutq o'sadi, ikki yoshga qadam qo'ygach, faol nutqni o'zlashtirib, gapira boshlaydi. Nutq va tafakkurning o'sishi bilan bolaning atrofdagi kishilar bilan munosabati murakkablashib, o'ziga hos mazmunga ega bo'la boshlaydi. Ushbu holat bola ruhiyatining o'sishiga yordam beradi. YAsli davriga qadar bola aniq gapiradigan va o'zi mustaqil yura oladigan bo'ladi. SHuningdek, bolaning harakatchanligi, tafakkur va nutqi zo'r berib taraqqiy etadi. Bu davrdagi bola tafakkuri "predmet tafakkuri" bo'lib, u o'zi idrok qilgan, ko'rgan narsalar haqida fikr yuritadi. Uning tafakkuri predmetlar munosabatida ko'rinadi.

So'z yuritilayotgan davrda bolaning hissiy kechinmalari yuzaga kela boshlaydi. Dastlab ta'm bilish hamda teri sezgilari orqali qabullarga nisbatan organik hislar namoyon bo'ladi. Keyinchalik ehtiyoj, erkalanish va yaqinlariga mehribonlik sezgilari, o'azablanish, qo'rqish hamda zavqlanish kabi sezgilar namoyon bo'la boshlaydi.

Maktabgacha tarbiya davri. Ushbu yoshdagi bolaning emotsionalligi (hissiy beriluvchanligi) uning faolligida, harakatchanligida ko'rinadi. Bu yosh davrida bolalar hayotida o'yin o'ziga hos o'rin tutadi, o'yinlar asosan katta yoshdagi kishilar yoki bolalarning harakatlariga nisbatan taqliddan iborat bo'ladi. Bola o'yinning mazmunidan ko'ra o'ynalayotgan buyumlar (o'yinchoq va qo'o'irchoqlar) hamda o'zining harakatlari ko'prok, zavqlantiradi.

Mazkur yosh davrida bola faoliyatida ihtiyorsiz faollik bilan bir qatorda ihtiyoriy diqqat ham o'sa boshlaydi. Bu davr bola "men" ligining vujudga kelishi bilan ham karakterlidir. U tevarak - atrofdagi bolalar bilan o'zini solishtiradi, o'zining ulardan ustun jihatlarini ahtara boshlaydi. Bunday holatlar uning "mening o'zim" so'zini keng qo'llashda seziladi.

Olti yoshga qadar bola dunyoni ijtimoiy borliqni to'raligacha idrok etadi. Uning atrofdagilar bilan munosabat doirasi kengayib boradi. Bu esa uning nutqi va tafakkurini yanada o'stiradi. Munosabatlar doirasining kengayib borishi unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatini oshiradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning tafakkuri aniq tafakkur bo'lib, u nimalarni idrok etsa yoki tasavvur qilsa, o'sha narsalar haqida fikr yuritadi. SHu bois bola uchun mavhum voqea-hodisalarga nisbatan qiyoslab tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Atrofdagilar bilan muomalada bo'lish asosida bolada ma'naviy qarash shakllanadi, endilikda ular turli harakatlarni "yahshi", "yomon" deya baholab boradilar.

Bu davrda bola hayotida o'yin bilan birga faoliyatning boshqa turlari ham ahamiyatli bo'lib boradi, dastlabki mehnat ko'nikmalari hosil bo'ladi: rasm chizadi, loydan, qumdan shakllar yasaydi, karton va ayrim tabiiy materiallardan turli buyumlar yasaydi. SHuningdek, ular kattalar tomonidan berilgan oddiy topshiriqlarni bajarib boradilar. Ularni kuchlari etadigan ishlarga jalb qilish yahshi samara beradi.

Kichik maktab yoshi, 7 yoshga to'lgan bola (ushbu yosh qator mutafakkirlar tomonidan dastlabki "etuklik yoshi" sifatida e'tirof etilgan) jismoniy va ruhiy hususiyatlarga ko'ra maktabda ta'lim olishga to'la tayyordir.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'risida" gi qonuniga muvofiq respublikamizdagi bolalarning barchasi 6-7 yoshdan boshlab, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil ola boshlaydi. SHu davrga qadar bola hayotida muhim o'rin tutgan o'yin faoliyati o'z o'rnini tizimli, uzluksiz ravishda amalga oshiriladigan va majburiy vaqt asosida tashkil qilinadigan o'qish faoliyatiga bo'shatib beradi. YOsh bola uchun bunday "mas'uliyatli mehnat" ga o'tish qiyin kechsa-da, u asta-sekin bunday sharoitga ko'nika boradi.

Kichik maktab yoshi o'quvchilari ijtimoiy borliq haqida muayyan tasavvurlarga ega bo'lsalar ham ro'y berayotgan voqea-hodisalarning mohiyatini bilishga qiziqadi. Maktabda tashkil etilayotgan ta'lim jarayoni bolaning aqliy faoliyati uchun zarur bo'lgan fazilatlarining tarkib topishini ta'minlaydi.

Kichik maktab yoshi o'quvchilari jismoniy jihatdan bir maromda o'sadilar, o'zil va qiz bolalar gavda tuzilishi jihatidan bir-

birlaridan deyarli farq qilmaydilar. Ularning bo'yi o'rtacha 120 sm, oo'irligi 22 kg atrofida bo'ladi. Suyaklarda too'aylik holati ustun. Naysimon ilik suyaklari asosan eniga o'sadi, tuzilishi takomillashib boradi va 12 yoshda bu suyaklar kattalarnikiday qiyofaga ega bo'ladi. Lekin bo'o'inlar, umurtqa poo'onasi, tos suyaklari hali elastik holatda bo'ladi.

Ko'krak qafasi va umurtqa poo'onasi suyaklari etarlicha qotmaganligi tufayli ular tez shikastlanishi mumkin. Ularda muskul paylari va bo'o'inlar tez rivojlanadi. Muskul kuchining ortib borishi tufayli bu davrda o'quvchilar o'oyat harakatchan bo'lishadi.

Kichik maktab o'quvchilarining bosh miyasi tez o'sib borib, uning tuzilishida o'zgarishlar ro'y beradi. Ularda o'pka rivojlangan, lekin nafas yo'li hamda diafrag'la bo'sh rivojlangan bo'ladi, shu tufayli kichik yoshdagi o'quvchilar ko'p vaqt harakatsiz qolsalar, organizmning kislorod bilan ta'minlanishi yomonlashadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning yuragi, qon aylanish tizimi va nafas olish organlari o'sishda davom etadi. Ularning yuragi o'zidan kattalarnikiga nisbatan ikki marta ko'p qon ishlab chiqaradi. SHu bois, ularning yurak urishi tez bo'lib, har daqiqada 90-92 martaga etadi. O'oning tarkibida oq qon tanachalari ko'p bo'ladi.

Jismoniy o'sishning bu kabi hususiyatlari kichik yoshdagi o'quvchilarga nisbatan o'qituvchilar tomonidan ehtiyotkorona yondoshuvni talab qiladi. Ularni asabiylashishdan saqlash lozim. Bu yoshdagi o'quvchilar ko'proq harakat qilishlari, ochiq havoda bo'lishlari, etarli darajada dam olishlari, uhlashlari talab etiladi. Atrofdagilar buning uchun o'amho'rlik qilishlari lozim. Ularning stol atrofida, partada to'o'ri o'tirishlariga, o'rinda tekis (o'rin yumshoq bo'lmagani ma'qul) yotishlariga, qomatini tik tutib yurishlariga e'tiborli bo'lishlari kerak. O'yin vaqtida qaltis harakat qilishdan ularni saqlash zarur.

Kichik maktab o'quvchilarida ihtiyoriy diqqat, hotira va idrok, tafakkur, ihtiyoriy idrok qilish, nutq, his-tuyo'u, iroda kabi ruhiy jarayonlar, rivojlanadi. SHu bois, ular bilim olishga va o'rganishga intiluvchan bo'ladilar. Atrofdagi ro'y berayotgan voqea-hodisalarning barchasi ularni qiziqtiradi. O'qituvchi ularning qiziqishlarini qondirishga harakat qilishlari va shu asosda ushbu qiziqishlarni rivojlantirib borishlari kerak.

Kichik maktab yoshi o'quvchilari uchun eng ideal Shaxs –

o'qituvchi bo'lib, bolalar ularning talablarini sidqidildan bajarishga urinadilar. Ular orasida o'qituvchining obro'si o'z ota-onasi obro'sidan ham baland bo'ladi.

Kichik maktab yoshi o'quvchilarining fikrlashi obrazli bo'ladi. SHu bois ularga kinoya, kesatish hamda qochiriqli gaplarni gapirish samara bermaydi. O'qitish ko'rgazmali qurollar, vositalar yordamida tashkil etilishi kerak. Materialni tushuntirishda uning obrazli, ifodali bo'lishiga erishishi lozim. Ularning kayfiyatiga o'qishdagi yutuqlari, olgan baholari shuningdek, amalga oshirgan ijobiy ishlari ta'sir qiladi. SHu bois, o'qituvchi tomonidan unga berilayotgan e'tibor alohida qiymatga ega. Uning har bir harakati o'qituvchining e'tiroziga sababchi bo'lsa, unda o'qish istagi yo'qoladi. Maktab ta'limidan ko'ngli soviydi. O'qituvchidan qo'rqqanidan yolo'on gapira boshlaydi. Bu hol doimiy takrorlanaversa, qo'rqqoqlik va yolo'onchilik uning asosiy hislati bo'lib qoladi. O'qituvchi tanbehi oqilona bo'lib, bola sha'nini erga urmasligi, Shaxsini kamsitmasligi kerak.

Kichik maktab yoshidan o'tgach, o'smirlik davri boshlanadi. Bunda bola Shaxsi rivojlanishining murakkab davri boshlanib, u o'tish davri deb ataladi. O'tish davri bolalikdan baloo'at davriga o'tishni ifodalaydi. O'smirlik yoshining murakkabligi uning anatomik-fiziologik va psixologik hususiyatida ro'y berayotgan kuchli o'zgarishlar bilan boo'liq.

O'smirlik yoshida jismoniy jihatdan sekin o'sish davri tugaydi. Jismoniy o'sish tezlashadi. O'smirlar 3-4 yil ichida 20-25 sm o'sadilar (qizlarni o'sishi 18-25, o'g'il bolalar 25-30 sm ni tashkil etadi). Bo'yiga o'sish ilik suyaklarining uzayishi va umurtqa suyagining kattalashishi hisobiga ro'y beradi, ammo ilik suyaklarining ohirgi qismlarida ham too'aylik holati ustun bo'lib turadi. SHu sababli ularga jismoniy topshiriqlar berishda gohida bu holat inobatga olinishi kerak. Ushbu holat tufayli o'smirning qaddi-basti beso'naqay ko'rinadi. O'z navbatida suyakning tez o'sishi, muskullar rivojining ortda qolishi sababli o'smir baland, oyoq-qo'li uzun, ozo'inday ko'rinadi. Bu esa uning yurishiga, gavda tutishiga ta'sir etadi.

O'smirning ko'krak qafasi ham bo'yiga nisbatan sekin o'sadi. SHu sababli ko'pchilik o'smirlarning ko'krak qafasi tor bo'ladi. Bu holat organizmning kislorod bilan to'yinishiga to'sqinlik qiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida mazkur holatni inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Qon aylanishida ham katta o'zgarishlar yuz berib, yurak hajmi ortadi, ammo qon tomirlarining rivoji bir oz ortda qoladi.

O'smirlik yoshida jinsiy etilish davri boshlanadi. Ularda ayollik va erkaklikning tashqi belgilari (ovozning do'rillashi, mo'ylovning sabza urishi, ko'krak qafasi va ko'krak bezlarining shakli, o'o'il va qiz bolaning nafas olishidagi tafovut) paydo bo'la boshlaydi. O'zgarishlar ta'sirida ro'y bergan erotik sezgilar ularni tashvishga soladi. Bularning barchasi ichki va tashqi tafovutlarni kuchaytiradi. Organizmdagi o'zgarishlar o'smirning atrofdagilar bilan munosabati mazmuniga ta'sir etadi. O'smir tabiati tundlasha boradi, kayfiyati tez o'zgaradi. Uyda oila a'zolari davrasida esa o'zini erkin sezadi. SHu bois ko'proq ular bilan bo'lishni istaydi.

O'smirning faoliyatida o'qish muhim o'rin tutadi. O'qish ishga aylanib qolganligi uchun talablarning ortib borayotganligiga o'smir befarq munosabatda bo'ladi. Fanlarni o'zlashtirishda qisman "pastlashish" holati kuzatiladi. Ammo mustaqil topshiriqlarni bajarishda faol bo'ladi.

O'smir intizomida salbiy holatlar ko'rina boshlaydi. Bu hol uning mustaqil bo'lishga intilishi asosida yuzaga keladi. Agar o'qituvchi o'quvchi hususiyatini yahshi bilmasa, qo'yilayotgan talablarda birlik, yaqinlik bo'lmasa hamda ular asoslab berilmasa, o'smir hulqida kattalarga bo'ysunmaslik kabi salbiy hususiyatlar qaror topadi va uning hatti-harakatida bu hususiyatlar ko'rinadi.

O'smir o'quvchining e'tiborini o'qishdan tashqari ishlarni o'ziga jalb qiladi. O'smir muayyan yo'nalishga ega harakatli o'yinlar qiziqish uyo'otadi. Bu hildagi ishlarda u o'zining Shaxsiy sifatlarini namoyish qilish imkoniga ega bo'ladi.

Jamoat ishlariga o'smirlarni faol jalb etish ularda ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik kabi fazilatlarni shakllantiradi. O'smir uchun tengdoshlarining e'tibori, jamoaning fikri unga ota-ona va o'qituvchi fikridan ham ko'proq ta'sir qiladi. SHuning uchun u tengdoshlari o'rtasida obro' orttirishga, liderlikka intiladi. Agar u o'zini o'qish va jamoa ishlarida ko'rsata olmasa yomon hulqli o'quvchi bo'lib tanilishiga ham rozi. Bu esa aksariyat hollarda o'smirni "krimenogan" mikromuhitga tomon etaklab boradi. Bu kabi holatlarni oldini olishda eng to'o'ri yo'l har bir o'smir uchun o'z kuchi va imkoniyatlariga loyiq jamoa topshirio'ini berilishidir. SHundagina o'smir jamoa

uchun kerakliligini anglaydi.

O'smirda his-tuyo'ularni idora qilish layoqati endi-endi shakllana boradi. Bu uning hulqida namoyon bo'ladi. O'zining har narsaga jahli chiqishi, qo'pollik holatlari tez-tez yuz beradi. O'smirlarning bu hususiyati ko'proq bahs-munozara jarayonida ko'zga tashlanadi. Garchi, o'z fikri asosli bo'lmasa-da uni ma'qullashga urinadi.

13-14 yoshlarda o'smirlarda burch hissi, mas'uliyat tuyo'usi o'sadi, birmuncha vazminlik paydo bo'la boshlaydi. Bu davrda o'smirda maqsadga intilish, o'zi uchun ideal tanlash vujudga keladi. O'smirlarda ahloqiy e'tiqod shakllanib, o'ziga hos qarashlar tarkib topa boradi.

Demak, o'smir bilan munosabatda sabr-toqat, vazminlik zarur. Unga mustaqillik berish, buyruq emas, aksincha, maslahat berish bu yoshdagi o'quvchilarni to'o'ri tarbiyalashning garovidir.

O'spirinlik davri. O'spirinlik davri jismoniy o'sishning tinch davri sanaladi. SHu boisdan, o'smirlardan farqli ravishda o'spirinlar faoliyatida romantik his-tuyo'ulardan ko'ra ko'proq realizm muhim o'rin tutadi.

O'spirinning tana tuzilishidagi organlarning (qo'l, oyoq, ko'krak qafasi, elka) bir-biriga muvofiqsizligi o'spirinlik davriga kelib, asta-sekin yo'qola boradi, ularning qomatlari shakllanadi. Tana massasi bilan yurakning hajmi o'rtasidagi munosabatda uyo'unlik, orqa umurtqa suyaklari bilan tananing tuzilishida muvofiqlik vujudga keladi. Muskullarning kuchi va ish qobiliyati ortadi. Ichki sekretsiya bezlarining faoliyati muvozanatlashadi. Jinsiy etilish asosan tugaydi. Ba'zi o'spirinlarda bunday etilish ortda qoladi. Bunga sabab bolalikda kechirgan oo'ir kasalligi, organizmning kuchsiz, nimjon yoki dardchilligi bo'lishi mumkin. Bugungi kunda o'smirlar rivojlanishidagi (tezlashish) tufayli o'spirinning etilishi ham tezlashadi va yuqorida qayd etilgan holat deyarli kuzatilmaydi.

O'spirinlarda organlarning tarkib topishi va organizm to'qimalaridagi takomillashish nihoyasiga etadi. Ular jismoniy kuchli, hushbichim va soo'lom bo'lganliklari tufayli tetik va quvnoq hayot kechiradilar.

O'spirinlar miya hujayralarining tuzilishida ro'y bergan takomillashish, asab tizimi va faoliyati mazmunining o'zgarishiga olib keladi.

O'spirin faoliyatining asosiy turi o'qish bo'lib qolaveradi. Bilimlar hajmi kengayadi. Ular ijtimoiy munosabatlar, hususan oila, moliyaviy, me'yoriy, ma'muriy, ho'jalik, mehnat hamda jinoiy faoliyatlar mohiyatini teran tushunishga intila boshlaydilar. SHu sababli mazkur yosh davrida ularga ijtimoiy-ma'naviy bilimlarni berish maqsadga muvofiqdir. O'spirin nazariy ma'lumotlar mazmunini tahlil eta olish imkoniga ham ega. Oilaviy, ho'jalik, oldi-sotdi hususidagi munosabatlarni tashkil etish, maishiy va aloqa hizmatlari, shuningdek, jamoat transportidan foydalanish choo'ida ularda ijtimoiy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqish hosil bo'ladi. Ehtiyoj hamda qiziqish o'z-o'zidan ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga bo'lgan raobatni yuzaga ketiradi.

O'spirin ijtimoiy munosabatlar mohiyatini anglashga, ular haqida chuqur mulohaza yurgizishga intilar ekan, ularda ahloqiy (ma'naviy) tasavvur va idrok hosil bo'ladi. Ihtiyoriy va barqaror diqqat esa, ularning ma'naviy tafakkurining shakllanishiga imkon yaratadi, natijada ular ijtimoiy munosabatlar borasida mantiqiy asosli fikr yurita boshlaydilar.

O'spirin yoshda o'quvchilar turli o'quv fanlarining nazariy va metodologik asoslarini egallashga intiladilar, fanlararo aloqadorlik va boo'liqlik hususida fikr yurita boshlaydilar. SHu bois, ta'lim va tarbiyani tashkil etishda fanlararo aloqadorlikdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Iqtisodiyot va ekologiya asoslari, mehnat hamda harbiy ta'lim kabi fan va mahsus kurslar doirasida iqtisodiy, ekologik, mehnat va harbiy faoliyatlarning ma'naviy asoslari, oqibatlar to'o'risidagi ma'lumotlarning berilishi o'spirinlarda ma'naviy savodhonlikning vujudga kelishini ta'minlaydi.

O'spirinlarda Shaxsiy faoliyatni tashkil etishda mustaqillikka intilish yaqqol ko'zga tashlanadi, bu esa ularda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mazmunini o'zlashtirishda ijtimoiy faollik ko'rsatish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Ularning o'quvchilar o'z-o'zini boshqarish organlari, jamoatchilik tashkilotlari faoliyatidagi ishtiroki ana shu ehtiyojni qondirish yo'lida muhim vosita bo'lib hizmat qiladi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Shaxs rivojlanishi nimani anglatadi?

2. Shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchini izohlang.

3. Shaxsni rivojlanishi, tarbiyasi, ijtimoiylashuvi mohiyati nimada?

4. Shaxs rivojlanishiga qanday omillar ta'sir qiladi?

5. Faoliyat shaxsni rivojlanishiga qanday ta'sir qiladi?

6. Yosh davrlarni yuqoriga qarab ketma-ketlikda “norvon” zinalariga joylashtiring.

7. *Amaliy topshiriq:* moslik oʻrnatish.

<p>1. Keltirilgan xarakteristikalar shaxsga toʻgʻri keladimi yoki individga? A. Shaxsga B. Individga</p>	<p>1.Xususiyat ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiritish bilan aniqlanadi; 2. Inson koʻrinish vakili sifatida; 3.Xususiyat hamkorlikdagi faoliyatda va muloqotda namoyon boʻladi; 4. Temperament; 5. Xarakter.</p>
<p>2. Quyidagilar shaxsning qanday tarkibostiga (K.K. Platonov boʻyicha) mansub: a) biologik xossalar tarkibosti); b) aks etish shakl tarkibosti; v) tajriba tarkibosti; g) yoʻnaltirilganlik tarkibosti; d) xarakter va qobiliyatlar.</p>	<p>1. Ishonch, dunyoqarash; 2.Bilish jarayonlarining xususiyat-lari; 3. Temperament; 4. Koʻnikma, bilim, odat; 5.His-tuygʻu jarayonlarining xususi-yatlari.</p>
<p>3. Shaxsning qanday tarkibosti haqida gap bormoqda? a) biologik xossalar tarkibosti; b) aks etish shakl tarkibosti; v) tajriba tarkibosti; g) yoʻnaltirilganlik tarkibosti; d) xarakter va qobiliyatlar.</p>	<p>1. Tarkibostini shaklantirish ong rivojlanishi bilan bogʻliq; 2. Shaxsning boshqa tarkibosti ele-mentlaridan tashkil topgan; 3. Biologik omillar tarkibostiga minimal taʼsir etadi.</p>

<p>4. Keltirilgan xususiyatlarning qaysilari xarakterga va qay-silari temperamentga mansub?</p> <p>A. Temperamentga B. Xarakterga</p>	<p>1. Shaxsning dinamik xususiyatlari, uning psixik jarayonlari va holat-lari tomonidan xarakteristikasi;</p> <p>2. Insonning atrofdagi dunyoga, bosh-qalarga va o'ziga munosabatini ifodalaydi;</p> <p>3. Faoliyat stili va tempini aniq-laydi;</p> <p>4. Hulq-atvorning odatiy usullarida mustahkamlanadi;</p> <p>5. Tarbiya ta'sirida amaliy jihatdan o'zgarmaydi.</p>
---	---

4- MAVZU. YAXLIT PEDAGOGIK JARAYON

Tayanch tushunchalar: yaxlit pedagogik jarayon, pedagogik jarayon tuzilishi, pedagogik jarayon qonuniyatlari, pedagogik jarayon tamoillari, ta'lim, tarbiya.

4.1. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va tuzilishi

Pedagogik jarayon - bu shaxsni o'z-o'zini namoyon qilishi va to'liq rivojlanishini, subyektlarning ijodkorligi va hamkorligini hamda birgalikdagi faoliyatlarini, ta'lim va tarbiyani birligi va aloqadorligini xarakterlovchi yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayon. Demak, pedagogik jarayon pedagogik tizim sharoitida ta'lim va tarbiya maqsadlarini o'zaro aloqadorlikda amalga oshirishga qaratilgan yaxlit jarayon hisoblanib, uning mohiyati jarayon ishtirokchilarini rivojlanishiga ta'sir etuvchi tashqi omillarni tanlash va tarbiyaviy munosabatlarni tashkil etish bilan xarakterlanadi.

An'anaviy pedagogik ta'limotda ta'lim-tarbiya birligi, ya'ni yaxlit pedagogik jarayon g'oyasi XIX asr boshlarida paydo bo'ldi. Nemis olimi

I. F. Gerbart pedagogika nazariyasini tarbiyalovchi ta'lim tushunchasi bilan boyitdi. Rus pedagoglari K.D. Ushinskiy, P.F. Kapterev, A.P. Pinkevich, P.P. Blonskiylar tomonidan yaxlit pedagogik jarayon nazariyasi ishlab chiqildi. Biroq sobiq ittifoq davrida yosh avlod tarbiyasi davlat siyosati mafkurasi ruhida

tarbiyalash, ta'lim va tarbiya masalalari nazariya va amaliyotda ajralib qoldi.

XX asrning o'rtalarida sobiq sho'ro pedagogikasida yaxlit pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiya aloqadorligi, pedagogik tajribalarda ta'lim va tarbiya birligi ikki aloqador jarayon sifatida namoyon bo'ldi. Pedagogik jarayon yaxlitligi deganda, biz pedagogik jarayonni tashqi muhit hodisalari bilan aloqadorligini, pedagogik jarayonning barcha o'zaro aloqador subyektlari o'rtasidagi hosil bo'ladigan yaxlit jarayonni tushunamiz. Sobiq ittifoq davrida yaxlit pedagogik jarayon nazariyasining rivojlanishi V.A.Slasyonin ilmiy maktabi bilan bog'liq. Yaxlit pedagogik jarayon- pedagogik jarayon rivojlanishining oliy darajasi bo'lib, uning barcha komponentlarining aloqadorligini va birligini ifodalaydi. Yaxlitlik pedagogik jarayonning sintetik xarakteristikasi hisoblanib, ta'lim va tarbiyaning ajralmasligida namoyon bo'ldi.

Yaxlit pedagogik jarayonning tuzilmaviy komponentlariga: maqsad, mazmun, shakllar, pedagog faoliyati, metod va vositalar hamda o'quvchilar faoliyati, birgalikdagi faoliyat natijasi kiradi.

Pedagog faoliyati - mutaxassisning maxsus tayyorlangan faoliyati bo'lib, tarbiyachining kasbiy onggi va ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqadigan maqsad va vazifalardan aniqlanadi. Shuning uchun o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metod va vositalar maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Tarbiyalanuvchilar yoki bolalar jamoasi faoliyati ham anglangan va anglanmagan maqsad va motivga ko'ra aniqlanadi. Bu yerda jamoaning har bir a'zosining shaxsiy maqsadi jamoa yoki o'qituvchining maqsadi bilan har doim ham mos kelavermaydi.

Yaxlit pedagogik jarayon quyidagi funksiyalarni bajaradi: Yaxlit pedagogik jarayonning tarbiyaviy funksiyasi o'quv tarbiyaviy jarayonda qo'llaniladigan o'quv reja va dasturlarda, metod va vositalarda, tarbiyachilar shaxsi va kasbiy mahoratida umuman tarbiya makonida namoyon bo'ladi. Yaxlit pedagogik jarayonining ta'limiy funksiyasi asosan ta'lim jarayonida, barcha sinfdan tashqari ish- lardagi ijodiy faoliyat va munosabat tajribasi, bilim, ko'nikma va malakalar yig'in- disi sifatida umuminsoniy madaniyat elementlarini o'zlashtirilishi bilan xarakter- lanadi. Yaxlit pedagogik jarayonining rivojlantiruvchi funksiyasi har qanday o'quv tarbiyaviy jarayonni tashkil etilishida amalga oshiriladi, ammo rivojlanish tezligi bilim,

ko'nikma, malakalarga yoki o'quvchilarni bilish yoki motivni shakllantirish sohalariga e'tibor qaratilganligiga bog'liq. Pedagogik jarayonning ijtimoiylash- tirish funksiyasi barcha ta'lim muassasalarida namoyon bo'ladi. Har qanday ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchi o'zi uchun yangi munosabatlarga kirishadi.

4.2. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va prinsiplari

Pedagogik jarayonning umumiy qonuniyatlariga quyidagilar kiradi. 1. Pedagogik jarayonni dinamikligi qonuniyati. Pedagogik jarayon o'zgaruvchan xarakterda bo'lib, jarayonning boshlanishidan yakuniy bosqichgacha pedagog va tarbiyalanuvchilarning o'zaro hamkorliklarida ham bu hol sezilib turadi.

2. Pedagogik jarayonda shaxsni rivojlanishi qonuniyati. Shaxs rivojlani- nishi tempi va erishilganlik darajasi irsiyatga, tarbiyaviy va o'quv muhitiga, o'quv- tarbiyaviy faoliyatga kirishuviga, pedagogik ta'sir ko'rsatishning metod va vositalariga bog'liq.

3. O'quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarish qonuniyati. Pedagogik ta'sir samara- dorligi pedagog va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi teskari aloqalarning tezligiga hamda tarbiyalanuvchilarga ta'sir etishning asoslanganligiga va xarakteriga bog'liq.

4. Pedagogik jarayonda stimullashtirish qonuniyati. Pedagogik jarayon mahsuldorligi o'quv-tarbiyaviy faoliyatning ichki stimul va motivlariga hamda tashqi (ijtimoiy, pedagogik, axloqiy, moddiy) stimullarning tezligi va xarakteriga bog'liq.

5. Pedagogik jarayonda amaliyot, mantiq va hissiyot birligi qonuni- yati. Pedagogik jarayon samaradorligi hissiy bilish tezligi va sifatiga, mantiqiy fikrlar va o'zlashtirilgan materialni amaliyotda qo'llanilishiga bog'liq.

6. Tashqi (pedagogik) va ichki(bilish) faoliyat birligi qonuniyati. Pedagogik jarayon samaradorligi pedagogik faoliyat va tarbiyalanuvchilarning shaxsiy o'quv- tarbiyaviy faoliyati sifatiga bog'liq.

7. Pedagogik jarayonning bog'liqligi qonuniyati. Pedagogik jarayonni borishi va natijasi jamiyat va shaxs ehtiyojlariga, jamiyatning (moddiy-texnik, iqtisodiy) imkoniyatlariga, jarayonning (axloqiy-psixologik, sanitar-gigiyenik, estetik) shart sharoitlariga bog'liq.

4.3. O'qituvchi va o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faoliyatlari. O'qituvchi faoliyatining vazifasi va tuzilishi. Ta'lim muassasasi (umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari)da, tashkil etiluvchi ta'lim jarayonida o'quvchining faoliyati o'qituvchi rahbarligi ostida kechadi. O'qituvchi faoliyatining vazifasi o'quvchilarning ijtimoiy borliqni ongli va faol idrok etishga yo'naltirilgan faoliyatlarini boshqarishdan iboratdir.

Ta'lim jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) rejalashtirish;
- 2) tashkil etish;
- 3) boshqarish (rag'batlantirish);
- 4) nazorat;
- 5) natijalarni baholash va tahlil qilish.

O'qituvchi faoliyatini rejalashtirish bosqichi kalendar-tematik yoki darslar rejalarini tuzish bilan yakunlanadi. Rejalar, reja-konspektlar yoki konspektlarni tuzish uchun uzoq, jiddiy ishlash kerak bo'ladi.. O'qituvchi o'quvchilarning tayyorliklari darajasi, ularning o'quv imkoniyatlari, moddiy baza holati, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o'rganib chiqishi, o'quv materialini mazmunini tanlab olishi, dars olib borish shakli va metodini o'ylab chiqishi kerak bo'ladi.

O'quvchilar faoliyatini tashkil etish o'quvchilar oldiga o'quv masalalarini qo'yishni va uni bajarish uchun imkoniyatlar yaratishdan iborat bo'ladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faoliyati. Bilim olish faoliyatning o'ziga xos ko'rinishi sifatida muayyan tuzilish, rivojlanish va faoliyat qonunfyatlariga ega. Bilim olish borliqni idrok etish, o'rganish, mashq iqilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni hisoblanadi. Bilim olishning muhim komponenti motiv. ya'ni, ta'limiy xarakterdagi harakat yoki faoliyatni tashkil etishga nisbatan rag'batni his etish, ehtiyojning yuzaga kelishidir.

O'qishning keyingi komponenti o'quv harakatlari (operatsiyalari) sanalib, ular anglangan maqsadga binoan amalga oshiriladi. O'quv harakatlari o'quv jarayonini tashkil etishning barcha bosqichlarida namoyon bo'ladi. Harakatlar tashqi (kuzatiladigan) va ichki (kuzatilmaydigan) ko'rinishda bo'lishi

mumkin. Tashqi o'quv harakatlariga predmetli harakatlar (yozish, rasm chizish, tajribalar o'tkazish); perseptiv harakatlar (tinglash, fikrlash, kuzatish, sezish) hamda nutqdan foydalanish kiradi.

Ichki (mnemonik, yunonchadan «mnemonikon» — eslab qolish madaniyati) harakatlarga materialni eslab qolish, uni tartibga solish va tashkil etish, shuningdek, tasavvur va fikrlash harakatlari (intellektual) kiradi.

Har qanday bilimni o'zlashtirishda o'quvchilardan idrok etish madaniyatiga ega bo'lish va o'quv materialini anglab etish talab etadi. Pedagogik jarayonda o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning ma'nosini etarli darajada tushunmay, faqat tovushlar birligi sifatida qabul qilinishi va yodlab olinishi xavflidir.

O'quvchilarni ilmiy bilimlarni ularning mohiyatini to'la tushungan holda o'zlashtirish shartlari bilan tanishtirib, ularga o'zini o'zi nazorat qilishning mohiyati va ahamiyatini tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

O'zini o'zi nazorat qilishda o'quvchilar ular qo'llayotgan aqliy mehnat vositalarining samaradorligi, shuningdek, o'z mehnati natijalarini baholashi kerak.

Natijalarni baholash. nazorat qilish va tahlil etish o'quv harakatlarining ajralmas qismlari hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'quvchi tomonidan o'zini nazorat qilish, o'zini baholash va o'zini analiz qilishni amalga oshirish o'qituvchining shunga o'xshash o'rgatuvchi harakatlarini kuzatish asosida shakllanadi. Bu harakatlarni shakllantirish o'quvchilarni o'z tengdoshlari faoliyatini kuzatishga jalb etish, o'zaro nazoratni tashkil etish, o'rnatilgan mezonlar asosida o'z faoliyati natijalarini o'zaro baholash va tahlil qilishga yordam beradi.

4.4..Yaxlit pedagogik jarayonni jadalashtirish

Lotincha Intensio tushunchasi - kuchaytirish, tezlatish degan mahnoni anglatadi.

Yaxlit pedagogik jarayonni jadallashtirish - vaqtning har bir bo'lagi uchun ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish demakdir.

Yaxlit pedagogik jarayonni jadallashtirish shartlari:

1. Pedagogik jarayoning maqsadga yo'naltirilganligini kuchaytirish, o'quv-tarbiya tadbirlarida ilgari surilayotgan vazifalarning jiddiyligini oshirish bilan birga ularning shu sinfga,

o'quvchilarga, jamoaga qulayligini ham hisobga olish kerak.

2. O'quvchilarning o'qish, ijtimoiy, mehnat va boshqa faoliyati asoslarini chuqurlashtirish.

3. Eng zarur axborotlarni saqlagan holda mazkur sinf o'quvchisiga etkaziladigan axborot hajmini oshirish.

4. O'quv, ijtimoiy mehnat va boshqa faoliyatlar tezligini oshirish.

5. O'quvchilarning mustaqil bilish va ijtimoiy foydali faoliyatlarini aktivlashtiruvchi kompleks shakl va metodlarni joriy etish.

6. Axborot va ta'lim texnologiyalarini keng ko'llash.

7. O'quvchilarning mustaqil bilishini yo'lga qo'yish orqali o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'ziga tahsir ko'rsatish, majburiyat olish, baho bera olish, o'z-o'ziga hisob berishdan iborat usullardan unumli foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga kuchli yordam beradi.

6. Yaxlit pedagogik jarayonni optimallashtirish.

Yaxlit pedagogik jarayonni o'timallashtirish (lotincha o'timus - eng mahqul) - eng qulay, eng mahqul degan mahnoni bildirib, keng mahnoda olib qaralganda, ushbu sharoit uchun har qanday vazifalarni hal etishning eng qulay, eng mahqul, to'g'ri variantlarini tanlash demakdir.

Mahlum mezonlar nuqtai nazaridan qaralganda, yaxlit pedagogik jarayonni o'timallashtirish ushbu sharoit uchun ta'lim-tarbiyaning eng maqbul vazifa, mazmun, shakl va metodlarini ilmiy asoslangan holda tanlash va amalga oshirish deganidir.

Optimallashtirishda boshlang'ich holatdan qaror qabul qilingungacha bo'lgan jarayon quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1. Qo'yilgan vazifalarni hal etishning bir nechta variantlarini qarab chiqish.

2. Ushbu sharoit uchun tanlab olingan variantning asosliligini, zarurligini anglab etish.

3. Ushbu vazifalarni hal etish uchun tavsiya etilgan usullarning samaradorligini qiyosiy tahlil etish orqali anglash.

4. Taqdim etilgan variantlarni eng maqbul ikkita variantgacha qisqartirish.

5. Ikkalasini vaqt va samara nuqtai nazaridan taqqoslash.

6. Eng mahqul variantni o'timallashtirish mezoni nuqtai

nazardan tanlash.

Lekin eng maqbul variantni tanlash o'qituvchidan fikrlashning muammoli-tadqiqot usulidan foydalanishni taqozo etadi.

Ta'lim jarayonini o'timallashtirishda uning mezonini faoliyatni to'g'ri baholashga yordam beradi.

O'quvchi u yoki bu materialni o'zining maksimal darajadagi imkoniyati doirasida o'zlashtiradi (natijaga real erishish mumkin bo'lgan imkoniyat). Bu esa, o'z o'rnida, o'qitishni o'timallashtirish uchun o'quvchilarning real o'quv imkoniyatlarini o'rganishni talab etadi.

Real o'quv imkoniyatlari ichki (sog'liq, bilim darajasi, fikrlash qobiliyati, o'qishga munosabat, mashuliyat hissi) va tashqi (oilalar, tengdoshlar, jamiyat ta'siri) sharoitlarning o'zaro uzviylikida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi bolaning bugungi real o'quv imkoniyatlarini bilishigina emas, shuningdek, yaqin rivojlanish zonasini, Ya'ni yaqin rivojlanish imkoniyatlarini anglab etishi ham zarur bo'ladi.

Shunday qilib, optimallashtirishning birinchi mezoniga ko'ra, o'quvchi shunday o'zlashtirish darajasiga erishishi kerakki, ushbu daraja uning yaqin rivojlanish zonasidagi imkoniyatlariga to'g'ri kelsin.

Optimallashtirishning ikkinchi mezonini shuki, o'quvchi va o'qituvchi dars va uy mashg'ulotlariga ajratilgan vaqtga qat'iy amal qilsinlar.

Tarbiyada birinchi mezon erishilgan natijaning qo'yilgan maqsad va vazifalarga to'g'ri kelishida ifodalanadi.

Ikkinchi mezon tarbiyachining tarbiyalanuvchi uchun ajratilgan mehyorlarga qat'iy amal qilishida ko'rinadi.

O'qituvchi amaliy faoliyatidagi pedagogik jarayonlarning asosiy komponentlarini o'timallashtirish usullari tizimi quyidagicha:

1. Ta'lim-tarbiya jarayoni uchun eng maqbul (ratsional) vazifalar kompleksini tanlaydi.

2. Ushbu sinf xususiyatidan kelib chiqib, vazifalarni aniqlashtiradi.

3. Qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun zarur mazmun tanlaydi.

4. Ushbu mazmunni amalga oshirish uchun eng maqbul metod, shakl va vositalar tanlaydi.

5. Tezkor tarzda jarayonga o'zgartirishlar kiritadi va unga ko'ra

metod, shakl va vositalarni o'zgartiradi.

6. Qilingan ishlar chuqur va har tomonlama tahlil etiladi (natija va vaqt nuqtai nazaridan).

7. Pedagogik jarayonni harakantiruvchi kuchlar.

Pedagogik jarayonning asosiy elementlari: maqsad, vazifa, vosita va natija. Vosita keng mahnoda mazmun, shakl va usullarni o'z ichiga oladi. Pedagogik jarayonni harakatlantiruvchi kuchlar: qo'yilgan talablar bilan tarbiyalanuvchi imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlardir. Xuddi shu qarama-qarshilik rivojlanish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasiga izoh bering?
2. Yaxlit pedagogik jarayon tuzilishini asoslang?
3. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va prinsiplari mazmun mohiyatini yoriting?
4. Pedagogik jarayonni optimallashtirish deb nimaga aytiladi?
5. Tizim tushunchasiga ta'rif bering.
6. Yaxlit pedagogik jarayonning tashqi qonuniyatlariga nimalar kiradi?
7. Yaxlit pedagogik jarayonning ichki qonuniyatlarini tasniflang.
8. Yaxlit pedagogik jarayon bosqichlarini aytib bering.

5- MAVZU.DIDAKTIKA - PEDAGOGIK TA'LIM NAZARIYASI.

Tayanch tushunchalar: didaktika, ta'lim nazariyasi, paradigma, ta'lim maqsadi, ta'lim jarayoni, prinsip, ta'lim mazmuni, metod, natija.

5.1. "Didaktika" tushunchasining mohiyati.

Didaktika ijtimoiy tajribani yoshlarga o'rgatish muammolarini tadqiq qiluvchi pedagogik fandır. Ijtimoiy tajriba mazmunan boy tajriba bo'lib, u tabiat, jamiyat va inson tafakkuri haqidagi bilimlarni ham,

hozirgi zamon ishlab chiqarishining umumiy asoslari to'g'risidagi qarashlarni ham moddiy va ma'naviy olamga oid tasavvurlarni ham o'ziga qamrab oladi. Uni yoshlarga o'rgatish avlodlar o'rtasidagi vorisiylikni ta'minlaydi.

Didaktika – pedagogikaning mustaqil tarmog‘i. Ta‘lim – tarbiya nazariyasi, ya‘ni maqsadlari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

Didaktika pedagogikada ta‘lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o‘rganuvchi qismidir.

Didaktika grekcha so‘z bo‘lib, “**didasko**” – o‘qitish, “**didaskol**” – o‘rgatuvchi degan so‘zlardan kelib chiqqan.

“Didaktika”ning so‘zma – so‘z tarjimasini ta‘lim nazariyasini anglatadi.

Bu atamani nemis pedagogi V. Ratke (1571-1635) fanga kiritgan. Didaktika nomi ostida nazariy va metodologik asoslarini tadqiq qiladigan ilmiy fanni tushundi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya. A. Komenskiy (1592-1670) tomonidan ishlab chiqilgan. U 1657 yilda u chex tilida «Buyuk didaktika» asarini yozdi. Didaktika nomi ostida Komenskiy “Hammani hamma narsaga o‘rgatish san‘ati”, deb tushundi. Didaktikaning mohiyatini ishlab chiqishda G. Pestalossi, I. Gerbart, K.D. Ushinskiy, V. Ostrogorskiy, P. Kapterev kabi mashhur olimlar katta hissa qo‘shishdi. Bu yo‘nalishda didaktlar Yu.K. Babanskiy, N. Gruzdev, M. Danilov, B. Yesipov, L. Zankov, M. Skatkin kabilar ham ancha ishlarni amalga oshirishdi.

Manbalarda didaktikaning munozara bahsi turlicha talqin qilinadi. Sh.I.Ganelin, B.P.Yesipov “ta‘lim” va “ma‘lumot” tushunchalari o‘rtasidagi munosabatga asoslanib, didaktikaning tadqiqot predmetini bayon qilishgan: ularning fikricha, ta‘limning ma‘lumotga munosabati vositaning maqsadga munosabati shaklida amal qiladi: har qanday yaxlit didaktik nazariya ta‘lim va ma‘lumot nazariyasidir. “Didaktikaning tadqiqot predmeti, deb qayd etishgan edi bu olimlar, har doim yosh avlodning ma‘lumoti mazmuni va shu mazmuni egallash jarayonini tashkil etishdir”.

Haqiqatdan ham, didaktika yoshlarni ma‘lumotli fuqarolar qilib yetishtirish, ularning bilim va malakalarni egallash jarayonini tashkil etish masalalari bilan shug‘ullanadi. Ammo bu ma‘lumot va uni egallash jarayoni didaktikaning tadqiqot predmetidir, degan xulosaga olib kelmasligi kerak.

Yuqoridagi ta‘rifda didaktikaning tadqiqot predmeti ikki narsama‘lumot mazmuni va ta‘lim sifatida belgilanadi. Har qanday fan, jumladan, didaktika ham, yagona tadqiqot predmetiga ega. Keltirilgan ta‘rifda didaktika o‘rganadigan sohataqiqot obekti bilan

didaktikaning munozara bahsitadqiqot predmetini chegaralamaslik natijasida chalkashlikka yo‘l qo‘yilgan.

“Didaktika” termini ma’nosidan kelib chiqib, didaktikaning tadqiqot predmetini aniqlash moyilligi ham bor. T.A.Ilina “Didaktika” gerekcha “didaktikos” so‘zidan olingan bo‘lib, “o‘qitish” ma’nosini anglatadi degan fikrni keltiradida, “didaktikaning predmeti ta’lim jarayoni va uning qonuniyatlaridir”, deb yozadi.

To‘g‘ri, qadimgi greklar o‘qitish faoliyatiga nisbatan “didasko”, uqituvchi o‘rnida “didaskal”, o‘quvchiga nisbatan “didaskales” atamalarini ishlatishgan. Ammo “Didaktika” termini o‘zining dastlabki ma’nosidan ancha uzoqlashgan. Hozirgi bu tushunchaning hajmi va mazmuni ancha boyigan va kengaygan bo‘lib, u faqat o‘qituvchining faoliyatigina emas, shu bilan birga o‘quvchining faoliyatini ham o‘ziga qamrab oladi. Bu tushunchaning mazmun va hajm jihatidan boyiganligini hisobga oladigan bo‘lsak, u paytda didaktikaning munozara bahsi noaniq qayd etilganini aytib o‘tishga to‘g‘ri keladi.

Taniqli polyak didakti Ch.Kupisevich “O‘qitish” va “o‘qish” atamalarining daxldorligiga asoslanib didaktikaning tadqiqot predmetini belgilaydi. Uning yozishicha, didaktikaning tadqiqot predmeti o‘qitish va o‘qish jarayonlari bilan birga ularni (o‘qitish va o‘qish jarayonlarini) yuzaga keltirish faktorlari shartsharoitlari va bu jarayon olib keladigan natijalardir. Ch.Kupisevich didaktikaning tadqiqot predmetini juda keng tasvirlagan. Didaktikaning tadqiqot predmeti sifatida ajratilgan didaktik hodisa genetik jihatdan birlamchi, yagona universal va umumiy xarakterda bo‘lishini ham unutmashlik kerak.

Ayrim mutaxassislar didaktikaning tadqiqot predmetini “ta’lim” tushunchasiga asoslanib aniqlashadi. V.V.Kraevskiy ta’limning ma’lumotga yo‘nalgan faoliyat ekanligi, ilmiy asoslangan loyihaga (masalan, o‘quv dasturi asosida) ko‘ra amalga oshirilishi, o‘ziga xos mazmun va jarayoniy xususiyatlarga egaligi, kollektiv sub’ektlar tomonidan bajarilishi kabi qator xarakterli alomatlariga asoslanib, “didaktikaning tadqiqot predmeti o‘qitish va o‘qishning birligi, ularning o‘zaro ta’siridagi aloqadorlikdir”, deb qayd etadi.

Fikrimizcha, didaktikaning tadqiqot predmetini aniqlashga V.V.Kraevskiy to‘g‘ri yondashgan. Lekin bu yerda bir qator savollar tug‘iladi: didaktikaning tadqiqot predmetini o‘qitish va o‘qishning

birligimi? O‘qitish va o‘qishning o‘zaro ta’sirdagi aloqadorligimi? bu savolarga e’tibor beradigan bo‘lsak, V.V.Kraevskiy bergan didaktik aniqlikda qaytariq–tavnologiya borligini ta’kidlashga to‘g‘ri keladi

5.2. Didaktika pedagogika fanining tarkibiy qismi sifatida.

Didaktika pedagogikaning “Nima uchun o‘qitish kerak”, “Nimani o‘qitish kerak”, “Qanday o‘qitish kerak”, “Qanday hajmda o‘qitish kerak”, “Kimlarni o‘qitish kerak”, “Qaerda o‘qitish kerak”, “Nimadan foydalanib o‘qitish kerak” kabi savollariga javob izlaydi.

Umumiy didaktika. Umumiy didaktika o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining o‘zaro ta’siri to‘g‘risidagi fan bo‘lib, u barcha o‘quv predmetlarini ijtimoiygumanitar, tabiiy fanlarni o‘qitish, ma’lumotning hamma darajalarini maktabgacha, boshlang‘ich, o‘rta, kasbhunar, oliy ta’limni amalga oshirishi muammolarini ta’lim muassasalarining hammasida boshlang‘ich ta’lim, o‘rta umumiy ta’lim maktablari, gimnaziya, litsey, kollejlarda o‘qitish tizimini o‘rganuvchi fandır. U o‘z tadqiqot predmeti mohiyatidan kelib chiqib, quyidagi savollarga javob izlaydi.

Nima uchun o‘qitiladi? Bu savol ma’lumotning maqsadi, vazifalari bilan aloqadordir. Ma’lumotning maqsadi o‘zgaruvchan hodisadir. Jamiyatning, shuningdek, fan, texnika, madaniyat taraqqiyoti asosida maktabning maqsadi, vazifalari belgilanadi. Bizda O‘zbekistonda rivojlangan demokratik xuquqiy davlat barpo etilmoqda. Bunday davlatda har tomonlama rivojlangan ijodkor yoshlarni tarbiyalash asosiy maqsad sanaladi.

Nega shunday o‘qitiladi? Bu savolga ko‘ra ta’lim jarayoni qonuniyatlarini, prinsiplari o‘rganiladi. Ta’lim jarayoni qonuniyatlari ochilib, prinsiplari asoslangan sari o‘quv tarbiya ishlarining sifati yaxshilanadi, samaradorligi oshadi.

Nima o‘qitiladi? Bu savol asosida ma’lumot mazmuni, uning tarkibiy elementlari aniqlanadi. Ma’lumot mazmuni keng tushuncha bo‘lib, u ijtimoiygumanitar va tabiiy fanlarini o‘ziga qamrab oladi. Ma’lumot mazmuni tarkibida to‘rtta element ajratiladi: bilimlar tizimi (1), ko‘nikma va malakalar tizimi (2), ijodiy faoliyat tajribasi (3), munosabatlar tizimi (4). Hozirgi an’anaviy maktabda asosiy e’tibor bilimlarni o‘zlashtirishga, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Bu o‘quv tarbiya jarayonini tashkil etish

tajribasining eng zaif tomonidir. Ma'lumot mazmunining barcha elementlariga rioya qilib, ta'lim jarayonini tashkil etish yo'li bilangina har tomonlama rivojlangan komil insonni yetishtirib chiqarish mumkin.

Qanday o'qitiladi? Bu savol ta'lim metodlari, usullari vositalarini o'rganishga yo'nalgan. Shu savolga ko'ra ta'lim metodlari, usullari, vositalarining samaradorlik darajasi tahlil etiladi.

Ta'lim qanday tashkiliy shakllar vositasida amalga oshiriladi? Bu savol ta'limning tashkiliy shakllarini (dars, uy ishi, eskursiya va sh.k) turlarini (izohliko'rsatmali, differensial, muammoli va boshqalar), o'quvchilar miqdoriga ko'ra ta'lim xillarini (individual, guruh, umumsinf) o'rganishga yo'nalgan.

Umumiy didaktikabarcha o'quv predmetlari. Ma'lumot darajalari asosida ta'limning maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, prinsiplari, metodlari, tashkiliy shakllari natijalarini o'rganuvchi fandır.

Bolalarning yosh xususiyatlari, tayyorgarligi, ma'lumot darajalari va o'quv yurti tiplariga qarab umumiy didaktikaning ushbu turlari farqlanib maktabgacha ta'lim didaktikasi: boshlang'ich sinflar didaktikasi; o'rta maktab didaktikasi: kasbhunar didaktikasi: oliy ta'lim didaktikasi.

Xususiy didaktika. Umumiy didaktika uning turlari barcha o'quv predmetlari, ma'lumot darajalariga oid muammolarning hammasini o'rgansa, xususiy didaktika (an'anaviy terminga ko'ra, "o'quv predmetlari metodikasi") aynan bir o'quv predmetni o'qitishning maqsadi, qonuniyatlari, prinsiplari, mazmuni, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllarini o'rganadi. Xususiy didaktikalar sirasiga matematika metodikasi, ona tili metodikasi, biologiya metodikasi va boshqalar kiradi.

Xususiy didaktikalar umumiy didaktika bo'yicha o'rganilgan bilimlarni, masalan, ta'lim prinsiplari, ma'lumot mazmuni bo'yicha hosil qilingan tasavvurlarni inkor etmaydilar. Aksincha xususiy didaktika bo'yicha o'rganilgan bilimlar umumiy didaktikadan hosil qilingan tushunchalarni to'ldirishga, ularni yanada oydinlashtirishga ko'maklashadi. Binobarin, umumiy va xususiy didaktikalar o'zaro uzviy bog'liq pedagogik fanlardir.

Umumiy va xususiy didaktikaning o'zaro aloqadorligini quyidagi misol bo'yicha tasavvur etish mumkin: ona tili o'qitishda

ta'lim prinsiplarining (ushbu darslikning ta'lim prinsiplari bobiga qarang) barchasi amalga oshiriladi. Shu bilan birga, maktablarga ona tili, o'qitishning o'ziga xos prinsiplar sirasiga til materiallarini ajratishga o'rgatish, nutq organlarini yetarli mashq qildirish, nutqdan tilga qarab borish, yozma nutqqa chog'ishtirib o'rganish kabilari kiradi. Demak, har bir o'quv predmetini o'rgatishda ham umum didaktik, ham aynan olingan o'quv predmetining o'z mohiyatidan kelib chiqadigan prinsiplariga rioya qilib, o'quv tarbiya ishlari tashkil etiladi.

Umumiy didaktika va xususiy didaktika fanlari umumiylik hamda xususiylilikning o'zaro munosabati shaklida amal qiladi. Umumiy didaktika o'z tadqiqot predmetini o'rganish, asoslash, bayon etishda xususiy didaktika yutuqlaridan foydalanadi. Xususiy didaktika, o'z navbatida, umumiy didaktika yutuqlari asosida o'z tadqiqot predmetini aniqlaydi, kategoriyalar tizimini belgilaydi, o'ziga oid o'quv predmeti bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish masalalarini ishlab chiqadi.

5.3. Yan Amos Kamnskiyning "Buyuk didaktika" asari

1632 yilda Leznoda Komensiy "Buyuk didaktika" deb nomlangan asosiy pedagogik ishini tugatdi, u hamma narsaga o'rgatish uchun universal nazariyani o'z ichiga oladi, dastlab chex tilida yozilgan va keyinchalik lotin tiliga tarjima qilingan. U o'zining yangi g'oyasi "pansofiya" (pansofiya hamma narsani bilish, universal donolik) haqida o'ylay boshladi. Ish rejasi e'lon qilindi, javoblar darhol kiritildi bu ensiklopediya g'oyasi davr talablariga mos edi, Evropa mutafakkirlari o'rtasida munozaralar boshlandi; kimdir Komensiyga qo'shilmadi, kimdir uning fikrini ma'qullab qabul qildi. Kamenskiy pansofiyasining asosiy g'oyasi yangi yuqori axloqli, bilimdon va mehnatkash insonni tarbiyalash. Komeniy turli mamlakatlarga taklif qilingan, uning pansofik g'oyalari va xristianlikning barcha oqimlarini birlashtirish istagi Evropa mamlakatlaridagi taniqli odamlarning e'tiborini tortgan. U takliflardan birini qabul qildi va jamoaning roziligi bilan Angliyaga ketdi, lekin bu erda aholi o'rtasida inqilobiy tartibsizliklar boshlandi va u mamlakatda qolishga jur'at eta olmadi. Kardinal Rishelining topshirig'iga binoan, u Frantsiyada pansofiya haqidagi ishini davom ettirishini so'radi. Komeniy Shvetsiyaga borishga qaror qiladi, chunki

shvedlar "chex birodarlar" ga achinib, ularga moddiy yordam ko'rsatgan. 1642 yilda u Shvetsiyaga joylashdi, u erda lotin tilini o'rgatish va uning metodikasini yaratish bilan shug'ullanishdi. Istamay. Komensiy bu ishni ikkinchi darajali deb hisoblab ishga kirishdi. Uning uchun asosiysi "pansofiya" edi, uning fikricha, xalqlar o'rtasida tinchlik o'rnatishga yordam berishi mumkin edi. Lekin biznesga kirishga majbur bo'lish kerak.

Komensiy o'zining pedagogik nazariyasining asosi bo'lgan atrofdagi dunyo, inson, tabiat, inson faoliyati, inson jamiyati haqidagi qarashlarini izohlab beradi. Komensiy tabiat va insonning ilohiy kelib chiqishini tan oladi va ularga ilohiy sifatlarni ato etadi. Lekin Xudo tabiatdan ustun turmaydi, balki unda mujassamlashgan, tabiat haqidagi bilim hamma joyda izlanayotgan Xudoni topadi va Unga hurmat ko'rsatadi. Ilohiy yaratilishning eng yuqori cho'qqisi, "uni yaratuvchining eng toza namunasi" bu inson. U "eng yuqori, eng mukammal va eng zo'r ijod" ("Buyuk didaktika"), bu makrokosmosdagi mikrokosmosdir. U ob'ektlarni bilish, axloqiy uyg'unlik va Xudoga bo'lgan muhabbat uchun yaratilgan. Xudo o'z qiyofasi va qiyofasida yaratgan odam o'zining fazilatlariga ega, u o'zgacha va cheksiz imkoniyat va moyilliklarni o'z ichiga oladi.

Komensiyning bu bayonotida o'rta asrlarga qaraganda (odam tug'ilishidan yovuz va gunohkor deb e'lon qilingan) yangi, ilg'or va jasur nuqtai nazar mavjud. Tug'ilgandan boshlab, odamda hech qanday bilim va g'oya yo'q, uning aqli "tabula rasa", ya'ni. Toza taxta, unga hali hech narsa yozilmagan, lekin oxir oqibat yoziladi. Insonning bilimga bo'lgan intilishi tug'ma. Ruh ilohiy ruhning bir qismi sifatida idrok qilishga qodir.

"Bizning miyamiz (bu fikrlar ustaxonasi) mum bilan taqqoslanadi, uning ustiga muhr bosilgan ... miya hamma narsaning tasvirini aks ettiradi, faqat dunyo o'z ichiga olgan hamma narsani qabul qiladi". Inson ongi "bilimga shunchalik sezilmas sezgirlik bilan ajralib turadiki, u tubsizlikka o'xshaydi", aqlning chegarasi yo'q ("Buyuk didaktika").

Bilishning bosqichlari. Bilish jarayoni sezishdan boshlanadi, chunki ongda ilgari sezilmaydigan hech narsa yo'q. Kognitivlikning keyingi bosqichi hislar natijasida olingan materialni aqliy qayta ishlash, ong tahlil va sintez orqali umumlashtirganda va mavhumlashtirganda. Keyin ong "narsalar haqida o'z va

boshqalarning fikrlarini sinab ko'radi". Agar bilim amalda qo'llanilsa va shu tariqa donolikka aylansa, bilim haqiqiy va foydali bo'ladi.

Shunday qilib, bilish bosqichlari:

hissiy bilish;

Umumlashtirish, mavhumlashtirish, ilmiy bilimlar;

Tushunish, amalda tekshirish, donolik.

Dunyo haqidagi bilimlarni birligi bilan tavsiflab, Komensiy quyidagi ketma ketlikni ajratib ko'rsatdi: odam birinchi navbatda biror narsa borligini bilishi kerak (tanishish), keyin uning xususiyatlari va sabablari (tushunish) jihatidan nima ekanligini va nihoyat, qanday qilib bilishi kerak. bilimlarini ishlatish uchun ...

Bundan kelib chiqqan holda, Komensiyning maktablar nimani o'rgatish kerakligi haqidagi fikri kelib chiqadi: 1) nazariyalar, 2) amaliyot, Shu tariqa, siz donishmandni tarbiyalashingiz mumkin, va donolik hayot san'ati, ya'ni. Bilim dunyo haqida o'ylash uchun emas, balki insonga xizmat qilish, uning yordami bilan farovonlik va baxtga erishish uchun kerak. "Buyuk didaktika" dagi o'xshashlik sifatida Komensiy ko'pincha tabiatning o'ziga xos misollaridan foydalanadi. Komensiy haqiqiy demokrat edi, u hamma odamlar boy va kambag'allar tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirish, barkamol shaxs bo'lish imkoniyatiga ega bo'lishlarini himoya qilgan.

Tarbiya va ta'limning butun masalasini odamlarning ehtiyojlari belgilaydi.

"Qachongacha biz ochlik va chanqog'imizni qondirishga intiladigan boshqa odamlar maktabiga, kitoblarga va sovg'alarga chanqoq bo'lamiz? Yoki biz abadiy, sog'lom tilanchilar singari, boshqa odamlardan turli xil insholar, kichik kitoblar, diktantlar, eslatmalar, parchalar va Xudo yana nimani bilishini so'raymizmi? " dedi Komenskiy.

O'qitish nazariyasi sifatida didaktikadan farqli o'laroq, Komenskiy o'zining "Buyuk didaktikasi" ni hamma narsani hamma narsaga o'rgatish, aniq muvaffaqiyat bilan, tez, puxta o'rgatish, talabalarni yaxshi axloq va chuqur taqvodorlikka olib borishning universal san'ati deb ta'riflaydi. Komensiyning "buyuk didaktikasi" ta'lim nazariyasi doirasidan tashqariga chiqadi, bu aslida pedagogika, shu jumladan ta'lim va tarbiya. Bu bilim ota onalar va o'qituvchilar, talabalar va maktablar, davlat va cherkov uchun zarurdir.

Maktab, uning maqsadi. Komensiy maktabni insonparvarlik ustaxonasi, gumanizm ustaxonasi deb ataydi. Bolalarga oilada emas, balki maktabda ta'lim berish maqsadga muvofiqdir. "Baliq uchun qafaslar, daraxtlar uchun bog'lar, yoshlar uchun maktablar bo'lishi kerak." Maktabning asosiy maqsadi umuminsoniy donolikni tarqatishdir. Umumjahon donolik maktabida hamma hozirgi va kelajak hayot uchun zarur bo'lgan hamma narsani o'rgatadi. Maktabda yoshlar axloqiy jihatdan yaxshilanadi, shuning uchun maktab insonparvarlik va haqiqiy insoniylik ustaxonasidir. Bu o'quvchilar mehnatga, hayotga tayyorgarlik ko'radigan muassasalar, bu "mashaqqatli mehnat ustaxonalari". Ammo maktab shunday ustaxonaga aylanishi uchun uni nafaqat fanlardan, balki axloq va taqvodan ham o'rgatish kerak Komensiy maktablarni yaratishda e'tiborga olish kerak bo'lgan aniq tamoyillarni aniqladi.

"Biz maktablarni shunday tashkil etishga va'da beramiz:

Hamma yoshlar ta'lim olishi kerak, balki Xudo aqlni rad etganlardan tashqari.

Yoshlar odamni dono, fazilatli, taqvodor qila oladigan hamma narsani bilib olardilar.

Ta'lim balog'at yoshidan oldin tugatilishi kerak.

Ta'lim juda oson va muloyimlik bilan, go'yo o'z o'zidan kaltak va zo'ravonlik va hech qanday majburlashsiz o'tishi kerak.

Yoshlar ko'rinadigan emas, balki haqiqiy, yuzaki emas, balki puxta bilim olishi kerak.

Ta'lim ko'p harakat talab qilmasligi kerak, lekin juda oson bo'lishi kerak. "

Ta'limda tashqi tartib ham o'rnatilishi kerak. Inson tarbiyasi va ta'limining butun tsikli, Komensiy rejasiga ko'ra, har biri olti yillik to'rt davrga bo'lingan.

Maktab tizimining bosqichlari:

- Onalik maktabi bolalik uchun (6 yoshgacha);
- Ona tili maktabi, boshlang'ich maktab o'smirlar uchun (12 yoshgacha);
- Lotin maktabi yoshlar uchun (18 yoshgacha);
- Akademiya etuklik uchun (24 yoshgacha).

5.4. Didaktikaning maqsadi, vazifalari va asosiy tushunchalari

Didaktikaning **asosiy vazifasi** yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat.

Bularning barchasi o‘qituvchining **ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi** vazifalarini amalga oshirishida o‘z aksini topmog‘i lozim. Ana shu asosdan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘z ta’lim oluvchilariga qo‘lga kiritilgan bilimlarni o‘rgatadi. O‘kuv faoliyatida ularni ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u ta’lim oluvchilarda dunyoqarash va axloq me’yorlarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O‘qituvchining faoliyati ta’lim oluvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga katta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o‘quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda ta’lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatni tashkil etadi. Ta’lim oluvchilarga qiyinchiliklarni yengib o‘tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta’lim jarayonini tashxis qiladi. O‘z navbatida ta’lim oluvchilarning faoliyati o‘quv jarayonida o‘rganishga, bilim, ko‘nikma hamda malakalarni egallashga, o‘zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo‘naltiradi. Ta’lim jarayonida ta’lim oluvchilarning faoliyati ko‘p qirrali yo‘nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazifalarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Didaktikaning asosiy tushunchalari

Didaktika o‘ziga xos tadqiqot sohasiga va tadqiqot predmetiga ega bo‘lganidek, uning o‘ziga oid tushunchalar tizimi ham mavjud. Har bir tushuncha ma’lum didaktik hodisaga taalluqli bo‘lib, ular vositasida didaktik hodisalarning asosiy belgilari umumlashtiriladi. Demak, didaktik tushunchalar pedagogik fikrlash shakli, shuningdek, didaktik hodisalarni bilish, tadqiq qilish, bayon qilish hamda ulardan amaliyotda foydalanish vositalaridir.

Mohiyati va mazmuniga ko‘ra didaktik tushunchalar ikki turga bo‘linadi: asosiy tushunchalar, yordamchi tushunchalar. Masalan, “ta’lim” asosiy tushuncha, yordamchi tushuncha “maktabgacha ta’lim”, “boshlang‘ich ta’lim”, “umumiy o‘rta ta’lim”; “dars” tushunchasi asosiy, dars tiplari “yangi bilim berish”, “mustahkamlash” kabilar yordamchi tushunchalardir. Asosiy va

yordamchi tushunchalar umumiylik va xususiylikning o‘zaro munosabati shaklida amal qiladi. Didaktik tushunchalar tizimi asosiy tushuncha mohiyati, mazmuni negizida belgilanadi. Masalan, maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, kabi tushunchalarning mazmuni “ta’lim”, dars tipi, dars turi, dars etapi kabi tushunchalar “dars” tushunchasi kontekstida aniqlanadi.

Didaktik hodisalarning umumiy xususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalarga didaktik kategoriyalar deyiladi. Kategoriyalarning ma’lum izchilligi didaktika logikasi sanaladi. Didaktika logikasi didaktik hodisalarga oid muammolarni qo‘yish, o‘rganish, bayon qilish vositasi hisoblanadi.

Didaktika logikasi quyidagi hodisalar va ularning tilda zuhur etish shakllari o‘rtasidagi bog‘lanishlardan iborat.

Ta’limikki sub’ekt (o‘qitish va o‘qish) faoliyatining o‘zaro ta’siridan shakllanadigan ijtimoiy hodisa.

Ta’lim turlariikki sub’ekt faoliyatining o‘zaro ta’siri turli vositalar, shartsharoitlarda amal qilishidagi tafovutlar. Agar ta’lim muammolar qo‘yish va bajarish yo‘li bilan amalga oshirilsa, muammoli, kompyuter xotirasiga kiritilgan PDV orqali amalga oshirilsa, kompyuterli ta’lim deb ataladi. Xuddi shunday yo‘l bilan individual, guruh, jamoa ta’limi, shuningdek, tabaqalashgan ta’lim, masofaviy ta’lim birbiridan farq qiladi.

Ta’lim prinsiplari o‘qitish va o‘qish jarayonida ta’lim sub’ektlari rioya qiladigan normativ talablar.

Ta’lim mazmunidarsga o‘qitish (o‘rgatish) va o‘rganish uchun olib kirilgan o‘quv material.

Ta’lim metodlario‘qitish va o‘qish faoliyatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish yo‘llari.

Ta’lim shakllarita’limning maqsadi, vositasi, natijasi, o‘rni hamda ta’lim sub’ektlari ishtirokiga ko‘ra farq qiladigan dars soatlarining didaktik tavsifi. Dars, seminar mashg‘uloti, amaliy mashg‘ulot, o‘yin, nazariy yoki amaliy mashg‘ulot “dars shakli” atamasi vositasida qayd etiladi, tadqiq qilinadi, tavsiflanadi.

Didaktik kategoriyalarning mazmuniy va jarayoniy xususiyatlari. Ta’lim didaktikada qo‘llanadigan eng sermazmun tushunchadir. Ta’lim mazmun va hajm jihatdan murakkab, shu bilan birga, ko‘p ma’noli kategoriyadir. Prof.V.V.Kraevskiy uning quyidagicha ma’nolarini ajratadi. Umumiy pedagogika darajasida

“ta’lim” ijtimoiy tajribani yoshlarga o‘rgatish ma’nosida qo‘llanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim konsepsiyasi” matnida ta’lim xuddi shunday keng ma’noda qo‘llangan.

Umumiy didaktika darajasida “ta’lim” ma’lumot mazmunini o‘zlashtirish uchun o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining birligi, ularning o‘zaro ta’siri ma’nosida ishlatiladi.

Metodika darajasida “ta’lim” aynan olingan bir o‘quv predmeti materiallarida o‘qitish va o‘qish faoliyatlarida birgalikda amalga oshirishni anglatadi.

Psixologiya darajasida ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta’siri majmui bo‘lib, uning natijasida o‘quvchining intellekti, psixikasini rivojlantirish ma’nosini bildiradi.

Ta’lim didaktika nuqtai nazaridan ikki sub’ektning o‘qitish va o‘qishning birgalikdagi kooperativshirkat faoliyatidir. Ikki sub’ekt faoliyatining o‘zaro ta’siri birbiriga kirishuvidan ta’lim yuzaga keladi. Bu yerda gap aynan olingan konkret o‘qituvchi, konkret o‘quvchi xususida emas, aksincha, o‘qitish va o‘qish faoliyati bilan mashg‘ul o‘qituvchilar, o‘quvchilar to‘g‘risida ketyapti. Ta’lim shirkat faoliyat sifatida ilmiy asoslangan o‘quv rejalari, dasturlari va o‘quv qo‘llanmalariga ega. Kollektiv sub’ektlar faoliyati, o‘quv rejalari, dasturlari, qo‘llanmalariga ko‘ra ta’lim ijtimoiy institut sanaladi.

Yuqorida qayd qilinganidek, ta’lim o‘ta murakkabligi bilan boshqa didaktik kategoriyalardan farq qiladi: darsni kuzatib o‘qituvchining qanday ishlarni bajarganini, qanday bosqichlarni tashkil etganini, qaysi mavzu bo‘yicha mashg‘ulot o‘tganini sezamiz, yozib boramiz. Shuningdek, o‘quvchilarning mashg‘ulotdagi xatti-harakatlari, intilish, qiziqishlarini ularning faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni bevosita idrok etamiz. Ta’limni esa sezgi a’zolari yordamida qayd etish mumkin emas. U abstraksiyalash yo‘li bilangina tasavvur etiladi.

Ta’lim ijtimoiy institut sifatida ikki xil xususiyatga ega: ta’limning mazmuniy xususiyatlari, ta’limning jarayoniy xususiyatlari. Mazmuniy va jarayoniy xususiyatlari jihatdan “ma’lumot mazmuni”, “ta’lim jarayoni” kategoriyalari bilan bog‘liqdir.

Ma'lumot nazariyasi va ta'lim nazariyasi. Ma'lumot mazmunida hozirgi zamon fani, texnikasi, madaniyati, ishlab chiqarishi, va fikrlashining umumiy asoslari aks etadi.

Binobarin, ma'lumot mazmunida fan, texnika madaniyat, ishlab chiqarish, tafakkuriga oid yetakchi qarashlar, g'oyalar, nazariyalar, faktlar beriladi. Qarashlar nazariyalar faktlar o'rtasidagi bog'lanishlar ma'lumot logikasi sanaladi. Ma'lumot logikasini bolalarning tayyorgarligi, yosh xususiyatlariga moslab tanlash va ularga pedagogik ishlov berish masalalari bilan ma'lumot nazariyasini shug'ullanadi.

Keyingi yillarda ma'lumot mazmuniga sistem yondashish moyilligi kuchayib bormoqda. M.N.Skatkin, V.V.Kraevskiy, I.Ya.Lerner kabi qator olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ma'lumot mazmunining quyidagicha elementlardan iborat ekanligi isbotlandi:

bilimlar tizimi. Bilim tabiat jamiyat inson ongida amal qiladigan qonuniyatlarning turli belgilar (masalan, yozuv) vositasida moddiylashtirilgan ko'rinishdir. Bilimlar qarash g'oya, ta'rif, qoida aniqlik, aksioma, teorema, fakt va shk. shaklida beriladi;

ko'nikma va malakalarbilimlarni o'zlashtirish, o'zlashtirilgan bilimlar turli o'quv sharoitlariga tatbiq etish yo'llari bilan shakllanadi. Malakaning quyi bosqichiga ko'nikma deyiladi. Mashq trenirovka (bir xil faoliyatni o'zgartirmasdan aynan takrorlash) vositasida ko'nikma yuqori bosqichiga malakaga aylanadi. Malaka avtomatlashgan ko'nikmadir;

ijodiy faoliyat tajribasian'anaga aylangan fikrlash va faoliyat chegarasidan tashqariga chiqish demakdir. O'quv va hayotiy muammolarni original usullar bilan hal etish, o'z oldiga vazifalar qo'ya bilish, faoliyat ko'rsatishining yangicha usullarini egallash yo'llari bilan o'quvchilar ijodiy faoliyat tajribasini egallashadi;

munosabatlar tizimi. Tabiat, jamiyat, tafakkurga munosabat ma'lumot mazmunining navbatdagi tarkibiy qismidir. Bola o'zida shakllangan munosabatlarga ko'ra tevarakatrofdagi narsalarni, voqealarni baholay oladi: oqqorani taniydi: ilmiy va g'ayri ilmiy hodisalarning farqiga boradi.

Bolalarning yosh xususiyatlari hamda ta'lim tarbiya muassasalari tipiga qarab ma'lumotning quyidagi turlari ajratiladi, maktabgacha ma'lumot: boshlang'ich ma'lumot: to'liqsiz ma'lumot: o'rta ma'lumot: kasbhunar ma'lumot oliy ma'lumot.

Ma'lumotning jamiyatda bajaradigan ishiga (funktsiyasiga) qarab ham uning turlari farqlanadi: umumiy ma'lumothozirgi zamon fani, texnikasi, madaniyati va fikrlashning umumiy asoslari bilan tanishtirish: kasbhunar ma'lumotikasblar bo'yicha o'rganiladigan bilimlar, hosil qilinadigan malakalardir, politexnik ma'lumot" tushunchasi o'rnida "politexnik ta'lim" iborasini ishlatish moyilligi kuchaymoqda. Hozirgi zamon ishlab chiqarishning umumiy asoslari bilan tanishtirish. Politexnik ma'lumot politexnika siklidagi o'quv predmetlarifizika, ximiya, matematika, chizmachilik bilan bog'liq holda amalga oshiriladi.

Ma'lumot mazmunining statik va dinamik holati mavjud. Ma'lumot mazmunining ta'limga olib kirilguncha bo'lgan holati uning dinamikasiga nisbatan boy, mazmundor hisoblanadi. Didaktlar, metodistlar ma'lumot mazmunining statik holatini o'rganib turli normativ loyihalaro'quv rejalari, dasturlari, darsliklari, qo'llanmalarini tayyorlashadi.

Normativ loyihalarda ma'lumot mazmuni moddiylashadi.

Ma'lumot mazmunining dinamik-harakatchan holatini "ta'lim mazmuni" iborasi bilan qayd etamiz. Ta'lim mazmunibu ma'lumot mazmunining o'qitish (o'qituvchi) va o'qish (o'quvchi) maqsadida ta'lim jarayoniga olib kirilgan va didaktik jihatdan ishlov berilgan shaklidir. Ta'lim mazmuni o'quv material, o'quv elementi, o'quv topshirig'i, savol, ko'rgazma qurol va sh.k. shaklida amal qiladi. Binobarin, o'quv material, o'quv elementi, o'quv topshirig'i kabi tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlar ta'lim jarayoni logikasi hisoblanadi. Ta'lim jarayoni logikasini tanlash va asoslash masalalari bilan ta'lim nazariyasi shug'ullanadi.

Ta'lim mazmunini egallash o'quvchilarda turli shaxsiy sifatlarnibilimdonlik, o'qimishlilik, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, dunyoqarash kabi xislatlarni tarkib toptiradi. Ma'lumot mazmuni dinamikasi va uning natijasiga qarab boshlang'ich ma'lumotli, o'rta ma'lumotli, shaxslarga ajratiladi.

Ma'lumot mazmuni dinamikasi yoki ta'lim mazmunini o'zlashtirish individual xarakterga ega. Garchand, ta'lim jarayoniga olib kirilgan o'quv material va uning turli shakllari (savol, o'quv topshiriqlari, masala, misol va sh.k.) barcha o'quvchilar uchun bir xil bo'lsada, uni o'quvchilar o'z iqtidorlari, qobiliyatlari darajasida o'zlashtirishadi. Ana shularga ko'ra, bir o'quvchining bilim,

ko'nikma va malakalari, ijodiy qobiliyatlari hamda tafakkuri boshqa o'quvchidan farq qiladi. Demak, ta'lim jarayoni mazmunini o'zlashtirish individual xarakterga ega.

Ta'limni makon va zamon kontekstida tasavvur etib "ta'lim jarayoni" kategoriyasi ishlatiladi. Ta'lim jarayoni didaktika o'rganadigan sohadir. Didaktikaning tadqiqot predmeti o'quvchi va o'qituvchining o'zaro ta'siri ta'lim jarayonida amal qiladi, o'rganiladi.

Ta'lim jarayoni tarkibiga ko'ra, uta murakkab didaktik hodisadir. Unda ta'lim sub'ektlarining shirkat faoliyati ham, ta'lim mazmuni ham, ta'lim sub'ektlario'qituvchi va o'quvchi faoliyatio'qitish nuqtai nazaridan ham o'quvchilar faoliyatio'qish nuqtai nazaridan ham tahlil etish mumkin. Agar bu jarayonga o'qituvchi faoliyati nuqtai nazaridan yondashsak "o'qitish jarayoni", o'quvchilar faoliyati nuqtai nazaridan yondashsak "o'quv jarayoni" iboralari ishlatiladi.

O'qitish faoliyati va uning tarkibi. O'qitishkollektiv sub'ektning faoliyati. Zero, bu tushuncha o'qitish ishi bilan mashg'ul kishilarning barchasiga nisbatan ishlatiladi. Unda bir tomondan, o'qituvchilik kasbi, uning o'ziga xos xususiyatlari (qobiliyat, mahorat, san'at), ikkinchi tomondan, mutaxassislik fanlari bo'yicha (masalan, geografiya, matematika, tarix va sh.k.) o'rganiladigan bilimlar chatishib ketgan.

O'qitish eng qadimiy faoliyat turlaridan biridir. U mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi natijasida alohida kasb sifatida ajralib chiqqan. Kishilar o'qituvchilik kasbga maxsus (masalan, oliy o'quv yurtlarida) tayyorlanadi. Maxsus tayyorgarlikdan o'tgan kishilarda o'qita olish faoliyati o'ta rivojlangan bo'lib, u doimiy taraqqiyotda harakatdadir. O'qituvchi o'qituvchilik mahorati o'qita turib va uzluksiz o'rgana borib yashay oladi, rivojlana biladi.

O'qituvchi faoliyatio'qitish N.V.Kuzminaning ilmiytadqiqotlarida tarkiban to'rt elementdan iborat ekanligi isbotlangan.

O'qituvchining tuza olish (konstruktiv) faoliyatio'quv materiallarini tanlash, tahlil etish yo'llari bilan ta'limning modelini (masalan, dars konspektini) tuzish, muammo, topshiriq, misol va masalalar tizimini aniqlash demakdir. Ta'lim modeli orqali

o'qituvchi o'z faoliyati va o'quvchilar faoliyatining o'zaro kirishuvinishirkatlashuvini oldindan belgilaydi.

Tashkilotchilik faoliyatibolalarning ta'lim mazmunini o'zlashtira olishini tashkil etishdir. O'qituvchining tashkilotchilik faoliyati quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi, tashkiliyliko'quvchilar bilan o'quv materialini o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlash; boshqara olishbolalarning o'quv materialini o'zlashtirishlarida quyi bosqichdan yuqori bosqichga o'tishlariga rahbarlik qilish; nazorat eta bilishbolalarning bilimi va faoliyatidagi bo'shkemtik, zaif joylarini aniqlash va to'ldirish.

Aloqalashuv (kommunikativ) faoliyati o'qituvchi va o'quvchilarning birbirlarini tushunishlarini o'ziga qamrab oladi. Aloqalashuv faoliyati o'qituvchi va o'quvchilarning birbiriga munosabati, o'zaro hurmat, pedagogik takt, muammolarni ommabop izohlash kabi xususiyatlarda ko'zga tashlanadi.

O'qitish faoliyati va uning tarkibi. Didaktik adabiyotlarda xilmaxil ma'nolarda qo'llanadigan tushunchalardan biri "o'qish" kategoriyasidir. Amriqolik mutaxassislar orasida "o'qish"ni su'bektning tashqi ta'siriga javob qaytarish imkoniyati sifatida qarash odatga aylangan. Polyak olimlari o'qishni natijaga yo'nalgan jarayon tashkil etishadi. Rus olimlari esa "o'qish"ni uning natijasiga qarab bilim, malaka, ko'nikmalarini egallashga oid ishlar deb ta'riflashadi. Bu aniqliklarning birinchisida "o'qish" faoliyat ikkinchisida esa jarayon, uchinchisida esa bilim va malakalarni egallashga oid ish sifatida tasvirlangan.

O'qish ma'lum makon va zamonda amal qiladi shu jihatdan qaraganda u qator jarayoniy belgilariga ega: bosqichlar asosida amalga oshirish, o'rganiladigan narsa hodisalarni bevosita yoki bavosita idrok etish: oldin o'rganilgan bilimlarni xotiraga ya'ni esga tushirish: bilimlarni tanish va notanish o'quv sharoitlarga tatbiq etish: o'rganilgan hodisalar to'g'risida fikrlash, ularning umumiy va xususiy alomatlarini ajratish.

"O'qish" o'ziga xos maqsad, vosita, natijaga ham ega. Shu jihatdan xam qaraganda u faoliyatdir. Ammo "o'qish" aynan olingan bir o'quvchining (masalan, Eshmatning) faoliyati emas, aksincha, "o'qish"o'rganish o'zlashtirish ishi bilan mashg'ul yoshlarning faoliyati. Ana shularga ko'ra biz V.V.Kraevskiy tadqiqotlariga

asoslanib, o‘qishni ta’lim jarayonida amal qiladigan kollektiv sub’ektning faoliyati” deb qaraymiz.

O‘qish faoliyati sinfda, sinfdan yoki maktabdan tashqari uy topshiriqlari, ekskursiya jarayonlarida ham amal qiladi. Bunday holatlarda bolalar o‘qish faoliyatidan tashqariga chiqadimi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bolalar turlituman uy ishlarini. mustaqil kitob mutolaa qilishini o‘qituvchi topshirig‘i, o‘quv topshirig‘i, o‘quv dasturlari talablariga ko‘ra tashkil etishadi. O‘z faoliyatini tashkil etish, boshqarish bolalarda uzluksiz (parmanent) ta’lim olish sifatlarini tarbiyalaydi. Binobarin, parmanent ta’lim o‘qish faoliyatining eng rivojlangan oliy shakli bo‘lib, u ijtimoiy talabga ko‘ra amal qiladi.

O‘qitish va o‘qish ma’lum normativ talablar asosida birbiriga kirishib, uchinchi bir faoliyatni ta’limni yuzaga keltiradi. O‘qituvchi faolliigi o‘quvchilar faolligiga olib keladi o‘qituvchi faoliyatidagi xilmaxillik vositalarning rangbarangligi, ta’limning turli metodlaridan foydalanish bolalar faoliyatining samarador kechishiga sabab bo‘ldi.

O‘qitish va o‘qish faoliyatlari jarayonida rioya qilinadigan normativ talablarga ta’lim prinsiplari deb aytiladi.

Ta’lim metodlari o‘qitish va o‘qish faoliyatlarining o‘zaro bog‘liqlik asosida birga amal qilish tizimidir. Ta’lim metodlarini shu yo‘sinda tashkil etish o‘qitish usullari, o‘qish usullarini ajratishni taqazo etadi. Masalan, suhbat metodi quyidagicha usullardan iborat: o‘qitish usullarimavzuga oid faktlarni kuzatishni taklif etish (1); kuzatilgan faktlarbo‘yicha savol berish (2); qo‘yilgan savolga javob berish (3); o‘qish usullari faktlarni kuzatish (4); savollarga javob izlash (5); savollarga javob berish (6). Ta’lim metodlari o‘qitish va o‘qish usullaridan iborat bo‘lib, ular vositasida ikki sub’ektning faoliyat o‘qitish va o‘qish o‘zaro muvofiqlashadi, aloqaga kirishadi.

Ta’limning tashkiliy shakllari navbatdagi didaktik kategoriyadir. Ular ta’limning ma’lum o‘rin hamda vaqtda zuhur etishi, ishtirokchilar miqdori, ta’lim mazmuni, prinsiplari, metodlariga ko‘ra belgilanadi. Dars va uning tiplari. Uy ishlari, ekskursiya, o‘tkir zehnlilar munozarasi va shu kabilar ta’limning tashkiliy shakllari sanaladi.

5.5. Didaktik nazariyalar va ularning falsafiy asoslari.

Didaktik kontseptsiya (didaktik tizim) ta'limda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tashkil etish maqsadi, mazmuni, vositalari, usullari, tashkiliy shakllari to'g'risidagi qarashlar (g'oyalari) majmuidir. Didaktik tizim ta'limni amalga oshirishning yaxlit tarzda shakllangan tarkibi bo'lib, u muayyan mavqe va nuqtai nazarlarga ega bo'lgan o'ziga xos mezonlar bilan farqlanuvchi pedagogik hodisa. Didaktik tizimlarni shartli ravishda uch guruhga ajrataish mumkin: an'anaviy didaktik tizim, progressiv didaktik tizim, zamonaviy didaktik tizim.

An'anaviy didaktik tizim – namunali, hamma tomonidan e'tirof etilgan, umuminsoniy ma'naviyatlar darajasida tan olingan didaktik qarashlar majmuidir. Bu tizim nemis faylasufi va pedagogi I.Gerbert nomi bilan bog'liq. Ushbu tizim etika (axloq) va psixologiya nazariyasiga tayanadi. Uning asosiy maqsadi kuchli iroda egasi bo'lgan shaxsni shakllantirishdan iborat bo'lgan. I.Gerbert tomonidan ishlab chiqilgan asosiy g'oyalarga tarbiya nazariyasi asoslanishi kerak. Ular: 1) takomillashish g'oyasi. Bu shaxsni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari va maqsadini o'zida mujassamlashtirishi kerak; 2) xayrxohlik g'oyasi. Bu o'zaro kelishgan holda hamkorlik qilish va muloqotga kirishishga o'z g'oyalari va intilishlarini buysundirishni nazarda tutadi; 3) huquq g'oyasi. Bunda har bir kishining huquq va burchlarini aniqlangan odamlar orasidagi munosabatni tartibga solish nazarda tutiladi; 4) haqqoniylik g'oyasi. Mazkur g'oyaga ko'ra kimgadir nohaklikka asoslangan harakatning amalga oshirilishi jazoga tortish bilan qoplanishi lozim; 5) ichki mustaqillik g'oyasi. Bunda insonning irodaviy quvvatlarini tanlash va yo'naltirish, uning o'z shaxsiy yo'nalishlari doirasida bo'lishi kerak. I.Gerbert tomonidan ilgari surilgan didaktik tizimda ta'lim va tarbiya orasidagi aloqadorlik nazardan chetda qolgan. Uning tasavvuricha, ta'limning vazifasi o'quvchilarning intellektual va jismoniy rivojlanishlarini ta'minlashdan iborat. Ta'lim jarayoniga rahbarlik qilish o'quv rejasi asosida o'qituvchi tomonidan qat'iy tarzda amalga oshirilishi kerak. O'quvchilar esa tartibintizomga rioya qilgan holda o'qituvchini so'zsiz tinglashlari kerak, degan g'oya ilgari suriladi. O'qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar, birinchi navbatda, kuchli iroda egasini shakllantirishga yo'naltirilishi lozim. O'quvchilar esa

o'quv materiallari bayonini so'zsiz tinglashlari va uni o'zlashtirishlari kerak. Bu jarayonda o'quvchilarga o'z ijodiy layoqatlarini namoyon qilishlari uchun ruxsat berilmaydi. Mazkur tizim doirasida ayni bir guruhdagi o'quvchilar teng hisoblangan, ya'ni har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinmagan. O'qituvchi esa o'quv jarayonini qo'shimcha materiallar bilan boyitish huquqiga ega emas. Bu jarayonda intizomni qo'llabquvvatlash maqsadida cheklovlardan foydalanishga ruxsat berilgan, chegaralangan tarzda o'quvchilar jazolangan. I.Gerbert tomonidan ilgari surilgan didaktik tizimda o'quvchilarning amaliy ko'nikma va malakalariga o'rin ajratilmagan. Shuning uchun ham mazkur didaktik tizim o'quvchilarni kundalik hayotiy faoliyatga tayyorlash imkoniyatiga ega emas edi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, I.Gerbert tizimi o'quv jarayonida samaradorlikni ta'minlash imkonini bermadi. Mazkur tizimdagi kamchiliklardan xulosa chiqargan holda mutaxassislar boshqa didaktik tizimni asoslashga muvaffaq bo'lishdi.

Progressiv didaktik tizimlar. Didaktikaning keyingi taraqqiyoti XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida paydo bo'lgan va pedagogikada "Yangi tarbiya" nomi bilan yuritilgan yo'nalish bilan bog'langan. Yangi tarbiya targ'ibotchilari E.Demolen, S.Reudin, A.Ferer va boshqalar tashabbusi bilan an'anaviy maktablar o'rniga tadbirkorlarni tarbiyalashga mo'ljallangan pulli maktablar ochildi. Yangi maktablar shahar chekkasidagi internatlar shaklida tashkil etilgan bo'lib, ularda aqliy ma'lumot san'at, gimnastika, qishloq xo'jaligi va qo'l mehnati ta'limi bilan qo'shib olib boriladi. Yangi tarbiya tarafdorlari klassik didaktikani tanqid qila turib, XX asr maktabini "Mehnat maktabi", "Ijtimoiy hayotda ishtirok etish maktabi", "Bolalar 100 yiligiga munosib maktab", deb atashdi. Ular ta'lim jarayonida asosiy e'tiborni o'quvchiga qaratib, bir tomondan, mashhur fransuz gumanisti Jan Jak Russoning (1712-1778) "Hur tarbiya" to'g'risidagi g'oyalarini yangi sharoitda rivojlantirishdi, ikkinchi tomondan esa, o'sha davrdagi mavjud pedotsentirizm nazariyasini yangi goyalar bilan boyitishdi.

Yangi tarbiya nazariyasi konsepsiyasi o'z davrida progressiv va shu bilan birga, ziddiyatlarga boy pedagogik qarash edi. Bu nazariya tarafdorlari bolaning qiziqishlari, ehtiyojlari nuqtayi nazaridan maktab muammolarini hal qilishar, ta'limning mazmuni metodlari,

vositalarini tanlashda o'quvchining xususiyatlarini hisobga olishardi. Ularning tashabbusi bilan ilmiy ishlar sohasida pedagogik eksperiment qo'llana boshlandi. Shu bilan birga, ular ta'limning izchilligi, o'quv dasturlari, darsliklarining ta'limdagi rolini inkor etishigacha etib borishdi.

Yangi tarbiya tarafdorlari qarashlarida o'ta so'l fikrlar bilan birga ilg'or, progressiv g'oyalar ham mavjud edi: Gugo Gauding (18601923) an'anaviy "kitobiy bilimlar maktabini" bolalarda "ijodiy intilishlarni har tomonlama rivojlantirish" maktabiga aylantirish shiorini o'rtaga tashladi; Ovidiy Dekroli (18711932) mavjud maktablarning an'anaviy prinsiplar doirasidan chiqa olmayotganini tanqid etib "hayot uchun va hayot orqali o'qitish" maktabini yaratish muammosini kun tartibiga qo'ydi; Eduard Klapared (18731940) dasturlar, darsliklarda o'quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari hisobga olinmaganligini qoralab, bolalar psixologiyasi va imkoniyatlariga mos maktab yaratish masalasini o'rtaga tashladi; Genrix Rovid (18771944) amaldagi maktablarning hayotdan, ishlab chiqarishdan uzilib qolganini ta'kidlab, "Yangi faol maktab yaratish" g'oyasini olg'a surdi.

Yangi tarbiya tarafdorlari o'z didaktik qarashlarida I.F.Gerbert va uning izdoshlari bilan munozara qilishar, ularni formalizm, rigorizm (qoida, prinsiplar doirasidan chiqa olmaslik), avtoritarizm da ayblashardi. Ana shunga ko'ra, ular pedagogika tarixida "progressivistlar""ilg'orchilar" nomini olishdi.

Djon Dyui (18951952). Boshqa progressivistlarga o'xshab taniqli amerika faylasufi, psixologi, pedagogi D.Dyui ham o'z didaktik tizimini asoslashda I.F.Gerbert va uning izdoshlarining didaktik qarashlarini tanqid etishdan boshlagan edi. D.Dyuining yozishicha, an'anaviy maktab va unda ta'limni tashkil etish tajribasi qator kamchiliklarga ega: maktab faoliyati, binobarin, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati ham qat'iy talablar, qoidalar, prinsiplar (rigorizmlar) chegarasidan chiqib keta olmaydi; ta'lim o'quvchilar xotirasiga mo'ljallab tashkil etilgani uchun bolalar tayyor bilimlarni o'rganishadi, ularning qobiliyatlarini o'stirish, ularda ijodkorlikni tarbiyalash ikkinchi darajali hodisa sifatida qaraladi; ta'limda bolalarning faolligi, binobarin, tashabbuskorligi, qiziqishlari, intilishlari chegaralab qo'yilgan; ma'lumot mazmuni va uni

o'zlashtirish jarayoni real ijtimoiy ehtiyojlarga mos kelmaydi; maktablarda hayot uchun foydali bilimlar o'rgatilmaydi.

D.Dyuining didaktik qarashlari pragmatizm falsafasiga asoslangan edi, u bola uchun, ijtimoiy hayot uchun foydali bilimlarni haqiqat deb tushunardi. D.Dyui o'zining falsafiy, didaktik mushohadalarida klassik haqiqatlarni ma'lum darajada inkor etgan, binobarin, ilmiy bilishni ikkinchi darajali hodisa sifatida kamsitgan, amaliyotni birinchi o'ringa qo'ygan pedagog edi. Bu D.Dyuining didaktik sistemasini ma'lum darajada chegaralanganini ham ko'rsatadi.

D.Dyuining didaktik tizimi, garchand unda qator g'ayriilmiy qarashlar bo'lsada, eng ilg'or yo'nalish edi: u eng avvalo o'z pedagogik qarashlarini maktab faoliyati bilan bog'ladi. 1896-1902-yillarda Chikago shahrida maxsus maktab tashkil etdi. Bu "laboratoriya maktabi" deb atalardi; laboratoriyada ilmiytadqiqotlarni eksperimental usullar asosida olib bordi. U eksperimentni maktab hayotiga ilmiydidaktik tadqiqotlarga olib kirgan birinchi pedagoglardan edi; D.Dyui o'z didaktik qarashlarida o'quvchini ta'lim jarayoni sub'yekti sifatida ajratadi. Uning fikricha, maktab bolalarni hayotga tayyorlash joyigina emas, shu bilan birga, u bolalarning faoliyat ko'rsatish, yashash maskani hamdir.

D.Dyuining didaktik tizimida bolalarning individual va kollektiv faoliyatini qo'shib olib borish g'oyasi markaziy o'rinni egallaydi. U amaliy mashg'ulotlar, qo'l mehnati xususiyatlarini tahlil etib, ta'limda o'quvchining mavqeini, uning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalarini o'rganadi. Uning ta'kidlashicha, individual va kollektiv ishlarni qo'shib olib borish yo'li bilan ta'limda "tashkiliy hamkorlikka" erishish mumkin. Amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirok etish, deb qayd etgan edi. D.Dyui, bolalarning o'rganilayotgan o'quv predmetiga oid adabiyotlar ustida mustaqil ishlashni inkor etmaydi. Binobarin, D.Dyui o'z didaktik tizimida bolalarning mustaqil ishlari, ularda mustaqillikni tarbiyalash muammolariga alohida e'tibor beradi.

D.Dyui "Kitobiy bilimlarga", "bilimlarni tayyor holicha" o'rganishga tamoman qarshi edi. U didaktika tarixida birinchilardan bo'lib, muammoli ta'limni asoslagan didaktdir. D.Dyui fikriga ko'ra, bilish va bilim turli aqliy qiyinchiliklarni hal etish, hayotida uchragan qiyinchiliklarni bartaraf etishdir. Tafakkur narsahodisalar

to'g'risida fikrlash muammolarini sezish, ularning mohiyatini anglash, qiyinchiliklar (masalan bilish jarayonidagi qiyinchiliklar) ni yengish natijasida pozitiv ziddiyatlarning rolini ilk bor asoslagan didakt ham D.Dyui edi.

Ta'lim jarayonidagi pozitiv (ijobiy) ziddiyatlar hozirgi didaktikaga ta'limni harakatlantiruvchi kuchlar (M.A. Danilov), bilish jarayonidagi to'siq (L.M.Fridman), amaliy va bilish faoliyatidagi qaramaqarshiliklar (E.Lingard), ma'lum va noma'lum elementlar o'rtasidagi munosabatlar (I.Y.Lerner), o'rganilgan va o'rganiladigan bilimlar o'rtasidagi farq (M.I.Maxmutov) shaklida ta'riflanadi. Bulardan ko'rinadiki hozirgi muammoli ta'lim nazariyasining otasi ham D.Dyui edi.

D.Dyui bolalar oldiga qo'yiladigan muammolarning mohiyati, ta'lim jarayonidagi ziddiyatlarning xususiyatlariga asoslanib, o'quv-tarbiya sharoitida o'quv muammolaridan foydalanish metodikasini ham ishlab chiqdi. O'quvchi muammoni qabul qila turib, o'zi uchun yangilik ochishni fahimlashi, yangi bilimlarga ehtiyojini sezish zarur.

D.Dyuing ta'kidlashicha, tafakkur, tafakkur jarayonlari yashash uchun kurash jarayoni bo'lib, u insonning taraqqiyot darajasini ham belgilaydi. Har qanday o'quv muammosini hal etish, uning yozishicha, oldin qiyinchilikni sezish, so'ngra qiyinchilikni bartaraf etish, oxirida qilingan ishni baholash bilan yakunlanadi. Ana shular ga ko'ra, D.Dyui ta'limning quyidagicha yangi modelini yaratdi: ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklarni sezish, qiyinchilikni aniqlash va chegaralash, qiyinchilikni bartaraf etishga oid farazni so'z bilan shakllantirish, yangi xulosani qayd etish: xulosani tekshirish uchun tajribalar o'tkazish. Demak, D.Dyui ta'lim jarayonida o'quvchini bilishini olimning ilmiy bilishiga yaqinlashtirib tashkil etish g'oyasini ko'tarib chiqqan didaktdir.

D.Dyui tomonidan asoslangan didaktik tizim markazida o'quvchi turadi. Ta'limning samaradorligi esa ularni bilish va faoliyatlarining jadallashishiga bog'liq ekanligi isbotlangan. Ta'limning verbal metodlari I.Gerbert didaktikasida e'tibordan chetda qolgan edi, D. Dyui didaktikasida esa uiga alohida o'rin ajratilgan. Bu jarayonda o'qituvchi yordamchi, maslahatchi mavqeiga ega bo'lib, o'quv jarayoni yo'nalishlarini belgilashga safarbar etilgan. D.Dyuing ta'biricha, bilim, ko'nikma va

malakalarni o'zlashtirish jarayoni o'quvchilarning amaliy faoliyatlari natijasidagina samarali kechishi mumkin. O'quvchilarning muammolarni bartaraf etishlari uchun o'qituvchi o'quv rejasi bilan bogliq holda qulay sharoitlar yaratishi kerak. Qo'yilgan muammolar esa o'quvchilarning tayanch bilimlari va yosh xususiyatlariga mos kelishilozim. Muammolarni echish jarayonida o'quvchilarning bir necha bosqichlarni o'tishlari talab etiladi (muammolarni his etish, aniklash, taklif etilmagan echimlarni shakllantirish, mazkur echimlarni amalga oshirish, natijalarni taxdil qilish va b.).

D.Dyui didaktik tizimining asosini ta'lim oluvchilarning amaliy faoliyatlari tashkil etadi. Nazariy bilimlardan esa minimal darajada foydalaniladi. O'quv rejasi aiiq didaktik tarkibga ega bo'lmasdan, faqatgina muayyan yo'nalishlardagi yo'naltiruvchi ma'lumotlarni o'zida ifodalaydi. D.Dyui o'quvchilarning ehtiyojlari va moyilliklarini hisobga olgan holda o'kituvchining o'zi o'quv rejasini shakllantirishi mumkii, deb hisoblaydi.

D.Dyuining didaktik tizimi ilg'or demokrtik xarakterga ega bo'lib, unda shaxsga yo'naltirilgan didaktik yondashuv muayyan o'rin egallagan. Mazkur tizimga oid dastlabki pedagogik harakatlar 19asrning 2yarmi, 20asrning 1yarmida Amerika ta'lim tizimida amal qilgai. Biroq mazkur tizim iazariy jihatdan etarlicha asoslaimagan.

Bogdan Navrochinskiy (18821974). D.Dyuining izdoshlaridan biri polyak didakti Bogdan Navrochinskiy edi. B.Navrochinskiy o'z didaktik tadqiqotlarida I.F.Gerbert va D.Dyuining ta'limini tashkil etish modellarini o'zaro taqqoslab darsni tashkil etishning ikki xil usulini ajratadi: darsni tashkil etishning gerbartcha usuli, darsni o'tkazishning dyuicha usuli.

B.Navrochinskiy I.F.Gerbert va uning izdoshlari faoliyatini qisman o'rganib, darsni tashkil etishning quyidagi bosqichlarni ajratadi: mavzuni o'rganishda tayyorgarlik; faktik materiallar tahlili; o'rganilgan va endi o'rganiladigan haqiqatlar o'rtasida bog'lanishga kelish; bilimlarni taqqoslash.

B.Navrochinskiy, D.Dyui va uning izdoshlari faoliyatini o'rganib darsni tashkil etishning quyidagi shaklini aniqlaydi: amaliy va nazariy qiyinchiliklar bilan to'qnashish: muammoni shakllantirish uchun faktlarni idrok etish faktlararo aloqa asosida amaliy va nazariy farazni o'rtaqga tashlash: eksperiment, kuzatish asosida qo'yilgan farazni isbotlash, qo'yilgan farazning to'g'riligini tekshirish.

B.Navrochinskiy an'anaviy va progressiv didaktik tizimlarni taqqoslab o'rganish natijasida darsni tashkil etishning quyidagicha yangi qolipini ishlab chiqdi: o'quvchilarning amaliy va nazariy qiyinchiliklar bilan to'qnashuvi: o'rganiladigan asosiy masalani aniqlash: qo'yilgan savolga javob topish va aytib berish chiqarilgan xulosa bo'yicha mashq qilish.

Shunday qilib, B.Navrochinskiy muammoli ta'limini dars jarayoniga moslashtirish, uni maktab sharoitiga muvofiqlashtirish, o'qitish jarayonini ilmiy izlanish jarayoniga yaqinlashtirish g'oyasi uchun kurashgan progressiv didaktdir.

Selesten Frene (1896-1966). Mashhur fransuz pedagogi S.Frene maktabni bolalarga mofiqlashtirish g'oyasini himoya qilgan didaktdir. U ta'limning bolalarning mustaqil faoliyati sifatida sharhladi va bolalarning o'z faoliyati, tajribasidan o'tgan faktlar asosida o'quvtarbiya jarayonini tashkil qilardi. S.Frene maktabida o'rganiladigan bilimlarning mazmuni, ta'lim vositalari bolani o'rab olgan muhitga ko'ra belgilanadi. Maktabni bolalar faoliyat ko'rsatadigan muassasaga aylantirish maqsadida to'rtta laboratoriya, to'rtta ustaxona tashkil etilgan.

S.Frene maktabi qoshida tashkil etilgan laboratoriyalarda quyidagicha ishlar bajarilgan: ma'lumotnoma, lug'at, xaritalar ustida mustaqil ishlab, turli bilimlarni informatsiya shaklida to'plash laboratoriyasi; hayvonlarni parvarish qilish, o'simliklarni o'stirish laboratoriyasi. Bu laboratoriyada bolalar turli kuzatishlar olib borib, natijalarni yozib borishgan; o'lchash, bichish, chizish, turli mexanizmlar bilan ishlash laboratoriyasi; ximiya, fizika, biologiyadan tajribalar o'tkazish laboratoriyasi.

S.Frene tashkil etgan ustaxonalar ham bolalarning mustaqil faoliyatiga asoslangan bo'lib, ularda quyidagicha ishlar amalga oshirilgan: yigirish, to'qish, tikish dastgohlarida ishlash, turli taomlarni tayyorlashga oid ustaxona: yog'och, temirga ishlov berish ustaxonasi: badiiy faoliyatga oid ustaxona. Bu erda bolalar rasm chizish, musiqa, fotografiya, magnit lentalariga yozish ishlarini o'rganishgan: tipografiya, poligrafiyaga oid ustaxonada bolalar o'zlari uchun zarur kitob, risolalar, ko'rsatma qurollarini tayyorlashgan, shunday qilib, S.Frene tashkil etgan maktab laboratoriya, sinflar esa informatsiya markazlari shaklini olgan edi.

S.Frene ustaxonalar, laboratoriyalar tajribasini umumlashtirib, ta'limning quyidagicha modelini yaratadi: sinab ko'rish, xatolarni bartaraf etish bosqichi. Bu bosqichda bolalar o'rganilayotgan muammo, narsahodisalar bilan bevosita muloqot qilishgan, o'z faoliyatlaridagi to'g'ri xatiharakatlarini, faoliyat usullarini ajratib olishgan. Faoliyatni tartibga solish bosqichi. Bu bosqichda oldingi tajribalarda ajratilgan turli xatiharakatlar tartibga solingan. O'yin vositasida ishlash bosqichi. Bu bosqichda bolalar o'yin orqali hayotiy muammolarni yechgan, turli kasblarga oid faoliyat usullarini egallashgan.

S.Frenening pedagogik tizimida o'quvtarbiya ishlari o'quv haftalari asosida rejalashtirilgan, haftalik rejalarini tuzish uchun bolalar o'z sinflarida haftaning ma'lum kunida to'planishgan. O'quvchilar o'quv dasturlarini mustaqil tahlil etib, o'zlarini qiziqtirgan muammolarni bir hafta uchun ajratib olishgan va hafta davomida o'zlari tanlagan muammolar ustida o'qituvchilar rahbarligida mustaqil ishlashgan. O'quv haftasi oxirida bolalar o'zlari bajargan va bajara olmagan ishlari to'g'risida hisobot berishgan. Shunday qilib, S.Frene tashkil etgan maktablarda o'quv dasturlari rejalarini, ta'lim vositalari va uning tashkiliy formalari bolalarning mustaqil faoliyati asosida belgilangan.

Pragmatizm falsafasiga asoslangan progressiv didaktik tizimlarning qator yutuqlari bilan birga kamchiliklari ham mavjud edi: ta'limni o'quvchilarning mustaqil faoliyati shaklida tashkil etish ko'p vaqtni olardi. Bolalar axborot tanqisligi tufayli o'sha davr fani, texnikasi, madaniyati, ishlab chiqarishning umumiy asoslari bilan to'liq tanisha olmasdi: ta'lim bolalar tajribasidan o'tgan faktlarni tahlil etish, xulosalar chiqarish yo'li bilan tashkil etilgani sababli nazariy bilimlar ikkinchi darajali hodisa sifatida qaralardi: ta'limda turlituman emotsiyalar, bolalarning qiziqishlariga ko'proq e'tibor berilardida, fan asoslarini tmizimli o'rgatishga yetarli vaqt ajratilmasdi.

Yuqoridagi kamchiliklardan xalos bo'lishning asosiy yo'li psixologiya, pedagogika yutuqlari asosida didaktik hodisalarni sharhlashdir. Umuman, ta'lim, xususan, muammoli ta'lim masalalarini o'rganishga, o'z didaktik tizimlarini asoslashga polyak didakti Vinsenti Okon, rus didakti Issak Yakovlevich Lerner, tatar pedagogi Mirza Ismagilovich Maxmutov zamonaviy fan, ishlab

chiqarish nuqtayi nazaridan yondashishdi. Bular to'g'risida keyingi faslda so'z yuritiladi.

Xuddi shunday didaktik tizimlardan biri amerikalik faylasuf, psixolog hamda pedagog D.Dyui tomonidan ilgari surilgan. Bu tizim I.Gerbart tizimiga muqobil tarzda vujudga kelgan.

Shuning uchun ham u o'quvchilarni ilmiy bilimlar bilan tizimli tarzda ta'minlash imkoniyatiga ega emas. va shu sababli ushbu tizim o'quvchilarda qiyinchiliklari bartaraf etish uchun muayyai izlanishlarni amalga oshirish ko'ikmalarini etarlicha hosil qshsh olmaydi.

Zamonaviy didaktik tizim avvalgi har ikkala tizimning xatolarini chuqur tahlil qilish iatijasida vujudga kelgan. Shu bois u zamonaviy ped. amaliyotning asosini tashkil qiladi. Zamoaviy didaktikaning ilg'or yo'nalishlaridan birta'lim oluvchilarii kashfiyotlarni amalga oshirgan holda o'qitishdan iborat.

Bunday tizim amerikalik psixolog va pedagog D. Brunner tomonidan ilgari surilgan. Mazkur didaktik tizimning asosini o'quvchilarning shaxsiy kashfiyotlarni amalga oshirgan holda bilimlarni o'zlashtirishlariga erishish tashkil etadi. Bunda ular o'zlari egallagan nazariy bilimlarga tayanishlari nazarda tutiladi. O'qitishning bunday yo'li o'quvchilarni faol fikrlash, hukmlar chiqarish, o'ylash, tajribalar o'tkazish, faoliyati natijalarini shakllantirish va umushshshtirish, zarur ko'nikma hamda malakalarni egallashlarini nazarda tutadi.

Zamonaviy didaktika bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ulardan biri uning metodologik asosidir. Bu metodologiya fal. bilishning nazariy asoslariga tayanadi. O'qitish metodlarini ishlab chikishda asosiy e'tibor shaxsni uyg'un rivojlantirish nazariyasi va amaliyotiga qaratiladi.

Zamonaviy didaktik tizimlar "o'qitish o'qishga barobar" qolipi asosida yaratilgan bo'lib, ularda o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro kirishuvi, uyg'unlashuvidan kelib chiqib didaktik hodisalar bayon etilgan. Bunday didaktik tizimlar sirasiga Y.K.Babanskiy, V.V.Krayevskiy kabi qator olimlarning ilmiy tadqiqotlari, amerikalik didaktlar asoslagan ochiq ta'lim tizimi, hamkorlik pedagogikasi kiradi.

Zamonaviy tizimlarda o'qitish va o'qish faoliyatlariga bir xil e'tibor beriladi, ular o'rtasidagi sababiyatli va struktural

bogʻlanishlar ajratiladi, taʼlim shirkat faoliyat sifatida tahlil etiladi, taʼlim zvenolari, sikllarini oʻqituvchi va oʻquvchilarning hamkorlikda qurishga eʼtibor qaratiladi, didaktik hodisalar oʻqituvchi va oʻquvchining oʻzaro taʼsiri nuqtayi nazaridan sharhlanadi.

Yuriy Konstantinovich Babanskiy (1927-1988).

Y.K.Babanskiy 70-80yillarda didaktika fani rivojiga, milliy pedagogik kadrlar tayyorlashga munosib hissa qoʻshgan gumanist pedagog. Uning didaktik tizimida taʼlimni optimallashtirish nazariyasi alohida oʻrinni egallaydi. U didaktik orasida birinchilardan boʻlib, mavjud taʼlim tizimining kamchiliklarini payqadi, taʼlimni har bir mintaqaning milliy xususiyatlari, madaniy va iqtisodiy rivojlanishi darajasidan kelib chiqib tashkil etish gʻoyasini himoya qildi.

Taʼlimni optimallashtirish muammosini Y.K.Babanskiyning fikricha, oʻqituvchi va oʻquvchining oʻzaro taʼsiri mohiyatidan kelib chiqib, ilmiy asoslash mumkin. Taʼlimni optimallashtirish oʻqituvchi va oʻquvchilarning vaqtini, ularning jismoniy hamda aqliy intilishlarini tejash maqsadida maʼlum sharoit uchun eng maqbul (samarador) ilmiy asoslangan variantni tanlash va shu variant asosida taʼlimni amalga oshirish demakdir. U optimallashtirish gʻoyasi asosida taʼlimda oʻqituvchi va oʻquvchi faoliyatini oʻzaro uygʻunlashtirish, bu ikkala faoliyatni bir-biriga muvofiqlashtirish metodikasini yaratdi. U didaktika tarixida birinchi boʻlib taʼlimni tizim sifatida tahlil etdi va uni “ijtimoiy talab taʼlim jarayoni” tizimida oʻrgandi. Ana shu tizimga koʻra, Y.K.Babanskiy taʼlim jarayonining quyidagicha boʻgʻinlarini ilmiy asosladi: oʻqituvchilarning taʼlim maqsadi, vazifalarini oʻzlashtirishi, bolalarning real oʻqish imkoniyatlarini oʻrganishi (1); oʻquvchilar jamoasining tayyorgarligi, har bir oʻquvchining individual xususiyatlari asosida taʼlim mazmunini aniqlash (2); sinf jamoasining tayyorgarlik darajasi va oʻrganilayotgan oʻquv materialining xususiyatlari asosida taʼlim vositalari, usullari, tashkiliy shakllarini tanlash, taʼlimni optimal rejalashtirish (3); oʻqituvchi va oʻquvchilarning oʻzaro didaktik taʼsiri, taʼlimning harakati, uning maʼlum natija bilan yakunlanishi (4); Shu mavzuning oʻzlashtirilishini nazorat etish, bolalarning oʻz faoliyatini tekshirish (5); oʻqituvchi va oʻquvchilarning jamoa boʻlib qilingan ishlarni tahlil etishi, bajarilmagan ishlar, hal etilmagan muammolarni belgilashi (6).

Ta'lim tizimida Y.K.Babanskiyning yozishicha, 4bo'g'in "o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro didaktik ta'siri" hal qiluvchi rol o'ynaydi. Zero, ta'limning optimal varianti o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro didaktik ta'siriga ko'ra belgilanadi, tanlangan variant asosida ta'lim amalga oshiriladi.

Y.K.Babanskiy o'z didaktik tizimida ta'lim prinsiplari masalasini ham original bayon etgan edi. Uning yozishicha, ta'lim prinsiplari ta'lim jarayonining ma'lum nuqtayi nazari bilan daxldor: ta'limning ma'lumot, tarbiya va bolalar taraqqiyotiga yo'nalganligi prinsipi ta'lim jarayoni maqsadiga ko'ra belgilansa, bilimlarning ilmiyligi va tushunariligi, sistemaliligi va izchilligi prinsiplari ma'lumot mazmuniga ko'ra aniqlanadi.

Y.K.Babanskiy optimallashtirish nazariyasi g'oyalaridan kelib chiqib, ta'limning qator prinsiplarini yangidan asosladi: ta'limda umumsinf, guruh va individual ishlarni optimal qo'shib olib borish, ta'lim jarayonining samarali amal qilishi uchun optimal shartsharoit yaratish, bolalarning o'qishga qiziqishlarini har tomonlama rag'batlantirish, qayta xotirlash va ijodiy ishlarning optimal bog'liqligi. Bu prinsiplar Y.K.Babanskiy didaktik tizimida birinchi marta asoslangan edi.

Y.K.Babanskiy ta'lim metodlari masalasiga ham "o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siri" nuqtayi nazaridan yondashadi. Ta'lim metodlari ma'lumot, tarbiya va bolalar taraqqiyotiga yo'nalgan. Ta'lim metodi, uning yozishicha, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro bog'liq faoliyatini tartibga solish usulidir. Ta'lim metodlarini yangicha talqin etish ularni yangicha tasnif etishga olib keldi: bolalarning o'quv biluv faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari. Bu metodlar, o'z navbatida, to'rtta guruhga ajraladi: bilimlarni og'zaki bayon etish metodlari, induktiv va deduktiv metodlar, qayta xotiralash va muammoli izlanish metodlari, mustaqil ishlash metodlari; bolalar o'qishini rag'batlantirish metodlari. Bu metodlar ham o'z navbatida ikki guruhga ajraladi: o'qishga qiziqishini rag'batlantirish metodlari, o'qisho'rganishga oid burch, javobgarlikni tarbiyalash metodlari; ta'limni va o'zo'zini nazorat etish metodlari. Bu metodlarni ham Y.K.Babanskiy uch guruhga ajratadi: og'zaki nazorat va o'zo'zini nazorat metodlari; yozma nazorat va o'zo'zini nazorat metodlari; laboratoriya nazorati va o'zo'zini nazorat metodlari.

Y.K.Babanskiy didaktika logikasini boyitgan olimlardan biridir. U didaktika tarixida birinchilardan bo'lib "shaxsning real o'qish imkoniyati" tushunchasini ilmiy asoslagan edi. Shaxsning real o'qish imkoniyati keng tushuncha bo'lib, quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: shaxsning o'rgana olish layoqati, xotira va tafakkurning rivoji (1), shaxsda shakllangan muayyan malakalar: masalan, gapira olish, eshitganlarini, o'qiganlarini so'zlab bera olish (2), shaxsning o'quv mehnatiga oid malakalari, masalan, o'z faoliyatini rivojlantirish (3), shaxsning ishchanligini ta'minlay oladigan jismoniy taraqqiyot darajasi (4), shaxsning o'qishga munosabati (5), o'qishga ijobiy ta'sir eta oladigan shaxsiy tarbiyaviy sifatlar (6). Shaxsning real o'qish imkoniyati tarbiyaga muhtoj. Y.K.Babanskiy shaxsning real o'qish imkoniyati tushunchasi asosida ma'lumot mazmunini o'zlashtirishning individual xarakterini isbotlagan edi.

Maxmutov Mirza Ismagilovich (1927). M.I.Maxmutovning muammoli ta'lim to'g'risidagi qarashlari uning ikkita kitobi "Muammoli ta'lim nazariyasi va amaliyoti" (Qozon, 1972), "Maktabda muammoli ta'limni tashkil etish" (Moskva, 1977)da umumlashtirilgan. "Biz ta'limning tipini aniqlashga, deb yozgan edi M.I.Maxmutov, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri prinsipi nuqtayi nazaridan yondashamiz": o'qituvchining bilimlarni tayyor holda bayon qilishi yoki bolalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish yo'li bilan bilimlarni o'zlashtirishga qarab ta'limning dogmatik, ko'rgazmali bayon, muammoli tiplari ajratiladi.

Muammoli ta'lim zaminida bolalarning ijodiy faoliyati yotadi. Ijodiy faoliyat turlari asosida muammoli ta'limning uch ko'rinishi ajratiladi: nazariy ijodkorlik o'quvchilarning o'zlari uchun yangi qoida, qonuniyat, teoremani izlashi, topishi va asoslashi. Muammoli ta'limning bu ko'rinishi nazariy xarakterdagi ijodiy topshiriqlarni yechish yo'li bilan amal qiladi; amaliy ijodkorlik o'rganilgan bilimlarni yangi sharoitlarga tatbiq etish usulini egallash. Muammoli ta'limning bu ko'rinishi amaliy xarakterdagi ijodiy topshiriqlarni echish yo'li bilan amal qiladi; badiiy ijodkorlik borliqni badiiy obrazlar vositasida aks ettirishdir. Muammoli ta'limning bu ko'rinishi insho yozish, ma'lum mavzularda erkin ijod etish, rasm chizish, musiqa asari yaratish shaklida amal qiladi.

M.I.Maxmutovning fikricha, muammoli ta'limni dars jarayoniga moslashtirish uchun bolalarda mustaqil ishlash malakalarini

rivojlantirmoq kerak. U mustaqil ishlash malakalari qatoriga quyidagilarni kiritadi: muammoni anglash; muammoni o'z so'zlari bilan aytib bera olish, uni qayta tuzish: muammoni hal qila olishga oid farazni qo'ya bilish; farazni isbotlash usulni amaliyotga tatbiq eta olish. M.I.Maxmutov ta'limda o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri xususiyatlaridan kelib chiqib, muammoli ta'limning to'rt xil darajasini belgilaydi; bolalarning odatdagi faolligi darajasidagi muammolilik o'qituvchining tushuntirishi, tavsiyalari asosida qo'yilgan muammoni hal etish; chegaralangan faollik darajasidagi muammolilik nazariy bilimlarni o'qituvchi bayon etadi, o'rganilgan bilimni yangi sharoitga tatbiq etishga oid topshiriqni bolalar mustaqil bajarishadi; mustaqil faollik darajasidagi muammolilik bola darslik ustida mustaqil ishlab bilimlarni o'zlashtiradi; ijodiy faollik darajasidagi muammolilikbu darajada muammoni bolalarning o'zlari mustaqil tanlashadi va bajarishadi.

M.I.Maxmutov, ta'limda bolalarning mustaqillik darajasi, muammoli holat xususiyatlari asosida ta'limning quyidagicha modelini kashf etadi: muammoli holatning paydo bo'lishi: bilishga oid qiyinchilikni sezish va muammoni qo'yish; muammoni bajarish usulini tanlashga oid faraz; qo'yilgan farazni isbotlash; muammoning bajarilishini tekshirish. M.I.Maxmutovning didaktik tizimida ta'limning tashkiliy shakllari, ta'lim metodlari, vositalari, ma'lumot mazmuni inkor etilmaydi. Aksincha, muammoli ta'lim ta'limning maqsadi, vositalari, mazmuni, usullari, tashkiliy shakllariga moslashtiriladi.

Volodar Viktorovich Krayevskiy (1931). Didaktika fani tadqiqot predmetini o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siri nuqtayi nazaridan o'rgangan olimlardan biri V.V.Krayevskiydir. O'qitish va o'qishning birligi ta'lim mohiyatini o'zida aks ettirib, uning yaxlitligini ta'minlaydi, bu jarayondagi munosabatlar, bog'lanishlarni aniqlaydi. O'qitish va o'qishning o'zaro ta'siri, bog'liqligi invariant xarakterda bo'lib, u birlamchi hodisadir. O'zaro ta'sir ta'lim paydo bo'lgandan tortib to hozirgi kunlarga o'z ijtimoiy mohiyatini saqalb kelmoqda. Ta'limning borishi, uning amal qilishiida birbiriga kirishadigan ikki faoliyat o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro uyg'unlashuvi, muvofiqlashuvi shart. Bu ikki faoliyatning o'zaro ta'siridan uchinchi bir shirkat faoliyat ta'lim yuzaga keladi.

V.V.Krayevskiy ta'limning shirkat xarakteridan kelib chiqib, uning jarayoniy va mazmuniy tomonlarini ajratadi: o'zaro ta'sir ma'lum vaqt ichida zuhur etadi, ma'lum akt, bosqichlarda amal qiladi. Uning boshlanishi, o'rtasi va oxiri (natijasi) mavjud. Shuningdek, o'zaro ta'sir ma'lum mazmun asosida yuz beradi. Ta'limga olib kirilgan o'quv materialini ta'limning mazmuniy nuqtayi nazaridir.

Ta'limni yuzaga chiqaradigan faoliyatlarni o'qitish va o'qish bu jarayonning ikkala sub'yektiga daxldor. V.V.Krayevskiyning yozishicha, ta'lim jarayoni mohiyatini tushunish uchun o'qitish va o'qish faoliyatlarining xususiyatlarini anglash nihoyatda zarur.

O'qitish alohida olingan o'qituvchi faoliyatining jami, uning xatti-harakatlari yig'indisi emas. Aksincha, u o'qitish ishlari bilan mashg'ul shaxslarning barchasi uchun umumiy faoliyatdir. Yanada umumiy lashtirib aytganda, o'qitish bashariyat faoliyatining alohida sohasidir. Xuddi shunga o'xshab, o'qish ham alohida Vali yoki Vanyaning faoliyati emas. Aksincha, o'qish ham o'rganish, izlanish ishlari bilan mashg'ul yoshlarning faoliyatidir. Shu tezislariga asoslanib, V.V.Kraevskiy o'qitishni ham, o'qishni ham jamoa (kollektiv) sub'yektlarning faoliyati sifatida sharhlaydi.

O'qitish va o'qishni ikki jamoa (kollektiv) sub'yekt faoliyati sifatida tavsiflash, o'z navbatida, didaktikada quyidagicha yangi qarashlarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

Birinchi, didaktika alohida o'qituvchining faoliyati bilan shug'ullanmaydi. U o'qitish ishlari bilan mashg'ul barcha o'qituvchilar faoliyatining umumiy tomonlarini o'rganadi. Alohida olingan o'qituvchining faoliyati, qobiliyati, tafakkuri, individual xususiyatlarini psixologiya o'rganadi. Shuningdek, didaktika alohida o'qituvchining faoliyatini emas, aksincha, o'qish ishlari bilan mashg'ul yoshlar faoliyatining umumiy tomonlarini tadqiq qiladi. Ta'limning ruhiyaviy tomonlari (xotira, tafakkur, emotsiyalar va sh.k.)ni sharhlashda didaktika psixologiya fani yutuqlariga tayanadi. Psixologiya didaktika uchun amaliy fandır. Shularga ko'ra, V.V.Krayevskiy ta'limga psixologik va didaktik yondashishining farqlarini chegaraladi.

Ikkinchi, o'qitish va o'qish jamoa (kollektiv) sub'yektlar faoliyati sifatida o'zaro uyg'unlashib, uchinchi bir yaxlit faoliyatni ta'limni yuzaga chiqaradi. Ta'limni tashkil etish,

boshqarish, nazorat etishning asosiy prinsipi subordinatsiya yagona prinsip bo'lmay qoldi. Ta'limda ikkala sub'yekt faoliyatini o'zaro uyg'unlashtirishning yana bir prinsipi koordinatsiyaning mavjudligini tan olish imkoniyati tug'ildi. Ikkala sub'yekt faoliyati o'zaro muvofiqlashgandagina ta'lim amalga oshadi. Demak, ta'limni o'qituvchining o'quvchi bilan birga qurishi, birga amalga oshirishi mumkinligi isbotlandi.

Uchinchidan, didaktikaning tadqiqot predmeti munozara bahsini yangicha sharhlash, uni ikki sub'yekt (o'qitish o'qishga barobar) faoliyatining o'zaro uyg'unlashuvi kontekstida qarash imkoniyati tug'ildi. Didaktikaning munozara bahsini yangicha talqin etish V.V.Krayevkiyni ta'lim to'g'risida quyidagicha xulosalarni chiqarishga olib keldi: ta'limbu

ma'lumotga, binobarin, ijtimoiy maqsadni amalga oshirishga yo'nalgan,

ilmiy asoslangan loyihalar (dastur, darslik va sh.k.) asosida amalga oshiriladigan,

jarayoniy va mazmuniy nuqtayi nazarlarni o'zida mujassamlashtirgan,

turli munosabatlarni ta'lim, o'qitish, o'qish, ta'lim loyihasi kabi didaktik kategoriyalarda aks ettiradigan,

jamoat (kollektiv) sub'yektlar faoliyatida yuzaga chiqaradigan,

tadqiq qilish (o'rganish) va qurish (tuzish) ob'yekti bo'ladigan faoliyatdir.

Ochiq ta'lim tizimi. Ochiq ta'lim tizimi XX asrning 60-70 yillarida dastlab Angliyada, keyinchalik Amerikada paydo bo'ldi. Ochiq ta'lim tizimiga ko'ra, bolalar o'z tengdoshlari bilan bevosita muloqotda bo'lishadi, o'zlarini qiziqtirgan muammolarni birgalikda mustaqil tanlashadi, tanlangan muammoni hamkorlikda hal etishadi. Bu tizimda bolalarning o'zaro yordami man etilmaydi, aksincha, ta'lim o'zaro yordam, musobaqalashuv yo'li bilan amalga oshiriladi. Ta'limni tashkil etish, boshqarishga shu yo'sinda yondashuv o'quvchilar o'rtasidagi raqobatni yo'qotadi, ularning birbiriga hurmatini oshiradi.

Amerikalik olimlardan R.Xorvits, K.Karpenter o'tkazgan ilmiy tadqiqotlarga ochiq ta'lim tizimi klassik tizimlarga taqqoslab o'rganilgan. Bu ikki xil yondashish bo'yicha ishlagan o'qituvchilar o'z o'quv predmetlari bo'yicha bir xil o'zlashtirish berishgan. Ammo

ochiq ta'lim tizimi asosida o'qigan yoshlar klassik tizimlar asosida tayyorlangan bolalarga nisbatan o'z oldiga qo'yilgan muammolarga ijodiy yondashishgan, ularda birga ishlash ishtiyoqi paydo bo'lgan, mustaqillik yuqori darajada rivojlangan.

P.Massena, A.Xyustonlarning yozishicha, ochiq ta'lim tizimi bir to'g'ri chiziqning uchlarida joylashgan ikki xil metodikadir. Chiziqning bir uchida o'qituvchining tushuntirishi, aytib berishi, qilib ko'rsatishi, tavsiyalari asosida bajariladigan topshiriq tursa, ikkinchi uchida bolalarning o'z xohishlari bo'yicha tanlanadigan va mustaqil bajariladigan topshiriqlar turadi. To'g'ri chiziqning ikki uchi orasida ko'p nuqtalar bo'lganidek, bu ikki xil metodika o'rtasida ta'limning juda ko'p samarador variantlari, usullari, vositalari mavjud. O'qituvchi bolalar oldiga o'zi qo'ygan yoki bolalar o'z xohishi bo'yicha tanlangan topshiriq mohiyatidan kelib chiqib, ta'limni turli yo'llar bilan amalga oshiradi: topshiriqni bajarish usullari, yo'llarini to'liq tushuntiradi (1), ayrim topshiriqni bolalarning o'zlariga mustaqil bajarish uchun beradi (2), boshqa bir variantda mustaqil ishning o'ta murakkab qismini o'zi tushuntirib, qolgan osonroq qismini hal etishni o'quvchilarga buyuradi (3).

Sinfda o'zaro yordam, hamkorlikni ta'minlash maqsadida bolalar guruhlariga ajratiladi. Dastur va darsliklar barcha o'quvchilar uchun bir xil. Mashg'ulotlar guruhlar o'rtasida musobaqa, estafeta shaklida o'tkaziladi. Har bir guruhda topshiriqlar bajarilgach, qilingan ishlarning natijasi birgalikda muhokama etiladi. Demak, ochiq ta'lim tizimi o'zaro birbiriga bilim berish asosida amal qiladigan zamonaviy didaktik tizimdir.

Hamkorlik pedagogikasi. Hamkorlik pedagogikasi xx asrning 80yillarining boshida sobiq SSSR hududida shakllangan bo'lib, u ochiq ta'lim tizimining rivojlangan ko'rinishidir. Hamkorlik pedagogikasi namoyondalari o'z qarashlarini asoslash uchun klassik va progressiv didaktik tizimlarni tanqid etishadi: ta'limning asosiy harakatlantiruvchi kuchi o'quvchidir. O'qituvchi aytadi, so'raydi, talab etadi, tanqid etadi, ma'qullaydi, qoralaydi, majbur etadi, tekshiradi; u doimo qat'iy, kulmaydi, bolalarga tabassum qilmaydi. O'quvchilar o'qituvchi aytgan ishlarni bajarishadi, ular ijrochilardir. O'quvchi ijrochi rovida ishtirok etgan ta'lim jarayonida o'quvtarbiya ishlarining samaradorligini oshirish mumkin emas.

Hamkorlik pedagogikasi targ'ibotchilari yuqoridagi kamchilikdan xalos bo'lish yo'lini ta'limni qayta qurishda ko'rishadi. Ularning fikricha, maktab ta'limi hayotiy mazmunni kasb etganda, bolalar zavqshavq bilan o'qiganlarida, ta'lim bolalarning rivojlanishiga, ular shaxsining shakllanishiga mo'ljallab tashkil etilgandagina samarador amal qiladi.

Pedagogik jarayon, deb qayd etishadi, hamkorlik pedagogikasi asoschilari, qiyinchiliklarni bartaraf etish jarayonidagi o'qituvchi va o'quvchining hamkorligidir. Agar ta'lim jarayonida bolalar ma'lum biror ishni bajarishni uddalay olmasalar, o'qituvchi mimikasi, so'z ohangi bilan o'z noroziligini izhor etib, o'quvchilarga yordam berdi deylik. Bu hamkorlikmi? Bu hamkorlik emas. Bolalarning imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan yordam haqiqiy hamkorlikdir.

Ta'limda hamkorlikni ta'minlash uchun bolalarni o'quvchilik roliga o'rgatish kerak. Bolalarni o'quvchilik roliga tayyorlashda o'qituvchi quyidagilarni amalga oshiradi: bolalarda o'quv biluv faoliyatini rivojlantirish, o'qish motivlarini tarbiyalash, irodani taraqqiy ettirish, burchni anglashga o'rgatish, jamoada yashay olish va ishlay olish ko'nikmalarini o'stirish, o'zo'zini rivojlantirishga moyillikni shakllantirish.

Hamkorlik pedagogikasi targ'ibotchilari faoliyatida pedagogik nazariya va pedagoik amaliyotning qator jumboqli masalalari hal etildi: Sh.A.Amonashvili 6 yashar bolalarni o'qitish tajribasi asosida ta'limda ijtimoiy qimmatga ega motivlarning rolini, ularning bola shaxsini rivojlanishidagi o'rnini asosladi; S.N.Lisenkova boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatini boshqarishning original usulini kashf etdi. U o'qitgan boshlang'ich sinflarda bolalar o'quv mehnati sohasidagi o'z yutuqlaridan sevinishadi, bolalar tayanch sxemalarga rioya qilishib, o'zlarining yutuq va kamchiliklariga izoh berishadi; V.F.Shatalovning ilmiy pedagogik va amaliy faoliyatida pedagogik jarayondagi eng mushkul masalalardan biri bolalarda har kuni aqliy mehnat bilan shug'ullanish ko'nikmasini shakllantirish muammosi hal etildi. U ishlagan sinflarda o'quvchilarning o'z shaxsiy shanini anglash, o'z kuchi va qobiliyatiga qat'iy ishonchini hosil qilish, mustaqillikni shaxsiy sifatga aylantirish kabi didaktik muammolar ham amaliy, ham nazariy isbotlandi.

5.6. Ta'lim paradigmalari.

Barchamizga ma'lumki, shaxs tarbiyasi xilmaxil qadriyatlarga tayanib, amalga oshiriladi:

transsendental (tarbiyalanuvchini mutlaq qadriyatlar – Haqiqat, Yaratguvchiga yaqinlashtirish);

sotsiotsentrik (erkinlik, tenglik, mehnat, tinchlik, ijod, insonparvarlik va boshqalar);

antropotsentrik (individuallik, foydalilik, o'zo'zini namoyon etish va boshqalar).

Shaxsning har tomonlama kamol toptirishdagi tayanch qadriyatlarni belgilab olish o'z navbatida ta'limiy paradigmalarni tanlab olishga ham imkon beradi.

Paradigma (grekcha, paradeigma) so'zining o'zi keng ma'noda turmush va fikrlashining biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o'ziga xos tuzilishga ega nazariya deb izohlanadi.

Pedagogikada paradigma atamasining ikki xil ma'nosini ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, bu faylasuf T.Kunning klassik ta'limotiga yaqin bo'lib, umummilliy tushuncha hisoblangan paradigmalar ilmiy faoliyat modeli, tadqiqot me'yorlari, mezonlari, standartlari yig'indisi, paradigma – ilmiy jamiyatdagi aniq fanlar yoki qator fanlarda umumiy tarzda qabul qilingan dunyoni tushuntirishga yetakchi yondashuv, bir butun g'oyalar, qadriyatlar yig'indisi Ye.V.Berejkova, V.V.Kraevskiy, N.A.Korshunova kabi olimlar ham xuddi shunday nuqtai nazarga asoslanadilar.

Xususan, Ye.V.Berejkova va V.V.Kraevskiy tomonidan paradigma tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: "Paradigma – fanning obykti emas, uning o'zi nazariy standartlar, metodologik me'yorlar, qadriyatli mezonlar sifatidagi ilmiy faoliyat. Paradigma – aniq vaqt doirasida ilmiy jamoatchilikka muammolarni qo'yish va ularni hal etish modeli sifatida taqdim etiladigan barcha ilmiy yutuqlarga tegishli tadqiqot vazifalarini hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariya (yoki muammolarni qo'yish modeli).

Paradigmani ikkinchi tarzda tushunish uni ta'lim tizimini loyihalashning asosi, g'oya, yondashuv, tayanch modeli yoki ta'lim strategiyasi sifatida izohlanadi. Bunday talqin etishda qoidaga muvofiq ta'limiy paradigmalar tushunchasidan foydalaniladi va u ta'limning asosiy yo'nalganligini aks ettiruvchi atamalar, qo'yilgan pedagogik g'oyalarning manbai va usulini o'ziga qo'shib oladi. Demak, shakllantiruvchi, insonparvar va ezoterik (I.A.Kolesnikov)

avtoritar, manipulyativ va qo‘llabquvvatlovchi (G.B.Kornetov), an’anaviy shakllantiruvchi, an’anaviy rivojlantiruvchi, shaxsga yo‘naltirilgan (S.V.Kulnevich) an’anaviy, ratsional va insonparvar (V.Ya.Pilipovskiy) ma’naviy va dunyoviy (I.A.Solovsova), pedagogik, androgogik, akmeologik, kognitiv va kommunikativ (Yu.G.Fokin) va boshqa paradigmlar ajratib ko‘rsatiladi.

A.Kostinning tasnifiga muvofiq fundamental zamonaviy paradigmalarga quyidagilar kiradi.

asosida faoliyatli yondashuv turadigan, markazida bilim turadigan, obyektivaxboriy yondashuvli ta’lim mazmunini tashkil etishning fanga doir modeli;

asosida faoliyatli yondashuv turadigan texnologik o‘qitish yoki o‘quvchilarning faoliyatiga bog‘liq holdagi tuzilishga muvofiq ta’lim mazmunini tashkil etishning texnologik yo‘naltirilgan modeli;

asosida o‘z mavqeini belgilab olish usullari, ta’limning individual yo‘nalganligi turadigan, asosiysi semantik individual rivojlanish bilan ta’lim mazmunining qo‘shilish usullari bo‘lgan ta’lim mazmunini tashkil etishning shaxsga yo‘naltirilgan, ya’ni antroponimik (P.G Izedrovich bo‘yicha) modeli;

asosida so‘nggi ijtimoiy madaniy mexanizmlarni translyatsiya qilish va ta’limiy qadriyatlarni qaytadan tiklash turadigan uyushma, xalq, etnik guruhlarining turlituman ijtimoiymadaniy o‘ziga xosliklari asosida tashkil etiladigan ta’lim mazmunini tanlab olishning ijtimoiy modeli;

ta’limning maqsadli yo‘nalganligi yaxlit tarzda shaxsning rivojlanishini va o‘zo‘zini rivojlanishiga yordam berish hamda zaruriy shartsharoitlarni yaratishga asoslangan axborotlashtirishga almashtiriladi. Shu nuqtai nazardan dunyoning ehtimoliy modeli, uni o‘zlashtirish darajasini nafaqat uning bilishi, qanchalik darajada tushunishini, ya’ni mazmunini egallaganligini aniqlab beradi;

ta’lim jarayonining ta’lim oluvchilarning ehtiyoj, qiziqish va imkoniyatlari bilan bog‘liqlikda tashkil etilishi, shaxsiy fikriy faoliyatni ta’minlash, mazkur ehtiyoj, qiziqish, imkoniyatlarni namoyon etish uchun zarur sharoitni yaratish asosida ta’lim oluvchiga nisbatan nuktai nazar o‘zgaradi.

Ta’limning yangi paradigmasining paydo bo‘lishi faqat ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lmasdan, u butun madaniy rivojlanish jarayonida yuzaga kelgan. Uning shakllanishida

insonparvarlik falsafasi va psixologiyasi (E.Fromm, J.P.Sartr, V.Frankl, N.Berdyayev, A.Maslou, K.Rodjers va boshqalar) asosiy o‘rin egallaydi. Mazkur konsepsiyaning asosiy nuqtai nazari – har bir alohida inson hayotining o‘ziga xosligi, har bir shaxs noyob, individual, shartsiz qadriyat ekanligini e‘tirof etish. Insonparvar falsafa va psixologiya o‘zo‘zini realizatsiyalash, o‘zo‘zini rivojlantirish ehtiyojini insonning yuksak ehtiyoji deya e‘tirof etib, insonning o‘z noyobligini asrash va rivojlantirish, insonning erkinlikka erishish mexanizmi sifatida individual shaxsiy tanlovni amalga oshirishni o‘zida namoyon etish, qilingan tanlov uchun javobgarlikni bo‘yniga olishda ularni amalga oshirishning muhim shartini ko‘radi. Shuning uchun shaxsning rivojlanishi va insonning shakllanishi boshqalar bilan hamjihatlikda, ishonch, oshkoralik, sevgiga asoslangan insonparvar munosabatlarni o‘rnatish jarayonida sodir bo‘ladi.

Asosida ta’limga yangicha yondashuv yotadigan g‘oyalarning rivojlanishida psixologlar ham muhim hissa qo‘shishgan: yaqin zonadan rivojlanish va inson rivojlanishida birgalikdagi faoliyatni roli haqidagi ta’limot (L.S.Vygotskiy), shaxsning hayotiy faoliyatdagi vazifalari, fikriy soha, insonning reflektiv imkoniyatlarining rivojlanishi, o‘quv faoliyati jarayonida uning psixik rivojlanish qonuniyatlari haqidagi tadqiqotlar (A.N.Leontev, L.I.Ansiferova, A.V.Petrovskiy, P.Ya. Galperin, V.V.Davydov va boshqalar).

O‘zo‘zini tashkillash, o‘zo‘zini rivojlantirish, o‘z o‘rnini belgilab olish, o‘zo‘zini realizatsiyalash, o‘zo‘zini aktuallashtirish g‘oyalari sinergetika, insonparvar falsafa va psixologiya tomonidan tantanali suratda e‘lon qilinishi mohiyatida quyidagilar aks etadigan ta’limga shaxsga yo‘naltirilgan paradigmasining namoyon bo‘lishini belgilab berish zamonaviy ijtimoiymadaniy vaziyatlarda ayniqsa talab etilishini ko‘rsatdi: inson murakkab, o‘zo‘zini rivojlantiruvchi tizim sifatida qaraladi, har bir shaxsning noyobligi va takrorlanmasligi hamda uning rivojlanish traektoriyasi, o‘z qadrqimmatini e‘tirof etiladi.

Zamonaviy pedagogik fanlardagi maqsadiga (ta’limiy, tarbiyaviy), ta’limning bosh maqsadi – madaniyatga yondashuvga, o‘quvtarbiya jarayoni doirasida hal etiladigan vazifalariga, pedagog va talabalar orasidagi o‘zaro ta’sir etish tavsifiga ko‘ra paradigmalar farqlanadi.

Biz esa, quyida ko‘proq va keng tarqalgan besh paradigmmaga alohida to‘xtalib o‘tamiz:

1. An’anaviy bilimga yo‘naltirilgan paradigma.
2. Bixevioristik (ratsionalistik) paradigma.
3. Insonparvarlik (fenomenologik) paradigmasi
4. Texnokratik.
5. Ezoterik.

1. An’anaviy bilimga yo‘naltirilgan paradigma. Bilimga yo‘naltirilgan paradigmmada ta’limning bosh maqsadi: “Istalgan qiymatdagi bilim, bilim va yana bilimdir”. Shuning uchun ta’lim muassasasining roli insoniyat sivilizatsiyasi madaniy merosining ko‘proq mavjud unsurlari – ham individual, xuddi shunday ijtimoiy tartibni saqlab qoluvchi, individual rivojlanishga imkon beradigan zaruriy, xilmaxil, muhim bilim, ko‘nikma va malakalar, bundan tashqari ideal va qadriyatlarni uzatish hamda saqlashda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun o‘quv dasturlari mazmuni tayanch, asosiy, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash vaqtida sinovdan o‘tuvchi, shaxsning funksional savodxonligi va ijtimoiylikini ta’minlashga asoslanadi.

2. Bixevioristik (ratsionalistik) paradigma. Ratsionalistik paradigma an’anaviy paradigmmaga qaramaqarshi o‘laroq, o‘zining diqqat markazida mazmuni emas, o‘quvchilarning turli turdagi bilimlarni o‘zlashtirishining samarali usullarini qo‘yadi. Ratsionalistik ta’lim paradigmasi asosida B.Skinnerning ijtimoiy injeneriya bixevioristik konsepsiyasi turadi. Ta’lim muassasasining maqsadi – ta’lim oluvchilarda ijtimoiy me’yorlar, milliy madaniyat talablari va natijalariga muvofiq, moslashuvli “xulqatvor majmui” ni shakllantiradi. Shuning uchun “xulqatvor” atamasi “barcha turdagi reaksiyalar, insoniy xususiyatlar – uning fikrlashi, histuyg‘usi va harakati”ni bildiradi (R.Tayler).

Mazkur paradigma ta’lim muassasasiga ta’lim oluvchilarning maqbul xulqatvorini shakllantirish maqsadida bilimlarni o‘zlashtirish yo‘li sifatida qaraydi, ya’ni har qanday ta’lim muassasasi – bu yashash muhitiga moslashtirishning ta’limiy mexanizmi. Bunday o‘qitishning asosiy metodlariga o‘rgatish, trening, test nazorati, individual o‘qitish, korreksiyalash kiradi.

3. Insonparvarlik (fenomenologik) paradigmmasining diqqat markazida o‘zo‘zini rivojlantirish ehtiyojiga ega bo‘lgan, hayot

sub'ekti, shaxs erkinligi va ma'naviyati sifatidagi ta'lim oluvchi turadi. U bolaning ichki dunyosini rivojlantirish, shaxslararo muloqot, ijod, dialog, shaxs o'sishi uchun yordamga yo'naltirilgan. Insonparvarlik paradigmasi vakillari yagona qarash bilan ajralib turmaydi. Uning doirasida ta'limning xilmaxil modeli amalga oshadi. Ularni bola va inson hayotining tengsiz davri sifatida bolalikka qadriyatli munosabat, ya'ni ta'lim muassasasining bosh vazifasi bolani rivojlantirish (aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik) ekanligini e'tirof etish yagona yo'nalishda birlashtiriladi. Insonparvarlik paradigmasi doirasida harakatlanuvchi har bir ta'lim tizimi ijodiy izlanishga asoslanib, ta'lim va tarbiyaning sof mazmuni, metod va vositalaridan joy oladi. Insonparvarlik paradigmasi ham o'qituvchi, ham o'quvchilarning erkinligi va ijodkorligini talab etadi.

Pedagogik faoliyatning insonparvarlik tamoyiliga asoslanuvchi paradigma quyidagi mezonlarga tayanadi:

ta'limning ijtimoiylashuvi o'qituvchilarni tayyorlash jarayoniga nisbatan texnokratik yondashuvdan voz kechish, ular tomonidan nisbatan o'zlashtiriladigan bilimlar majmuasining pedagogik hamda psixologik xususiyat kasb etishini ta'minlash, o'qituvchilarda umuminsoniy, umummadaniy qadriyatlar mazmunida ilgari surilgan g'oyalarga asoslangan ijtimoiy tafakkurni shakllantirish;

milliy hamda jahon madaniyati asoslari va ularning mohiyatidan xabardor bo'lish;

ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda milliy istiqloq g'oyalariga asoslanish;

shaxsning o'zo'zini rivojlantirish hamda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan layoqatiga tayanish va uni takomillashtirish;

o'qituvchilarning kasbiy jihatdan shakllantirish jarayonida o'qituvchi hamda talabalarining o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishlariga erishish;

ta'lim (xususan, kasbiy ta'limi) jarayonida o'quv dasturlarining talabalar qobiliyati hamda qiziqishlariga ko'ra tanlab olinishi borasidagi imkoniyatning mavjudligi;

pedagogik ta'limning fundamental xususiyat kasb etishi, ya'ni, talabalar tomonidan o'zgaruvchan sharoitlarda shaxs ijodiy rivoji asosini ta'minlovchi invariant bilimlarning o'zlashtirilishiga erishish;

mehnat bozori hamda ijtimoiy jarayonlarda yuzaga keluvchi hamda doimiy ravishda o'zgarib turuvchi ehtiyojlarga to'laqonli javob bera oladigan ta'limni shakllantirish shu asosda kasbiy moslashuvchan mutaxassislarni tarbiyalash;

ta'limning uzluksizligi, ta'limning har bir jarayon bosqichining natijalanishini ta'minlovchi kasbiy ta'lim (kadrlar malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash) dasturlarining tizimining yaratish va rivojlantirish, muayyan dasturni ta'limning u yoki bu bosqichida o'qitilishi yoki o'qishni boshqa tipdagi o'quv muassasida davom ettira olish imkoniyatini bera olishi;

ta'limning ekvivalentligi, ya'ni uning davlat ta'lim standarti, milliy madaniyati va mentalitet, shuningdek, xalqaro me'yorlarga muvofiq darajasi.

4. Ilmiytexnik, texnokratik paradigmaning bosh maqsadi amaliy takomillashtirish uchun zarur "aniq" ilmiy bilimlarni uzatish va o'zlashtirishdan kelib chiqadi. "Bilim – kuch", shuning uchun inson qadrqimmatini uning bilish imkoniyatlari aniqlab beradi. Inson o'zini o'zicha emas, faqat aniq belgilan etalon (o'rtacha namuna, standartlashgan)dagi bilish yoki xulqatvor sohibi sifatidagina baholaydi. Texnokratik paradigma sharoitida o'quvtarbiya jarayonining istalgan natijasi "ha – yo'q", "biladi – bilmaydi", "tarbiyali – tarbiyasiz", "egallagan – egallamagan" tizimida baholanishi mumkin. Bu yerda tayyorgarlik, ma'lumotlilik, tarbiyalanganlik darajasi tekshirib aniqlanadigan qandaydir etalon, ideal mavjud bo'ladi.

5. Ezoterik paradigma. Bu bizning sayyoramizdagi eng qadimiy ta'limiy paradigmalardan biri. Mazkur so'zning yunonchadan so'zmaso'z tarjimai "sirli", "yashirin" ma'nolarini bildiradi. Uning mohiyatini abadiy va o'zgarmas Haqiqatga munosabat tashkil etadi. Ushbu paradigma tarafdorlarining fikricha, haqiqatni shunchaki bilish mumkin emas, unga vijdon pokligi orqali erishish mumkin. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi o'quvchining tabiiy kuch va imkoniyatlarini yuqori darajadagi ongga ega bo'lish, Kosmos bilan muloqot uchun sarf etish va rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchining muhim muhofaza qiluvchi funksiyasi ta'lim oluvchilarning axloqiy, jismoniy, psixik tayyorgarligini amalga oshirish va mavjud kuchlarni rivojlantirishdir.

5.7. Shaxsga yunaltirilgan ta'lim.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim konsepsiyasini ishlab chiqishni talab etadigan yangi paradigmalarning paydo bo‘lishi amaliyotchi pedagoglarda ular asosida o‘z faoliyatini qayta qurish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Biroq “shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim”, “shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish” tushunchalari mazmuni kundalik, shuningdek ilmiy darajada ham bir xil ma‘noni ifoda etmaydi. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishning mavjud konsepsiyasi uning an‘anaviy, fanga yo‘naltirilgan o‘qitishdan o‘ziga xosligi va farqi, eng avvalo shundaki, o‘zlashtirilgan bilim va faoliyat usullari faqat birgina maqsadni aks ettirmay, balki insonning “shaxs bo‘lish” ehtiyojini amalga oshirish (A.V.Petrovskiy), “uning sub‘ektivligini shakllantirish”, shaxsning sub‘ektiv tajribasini boyitish (I.S.Yakimanskaya), “shaxsiy vazifalar”ni amalga oshirish (V.V.Serikov), madaniyat kishisi sifatidagi individning shakllanishi (Ye.V.Bondarevskaya) sharti, vositasidir. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim va o‘qitish jarayonlarini aynanlashtirishga intilish shaxsga o‘qitishning madaniy uyg‘unligi, insoniy muvofiqligi va hayotiy moslashuvchanlik tavsifi, eng avvalo, didaktik emas, tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishga yo‘nalganligi bilan bog‘liqdir.

Shunday qilib, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim jarayonining asosiy tavsifi uning boshqa maqsadga yo‘nalganligi va ishtirokchilarga boshkacha yondashuvni ifoda etishidadir: talabalarni o‘z hayotiy faoliyat usullari, o‘z individualligini talabga javob beradigan tarzda amalga oshiruvchi o‘quv jarayonining haqiqiy sub‘ektiga, o‘qituvchini esa, talaba faoliyati tashkilotchisi, boshqaruvchisi, talabalar va madaniyat orasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in, talabani madaniyatga olib kirish va undagi o‘z o‘rnini belgilab olishni ta‘minlovchisiga aylantirishdir.

5.8. Ta‘lim jarayonining qonuniyatlari.

Ta‘lim qonunlari, qonuniyatlari va prinsiplari muammosi zamonaviy pedagogika fanining dolzarb muammosi hisoblanadi. Ular ko‘p marotaba mutaxassislar tomonidan muhokama qilinganligiga qaramasdan, bugungi kunda ham ushbu tushunchalarni chegaralari aniqlashtirilmaganligiga guvoh bo‘lamiz.

Pedagogikada «qonun» va «qonuniyat» tushunchalari falsafiy kategoriya sifatida qo‘llaniladi. Qonun — bu hodisa va jarayonlar

o'rtasidagi zaruriy, mavjud, takrorlanib turuvchi munosabatlardir. Qonun predmetlar orasidagi aloqadorliklarni ifodalaydi.

Falsafada qonuniyat — qonunga qaraganda keng tushuncha hisoblanadi. Qonuniyat ko'plab qonunlar harakatlari yig'indisi natijasidir. Shuning uchun qonuniyat ko'plab aloqa va munosabatlarni ifodalaydi.

Ta'lim qonuniyati — bu ta'lim jarayoni komponentlari, qismlarini orasidagi takrorlanib turuvchi aloqalaridir.

Ta'lim omillari va hodisalari orasidagi aloqadorliklarni ifodalovchi ta'limning obyektiv qonun va qonuniyatlari didaktik jarayonni rivojlanishining umumiy ko'rinishini tushunish imkoniyatini yaratadi. Biroq ular amaliy faoliyat uchun ko'rsatma bera olmaydi, faqatgina ushbu ko'rsatmalarni yaratish va texnologiyalarni ishlab chiqishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Har qanday fan tabiat va jamiyatdagi hodisa va jarayonlarni qonun qonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Demak, tabiat qonunlarini tabiiy fanlar, jamiyat qonunlarini ijtimoiy fanlar, tafakkur qonunlarini gumanitar fanlar o'rganadi.

Yuqoridagi qonunlar dialektika qonunlari deb yuritiladi. Shu bilan birga tor doiradagi hodisa va jarayonlarni ham o'z qonunlari mavjud. Jumladan ta'lim jarayonining qonuniyatlari.

Ta'lim nazariyasi mustaqil fan sifatida ta'lim jarayonining qonuniyatlarini tadqiq qilish bilan shug'ullanadi.

Qonuniyatlar—ta'lim jarayonida takrorlanib turadigan ichki bog'la nishlardir.

Ta'lim jarayoni qonuniyatlarining mohiyatini ochish, tartibga solish ustida rus ta'lim nazariyachilari N.A.Sorokin, I.Ya.Lerner, Yu.K.Babanskiy, M.N.Skatkin, I.V.Zagviyazinskiylar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

O'qituvchi ta'lim jarayonining qonuniyatlarini yaxshi bilsagina, ta'lim jarayonini ongli, samarali boshqara oladi. O'qituvchi unutmazligi kerak, ta'lim jarayonida didaktik qonuniyatlar bilan birga psixologik, fiziologik, gnoseologik qonuniyatlar ham mavjud. Ta'lim jarayonining qonun va qonuniyatlari ta'lim jarayonining prinsiplari va qoidalari uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

«Prinsip lotincha «principium» so'zidan olingan bo'lib, asos, boshlang'ich holat, asosiy rahbar g'oya, xulq va faoliyatning asosiy qoidasi kabi ma'nolarni anglatadi». Ilk antik falsafada birinchi ibtido

sifatida suvni, havoni, olovni, tuproqni qabul qilganlar. Prinsipni esa zaruriyatning yoki hodisalar qonuniyatining ifodasi sifatida talqin qilishgan. Mantiqiy ma'noda prinsip tizimning tushunchasi, asosi bo'lib bu asos biron qoidani umumlashtirishdan va uni ayni abstraksiya qilib olingan sohadagi barcha hodisalarga joriy etishdan iborat.

Prinsiplar ta'limtarbiyaning aniq shakllarida, sharoit va omillar ta'sirida hosil bo'ladi. Ular ma'lum bir davrda ta'limga qo'yilgan talablar asosida paydo bo'ladi. Qonuniyat obyektiv xarakterga, prinsip esa subyektiv xarakterga ega. Masalan, o'qituvchi u yoki bu prinsipga amal qilmasligi mumkin, bu bilan ta'lim jarayoni yo'q bo'lmaydi, biroq ta'lim samarasi kam bo'lishi mumkin. Pedagogika fani nazariyasi va amaliyotini uyg'unlashtirishda ta'lim qonuniyati va prinsiplari xizmat qiladi.

Pedagogik ensiklopediyada: «Ta'lim prinsiplari bu ta'lim jarayonining qonuniyatlari va tarbiyaning umumiy maqsadlariga muvofiq ravishda maktabdagi o'quv ishlarining tashkiliy shakllari, metod va mazmunini aniqlovchi didaktik kategoriyadir». Bu nihoyatda keng ma'noda berilgan ta'rif bo'lib, maktab faoliyatini to'laligicha qamrab olyapti, uning stratetik rivojlanishida asosiy poydevor, tayanch sifatida qabul qilinyapti. Bu holatni I.T.Ogorodnikov (1950) ham qayd etib, ta'lim jarayonining umumiy tavsifidan asosiy ko'rsatmalar kelib chiqishini uqtiradi: «maktab ta'lim jarayonini o'tkazishni aniqlovchi asosiy ko'rsatmalar ta'lim prinsiplari deb nomlanadi».

Didaktshunos olim M.N. Skatkinning (1982) ta'kidlashicha, «ta'lim prinsipi bu o'qituvchi va o'quvchining hamkorligidagi faoliyati asosida, zarur bo'lgan natijaga olib keladigan qoidani keltirib chiqaradi»

Bu ta'riflardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchining o'rgatuvchilik faoliyati va o'quvchining o'rganuvchilik ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan qoidalar o'qitish jarayonida didaktik prinsiplar mohiyatini tashkil etadi. Ta'lim prinsiplari bu ta'lim va tarbiya maqsadlariga muvofiq ravishda o'qitish qonunlaridan foydalanish usullarini xarakterlovchi didaktik kategoriyadir. Ma'lumki, har qanday fan borliqdagi mavjud hodisa va jarayonlarning obyektiv qonun va qonuniyatlarini ochish bilan shug'ullanadi. Bu qonunlar insonga tabiat va ijtimoiy hayotning

rivojlanish mohiyatini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda bu qonunlar amaliy xattiharakat uchun ko'rsatma bo'la olmaydi, balki ular amaliy faoliyat texnologiyasi va qoidalarini ishlab chiqish uchun nazariy asos hisoblanadi. O'quv jarayonining obyektiv rivojlanishi qonuniyatlarini bilish asosida o'qituvchini amaliy faoliyatga yo'llaydigan prinsip va qoidalar ishlab chiqiladi. Bu yerda o'zaro bog'liq uchta tushuncha «qonuniyat», «prinsip», «qoida»ga urg'u berilyapti.

Ta'lim prinsiplarida ta'limning me'yoriy asoslari o'z ifodasini topadi. Ular asoslanmaydigan toifaga mansub bo'lib, o'quv amaliyotining yoyilishidan kelib chiqishi va o'zida o'quv jarayonining qonuniyatlarini ifodalashi bilan ajralib turadi. Demak, prinsip o'quv jarayonining umumiy yo'nalishini va asosiy talablarini aniqlashtirib beradi. Yoxud prinsip tushunchasi «nima uchun» yoki «qanday o'qitish kerak» degan savolga to'laqonli javob beradi.

B.N.Savin (1975) o'rganilayotgan muammoga o'quvchini tarbiyalash maqsadi mavqeidan yondashadi: «Ta'lim prinsiplari tarbiya maqsadlariga va o'qitish jarayoni qonuniyatlariga muvofiq tarzda dars berish va o'qitish jarayonini belgilashga xizmat qiluvchi asosiy rahbar qoidalardir».²

Maktabda ta'lim jarayoni o'zining umummetodik va didaktik prinsiplariga ega. O'qitish nazariyasi ta'limning umumpedagogik va ruhiy fiziologik asoslarini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etishda amal qiladigan asosiy metodik ko'rsatmalar ekanligini didakt olim D.O.Lordkipanidze (1955) ta'kidlaydi. Uning fikricha, «ta'lim prinsiplari jarayonni tashkil etish va boshqarish bo'yicha yetakchi metodik ko'rsatmalardir»¹.

Professor E.S.Kairov tadqiqotlarida ta'lim prinsipining mohiyati ta'lim jarayoni tahlili asosida aniqlashtiriladi: «Ta'lim prinsipi bu maktabdagi ta'lim jarayonini tashkil etishga qo'yilgan talablarni ifodalovchi, boshlang'ich didaktik ko'rsatmalardir». Bunday qarashning muhim tomoni shundaki, ta'lim prinsiplari butun bir pedagogik amaliyotning asosini, boshlang'ich holatini, «start» chizig'ini belgilab beryapti. Bu fikr B.P.Fsipov (1967) tomonidan ham qo'llabquvvatlanadi: «ta'lim prinsipi deganda, biz maktabdagi ta'lim jarayonini o'tkazish va tashkil etish mazmuni asosida

² Savin Н.В. Педагогика Тошкент «Ўқитувчи» 1975.

yotadigan ko'rsatmalarni tushunamiz»³ 4. Ta'lim prinsipi bir tomondan umumiy o'rta ta'lim maqsadi va faoliyati mazmunini aniqlashtirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali didaktik jarayonni tashkil etishga imkon yaratadi, ta'limtarbiya maqsadini o'rnatishga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga didaktik prinsiplar o'z tarkibini, tasnifini bir xilda saqlab qolishi mumkin emas. Ular tarixiy davrga mos holda jamiyatning ta'lim tizimiga qo'yadigan aniq talab larni ifodalaydi. Shu bois vaqt o'tishi bilan ayrim prinsiplar o'z ahamiyatini yo'qotadi, ba'zilari esa yangidan paydo bo'ladi. Demak, prinsip pedagogik kategoriya sifatida boshqa fanlar kategoriyalari kabi rivojlanib boradi, jamiyat talablariga mos holda yangilanadi. Ayni vaqtda prinsiplar jamiyatning maktab oldiga qo'ygan vazifalarini qamrab oladi, ijtimoiy rivojlanish talablarini qanoatlantiradi, o'quv faoliyatining xususiyatlarini va ularning psixologik asoslarini hisobga oladi.

Ta'lim prinsipi o'zining to'liq ifodasini o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyatida topadi va ayni vaqtda o'quv jarayonining butunligini ta'minlaydi (mazmun, metod, shakl)ni, o'zaro bog'lanishlarning umumiy yo'nalishini va asosiy talablarini aniqlaydi.

Ta'lim prinsiplaridan oqilona foydalanish uchun ma'lum shartsharoit yaratilishi lozim. Shuning uchun butun bir ko'rsatmalarni shakllantirish kerak. Qachon o'qituvchi o'z faoliyatida bunday ko'rsatmalarga amal qilsa, ta'lim prinsiplarini to'g'ri qo'llagan bo'ladi. Shunday holda maktablarda ta'lim maqsadiga to'g'ri erishiladi. Ta'lim prinsipi o'qituvchini o'rgatuvchilik faoliyati asosida emas, balki ta'limning umumiy tashkil etilishi asosida yotadi.

Ta'lim prinsiplari ta'limning umumiy va asosiy ko'rsatmalari hisoblanib, har qanday o'quv predmeti va ta'limning har bir bosqichida o'ziga xos tarzda hamda ma'lum qonunlar asosida qo'llaniladi. Bu ko'rsatmalar o'z vaqtida har bir davrning ilg'or o'qituvchilari tajribalari natijasida paydo bo'lgan. Klassik didakshunos larning xizmati shundaki, ushbu amaliy xarakterga ega

³ Д.О.Лордкипанидзе Принципы, организации и методы обучения. Тбилиси, 1955. 53 с.

⁴ Есипов Б.П. Основные дидактики М.: «Просв.», 1967. 207 с.

bo'lgan ko'rsatmalarni ilmiy jihatdan asoslashgan va ularning ta'lim fazosiga tarqalishiga hissa qo'shishgan.

Ayrim didakshunoslar didaktik prinsiplar bilish nazariyasidan kelib chiqadigan ta'limning asosiy qonuniyatlari deb qaraydilar. Bunday yondashuvga o'qitish jarayonining ilmiy bilish jarayoni bilan bog'liqligi asos bo'lgan.

Didaktik qonuniyatlar ta'lim jarayonini (mazmunini, metod va shaklini) aniqlaydigan asosiy ko'rsatmalarda o'zining aniq ifodasini topadi. M.A.Sorokin (1975) fikricha, «ushbu asosiy ko'rsatmalar ta'lim prinsiplari deyiladi»¹. Ta'lim prinsiplari jamiyatning maktab oldiga qo'yadigan obyektiv talablarini ifodalaydi. Ular ta'limtarbiya maqsadi bilan aniqlanadi hamda tarixiy va dialektik xarakterga ega bo'lib aniq tarixiy sharoitlarda qo'llaniladi. Ta'lim prinsiplari erkin shaxsni shakllantirishning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonining xarakteri, yo'nalishi, o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonunqoidalarini o'z ichiga oladi. Shu bilan bir vaqtda, ta'lim prinsipi ikkita faoliyatni — o'qituvchi va o'quvchining o'z oldiga qo'ygan vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradigan qator talablarga ham amal qiladi. Ta'lim prinsipi ta'lim jarayonining eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning negizi hisoblanadi. Ta'limning maqsadi hayot talablariga muvofiq tarzda o'zgarib borgani kabi ta'lim prinsiplari ham yangilanib boradi. Ta'lim prinsiplari maktablar oldiga qo'yiladigan vazifalar asosida belgilanadi va o'zaro mustahkam aloqadorlikda amalga oshiriladi.

Ta'lim prinsipi esa o'qitish jarayonida amal qilinishi, majburiy bajarilishi shart bo'lgan yetakchi qoida, asosiy talablar bo'lib, u ta'lim jarayonining ichki mohiyatini belgilab beradi va harakatga soladi. «Ta'lim prinsiplari bu o'qitishni samarali tashkil etish qonuniyatlaridan kelib chiqib, o'qitish jarayoniga qo'yilgan asosiy talabdir». Binobarin, ta'lim jarayoni samarali tashkil etilsagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin bo'ladi. Bu jarayon har doim ham samara beravermaydi, qachonki o'qituvchi va o'quvchi hamkorligida ongli va faol munosabat yuzaga kelsa, shu daqiqadan boshlab samarali faoliyat mexanizmi ishga tushadi. Demak, samarali tashkil etilgan ta'lim jarayonida bajarilishi va amal qilinishi lozim bo'lgan talablar ta'lim prinsipining mohiyatini ifodalaydigan ekan.

Ta'lim prinsipi mahsuldor faoliyatni ta'minlovchi ta'lim jarayoniga qo'yilgan asosiy talablar tizimi hamdir.

Didakshunos olim V.A. Onishuk (1987)ning ta'kidlashicha, «ta'lim prinsipi ta'lim jarayonining tashkil etish shaklini, vositasini, o'qitish metodlarini, ta'lim mazmunini aniqlaydigan qoidalardir»¹. Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonining mazmuni ta'lim maqsadiga, o'qitish metodi va vositalari esa ta'lim mazmuniga bog'liq. Shu jihatdan yuqorida keltirilgan ta'rif prinsip mohiyatini to'laqonli ifodalaydi.

Ma'lumki, borliqdagi har bir hodisa, predmet, jarayonlar o'z qonuniyatlari asosida mavjud bo'ladi, doimiy o'zgarib, rivojlanib turadi. Pedagogik voqelik ham ma'lum qonuniyatlarda asosida rivojlanadi, ularsiz ta'lim prinsiplarining mohiyatini ochib berish mumkin emas.

O'qitish jarayonini ta'lim prinsipi asosida tashkil etish bu jarayonni ilmiy asosda qurish demakdir. Ilmiy asosda qurilgan har qanday faoliyat yakuniy natijani ta'minlaydi. Prinsiplar tizimiga yoki alohida prinsipga tayanish, birinchi navbatda, maktab amaliyotini chuqur tahlil qilish, shuningdek, bu prinsipning zarurligini isbotlash asosida amalga oshiriladi.

Didaktika paydo bo'lgandan buyon ta'lim prinsiplarini vujudga keltirish, ularni tahlil qilish, umumlashtirish, yangilash ta'lim nazariyasining asosiy muammosi bo'lib kelmoqda. O'qitish jarayoni qonuniyatlaridan ta'lim prinsiplari, ta'lim prinsiplaridan o'qitish qoidalari kelib chiqadi. Qoida aniq o'quv vaziyatida u yoki bu prinsipni qo'llash metodikasining xususiy holatini ifodalaydi.

Polyak didakshunos olimlaridan B.Novrichinskiy ta'lim prinsipi tushun chasini ikki xil: 1) to'liq bo'lmagan ta'lim nazariyasi ma'nosida; 2) o'qituvchining didaktikaviy ishlari usullarini aniqlovchi «me'yor» ma'nosida qo'llagan.

K. Sosnitskiy (1986) o'qitish prinsipi deganda, o'qituvchining xususiy faoliyatida amal qiladigan umumiy qonuniyatlarni tushunadi. Umumiy qonuniyatlarda o'qituvchining har bir xatti-harakatiga taalluqli va bir vaqtning o'zida o'qituvchi tanlagan didaktik tizimdagi u yoki bu ta'lim turiga ta'sir qiladi. Ayrim muta xassislar ta'kidlashicha, bu obyektiv umumdidaktik qonuniyatlarda emas, balki qabul qilingan ta'lim tizimidan kelib chiqadigan o'qituvchi xulqatvoridagi me'yoriylikdir. Bunday yondashuv

Ch.Kupesevich(1986)ga tegishli bo'lib, uning fikricha, «ta'lim prinsipi o'qituvchini o'quvchilarga dunyo to'g'risidagi bilimlar tizimi asoslarini berishda amal qiladigan xulqatvor me'yorlaridir»^{5 6}. Demak, didaktik xulqatvor me'yorlariga amal qilinganda o'quvchilarning dunyoqarashi rivojlanadi, mustaqil bilim olishlariga imkoniyatlar yaratiladi. Ta'lim prinsipining bunday talqin etilishi ta'limning umumiy maqsadiga erishishga xizmat qiladi va har qanday o'quv predmeti hamda har qanday o'quv muassasasi uchun umumiylik kasb etadi. Agar maqsad va mazmun «nima uchun» va «nimani» o'qitish kerakligini aniqlab bersa, prinsip «qanday amalga oshirish kerak» ligini belgilaydi. Mashg'ulot davomida prinsiplarga amal qilish o'quvchilar qobiliyatining rivojlanishiga, dunyoqarashining shakllanishiga va ularning o'quv materialini mumkin qadar asosli ravishda to'liq o'zlashtirishiga kafolat beradi. Ta'lim prinsiplari o'qituvchining didaktik faoliyatiga oid umumiy yo'nalishini aniqlab beradi. Professor O.Roziqovning(1997) ta'kidlashicha, «Ta'limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, qoidalar ta'lim prinsiplari»¹, deb aytiladi. Ko'p holatlarda mutaxassislar ta'lim prinsiplari xususiyatlarini asosan o'qituvchi faoliyatiga nisbatan izohlashadi. Shuning uchun pedagogika darsliklarida, qo'llanmalarda «ta'lim prinsiplari» atamasi keng ishlatiladi. Ta'lim prinsiplari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga daxldor. Didakshunos olimlar ta'lim prinsipi mohiyatini yoritishda turli nuqtayi nazarlarni asos qilib olishgan. K. Sosnitskiy (1986) tadqiqotlariga ko'ra «ta'lim prinsiplari umumiy qonuniyatlar bo'lib, ular o'quv tarbiya jarayonida qat'iy rioya qilish yo'li bilan amalga oshiriladi». Har bir prinsip ta'lim jarayonining muayyan komponentiga taalluqlidir. Ta'lim prinsiplarini o'quv tarbiya jarayoni komponentlariga bog'lab bayon etish tendensiyasi Yu.K. Babanskiy tadqiqotlarida ham uchraydi.

Ta'limning ilmiyligi, hayot bilan bog'liqligi, tizimliliigi, izchilliligi, tushunarliliigi prinsiplari ma'lumot mazmuniga ko'ra; onglilik va faollik, metod va vositalarni uyg'unlashtirish prinsipi metodlarga ko'ra; bilimlarning puxtaligi prinsipi ta'lim natijalariga ko'ra belgilanadi.

⁵ Онишук В.А. Урок в современной школе М. // Просвещение 198 с.

⁶ Ч.Купесевиц Основы общей дидактики /пер с... М. 1986. 148 с.

Ta'lim prinsiplarining mohiyatini o'quv tarbiya jarayonining qonuniyatlari asosida tushuntirish ham mavjud. Yuqorida ta'kidlanganidek M.A. Sorokin (1975. 87b) ta'limning rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatlarini qonuniyat sifatida belgilaydi va shular asosida ta'lim prinsiplari xususiyatlarini bayon etadi. V.I.Zagvyazinskiy (2002) ta'lim prinsiplari «shunday mexanizmki, uning yordamida o'qitishning mohiyati, mazmuni va tarkibiy qismlarini aks ettiruvchi qonun va qonuniyatlar aniqlashtiriladi»^{7 8}, deb ko'rsatishi bilan o'qitishning barcha unsurlarini aks ettiruvchi qonuniyatlar ta'lim prinsipining mohiyatini tashkil etishini ta'kidlaydi. Prinsiplarni ta'lim jarayoni qonuniyatlaridan kelib chiqib belgilash garchand yangicha yondashuv bo'lsada, u mohiyat jihatidan zaruratni tenglashtirishga olib keladi. Qonuniyatlar kishi ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud, u narsaning o'zida, jarayonning tarkibida amal qiladi. Fanning vazifasi esa qonuniyatlarni izlash, topish, izohlashdan iborat. Boshqa tomondan ta'lim prinsipi amaliyotga daxldor tushunchadir. Ta'lim prinsipi har doim o'qitishni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish mezonlari sifatida mavjud bo'ladi. Prinsip umumdidaktik kategoriya hisoblanib, u ta'limning barcha turlariga, darajalariga, subyektlariga shuningdek, o'quvtarbiya jarayonining ichki komponentlari (maqsad, mazmun, metod, vosita, shakl) ga daxldor umumiy qoidalardir.

B.T.Lexachyovning (2000. 139 b) ta'kidlashicha, «ta'lim prinsiplari pedagogik qonuniyatlar guruhiga taalluqli toifadir. Ular o'quvtarbiya jarayonida paydo bo'ladi va faoliyat ko'rsatadi, shuningdek, o'qituvchining pedagogik mahorati va san'atining dastlabki mavqelarini aniqlaydi»⁹. Didaktik prinsiplarga qat'iy amal qilish ta'limtarbiyadagi qaramaqarshiliklarni bartaraf etishga yordam beradi, o'quvchilarning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishini, har bir o'quvchini kompleks munosabatlar tizimiga kirishini ta'minlaydi. Didaktik prinsipda nazariy umumlashma o'rnatilgan va amaliyotda tekshirilgan ijtimoiy munosabatlar, qonuniy aloqalar aks etadi, unda o'quv tarbiya jarayonini tashkil etishga bog'liq hamda

⁷ Розиков О., Огаев С., Адизов Б. Дидактика Тошкент, Фан 1997. 147 б.

⁸ Беляева А.П. Дидакт. Проф. Под. М.: «ВШ», 1991.

⁹ Б.Т.Лехачёв. Педагогика курс лекции. М.Юрайт.2000.91 с.

o'quvchilarning faoliyatiga pedagogik rahbarlik qonuniyatlari ifodalanadi.

Keyingi vaqtda I.P.Pidkasiskiy (2000)ning ta'lim prinsiplari bo'yicha fikrlari didakshunoslar e'tiborini jalb qilmoqda. Uning fikricha, «ta'lim prinsipi bu didaktik jarayonni tashkil etishda amal qilinadigan yetaklovchi g'oya va me'yoriy talablar yig'indisidir»¹⁰. Hozirgi paytda o'qitish jarayoni tushunchasi o'rniga didaktik jarayon tushunchasi ko'proq qo'llanilmoqda. Buning sababi, o'qitish jarayoni bu o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jarayondir. Didaktik jarayon o'z tuzilishiga ega bo'lib quyidagi bosqichlardan iborat: motivatsion bosqich, o'quv bilish faoliyati va boshqarish. Didaktik jarayon mutaxassis shaxsini shakllantirish jarayoni sifatida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorligi asosida quriladi va amalga oshiriladi. Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, aksariyat hollarda ta'lim prinsipi deganda o'qituvchining pedagogik faoliyatida amal qilinishi lozim bo'lgan talablar va o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatiga ongli va faol munosabatlarini ta'minlaydigan qoidalar yig'indisi tushunilar ekan. Ta'lim prinsiplarini noto'g'ri tushunish yoki bilmaslik ta'lim jarayonini samarasiz, ziddiyatli bo'lishiga olib keladi.

Ta'lim prinsiplariga amal qilish o'qituvchining pedagogik madaniyati ko'rsatkichi va ta'lim jarayonining samaradorligini asosiy sharti hisoblanadi.

U yoki bu prinsipning alohida tomonlarini qo'llanilishi didaktik qoidalarda ochib beriladi. Qoidalar prinsiplardan kelib chiqadi.

Ta'lim qoidasi — ta'lim jarayonidagi pedagogik vaziyatlardagi o'qituvchining aniq ko'rsatmasi xattiharakatlari hisoblanadi.

5.9. Ta'lim jarayonining prinsiplari. Ta'lim prinsiplarining guruhlanishi.

Ta'limda dialektikaning umumiy qonunlari va ta'limning maxsus qonunlari o'z ifodasini topadi..

Dialektikaning umumiy qonunlariga: qaramaqarshiliklar kurashi va birligi qonuni, miqdor o'zgarishini sifat o'zgarishiga o'tishi qonuni, inkorni inkor qonuni.

Bu qonunlar ta'lim jarayonida qanday namoyon bo'ladi ?

¹⁰ Пидк-систкий И.П. negaroruka M.: 2000

Ta'lim jarayonida qarama qarshiliklar kurashi va birligi qonuni amal qiladi. Iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotdagi o'zgarishlar bizning mamlakatimizda ijtimoiy qadriyatlarni va holatlarni o'zgartirishga olib keldi, oldinlari qoralangan shaxsiy sifatlarni shakllantirilishini (tadbirkorlik, ishbilarmonlik, tavakkalchilik) taqozo etdi. Bu birinchi navbatda ta'lim jarayoni, uning mazmunini hamda texnologiyasini o'zgartirishni talab etdi.

Ta'lim jarayonida miqdor ko'payishi sifat o'zgarishiga o'tishi qonuni amal qiladi. Barcha integrativ shaxsiy sifatlar tavsifi (ishonch, motivlar, ehtiyoj, qadriyatlar, faoliyatning individual stili, ko'nikma va malaka) miqdor o'zgarishlarining ko'payishi natijasini ifodalaydi.

Miqdorning sifatga o'tishi inkorni inkor qonuni mexanizmi bo'yicha amalga oshadi.

Ta'limda dialektikaning umumiy qonunlaridan tashqari maxsus pedagogik qonunlar ham amal qiladi.

Ta'lim nazariyasi tarixida ko'plab olimlar pedagogik qonunlarni shakllantirishga urinib ko'rganlar. Masalan, I. G. Pestalotsi ta'limni quyidagi qonunini shakllantirgan: jonsiz mavhum narsadan aniq tasavvurlarga, ulardan aniq tushunchalarga o'tish qonuni.

A.V.Xutorskiy quyidagi qonunlarni tavsiya etadi.

Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl va metodlarini ijtimoiy bog'liqligi qonuni. Ijtimoiy tuzum va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ta'lim jarayonining asosiy komponentlariga: uning maqsadiga, mazmuniga, metodlariga, tashkil etish shakllariga ta'sir qiladi. Masalan, XX asr oxirlaridagi demokratik o'zgarishlar mamlakatda ta'lim tizimida o'zgarishlarni taqozo etdi.

Ta'lim muhiti va o'quvchining ijodiy o'zo'zini namoyon qilishi o'rtasidagi aloqadorlik qonuni. Inson o'zining ma'naviy va tabiiy mohiyatiga ko'ra ijodkor hisoblanadi. O'quvchining ijodiy imkoniyatlarini, potensialini amalga oshirish darajasi ta'lim jarayoni sharoitiga, vosita va texnologiyasiga bog'liq.

Ta'lim, tarbiya va rivojlanishni aloqadorligi qonuni. Ta'limga yo'naltirilgan har qanday faoliyat o'quvchi shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirib, umuminsoniy va axloqiy fazilat hamda sifatlarini shakllantiradi.

Ta'lim natijasini o'quvchilarni ta'limiy faoliyatiga bog'liqligi qonuni. Ta'lim natijasi birinchi navbatda o'quvchining o'zini

faolligiga hamda ta'lim jarayonida qo'llanilgan metod, vosita, shakl va texnologiyalarga bog'liq.

Ta'limiy jarayonni yagonaligi va bir butunligi qonuni. Ushbu qonun ta'lim jarayonining barcha elementlari (maqsad, mazmun, metod, shakl, natija) orasidagi ichki kelishuv zarurligini ifodalaydi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ta'lim qonuniyatlari aniq sharoitlarda takrorlanuvchi, o'zaro aloqador, umumiy, obyektiv aloqadorliklarni ifodalaydi. Nazariyachilar va amaliyotchilar tomonidan ko'p miqdordagi didaktik qonuniyatlar mavjudligi aniqlangan. Masalan, rus didakshunos olimi I. P. Podlasiy fikricha, 70 dan ortiq ta'lim qonuniyatlari mavjud.

Ta'lim qonuniyatlari klassifikatsiyasini ko'rib chiqaylik.

Qonuniyatlar umumiy va xususiy turlarga bo'linadi.

Umumiy qonuniyatlar har qanday ta'limiy jarayonga tegishli bo'lib, ta'lim tizimini butunligicha qamrab oladi. Umumiy qonuniyatlarga quyidagilar kiradi:

- Ta'lim maqsadi qonuniyati.

Ta'lim maqsadi: a) jamiyatni rivojlanish tezligi va darajasiga; b) jamiyat imkoniyatlari va ehtiyojlariga; d) pedagogika fani va amaliyotining imkoniyatlari va rivojlanish darajasiga bog'liq.

- Ta'lim mazmuni qonuniyati.

Ta'lim mazmuni: a) jamiyat ehtiyoji va ta'lim maqsadiga; b) ijtimoiy va ilmiy texnik taraqqiyot tempiga; d) o'quvchilarni yosh imkoniyatlariga e) ta'lim

nazariyasi va amaliyotining rivojlanganlik darajasiga f) o'quv muassasasining moddiy texnik va iqtisodiy imkoniyatlariga bog'liq.

- Ta'lim sifati qonuniyati.

Ta'limning har bir yangi bosqichi samaradorligi: a) oldingi bosqich mahsuldorligi va undagi erishilgan natijalarga; b) o'rganiladigan material xarakteri va hajmiga; d) o'quvchilarga tashkiliy pedagogik ta'sir etishga e) o'quvchilarning o'qiganligiga; f) ta'lim vaqtiga bog'liq.

- Ta'lim metodlari qonuniyatlari.

Didaktik metodlar samaradorligi: a) bilim va malakalarni qo'llash metodlariga; b) ta'lim maqsadiga; d) ta'lim mazmuniga; e) o'quvchilarni yoshiga f) o'quvchilarni o'quv imkoniyatlariga; g) moddiy texnik ta'minotga; h) o'quv jarayonining tashkil etilishiga bog'liq.

- Ta'limni boshqarish qonuniyati.

Ta'lim samaradorligi: a) ta'lim tizimidagi teskari aloqaning intensivligiga; b) tuzatuvchi ta'sirlarning asosliligiga bog'liq.

- Ta'limni stimullashtirish qonuniyati.

Ta'lim samaradorligi: a) ta'limning ichki stimullar va motivlariga; b) tashqi (ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik) stimullarga bog'liq.

Xususiy qonuniyatlar ta'lim tizimining alohida tomonlariga taalluqli. Zamonaviy pedagogika fanida ta'lim jarayonining ko'plab xususiy qonuniyatlari mavjudligi aniqlangan. Ta'limning xususiy qonuniyatlariga quyidagilar kiradi:

- didaktik (ta'lim natijasi o'qituvchining kasb mahoratiga, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodlarga va vositalarga bog'liq);

- gnoseologik (ta'lim natijasi o'quvchilarni bilish faolligiga, malaka hamda o'qish ehtiyojlariga bog'liq);

- psixologik (ta'lim natijasi o'quvchilarni o'quv imkoniyatlariga, fikrlash qobiliyatlariga, diqqatning holatiga va darajasiga bog'liq);

- sotsiologik (individning rivojlanishi boshqa barcha individlarning rivojlanganligiga, muhitning intellektual darajasiga, o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqot holatlariga bog'liq);

- tashkiliy (ta'lim jarayonining samaradorligi o'quvchilarni bilish faolligini stimullashtirilishiga, bilish qiziqishlarini shakllantirayotganligiga, o'qishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirayotgan ta'limni tashkil etilishiga bog'liq).

Yuqoridagi tahlillarga asoslanib, ta'lim jarayonining asosiy qonuniyatlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Ta'limni jamiyat ehtiyojiga bog'liqligi qonuniyati.

2. Ta'lim jarayonida ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi funksiyalarni aloqadorligi qonuniyati.

3. Ta'lim jarayonida o'qitish va o'qish jarayonlarining birligi qonuniyati.

4. Ta'lim jarayonida mazmuni maqsadga bog'liqligi qonuniyati.

5. Ta'lim jarayonida metod va shaklni mazmun bilan aloqadorligi qonuniyati.

Ta'lim samaradorligi o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan metodlarga bog'liqligi qonuniyati.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarni yosh va individual xususiyatlarini inobatga olinishi qonuniyati.

Ta'lim samaradorligini ta'lim sharoitlariga bog'liqligi qonuniyati.

Ta'lim qonuniyatlari aniq prinsiplarda va ulardan kelib chiquvchi ta'lim qoidalarida o'z ifodasini topadi.

Ta'lim prinsiplari va qoidalari

Hozirga qadar ta'lim prinsiplari tizimining ilmiy asoslari mukammal ishlab chiqilmagan. Ta'lim jarayonini rivojlantirish prinsiplari boshqa didaktik kategoriyalar kabi pedagogika fanining zamonaviy taraqqiyot darajasi va yosh avlodni tarbiyalash sifati talablari asosida aniqlashtirilishiga muhtojlikni sezmoqda. Pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim prinsiplari ijtimoiy hayotning o'zgarishi, pedagogika fanining rivojlanishi bilan o'zgarib turadi: yarim didaktik prinsiplar yo'qoladi, o'rniga yangi didaktik prinsiplar kirib keladi. Biroq har bir ta'lim prinsipi u yoki bu didakt olim tomonidan prinsiplar tasnifiga kiritilgan. Masalan, Ya.L.Kashanskiy tomonidan tabiiylilik, moslik, ko'rgazmalilik, ta'limda ketmaktelik, K.V.Yelnitskiy (1894) tomonidan ta'limda onglilik, N. Skvortsova (1916) tomonidan tarbiyada yakka holda ta'lim prinsipi, faollilik, I.A.Lashkareva tomonidan tarbiyada predmetlararo aloqadorlik, S.M.Mixaylov (1950) tomonidan tarbiyada tarixiylik, M.I. Maxmutov (1960) tomonidan tarbiyada muammoli prinsiplar, V. Okon (1985) tomonidan tarbiyada samaradorlik, Yu.K.Babanskiy (1982) tomonidan tarbiyani maqbullashtirish, S.M. Rives (1939) tomonidan faollik, moslik, E.N. Medinskiy (1935) tomonidan tizimlilik, o'qituvchining yetakchilik faoliyati, Z. Mirtursunov (1960) tomonidan ta'lim va tarbiya birligi, I.T. Ogorodnikov (1950) tomonidan ilmiylik, M.A.Danilov (1960) tomonidan g'oyaviylik, tarixiylik, S.M. Mixaylov (1950) tomonidan tarbiyani go'zallashtirish prinsipi didaktikaga olib kiritilgan.

Didaktik prinsiplar mohiyati va uning tasnifi masalasi dastlab klassik didakshunos buyuk chex pedagogi Ya.A. Komenskiy (XVII) tomonidan asoslab berildi. Ya.A.Komenskiyning didaktik ta'limotida didaktik prinsiplar tizimiga quyidagi prinsiplar kiritilgan:

Ta'limda tabiiy moslik prinsipi.

Ta'limda puxta ta'lim prinsipi.

Ta'limda ketmaktelik prinsipi.

O'qitishda ko'rgazmalilik prinsipi.

O'qitishda taqlid qilish prinsipi.

XIX asr oxirlarida, XX asr boshlarida Rossiya olimlaridan K.V.Yelnitskiy ta'lim prinsiplari tizimini quyidagi ko'rinishda ifodalaydi: ta'limda asosiylik prinsipi, o'qitishda ketmaktlik, ko'rsatmalilik, nazariyaning amaliyot bilan birligi, puxta o'zlashtirish, onglilik, mustaqillilik, o'rganilayotgan obyekt bilan aloqasini o'rnatish prinsipi. 1916yilga kelib N. Skvortsova ta'limda ketmaktlik, ko'rsatmalilik, onglilik, tarbiyani yakka holda o'tkazish prinsipini taklif qildi.

XX asrning 20yillarida rus pedagog nazariyotchilari Sh.I. Gonelin, A.P.Pinkevichlar didaktik prinsiplar ahamiyati va ularning turlari, didaktik prinsiplar tizimi borasida o'z fikrlarini bildirganlar. A.P.Pinkevich tomonidan yaratilgan tizimda quyidagi prinsiplar o'rin olgan:

Ta'limning hayot bilan bog'liqligi prinsipi.

O'quv jarayonining ijodiy xarakterda bo'lishi prinsipi.

Tarbiyada mustaqillilik prinsipi.

30yillarda pedagogika fani nazariyasi va amaliyotchilari oldida o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha puxta bilimlar egallashini ta'minlash vazifasi turadi. Bu vazifalarni bajarish maktabdagi ta'lim jarayoniga qo'yilgan talablarga bog'liqligi mutaxassislar diqqat markazida bo'lgan. Mutaxassislar o'quvchilarni puxta fan asoslari bilan qurollantirish zaruratidan kelib chiqqan holda ta'lim prinsiplari tizimini ishlab chiqqan boshladilar. Jumladan, Ye.N. Medinskiy quyidagi ta'lim prinsiplari zarurligini qayd etdi:

Ta'limda tizimlilik prinsipi.

Ta'limda onglilik prinsipi.

Nazariyaning amaliyot bilan bog'liqlik prinsipi.

Ta'limning tarbiyalovchi prinsipi. O'qituvchining yetakchi faoliyati. Ta'limda politexnik prinsip.

V.E. Gmurman o'qitishning asosiy prinsiplari tarkibiga ta'limning tarbiyalovchi prinsipi, ta'limda faollik va onglilik prinsipi, ta'limda ko'rsatmalilik prinsipi, ta'limda asosiylik hamda tizimlilik prinsiplarini kiritadi.

30yillar oxirlarida S.N. Rives tomonidan ta'lim jarayoniga quyidagi asosiy didaktik prinsiplar taklif etilgan tizimlilik, ko'rsatmalilik, moslik, onglilik, faollik, puxtalik.

Yuqoridagi ta'lim prinsiplari tizimi o'quvchilarda fan asoslari to'g'risidagi bilimlar tizimini puxta o'zlashtirishga yo'naltirilgan.

Ma'lumki, ta'lim prinsiplarida ta'lim jarayonining qonuniyatlari ifodalanadi, ya'ni ta'lim jarayoni qonuniyatlaridan ta'lim prinsiplari, ta'lim jarayoni prinsiplaridan ta'lim qoidalari kelib chiqadi. 1940yillar oxiriga kelib ta'lim prinsiplari mohiyati, ularning ahamiyati va prinsiplar tizimi masalalari mutaxassislar diqqate'tiborida bo'ldi. 1950yillarga kelib, «Sho'roskaya pedagogika» (hozirgi Pedagogika) jurnali sahifalarida didaktik prinsiplarga oid maqolalar ko'zga tashlana boshlandi. Munozaralarda didakshunoslardan V.V.Krayevskiy, M.V.Zveryava, I.YA.Lerner, I.G.Kazanskiy, M.N.Skatkin, I.P.Yagodovskiy, M.A.Danilov, Ye.P.Esipov, D.O.Lordkipanidze, L.V.Zankov, Yu.K.Babanskiy, V.V.Pomogayba, S.M.Mixaylov, I.T.Ogorodnikov, T.I.Ilin, N.P.Savin va boshqalar o'z fikrmulohazalari va qarashlari bilan ishtirok etdilar.

Onglilik, ko'rsatmalilik, ketmaktik prinsiplari ahamiyatini yoritib bergan boshqalardan farqli o'laroq S.M.Mixaylov (1950) quyidagi ta'lim prinsiplari tizimini ta'lim jarayonining asosiy didaktik prinsiplari sifati deb ta'kidlagan.

Ta'limda ko'rsatmalilik prinsipi.

Ta'limda tarixiylik prinsipi.

Ta'limda o'rganish prinsipi.

O'rganilayotgan obyektни boshqa obyektlar bilan aloqasini o'rnatish prinsipi. Obyektlar o'rtasidagi aloqalarni aniqlash prinsipi.

Rus didakshunos olimi M.N.Skatkin (1950) fikricha, ta'lim jarayonining asosiy prinsiplarini ta'limning tarbiyalovchi prinsipi, ta'limda ilmiylik prinsipi, ta'limda tizimlilik prinsipi, ko'rsatmalilik prinsipi, nazariyani amaliyot bilan bog'liqligi prinsipi, bilimlarni puxta o'zlashtirish prinsipi, onglilik prinsipi, faollik prinsiplari tashkil qiladi.

I.T.Ogorodnikov (1950), S.N. Rives (1940), I.F.Harlamov.(1985), A.L.Savin (1970), S.P.Baranov (1970), G.I. Shukina (1977), T.A.Ilin (1984), M. A.Sorokinlar (1974) tavsiya etgan ta'lim prinsiplari tizimi deyarli birbiriga o'xshash. Ularning ilmiy ishlarida asosan ta'limda ilmiylik, onglilik, ko'rsatmalilik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, moslik, faollik, tizimlilik prinsiplari asosiy didaktik prinsiplar sifatida qayd etiladi.

Respublikamizning didakshunos olimlari Z.Mirtursunov, A.Munavvarov (1997), I.Tursunov, R.Mavlonova (2000), O.Roziqovlar(1997) tahrirlari ostida chop etilgan darslik va metodik qo'llanmalarda didaktik prinsiplar mohiyati va ularning tuzilishi bayon etilgan. Bu kitoblarda ta'lim jarayonining quyidagi ta'lim prinsiplari qayd etiladi: ta'limda ilmiylik prinsipi, ta'lim va tarbiyaning aloqadorligi prinsipi, ta'limda tizimlilik prinsipi, ko'rsatmalilik, ta'limda moslik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi prinsipi, ta'limda puxtalilik hamda onglilik prinsipi, faollik va ta'limda yakka holda ta'lim prinsiplari.

Polyak olimi V.Okon (1990) quyidagi didaktik prinsiplar tizimini taklif etadi va ular ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashini ta'kidlaydi: ta'limda samaradorlik prinsipi, ta'limda mustaqillik va ta'limda yakka ta'lim prinsipi, nazariya bilan amaliyotning bog'liqligi prinsipi, moslik, ko'rsatmalilik, tizimlilik prinsipi.

Shunday qilib, pedagogika fani bo'yicha mavjud darslik va o'quv qo'llanmalarida asosan, 1012 ta ta'lim prinsiplari ko'rsatiladi. Biroq olib borilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, pedagogikada 40 dan ortiq didaktik prinsiplar mavjud ekan (1 jadval). Albatta, gap didaktik prinsiplarning miqdori oz yoki ko'pligida emas, balki ularning mohiyatini anglab yetish va ulardan o'qitish jarayonida foydalanishning shartsharoitlarini bilish haqida boryapti.

Yangi asrga kelib pedagogika fanida tub burilishlar amalga oshirilmoqda: siyosatdan xolilik, texnologiya ustuvorligi, innovatsion faoliyat, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, yangi avlod darsliklari va boshqalar. I.P.Pidkasiskiy (2002) tahriri ostida chop etilgan «Pedagogika» o'quv qo'llanmasida ta'limning rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi prinsipi, ta'limda insoniylik, fan asoslarini tushunish va ketmaketlikda o'zlashtirish, ta'limda o'quvchilar ongini, ijodiylikni, faolligini, mustaqil faoliyatini rivojlantirish, ko'rgazmalilik, aniqlik va mavhumlik birligi, moslik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi prinsiplari ta'kidlanadi.

Ta'limning ilmiyligi prinsipi o'quv predmetini zamonaviy fan yutug'i zaminida bayon qilishni, o'quvchilarni o'quv faoliyatini tashkil etishda muammoli vaziyatlarni yaratishni, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni turli kuzatishlarini, ilmiy baholarni,

qo‘shimcha ilmiy axborotlarni izlashni, o‘z nuqtayi nazaridan isbot qilishni talab etadi.

Ta'limda ilmiylik prinsipi ta'lim mazmunini dunyo sivilizatsiyasida jamlangan, tajribalarga, zamonaviy fan va texnikani rivojlanish darajasiga mos bo‘lishini ifodalaydi. Ushbu prinsip o‘quvchilarni o‘zlashtirishi uchun fan tomo nidan asoslangan, (obyektiv ilmiy faktlar, konsepsiyalar, nazariyalar, qonunlar, qonuniyatlar, turli sohalardagi yangiliklar) bilimlarni taqdim etishni talab etadi.

Ilmiylik prinsipiga amal qilish qoidalari:

- o‘rganiluvchi fanni matig‘ini va tilini qo‘llash;
- asosiy tushuncha va nazariyalarni bayon etishda maksimal darajada ushbu fan masalalarini zamonaviy tushunchalar bilan yaqinlashtirib bayon qilish;
- fanni aniq metodlarini qo‘llash;
- obyektning rivojlanishda o‘rganish, ijtimoiy va tabiiy hodisalarni dialektikasini ochib berish va dialektik fikrlashni shakllantirish;
- o‘rganilayotgan obyektlarni to‘g‘ri qabul qilinishini ta'minlash va ularni asosiy tomonlarini ajratish;
- ta'limda tabiiy va ijtimoiy hodisalarni bilishning ilmiy metodlarini qo‘llash.

Ta'limda moslik prinsipi

Ta'limda moslik prinsipi o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan o‘quv materialini hajmi va mazmuni hamda metodlari o‘quvchilarni o‘zlashtirish imkoniyatlariga va ularning aqliy, axloqiy, estetik rivojlanganlik darajalariga mos bo‘lishini talab qiladi.

O‘zlashtirilayotgan o‘quv materialini mazmunini o‘ta murakkabligi o‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini pasaytirib, ularda ishchanlikni yo‘qolishiga olib keladi. Bu degani moslik prinsipi ta'lim mazmunini oddiy, elementar bo‘lishi kerak degani emas.

Amaliyot va izlanishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan mazmun oddiy, elementar bo‘lganda ham o‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari pasayib, o‘qishga bo‘lgan qobiliyatlari rivojlanmaydi. Ta'lim jarayonida ta'limni rivojlantiruvchi funksiyasi amalga oshmaydi.

Shulardan kelib chiqib, taniqli rus pedagogi va psixologi L.V.Zankov rivojlantiruvchi ta'limning o'qitishda yuqori darajadagi qiyinchilik darajasi prinsipini asoslab berdi.

Amaliyotda moslik prinsipiga amal qilishning quyidagi qoidalari mavjud:

- ta'limda osondan murakkabga, ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa borish;

- oddiy, tushunarli tilda tushuntirish;

- o'quvchilarni bilish faoliyatini boshqarish;

- o'quvchilarni o'quv materialini qabul qilish tezligi farqlarini, ishlash tempini, qiziqishlarini, hayotiy tajribasini, rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish;

analogiyalashni, qiyoslashni, taqqoslashni, qaramaqarshi qo'yishni qo'llash;

Har bir yangi tushunchani kiritish nafaqat qo'yilgan bilish vazifalari manti g'idan kelib chiqishi, balki ta'limning o'tgan bosqichlaridan tayyorlanishi kerak;

moslik ishchanlik qobiliyati bilan bog'liq, ishga layoqatlilikni rivojlantirib, o'quvchilarni tez va uzoq fikrlash faoliyatiga o'rgatish kerak.

Onglilik va faollik prinsipi

Ta'limda onglilik va faollik prinsipi bilimlarni faol bilish va amaliy faoliyatda ongli o'zlashtirilishini talab etadi. Ta'limdagi onglilik —bu o'quv chilarni ta'limga bo'lgan pozitiv munosabati, o'rganilayotgan muammoni mohiya tini tushunish. O'quvchilar tomonidan bilimlarni ongli o'zlashtirish qator omillarga bog'liq: ta'lim motivlariga, bilish faolligi darajasiga va xarakteriga, o'quv jarayonini tashkil etilishiga, qo'llaniladigan metod va ta'lim vositalariga. O'quv chilar faolligi — bu ularni ta'lim jarayonidagi intensiv aqliy va amaliy faoliyati.

Onglilik bilimlarni ongli o'zlashtirishga yo'naltirilgan prinsipdir. Bilim, malaka, ko'nikmalarni ongli o'zlashtirish quyidagi xususiyatlarga ega: Ta'lim maqsadini anglash, materialni ongli egallash, ularni farqlay bilish, bilimlarni mustahkam lash, takrorlash jarayonini sezish, natijalarni baholay bilish. Faollik bilim, ko'nikma va malakalarni ongli o'zlashtirish sharoit va natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Amaliyotda onglilik va faollik prinsipi qator qoidalarga amal qilishni talab etadi:

- o'quvchilar tomonidan ta'lim maqsadi va vazifalarini aniq tushunib olishga erishish;

- diqqatni tortuvchi faktlarni, ma'lumotlarni, misollarni qo'llash;

- texnik vositalarni va ko'rgazmali qurollarni qo'llash;

- o'quvchilarni nazariy bilimlarni qo'llash bo'yicha amaliy faoliyatga jalb qilish;

- ta'limning faol va intensiv metodlarini qo'llash;

- noaniqni aniq bilan mantiqiy bog'lash;

- o'quvchilarni sabab oqibat aloqalarini topishga o'rgatish;

- o'quvchilarda optimizmni va ishonchni qo'llabquvvatlash.

Ko'rgazmalilik prinsipi

Pedagogika tarixida ko'rgazmalilik prinsipi birinchilardan bo'lib shakllangan. Ta'lim samaradorligi insonni barcha sezgi organlarini jalb etilishiga bog'liqligi ta'kidlangan. O'quv materialni qanchalik turli sezgi organlari orqali ta'sir etsa, materialni mustahkam o'zlashtirilishiga olib keladi. Bu qonuniyat didaktikaning ko'rgazmalilik prinsipida o'z ifodasini topgan.

Ko'rgazmalilik prinsipi o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'rganilayotgan predmetlar va hodisalarni yoki ularning tasvirini jonli idrok etishdan xulosalar sari yoki umumiydan aniq narsa sari borishni talab etadi.

Ta'lim jarayonida bolalarga kuzatish, o'lchash, tajriba o'tkazish imkoniyatini berish lozim. Ko'rgazmalilik prinsipiga ko'ra narsahodisalarni o'rganish, ularni kuzatish, sezishdan boshlanadi.

Kuzatish, sezish ongda faktlarni to'plash, tasavvurlarni shakllantirishga olib keladi.

Ta'lim nazariyasida ko'rgazmalilik keng ma'noda qo'llaniladi. U ko'rish, eshitish, ta'm bilish sezgilarini o'z ichiga oladi.

Ushbu prinsipni asoslashga Ya.A.Komenskiy, I.G.Pestalotsi, K.D.Ushinskiy, L. V. Zankov kabi olimlar munosib hissa qo'shganlar.

Ya.A.Komenskiy «Didaktikaning oltin qoidasida» ko'rgazmalilik prinsipiga amal qilish yo'llarini shakllantirdi.

I.G.Pestalotsi ko'rgazmalilikka amal qilish tushunchalarni fikriy shakllanishi bilan uyg'unlikda bo'lishini ko'rsatib o'tgan. K.D.Ushinskiy ko'rgazmalilikni bolalarni nutqini rivojlanishidagi

ahamiyatini ochib bergan, L.V.Zankov soʻz va koʻrgazmalilik uygʻunligini taʼkidlab oʻtgan. Agar maʼlumotlarni eshitish orqali oʻzlashtirish samaradorligi 15% ni tashkil etsa, koʻrish orqali — 25% ni tashkil etadi. Taʼlim jarayoni samaradorlik darajasi 65% gacha borishi mumkinligini mutaxassislar bashorat qilishgan.

Taʼlimda koʻrgazmalilik prinsipi oʻrganilayotgan obyektlarni namoyish qilish, hodisa va jarayonlarni izohlash, hodisa va jarayonlarni kabinet va laboratoriyalarda, tabiiy sharoitlarda, mehnat va ishlab chiqarish faoliyatida kuzatish yoʻllari orqali amal qilinadi.

Koʻrgazmalilik vositalari:

- natural obyektlar: oʻsimliklar, hayvonlar, tabiiy va ishlab chiqarish obyektlari, odamlarni mehnati va oʻquvchilarni oʻzlari;
- koʻrgazmali qoʻllanmalar: modellar, maketlar, mulyajlar, gerbariylar v.b.; taʼlimning tasviriy vositalari: kartinalar, fotografiyalar, diafilmlar, rasmlar; simvolli koʻrgazmali qoʻllanmalar: kartlar, sxemalar, tablitsalar, chizmalar v.b.;
- audiovizual vositalar: kinofilmlar, magnitofor yozuvlari, televizion koʻrsatuvlar, kompyuter texnikasi;
- mustaqil tayyorlangan «tayanch signallar» konspekt, sxema, chizma, jadval koʻrinishidagi.

Mashgʻulotlarda koʻrgazmali vositalardan foydalanish natijasida oʻquvchilarda oʻqishga qiziqish shakllanadi, kuzatuvchanlik, diqqat, fikrlash rivojlanadi.

Taʼlim amaliyotida koʻrgazmalilik prinsipiga amal qilishning qator qoidalari ishlab chiqilgan:

- koʻrgazmalilik oʻrganilayotgan predmet va hodisalarni mohiyatini ifodalashi, oʻzlashtirilishi lozim boʻlgan mazmuni aniq va ravshan koʻrsatish;
- 100 marta eshitgandan, 1 marta koʻrgan afzal;
- bola koʻrganda fikrlaydi va samarali eslab qoladi;
- koʻrgazmalilikka maqsad sifatida emas, vosita sifatida amal qilish;
- koʻrgazmalilikni meʼyoridan oshirib yubormaslik;
- koʻrgazmalilikka nafaqat oʻrganilayotgan hodisa va jarayonlarni ishonchliligini tasdiqlash uchun, balki bilimlar manbai sifatida qarash;
- bolalar yoshi ulgʻaygan sari predmetli koʻrgazmalilikni simvolli koʻrgazmalik bilan almashtirish;

- ko'rgazmalilikning turli turlaridan foydalanish;
- ko'rgazmalilik estetik tarbiyalashi kerak;
- turli ko'rgazmali vositalardan foydalanishda o'quvchilar yoshini hisobga olish.

Tarixiylik prinsipi

O'qitishda tarixiylik prinsipi o'quv materiallarini bayon qilishda tarixiy materiallardan foydalanish asosida darsni tashkil etishni nazarda tutadi. Ta'lim jarayonida tarixiylik prinsipiga amal qilinsa, o'quv materiali boyitiladi va uni puxta o'zlashtirishga imkon yaratiladi, fandagi ketmaketlikni ifoda etish imkoniyati tug'iladi, natijada bilimlarni yaxlit, bir butunlikda o'zlashtirish ta'minlanadi.

Tarixiylik prinsipi predmet va hodisalarning nafaqat o'tmishi va hozirgi holatini ro'yi rost ifodalab qolmasdan, balki ularning kelajakdagi rivojlanishini ham ko'rsatib beradi.

O'quv materiallarini o'zlashtirishga tarixiy yondashuv tarafdorlari tarixiy materiallarni u yoki bu o'quv kursiga kiritishning maqsadga muvofiqligi va zarurati o'qitishda tarixiylik prinsipi mohiyatini tashkil etishini ta'kidlaydilar. O'quvchilarni fan asoslari tarixi bilan tanishtirish ularning axloqiy jihatdan takomillashuviga, vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishiga turtki beradi.

O'qitish jarayonida tarixiylik prinsipining o'rnini shundaki, u o'quvchilarda fanga qiziqishni rivojlantirishning asosi hisoblanadi. O'quvchilar tomonidan predmetga qiziqish mavjud bo'lganda, shubhasiz, o'quv materiali mazmuni yengil o'zlashtiriladi. Shu boisdan aytish mumkinki, tarixiylik predmet mazmunini bir tomondan boyitsa, boshqa tomondan o'quvchilarda kuchli motiv uyg'otadi.

Ta'lim jarayonida tarixiylik prinsipiga amal qilinishi o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashining shakllanishida, ularda axloqiy sifatlarni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. O'qitishda tarixiylik prinsipini amalga oshirishda tarixiy materiallarni saralash mezonini aniqlash muhimdir. Ular:

- tarixiy material mavzu maqsadiga mos kelishi;
- tarixiy material mavzuni qo'shimcha axborot bilan boyitishi;
- tarixiy material o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi;
- tarixiy material o'qituvchi imkoniyatlariga mos kelishi;
- tarixiy material ilmiy manbalar asosida saralanishi.

Ushbu mezonlarga umumta'lim maktablarida o'zlashtiriladigan tarixiy materiallarni konstruktiv loyihalashda amal qilinishi lozim. Tarixiylik prinsipi zamon va makon kontekstida fanning ta'lim jarayoniga nisbatan zamonaviy talablarini ifodalaydi.

Ta'limning tizimliliği prinsipi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishni ma'lum bir tizimda, tartibda bo'lishini talab etadi. Ta'limning sistemaliligi fan, madaniyat tajribani yutuqlarini o'zlashtirishda o'quvchilarni amaliy ko'nikmala riga, nazariy bilimlariga, o'quv faoliyatiga, tizimli xarakterni ifodalaydi.

Sistemalilik qator belgilarga ega:

Tartibga solinganlik, tashkiliylik, yaxlitlik, rejalilik, davomiylik va bosh qalar.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda bu belgilarga rioya qilish ta'limda sistemalilikni ta'minlaydi. Ta'limda sistemalilik va ketmaketlik prinsipi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishni aniq tartibda, tizimda bo'lishini ifodalaydi. U ta'lim jarayonini mantiqiy qurilishini talab etadi.

Ta'limda tizimlilik va ketmaketlik prinsipi qator didaktik qoidalarga amal qilishni talab etadi:

- bilimlar tizimini o'zaro aloqadorlik asosida shakllanishi;
- o'rganilayotgan materialni mantiqiy aloqador bo'lim va bloklarga ajratish;
- o'quv materialini mantiqiy tasvirlovchi sxema, reja, tablitsa, tayanch konspektlar, modullardan foydalanish;
- predmetlararo aloqadorlikka amal qilish;
- umumlashtiruvchi va sistemali darslarni tashkil etish;
- yagona talab asosida pedagogik jarayon subyektlarini faoliyatini koor dinatsiyalash va ular faoliyatini uzluksizligini ta'minlash.

Izchillik prinsipi

Ta'limda bilimlarni izchil o'zlashtirish prinsipi o'quvchilar xotirasida bilimlarni mustahkamlashni taqozo etadi. Ushbu prinsip asosida fan tomonidan o'rnatilgan qonuniyatli holatlar yotadi:

- o'quv materialini izchil o'zlashtirish obyektiv omillarga (material mazmuniga, uning tuzilishiga) bog'liq.
- o'quvchilar aqliy bilish faolligini namoyon qilishi;
- o'zlashtirilishi lozim bo'lgan o'quv materialini o'quvchilarni har xil individual farqlarini hisobga olgan holda qurish;

- yangi o‘quv materialini oldin o‘zlashtirilgan bilimlar bilan bog‘lanishi (oldin o‘zlashtirilgan bilimlar asosida yangilari yaqqol qabul qilinib, eski bilimlar yangilari hisobiga boyiydi).

Turli xildagi ta'lim metodlari, shakllari, vositalari qo‘llaniladi:

- bir xillik o‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini so‘ndiradi, o‘zlashtirish samaradorligini pasaytiradi;

- qiyoslash, taqqoslash, umumlashtirish, tahlil etish, sabab va oqibatlarini, aloqadorligini o‘rnatish, asosiysini topish bilan bog‘liq savollarni berish orqali o‘quvchilarni fikrlashini faollashtirish;

- o‘zlashtirish jarayoni sifatiga tizimli nazorat qilib borish orqali erishish.

Ta'limni tarbiyalovchilik prinsipi

Ta'limni tarbiyalovchilik prinsipi ta'lim jarayonini obyektiv qonuniyatlarini ifodalaydi. Ta'limtarbiyadan tashqarida bo‘lish mumkin emas. Holbuki o‘qituvchi maxsus tarbiya maqsadini qo‘ymaganda ham o‘quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko‘rsatadi. Ularni o‘quv materialini mazmuni, bilimlarga bo‘lgan o‘zining munosabatlari, o‘quvchilarni bilish faoliyatini tashkil etishda qo‘llagan metodlari, o‘zining shaxsiy sifatleri orqali tarbiyalaydi.

Ta'limda ta'limni tarbiyalovchilik prinsipi qator didaktik qoidalarga amal qilishni talab etadi:

- har qanday o‘quv predmetini o‘rganishda maqsadli, ongli, tizimli tarbiyani olib borish;

- tushuncha, ta'rif, qonun, simvollardan so‘ng o‘quvchilar tabiat hodisalarini va ijtimoiy progres qonunlarni tushunishlarini, shakldan so‘ng mazmuni, hodi sadan so‘ng mohiyatni, tashqi belgilardan keyin ichki xususiyatlarni va qonu niyatlarini tushunishlariga erishish;

- har bir darsni, har bir mavzuni tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish;

- o‘quv jarayonini o‘quvchilarning madaniy xulqatvoriga va o‘zaro munosabatlari ta'sir etadigan qilib tashkil etish;

- o‘quvchilar shaxsini hurmat qilish va bir vaqtni o‘zida talabchanlikda bo‘lish. Hurmatga asoslanmagan talabchanlik jahldorlikni va norozilikni keltirib chiqaradi. Talabchan bo‘lmaslik mehribonlikni, tartibni buzilishiga, tartibsizlikka, o‘quvchilarni quloq solmasligiga olib keladi.

Nazariyani amaliyot bilan bogʻliqligi prinsipi

Ta'limni amaliyot bilan bogʻliqligi prinsipi oʻquvchilarni qiziqtirishni, oʻzlashtirilgan nazariy bilimlarni amaliyotda qoʻllashni, borliqni analiz (tahlil) qilishni, oʻz qarashlarini ishlab chiqishni talab etadi. Buning uchun real hayot vaziyatlari tahlil qilinadi, oʻquvchilar ishlab chiqarish bilan tanishadilar, mashgʻulotlarda koʻplab shaxsiy ma'lumotlardan foydalanadilar. Oʻquvchilar maktabdagi ijtimoiy foydali faoliyatga jalb qilinadi.

Nazariyani amaliyot bilan bogʻliqligi prinsipi ilmiy asoslangan bilimlarni hayotda qoʻllanilishi bilan birgalikda, aloqadorlikda oʻzlashtirilishini taqozo etadi. Shundagina oʻquvchilarda hayotdagi hodisa va jarayonlarga nisbatan ilmiy qarash hamda ilmiy dunyoqarashlari shakllanadi. Amaliyot bu haqiqat mezoni, bilish manbai hisoblanadi. Amaliyotda ta'lim natijasi tekshiriladi, tasdiqlanadi.

ta'limda nazariyani amaliyot bilan bogʻliqligi prinsipi qator didaktik qoidalarga amal qilishni talab etadi:

ta'limda oʻquvchilarni amaliy tajribasiga tayanish;

nazariy bilimlarni qoʻllanish sohasini koʻrsatish:

zamonaviy texnologiyalarni, yangi ishlab chiqarish munosabatlarini, mehnat qilishning qulay metodlarini oʻrganish;

muammoli izlanish va tadqiqotchilik masalalarini qoʻllash;

bilimlarni amaliyotda qoʻllash;

ilgʻor ilmiy gʻoyalarni, konsepsiyalarni, nazariyalarni ahamiyatini koʻrsatish.

Ta'limni oʻquvchilarning individual va yosh xususiyatlariga mosligi prinsipi

Ushbu prinsip ta'lim mazmuni, metodlari va shaklini oʻquvchilarni yosh davrlariga va individual rivojlanishlariga mos boʻlishini ifodalaydi. Shaxsiy rivojlanish va bilish imkoniyatlari darajasi oʻquv faoliyatini tashkillashni aniqlaydi. Ta'lim jarayonida oʻquvchilarni tafakkurini, xotirasini, diqqatini, xarakterini, temperamentini, qiziqishlarini hisobga olish ahamiyatlidir.

Individual xususiyatlarni hisobga olishning ikkita individual va tabaqa lashtirilgan yoʻli mavjud:

XX asrning 90yillarigacha asosan individual yondashuv asosida ishlangan boʻlsa, hozirgi paytda tabaqalashtirilgan ta'limga koʻproq e'tibor qaratilmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, didaktik prinsiplar an'anaviy ta'lim tizimi asosini tashkil etadi. Ayrim mutaxassislar zamonaviy ta'lim rivojlanish tenden siyalariga mos keluvchi didaktik prinsiplarni asoslab bermoqdalar.

A.V.Xutorskiyning ta'kidlashicha, an'anaviy didaktik prinsiplar ta'lim maqsadini aniqlashtirishga yordam berib, o'qituvchiga darsdagi aniq vaziyatlarda rahbarlik qilishi uchun ham xizmat qiladi. Ayni paytda umumqabul qilingan prinsiplar o'quvchilarni ta'lim faoliyatini rivojlanishi dinamikasida butun ta'lim jarayonini reglamentini aniqlay olmaydi. Shuning uchun prinsiplar tizimini asosi qilib o'quvchilarni o'qish faoliyati olingan.

A. V. Xutorskiy ta'lim jarayonini quyidagi prinsiplarini taklif etadi:

O'quvchining shaxsiy maqsadi prinsipi. Har bir o'quvchini o'qitish uning shaxsiy o'quv maqsadlarini hisobga olish va uning asosida amalga oshiriladi. Bu prinsip ta'lim maqsadini o'qituvchi ham o'quvchi ham anglashi kerakligini taqozo etadi.

- Ta'lim proyektoriyasini individual tanlash prinsipi. O'quvchi o'qituvchi bilan birgalikda ta'limning asosiy komponentlari (ta'lim metodi, shakli, maqsadi, mazmuni)ni tanlash huquqiga ega.

- Ta'lim jarayonining metapredmet asosligi prinsipi. Ta'lim jarayoni mazmunini asosini o'quvchilarni shaxsiy bilish imkoniyatlarini ta'minlovchi fundamental metapredmetlar obyektlari tashkil etadi. O'quvchilarni real ta'lim obyektlarini o'zlashtirilishi bir o'quv predmeti doirasidan tashqari o'quv predmetlari doirasidagi fundamental ta'lim obyektlarini kategoriya, tushuncha, simvol, prinsiplar, qonunlar, nazariyalarni o'zlashtirishni ta'minlaydi.

- Ta'limni samaradorligi prinsipi. Ta'limni asosiy yo'nalishi o'quvchini shaxsiy ta'limiy jihatdan o'sishi hisoblanadi. Mahsuldor ta'lim nafaqat ma'lum narsalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan, balki yangi materiallarni o'zlashtirishga yo'naltirilganligi bilan ham xarakterlanadi.

- O'quvchilarni ta'limiy mahsulotining birlamchiligi prinsipi. O'quvchining ta'lim mazmunini individual tarzda yaratishi ta'lim standartlarni va o'rganilayotgan sohadagi umumqabul qilingan yutuqlarni o'zlashtirishida ilgarilab ketishni ta'minlaydi. Bu prinsip o'quvchini tabiat bilan uyg'unligini va shaxsiy yo'nalganligini aniqlashtiradi. O'quvchi o'rganilayotgan masalada o'zini namoyon

qilishi uchun imkoniyat beradi, ijodiy faoliyat texnologiyasini o'zlashtiradi.

- Ta'limning vaziativligi prinsipi. Ta'limiy jarayon o'quvchilar bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlardan tashkil topgan. O'qituvchi ta'limda o'quvchi harakatlarini kuzatib boradi. Ya'ni o'quvchini ijodiy faoliyatini tashkil etadi va ta'limiy vaziyatlarni yaratadi. Uning maqsadi o'quv jarayonida o'quv motivlarini hosil qilish va o'quvchilar faoliyatida ularni faolligini ta'minlash hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida ta'lim prinsiplariga o'zaro aloqadorlikda amal qilinadi. Yagona prinsipga amal qilish orqali ta'lim samaradorligiga erishib bo'lmaydi. Prinsiplar faqat aloqadorlikda, kompleks tarzda ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Faqat kompleks tarzda ta'lim maqsadini aniqlashni, ta'lim mazmunini, metodlarini, vositalarini, shakllarni tanlashni hamda zamonaviy ta'lim muassasalarini vazifalarini samarali hal etishni ta'minlaydi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. "Didaktika" tushunchasining mazmun-mohiyatini tushuntiring.

2. Didaktika pedagogika fanining tarkibiy qismi sifatida nimani o'rgatadi?

3. Yan Amos Kamnskiyning "Buyuk didaktika" asari haqida annotatsiya yozing.

4. Didaktikaning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

5. Didaktikaning asosiy tushunchalarini izohlang.

6. Didaktik nazariyalar va ularning falsafiy asoslari haqida ma'lumot bering.

7. Ta'lim paradigmalari deb nimani tushunasiz?

8. Shaxsga yunaltirilgan ta'lim mazmunini tushuntiring.

9. Ta'limning didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga misol keltiring

10. Ta'lim jarayoni mohiyati haqida ma'lumot bering.

11. Ta'lim jarayonining qonuniyatlari va prinsiplarini asoslang.

6-MAVZU: TA'LIM MAZMUNI

Tayanch soʻzlar: ta'lim mazmuni, bilim, ko'nikma, malaka, ko'p predmetlilik, texnokratik yo'nalishi, insonparvarlashtirish, integratsiya, standartlashtirish, ko'p bosqichlilik, axborotlashtirish, individuallashtirish, ketma-ketlik, davlat ta'lim standartlari, o'quv reja, dastur, darslik.

6.1. Ta'lim mazmuni tushunchasi va mohiyati

Bizga ma'lumki, «mazmun» tushunchasi ma'nosi qadimgi yunon mutafakkirlari Aristotel va Platon tomonidan ochib berilgan. Aristotelning ta'kidlashicha, mazmun - bu butunni hosil qiluvchi qismlar yig'indisidir.

Keyinchalik bu tushuncha Gegel tomonidan to'ldirilgan, uning fikricha «har qanday predmetlar nafaqat moddiy, balki mazmunga ham ega. «Ta'lim mazmuni» tushunchasini pedagogik ma'nosi rus olimi P.F.Kaptev tomonidan bilimlar tizimi sifatida ochib berilgan.

Ta'lim mazmuni deganda ta'lim jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan ilmiy bilimlar tizimini, amaliy ko'nikma va malakalarni hamda dunyoqarash va axloqiy-estetik g'oyalarni tushunamiz - deb ta'kidlaydi I.F.Xarlamov.

V.V. Krayevskiy va I.Ya. Lernerlarning fikricha, ta'lim mazmuni o'zaro bog'langan komponentlarning ijtimoiy tajribasi sifatida ko'rib chiqilgan.

1) tabiat, jamiyat, texnika, inson, faoliyat turlari to'g'risidagi bilimlar;

2) faoliyat turlarini ifodalovchi tajriba;

3) ijodiy faoliyat tajribasi;

4) faoliyatning obyekti va vositasi hisoblanadigan borliqqa nisbatan emot-sional munosabat tajribasi.

Har bir komponentni ko'rib chiqamiz.

Birinchi komponent - bilim, ya'ni insoniyat tomonidan dunyo to'g'risidagi obyektiv ma'lumotlarni to'planishi.

Bilimlarni bir necha turlari mavjud:

1) asosiy tushuncha va atamalar, bularsiz biror bir matnni yoki fikrni tushunib bo'lmaydi;

2) borliqdagi ilmiy tushuncha va faktlar, bularsiz fan qonuniyatlarini tushunish mumkin emas;

3) nazariyalar;

4) faoliyat turlari, bilish metodlari va bilimlarni olish tarixi to'g'risidagi bilimlar;

5) baholovchi bilimlar, hayotdagi turli hodisalarga munosabat me'yorlari.

Ikkinchi komponent - berilgan algoritm asosida mahsuldor darajada faoliyatning aniq turi bo'yicha bajariladigan ko'nikma va malakalar tajribasi.

Navbatdagi komponent - ijodiy faoliyat tajribasi. Ijodiy faoliyat inson faoliyatining mahsuldor darajasida amalga oshiriladi.

Keyingi komponent - borliqqa bo'lgan emotsional munosabat.

Nazariyachilar ta'lim mazmunini darajalari to'g'risidagi g'oyalarni ilgari surmoqdalar:

1 Umumnazariy daraja.

2 O'quv predmeti darajasi.

3 O'quv material darajasi.

Demak, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ta'lim mazmunini shakllan- tirishga ta'sir etuvchi omil sifatida jamiyat ehtiyojini, jamiyatni maktab oldiga qo'yadigan maqsadini, ta'lim jarayonini real imkoniyatlarni o'quvchilarini imko- niyatlarini hamda shaxsni ma'lumotga bo'lgan ehtiyojini ko'rsatishimiz mumkin.

Ta'lim mazmuniga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda ta'lim nazariyasida ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar quyidagicha ifodalanadi.

Ta'lim mazmuni ta'limni barcha bosqichlarida ozod, erkin, mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalash maqsadiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Ta'lim mazmuni ilmiy asosda asoslangan faktlar asosida qurilishi lozim.

Har bir o'quv predmeti bo'yicha ta'lim mazmuni o'sha fanning logikasi va tizimiga mos bo'lishi kerak.

Ta'lim predmetlarida aloqadorlik asosida qurilishi lozim.

Ta'lim mazmunida nazariya bilan amaliyot aloqadorligi aks etishi kerak.

Ta'lim mazmuni o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos bo'lishi lozim.

Shunday qilib ta'lim mazmuni - bu ko'p darajali pedagogik modelning ijtimoiy buyurtmasi, bu didaktikada ta'limni mazmuniy (ichki) tomonini ifodalaydi.

Ma'lumotlar ko'lamining oshishi, fan va texnikaning rivojlanishi bilan «ta'lim mazmuni» tushunchasi mohiyati qayta ko'rib chiqildi. Rus olimi V.S.Lednevning ta'kidlashicha, ta'lim mazmuni - bu faoliyatning biror bir turi bo'yicha bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimidir. Demak, ta'lim mazmuni deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan berilishi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma, makalalar va shaxsda shakllanishi zarur bo'lgan insoniy sifat hamda fazilatlar yig'indisini tushunamiz.

Pedagogikada ta'lim mazmunini shakllantirishning bir necha nazariyalari, paradigmasi va konsepsiyalari mavjud.

Dixotomik yondashuvga asosan «nazariya», «paradigma» va «konsepsiya» tushunchalarini ko'rib chiqamiz. Dixotomiya (yunoncha *dicha* - ikki, *tome* - kesim) ikki qismga ajratishni ifodalaydi.

Dixotomik yondashuv - bu tushunchani ikki qarama-qarshi, bir-birini rad qilmaydigan, ammo teng quvvatga ega qismga ajratish.

Keng ma'noda nazariya - bu biror-bir hodisani ifodalovchi asosiy g'oyalari, prinsiplari, qonuniyatlar, tushuncha va kategoriyalar tizimi hisoblanadi. Demak, nazariya ta'lim mazmunini shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Ya.A.Komenskiyning «Buyuk didaktika» asari nazariyalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida pedagogikada didaktik materializm (ensiklopedizm), didaktik formalizm, didaktik utilitarizm nazariyalari, XIX asrning ikkinchi yarmida - butun didaktik tizim nazariyasi K.D.Ushinskiy tomonidan yaratildi.

Paradigma - bu kasbiy faoliyat amaliyotida qo'llaniladigan ta'limot va aniq ilmiy g'oyalardir. «Paradigma» tushunchasida urg'u aynan «aniqlangan» so'zga, ya'ni ilmiy holatlar va g'oyalari xilmaxilligiga yo'naltiriladi.

Konsepsiya - bu hali qo'llanilmagan, ammo amaliyotda o'zlashtirilishi zarur bo'lgan tushunishning aniq yo'li, asosiy nuqtayi nazar, boshlang'ich g'oya hisoblanadi. «Konsepsiya» tushunchasida asosiy so'z mavjud paradigmani to'ldiruvchi va rivojlantiruvchi tushunishning asosiy yo'liga qaratiladi.

Shunday qilib, ta'limning zamonaviy mazmuni o'quv predmeti sifatida asosiy g'oya va konsepsiyalar asosida shakllanadi. Demak, ta'lim mazmuni o'quv predmeti sifatida - bu yosh avlod uchun amaliy

faoliyatni tashkil etish va o'z o'zini namoyon qilishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini va kompetensiyalarni tushunamiz.

Har qanday o'quv predmeti mazmuni dinamik xarakterga ega. Jamiyat ehtiyoji va zamonaviy fan holatini ifodalab, yangi ma'lumotlar bilan boyitilib, o'zgarib boradi. Masalan, hozirda ta'lim mazmunini demokratizatsiyalashtirish, axborotlashtirish va gumanizatsiyalashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boyitilganligini ko'rishimiz mumkin.

Ta'lim mazmuni quyidagi vazifalarni bajaradi:

- axborot yetkazuvchi, turli fanlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ifodalaydi;
- metodologik, fan metodologiyasi bilan qurollantirish;
- ta'limiy, bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish;
- rivojlantiruvchi, shaxsda jismoniy, ijodiy, hissiy, intellektual sifatlarni shakllantirish;
- tarbiyaviy, munosabatni ifodalovchi sifat va fazilatlarni shakllantirish.

6.2. Ta'lim mazmunini shakllantirishning asosiy nazariyalari

Ta'lim mazmuni tarixiy xarakterga ega. U jamiyatni u yoki bu bosqichida ta'limning maqsadi va vazifalaridan aniqlanadi. Har qanday ijtimoiy tuzumda ta'lim mazmuni bir xil bo'lmaydi. Ta'lim mazmuni hayot talablari, ishlab chiqarish va ilmiy bilimlarning rivojlanish darajasi ta'sirida o'zgaradi.

Ta'lim mazmunini shakllanishini asosiy nazariyalari XVIII asr oxirlari — XIX asr boshlarida paydo bo'lib, ta'lim mazmunini moddiy va formal nazariyasi nomini olgan.

Ta'lim mazmunining moddiy nazariyasi (didaktik materializm yoki ensiklopedizm nazariyasi) tarafdorlarining fikricha, ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarga turli fan sohalari bo'yicha imkoni boricha ko'p miqdorda bilimlar bilan qurollantirish deb hisoblaydilar. Bu fikrni o'z davrida (Ya.A.Komenskiy, G. Spenser v.b.) ham ta'kidlab o'tganlar. Hozirgi paytda ham ushbu qarash tarafdorlari mavjud.

Ta'lim mazmunining formal nazariyasi (didaktik formalizm nazariyasi) tarafdorlari ta'limni o'quvchilar qobiliyatini, bilish qiziqishlarini, diqqatini, xotirasini, tasavvurlarini, fikrlashlarini rivojlantirish vositasi deb qaraydilar. Ular bilimning manbai aql deb

hisoblaydilar. Shuning uchun insonni ongini va qobiliyatlarini rivojlantirish zarur deb ta'kidlaganlar. Bu nazariya o'z davrida Dj.Lokk, I. G. Pestalotsi, I. Gerbartlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan.

Yuqoridagi ta'lim mazmunining moddiy va formal nazariyalari rus pedagogi K. D. Ushinskiy tomonidan tanqid qilingan. Uning fikricha, maktab o'quvchini bilim bilan boyitib, uni qo'llashga o'rgatib, intellektual kuchlarini rivojlantirishi kerak. Ushinskiy zamonaviy pedagoglar tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan didaktik materializm va formalizm g'oyalarini birlashtirish fikrini ilgari surgan.

XIX oxiri XX boshlarida ta'lim mazmunini shakllantirishning didaktik pragmatizm nazariyasi (didaktik utilitarizm) nazariyasi paydo bo'ldi. Ushbu nazariyaning asosi AQSHda Dj.Dyui, Yevropada nemis pedagogi G. Kershenshteyner tomonidan yaratilgan.

Ushbu nazariya tarafdorlarining ta'kidlashicha, ta'lim mazmunining manbai alohida o'quv predmetlari emas, balki o'quvchining ijtimoiy va individual faoliyatidir. Ta'lim mazmuni predmetlararo bilimlar tizimi ko'rinishida bo'lib, o'quvchilardan jamoatchilik hamkorlik asosida o'zlashtirilishi zarur deb hisoblaydilar.

Ta'limning turli o'yin shakllari, amaliy mashg'ulotlar, individual mustaqil ta'lim o'quvchilar faoliyatini va fikrlashini faollashtiradi.

Didaktik pragmatizm nazariyasi amerika maktablaridagi o'quv ishlari mazmuni va metodlarini o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mutaxassislarning fikricha, bu nazariya amerika ta'lim darajasini pasayishiga olib keldi. XX asrning birinchi yarmidayoq tanqidga uchradi.

XX asrning 50-yillariga kelib, buyuk polyak pedagogik V. Okon ta'lim mazmunini funksional materializm nazariyasini yaratdi. Uning fikricha, o'quvchi o'zlashtirgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olishni bilishlari kerak. Ya'ni bilish va faoliyat o'rtasida integral aloqa zarur deb hisoblaydi.

Yuqoridagi nazariyalar tahlilidan shu ma'lumki, ta'lim mazmuni ham yillar o'tishi bilan o'zgarib turishi xarakterlanadi.

Ta'lim mazmuniga obyektiv va subyektiv omillar ta'sir qiladi. Obyektiv omilga jamiyat ehtiyoji, fan-texnika rivojlanishi kiradi.

Subyektiv omilga esa nazariyachilarning metodologik qarashlari hamda jamiyatni boshqayotgan sinflarning siyosati kiradi.

Demak, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ta'lim mazmunini shakllan- tirishga ta'sir etuvchi omil sifatida jamiyat ehtiyojini, jamiyatni maktab oldiga qo'yadigan maqsadini, ta'lim jarayonini real imkoniyatlarni, o'quvchilarini imko- niyatlarini hamda shaxsni ma'lumotga bo'lgan ehtiyojini ko'rsatishimiz mumkin.

Ta'lim mazmuniga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olgan holda ta'lim nazariyasida ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar quyidagicha ifodalanadi.

1. Ta'lim mazmuni ta'limni barcha bosqichlarida ozod, erkin, mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalash maqsadiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

2. Ta'lim mazmuni ilmiy asosda asoslangan faktlar asosida qurilishi lozim.

3. Har bir o'quv predmeti bo'yicha ta'lim mazmuni o'sha fanning logikasi va tizimiga mos bo'lishi kerak.

4. Ta'lim predmetlarida aloqadorlik asosida qurilishi lozim.

5. Ta'lim mazmunida nazariya bilan amaliyot aloqadorligi aks etishi kerak.

6. Ta'lim mazmuni o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos bo'lishi lozim.

6.3. Ta'lim mazmunini tanlash prinsiplari va mezonlari

Ta'lim mazmunini shakllantirish zamonaviy ta'limni asosiy rivojlanish yo'nalishlari bilan bog'liq. Ta'limni rivojlanishining asosiy tendensiyalari mohi- yatini «ta'lim» tushunchasini o'rganish orqali tushunishimiz mumkin. Shuning uchun ushbu tushunchani ko'rib chiqamiz.

Ma'lumki, «ta'lim» pedagogikani asosiy tushunchasi hisoblanadi. Ta'lim - bu ta'lim, tarbiya, rivojlanish jarayonlaridan hosil bo'luvchi, maxsus tashkil etilgan tizim bo'lib, unda shaxsni bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishi hamda ularda dunyoga bo'lgan ijodiy munosabat shakllanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda va dunyoning ko'plab mamlakatlarida natijaga yo'naltirilgan, jamiyatning ijtimoiy-

iqtisodiy rivojlanishining asosi hisoblangan ta'limning yangi modelini qurish davom etmoqda.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning barcha tadbirlari me'yoriy- huquqiy hujjatlarda «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida o'z aksini topgan.

Zamonaviy ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari quyidagilar.

Fundamentalizatsiyalashtirish -bu ta'limni sistemali tarzda fundamental bilimlar va ijodiy tafakkur yo'llari bilan, borliq va hodisalarni bilish prinsiplari, metodologik asoslari, nazariyalari bilan boyitib borish.

Pragmatizatsiyalashtirish - bu fundamentalizatsiyalashtirishning asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Pragmatizatsiyalash -bu ta'limda amaliyotni kuchaytirish. U yosh avlod faoliyat xususiyatlarini yoshlar tomonidan o'zlashtirilishini taqozo etadi.

Metodologizatsiyalashtirish - bu ta'lim mazmunini zamonaviy ilmiy yondashuvlar, tizimli, dinamik, umumlashgan bilimlar tizimi bilan boyitilishi.

Integratsiya zamonaviy ta'limni rivojlanish qonuniyatlari va istiqbollarini tushunish hamda element va komponentlar yig'indisidan hosil bo'lgan butun bir tizimni ifodalaydi.

Standartlashtirish - davlat darajasida qabul qilingan o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talab va me'yorni belgilaydi. Ko'pvariativlik - variativ o'quv predmetlarini o'rganish va barcha o'quvchilarga o'zlarini ta'limiy ehtiyojlarni amalga oshirish uchun sharoit yaratish. Uzluksizlik - fanlarni o'qitish akademik davrlarini ta'lim bosqichlari bo'yicha ta'lim mazmuninig uzluksizligi prinsipi asosida qayta ko'rib chiqish.

Texnologizatsiyalashtirish - ta'lim mazmunini o'rganish qoida va algoritmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Insonparvarlashtirish - yoshlarni imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularni shaxsini individual rivojlanishlari uchun sharoit yaratishni nazarda tutadi.

Axborotlashtirish - bu ta'lim mazmunini zamonaviy axborotlar bilan boyitish.

Markazlashtirish - ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablarni O'zbekiston Respublikasi XT va OO'MTV aniqlaydi.

Internatsionalizatsiya ta'lim mazmunini turli xalq va millatga tegishli umuminsoniy g'oyalar bilan to'ldirishga yo'naltirilishini va ta'limni tashkil etishda xalqaro tajribalarni hisobga olishni taqozo etadi.

Siyosiy mafkura - ta'lim mazmunida demokratik jamiyat va huquqiy davlatning asosiy g'oyalarini ifodalanishi.

Plyuralizatsiya ta'limda turli ilmiy yo'nalishlar hamda maktablarning konsepsiya va paradigmalarni mavjudligini ifodalaydi.

Ta'lim mazmunini shakllanishi nafaqat ta'lim tizimini rivojlanish yo'nalishlariga, balki ta'lim mazmunini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarga ham bog'liq.

- 1) maqsad, jamiyatning ta'lim tizimiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi;
- 2) jamiyat ehtiyoji;
- 3) ta'limga bo'lgan shaxs ehtiyojlari.

Ta'lim mazmunini aniqlovchisi sifatida quyidagi determinantlarni ko'rib chiqamiz: ijtimoiy-iqtisodiy (iqtisodiyot turi, ijtimoiy munosabatlar turi, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanish darajasi); ijtimoiy-madaniy (madaniyat turi, siyosiy tuzum va uning mafkuraviy yo'nalishi, davlatning ta'lim siyosati, pedagogika fanining rivojlanish darajasi, pedagogika fani va pedagogik amaliyot o'rtasidagi aloqadorlik, O'zbekistondagi ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik yo'nalishi); tashkiliy-pedagogik (ta'lim tizimi tuzilishi va uni tashkil etish prinsiplari, pedagogik amaliyotni rivojlanish istiqbollari va holati, ta'lim tizimini boshqarish modeli).

Ta'lim mazmunini tuzilishiga qo'yilgan talablar sifatida:

- tizimlilik - ta'lim mazmuni o'zlashtirish uchun mo'ljallangan borliq to'g'risidagi ma'lumotlar tizimining qismi hisoblanadi;
- butunligicha qabul qilish -idrok qilish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar o'zaro aloqador elementlarni ifodalaydi;
- uzluksizlik - ma'lumotlarni bir butunlikda va tizimlilikini ta'minlovchi ma'lumotlarni ketma-ket bayon qilish;
- o'quv materialini asosiy, tayanch va qo'shimcha ma'lumotlarga ajratib tanlash;
- yangi ma'lumotlarni o'zlashtirilganlari bilan mantiqiy

bog'lanishini ta'minlash;

- mazmunni dolzarbligi - yosh avlodni kelgusi faoliyati uchun o'quv axborotini amaliy ahamiyati;

- mazmunni texnologiyalashtirish -ta'lim mazmunini samarali o'zlashtirish uchun maxsus ishlab chiqilgan jarayon;

Yuqoridagi ta'lim mazmuniga ta'sir etuvchi omillar, determinantlar va talablar asosida ta'lim mazmunini tanlash mezonlariga quyidagilar kiradi:

- ta'lim mazmunida jamiyat ehtiyoji va maqsadini ifodalanishi;

- ta'lim mazmunini ilmiy va amaliy ahamiyati;

- ta'lim mazmunini kasbiy talablarga mosligi;

- uzluksiz ta'limda maqsadni yaratish;

- ta'lim mazmunini ishlab chiqishda xalqaro tajribalarni hisobga olish;

- ta'lim mazmunini ta'lim muassasasini uslubiy, moddiy-texnik imko- niyatlariga mosligi.

Shunday qilib, ta'lim mazmunini shakllantirishning yo'nalishlarini, unga ta'sir etuvchi omillarni, ta'lim mazmunini shakllantirish mezonlari ko'rib chiqildi.

Ma'lumki, har qanday o'quv fanining mazmuni, uni o'qitishning maqsadi bilan belgilanadi. Jamiyat o'zining rivojlanishi ehtiyojlaridan kelib chiqib, ta'lim mazmuniga va har bir o'quv fani oldiga o'ziga xos, yangicha vazifalar qo'yadi. Har bir o'quv fani bu vazifalarni o'zida turlicha yo'nalishda aks ettiradi.

Ta'lim mazmunini konstruksiyalash - bu o'quv predmeti mazmunini loyihalash, ya'ni me'yoriy hujjatlar tavsiyasiga ko'ra maqsadni shakllantirish, tuzilishni aniqlash, o'quvchilar faoliyatini rejalashtirish.

Pedagogik amaliyotda ta'lim mazmunini loyihalashtirishda bilimga yo'naltirilgan (an'anaviy) va fazilatga yo'naltirilgan (innovatsion) yondashuvlari mavjud.

Ta'lim mazmunini darajali konstruksiyalash rus didakshunoslari V.V.Krayevskiy va I. Ya. Lernerlar tomonidan ilgari surilgan. Oliy ta'limda o'quv predmeti mazmunini qurishda darajali va kompetentli yondashuvlar mavjud.

Birinchi darajali konstruksiyalashda bilimlar to'g'risidagi nazariy tasavvurlar me'yoriy xarakter asosida quriladi. Uning asosida

ta'lim mazmunining nazariy konsepsiyalari ishlab chiqiladi, uning tarkibi, funksiyalari, tuzilishi aniqlanadi, fanlarni rivojlanish mantig'i va zamonaviy holati ifodalanadi, o'quv predmeti sifatida uning mantig'i aniqlashtiriladi.

Ikkinchi darajali konstruksiyalashtirishda o'quv predmetining har bir o'quv modullari tuzilishi va funksiyalari modellashtiriladi, o'quv dasturlari, fanlarni o'qitishning ilmiy asoslangan texnologiyalari ishlab chiqiladi.

Uchinchi darajali konstruksiyalashtirishda o'quv predmeti fundamental bilimlarni, tayanch va maxsus kompetensiyalarni, bilish faoliyati yo'llarini, umumiy ko'nikma va kompetensiyalarni ifodalaydi. Ushbu darajada ta'lim mazmuni o'quv dasturi, o'quv qo'llanma, talabalar va o'qituvchilar uchun o'quv- uslubiy materiallar ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

To'rtinchi darajali konstruksiyalashtirishda ta'lim mazmuni ta'lim jarayonini modellashtirish bilan aloqadorlikda yaratiladi. Kompetentli yondashuv ta'lim amaliyotida loyihali, o'yin, dialog, o'qitishda kompyuter texnologiyalarni qo'llanishini ifodalaydi.

Beshinchi darajali konstruksiyalashtirishda ta'lim mazmuni ta'limni uzluksizligi prinsipiga amal qilinishiga yo'naltiriladi. Shunday qilib darajali va kompetensiyali yondashuv asosida o'quv predmeti mazmunini loyihalashtirishda fanni rivojlanish darajasini, yoshlarni bo'lg'usi kasbiy faoliyati xarakterini, ta'lim masalalarining nazariy darajasini inobatga olinishini taqozo etadi.

Ta'lim mazmunini loyihalashtirishda quyidagi prinsiplarga asoslaniladi:

- maqsadga yo'naltirilganlik, ta'lim mazmunini yosh avlodni kasbiy tayyorgarligi va vazifasiga bog'liqligi;
- ilmiylik, ta'lim mazmunini zamonaviy fan yutuqlariga mosligi;
- fundamentallilik, ta'lim mazmunida fanni metodologik holatlarini kiritilishi;
- birbutunlilik, o'rganilayotgan predmetni nazariy va amaliy tomonlarini birligiga amal qilish;
- integratsiya (o'zaro aloqadorlilik), hodisa va jarayonlarni birbutunligini ta'minlovchi predmetlararo va predmet ichidagi aloqadorlikni o'rnatish;
- modullilik, ta'lim mazmunini modullar ko'rinishida

tasvirlash;

- faoliyatlilik, kasbiy normalar o'zlashtiriladigan faoliyat fragmentlarini modellashtirish;

- individuallashtirish, bilim, ko'nikma va malakalar tizimini o'zlash- tirilishini mazmun va metodini o'quvchilar tayyorgarlik darajasiga bog'liqligini ta'minlash;

- me'yoriylilik, ta'lim mazmunini davr talablariga mosligi.

Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda quyidagi talablar tizimiga asoslanilmoqda.

- pedagog - bu sifatlari faoliyat obyekti sifatlarga mos keluvchi shaxs;

- pedagog uning faoliyat obyekti - ta'lim-tarbiya masalalari hal qilinadigan, o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligini ifodalovchi butun pedagogik jarayon ekanligini bilishi kerak.

- Butun pedagogik jarayon vazifalari faoliyat subyektlarining hamkorligi va o'zaro ta'sirida samarali bo'lishi mumkin.

- Pedagog hamisha faoliyatga tayyorgarlikni, ya'ni pedagogik bilim va malakalarni o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

6.4.Davlat ta'lim standarti

Ta'limni standartlashtirish zaruriyati ta'lim sohasini ijtimoiy hodisa sifatida o'zgarishiga olib keldi. O'zbekistonni demokratiyaga, bozor munosabatlariga, shaxs ozodligi va huquqlariga e'tibori o'sishi ta'lim sohasidagi davlat siyosatini o'zgarishiga olib keladi. Endi ta'lim sohasi davlat manfaatlariga emas, balki shaxsni ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Bu o'z navbatida ta'limni tashkil etishda o'zgarishlarga olib keldi. O'quv muassasalari ta'lim shakli, metod va mazmuni sohasida mustaqillikka erishildi.

«Standart» tushunchasi inglizcha standart so'zidan olingan bo'lib, «me'yor, namuna, o'lchov» ma'nolarini anglatadi.

Ta'lim standarti — bu bitiruvchini umumiy ta'lim tayyorgarligiga qo'yilgan majburiy talablar darajasidir.

Ta'lim standarti bir tomondan davlatni fuqaro oldidagi, ikkinchi tomondan fuqaroni ta'lim sohasidagi davlat oldidagi majburiyatini ifodalaydi.

Demak, DTS to'g'risidagi Nizomda ko'rsatilganidek, DTS kadrlar tay- yorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga nisbatan qo'yiladigan

talablarni; ta'lim oluv- chilar tayyorgarligini zarur va yetarlicha darajasini hamda ta'lim muassasalarini bitiruvchilarga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarini; o'quv yuklamasining zarur hajmini; ta'lim sifatini baholash tartibini va mexanizmini belgilaydi.

Davlat ta'lim standarti - bu me'yoriy hujjat bo'lib, bakalavrning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilgan majburiy talab darajasini aniqlaydi. Pedagogik ta'limni standartlashtirish bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilgan talablar bilan bog'liq bo'lib, «me'yor», «namuna» sifatida ishtirok etadi.

Davlat ta'lim standartlari joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- ta'limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta'minlash;

- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollardan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

- ta'limning demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta'lim oluvchilarning huquqiy-iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek, ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;

- sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

- kadrlar tayyorlash sifatini va ta'lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;

- ta'lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta'minlash, ta'limning barcha turlari va bosqichlarida o'quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;

- mehnat va ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash.

Davlat ta'lim standartlarining vazifalari:

- ta'lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo'yiladigan maqbul talablarni belgilash;

- ta'limga va uning pirovard natijalariga, ta'lim oluvchilarning bilimi va kasb-kor malakasi darajasini vaqt-vaqti bilan baholash

tartibi va tartibotiga, shuningdek, ta'lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo'yladigan tegishli talablarni belgilovchi me'yoriy bazani yaratish;

- xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

- ta'limning barcha turlari mazmunini, ta'lim va tarbiyani kelishish va ularning o'zaro bog'liqligini uzluksiz ta'lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta'minlash;

- o'quv tarbiya va ta'lim jarayoniga, uzluksiz ta'lim tizimining pedagogik texnologiyalariga va axborot bilan ta'minlanishiga, ta'lim darajasini nazorat qilishga, ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me'yorlar va talablarni belgilash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning xolis tizimini, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilishni joriy etish;

- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

milliy standartlar talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Umumiy o'rta ta'limning maqsad va vazifalari.

Davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash hamda shaxsning ta'lim olish huquqini ro'yobga chiqarish umumiy o'rta ta'limning maqsadi hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim bilimlar zarur hajmiga asos soladi, o'quvchilarda tashkilotchilik qobiliyatlari va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki kasb yo'nalishini va ta'limning keyingi bosqichini tanlashga ko'maklashadi.

Umumiy o'rta ta'limning vazifalari:

- o'quvchilar tomonidan muntazam bilimlar olinishini ta'minlash, ularda bilim olish ehtiyojini rivojlantirish, bazaviy o'quv, ilmiy va umummadaniy bilimlarni shakllantirish;

- o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini, ijodiy mustaqil fikrlashni, kasb tanlashga va atrof-olamga ongli munosabatni hosil qilish;

- milliy hamda umumbashariy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida o'quvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni

tarbiyalash, o‘z vataniga va xalqiga sodiq fuqaroni shakllantirish;

- ta'limning uzluksizligini va izchilligini, maktab o‘quv dasturlarining akademik litseylar va kasb-hunar kollejaridagi o‘quv dasturlari bilan uzviy o‘zaro bog‘lanishini ta'minlash.

Umumiy o‘rta ta'lim muntazam bilimlar olinishini, keng dunyoqarash hamda ijodiy mustaqil fikrlash shakllantirilishini, o‘quvchi shaxsi qaror topishini, uning qiziqishlari va ijtimoiy o‘zini-o‘zi aniqlab olish qobiliyatlari rivojlan- tirilishini ta'minlaydi.

6.5. O‘quv reja, o‘quv dastur va darsliklar tavsifi.

Ta'lim mazmuni – belgilangan maqsadga muvofiq yo‘nalish va hajmiga ega bo‘ladi. U tegishli me‘yoriy hujjatlar: davlat ta'lim standartlari, o‘quv reja, dasturlar shaklida rasmiylashtirib, o‘rnatilgan tartibda tasdiqlanadi¹¹.

Umumiy o‘rta ta'limning davlat ta'lim standartining maqsadi — umumiy o‘rta ta'lim tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilmfan va zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, ma‘naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Umumiy o‘rta ta'limning davlat ta'lim standartining vazifalari quyidagilardan iborat:

umumiy o‘rta ta'lim mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma‘naviy qadriyatlar asosida o‘quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

o‘quvtarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o‘rta ta'lim muassasalarining o‘quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash;

ta'lim va uning pirovard natijalari, o‘quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini,

¹¹ Ж.Хасанбоев, Х.Тўракулов, М.Хайдаров, О.Хасанбоева, Н.Усманов. Педагогика фанидан изоҳли луғат. Т.: “Фан ва технология”, 2009, 464-бет

shuningdek ta'limtarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;

davlat ta'lim standartlari talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi:

o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;

davlat ta'lim standartining ta'lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;

umumiy o'rta ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi;

o'quvchilarda fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun tayanch va fanlarga oid umumiy kompetentsiyalarni rivojlantirishning ta'minlanganligi;

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi;

umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi;

umumiy o'rta ta'limning malaka talablari;

baholash tizimi.

Umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan o'quv fanlari nomi, o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

Tayanch o'quv reja umumiy o'rta ta'lim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

Tayanch o'quv reja umumta'lim fanlari bo'yicha belgilangan ta'lim mazmunini o'quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o'quv

soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi.

Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiytexnika bazasi yetarli bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarining ruxsati bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik kengashlariga dars jadvalini tuzishda tayanch o'quv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagan holda, ma'lum bir fanlarni chuqurlashtirib o'qitish maqsadida 15%gacha o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.

Umumiy o'rta ta'limning o'quv dasturi tayanch o'quv rejaga muvofiq o'quv fanlarining sinflar va mavzular bo'yicha hajmi, mazmuni, o'rganish ketmaketligi va shakllantiriladigan kompetentsiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi.

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Umumiy o'rta ta'limning malaka talablari umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o'quv yuklamalari hajmiga hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan talablardan iborat bo'lib, u quyidagilardan tashkil topadi:

bilim — o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

ko'nikma — o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish;

malaka — o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

kompetentsiya — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Baholash tizimi — davlat ta'lim standarti bo'yicha umumiy o'rta ta'limning malaka talablarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi darajasini hamda umumiy o'rta ta'lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

Davlat ta'lim standartini joriy etish, shu jumladan umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim mazmuni va sifatiga qo'yiladigan minimal talablarni, umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini tasdiqlash pedagogik tajribasini

ishlari muvaffaqiyatli yakunlanib, ularga ekspert baho berilgach amalga oshiriladi.

Umumiy oʻrta taʼlim sifatini nazorat qilishning turlari quyidagilardan iborat:

ichki nazorat — Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartib asosida umumiy oʻrta taʼlim muassasasining monitoring guruhi tomonidan amalga oshiriladi;

tashqi nazorat — taʼlim sohasidagi vakolatli davlat organlari, hududiy xalq taʼlimi boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi;

davlatjamoatchilik nazorati — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hududiy xalq taʼlimi boshqaruvi organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi;

milliy va xalqaro darajada baholash — Hukumatning tegishli qarori hamda xalqaro shartnomalar asosida xalq taʼlimi boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasida taʼlimning uzluksizligi, uzviyligi, oʻquvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetentsiyalar shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetentsiya — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda oʻzaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetentsiyasi — mediamanbalardan zarur maʼlumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini taʼminlashni, media madaniyatga ega boʻlish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Oʻzini oʻzi rivojlantirish kompetentsiyasi — doimiy ravishda oʻzoʻzini jismoniy, maʼnaviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil oʻqiboʻrganish, kognitivlik koʻnikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, oʻz xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish koʻnikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetentsiyasi — jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o‘zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetentsiya — vatanga sadoqatli, insonlarga mehroqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e‘tiqodli bo‘lish, badiiy va san’at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetentsiyasi — aniq hisobkitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o‘qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shartsharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetentsiyalar umumta’lim fanlari orqali o‘quvchilarda shakllantiriladi.

Shuningdek, har bir umumta’lim fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda fanga oid umumiy kompetentsiyalar ham shakllantiriladi.

Darslik — davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogikpsixologik, estetik va gigienik talablarga javob beradigan, o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan, o‘quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma’lumotlardan tashqari amaliytajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o‘quv nashri.

Mashq daftari — darslikning tarkibiy qismi hisoblanadigan, davlat ta’lim standartlariga muvofiq o‘quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash hamda o‘quv fanining mavzulariga mos ravishda ishlab chiqilgan, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan (krossvordlar, boshqotirmalar,

mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar va hokazo) topshiriqlardan iborat bo'lgan didaktik vosita.

O'qituvchi uchun metodik qo'llanma — darslikdagi har bir mavzuni samarali o'qitish metodikasi, qo'shimcha sinov topshiriqlari va o'qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishiga oid boshqa metodik ko'rsatmalar berilgan, har bir darsning maqsadi, darsda foydalaniladigan vositalar va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida metodik ko'rsatmalar aniq bayon qilingan kitob shaklidagi o'quv nashri.

Darsliklarning multimediali ilovalari — axborotkommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'quv faniga oid materiallarni davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga mos ravishda yoritilgan, o'quv fanini samarali o'zlashtirishga, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashuvchi hamda video, ovoz, animatsiya, jadval, matn va lug'atlarni o'z ichiga olgan, bilimlarni nazoratdan o'tkazish va mustahkamlashga yo'naltirilgan, o'quv fanining asosiy mazmunini boyitadigan qo'shimcha materialga ega bo'lgan yoki shu kabi manbalarga murojaatlarni o'z ichiga olgan interaktiv elektron axborot ta'lim resursi.

O'quvmetodik majmualar davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va dasturlariga muvofiq, didaktik, metodik, pedagogikpsixologik, estetik va gigienik talablar asosida ishlab chiqilgan darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma va darslikning multimediali ilovalarini o'z ichiga oladi.

Pedagogika fanlari o'qituvchisining o'quv meyoriy hujjatlariga davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, ishchi o'quv reja, fanning o'quv dasturi, fanning ishchi o'quv dasturi, o'qituvchining fanga doir taqvimiy mavzuiy rejasi, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi, darslik, o'quv uslubiy majmua kabilar kiradi.

Malaka talablari — *uzluksiz ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar.*

O'quv rejasi — oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat hisoblanadi.

O‘quv fani dasturi — ta’lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o‘zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko‘rsatilgan normativ hujjatdir.

Fan dasturining asosiy maqsadi – davlat ta’lim standartlari va malaka talablarida bakalavr va magistrning bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yilgan talablarga muvofiq o‘quv rejaga kiritilgan muayyan fan tomonidan mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislarni sifatli tayyorlash uchun shakllantirilishi zarur bo‘lgan kompetensiyalar, bilim, ko‘nikma va malakalar majmuini belgilash, fan mazmuni va tarkibiy kismlarini tartibga solish.

Fan dasturining asosiy vazifalari:

– fanga oid o‘quv materiallar mazmuni va tuzilmasini maqbul holatga keltirish va optimallashtirish, mashg‘ulotlar mavzularining mantiqiy ketmaketligini hamda boshqa fanlar bilan mazmuniy mantiqiy bog‘liqligini ta’minlash;

– uzluksiz ta’lim tizimining ta’lim turlari o‘rtasidagi uzviylik va uzluksizligini, shuningdek, fanning mazmun va mavzulari boshqa ta’lim turlaridagi hamda turdosh yo‘nalishlardagi fanlarning mazmun va mavzulari bilan takrorlanmasligini ta’minlash;

– fanga oid jahondagi ilmfan, texnika, texnologiyalarning so‘nggi yutuqlarini, ilg‘or horijiy tajribalarni keng yoritish va ularni hisobga olgan holda fan mavzularini shakllantirish;

– ta’lim shakli va o‘quv fanga ajratilgan vaqtga muvofiq o‘quv materiallarni mavzular va mashg‘ulotlar turlari bo‘yicha taqsimlash;

– fanni o‘zlashtirish, talabalarda fanga oid kompetensiyalarni, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun zarur o‘quv uslubiy shartlar, o‘quv adabiyotlar va didaktik materiallarni belgilash;

– baholash vositalari yordamida talabalar bilimini nazorat qilish shakllarini belgilash.

Fan dasturi uning asosiy maqsadi va vazifalariga to‘liq amal qilingan holda ishlab chiqilishi talab etiladi.

Fan dasturlarining mazmuni va tarkibi. Fan dasturi ta’lim jarayonining muhim me‘yoriy uslubiy xujjati bo‘lib, unda o‘quv materiallar ma’ruza, seminar, kollokvium, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari, o‘quv va ishlab chiqarish amaliyotlari shaklida mantiqiy ketmaketliklikda joriy etilishi, fanni o‘qitishda zarur hollarda kurs loyihasi, kurs ishi, mustaqil ish, chizmahisob, ijodiy, laboratoriya

va boshqa ishlar ularga ajratilgan vaqt me'yorlariga mosligini ta'minlagan holda qo'llanilishi ko'zda tutiladi.

Fan dasturi quyidagi **tarkibiy qismlardan** iboratdir:

– fan dasturining titul varag'i va uning sirt tarafidagi ma'lumotlar;

– o'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'lim dasturidagi o'rni;

– o'quv fanining maqsadi va vazifasi;

– asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari);

– amaliyot, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar;

– mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar;

– o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari;

– asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari.

Darslik – DTS, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy mafkura g'oyalari singidirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o'zlashtirishga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

Darslikni bu pedagogik tizimning axborotli modeli deb atash mumkin. Bunga sabab har bir o'qituvchi darslikda ta'lim oluvchilar bajarilishi kerak bo'lgan o'quv jarayonining ma'lum bosqichlari ko'rsatilgan bo'lib, ta'lim oluvchilar uchun mavzularni o'qib, undagi topshiriqlarni ma'lum harakatlar ko'rinishida bajarishadi: tekshiradi, echadi, javob beradi va h.k. Bu harakatlar darslik matnlarida ochiq yoki yashirin shaklda berilishi mumkin.

Demak, darslik bu – muayyan o'quv predmeti mazmunini o'quv dasturida ko'satilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilingan kitob bo'lib, uning **xarakterli xususiyati** darslik mazmunining o'quv dasturi mazmuniga mos kelishidir.

Darslikdagi material bo'limlar bo'yicha taqsimlanadi. Har bir mavzu, muayyan bob, uning tarkibida bo'lgan bandlar asosida ochib beriladi.

Darslikning kirish qismida fanning jamiyat va tabiatdagi o'rni, roli va metodologik asosi, maqsadi, vazifalari va echimini kutayotgan muammolari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi, bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatidagi ahamiyati haqidagi ma'lumotlar,

fanga tegishgi soha yoki ishlab chiqarishning zamonaviy taraqqiyoti hamda talabaning fan bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yoritilishi talab qilinadi. Kirish tushunarli va qisqa bayon etilishi lozim.

Darslikning asosiy matni – bu ta'lim oluvchi tomonidan o'rganilishi va o'zlashtirishi majburiy bo'lgan o'quv axborotining asosiy manbai vazifasini bajaradi. Matnning mohiyatini asosiy tushunchalar, qonunlar, qoidalar, nazariyalar, mezonlar, tamoyillar va faoliyat usullari haqidagi bilimlar tashkil etadi.

Darslikdagi qo'shimcha materiallar. Bu matnlar – asosiy matnda bayon qilingan holatlarni mustahkamlab va chuqurlashtirishga, kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'quv materialini o'z ichiga oladi. Qo'shimcha matnlarga belgilashlar, hujjatlar (xrestomatik) materiallar, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar, xulosalar, tavsiyalar, ma'lumotlar kiradi. Qo'shimcha matnlar o'quv materialini o'zlashtirishga yordam berish bilan birga ijodkorlikka undovchi va tarbiyaviy funksiyalarni bajarishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Darslikning tushuntirish matni – o'quv materialini tushunishga va chuqurroq o'zlashtirishga mo'ljallangan xususiy yozma tuzilma. Bu matnlar ta'lim oluvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega. Tushuntiruvchi matnlarga izohlar, ilovalar, tayanch iboralar, tushuntirishlar, lug'atlar, ramzlar va ko'rsatkichlar kiradi. Bu matnlar tushunarli, qisqa va ma'lum tushunchani aniq shakllantiradigan bo'lishi kerak.¹²

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

- 1. Ta'lim mazmuniga ta'rif bering.*
- 2. Ta'lim mazmunini aniqlovchi asosiy omillar qaysilar?*
- 3. Hozirgi sharoitda ta'lim mazmuni yetakchi g'oyalarni tahlil qiling.*
- 4. Ta'limning yagona mazmunli va protsessual tomoni tamoyili haqida ma'lumot bering.*
- 5. Ta'lim mazmunining yaxlit tuzilishi tamoyilini ta'riflang.*

¹² Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х.А., Алқаров И., Усмонов Н.Ў., Исъянов Р.Г., Юзликаев Ф. Педагогика назарияси (Дидактика): Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2011. 105-бет.

6. *Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyiliga ta'rif bering.*
7. *Ta'lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyilini izohlang.*
8. *Ta'limning mazmuni muntazamligi tamoyili nima?*
9. *Ta'lim mazmunining o'quvchilar yoshlari imkoniyatlariga mosligi tamoyili haqida ma'lumot bering.*
10. *O'quv dastur va darsliklar tavsiflang.*

7-MAVZU: TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI

***Tayanch tushunchalar:** metod, ta'lim metodlari, ta'lim metodlari klassifikatsiyasi, ta'lim vositalari, ta'lim metodlari va vositalarini tanlash.*

7.1. Metod tushunchasi va mohiyati.

Metod (yunoncha «metohodos» - yo'l) maqsadga eltuvchi yo'lni ifodalaydi.

Ta'lim metodi -ta'lim jarayonida shaxsni ta'limi, tarbiyasi, rivojlanishi vazifalarini hal qilishga yo'naltirilgan, o'zaro aloqador faoliyat yo'lidir, deb ta'rif beradi V. A. Slastyonin.

R.G. Lembergning fikricha, ta'lim metodlari faoliyat singari ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, pedagogik jarayonda subyekt-subyekt munosabatlarini o'rnatadi.

M. M. Pistrakning ta'kidlashicha, «Ta'lim metodi—bu o'qituvchi qo'lidagi qurol, bu o'qituvchi harakati yo'lidir».

P. N. Shimbirevaning yozishicha, «ta'lim metodi —bu yo'l, u yordamida o'qituvchi o'quvchilarni bilim o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi».

M. N. Skatkinning ta'kidlashicha, «ta'lim metodi bu—o'quvchini bilimni o'zlashtirishga yetaklovchi yo'lidir».

I. Ya. Lerner «ta'lim metodi—bu o'quvchilarni o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish yo'li»dir deb ta'kidlaydi.

Yu.K.Babanskiy «ta'lim metodi» — bu ta'lim, tarbiya, rivojlanish vazifalarini hal etish bo'yicha o'qituvchi va o'quvchining aloqador faoliyati yilidir» deb ta'kidlaydi.

Ta'lim metodi —bu o'qituvchining o'quvchilarni o'quv materialini o'zlashtirishga, turli didaktik vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan, o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish yo'lidir deb ta'kidlaydi I. F. Harlamov.

G.M.Kodjaspirovaning ta'kidlashicha, «ta'lim metodi — ta'lim mazmunini o'zlashtirilishini, o'quvchilarni aqliy qobiliyatlarni rivojlanishini ta'minlovchi, o'qituvchi va o'quvchining ketma-ket, o'zaro aloqador harakatlari tizimidir.

Ta'lim metodini uch xil belgi xarakterlaydi. U ta'lim maqsadini, o'zlashtirish yo'llarini, ta'lim subyektlarini o'zaro bog'liqlik harakatlarini aniqlaydi.

Ta'lim metodi—bu ta'lim vazifasini hal qilishga yo'naltirilgan, o'qituvchi va o'quvchini birgalikdagi faoliyatidir.

Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim metodlarining yagona ta'rifi yo'q. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan o'zaro hamkorlikdagi faoliyat usullarining tartibga solinishidir.

Umuman, ta'lim metodlarining majmuyi — atrofdagi voqelikni bilishning yo'li, deya xulosa chiqarish mumkin. O'quvchilar aqliy kamol topishining xarakterini belgilaydigan yo'l bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, shaxs- ning xususiyatlarini shakllantiradi. O'qitishning maqsadi insoniyatning tajribasini o'zlashtirishning o'zidir. Ta'lim nazariyasi o'qitish metodlarini insoniyat tajribasidan oladi va ularni o'quv mashg'ulotlariga moslashtiradi. Shuning uchun o'qitish metodlari doimiy ravishda yangilanadi, takomillashadi, fan-texnikaning rivojlanishi va ijtimoiy rivojlanish asosida yangi metodlar vujudga keladi.

Metod strukturasi o'qitish usullari kiradi. Lekin metod mazkur usullar majmuyidan iborat emas. Usul o'qituvchi yoki o'quvchilar aqliy yoki amaliy ishining alohida xatti-harakatlari bo'lib, ular mazkur metodda tavsiya etilgan materialni o'zlashtirish shaklini to'ldiradi. Masalan, o'qituvchi eslab qolish usulini beradi. Usul metoddan ajraladi, o'zining bilimlarini o'zlashtirishdagi va ko'nikmalar hamda malakalarni shakllantirishdagi ahamiyatini yo'qotadi.

O'qitish usullarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

- tafakkur, xotira, diqqat va xayolning alohida operatsiyalarini tarkib toptiradigan va faollashtiradigan usullar;
- fikrlash faoliyatida muammoli va izlanishli vaziyatlarni vujudga keltiradigan usullar;
- o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish bilan bog'liq kechinmalari va hissiyotlarini faollashtiradigan usullar;

- nazorat va o'quvchilarning o'zini-o'zi nazorat qilish usullari;
- o'qitish jarayonida o'quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o'zaro munosabatlarini boshqarish usullari.

O'qitishning turli metodlariga bir xil usullarni kiritish mumkin. So'nggi yillarda pedagogika fani va maktab amaliyotida o'qitish metodlari muammosiga alohida e'tibor berilmoqda. Shu muammo bo'yicha anchagina tadqiqotlar bajarilmoqda, ilg'or pedagogik amaliyotda o'qitishning samarador metodlarini va tizimlarini qo'llashning talaygina yo'llari topildi. Ammo umumiy ta'lim maktabiga qo'yilayotgan yangi talablar o'qitishning metodlari va usullarini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda.

Ta'lim metodlari — tarixiy kategoriya hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari xarakteri va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi pedagogik jarayon maqsadi, mazmuni, vositalariga ta'sir qiladi. Ularning o'zgarishi bilan ta'lim metodlari ham o'zgaradi.

Kishilik jamiyatning dastlabki rivojlanish bosqichlarida ijtimoiy tajribani kelgusi avlodlarga o'tkazish stixiyali tarzda amalga oshirilgan. Bolalar asosan mehnat ko'nikmalarini kattalar tomonidan bajarilgan harakatlarni kuzatish va takrorlash yo'li bilan o'zlashtirganlar. Ta'lim metodlari asosan taqlidga asoslangan. Kattalarga taqlid qilib, bolalar usti-boshlarni tayyorlash, oziq-ovqat topish yo'l va usullarni o'zlashtirganlar. Bularning asosida ta'limning reproduktiv metodi («men kabi bajar»). Bu o'qitishning eng qadimiy metodi bo'lib, keyinchalik boshqa metodlar paydo bo'ldi. Bilimlar ko'lamining oshishi, madaniy tajribalarni o'zlashtirish darajasini taqlid orqali o'zlashtirilishi ta'minlay olmay qo'ydi.

Maktablarning tashkil etilishi bilan o'qitishning og'zaki metodlari paydo bo'la boshladi. O'qituvchilar so'z yordamida o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan ma'lumotlarni uzata boshladilar.

Yozuvning, keyinchalik kitobning paydo bo'lishi bilan belgi shaklda bilimlarni to'plash, uzatish va ifodalashning imkoniyatlari tug'ildi. So'z ma'lumotlarni asosiy tashuvchisi hisoblanib, kitob bo'yicha o'qitish— o'qituvchi va o'quvchining aloqadorligi yo'li paydo bo'ldi.

Kitoblar turlicha qo'llanilgan. O'rta asr maktablarida o'quvchilar matnlarni mexanik tarzda yod olganlar. Shunday qilib, dogmatik yoki o'qitishning katexizik metodi paydo bo'ldi.

Buyuk kashfiyotlar davriga kelib o'qitishning og'zaki metodlari qatorida o'quvchilarning tashabbuskorlikka, onglilikka, faollikka yo'naltiruvchi kuzatish, sinov, mashq metodlari paydo bo'ldi. Bular ta'limning ko'rgazmali metodlari nomi bilan qo'llanila boshlandi.

XIX asr oxiri XX asr boshlariga kelib, o'quvchilarni mustaqilligini rivojlantiruvchi, bolaning qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga oluvchi evristik metodlar paydo bo'ldi. «Faoliyat orqali o'qitish» konsepsiyasi vujudga kelishi bilan amaliy metodlardan foydalanila boshlandi. Bunda ta'lim jarayonida asosiy e'tibor amaliy mashg'ulot turidagi o'quvchilarni mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishni shakllantirishga qaratila boshlandi. Keyinchalik bular asosida qisman izlanuvchan, tadqiqotchilik metodlari paydo bo'ldi.

Muammoli o'qitishning vujudga kelishi bilan muammoli ta'lim metodlari qo'llanila boshlandi. Muammoli ta'limda o'quvchilar oldiga o'zlashtirilishi zarur bo'lgan materiallar muammo sifatida qo'yilib, o'quvchilar ushbu muammolarni mustaqil hal etish orqali tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtirishga erishishi bilan xarakterlanadi. Kishilik jamiyatida bolani nafaqat bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishi, balki individual xususiyat va qobiliyatlarni rivojlantirish zarurligini anglagandan so'ng rivojlantiruvchi metodlar qo'llanila boshlandi. O'quv jarayonida texnikani keng qo'llanilishi, ta'limni kompyuterizatsiyalashishi ko'plab yangi metodlarni vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Amerikalik pedagog K. Kerr «ta'lim metodlari sohasidagi tub burilishlami» to'rt bosqichga ajratadi. Kishilik jamiyatining dastlabki rivojlanish bosqichida bolalarni asosiy o'qituvchilari ota-onalar hisoblangan. Birinchi tub burilish ularning o'rniga professional o'qituvchilarning kelishi davri. Ikkinchi tub burilish og'zaki so'zni, nutqni yozuv bilan almashinuvi bilan bog'liq. Uchinchi tub burilish ta'limga bosma so'zning kiritilishi davri. To'rtinchisi ta'limni avtomati- zatsiyalashtirish va kompyuterizatsiyalashtirish bilan bog'liq.

Barcha davrlarda metodlarni izlash orqali ta'lim jarayonini shakllantirishga erishib kelingan. Biroq biror bir metod o'z-o'zicha

qo‘llanilmaydi hamda kerakli natijani ta‘minlamaydi. Biror bir metod universal xarakterga ega emas. Ta‘lim jarayonida turli-tuman metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

7.2. Ta‘lim metodlari klassifikatsiyasi.

O‘qitish metodlarining juda ko‘p turlari mavjud va ularning sonini aniq belgilab bo‘lmaydi. Metodlar o‘qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga asoslanib tasniflanadi.

Maktabdagi o‘qitish metodlarining yagona tasnifi yo‘q. Nazariya va amaliyotda bir qancha tasniflar mavjud bo‘lib, ular o‘zaro zid kelmaydi, biri ikkinchisini inkor etmaydi, balki bir-birini to‘ldiradi, o‘qitish jarayonini ko‘rish imkoniyatini yaratadi.

Tasnif tartib va tizimni vujudga keltiradi, umumiy va muayyan, nazariy va amaliy, muhim va tasodifiy o‘qitish metodlarini aniqlashga yordam beradi, shu orqali ulardan amaliyotda samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi.

O‘qitish metodlarini tasniflashda o‘quvchiga dastur materialini o‘rga- nishning maqsadga muvofiqroq yo‘llarini tanlash imkonini yaratadi, o‘z ishidagi yutuq va kamchiliklarni tushunishda yordam beradi, o‘qituvchilarning faoliyatini takomillashtirish uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi.

Ta‘lim nazariyasida ta‘lim metodlarini tasnif etishga oid har xil qarashlar mavjud. Ba‘zi olimlar ta‘lim metodlarini bilish manbalariga ko‘ra tasnif etishsa, ikkinchi guruh mutaxassislar o‘qituvchi faoliyati xususiyatidan kelib chiqishgan, uchunchi guruh mutaxassislar o‘quvchi faoliyatini inobatga olishgan.

Y.I.Perovskiy, N.M.Verzulin, Y.Ya.Golant metodlarni og‘zaki, ko‘rgazmali va amaliy turlarga ajratishgan.

M.A.Danilov va B.P.Yesipovlar esa metodlarni: bilimlarni o‘rganishga oid metodlar, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish metodlari, bilim va malakalarni tatbiq etish metodlari, ijodiy ishlash metodlari, bilim va malakalarni mustahkamlash, tekshirish metodlari turlariga ajratishgan.

M.N.Skatkin va I.Ya.Lernerlar ta‘lim metodlarini quyidagi guruhlarga ajratishgan: izohli-ko‘rgazmali metodlar, qayta eslashga oid standart metodlar, muammoli bayon metodi, evristik metod, ilmiy izlanish metodlari.

Yu.K. Babanskiyning tasnifi bo'yicha metodlar uchta katta guruhga bo'linadi:

o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish; nazorat va o'zini-o'zi nazorat qilish metodlari. (Ikkinchi guruhda ishning qator yangi metodlari va usullari mavjud.) Muallif quyidagilarni tavsiya etadi:

- bilishga doir o'yinlar, o'quv munozaralari, qiziq vaziyatlarni vujudga keltirish, rag'batlantirish, tanbeh berish va nazorat metodlari.

T. A. Ilina olimlarning tasniflarini umumlashtirib, Yu.K.Babanskiyning tasnifini ma'qullagan va tasniflashning quyidagi tartibini tavsiya etgan:

- yangi bilimlarni berish metodlari (o'qituvchining so'zlariga tayangan holda berish uchun foydalanilgan tushuntirish, hikoya, maktab ma'ruza);

- yangi bilimlar o'zlashtirilishi, mustahkam malakalar shakllanishi uchun foydalaniladigan metodlar: suhbat, ekskursiya, eksperiment va laboratoriya ishi, darslik va kitob bilan ishlash, o'yin, mashqlar;

- darsning har bir bosqichida foydalansa bo'ladigan texnik vositalar bilan ishlash metodlari;

- mustaqil ish.

S. P. Baranov o'z ta'limotida ta'lim metodlarini quyidagi guruhlar bo'yicha taqsimlaydi. Birinchi guruhga o'qitishning o'qituvchi eng asosiy rol o'ynaydigan hikoya, suhbat, tasniflash, tushuntirish va hokazolarni kiritadi. Bunda o'quvchining asosiy vazifasi — o'qituvchi mulohazalarining mantiqiga ergashish, bayon qilinayotgan mazmuni tushunish, eslab qolish va keyinchalik o'rganilgan materialni qayta gapirib bera olishdan iborat bo'ladi. Uning fikri o'qituvchi mulohazalarining tizimiga qanchalik yaqin bo'lsa, o'quv materialini o'rganishning tavsiya etilgan yo'li shunchalik ishonchli bo'ladi. O'quvchining asosiy vazifasi — o'qituvchining gaplarini tinglash va ularni tushunib olishdir.

Ikkinchi guruhga o'qishning yo'llari: mashqlar, mustaqil, laboratoriya, amaliy va nazorat ishlar kiradi. O'quvchi faoliyatining xarakteri tavsiya etilgan metodning samaradorligini belgilaydi. O'qituvchining roli bolalarning o'qishiga mohirona rahbarlik qilishdan iborat bo'ladi.

Tasniflashning shunday turlari ham mavjudki, ularda o'qitish metodlari o'qishning tegishli metodlariga: axborot-umumlashtirish, ijrochilik-tushuntirish, reproduktiv, instruktiv-amaliy va mas'uliy-amaliy, tushuntirish-da'vat va qisman izlanishli, undovchi va izlanish tarziga mos keladi (M. I. Maxmutov).

Amalda o'qitish metodlarini tasniflashga bilimlar manbayi mantiqan asoslar bo'yicha (N. M. Verzilin), bilimlar manbayi va o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi mustaqillik darajasi bo'yicha (A. N. Aleksyuk, I. D. Zverov va boshqalar) baravar yondashish eng ko'p uchraydi.

S.G.Shapovalenko metodlarning to'rt jihatini: mantiqiy-mazmuniy, protsessual va tashkiliy boshqarilishi jihatlarini ko'rib chiqadi.

Metodlarni tasniflash muammosiga turlicha qarashlar ular haqidagi bilimlar tabaqalanishi va birlashishining tabiiy jarayonini aks ettiradi.

Mutaxassislar o'rtasida ta'lim metodlarini tasniflashda har xil qarashlar mavjudligi yuqoridagilardan ma'lum bo'lib turibdi.

Pedagogik amaliyotda ko'p miqdorda ta'lim metodlari to'plangan. Ma'lumotlarni qabul qilish manbalariga va didaktik vazifalariga ko'ra pedagogikada ta'lim metodlarining bir qancha klassifikatsiyalari mavjud. Ko'p tarqalgan o'quvchilarni o'quv-biluv faoliyati tuzilmaviy elementlariga asoslangan ta'lim metodlari klassifikatsiyasi hisoblanadi:

- og'zaki, ko'rgazmali, amaliy metodlar;
- reproduktiv va izlanish metodlari, induktiv va deduktiv metodlar;
- mustaqil ish metodlari;
- nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari.

Ta'lim metodlari klassifikatsiyasi

2- jadval

Ta'lim metodlari	Ta'lim metodlari guruhlari
Ogʻzaki	Ma'ruza, suhbat, hikoya, tushuntirish, munozara, kitob bilan ishlash
Koʻrgazmali	Illyustratsiya va demonstratsiya
Amaliy	Mashq, pedagogik vazifalarni yechish, didaktik va rolli oʻyinlar, treninglar, laboratoriya ishi
Induktiv va deduktiv	Analiz, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish, sintez, modellashtirish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish
Reproduktiv	Tushuntirish, ma'ruza, hikoya, instruktaj, kitob bilan ishlash, mashq
Muammoli-izlanuvchan	Evristik suhbat, muammoli savol, vaziyatlar tahlili, umumlashtirish, tizimlashtirish
Mustaqil ish metodlari	Kitob bilan ishlash, mashq, pedagogik vazifalarni yechish, laboratoriya ishi, loyiha ishlab chiqish «keys-stadii»
Oʻquv-biluv faoliyatini stimullashtiruvchi metodlar	Oʻquv munozaralari, illyustratsiya va namoyish qilish, didaktik oʻyinlar, treninglar, yakka loyihalash, laboratoriya ishi
Nazorat va oʻz-oʻzini nazorat qilish metodlari	Ogʻzaki nazorat: individual va ommaviy soʻrov. Yozma nazorat: yozma nazorat ishi, tushuncha va grafik diktant, test. Mashina yordamidagi nazorat: test, virtual

Har qanday fan oʻqituvchisi ta'lim qonuniyatlari va prinsiplariga tayangan holda u yoki bu metodlarni qoʻllashni, ularni yutuq va kamchiliklarini bilishi zarur. Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi mezonlarga tayaniladi:

- 1) ta'lim metodlarini ta'lim maqsadi va vazifalariga mos kelishi;
- 2) ta'lim metodlarini ta'lim prinsiplariga mosligi;
- 3) metodlarni oʻrganilayotgan mavzu mazmuniga mosligi;
- 4) metodlarni oʻquvchilar oʻquv imkoniyatlari (yosh, jismoniy, psixologik, tayyorgarlik darajasi, talabalarni tarbiyalanganligi va rivojlanganligi)ga mosligi;
- 5) metodlarni texnik sharoit va ta'lim uchun ajratilgan vaqtga mosligi;

6) ta'lim metodlarini o'qituvchilarning o'z imkoniyatlari (tajribasi, nazariy va amaliy tayyorgarligi, faoliyatning individual stili, o'qituvchining shaxsiy sifatleri)ga mosligi.

Turli ta'lim metodlarining qiyosiy xarakteristikasi

3-jadval

Ta'lim metodlari	Hal etadigan vazifasi				
	Shakllantiradi		Rivojlantiradi		
	bilim	ko'nikma	tafakkur	xotira	nutq
Og'zaki	**	-	-	-	*
Ko'rgazmali	*	*	*	**	-
Amaliy	*	**	**	*	-
Kitob bilan ishlash	*	*	*	*	*
Multimedia bilan	*	*	*	*	-
Mustaqil ish («keys-	**	**	**	*	*
Og'zaki va yozma	**	*	*	*	**
Munozara, «aqliy	**	-	**	*	**

Eslatma: (**) to'liq hal etadi; (*) qisman hal etadi; (-)bo'sh hal etadi.

Shunday qilib, mashg'ulotlarda ta'limning turli metod va usullari qo'llaniladi. Ular o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalarni samarali o'zlashtirishlariga xizmat qiladi.

Shunday qilib, o'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'ldir.

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo'yishni, unga erishish bo'yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi. Har qanday faoliyat uning obyektini talab qiladi. Nihoyat, metod maqsadga olib borishi kerak, aks holda, u qo'yilgan maqsad uchun yaroqsizligini yoki bu holatda uning umuman noto'g'ri qo'llanganini e'tirof etish lozim. Shunday qilib, har qanday metod uni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsadni, shu maqsadni amalga oshirish faoliyatini va bajarish vositalarini talab qiladi. Bu vositalar faoliyat obyekti to'g'risidagi predmetli yoki aqliy bilimlar, qo'yilgan maqsadga albatta erishishdan iborat bo'lishi mumkin. Bularning hammasi har qanday metodga nisbatan maqsadga muvofiqdir, lekin o'qitish metodi uchun yetarli emas.

Mutaxassislar o'rtasida ta'lim metodlarini tasniflashda har xil qarashlar mavjudligi yuqoridagilardan ma'lum bo'lib turibdi.

Hikoya—o'quv materiali mazmunini jonli, obrazli, ta'sirli ravishda bayon qilishdir. Hikoya qilib berish mahoratini egallagan o'qituvchi o'quvchilarni bilimlarni muayyan tizimda o'zlashtirishlarini ta'minlaydi, ularni fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Predmetning xususiyatlariga qarab hikoya qilib berish o'zgarishi mumkin.

Ifodali hikoya—voqealarni bayon etish, yozuvchilarning va tarixiy arboblarning hayoti haqida gapirib berish.

Tasvirli hikoya—o'simliklar tuzilishini, moddalar tarkibini tasvirlashdir.

Hikoya qilib berishning rejali bo'lishi, uning puxta tuzilishi, ta'sirchan hamda obrazli bo'lishi o'qituvchi hikoyasining zarur fazilatlaridir. Hikoyaning ta'sirchanligi o'quvchilarga katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

Tushuntirish o'quv materialining o'qituvchi tomonidan muntazam va mantiqiy izchillik bilan bayon qilinishidan iboratdir. O'qituvchining tushuntiri- shida hamisha ko'plab mulohazalar, xulosalar, dalillar bo'ladi.

Tushuntirish hamisha o'qituvchining o'quvchilarga savollar berib turishini va ularni tushuntirish jarayonini kuzatib turishga majbur etishni, o'z fikrlarini aytishlarini taqozo qiladi.

Tushuntirishning oxirida o'qituvchi xulosani, qoidani aniq ta'riflab beradi. Tushuntirishdan foydalanilgan darsning majburiy elementi-material o'zlashtirishining sifatini tekshirish, o'quvchilar keltirgan faktlar va misollarni tahlil qilishdan iboratdir.

Suhbat o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri shaklida amal qiladigan ta'lim metodidir. Suhbat paytida o'qituvchi o'quvchilarni bilimiga tayanib hamda savollardan foydalanib o'quvchilarni yangi bilimlarni tushunish va o'zlashtirish sari olib boradi.

Suhbat jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishlari, mulohazalarini aytishlari uchun imkoniyat yaratib berish zarur. Suhbat mohiyatiga ko'ra evristik va noevristik turlariga bo'linadi.

Ma'ruza oliy o'quv yurtlarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda foydalaniladigan ta'lim metodidir. Ma'ruza jarayonida talabalarning faolligini, tashabbuskorligini oshirish maqsadida

o'qituvchi o'z nutqini ko'rgazmali qurol, darslikda berilgan faktlar, muammo va topshiriqlar bilan uyg'unlashtiradi. Ma'ruza jarayonida faktlarni tahlil etishga bolalar diqqatini tortish orqali u o'quvchilar faolligi oshiriladi. Terminlarga izoh berish, o'quvchilarning o'zlariga xulosa chiqarishni taklif etish talablarni o'quv-biluv faoliyatini samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Ko'rgazmali metodlar. Ko'rgazmali metodlarga kuzatish illyustratsiya va demonstratsiya metodlari kiradi.

Kuzatishlar metodik keng tatbiq etish zaruriyati o'quvchilar tevarak-atrofdagi voqelik hodisalarini bilish jarayonini hisobga olishdan kelib chiqadi.

Kuzatishlar asosida o'quvchilarning tasavvurlari tarkib topadi va ularni bilimlari chuqur va ishonchli bo'lib qoladi. Kuzatishlar bolalarni aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Illyustratsiya metodi — bilimlarni og'zaki bayon qila turib rasmlar, chizmalar, jadvalga o'quvchi diqqatini tortish.

Demonstratsiya metodi ta'lim vositalari asosida turli tasvirlarni namoyish etish.

Amaliy metod. Mashq o'zlashtirilgan bilimlarni turli o'quv sharoitlariga tatbiq etish yo'lidir. Mashqlar xarakteri va metodikasi o'quv predmetining, o'quv materialining, masalaning va o'quvchilar yoshining xususiyatiga bog'liq.

Mashqlarni bajarish maqsadlari va tartibini o'quvchilar ongiga yetkazish, ularni xilma-xil bo'lishi, mashqlarni o'tkazishning sistemali bo'lishi ularni qiyinlik darajasini asta-sekin oshirib borish kabi qoidalari mavjud.

7.3. Ta'lim vositalari

Ta'lim metodlari va usullari bilan ta'lim vositalari uzviy bog'liq. Ta'lim vositasi - bu bilimlarni olish, malakalarni shakllantirish manbai hisoblanib, ularga ta'lim jarayoni uchun mo'ljallangan, uni samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan, maxsus ishlab chiqilgan predmetlar kiradi. Ta'lim vositasi — bu bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikmalarni shakllantirish manbai «ta'lim vositasi» tushunchasi keng va tor ma'noda qo'llaniladi. Tor ma'noda ta'lim vositalari deganda o'quv va ko'rgazmali qo'llanmalar, namoyish etish qurilmalari, texnik vositalar tushuniladi. Keng ma'noda ta'lim vositalari deyilganda ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlovchi

metod, shakl, mazmun yig'indisi va maxsus texnik vositalar tushuniladi.

Ta'lim vositalari dunyoni bilvosita va bevosita bilishni yengillashtirishga xizmat qiladi. Ular ham metodlar singari ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi vazifalarni bajarib, o'quvchilarni o'quv-biluv faoliyatini boshqarish va nazorat qilishga xizmat qiladi.

Didaktik vositalar ta'limning boshqa elementlari bilan aloqadorlikda qo'llanilgandagina o'z qadrini yo'qotmaydi.

Ta'lim vositalari turli asoslarga ko'ra klassifikatsiya qilinadi: faoliyat subyektiga, obyektlar tarkibiga va o'quv axboroti munosabatiga ko'ra. Masalan, faoliyat subyektiga ko'ra o'qitish vositalari va o'qish vositalariga bo'linadi.

Ta'lim vositalariga: turli xildagi ko'rgazmalar, namoyish qilish qurollari, axborot vositalari, elektron doska, yozish vositalari, kompyuter.

Bulardan tashqari o'qituvchi nutqi ham o'qitish vositasi hisoblanadi. Ta-labalarini o'quv materialini sifatli o'zlashtirib olishlari uni qanday gapirishi, asosiy g'oyani ajratib berishi, turli tushunchalarni qanday tushuntirib berishiga bog'liq.

O'qish vositalariga: darslik, daftar, ruchka, didaktik tarqatma materiallar, sxemalar, tayanch konspektlari, laboratoriya qurollari, individual axborot vositalari kiradi.

Obyektlar tarkibiga ko'ra vositalar moddiy va ideal vositalarga bo'linadi. Moddiy vositalarga: darslik va o'quv qo'llanmalari, jadvallar, modellar, maketlar, axborot vositalari, kompyuter, o'quv-texnik vositalar, laboratoriya anjomlari, mebellar, mashg'ulot jadvali v. b.

Ta'limning ideal vositalari - bu o'qituvchi va talabalar yangi mavzuni o'zlashtirish va tushuntirish uchun qo'llaydigan avval o'zlashtirilgan bilim, malakalar. Masalan, g'oya ta'limning ideal vositasi hisoblanadi.

Mashhur polyak didakti V. Okon ta'lim vositalarini oddiy va murakkab turlariga ajratadi.

Oddiy vositalar:

- 1) og'zaki vositalar: darslik va boshqa matnlar;
- 2) oddiy ko'rish vositalari: real predmetlar, modellar, rasmlar.

Murakkab vositalar:

- 1) mexanik ko‘rish vositalari: kodoskop, diaproyektor va b.;
- 2) eshitish vositalari: proigrivatel, magnitofon, radio;
- 3) audiovizual (ko‘rish-eshitish): ovozli film, TV, video;
- 4) ta'lim jarayonini avtomatlashtiruvchi vositalar: multimediyali kabinetlar, kompyuterlar, axborot tizimlari, telekommunikatsiya tarmog‘i.

Shunday qilib, ta'lim sifati ta'lim maqsadi, mazmuni, metodlari, usullari, vositalari, aloqalariga bog‘liq. Ta'lim vositasini tanlashda ularni qanday didaktik vazifalarni bajarishini, qanday natijalarga olib kelishini bilish zarur.

O‘quvchilarni samarali o‘qitishda ta'limiy muhit, ya'ni o‘quv xonasi katta rol o‘ynaydi.

O‘quv kabineti - bu o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish markazi hamda fan bo‘yicha o‘qishdan tashqari ishlarni tashkillash markazi hisoblanadi. O‘quv xonasining maqsadi yoshlarda tanlagan mutaxassisligiga ijobiy munosabatni shakllantirish, fanlarni o‘rganishga qiziqishlarini rivojlantirish.

O‘quv xonasi - bu maslahatli yordam markazi hisoblanadi. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida o‘quv xonasi zaruriy axborot telekommunikatsiya vositalari bilan jihozlanishi zarur. Shunday qilib, o‘quv kabineti auditoriyada va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun mo‘ljallanib, unda o‘quvchilarni kasbga yo‘llash tayyorgarligi shakllanadi.

7.4. Ta'lim metodlari va vositalarini tanlash

Ta'lim jarayonida o‘qitish metodlarini va vositalarini tanlash ko‘plab obyektiv va subyektiv omillarga bog‘liq:

- ta'lim qonuniyatlariga va prinsiplariga;
- insonni rivojlanishi, tarbiyasi va ta'limi maqsadiga;
- aniq ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarga;
- ta'lim motivatsiyasi darajasiga;
- aniq o‘quv predmetini o‘qitish metodikasi xususiyatlariga;
- material mazmuniga;
- u yoki bu materialni o‘zlashtirishga ajratilgan vaqtiga;
- o‘quv materiali miqdori va murakkabligiga;
- o‘quvchilarni tayyorgarlik darajasiga;
- o‘quvchilarni yosh va individual xususiyatlariga;
- o‘quvchilardagi o‘quv ko‘nikmalarini shakllanganligiga;

mashgʻulot turi va tuzilishiga;
oʻquvchilar miqdoriga;
oʻquvchilarni qiziqishiga;
oʻquv jarayonidagi oʻqituvchi va oʻquvchilar orasidagi hamkorlikka; moddiy-texnik taʼminotiga;
pedagog shaxsi xususiyatlariga.

Taʼlim nazariyasida oʻqituvchilarni amaliy tajribalarini umumlashtirish va oʻrganish asosida oʻquv-tarbiya jarayonlarida taʼlim metodlarini tanlashga oid yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Taʼlim metodlarini tanlash:

- oʻquvchilarni tarbiyalash, rivojlantirish, taʼlim berish, maʼlumotli qilish umumiy maqsadlariga;
- oʻquv predmeti va mavzu mazmuniga;
- aniq oʻquv predmetini oʻqitish metodikasi xususiyatlariga;
- aniq bir darsni maqsad va vazifasiga hamda mazmuniga;
- materialni oʻrgatish uchun ajratilgan vaqtga;
- oʻquvchilarni yosh xususiyatlariga hamda ularni bilish imkoniyatlari darajalariga va oʻquvchilarni tayyorgarlik darajalariga;
- oʻquv muassasasini moddiy, uslubiy taʼminlanganligiga;
- oʻqituvchini xususiyat va imkoniyatlariga, nazariy va amaliy tayyorgarligi darajasiga, uslubiy, kasbiy mahoratiga, shaxsiy sifatlariga bogʻliq.

Yuqoridagi mezonlarga koʻra oʻqituvchi darsda u yoki bu metodlardan foydalanadi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *Taʼlim metodining mohiyati nima?*
2. *Taʼlim metodlari klassifikatsiyasi mohiyatini tavsiflang.*
3. *Sizningcha qaysi taʼlim metodlari klassifikatsiyasi asosiy hisoblanadi?*
4. *Taʼlim vositasi qanday vazifalarni bajaradi?*
5. *Taʼlim vositalari qaysi asoslarga koʻra klassifikatsiya qilinadi?*
6. *Taʼlim metodlarini tasniflashda ditaktikada qanday yondashuvlar mavjud?*
7. *Oʻquv - biluv faoliyatini tashkil qilish metodlariga qanday usullar kiradi?*
8. *Oʻqitishning muammoli - izlanish va reproduktiv metodlarini*

izohlang.

9. *O'qitishning optimal metodlarini qanday tanlash kerak?*

8-MAVZU: TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA TURLARI

Tayanch tushunchalar: o'qitish shallari, individual, guruhiy, sinf-dars tizimi, an'anaviy yondashuv, noan'anaviy yondashuv, texnologik yondashuv, ma'ruza, kirish ma'ruzasi, seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'uloti, o'quv konfrensiyasi

8.1. Ta'lim shakli va uni tashkil etish tushunchasi.

O'quv tarbiyaviy ishlarni samaradorligi ta'lim shakllarini to'g'ri tanlashga bog'liq. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda ta'limni tashkil etish shakli tushunchasi turlicha talqin etilgan. Shakl (lotincha forma)—tashqi ko'rinish degan ma'noni anglatadi. Predmetni, jarayonni, hodisani shakli mazmun bilan aloqa qiladi va mazmunga ta'sir etadi. Ta'lim shakli didaktik kategoriya sifatida o'quv jarayonini tashkil etishning tashqi tomonini ifodalaydi. U ta'lim maqsadi, mazmuni, metod va vositalariga va ta'lim jarayoni ishtirokchilarining miqdoriga, moddiy shart- sharoitlarga bog'liq.

Ta'limni tashkil etish shakli — bu ta'lim jarayonini alohida zvenosini konstruksiyasi, mashg'ulotnig aniq turi. (dars, ma'ruza, seminar, ekskursiya, fakultativ mashg'ulot.v.b.).

M.A.Molchanovanning ta'kidlashicha, «ta'limni tashkil etish shakli» kategoriyasi, shakl va mazmunni dialektik birligi hisoblanadi.

S.A.Smirnov biz ta'limni tashkil etish shakli deganda, «o'quvchilar faoliyatini tashkil etish yo'lini» tushunamiz deb ta'kidlaydi. I.F.Harlomov ta'limni tashkil etish shakli tushunchasi ta'lim nazariyasida aniq ta'rifga ega emas deb hisoblaydi.

N.A.Sarokin, M.N.Skatkin, I.Ya.Lernerlar tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanmalarida ta'limni tashkil etish shakli «ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarni birgalikdagi faoliyati tartibi» ma'nosida qo'llanilgan.

Ta'limni tashkil etish shakllari deganda, aniq muddatda va tartibda o'qituvchilar o'quvchilar bilan olib boradigan mashg'ulot turlarini tushunamiz deb ta'kidlanadi Sh.Abdullayeva va boshqalar tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanmada.

O.Roziqov, B.Adizovlar tomonidan yaratilgan Didaktika darsligida «O'qitish va o'qish faoliyati o'zaro ta'sirining belgilangan

tartibda ma'lum o'rin hamda vaqtda amalga oshishiga ta'limning tashkiliy shakllari deyiladi» deb ta'kidlanadi.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinadiki, ta'limni tashkil etish shakli necha o'quvchini qayerda va qachon o'qitish kerak degan savolga javob beradi. Aytish mumkinki, demak, ta'limni tashkil etish shakli deganda biz o'quvchilar miqdori, o'quv joyi va vaqti bilan bog'liq bo'lgan ta'limni tashqi tomonini tushunamiz. O'z navbatida ta'limni tashqi tomoni, uni ichki tomoni va ta'lim maqsadi, mazmuni bilan o'zaro bog'liqdir.

Uzluksiz ta'limning hamma bosqichlarida ta'limning o'ziga xos tashkiliy shakllari mavjud.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'limni tashkil etish shaklini o'quvchilar miqdoriga ko'ra individual va jamoa shakllariga, o'quv joyiga ko'ra maktabdagi va maktabdan tashqari shakllariga, vaqtga ko'ra darsdagi va darsdan tashqari shakllariga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Ta'limni tashkil etish shakllarini mutaxassislar tomonidan turlicha klassifikatsiya qilinishi olimlarning yagona fikrga kelmaganligidan dalolat beradi. Masalan, V.I.Andreyev ta'limni tashkil etish shakli klassifikatsiyasining asosi qilib, ta'lim elementlar o'rtasidagi aloqadorliklarni qabul qiladi. Shunga ko'ra, u quyidagi ta'limni tashkil etish shakllarini tavsiya etadi: kirish mashg'ulotlari, bilimlarni chuqurlashtirish mashg'ulotlari, amaliy mashg'ulotlar, bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish mashg'ulotlari, bilim, ko'nikma, malakalarni nazorat qilish mashg'ulotlari,

Ukrain pedagogi V.A. Onishuk ta'limni tashkil etish shakllarini didaktik maqsadi bo'yicha nazariy, amaliy, mehnat, aralash shakllariga ajratadi.

Akademik A.V.Xutorskiy ta'limni tashkil etish shakllarini: individual mashg'ulotlar, guruhli-jamoaviy mashg'ulotlar, individual-jamoaviy mashg'ulotlarga ajratadi.

Individual mashg'ulotlarga repetitorlik, tyutorlik, mentorlik, guvernerlik, oilaviy ta'lim, o'z-o'zini o'qitish shakllari kiradi.

Jamoaviy-guruhli mashg'ulotlarga dars, ma'ruza, seminar, konferensiya, olimpiadalar, ekskursiya, o'yinlar.

Individual-jamoaviy mashg'ulotlarga: ijodiy haftaliklar, ilmiy haftaliklar, loyihalar kiradi.

8.2. Ta'lim shaklini rivojlanish bosqichlari

Ta'lim jarayonini tashkil etish shakli dinamik, o'zgaruvchan xarakterga ega bo'lib, ular paydo bo'ladi, rivojlanadi, jamiyatdagi fan va texnika rivojlanishiga qarab o'zgarib turadi. Butun dunyo ta'lim amaliyotida turli ta'lim tizimlari mavjud bo'lib, u yoki bu shaklga tegishli.

Individual ta'lim tizimi ta'lim jarayonini tashkil etishning eng tarixiy qadimiy shakli hisoblanadi. Uning mohiyati shundaki, o'quvchi o'z uyida yoki o'qituvchini uyida topshiriqni yakka individual tarzda bajaradi.

Ta'limni tashkil etishni individual shaklini yutuqlari ijobiy tomonlari shundaki: birinchidan, o'quv faoliyatini metodini, mazmunini bolani individual xususiyatlariga moslashtirish, ikkinchidan, o'quvchini har bir harakatini kuzatib borish, o'quvchini xatolarini o'z vaqtida to'g'rilash o'zlashtirish natijalarini o'z vaqtida baholash imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birgalikda ta'limni individual tashkil etishning salbiy tomonlari ham mavjud. Bularga: tejamisizlik, boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikning yo'qligi, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllanishiga salbiy ta'sir qiladi. Ta'limning individual shakli sinf-dars tizimi asoslangunga qadar davom etdi. Jamiyat taraqqiyoti natijasida o'qitishning jamoa shaklini paydo bo'lishi va vujudga kelishi ehtiyojini tug'dirdi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, fan-texnikani rivojlanishi, jamiyat ehtiyojini o'zgarishi sababli ta'limni tashkil etish shakllari ham o'zgarib boradi.

Sinf-dars tizimi nazariy jihatdan XVII asrda Ya.A.Komenskiy tomonidan asoslangan. Ushbu tizim bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Sinf-dars tizimining xarakterli belgilariga quyidagilar kiradi:

- sinflar asosan bir xil yoshdagi o'quvchilardan tuziladi;
- sinf yagona yillik reja va dastur asosida ishlaydi;
- sinf-dars tizimida mashg'ulotning asosiy turi darsdir;
- har bir dars yagona o'quv predmetiga bag'ishlanadi;
- dars jarayonida o'quvchilar faoliyatini o'qituvchi boshqaradi va u o'zlashtirish natijalarini baholaydi.

Sinf-dars tizimining belgilariga o'quv yili, o'quv kuni, dars jadvali, o'quv ta'tili, tanaffus kabilar kiradi.

Sinf-dars tizimining ijobiy tomonlari: aniq tashkiliy tuzilishi, oddiy boshqaruv, o'quvchilarning hamkorligi uchun imkoniyat

borligi, o'qituvchi shaxsini o'quvchilarga emotsional ta'sir etishi, ta'limni tejamkorligi, o'zlashtirish tizimli va ketma-ket amalga oshirilishi.

Sinf-dars tizimining kamchiliklari: sinf-dars tizimi asosan o'rtacha o'quvchiga tayanadi, bu kimgadir og'ir bo'lsa, kimgadir yengillik qiladi, o'quvchilarni individual xususiyatlarini hisobga olishda o'qituvchiga qiyinlik tug'diradi, kattalar va kichiklar o'rtasidagi o'zaro muloqot ta'minlanmaydi.

Sinf-dars tizimi bizning maktablarimizga XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida kirib keldi.

Bell-Lankaster ta'lim tizimi. Sinf-dars tizimini modernizatsiya qilishga urinishlarini XIX asr oxirlarida XX asr boshlarida Angliyada A.Bell va D.Lankaster faoliyatlarida ko'rishimiz mumkin. Ta'lim nazariyasida Bell- Lankaster nomini olgan ushbu tizimni mohiyati shuki, bunda sinflar har xil yoshdagi bolalardan tuzilib, sinfdagi katta yoshdagi bolalar o'qituvchilardan o'rgangan bilimlarini yosh bolalarga o'rgatib borishidir. Shunday qilib, o'qituvchi ko'plab bolalarni o'qitgan, lekin ta'lim sifati yuqori bo'lmagan.

XX asr boshlarida AQSHda Batava ta'lim tizimi, Yevropada Mongeym ta'lim tizimi paydo bo'ldi.

Batava ta'lim tizimining mohiyati shundaki, o'qituvchini o'quvchilar bilan ishlash vaqti ikkiga bo'linadi, dastlab o'qituvchi barchaga bir xil tushuntirish ishlarini olib boradi, so'ngra o'qituvchi yordamiga muhtoj o'quvchilar bilan, ya'ni chuqur bilim olishni istagan qobiliyatli o'quvchilar bilan ishlaydi. O'rtacha va past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan o'qituvchi yordamchisi shug'ullangan.

Mangeym ta'lim tizimining mohiyati shu ediki, sinflar o'quvchilarni yoshiga qarab emas, ularni aqliy intellektual qobiliyatlariga qarab tuzilgan. Mangeym ta'lim tizimi asoschisi Yozef Zikkinger(1858-1930) bolalarni aqliy qobiliyatlariga, tayyorgarlik darajalariga qarab kuchsiz, o'rtacha va kuchli sinflarni tuzish mumkinligini ta'kidlab o'tgan.

8.3.O'quv jarayonining tashkil etish shakllari

Ta'limni tashkil etishning turlicha shakllari mavjud bo'lib bularga: dars, ma'ruza, seminar, konferensiya, amaliy laboratoriya mashg'uloti, fakultativ mashg'ulotlar, ekskursiya, ishlab chiqarish

amaliyoti, mustaqil uy ishi, maslahatlar, to'g'arak mashg'ulotlari, kurs loyihalari, malakaviy loyihalar v.b. kiradi.

Zamonaviy maktablarimizda ta'limning tashkil etishning asosiy shakli dars hisoblanadi. Dars o'quvchilarni nafaqat o'quv-biluv faoliyatini samarali tashkillashni, balki o'quvchilar faoliyatini rivojlantirish imkoniyatiga ham ega.

«Dars—aniq maqsadni ko'zlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagi o'quvchilar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotdir»-deb ta'kidlanadi Sh.Abdullayeva va boshqalarning o'quv qo'llanmasida.

O.Roziqov va boshqalar tomonidan yaratilgan Didaktika darsligida «Bir xil tayyorgarlikka ega, yoshlari teng o'quvchilarning doimiy jamoasi bilan ma'lum xona, tartib, jadval asosida o'tkaziladigan mashg'ulotga dars deyiladi» —deb ta'kidlanadi.

Yuqoridagi ta'riflar tahlilidan ko'rinadiki, darsning mohiyati, darsda o'qituvchi va o'quvchilarni o'zaro ta'siri natijasida o'quvchilar bilim, malaka, ko'nikmalarni o'zlashtiradi, qobiliyatlari rivojlanadi hamda darsda o'qituvchining pedagogik mahorati shakllanadi. Dars ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning barcha komponentlari (darsning maqsadi, mazmuni, metodi) o'zaro aloqadordir.

Har qanday darsning yaratilishi uning maqsadini aniq anglashdan boshlanadi.

Darsning maqsadi.

Pedagogik faoliyat obykti bu o'quvchilar faoliyati hisoblanadi, natijasi esa o'quvchilarni o'zlashtirganlik darajasidir. Zamonaviy maktabda darsning maqsadi aniq bo'lishi zarur.

O'qitishning umumiy nazariyasidan kelib chiqib, ta'lim nazariyasi darsga nisbatan bir qancha talablarni ta'riflaydi:

Maqsadning aniq qo'yilishi.

Interfaol metodlardan foydalanish.

Ta'lim prinsiplariga amal qilish.

O'quvchilarda motivni shakllantirish.

Darsda vaqtdan ratsional foydalanish.

Dars tipologiyasi — ta'lim nazariyasining murakkab didaktik vazifalaridan biridir. M.A.Danilov, B.P.Yesipov, B.A.Onishuklar dars tiplarini didaktik maqsadga ko'ra asoslaganlar va quyidagi dars tiplarini tasviya etganlar:

kirish darslari;
o'quv materiali bilan tanishtirish darslari;
qonun, qoida, tushunchalarni o'zlashtirish darslari;
o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash darslari;
malakalarni shakllantirish darslari;
takrorlash va umumlashtirish darslari;
nazorat darslari;
aralash darslar.

I.N.Kazansev darslarni ta'lim metodlarini qo'llashga ko'ra tiplarga ajratadi.

ma'ruza-dars, suhbat-dars, ekskursiya-dars, kino-dars, mustaqil ishlash darsi.

M.I.Mahmudov quyidagi dars tiplarini tavsiya etgan:
yangi materialni o'rganish darsi;
bilim, malaka, ko'nikmalarni shakllantirish darsi;
tizimlashtirish va umumlashtirish darsi;
aralash dars;
nazorat va bilimlarni tuzatish darsi.

O'qituvchi dars tipi qanday bo'lishidan qat'i nazar, dars samarali bo'lishi uchun uni tuzilishi haqida o'ylashi zarur.

Aralash dars tipi quyidagi bosqichlardan iboratdir:

Tashkiliy bosqich. Didaktik vazifasi — o'quvchilarni darsga tayyorlash. O'tilganlarni takrorlash bosqichi. Didaktik vazifasi — tekshirish.

Aktiv o'quv bilish faoliyatiga tayyorlash bosqichi. Didaktik vazifasi — o'quvchilarni bilish faoliyatiga tayyorlash.

Yangi bilimlarni o'zlashtirish bosqichi. Didaktik vazifasi — o'quvchilarda hodisa, jarayon, tushunchalar to'g'risida tasavvurlarni shakllantirish.

O'quvchilarni yangi materialni tushunganligini tekshirish bosqichi.

Bilimlarni mustahkamlash bosqichi. Didaktik vazifasi — bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha o'quvchilar faoliyatini tashkil etish.

Bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish bosqichi.

Bilimlarni nazorat qilish bosqichi.

Uy vazifasi haqida axborot berish bosqichi.

Bosqichlar dars tiplariga qarab o'zgarishi mumkin.

Ma'ruza - bu, o'qituvchi tomonidan bilimni bayon etish. Ma'ruzada keng hajmli bilim monologik yo'l bilan bayon qilinadi. Qoidaga ko'ra, ma'ruza metodi yuqori sinflarda qo'llanadi. Ma'ruzaning mohiyati shundaki, u o'quvchilarning bilimni to'liq va tugallangan, mantiqan, o'zaro bog'liq holda o'zlashtirishiga yordam beradi.

Hozirgi davr pedagogik tajribada ham, ma'ruza bahs metodi qo'llanilmoqda. Bu metod o'quvchilarning mustaqil fikrlash, o'z mulohazalarini isbotlash, asoslashni bilishlarida muhim omil bo'layapti. Zero, puxta tayyorgarlik bilan uyushtirilgan bahs o'quvchilarning ta'lim va tarbiyada muammoni chuqur tushunish yo'llarini, unga nisbatan o'z fikr-mulohazalarini himoya qilishni, boshqalar fikri bilan hisoblashish odobini egallashlarida alohida ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim tizimida ma'ruza o'quv jarayonining ham usuli, ham shakli hisoblanib, u talabalarga fan asoslarini og'zaki, uzviy va muntazam singdirishga xizmat qiladi. Ma'ruza tufayli talaba shu fanning mohiyatini tushunib boradi hamda ularni erkin fikrlashga, fan ustida o'ylashga majbur etadi. Shu sababli ma'ruza ilmiy tafakkurni rivojlantirishning o'ziga xos maktabiga aylanadi. Ma'ruzani shunday o'qish lozimki, uning ta'sirida talabalarda shu fanga uning vazifa va kelajagiga nisbatan turli qarashlar, ilmiy e'tiqod, g'oya va milliy mafkura asoslari shakllansin. Buning uchun o'qituvchi har bir ma'ruzaning mazmunini fandagi yangiliklar bilan boyitishi va tanlay bilishi lozim. Ma'ruza ijobiy hamkorlikka tayanib tashkil qilingandagina samarali natija beradi. Buning uchun ma'ruza jarayonida ham ta'limiy, ham tarbiyaviy vazifalarni samarali amalga oshirish yo'llaridan biri - o'qituvchi bilan talabalar o'rtasida do'stona, faol munosabatlarni tiklab olinishdan iborat.

Ma'ruzaning mazmunli, samarali bo'lishi uchun:
aniq, o'ylab tuzilgan rejani o'quvchilarga tanishtirish;
rejaning har bir qismi bo'yicha berilgan ma'lumotni yakunlash;
o'quvchilarga bayon tushunarli va ko'rgazmali, yorqin bo'lishi;
bayon o'quvchilarda muhim o'rinlarni bilib olishga qiziqish uyg'otadigan bo'lishi kerak.

Ma'ruzani shunday o'qish lozimki, buning ta'sirida talabalarda shu fanga uning vazifa va kelajagiga nisbatan turli qarashlar, ilmiy e'tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi darkor shunday ekan,

o'qituvchi ma'ruza o'qish jarayonida tinglovchilarning tarkibini hisobga olgan holda, uning ilmiy tomoniga alohida e'tibor berishi va talabalarning qiziqishi va intilishlariga quloq solishi lozim.

O'qilayotgan ma'ruzalarning tarbiyaviy ta'sirining ya'nada yuksak bo'lishi o'qituvchining yoshlar oldidagi obro'siga, shaxsiy sifatlariga, ilmiy iste'dodiga, ta'lim sohasidagi tajribasi, mahoratiga va talabalar bilan o'rnatilgan do'stona munosabatlariga bog'liqdir.

Bundan tashqari, dars va ma'ruzaning samarali natijasi o'quvchi hamda talabalarning o'quv jarayondagi ruhiy holatlarini qay darajada hisobga olinishiga ham bog'liq. Shunday ekan, ta'limni samarali tashkil etish, uning dars, ma'ruza va boshqa shakllaridan o'qitish jarayonida o'rinli foydalanishlari uchun shubhasiz, o'qituvchining pedagogik mahorati, pedagoglik madaniyati, o'z predmetini puxta bilishligi va o'quvchi talabalar bilan umumiy til topa olishligi g'oyat katta ahamiyatga egadir.

Ma'ruza, asosan ijtimoiy fanlarni o'qitish jarayonida qo'llanmoqda. Ma'ruza darslarini tashkil etish, ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan ishdir. Ma'ruza darsi tajribali, yuksak darajada pedagogik mahorat asosida tashkil etiladi. Ma'ruzadan faqat fan, o'quv predmeti asoslari borasidagi ma'lumotlar berib qolmasdan, balki o'quvchilarni ijtimoiy-g'oyaviy jihatdan tarbiyalab borish talab etiladi. Ma'ruza jarayonida asosiy e'tibor o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, bilim va faoliyat malakasini oshirishga qaratilgan.

Fanlarni o'qitish ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlari, laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim kabi shakllarda tashkil qilinadi. Ta'limni samarali bo'lishida yangi pedagogik texnologiyalar, masofali ta'lim, ta'limda texnik vositalardan foydalanish imkoniyatlari ochib berildi.

Ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni o'rgatish bilan birga talabalarga turli fanlarga oid darslik va o'quv qo'llanmalar ustida mustaqil ishlashni ham o'rgatish zarur. Bu o'z navbatida talabalarni ilmiy bilimlarni egallashlariga imkoniyat yaratadi. Turli o'quv predmetlarini o'qitish jarayonida talabalarga fan asoslarni chuqurroq egallashlari uchun hamda pedagogik muammolarni ilmiy - nazariy jihatdan o'rganib, ilmiy xulosalar chiqarishi uchun referat, kurs ishlari so'ng esa malakaviy ishlarni tayyorlashga o'rgatib boriladi. Ta'lim jarayonida texnik vositalardan foydalanishning afzallik

tomonlarni ham o'rgatib borish zarur. Chunki bugungi kunda axborot texnologiyalari, axborotlar kitobi, kompyuter va internetdan foydalanish hayotiy zaruriyatga aylanib bormoqda.

Fanlarni o'qitishda amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari hamda ma'ruza darslarida foydalaniladi.

Talabalarning yana bir yozma ijodiy ishlari turli mavzularda ma'ruzalar yozishdir. Ma'ruza mavzusi ma'lum bir muammo va masalaning hal etilishiga qaratilgan bo'lib, o'quvchilar shu mavzuga oid mustaqil o'qib, o'rgangan materiallar yuzasida o'z nuqtayi nazarlarini ifodalaydilar va shu qarashlarini misol va dalillar bilan isbot qiladilar.

Grafik ishlari ham talabalarning yozma ishlari jumlasiga kiradi va o'quvchilarning o'zlashtirgan, o'zlashtirayotgan bilimlarni ongli va mustahkam esda saqlab qolishlariga, tegishli ko'nikma, malakalar hosil qilishlariga yordam beradi. Laboratoriya mashqlari davomida talabalar fan bo'yicha olgan nazariy bilimlarini mavzular bo'yicha aniq topshirmalar asosida individual qo'lda ishlanmalarni tayyorlaydilar. Natijada har bir talabaning bajargan ishi o'qituvchi tomonidan nazorat qilinib baholanadi.

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqib, oliy maktab o'qituvchilari ikki muhim amaliy vazifani - talabalarga hozirgi zamon ilmiy, ijtimoiy, texnik va texnologik axborotlarni berish va ularni ana shu axborotlarni o'zlari topib egallash ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishlari lozim. Seminar, laboratoriya, maslahat (konsultatsiya) mashg'ulotlari talablari mustaqil, ijodiy ishlashga o'rgatishning muhim omili hisoblanadi.

Seminar mashg'ulotlarining samarali natijalar berishi:

talaba va o'qituvchining tayyorlanishiga;

seminar mashg'ulotlarini o'tkazish mahoratiga;

seminarda barcha talabalar qatnashishini ta'minlash;

har bir talabaning javobi baholanishi;

seminar mashg'ulotida interaktiv usullardan foydalanish.

Seminar mashg'ulotlarining vazifasi - darslarda bayon qilingan nazariy fikrlarni konkretlashtirish, chuqurlashtirishdan, o'quvchilar bilimini tekshirish va mustahkamlashdan, adabiyotni o'rganish ko'nikmasini hosil qilish, uni konspekt qilish, suhbatlar, dokladlar, ota-onalar uchun konsultatsiyalarning reja va konspektlarini

tuzishdan, kursning aniq temasini ogʻzaki bayon qilish qobiliyatiga ega boʻlishdan iboratdir. Seminar mashgʻulotlari uchun kursning eng muhim va murakkab masalalari shuningdek, adabiyotlarda yetarli darajada toʻliq yoritilgan va oʻquvchilarning oʻzlari mustaqil ravishda oʻrgana olishlari mumkin boʻlgan masalalar tanlab olinadi. Seminarning har bir temasi boʻyicha oʻquvchilarga adabiyotlar roʻyxatini berish, topshiriqning xarakterini belgilash, uni bajarish rejasi va hisobot formasini koʻrsatish kerak. Adabiyotlarni oʻrganayotganda oʻquvchilar konspekt yoki ota-onalar uchun konsultatsiyalarning mavzularini tuzadilar. Seminar mashgʻulotlarini quyidagicha tashkil etish mumkin: avvalo oʻqituvchi seminarning vazifasi va uni oʻtkazish tartibini belgilaydi. Soʻngra nutq soʻzlash uchun oʻquvchilarga soʻz beradi. Shundan keyin ishtirok etuvchilar nutq soʻzlaganlarga savollar beradi, ular javob qaytarishadi. Keyin boshqa oʻquvchilar nutq mazmuniga xarakteristika berib, uni toʻldiradilar (yutuq va kamchiliklar koʻrsatiladi). Oʻqituvchi seminarni yakunlar ekan, asosiy nutqni baholaydi.

Oʻquv yurtlari oʻquv rejalarida seminar mashgʻulotlarini amaliy mashgʻulot deb hisoblanadi. Bunga qoʻshilib boʻlmaydi, chunki maʼruza mashgʻulotida oʻrgana boshlangan ijodiy materialni seminar mashgʻulotlarida yanada chuqurlashtiriladi, seminar mashgʻulotlariga talaba oldindan tayyorlanib keladi, muammoni muhokama etadi: seminar mashgʻulotida talabalarning barchasini oʻz fikr va mulohazalarini erkin ayta olish, sheriklarining qarashlarini tahlil eta bilishiga asosiy eʼtibor qaratiladi.

Oʻquv materialini talabalar tomonidan egallab olish darajasi:

maʼruza mashgʻulotlarida umum nazariy tahlillarni egallab olish;

seminar mashgʻulotlarida muammolarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish;

d) laboratoriya mashgʻulotlarida esa amaliy koʻnikma va malakalarni vujudga keltirish.

Oliy maktablarda seminar mashgʻulotlari quyidagi didaktik vazifalarni hal qilishga qaratiladi:

oʻta murakkab mavzu, muammolarni chuqurlashtirish, aniqlashtirish;

mavzu va muammolarni talabaning boʻlajak kasbiy yoʻnalishi, ixtisosligida qoʻllashga oid bilimlar bilan qurollantirish;

talabalar egallab kelgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga tamoyillashtirish;

mavzu, muammolarga oid manbalar bilan ishlash, ko'nikma va malakalarni o'stirish;

o'z qarash, munosabatlarini erkin aytish, mulohaza qilishga, nutq madaniyatini tarbiyalashga xizmat qilish;

talabalar bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat etish.

Seminar mashg'ulotlarini suhbat, munozara, o'quv konferensiya, simnodizm loyihalarni himoya qilish, chiqishlarni tinglash, muhokama etish, yetuk muta- xassislar bilan uchrashuvlar xilma-xil ishchi o'yinlari tarzida o'tkazish mamkin.

Seminar mashg'ulotlarini tayyorlab o'tishida o'qituvchining roli beqiyos katta. O'zining kirish so'zi bilan talabalar oldiga aniq maqsad va vazifalarni qo'yadi: ularni faol ishtirok etishlariga jalb etadi; barcha talabalarni faol bildirishlariga sharoit yaratadi; mashg'ulot oxirida muhokamada qatnashgan har bir talaba fikrlari tahlil etib, baholanishi lozim.

Seminar mashg'uloti odatda, talabalarga yangi mashg'ulot mavzusi, rejalari, adabiyotlarini bildirish, uni tayyorlash yo'llari, o'ziga xos tomonlarini tushuntirish bilan yakunlanadi.

Seminar darslarida ma'ruza vaqtida fan asoslari bo'yicha olgan nazariy bilimlari tahlili o'rganiladi.

Demak, oliy o'quv yurtlaridagi o'qitishni tashkil etishning shakl va metodlari orqali talabalarda pedagogika fanini o'qitish metodikasi yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarni hamda ularni dunyoqarashlarini shakllantirish orqali kasbiy tayyorgarliklarni mustahkamlab boriladi. Oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayonini tashkil etishning maslahat (konsultatsiya) shaklidan keng foydalaniladi. Ma'ruza mashg'ulotlariga kam vaqt ajratilishi; amaliy mashg'ulotlar uchun ko'p soat berilishi, talabalar mustaqil ta'limiga ko'p e'tibor berilishi ham har bir o'quv fani mazmunida axborotlarning tez o'zgarishi, ta'lim amaliyotida o'qituvchilarning maslahat shaklidan unumli foydalanish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

O'quv materialni puxta idrok etish va mazmunini to'laroq talabalar tomonidan anglab yetishlari maqsadida o'quv predmetlaridan amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari tashkil etiladi. Bugungi kunda ijtimoiy gumanitar predmetlardan ham amaliy,

laboratoriya mashg'ulotlari tashkil etish an'anaga aylanib borayotganini ta'kidlash lozim. Chunki, laboratoriya mashg'ulotlarida o'qituvchilar rahbarligida oldindan belgilangan aniq reja, topshiriqlar asosida nazariy materialni talabalar to'la idrok etib va mazmun-mohiyatini chuqur tushunadilar.

8.4. Ta'lim turlari

Ta'lim muassasalari amaliyotida qator belgi va xususiyatlarga ko'ra farqlanuvchi ta'lim turlari mavjud. Ta'lim turi — bu ta'lim tizimida o'qitish va o'qish faoliyatlari xususiyatlarini umumlashgan xarakteristikasini, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro aloqalari xarakterini, ta'lim vositalari, metodlari, shakllarini qo'llash vazifalarini ifodalaydi.

Ta'lim turi pedagogik texnologiyalar orqali aniqlanadi. Ta'lim turlari quyi- dagilarga bo'linadi: izohli tushuntirish, dogmatik, muammoli, dasturlashtirilgan, rivojlantiruvchi, evristik, shaxsga yo'naltirilgan, kompyuterli, modulli, masofali, predmetlararo.

Izohli-tushuntirish (an'anaviy, oddiy) ta'lim - bu ta'limning shunday turiki, bunda bilim beruvchi bilimlarni tayyor holda so'z orqali tushuntirish va ko'rsatish orqali uzatishi bilan xarakterlanadi, o'quvchilar qabul qiladilar va o'zlashtiradilar.

Dogmatik ta'lim — bu ta'lim turida qabul qilinayotgan ma'lumotlar isbotsiz qabul qilinadi.

Muammoli ta'lim — ta'limni ushbu turida o'qituvchi tomonidan o'quvchilar oldiga muammoli vaziyatlarni hosil qilib, o'quvchilar tomonidan muammolarni hal etish orqali yangi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllanishiga, qobiliyatlarini, faolligini, ijodiy tafakkurini rivojlanishiga erishiladi

Rivojlantiruvchi ta'lim — o'quvchilarni rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim turi hisoblanib, bunda asosiy e'tibor nazariy bilimlarga qaratilgan holda, ta'lim tez va yuqori darajada qurilib, o'quvchilarni o'qitishda materialni ongli anglashni, maqsadga yo'nalganlikni, samaradorlikni, tizimlilikni ta'minlaydi.

Evristik ta'lim — muammoli va rivojlantiruvchi ta'lim prinsiplariga asoslanib, ta'limni o'quvchilarni o'qish faoliyatlarini ijodiy tadqiqotchilik izlanuvchanlik asosida tashkil etilishini ifodalaydi. Bunda o'quvchilarga o'zlarini namoyish qilish uchun imkoniyatlar yaratiladi.

Shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim — bu taʼlim turida taʼlim dasturlari va oʻquv jarayoni har bir oʻquvchining bilish qobiliyatlariga yoʻnaltirilishi bilan xarakterlanadi.

Dasturlashtirilgan taʼlim — bu oʻqitish va oʻqish faoliyatlarini dasturlashtirishga asoslanganligi bilan xarakterlanib, bunda taʼlim mazmunini sifatli oʻzlashtirilishini, nazorat qiliishini taʼminlovchi dasturlar asosida taʼlimni tashkil etishni ifodalaydi.

Modul taʼlim — taʼlim mazmunini toʻliq oʻzlashtirilishini taʼminlovchi oʻquv maʼlumotlarni modul orqali oʻrganishni taqozo etadi.

Masofali taʼlim — taʼlim maqsadiga minimal vaqt sarflab, maksimal darajada taʼlim mazmunini oʻzlashtirishni individual tarzda informatsion taʼlim jarayoni sharoitida oʻzlashtirishga erishishni taʼminlaydi.

Predmetlararo taʼlim — bu taʼlim turi integratsiyalashgan oʻquv predmetlarini oʻzlashtirishga asoslangani bilan xarakterlanadi.

8.5.STEAM taʼlim

STEAM anʼanaviy oʻqitishga muqobil yondashuv hisoblanadi. Bunda bolalar Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (sanʼat) va Mathematics (matematika)ni fanlararo bogʻlanishlar va amaliy yondashuvga asoslangan holda oʻrganadilar. STEAM oʻquvchilarning loyiha va oʻquv-tadqiqot faoliyatini maktabda va maktabdan tashqarida amalga oshirilishi imkonini beradi.

STEAM taʼlimi Amerikada ishlab chiqilgan. Ayrim maktablar oʻz bitiruvchilarining keyingi faoliyatini kuzatib, tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik mahorati, matematika fanlarini integratsiyalashga qaror qilishdi, shunday qilib, STEM (Science, Technique, Engineering and Math) tizimi yuzaga keldi. Keyinchalik unga sanʼat (Art) qoʻshildi, endilikda STEAM oxirigacha shakllandi. Oʻqituvchilarning fikricha, bu fanlardan egallangan bilimlar oʻquvchilarning kelajakda yuqori malakali mutaxassislar boʻlib yetishishlariga yordam beradi.


STEAM yondashuvining asosiy gʻoyasi quyidagicha: amaliyot nazariy bilimlar kabi muhimdir. Bunda oʻquvchilar taʼlim jarayonida nafaqat oʻz aqlini, balki qoʻllarini ham ishlatishga majburdirlar. Sinf xonasidagi taʼlim olish jarayoni jadal rivojlanayotgan olam oʻzgarishlaridan ortda qolmoqda. STEAMyondashuvining asosiy

xususiyati shundaki, bunda o‘quvchilar ko‘pchilik fanlarni samarali o‘rganishda aqli hamda qo‘llaridan foydalanishadi, bilimlarni mustaqil “egallashadi”. O‘quvchilar o‘quv mashg‘ulotlarida tajribalar o‘tkazishadi, modellarni konstruksiyalaydi, musiqa va filmlarni mustaqil yaratishadi, robotlarni yasashadi, ya’ni o‘z g‘oyalarni amalga oshiradilar va mahsulot yaratishadi.

O‘quvchilar qo‘l mehnati bilan yasalgan biologik ob’ektlar

Tishning tuzilishi Virusning tuzilishi

Ishchi arining tuzilishi



STEAM ta’lim muhitida o‘quvchilar egallagan bilimlaridan o‘sha zahotiy oq amalda foydalanishlari sababli ular ulg‘ayib, voyaga yetgach, real hayotda uchraydigan turli muammolarga duch kelishganida, masalan, atrofmuhit ifloslanishi bo‘ladimi, iqlim o‘zgarishimi, shu kabi murakkab muammolarni yechish uchun faqatgina turli fan sohalari bo‘yicha egallagan o‘z bilimlariga suyanishlari va hamkorlikda ishlashlari zarurligini tushunishadi. Bunda bitta fan doirasidagi bilimlargagina tayanish yetarli bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, STEAM yondashuvi fikrlash uslubi hamdir.

STEAM ta’limida o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta e’tibor berilishi natijasida ularning hamkorlikda ishlash, ijodiy qobiliyati rivojlanadi, irodasi mustahkamlanadi. Aynan shunday bilim va ko‘nikmalar o‘qitishning asosiy vazifasi bo‘lib, butun o‘qitish tizimi shunga intiladi.

AQSH, Singapur, Koreya, Avstraliya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Isroil kabi ko‘pgina mamlakatlarda STEAM-ta’limi sohasida davlat dasturlari amalga oshirilmoqda.

Har kuni yangidan-yangi ish turlari, shuningdek, yangi mutaxassislik sohalari paydo bo'lishidagi, bu bugungi kun pedagoglarini o'ylashga majbur qilishi kerak. Ular o'qitayotgan o'quvchilarining bilim va malakalari hozirgi zamon talabiga mos keladimi?

Ko'pgina mamlakatlarda STEAM-ta'limi quyidagi sabablarga ko'ra yuqori baholanadi:

yaqin yillarda dunyoda IT-mutaxassislari, dasturchilar, muhandislar, yuqori texnologik ishlab chiqarish mutaxassislari va boshqa shunga o'xshash mutaxassisliklarning keskin yetishmovchiligi yuzaga keladi;

kelajakda hozir tasavvur ham qilish qiyin bo'lgan kasblar yuzaga keladiki, ularning barchasi tabiiy fanlar bilan bog'liq holda texnologiya hamda yuqori texnologik ishlab chiqarishga oiddir. Ayniqsa, bio- va nanotexnologiya mutaxassislariga ehtiyoj ortadi;

kelajak mutaxassislari har tomonlama tayyorgarlikka ega bo'lgan va ta'limning turli sohalari: tabiiy fanlar, muhandislik va texnologiyadan bilimlarga ega bo'lishlari talab qilinadi.

STEAM ta'limi egallangan bilimlarni real ko'nikmalar bilan chog'ishtirishga o'rgatadi. U o'quvchilarning qandaydir fikrlarni o'ylab topishlarinigina emas, asosiysi fikrlarini haqiqatda amalga oshirishga imkon beradi.

Massachuset texnologik instituti (MIT) STEAM yondashuvga yorqin misol bo'ladi. Bu universitetning shiori «Mens et Manus» («Tafakkur va qo'l») bo'lib, STEAM kurslari va bolalarning STEAM konsepsiyasi bilan oldindan tanishishlari uchun ba'zi o'quv muassasalarida STEAM mashq markazlarini ochgan.

2014 yilda Isroilning Quddus shahrida "STEAM forward" Xalqaro Konferentsiyasi bo'lib o'tdi. Unda quyidagicha bayonot berildi:

bolalarni STEAMga jalb qilish. Bunday ta'lim maktabgacha bo'lgan yoshdan boshlanishi zarur, shuning uchun dasturni bog'chalarga kiritish kerak;

fan tili - ingliz tili. Ilmni o'rganish va olim bo'lishni istaganlar bu tilni bilishlari kerak;

qizlar uchun STEAM-ta'limi dasturlari kerak. Qizlar tabiatan e'tiborli, tartibli bo'lganliklari uchun ilmda ko'p narsaga qodirdirlar;

ilm xursandchilik bo'lishi kerak, u o'quvchilarni qiziqтира olishi va jalb etishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, STEAM o'quvchilarni tajribalar o'tkazish, modellarni konstruksiyalash, musiqa va filmlarni mustaqil yaratish, o'z g'oyalarini amalga oshirish va mahsulot yaratishni rag'batlantiradi. O'qitishga bunday yondashuv bolalarga nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini samarali chog'ishtirish imkonini beradi. O'quvchilarning ijodkorligini oshiradi, yuqori malakali, zamon talabiga mos kadrlar tayyorlashda mustahkam poydevor bo'ladi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Hozirgi vaqtda ta'limni tashkil etishning qanday shakllari keng tarqalgan?

2. Ta'limni tashkil etishning individual tizimiga izoh bering.

3. Sinf-dars tizimining afzalligi va kamchiliklari nimalarda namoyon bo'ladi?

4. Ma'ruza-seminar tizimining o'ziga xosligini izohlang.

5. Dars deb nimaga aytiladi?

6. Darsning qanday turlari mavjud?

7. Darsga qo'yiladigan talablarni tushuntirib bering.

8. O'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rishi qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?

9. Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllariga nimalar kiradi?

9-MAVZU: O'QUVCHILAR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKLARINI TASHXIS ETISH

Tayanch so'zlar: *diagnostika, tashxis, nazorat, hisobga olish, tekshirish, baholash, baholash mezonlari.*

9.1. Ta'lim sifatini tashxislash

Ta'lim jarayonining ajralmas komponenti tashxis hisoblanib, uning yordamida qo'yilgan maqsadlarga erishilganlik aniqlanadi.

Tashxisiz didaktik jarayonni samarali boshqarish imkoniyati mavjud emas. Tashxis — bu didaktik jarayon natijalarini aniq belgilash.

«Tashxis» tushunchasi o‘quvchilar «bilim, ko‘nikma, malakalarni tekshirish» tushunchasiga qaraganda keng va chuqur ma'noga ega. Bilim, ko‘nikma, malakalarni tekshirish natijaning o‘zigagina tegishli, uning sabablariga izoh bermaydi. Tashxislash natijalarni didaktik jarayon dinamikasidan, tendensiyalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqadi.

Nazorat, tekshirish, baholash tashxisning asosiy komponentlari hisoblanadi. Tashxis orqali statistik ma'lumotlar to'planib, tahlil qilinib, didaktik jarayon rivojlanish dinamikasi va tendensiyalari aniqlanadi.

Tashxisning asosiy komponenti nazorat hisoblanadi. Nazorat -bu bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish jarayonini kuzatish. Nazoratning asosiy qismi tekshirish hisoblanadi. Tekshirish - bu o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma, malakalarni baholash uchun bajariladigan harakatlar va operatsiyalar tizimi.

Mohiyatiga ko‘ra nazorat o‘quvchilarni o‘quv faoliyati natijalari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni olish, ya'ni ta'limda teskari aloqani o‘rnatilishini ta'minlaydi. O‘qituvchi o‘quvchini bilimlarni qay miqdorda yoki qay darajada o‘zlashtirganligi haqidagi ma'lumotga ega bo‘ladi. Shu bilan birga o‘qituvchi o‘quvchining mustaqil o‘quv faoliyati xarakterini bilib oladi.

Nazorat davomida o‘quvchi o‘zining o‘quv faoliyati to‘g‘risidagi ma'lumotga ega bo‘ladi. Nazorat o‘quvchiga bilimlarni o‘zlashtirish orqali nimaga erishganini tushunishiga hamda o‘z kamchiliklarini anglashiga yordam beradi.

Ta'lim jarayonining muhim bosqichlaridan biri o‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat, hisobga olish va baholashdir. Uning maqsadi: O‘quv materialini egallab olish sifatini; shakllantirilgan ko‘nikma va malakalarining o‘quv-predmetining maqsad va vazifalariga qanchalik mos kelishi darajasi aniqlashdir. Bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat etish jarayonida o‘quvchilarning o‘quv mehnatiga javobgarlik munosabati tarkib topadi, ta'lim usullarini samaraliligi belgilanadi.

Oliy o‘quv yurtlarida nazoratining bir qancha turlari: Tanlov (kirish, testi, olimpiada, tanlovlar) o‘quv (nazorat ishlari, bitiruv

malakaviy ishlar, testlar). O'quv yurtlari esa, dastlabki, joriy, tematik, davriy va yakuniy bo'lishi mumkin.

Nazoratning har bir turi o'ziga xos funktsiya, mazmunga ega.

Bilim, ko'nikma, malakalarini hisob-kitob qilish funktsiyasi - talabalar tomonidan bilimlarni hajmini aniqlash emas, shu bilan birga bilish usullarini, empirik va nazariy fikrlash, muammolarni hal qilish usullarini egallab olish darajasini ham aniqlaydi.

Nazoratning o'rgatuvchanlik funktsiyasi - talabalar javoblarni tahlil etish orqali ularda o'quv materialini egallab olish, muammoni hal etishning yangi usullarini ham o'rgatadi.

Tarbiyalovchilik funktsiyasi - egallab olingan bilim, ko'nikma va malakalar hajmini aniqlash orqali talabalarda faollik va mustaqilligi darajalarini belgilaydi va uni rivojlantirish kelajagi rejalarini aniqlash imkonini beradi.

Teskari aloqa o'rnatish funktsiyasi - o'qituvchi nazorat vaqtida o'z fanini o'qitishning kelgusidagi yanada takomillashtirish uchun imkoniyatga ega bo'ladi.

Ma'lumki, teskari aloqa bilish faoliyatning muhim tarkibiy qismi bo'lib, talaba o'z-o'zini nazorat qilish natijasida amalga oshiriladi. Shuning uchun talabaga bilim, ko'nikma va malakalarini o'zi nazorat qilish usullari bilan qurollantirish lozim. Nazoratning test, xilma-xil vaziyat, topshiriqlar tizimi bilan qurollantirish talab etiladi.

Bilimlarni tekshirish va baholash — ta'lim jarayonini ajralmas qismidir. U darslarda o'quvchilarni o'quv faoliyatini og'zaki yoki yozma nazorat qilish yo'li orqali amalga oshiriladi. Tekshirish va baholash yordamida o'quvchilarni bilimlarni qay darajada o'zlashtirganliklari o'quvchilarni yutuq va kamchiliklari, o'qituvchi faoliyati samaradorligi aniqlanadi.

Darsdagi intizom o'quvchilarni ta'limga munosabati, o'quvchilarni mustaqilligi, tashabbuskorligi, mehnatsevarligi ko'p jihatdan bilimlarni tekshirish va baholashga bog'liq.

Bilimlarni tekshirish va baholash quyidagi vazifalarni bajaradi:

Nazorat qiluvchi (har bir bosqichda bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish keyingi bosqichga tayyorgarlikni ifodalaydi).

Ta'limiy (o'quvchi o'rtog'ini javobini tinglaganda ham uning bilish qobiliyati rivojlanadi).

Tarbiyaviy (o'quvchilar mehnat qilishga, mustaqil ishlashga o'rganadilar).

Tuzatuvchilik (o'quv-tarbiyaviy jarayonni tuzatish uchun imkoniyatga ega bo'linadi).

Axborot beruvchi (ota-ona bolasining yutuq va kamchiliklaridan xabardor bo'ladi).

Ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida o'quvchilar bilimni tekshirish va baholash tizimli va doimiy ravishda amalga oshirilishi lozim.

Bilimlarni tekshirish va baholashni obyektivligiga ta'sir etuvchi omillar.

Bilimlarni tekshirish jarayonida ta'lim natijasida erishiladigan maqsadni bir xil, umumiy tushunilmaydi. Ta'lim maqsadi o'qituvchilar tomonidan keng, har xilda shakllanadi:

Fan asoslaridan puxta bilim berish.

Mantiqiy tafakkurni shakllantirish.

O'quvchilarni bilish faolligini shakllantirish.

Nazorat obyektlarining har xilligi bahoni asoslanishiga ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Ayrim o'qituvchilar uchun baho obyekti bu o'quvchi o'zlashtirgan o'quv material, boshqalar uchun esa, bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyati hisoblanadi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilish va tashxislash tamoyillari quyidagilardir:

xolislik (obyektivlik);

tashxis testlari (topshiriqlari, savollari)ga asoslanish;

tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi;

pedagogning barcha o'quvchilarga do'stona munosabatini, bilim, ko'nikma, malakalarini baholashdan aniq maqsadning ko'zlanishi;

tizimlilik (mazkur tamoyil ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida bilimlarning o'zlashtirilishi, ularni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan davrlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mavjudligini anglatadi);

oshkoralik (barcha o'quvchilarni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tkazilishini anglatadi; tashxis jarayonida belgilanadigan har bir o'quvchining reytingi oshkoralik xarakteriga ega; oshkoralik tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivatsiyalashni ham talab etadi).

Nazorat etish, baholash turlari va bosqichlari. Har qanday nazoratning turi, usuli teskari aloqani vujudga keltirishga xizmat qiladi. Shuning uchun nazorat tizimida xilma-xil usul va turlaridan foydalanish lozim.

Nazorat usullari: Bilimlarni ogʻzaki nazorat (hisobot, referat, nazariy, kurs, bitiruv ishlari, ijodiy ishlar, matnlar, tezislar); grafik (chizmalar, kurs va bitiruv loyihalari, eskizlar, chizmalar): programmalashtirilgan nazorat (mashina va mashinasiz):

baholash komponentlari;

baholash maqsadini aniqlash;

natijalarni aniqlashga xizmat qiladigan nazorat topshiriqlarini tanlash.

Talabalar bilim, koʻnikma va malakalarni nazorat qilish teskari aloqani vujudga keltiradi. Bu eng avvalo talaba uchun kerak, chunki, nazorat va oʻz - oʻzini nazorat natijalariga qarab talaba bilim, koʻnikma va malakalarni ongli egallab olishlariga xizmat qiladi. Oʻqituvchi uchun esa, nazorat natijalari oʻquv bilim faoliyatini oqilona boshqarishni yoʻlga qoʻyish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonida nazoratga quyidagi pedagogik talablar qoʻyiladi:

nazoratni individual xarakterda boʻlishi;

ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida nazoratni tizimli, doimiy boʻlishi;

nazoratning turli shakllaridan foydalanish;

nazoratning har tomonlamaligi (oʻquvchilarni nazariy bilimlarini, intellektual va amaliy koʻnikma va malakalarini tekshirishni ta'minlaydi);

nazoratni obyektivligi;

nazoratni tabaqalashgan yondashuv asosida tashkil etish.

9.2.Oʻquv faoliyati natijalarini baholash va qayd etish

Oʻquvchilarning oʻquv-biluv faoliyatlari nazorati natijalari oʻqituvchi tomonidan qoʻyilgan baholashda oʻz ifodasini topadi. Baholash —bu bilim, koʻnikma, malakalarni oʻzlashtirilganlik darajasini aniqlash. Baholashning miqdoriy ifodalanishi bahoda aks etadi.

Baho — bu oʻquvchilarni bilim, koʻnikma, malakalarini raqam va ballar orqali shartli ifodalash miqdori.

Ta'lim natijasi nafaqat baho orqali, balki boshqa vositalarda ham baholanishi mumkin. Masalan, og'zaki maqto'v, minnatdorlik bildirish, faxriy yorliq yoki medallar bilan taqdirlash orqali amalga oshirilishi mumkin.

Bilim sifatini aniqlashdagi yagona yondashuv obyektiv baholash hisoblanadi. Bilimlarni baholash o'quvchiga ta'sir etishning eng nozik jihatlarini ifodalaydi. Bilimga o'ta yuqori darajada baho qo'yish o'quvchini bilim olishga ruhlantirishi mumkin, lekin taltaytirib yuborishi ham mumkin. O'quvchiga past baho qo'yish o'quvchini bilimlarni olishga yo'naltirishi ham, qiziqishini pasayishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini reyting tizimida nazorat etish va baholash yo'llari. Talabalar o'quv- bilim faoliyati natijalarini reyting usulda nazorat va baholashning an'anaviy usullardan afzalligi shundaki, u talabani uzluksiz, mustaqil o'qishga o'rgatadi, ularda o'quv ishlari o'rganiladi, muvaffaqiyatli intilishni shakllantiradi. Reyting tizimida yozma, og'zaki baholash bilan birga test sinovlaridan keng foydalanilmoqda. Uning afzalliklari:

Nazorat va baholashning xolis instrumenti, uni to'g'ri tashkil etish, uning natijalari testlashtiruvchining shaxsiga bog'liq bo'lmaydi.

U texnologik xususiyatga ega, to'la guruhni keng qamrovli material asosida nisbatan qisqa vaqt davomida yalpi baholash imkonini beradi.

Testlashtirish, natijalarini tahlil etish va rasmiylashtirish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun qulay.

Natijalarni kompyuterga kiritib avtomatik ravishda tahlil qilish imkoniyati mavjud.

Sinovdan o'tuvchiga moslashuvchi kompyuter test sistemalaridan foydalanish imkoniyatlari ham mavjud bo'lib, ulardan keyingi topshiriq sinaluvchini avvalgi topshiriqni qay darajada bajarganligiga qarab beriladi.

Oliy o'quv yurtlari faoliyatiga reyting tizimini kirib kelishi, pedagogik testlardan butun o'quv jarayonida uzluksiz foydalanish imkoni vujudga keldi. Bugungi kunda barcha fanlar bo'yicha sifatli testlar bankini yaratish zaruriyati bor. Chunki, sifatli testlarni faqat talabalar bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish darajasini aniqlashga, shu bilan birga ularning bilish faoliyatini kuchaytirishga

xizmat qiladi. Shuning uchun har bir o'qituvchi test madaniyatini egallash, o'zi o'qitayotgan fan bo'yicha testlarni talab darajasida tuza olishi zarur. Testlarning murakkablik darajasi, ishonchliligi, keng kuchliligi, validligi, didaktik aspektlari tushunchalarini o'qituvchilar anglab olishi lozim.

Baholashdagi kamchiliklar

Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida o'quvchilarni fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalarini o'zlashtirganlik darajalarini baholashda quyidagi subyektiv kamchiliklarni uchratishimiz mumkin:

- baholashda bag'rikenglik qilish;
- kayfiyatga qarab baho qo'yish;
- baholashda aniq mezonlarning yo'qligi;
- baholashda tizimni yo'qligi;
- boshqalar bahosiga qarab baho qo'yish;
- bolani xulq-atvorini inobatga olib baho qo'yish;
- bahoni ko'tarish yoki pasaytirib qo'yish v.b.

Yuqoridagi baholash jarayonidagi kamchiliklarga yo'l qo'yish baholashdagi obyektivlikni yo'qolishiga olib keladi. Bunday holatlar o'quvchilarni bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini pasayishiga sabab bo'ladi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *Bilim, ko'nikma va malaka tushunchalarini ta'riflang.*
2. *Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati nimadan iborat?*
3. *Ta'lim jarayonida nazorat va hisobga olish, ularning vazifalarini belgilang.*
4. *Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillarini ayting.*
5. *Qaysi nazorat turlari mavjud?*
6. *Baho funksiyalarini izohlang.*
7. *Baholash mezonlarini tushuniring.*
8. *Nazorat qilish metodlarini tasniflang.*
9. *Yozma va og'zaki so'rovning qanday yutuq va kamchiliklari mavjud?*

10-MAVZU: TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI. TARBIYA QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI

Tayanch tushunchalar: tarbiya, tarbiya jarayoni, tarbiya konsepsiyalari, tarbiya qonuniyatlari, tarbiya prinsiplari.

10.1. Tarbiya tushunchasi, tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari.

Tarbiya nazariyasi tarbiya jarayonini pedagogik jarayon sifatida o'rganuvchi pedagogikaning ilmiy sohasi hisoblanadi. Tarbiya nazariyasi tarbiya jarayonini pedagogik jarayon sifatida uning qonuniyatlarini va prinsiplarini, maqsadini, mazmunini, metod va vositalarini hamda shaklini, uning turli ijtimoiy institutlarda tashkil etilishini o'rganadi.

XX asrning 90-yillariga qadar pedagogika bo'yicha mutaxassislar pedagogika fanining predmeti tarbiya deb ta'kidlagan bo'lsalarda, XX asrning 90- yillaridan so'ng pedagogika fanining predmeti ta'lim deb hisoblab kelmoqdalar. Buning asosiy sabablaridan biri butun dunyoda ta'lim va tarbiya jarayonlarini ifodalash uchun ta'lim atamasi qo'llanilmoqda. Pedagogik adabiyotlarda tarbiyani to'rt xil ma'noda qo'llanilayotganini kuzatishimiz mumkin.

Tarbiya keng ijtimoiy ma'noda — ijtimoiy madaniy tajribalarni, me'yor va qadriyatlarni avloddan avlodga o'tishini ifodalaydi. Tarbiyaning ushbu ma'nosi sotsiologiya va boshqa xulq-atvor to'g'risidagi (falsafa, psixologiya, pedagogika) fanlardagi shaxsni ijtimoiylashuviga yaqinroq. Ijtimoiylashuv deganda insonni jamiyatdagi xulq-atvor normalarini o'zlashtirishini, ijtimoiy hayotda insonni barcha ta'sir etuvchi omillar natijasida ijtimoiy rivojlanish jarayonini tushunamiz. Tarbiya fanda shaxsni rivojlanishi, ijtimoiylashuvi omillaridan biri sifatida qaralib, tarbiyaviy tizim doirasida maqsadga yo'naltirilgan shaxsni shakllanish jarayoni sifatida aniqlanadi. Tarbiyaning tor ijtimoiy ma'nosi ijtimoiy institutlardagi tarbiyaviy ta'sirlarni ifodalaydi. Bundan tashqari, tarbiya keng va tor pedagogik ma'noda ham qo'llaniladi. Tarbiyaning keng pedagogik ma'nosi o'quv tarbiya muassasalaridagi shaxsni shakllanishini anglatadi, tor pedagogik ma'noda tarbiyani jarayon sifatida qaralishini ifodalaydi. Tarbiyani tor pedagogik ma'nosi aniq tarbiyaviy tizim doirasida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning

o‘zaro ta’sirida aniq insoniy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan, maxsus tashkil etilgan faoliyat tushuniladi. Bu yerda pedagoglar faoliyati tarbiyaviy ishlar deb yuritiladi. Shunday qilib, tarbiya nazariyasi pedagogik borliqda tarbiyani shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan, tashkillashtirilgan pedagogik jarayon sifatida o‘rganadi.

Pedagogik adabiyotlar tahlilidan o‘tmishda va hozirgi paytda tarbiyaga bo‘lgan turli ilmiy-amaliy yondashuvlar aniqlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu yondashuvlar yoki tarbiya konsepsiyalari bir tomondan qadimgi sivilizatsiya tajribasi hamda amaliyotida hozirda esa ijtimoiy-falsafiy, ijtimoiy hayot tajribasini ifodalaydi.

Hozirgi paytda pedagogik konsepsiyalar uchun metodologik asos sifatida quyidagi falsafiy ta’limotlarni ajratishimiz mumkin. Bularga: pozitivizm, pragmatizm, ekzistensializm, neopozitivizm, dialektik materializm ta’limotlari kiradi. Pozitivizm (ijobiy -lotincha positivus so‘zidan) - falsafiy idealizmning bir turi hisoblanadi. XIX asrda tarqalib, (O.Kant, St. Miller, G.Spenser), tomonidan obyektiv borliqni aks ettirmaydigan subyektiv sezgi va tasavvurlarning yig‘indisi deb, tushunilgan tajribaning ma’lumotlariga asoslangan. Pozitivizmning eng yirik namoyondalaridan biri Gerbert Spenser bo‘lib, u o‘zining pedagogik g‘oyalarini quyidagicha ifodalaydi; maktabdagi ta’lim ilmiy bilimlar sistemasiga asoslana olmaydi va asoslanishi ham mumkin emas, maktab asosan o‘quvchilarga utilitar (amaliy foydali faoliyatlarida kerak bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakalar) bilimlarni berishi kerak; maktabni asosiy maqsadi insonni ijtimoiy sharoitga moslashtirish uchun tarbiyalashdir; tarbiyaning butun bir sistemasi o‘quvchilar ongiga mavjud ijtimoiy munosabatlarning barqarorligi haqidagi fikrni singdirishi lozim.

asr oxirlarida Amerikada paydo bo‘lgan G.Spenserning progressiv ta’limoti bilan bir xil g‘oyaviy yo‘nalishda rivojlandi, biroq u tarbiyada «xususiy tashabbuskorlikni» va «erkin tadbirkorlikni» rivojlantirish ruhini kuchaytirdi. Progressivistlarning fikricha, bolalar motivlarini «spontan-begona ta’sirsiz paydo bo‘ladigan, bolalarni ichki dunyosi va ehtiyojlaridan kelib chiqadigan qiziqish va motivlar) namoyon bo‘lishi pedagogik jarayonning xarakterini belgilashi lozim, tarbiyaning vazifasi esa, bolalarning individual imkoniyatlarini rivojlantirishga har tomonlama yordam berishdan iborat. Insonning hayotga individual

moslashuvi haqidagi g'oya, G.Spenser ta'limotiga tegishli bo'lib, AQSH va Angliyada pedosentrizmning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib, pedosentrizm tamoyillarini shakllanishiga asos bo'ldi.

Pedosentrizm vakillarining fikricha, pedagogik jarayon bolalarning o'z qiziqish, istak, motivlaridan kelib chiqishi kerak.

Amerikalik mashhur pedagog Djon Dyui pedosentrizm nazariyasini rivojlantirib, pragmatizm nazariyasiga asos soldi. Uning fikricha, «tarbiya bolaning tajribasini tiklash, va qayta tashkil qilish»dir. Bolalarning to'plagan tajribalarini boyitish ularga muntazam bilim berib borishdan muhimroq vazifa hisoblanadi.

Eksistensialistlarning fikricha, maorif va o'qish mazmuniga tizimli hamda ilmiy yondashish, yagona talablar qo'yish foydasiz, hatto zararlidir, ular individning erkin o'sishiga to'sqinlik qiladi. Tarbiya va maktab faqat o'zining takrorlanmasligiga ko'ra nodir bo'lgan har bir inson shaxsiga «o'z-o'zini ifoda etishi va o'z-o'zini namoyon qilishi uchun sharoit yaratishi kerak, xolos; shaxs uchun «ong oqimi» uning shaxsiy sezgi va kechinmalari muhimdir, undan dunyoni va o'zini baholashi kelib chiqadi. Ekzistensializm nazariyasida shaxsni uning ijtimoiy aloqalari va munosabatlaridagina ajratib, shaxs go'yoki o'zining shaxsiy «men»idan, shaxsiy sezgilaridan va o'zining subyektiv tajribasidan jamiyat bilan o'zaro murakkab munosabatini hamda ijtimoiy vaziyatlar xarakterini baholashni keltirib chiqaradigan vaziyatni yaratishga intilishi yaqqol sezilib turadi.

Pedagogika shaxs va uning rivojlanishining psixologik nazariyalariga asoslanadi. Masalan, bixeviorizm, Vigotskiy va uni izdoshlarining tarixiy-madaniy maktabi, K. Rodjersning gumunistik psixologiyasini misol qilishimiz mumkin. XX asrda rivojlangan mamlakatlarda tor ko'rinishdagi tarbiya konsepsiyalari, aniqroq aytganda dolzarb, ijtimoiy siyosiy, insonparvar g'oyalari asosdagi dasturlar paydo bo'ldi. Bularga kommunikativ tarbiya, tinchlik ruhidagi tarbiya, yashash uchun tarbiya, madaniy tarbiya dasturlari kiradi.

Ta'lim tarixida va pedagogik nazariyalarda antik davrdan boshlab, u yoki bu alloma, pedagog nomi va ijodi bilan bog'liq bo'lgan tarbiyaning umumiy konsepsiyalari shakllangan. Bularga: Platonning ijtimoiy pedagogik utopiyasi, Ya.A. Komenskiyning umumiy tarbiya to'g'risidagi ta'limoti, J.J.Russoning erkin tarbiya

ta'limoti, I. Gerbart, K.D. Ushinskiy, Dj. Dyui, A.S. Makarenkolarning pedagogik tizimlari misol bo'la oladi.

Nemis mutaxassisi F. V. Kron tarbiyaga bo'lgan olti yondashuvni ko'rsatib o'tgan:

Tarbiya - o'ziga xos majburlashdir (Platon).

Tarbiya - hayot davomida bolaga yordam berish (Pestalotsi).

Tarbiya - bolani erkin rivojlanishi uchun sharoit yaratish (Russo).

Tarbiya - bolani nazorat va boshqarish (Gerbart).

Tarbiya - bolani tajrabali va katta odamlar tomonidan rahbarlik qilish.

Tarbiya - belgilangan me'yorlarni ishlab chiqarish (bixeviorizm).

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, tarbiya konsepsiyasi turli darajalarda, ya'ni falsafiy, ijtimoiy va psixologik ta'limotdan boshlab, zamonaviy va o'tmishdagi pedagoglarning mualliflik maktablarigacha. Mualliflik maktablari u yoki bu pedagogning yoki pedagoglar guruhining alohida g'oyalari va maqsadli konsepsiyalari qo'llaniladigan muassasalar hisoblanadi. Bugungi kunda tarbiyaning asosiy muammolaridan biri tarbiyada erkinlik va majburiylik munosabatidir. Boshqacha qilib aytganda, shakllanish jarayonini davlat, ta'limning maxsus tizimlari, maktab, odamni yoshligidan boshlab rivojlanishi, maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sirlarni samaradorlik imkoniyatlari bo'yicha rivojlanishni nazoratga olishi kerak. Har bir inson o'zining rivojlanishida, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishida va ehtiyojlarini qondirilishida jamiyatdan ozodmi yoki yo'qmi degan savol ijtimoiy-falsafiy sohada mavjud. Ushbu savolni hal etilishi turli darajalarda amalga oshiriladi. Bularga maxsus konsepsiya, mamlakatning ta'lim sohasidagi milliy dasturi, maktabni tarbiyaviy tizimi, mualliflik tarbiya tizimlari, o'qituvchining bolalar bilan individual muloqot stili kabilar kiradi. Bunda har bir inson uchun individual ta'lim trayektoriyasi yaratish imkoniyatlarini nazarda tutadi.

Shunday qilib, turli mamlakatlarning zamonaviy ta'lim tizimlarida va ta'lim tarixida ikki turdaga tarbiya konsepsiyalarini (avtoritar va gumanistik) ajratish mumkin. Demak, avtoritar tarbiya konsepsiyasida jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan maqsad va qadriyatlarga urg'u berilsa, gumanistik tarbiyada shaxsning individual, ya'ni qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlariga e'tibor beriladi.

XX asrning pedagogik konsepsiyalari orasida, ijtimoiy yoʻnalganlik xarakteridagi bixeviorizm nazariyasini koʻrib chiqaylik.

Bixeviorizm nazariyasi amerikalik pedagog va psixolog D.Dyui tomonidan XX asr boshlarida paydo boʻldi.

Bixevioristik pedagogika tarbiyaga texnologik yondashuvni stimullashtirdi. Unga muvofiq oʻqituvchi oʻquvchi modelini, undagi shaxsiy sifatlar yigʻindisini aniqlab, taʼsir etish metod va vositalarini loyihalashtiradi. Bu pedagogikadagi texnokratik tendensiyalar talablariga javob beradi. Yaʼni jamiyat nazorati ostida shaxs shakllanishini boshqarishni ilmiy-pedagogik tizimini ishlab chiqdi. Texnokratik yondashuv mohiyati oʻquvchi va kattalarning ruhiyatiga taʼsir etish nazariyasi va amaliyotini ifodalaydi. Bixeviorizm inson hayoti biologik, mexanik reaksiyalardan iborat xolos, uning ongi, qadriyatlari, axloqiy prinsiplari, qarashlari motivlari shaxsning xulqini aniqlaydi deb hisoblaydi. XX asr boshlarida pedagogikada islohotlar davri, yaʼni yangi maktab, erkin tarbiya uchun harakatlar davri deb eʼtirof etilgan. Yangi maktab tarafdorlarining fikricha, taʼlim va tarbiyani bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish zarur. Tarbiya ularni imkoniyatlarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan boʻlishi kerakligini taʼkidlaydilar.

Shunday qilib, taʼlim-tarbiya tarixida tarbiya tizimining ikki turi mavjudligini koʻrishimiz mumkin. Birinchisi - anʼanaviy tarbiya, buning mohiyati tarbiyani ijtimoiy normalarni oʻzlashtirishga yoʻnalganligi, insonga ijtimoiy talablarni qoʻyilishi bilan xarakterlanadi. Tarbiya tizimining insoniy yoʻnaltirilganligi shaxsni individual rivojlanishini, uning ichki ehtiyoj va qiziqishlarini ifodalaydi. Bunda bolani erkin faoliyati alohida kasb etadi.

Mamlakatning tasdiqlangan, qabul qilingan tarbiya konsepsiyasi ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy, tarixiy-madaniy, psixologik va pedagogik omillar bilan aniqlanadi. Maʼlumki, mamlakatimizda barcha omillar oʻtgan asrning 90-yillaridan boshlab oʻzgardi. Tarbiyaning yangi paradigmasiga burilishi oʻtgan asrning 80- yillarida novator oʻqituvchilar harakatlarida paydo boʻldi.

Mamlakatimizda demokratik jamiyatni shakllanishi: inson huquqi, fuqarolik jamiyati, demokratiya, iqtisodning ijtimoiy yoʻnalganligi, insonparvarlashtirish kabi meʼyoriy normalar bilan bogʻliq. Ushbu tayanch prinsiplar siyosatchilar, sotsiologlar va boshqa mutaxassislar bilan kelishilgan holda yer yuzidagi insonlar

hayotining bugunini va istiqbolini belgilaydi. Insoniylik dunyoqarash, insonni asosiy qadriyat sifatida uning rivojlanish huquqini, baxtini, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishini ifodalaydi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, insoniylik dunyo evolutsiyasining tabiiy natijasidir. Insoniylik ijtimoiy, ilmiy, madaniy, axloqiy fenomen hisoblanib, insonni tabiatga, jamiyatga, insonga nisbatan qarashlari yig'indisi hisoblanadi. Insoniylik g'oyalari qadim zamonlardan ma'lum bo'lib, ammo dunyoni gumanistik tushunish, Uyg'onish davridan boshlab paydo bo'ldi. Uyg'onish davri mutafakkirlari shaxs qadriyatini, insonni bilish va rivojlanish imkoniyatlarini, dunyoni o'zgartirish imkoniyatlarini chegarasi yo'qligini ko'rsatib o'tganlar.

XX asrda insoniylik g'oyalari butun dunyo intellektual kuchlarini birlashtirib, milliy insoniy harakatlarni, tashkilotlarni, ilmiy anjumanlarni tashkil etilishiga, yaratilishiga turtki bo'lmoqda.

Shunday qilib, bugungi kunda mamlakatimizda tarbiya konsepsiyasini ishlab chiqish uchun qator sharoitlar va manbalar mavjud. Bularga:

mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sharoitlar;

ta'lim va madaniyatning boy tarixi;

gumanistik tarbiya nazariyalari va tizimi hamda chet el tajribasi.

Adabiyotlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, insonparvar pedagogika, erkinlik va muhabbat ruhidagi tarbiya asoslanmoqda, muhokama qilinmoqda. Ikkinchi bir tomondan an'anaviy sobiq ittifoq tarbiya tizimi inqirozga uchrab keskin tanqid qilinmoqda.

Tarbiyaga bo'lgan yangi yondashuvni mohiyati tarbiyaning yangi paradigmasida va tarbiyaning yangi konsepsiyasida qanday ifodalanmoqda degan savolga javob beramiz. Paradigma — nazariya, tadqiqot vazifalarni hal etish uchun namuna sifatida qabul qilingan ilmiy yondashuv. Konsepsiya - tarbiyaning asosiy komponentlari, maqsad, mazmun, metod, shakl, vositalar to'g'risidagi tasavvurlar.

Pedagogik adabiyotlarda bugungi kunda va kelajakda tarbiya maqsadlari tizimini asoslashga urinishlar kuzatilmoqda. Ko'plab mutaxassislar tarbiya maqsadini aniqlashda aksiologik yondashuv (tarbiya maqsadi jamiyatda qabul qilingan qadriyatlarga asoslanishi) ga tayanmoqdalar (ushbu holatda qadriyatlar - biror bir inson, butun

bir jamiyat uchun etalon sifatida qabul qilingan ijtimoiy ideallar, abstrakt g'oyalar hisoblanadi).

Tarbiya maqsadi jamiyat rivojlanishi ehtiyojlaridan, ishlab chiqarish taraqqiyotidan, ijtimoiy va ilmiy-texnik progres tezligidan, pedagogik nazariya va amaliyotining rivojlanganlik darajasidan, o'quv muassasasining, o'qituvchi va o'quvchilarning hamda jamiyat imkoniyatlaridan aniqlanadi. Tarbiya maqsadi - bu yosh avlodni hayotga tayyorlashdagi oldindan aniqlangan natija hisoblanadi. Tarbiya maqsadi to'g'risidagi bilimlarni bilish o'qituvchidan qanday odamni shakllantirish kerakligi to'g'risidagi tasavvurni hosil qiladi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimining me'yoriy hujjatlarida tarbiya maqsadi O'zbekiston uchun vatanparvar, ozodlik, demokratiya, insoniylik, adolat ideallarni yuqori qo'yuvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, o'z qiziqishlarini davlat, jamiyat, boshqa odamlar qiziqishlari bilan uyg'unlashtiruvchi, o'z milliy tarixini, tilini e'zozlovchi shaxsni shakllantirishdir deb belgilangan.

O'tgan bobda tarbiya konsepsiyasi ijtimoiylashuv instituti sifatida qaraldi. Ushbu bobda tarbiyani pedagogik jarayon sifatida ko'rib chiqiladi.

Ijtimoiy va pedagogik fanlar tarbiyani tavsiflab, uning ijtimoiy asosini ko'rsatib berganlar. Inson tarbiyasi jamiyatning rivojlanish darajasiga va xususiyatlariga bog'liq bo'lib, faqat insoniyat jamiyatida paydo bo'ladi va amalga oshiriladi. Inson nafaqat biologik, balki ijtimoiy mavjudot hisoblanib, uning shakllanishi mamlakatning ta'lim tizimiga, jamiyatga bog'liq. Mamlakat ta'lim tizimi tuzilishi va xarakteri jamiyat rivojlanish tendensiyalariga, holatiga bog'liq. Davlat, hukumat organlari ushbu tendensiyalarni ifodalab, mos keluvchi ta'lim tizimini yaratib, tarbiya uchun sharoit yaratadi.

Tarbiya tabiiy-ilmiy asosga ega. Taniqli rus psixolog olimlari I.M.Sechenov, keyinchalik I.P.Pavlovlar inson xulqi va psixikasining shartli reflektor tabiati to'g'risidagi ta'limotni yaratganlar. Uning mohiyati shundaki, insondagi shartli reflekslar hayot jarayonida va turli omillar ta'sirida shakllanishi bilan xarakterlanadi. Natijada xulqning stereotiplari, dastlabki reaksiyalar, ishlab chiqilib, xarakterni shakllanishiga olib keladi. Pedagogika uchun tarbiya ahamiyatli bo'lib, odatlar, shartli reflekslarni maqsadli, ongli tarzda

ishlab chiqish mumkin. Bu haqda taniqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy, keyinchalik psixologlar ta'kidlaganlar.

Bixeviorizm XX asr boshlarida inson xulqini reflektor tabiati to'g'risidagi ta'limotiga asoslanib, o'zining inson xulqini ijobiy va salbiy tizimlar yordamida boshqarish imkoniyatlari to'g'risidagi ta'limotni yaratdi. Birinchidan bixevioristlar tarbiya jarayonida ongning, hissiyotning, inson bilimlarini, ehtiyojlar tizimini va motivlarni, qadriyatlarni inkor etadilar. Inson xulq-atvori nafaqat reflektorli hodisa reaksiya bilan kelishmaydi. Shaxs — murakkab tizim bo'lib, nafaqat reflekslar tizimi sifatida shakllanadi. Ammo reflekslar nazariyasi, bosh miya tabiati to'g'risidagi bilimlar, oliy asab faoliyati, tarbiya jarayonini, shaxsni tarbiya ta'sirida shakllanishini tushunishga yordam beradi.

Tarbiyadagi shartli reflekslar —bu ijtimoiy reflekslar, ular ijtimoiy muhitda muloqotdan, stimullar, ijtimoiy muhit (oila, o'qituvchi, tengdoshlar) ta'siridan hosil bo'ladi.

Psixologlar tarbiya jarayonini interiorizatsiya jarayoni sifatida qaraydilar: bu shaxsning bilimi, qadriyatlariga munosabatlariga ko'ra tashqi, ijtimoiy ta'sirlarni shaxsning ichki kechinmalariga o'tishi bilan xarakterlanadi. «Interiorizatsiya» tushunchasini psixologlar tarbiya jarayonida shaxsni shakllanish mexanizmini tushuntiradilar. Inson harakatlarni, boshqalarni xulqini ko'radi, ularga taqlid qiladi, obrazlarni yaratadi, ijtimoiy madaniy muhitdagi qadriyatlarni o'zida shakllantiradi, o'zlashtiradi hamda psixologik rejada o'zgartiradi. Ular asosida teskari jarayon— eksteriorizatsiya — odamlar faoliyatida ichkidani tashqiga o'tish jarayoni kechadi. Shunday qilib, tashqi muhit ta'sirida shaxsning murakkab psixologik tizimini shakllanish jarayoni amalga oshadi.

Interiorizatsiya jarayon va hodisalarni o'sishi, o'zgarishi insonni o'sishiga, uning qobiliyatini, ko'nikmalarini, tafakkurini, faoliyatini o'sishiga olib keladi.

Pedagogikada «birgalikdagi va ajralgan faoliyat» tushunchasi mavjud bo'lib, u madaniy muhitni o'zlashtirish uchun pedagog faoliyatda bolaga ko'rsatadi, mustaqil ish foizini ko'paytirib, kattalar rahbarligidan ozod etib bola bilan birgalikda bajaradi.

XX asrdan boshlab pedagogika va psixologiyada tarbiya jarayoni nafaqat ta'sir etish, kattalarni rahbarligi sifatida tushuniladi, balki tarbiyasi va tarbiyalanuvchi orasidagi o'zaro ta'siri sifatida

tushuniladi. Bu yerda tarbiya ma'lum bir pedagogik tizim doirasidagi pedagogik jarayon sifatida ko'rilmoqda. Demak, tarbiyani pedagogik jarayon sifatida qaraganimizda o'quv tarbiyaviy muassasalarda maxsus tayyorgarlikka ega mutaxassislar tomonidan tashkil etiladigan, boshqariladigan hodisa sifatida anglaymiz.

Shunday qilib: tarbiya jarayoni — pedagogik tizim (muassasa) doirasida tarbiyachi va tarbiyalanuvchining o'zaro ta'sirida amalga oshadigan, insonni rivojlanishi va shakllanishi bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan, tashkil etilgan faoliyati hisoblanadi. Pedagogik jarayonda kechadigan tarbiya jarayonining mohiyati aniqlovchi omil (tarbiyachi, pedagog ta'siri) hamda hal qiluvchi omil (tarbiyalanuvchilarning javob harakatlari) o'rtasidagi o'zaro ta'sirda ifodalanadi. Demak, tarbiya jarayonining tuzilishi o'zaro aloqador tarbiyachining tarbiyalovchi, tarbiyalanuvchining tarbiyalanuvchi faoliyatidan iborat. Amerika olimi K.Rodjers tarbiya jarayoni tuzilishini quyidagicha ifodalaydi:

1. Tarbiyachi tarbiya maqsadini qo'yadi - tarbiyalanuvchi esa maqsadni qabul qilib, anglaydi.

2. Tarbiyachi tarbiya mazmunini aniqlaydi - tarbiyalanuvchi esa ma'lumotlarni qabul qiladi.

3. Tarbiyachi tarbiya shaklini, metodlarini tanlaydi - tarbiyalanuvchi esa faoliyatda faol ishtirok etadi.

4. Tarbiyachi tarbiyaviy ta'sir natijalarini baholaydi, tarbiyalanuvchi esa o'z xatti-harakatlarini baholaydi. Pedagogik tizimda ta'lim, tarbiya, rivojlanish jarayonlari o'zaro bog'liqlikda kechadi. Tarbiya xususida Seneka (e.a. IV asrda yashagan) «Oldin axloqni o'rgan, so'ng donolikni, birinchisiz ikkinchisini o'rganish qiyin» degan fikmi bildirgan bo'lsa, M.Monten «Kimki axloq fanini o'rganmas ekan, boshqa fanlar unga zarar keltiradi» deb ta'kidlagan.

Tarbiya insonni madaniyatga intilishida, munosabatlarni shakllanishida, insonni psixik rivojlanishida, shaxsni ijtimoiylashuvida muhim o'rin tutadi.

Tarbiyalash - bu odamlar orasida o'zaro munosabatlar tizimini hosil qilishdir. Ya'ni tarbiya odamni boshqa odamlarga, mehnatga, jamiyatga, dunyoga, o'ziga munosabatlarini shakllantiradi.

Tarbiya jarayoni samaradorligi tarbiyaviy munosabatlarga, tarbiya maqsadiga, tarbiya yo'nalishi va mazmuniga, obyektiv va subyektiv omillarga, tarbiyalash, o'z-o'zini tarbiyalash

intensivligiga, ta'lim, rivojlanish jarayonlarining faolligiga, tarbiyalanuvchilarning motiv, ehtiyoj, hissiyotiga, tarbiyalanuvchilar orasidagi munosabatlarga bog'liq.

Tarbiya ijtimoiy hodisa, faoliyat, tizim, jarayon sifatida talqin etilmoqda.

Jarayon sifatida tarbiya o'quv-tarbiya muassasa tizimidagi yo'naltirilgan jarayonni ifodalaydi. Mutaxassislar tomonidan tarbiya jarayoni mohiyatini ifodalashda turli xil qarashlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, rus pedagoglaridan: Podlasiy «tarbiya - bu maqsadga yo'naltirilgan va tashkillash- tirilgan shaxsni shakllanishi», Mardaxayev «tarbiya - bu insonni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratish», Harlamov «tarbiya - bu jamiyat va jamiyat kelajagi uchun yosh avlodni hayotga tayyorlash «deb ta'kidlaydilar. Dyurkgeym tarbiya - bu harakat, katta avlodni kichik avlodga ta'siri deb ifodalaydi.

Tarbiya o'quv tarbiya muassasa doirasida tizim sifatida ko'riladigan pedagogik jarayon hisoblanadi. Pedagogikada «tizim» tushunchasi turli terminlarda mustahkamlangan, bularga pedagogik tizim, tarbiya tizimi, ta'lim tizimi, maktab tarbiya tizimi, tarbiyaviy ishlar tizimi v.b. Tarbiya jarayoni mohiyatini tushunish uchun ta'lim tizimini o'quv muassasalar va boshqaruv organlari yig'indisi sifatida emas, balki pedagogik tizim sifatida qaralishi lozim.

Pedagogik tizim tuzilishining asosiy komponentlari pedagogikaning asosiy kategoriyalarida aniqrog'i tarbiya nazariyasida ifodalanadi. Jumladan: tarbiya maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari, shakllari. Pedagogik tizimning tuzilmaviy komponentlari va ularning aloqalari T.Ilina, N.Kuzmina V.P.Bespalko, V.P.Simo- novlar tomonidan ochib berilgan.

Pedagogik jarayon va pedagogik tizim birligi jarayonni shakllantiradi, bu tizimning xususiyati hisoblanadi. Pedagogik jarayonlar — bu pedagogik tizim holatining ketma-ket o'rin almashishidir.

Pedagogik tizimni tizimli ko'rish mohiyati shuki, bunda tizim va jarayonlarni tuzilmaviy komponentlarini va ular orasidagi aloqadorliklarni ajratish bilan xarakterlanadi. Bu har bir komponent mohiyatini, xususiyatlarni, ular orasidagi aloqadorliklarni, birining o'zgarishi natijasida ikkinchisi o'zgarishini anglashga yordam beradi. Masalan, maqsadga qarab mazmun o'zgarishi,

tarbiyalanuvchining tarbiyalanganligiga qarab tarbiya metodlarining o'zgarishi.v.b.

Pedagogik tizim tuzilishi —bu pedagogik tizim komponentlariga mos keluvchi, qismlar yig'indisi hisoblanadi. Pedagogik jarayon komponentlarini quyidagilar tashkil qiladi:

maqsadli — tarbiya maqsadini aniqlash;

mazmuniy — tarbiya mazmunini ishlab chiqish;

faoliyatli — tarbiyaviy faoliyatni va jarayon qatnashchilari orasidagi aloqadorlikni tashkil etish;

natijaviy — tarbiya natijasini tekshirish, baholash, tahlil etish va jarayon samaradorligi to'g'risida fikr yuritish.

Yana bir komponent faoliyatli — kommunikativ, u tarbiyaviy tizimda tarbiya subyekti va obyektini, tarbiyachi va tarbiyalanuvchini, kattalar va bolalar muloqotini, tarbiya jarayonidagi o'zaro aloqadorlikni ifodalaydi. Bu tarbiya jarayonini muhim tavsifnomasi hisoblanadi.

Pedagogik jarayon tuzilishi mos holda pedagogik faoliyat tashkil etiladi: maqsad, mazmun, metodlar, vositalar va faoliyat turlari ishlab chiqiladi hamda natij a tahlil qilinib baholanadi.

Pedagogik diagnostika maqsadni aniqlashni talab etib, pedagogik jarayon holatini o'rganadi. Birinchidan, o'quvchilarni tarbiyalanganligini va bilim darajasini, shu bilan birga jarayonni boshqa sharoitlarni ham o'rganadi. Pedagogik jarayon bosqichlari: diagnostika, loyihalash, amalga oshirish, nazorat kabi pedagogik faoliyatdagi takrorlanuvchi, siklik to'g'risidagi g'oyalarga olib keladi. B. P. Bitinas pedagogik jarayonni tahlil qilib, tahlil o'lchovini, ya'ni pedagogik vaziyatni ajratgan. Bu pedagogik jarayonni sifatini aniqlovchi holat hisoblanadi. Umuman olganda jarayon — bu harakat, tizim holatining o'zgarishi, u pedagogik vaziyatlar zanjirini ifodalab, pedagogik vazifalarni bildiradi. Masalalarni hal etish va amalga oshirish yuqoridagi tarzda amalga oshadi. Ushbu sikllardagi uzluksiz spiral tarbiya jarayonini ifodalaydi.

10.2. Tarbiya jarayoni qonuniyatlari va prinsiplari

Tarbiya jarayonining alohida tomonlari tarbiya qonuniyatlari va prinsiplarini tahlil qilishda namoyon bo'ladi. Qonuniyat — tushunchasi qonun tushunchasiga yaqin bo'lib, tizimdagi o'zgarishlarga yo'naltirilgan va tendensiyalarini ta'minlovchi takrorlanib turuvchi ichki bog'lanishlardir. Qonun mazmuniga ko'ra

o‘zaro aloqadorlikni ifodalaydi. Qonun jarayon tomonlarini, hodisalar orasidagi obyektiv, mavjud aloqalarni aniqlash sifatida namoyon bo‘ladi. Tarbiya jarayonidagi bunday aloqalar bilimlarga tayangan holda uni tushunishga, tasvirlashga, tashkil etishga yordam beradi. Mohiyatiga ko‘ra qonunlar— bu fan o‘rganadigan borliqdagi obyekt, reallik to‘g‘risidagi nazariy bilimlar hisoblanadi. Qonunlar tarbiya jarayonini yo‘nalishlarini, tizim xulq-atvorni tashxislashni ifodalaydi. Qonun ochib beradigan aloqalar — bu determinizm prinsipiga ko‘ra (har qanday hodisani obyektning o‘zgarishi biror bir sababga ko‘ra) sabab-oxibat aloqalaridir.

Pedagogikada qonun tushunchasi bilan birgalikda tarbiya prinsipi tushunchasi aloqadorlikda o‘rganiladi. Tarbiya prinsipi — bu qonunga asoslangan tarbiyaga bo‘lgan asosiy talab, pedagog harakatlarini aniqlovchi bosh g‘oya hisoblanadi.

Tarbiya qonuniyatlari orasida tarbiyani ijtimoiy hodisa sifatida va pedagogik jarayon sifatida xarakterlovchi umumiy qonuniyatlarning mavjud. Bu qonunlar ta‘lim va tarbiya munosabatlarni ko‘rsatadi.

Tarbiyani jamiyat talablariga mosligi qonuni. Bu qonun an’anaviy pedagogikada ishlab chiqilgan bo‘lib, tarbiyaning barcha elementlari uchun tegishli: tarbiya tizimi, mamlakatdagi ta‘lim davlat ehtiyojlariga javob beradi, bu tarbiya jarayonida, uning maqsadida, mazmunida, metodlarida ifodalanadi. Boshqa tomondan tarbiya tizimi va pedagogik jarayonlarni tashkillash xarakteri jamiyat, imkoniyatlariga, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnik rivojlanish darajasiga bog‘liq. Ushbu tarbiya, jamiyat, davlat orasidagi aloqalar ta‘lim siyosati orqali tuzatiladi va tartibga solinadi.

Tarbiya maqsadi, mazmuni, metodi birligi qonuni tarbiya jarayonining barcha komponentlari aloqadorligini ifodalaydi. Maqsad mazmuni, metodlarni, ish shaklini aniqlaydi. O‘z navbatida tarbiya jarayonining bu elementlari o‘qituvchi va o‘quvchilarning qobiliyatlariga va imkoniyatlariga bog‘liq. Tarbiya jarayonidagi qarama-qarshiliklar tarbiyaviy ishlarni buzilishiga, samaradorsizligiga olib keladi.

Shaxsni tarbiyasi rivojlanishi va ta‘limi birligi qonuni. Yuqorida bir tomondan ta‘lim va tarbiya jarayonlarining aloqasi, ikkinchi tomondan shaxsni rivojlanishi orasidagi qonuniy aloqalar xususida ta‘kidlab o‘tildi. Bu psixologik- pedagogik fanlarning fundamental

holatlaridan biridir. Ta'lim va tarbiya o'zaro aloqadorlikda olib borilganda samaradorlikka, yutuqlarga erishiladi. Shaxs rivojlanishida har ikki omil asosiy hisoblanishi ko'plab mutaxassislar tomonidan ta'kidlab o'tilgan.

Boshqa qonunlar tarbiya jarayoni ichidagi aloqadorliklarni ko'rsatadi: tarbiyani faoliyatda mavjudligi qonuni, tarbiya jarayonini tarbiyalanuvchi faolligi bilan aloqasi qonuni, tarbiya va muloqot aloqasi qonuni, tarbiya jarayonini xususiyatlarini tarbiyalanuvchilarning yosh, individual, jinsiy xususiyatlari bilan aloqasi qonuni, shaxsni shakllanishi jamoa rivojlanishi darajasiga bog'liqligi qonuni v.b qonunlar.

Tarbiyani faoliyatda mavjudligi qonuni. Bu, agar biz tarbiyalanuvchilarda tajribani, bilimlarni, qarashlarni, qadriyatlarni shakllantirishni ta'minlamoqchi bo'lsak, biz ularni faoliyatga jalb qilishimiz kerakligidan dalolat beradi. Faoliyat psixologiyaning asosiy tushunchasi hisoblanadi. Tarbiya jarayonida faoliyatning turli ko'rinishlari shaxsni rivojlanishi va shakllanishining asosiy vositasi va sharti hisoblanadi. Tarbiyalash faoliyatga jalb qilish, turli rivojlantiruvchi faoliyatlarni tashkil etishdir.

Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarni faolligi qonuni, inson faqat faoliyatda shaxs sifatida mustaqil faol mavjudot sifatida o'zini anglaganda, faoliyat shaxsiy mohiyatga ega bo'lganda shaxs shakllanishini, rivojlanishini tasdiqlaydi. Bu qonun bilan qator xususiy qonuniyatlar va tushunchalar aloqadordir. Masalan, o'z-o'zini tarbiyalash, hayotini va kasbini aniqlash, shaxsni o'z-o'zini namoyon qilishi. Ushbu qonunga P.A.Galperin, V.V.Davidovlarning o'quv faoliyati nazariyasi asoslangan. Bu qonun A.S.Makarenko va boshqa buyuk pedagoglar tajribalarida tasdiqlangan.

Tarbiya va muloqot birligi qonuni. Bolalar va o'smirlarning shakllanishi, muloqot mazmuniga, pedagog va o'quvchi xulqi stiliga, ma'lumotlarni almashishni tashkil etilishiga, guruhdagi muassasadagi munosabatlarga bog'liq. Tarbiya, faoliyat, muloqot o'rtasida qonuniy sabab-oqibat aloqalari mavjud. Ushbu qonunga muvofiq tarbiya bevosita muloqot jarayonida amalga oshiriladi. Shuning uchun pedagogikada o'qituvchini tarbiya jarayonida o'quvchilar va boshqalar bilan muloqot texnologiyasini ishlab chiqish, tarbiya jarayonida munosabat texnikasini o'rnatish, stil bo'yicha tavsiyalarni

ishlab chiqish, kasbiy pedagogik xulq bo'yicha pedagogik muloqotni tashkil etish asosiy ishlardan biri hisoblanadi.

Tarbiyani jamoada mavjudligi qonuni. Jamoa yuqori tashkillashtirilgan guruh sifatida shaxsni shakllanishiga ta'sir etib, tarbiyaning kuchli vositasi hisoblanadi. Jamoa faoliyati, undagi muloqot, guruh a'zolari o'rtasidagi munosabat isbotlangan tajriba hisoblanadi. Jamoada va jamoa orqali tarbiyalash sobiq ittifoq pedagogikasidagi asosiy prinsiplardan biridir. Jamoa a'zolariga guruh faollarining, bolalarning ta'siri, mas'uliyatli munosabatlar, turli birlashmalardagi, guruhlardagi o'zaro ta'sir ko'nikmalari, psixologik muhit, jamoa an'anasi bu va boshqa tushunchalar A.Makarenko tomonidan ishlab chiqilgan jamoa nazariyasiga tegishli. G'arb pedagogika va psixologiyasida shaxs shakllanishi xususiyatlari inson tegishli guruh rivojlanish darajasiga bog'liqligi qonuniyatlarini o'rganadi. A.S.Makarenko xulosalariga va tajribasiga butun dunyo pedagoglari qiziqish bilan qaraydilar.

Tarbiyani tarbiyalanuvchilarning yosh, individual xususiyatlariga bog'liqligi qonuni. Tarbiya jarayoni uning maqsadi, mazmuni, metod va shakllari nafaqat jamiyat, davlat tomonidan qabul qilingan tarbiya konsepsiyasiga, balki o'quvchilarni yosh, individual xususiyatlariga kam bog'liq. Turli yoshdagi odamlar faoliyatda va muloqotda o'zlarini turlicha namoyon qiladilar. Bu ularni individual xususiyatlari bilan bog'liq.

Tarbiya jarayoni prinsiplari

Maktab va pedagogika tarixidan hozirgi vaqtgacha tajribada va tadqiqotchilar tomonidan tasdiqlangan tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlarini ifodalovchi ko'pchilik tomonidan tan olingan klassik, an'anaviy prinsiplar mavjud. Ular prinsiplar tizimini asosini tashkil etib, tarbiya jarayonini shundayligicha tushunishni, aniqlash to'g'risida ifodalab, pedagog tarbiya samarali bo'lishi uchun nima qilishi kerak degan savolga javob beradi. Prinsiplar tarbiya jarayoniga bo'lgan talablar, asosiy g'oyalar tizimi sifatida nafaqat qonunlarni ifodalaydi, balki ular asosida shakllanadi, pedagogik ta'sirni natijasi bo'la olmaydi. Ta'lim-tarbiya prinsiplarini tanlash va tahlil etish, ular mazmunini qayta anglash bu tarbiya paradigmasini va konsepsiyasini ifodalovchi ilmiy pedagogik va amaliy, ijtimoiy-madaniy jarayon hisoblanadi.

Shunday qilib, prinsiplar u yoki bu tarbiya konsepsiyalari orqali aniqlanib, tajriba va amaliyotda tekshiriladi yoki ta'limning real vaziyatlarida amal qilinadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, yangi tarbiya konsepsiyasiga, ya'ni gumanistik ilmiy-pedagogik, shaxsga yo'naltirilgan tarbiya konsepsiyasiga o'tilayotgan hozir- gi paytda yangi prinsiplar tizimini asoslash ularni yangi mazmun bilan boyitish tarbiyaning zamonaviy konsepsiyasiga moslashtirish maqsadga muvofiq. Bu o't- mishdagi tarbiya an'alarini zamonaviy vositalar bilan taqqoslaganda erishiladi.

Sobiq ittifoq davridagi ilmiy va o'quv adabiyotlarida tarbiyaning kommunistik yo'nalganligi, tarbiyaning hayot va kommunizm qurish amaliyati bilan bog'liqliligi, pedagogik rahbarlikning tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyati bilan bog'liqliligi, shaxsga hurmat va talab birligi kabi prinsiplar birinchi o'rinda turganligini ko'rishimiz mumkin. Bundan ko'rinadiki, o'sha davr g'oyalariga, mafkurasiga javob beruvchi talab va qoidalar mavjud bo'lgan.

Mamlakatimizda tarbiya prinsiplar tizimi nima uchun va qanday o'zgar- yapti. Tarbiya prinsiplari tizimi tarbiyaning yangi paradigmasi ta'sirida o'zgarib, uning asosiy holatlari qoidalarini, ko'rsatmalarini ifodalaydi. Bu konsepsiya rivoj- langan davlatlarda tan olingan bo'lib, gumanistik konsepsiya nomi bilan yuritiladi.

Mamlakatimizda gumanistik pedagogikani rivojlanishini eslatib o'tamiz. Birinchidan, bu qadimdan XIX asrgacha chet el klassik pedagoglarining Ya.A.Komenskiy, G.Pestalotsi, A.Disterveg, K.D.Ushinskiy hamda sharq mutafakkirlari Forobiy, Ibn Sino, Beruniylarning qarashlari va nazariyalari bilan bog'liq. Ikkinchidan, bu XX asrning birinchi yarmidagi rus pedagoglarining K.N. Venttsel, S.T.Shatskiy, A.S. Makarenko hamda Abdulla Avloniy, M.Behbudiylar ta'limoti bilan bog'liq. Uchinchidan, hamkorlik pedagogikasi nomini olgan 80-yillardagi novator o'qituvchilar qarashlari bilan bog'liq.

XX asr boshlarida dunyo pedagogikasiga kuchli ta'sir qilgan pedosentrizm, ya'ni erkin tarbiya nazariyasi vakillari Dj. Dyui, V. Lay, M. Montessori, Valdorf pedagogikasi R.Shtayner v.b. Ular tarbiyaga yangi qarashlar bilan gumanistik yo'nalishdagi izlanishlarni boyitdilar. XX asrning ikkinchi yarmida gumanistik

pedagogika gumanistik psixologiya vakillari K.Rodjers tomonidan yangi g'oya va ko'rsatmalari bilan(bolani qabul qilish, bolaga g'amxo'rlik qilish, bolani qo'llab- quvvatlash) bilan boyitildi.

Ilmiy uslubiy va o'quv pedagogik adabiyotlarda turli xildagi tarbiya prinsiplarini ko'rishimiz mumkin. Gumanistik tarbiya konsepsiyasi ifodalovchi tarbiya prinsiplari tizimini ko'rib chiqamiz:

tarbiyani shaxs rivojlanishiga, ijodiy individuallikni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi;

tarbiyani tarbiyalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlarga mos bo'lishi;

tarbiya madaniy muhit xususiyatlariga mos bo'lib, tarbiyalanuvchilarni madaniyat elementlarini o'zlashtirishlari jarayonida bo'lishi;

tarbiya bolalarni faol, ongli, rivojlantiruvchi faoliyatiga jalb qilishni talab etadi;

tarbiyani jamiyat hayoti bilan, mehnat bilan, tarbiyalanuvchilarni tajribasi bilan bog'liqligi;

tarbiyani jamoada va jamoa orqali amalga oshishi;

tarbiyada tarbiyalanuvchining ijobiy tomonlariga tayanish;

tarbiya tarbiyalanuvchilarni mustaqilligi, va pedagogik rahbarlik bilan mosligi.

Agar yuqorida ta'kidlanganlardan asosiylarini ajratsak: tarbiya shaxsda ijod- korlikni shakllantirishga, tarbiyalanuvchilarni faoliyati jarayonida individuallikni va madaniyatni o'zlashtirish bo'yicha ular asosida yosh va individual xususi- yatlarni farqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Yana bir bor prinsiplar tizimi tarbiya konsepsiyasini ifodalab, nafaqat tarbiya qonunlari orqali aniqlanadi, balki pedagogik hamjamiyat va alohida pedagoglarning istaklari, ya'ni subyektiv omillar orqali aniqlanadi.

Bunday sharoitda bir guruh pedagoglar, bir o'qituvchi boshqa bir prinsiplar tizimini tanlashi mumkin. Har qanday sharoitda tanlangan prinsiplar tarbiyada 3 xil konseptual pozitsiyaga olib borishini bilishi kerak. Birinchisi prinsiplar tizimida ifodalangan tarbiya jarayoni yoshlar ongi va xulqida ijtimoiy norma, qadriyatlarni shakllantirishga yo'nalgan bo'lishi, ko'pchilikning ta'kidlashicha bu avtoritar pedagogika deb nomlanadi.

Ikkinchi variantda tarbiya prinsiplari tarbiyani pedagogik qadriyatlar orasida shaxs erkinligini ta'kidlab, tarbiyani shaxsni o'z-

o'zini rivojlantirishga, o'z-o'zini aniqlashga, shaxsni rivojlantirishga olib keladi. Bu konsepsiya 100 yil oldin «pedosentriзм» deb nomlangan.

Uchinchi variantdagi prinsiplar tizimi tarbiyani shaxsni har tomonlama erkin rivojlanishini o'z-o'zini namoyon qilish huquqini, boshqa tomondan insonni jamiyat talab va qoidalariga bo'ysunishini nazarda tutadi. Bunday tarbiyada yoshlarga ijtimoiy normalarni, insoniy qadriyat va an'analarni o'tkazish imkonini berib jamiyatni ilgari borishiga zamin yaratadi. Bunday tarbiya insonparvar tarbiya deb nomlanadi.

Shunday qilib, pedagogika fanida o'quv tarbiya muassasalaridagi tarbiya amaliyotini va tarixiy tajribalarni tahlili natijasida shakllangan tarbiya prinsiplarini quyidagi uch guruhga ajratgan holda ko'rishimiz mumkin.

Birinchi guruh prinsiplar tarbiya maqsadi va mazmuniga bo'lgan asosiy talablarni aniqlaydi.

Ikkinchi guruh prinsiplar tarbiya metodlariga va tarbiyaviy ish hamda pedagogik hamkorlik texnologiyasi va texnikasiga bo'lgan talablarni aniqlaydi.

Uchinchi guruh prinsiplar tarbiya jarayonini ta'minlovchi ayrim ijtimoiy va psixologik sharoitlarni aniqlaydi. Ushbu prinsiplarsiz tarbiya samarali, mahsuldor natija bermaydi.

Tarbiya prinsiplarini shartli bunday guruhlarga ajratish, asosiysini ajratib olish, tarbiya jarayoni mohiyatini tushunish uchun yordam beradi.

Birinchi guruh prinsiplarga tarbiyani shaxs rivojlanishiga gumanistik yo'nalganligi prinsipi, tarbiyani madaniyatni o'zlashtirishga yo'nalganligi prinsipi, tarbiyani hayot va mehnat bilan bog'liqligi prinsipi kiradi.

Ikkinchi guruh prinsiplar bu pedagogik yoki metodik texnologik prinsiplardir. Bu prinsiplar guruhiga: tarbiyani faoliyatda bo'lishi, tarbiyada shaxs faolligiga tayanish, tarbiyani jamoada va jamoa orqali amalga oshishi, pedagogik rahbarlik va tarbiyalanuvchilarning tashabbuskorligi va o'z faoliyatlari bilan uyg'unligi prinsipi, tarbiyada tarbiyalanuvchiga hurmat bilan talabchanlik uyg'unligi, tarbiyada insonni ijobiy sifatlariga tayanish prinsipi kiradi.

Sotsiopsixologik prinsiplar uchinchi guruh prinsiplarini tashkil etadi. Bularga individual va yosh xususiyatlarni hisobga olish prinsipi, maktab, oila, mahalla talablarining birligi prinsipi kiradi.

Prinsiplar mazmunini qisqacha ochib beramiz. Tarbiyani shaxs rivojlanishiga gumanistik yoʻnalganligi prinsipi. Bu tarbiya jarayoniga boʻlgan umumiy talabni ifodalaydi. Tarbiyaning asosiy qadriyati — inson, uning qobiliyatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Bunday yondashuv barcha ijtimoiy sohalarni jumladan taʼlim tizimining gumanistik yoʻnalganligiga mos keladi. Davlatlarni rivojlanish darajasini baholash boʻyicha xalqaro standartlarda insoniy koʻrsatkichlardan, anʼanaviylaridan tashqari yana bir mezon «insoniy oʻlchov» «hayot sifati» kiritilayotgani bejiz emas. Antropologik muammolar bilan shugʻullanuvchi olimlar, psixolog va pedagoglar, filosof va sotsiologlar hamda biologlar bunday yondashuv inson rivojlanishi muammolarini kelgusida ishlab chiqish va oʻrganishni insoniylik asosida yoʻnaltirishni taqozo etadi deb hisoblaydilar. Pedagogik fanlar tizimida pedagogik antropologiya nomi bilan paydo boʻlgan pedagogika sohasi bunga misol boʻladi. Antropologik prinsip pedagogikada metodik prinsip sifatida asoslanadi. Bu oʻz navbatida oʻqituvchilardan, tarbiyachilardan pedagogik pozitsiyani oʻzgartirishni talab etadi.

Tarbiyani xulq-atvor normalarini, jamiyat qadriyatlarini oʻzlashtirishga yoʻnalganligi prinsipi. Ushbu prinsipga amal qilish birinchidan, shaxs shakllanishi, madaniyat elementlarini, insoniy, milliy qadriyatlarni oʻzlashtirish jarayonida amalga oshirishini, ikkinchidan, tarbiya va madaniyatning oʻzaro aloqadorligini ifodalaydi.

Tarbiyani hayot va mehnat bilan bogʻliqligi prinsipi — bu sobiq ittifoq pedagogikasidagi tarbiyaga qoʻyilgan talab edi. Shu bilan birga jahon pedagogikasining fundamental talablaridan biridir. Uning asosida tarbiya jarayoni metodikasi hamda tarbiya maqsadi va mazmuni tartibga solinadi.

Tarbiyani hayot bilan bogʻliqligi oʻqituvchi va tarbiyachilardan darsda va darsdan tashqari faoliyatlarida hayotdagi ahamiyatli boʻlgan masalalarni muhokama qilishlarini hamda zamonaviy borliqni dunyo madaniyati va tarixi bilan aloqasini koʻrsatib oʻtishlarini taqozo etadi. Tarbiyani mehnat bilan bogʻliqligi prinsipi

maktab, oila, jamiyat yoshlar tarbiyasini o'quvchilarni mehnat faoliyatini tashkil etishini, ularni mehnatga jalb etishni ifodalaydi.

Tarbiyani faoliyatda mavjudligi prinsipi. Tarbiyani ushbu qonuniyatiga asoslanib, tarbiya jarayoniga asosiy talablar qo'yiladi. To'g'ri tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchilarni turli faoliyatlarga jalb etish kerak. Tarbiyalanuvchilar faoliyat turlarini yaxshi bilishi kerak: bularga o'quv-biluv, o'yin, badiiy-estetik, ijtimoiy- mehnat, sport-sog'lomlashtirish. Boshqacha aytganda, buyuk tarbiyachilar yoshlarni tarbiyalashda turli tarbiya vositalari o'yin, o'qish, san'at, sport, mehnat, tabiat, ijtimoiy hayot kabilardan foydalanish zarurlini ko'rsatib o'tganlar.

Tarbiyada shaxs faolligiga tayanish prinsipi. Tarbiyalanuvchilar o'qishi, sinf, maktab hayotida, bayram va tadbirlarda shunchaki ishtirok etishlari mumkin. Bunday faoliyatning samarasi past bo'ladi. Tarbiyalanuvchilarni faolligi ularni qiziqishlarida, ongli munosabatlarida mas'uliyatlarida, ijobiy his-tuyg'ularida namoyon bo'ladi.

Jamoda va jamoa orqali tarbiyalash prinsipi. Ushbu prinsip A.S.Makarenko tomonidan asoslangan bo'lib, quyidagi jihatlari bilan farqlanadi. Birinchidan, jamoa har bir a'zosini xulq va axloqini shakllantirish lozim: inson jamiyatda 128

yasharkan, turli guruhlarga kiradi, o'zining shaxsiy maqsadlarini jamiyat qiziqishlari va qadriyatlarini bilan uyg'unlashtiradi. Ikkinchidan, sinfda, guruhda shakllantirilgan sog'lom, rivojlantiruvchi jamoa hayotida ishtirok etish kuchli tarbiyaviy vosita hisoblanadi. Uchinchidan, o'qituvchi tarbiyalovchi jamoani shakllantirishni, uni boshqarishni bilishi kerak.

Pedagogik rahbarlikni tarbiyalanuvchilarni tashabbuskorligi va mustaqilligi bilan uyg'unligi prinsipi. Tarbiya aniqlanishi bo'yicha tarbiyalanuvchilar faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarda tashabbuskorligini, ijokorligini, mustaqilligini ta'minlanishi uchun sharoit yarata olsalar va bunga erishsalar ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil eta oladilar.

Tarbiyada talab va tarbiyalanuvchiga hurmat uyg'unligi prinsipi. Bu prinsip tarbiya jarayonida tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchiga nisbatan talabchan va uning shaxsiga nisbatan hurmatda bo'lishni taqozo etadi.

Tarbiyada insonni ijobiy tomonlariga tayanish prinsipi. Ushbu prinsipga amal qilish tarbiyachidan tarbiyalanuvchi shaxsini har

tomonlarni o'rganish zarurligini taqozo etadi. Har qanday, hatto eng yomon deb ataluvchi odamni ham qaysidir ijobiy fazilati mavjud bo'ladi. Tarbiyada shaxsni ijobiy sifatlariga tayanish tarbiyaviy ishlarni samaradorligini ta'minlaydi.

Individual va yosh xususiyatlarni hisobga olish prinsipi. Fanda turli yosh davrlardagi insonlarning xulqi, psixik jarayonlari, faoliyat xususiyatlari o'rganilgan. Masalan, kichik yoshdagi o'quvchilar katta yoshdagilarga nisbatan bir-birlariga aytib beradi, eslab qoladi, muloqot qiladilar. O'quvchilarni yosh xususiyatlari o'qituvchini muloqot xarakterini, turli yoshdagi bolalarni tarbiyalash metodlarini tanlashda, ularga yordam berishni to'g'ri tanlashda mas'uliyatli bo'lishni ifodalaydi.

Tarbiyada odamlarni individual xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi.

Tarbiyada maktab-oila, jamiyat talablarining birligi prinsipi. Bu muammo barcha davrlarda ahamiyatli hisoblangan. O'quvchidan maktab bir narsani talab qilsa, jamiyat, ko'cha, ommaviy axborot vositalari boshqa narsalarni o'rgatish hollari ham uchraydi. Ota-onalar bolalarini maktabga topshirishlari bilan mas'uliyatdan xolimiz, endi bolalar tarbiyasi bilan maktab shug'ullansin deb hisoblovchilar ham bor. Maktab, oila, jamoatchilik hamkorligi to'g'ri yo'lga qo'yilgandagina yoshlar tarbiyasida ijobiy natijalarga erishiladi.

Quyida tarbiya prinsiplari oiladagi, yoshlar harakati va tashkilotlaridagi, o'quv muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarning shakli, metod, mazmuni tahlilida ifodalanadi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

- 1. « Tarbiya » atamasi qanday ma'noni bildiradi?*
- 2. Tarbiya, ta'lim va ijtimoiylashuv orasidagi aloqadorlikni izohlang.*
- 3. Insonparvar pedagogika mohiyati nimada?*
- 4. O'zbekistonda tarbiyaning qanday zamonaviy konsepsiyasi mavjud?*
- 5. Tarbiya jarayonining qanday asosiy xususiyatlari mavjud?*
- 6. Pedagogik tizim va jarayon elementlarini tushuntiring.*
- 7. Tarbiyaning asosiy qonuniyatlarini tavsiflang.*
- 8. Zamonaviy tarbiya prinsiplari tizimini tavsiflang.*

11-MAVZU: JAMOA TARBIYA OBYEKTI VA SUBYEKTI SIFATIDA

Tayanch tushunchalar: jamoa, jamoa nazariyasi, jamoaning shakllanishi, jamoaning rivojlanish bosqichlari.

11.1. Jamoa nazariyasining shakllanishi va uning mohiyati

Inson to'g'risidagi fanlar tizimida jamoaga berilgan turli ta'riflar mavjud. Falsafiy ma'noda jamoa - bu bir necha kishilardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad, muloqot va o'zaro faoliyat asosida tashkil etilgan guruhni anglatadi, sotsiologiyada mehnat jamoasi imkoniyatlari o'rganiladi, psixologiyada guruhdagi aloqadorlik, o'zaro ta'sir, pedagogikada bolalar jamoasining tashkil etilishi o'rganiladi.

Pedagogikada bolalar va o'quvchilar jamoasi tushunchasi bola rivojlanishida va hayotida jamoaning o'rni anglanishi natijasida paydo bo'lgan. Ya.A.Komenskiy o'zining «Buyuk didaktika» asarida bolalarni bir-biriga ta'siri haqida fikr bildirib, o'qituvchilarga passiv o'quvchini faol o'quvchi bilan, aqliy rivojlanishini pastrog'i bilan, to'polonchini bosiq bola bilan birlashtirib o'qitish kerakligi haqida maslahat bergan. XX asr boshlariga kelib, pedagoglar jamoaviy munosabatlarni rivojlanishini bola shaxsini rivojlanishida qulay sharoitlarni yaratishning asosiy yo'nalishi sifatida talqin qilganlar. Bolalar jamoasi kuchli tarbiyaviy instrument hisoblanadi. Shuning uchun tarbiyaning asosiy vazifasi bolalar uchun qiziqarli, turli-tuman faoliyatni tashkil etish hisoblanadi.

Bolalarni jamoada tarbiyalash nazariyasi A.S.Makarenkoning amaliy faoliyatida rivojlandi. Uning ta'kidlashicha, jamoa tarbiyaning shakli, quroli, vositasi hamda har bir shaxsni rivojlantirish manbai sifatida namoyon bo'ladi. Uning fikricha, jamoada shaxs erkinligi va qadr-qimmatini hamda himoyalanganligi va ijtimoiy aloqalari ta'minlanadi.

Shuning uchun insoniylik tarbiyasi bu jamoaviy tarbiya deb hisoblanib, tarbiyalovchi jamoani shakllantirishning ahamiyatini ko'rsatib bergan. Tarbiyalovchi jamoa bu o'zining vazifalariga, an'alariga, munosabat stiliga, o'z-o'zini boshqarish organlariga ega bo'lgan tirik ijtimoiy hodisadir. Makarenkoning xizmatlari yana shunda ko'rindiki, u birinchilardan bo'lib, jamoa tarbiyasining asosiy prinsiplarini ilmiy jihatdan asoslab berdi, ularga bolani ijobiy tomonlariga tayanish, parallel ta'sir etish, bola shaxsiga hurmat va talab uyg'unligi, bolaga individual ta'sir etish prinsiplari kiradi.

Jamoa nazariyasining rivojlanishiga polyak pedagogi Ya.Korchak munosib hissa qo'shgan. U tarbiyaning maqsadi - bu bolani ichki kuch va imkoniyatlarini, qobiliyatlarini to'liq, erkin, har tomonlama mustaqil rivojlantirish deb hisoblagan. Uning fikricha, bu jarayonning asosiy omili

demokratik tarzda tashkillashtirilgan, bolalar hayotini to'liqligini ta'minlovchi, ularni xulq-atvorini tuzatuvchi, o'z-o'zini tarbiyalashga yo'naltirilgan o'z-o'zini boshqaruvchi bolalar jamoasi hisoblanadi deb ta'kidlagan. Tarbiyachining vazifasi bolani xatti-harakatlarini kuzata olishi, uning xulq-atvori motivlarini tushunishi, hurmat asosidagi munosabatlarini o'rnatishni bilishi hisoblanadi.

Bugungi kunda bolalar jamoasi rus pedagoglari A.V. Mudrik, L.I. Novikova, N.Ye. Shurkovalar o'zbek pedagoglaridan O.Musurmonova, M.Quronovlar tomonidan ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida qaralmoqda.

Ularning fikricha, tarbiya tizimi bolalar va o'smirlarning turli ko'rinishdagi tabaqalashgan birligini ifodalaydi. Bularga: sinf, to'garak, sport seksiyasi, ijtimoiy tashkilotlar kiradi. Bizga ma'lumki, jamoada tarbiyalash muammosi tadqiqotlar tomonidan mamlakatimizda va ko'plab mamlakatlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi qabul qilingan hamda ta'lim tizimi modernizatsiya qilinayotgan sharoitda o'rganilmoqda.

Bolalar jamoasining xarakterli belgilari quyidagilardan iborat:

ijtimoiy ahamiyatga ega maqsad va vazifalarni belgilash, unga erishish;

yosh va individual xususiyatlarni inobatga olgan holda o'quvchilarni turli faoliyatlarga jalb etish;

teng huquqlilik asosidagi munosabatlarni shakllantirish;

haqqoniy ijtimoiy fikrni vujudga keltirish;

jamoadagi ijobiy an'analarni hosil qilish va ularni qo'llab-quvvatlash.

O'z-o'zini boshqaruv organlarini ishini tashkil etish organizatsiya.

Tarbiyalovchi jamoaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

tashkiliy (turli faoliyatlarga jalb qilish, ularni tuzatish, ishchanlik munosabatlarini shakllantirish);

tarbiyaviy (o'quvchilarda dunyoga va o'zlariga munosabatni, axloqiy fazilat va sifatlarni shakllantirish, qadriyatlarini, odatlarini, xarakterini ishlab chiqish);

stimallashtiruvchi (mazmunli, ijtimoiy ahamiyatli muloqot uchun sharoit yaratish, o'quvchilarda o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojlarini shakllantirish, ularni xulq-atvorini tuzatish.

11.2.O'quvchilar jamoasining rivojlanish bosqichlari

O'quvchilar jamoasining shakllanishi to'rt bosqichda kechadi.

Jamoa rivojlanishining birinchi bosqichida talab faqat o'qituvchilar tomonidan qo'yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang'ich nuqtasidir. Bu bosqichda jamoa hali tarbiyalovchi ta'sirga ega bo'lmay, balki «tashkil etuvchi birlik» (guruh) hisoblanadi. Bu bosqichda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan talablarning qo'yilishiga e'tiborsiz qaraydilar. Jamoa

a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni yagona maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqali jamoa qaror topadi.

Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faoli (aktivi)ning paydo bo'lishi bu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli guruhning shunday a'zolaridirki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar, o'qituvchi faoliyati va talabiga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladilar. Faollar o'qituvchining yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar. Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi jamoa faolining o'qituvchi talabini qo'llab-quvvatlashi va uning o'zi ham bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tavsiflanadi. Endilikda o'qituvchi jamoada paydo bo'lgan va u bilan bog'liq muammo, masalalarni yolg'iz o'zi hal qilmaydi. Bosqichda jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni jamoa o'z-o'zini boshqarishga o'tadi. Jamoaning ijobiy rivojlanishi uning a'zolarida motiv (rag'bat)larning paydo bo'lishi, ijodiy hamkorlik, o'zaro yordam munosabatlarining tez sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelishida jamoa faolining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faolining jamoa a'zolari orasida hurmat qozona olishi, ularga namuna bo'lishi, o'z burchlarini aniq va puxta bajarishi, o'z mavqelaridan noo'rin foyda- lanmasliklari juda muhimdir. A.S.Makarenko jamoa faolini «jamoaning vijdoni» deya ta'riflagan edi. Jamoa faoli birmuncha imtiyozlar (huquqlar)ga ega bo'lsa-da, ayni paytda uning o'ziga ham oshirilgan talablarning qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi anchagina sermahsul bo'lib, unda butun jamoa «ayrim o'zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs»larga nisbatan talab qo'ya boshlaydi. Bu bosqichda jamoa ishiga faqat faolgina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. O'qituvchi mazkur yo'nalishda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasi, jamoaning birgalikdagi faoliyati, a'zolarining xatti-harakati jamoa bo'lib muhokama qilinadi, turli mavzularda suhbatlar, ma'ruzalar uyushtiriladi, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va hokazo bilimlarning targ'iboti tashkil etiladi. Jamoada barqaror insoniy munosabatlar yuzaga kelishining sababi -a'zolarining ijobiy, madaniy-ma'rifiy mazmunga ega bo'lgan ishlarni tashkil etishda faol ishtirok etishlari sanaladi. To'rtinchi bosqichi uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan vazifalar asosida o'z-o'ziga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Har bir bosqich jamoa a'zolarining o'zlariga nisbatan

muayyan talab qo'yishi bilan xarakterlanadi, biroq qo'yilgan talablar o'ziga xos yo'nalishi bilan (mas., o'yindan umuminsoniyat baxti yo'lida kurashishiga intilish o'rtasidagi farq kabi) ajralib turadi. To'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga, jamoadagi tarbiya jarayoni esa o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga aylanadi. Biroq bu holat jamoaning muayyan shaxsni yanada rivojlantirishdagi roli, o'rnini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Bu bosqichda jamoa oldiga istiqbolli, yuksak va murakkab talablarni qo'yish uchun juda qulay sharoit yaratiladi.

Bir guruh pedagoglar o'quvchilar jamoasini uning shakllanish va rivojlanishiga ko'ra quyidagi uch bosqichga ajratadilar. Ya'ni:

jamoani dastlabki jipslashtirish;

jamoani shakllantirish asosida uning har bir a'zosini individual rivojlantirish;

d) jamoaning umumiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

Jamoa bilan ishlash metodikasi

Ta'lim muassasasi tarkibidagi eng barqaror bo'g'in - muayyan guruhlar negizida shakllangan jamoalar sanaladi. Ta'lim muassasalarida ikki muhim bo'g'in: o'qituvchilar jamoasi va o'quvchilar jamoasi mavjud bo'ladi.

O'quvchilar jamoasi - o'quvchilardan tashkil topib, ijtimoiy ahvoli, saylov organlari oldidagi umumiy javobgarlik, barcha a'zolarining huquq va burchlar tengligi asosida o'zaro ijtimoiy ahamiyatli umumiy maqsad va birlikka ega bo'lgan guruh hisoblanadi.

O'quvchilar jamoasi uchun quyidagi xususiyatlar xosdir:

o'quvchilarning jamoaviy faoliyatga tayyorliklari, ruhiy tetiklikka egaliklari;

jamoa uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar mohiyatini anglash, ularni ardoqlash va o'z qadr-qimmatini baholash;

jamoa a'zolari o'rtasida do'stlik, o'zaro birlik, hamjihatlik va yordam ko'rsatish tuyg'usining qaror topganligi;

jamoadagi ishchanlik, umumiy faoliyatni tashkil etishda faollik ko'rsatish;

jamoa a'zolarida o'z hissiy tuyg'ularini boshqara olish, muomala, muloqot, nutq, yurish-turish qoidalariga amal qilish ko'nikmasining shakllanganligi.

O'quvchilar jamoasiga qo'yiladigan yagona talablar o'quvchilarning dars jarayoni, tanaffus va sinfdan tashqari ishlar vaqtidagi, shuningdek,

jamoat joylari hamda oiladagi xulq-atvor qoidalaridan iborat bo‘lib, puxta o‘ylangan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi maktabda muayyan tartibning o‘rnatilishini ta‘minlaydi.

Pedagogik talablar quyidagi holatlarda ijobiy natija beradi:

Qo‘yilayotgan talablar o‘quvchi shaxsini hurmat qilish tuyg‘usi bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi kerak.

Talablar muayyan maktab yoki sinfdagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo‘yilishi lozim.

Jamoaga nisbatan qo‘yilayotgan talablar aniq bo‘lishi kerak.

O‘quvchilarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi, muomalasiga nisbatan qo‘yilayotgan talablar ularda ma‘naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

O‘quvchilar jamoasiga pedagogik talablarni qo‘yish metodikasi ular tomonidan dars jarayoni, tanaffus va sinfdan tashqari ishlar vaqtida, jamoat joylarida, oilada xulq-atvor qoidalariga qat‘iy rioya etishlarini ta‘minlashga yordam beradigan shakl, metod va vositalar yig‘indisidir.

O‘quvchilar jamoasiga talablarni qo‘yish metodikasini:

bolalarni pedagogik talablar mazmuni bilan tanishtirish;

pedagogik talablarning ahamiyatini tushuntirish;

tajriba orttirish;

o‘quvchilar faoliyati, qo‘yilayotgan pedagogik talablarning bajarilishini muntazam nazorat qilib turishdan iborat pedagogik faoliyat mazmuni tashkil qiladi.

Jamoa an‘analari jamoa a‘zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan bar- qarorlashgan odatlar bo‘lib, ular mazmunida jamoa a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlar mazmuni, xususiyati, jamoaning ijtimoiy fikri ifodalanadi.

Jamoa an‘analarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

kundalik faoliyat an‘analari;

bayram an‘analari.

Jamoaning kundalik faoliyat an‘analari o‘quvchilarning o‘quv faoliyati (o‘zaro yordam turlari) va mehnat faoliyati (ko‘chatlar o‘tkazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o‘z ichiga oladi.

Jamoaning bayram an‘analariga ijtimoiy ahamiyatga ega turli voqea hamda hodisalar bilan bog‘liq sanalar (xususan, «Alifbe bayrami», «Mustaqillik bayrami», «Navro‘z bayrami», «Xotira va qadrlash kuni» va boshqalar)ni nishonlash maqsadida tashkil etiladigan faoliyat kiradi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Jamoa tarbiyasi muammosi nimani anglatadi?
2. Jamoa nazariyasini shakllanishining asosiy jihatlari qaysilar?

3. Bolalar jamoasining asosiy jihatlarini tavsiflang.
4. Jamoani rivojlanish bosqichlarini va ushbu bosqichlarda tarbiyachining asosiy vazifalarini izohlang.
5. «Jamoat» va «o'quvchilar jamoasi» tushunchalariga izoh bering.
6. O'quvchilar jamoasining o'ziga xosliklarini sanab bering.
7. O'quvchilar jamoasini shakllantirish bosqichlarini izohlang.

12-MAVZU: TARBIYANING UMUMIY METODLARI, VOSITALARI VA SHAKLLARI

Tayanch tushunchalar: tarbiya metodlari, ijtimoiy ongning shakllantirish, rag'batlantirish, jazolash, tarbiya vositalari, talab, tarbiya shakllari.

12.1. Tarbiya metodlari to'g'risida tushuncha

Tarbiya nazariyasida tarbiya metodi - tarbiya vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro aloqador faoliyati yo'li ekanligi ta'kidlab o'tilgan. Bu tarbiya jarayonini tarbiyaning asosiy qonuniga mosligini, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqador faoliyati sifatida tushunishni ifodalaydi. O'qituvchi, tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarni faoliyatini tashkil etish orqali tarbiyalaydilar. Bundan ko'rinadiki, tarbiyachilar tarbiya- lanuvchilar faoliyatini tashkilotchisidir. Shuning uchun tarbiya metodi bolaga pedagogik ta'sir etish vositasi sifatida aniqlanadi. Masalan, I.F.Harlamovning yozishicha tarbiya metodlari — bu o'quvchilar ongini va motiv ehtiyojlarni rivojlantirish uchun tarbiyaviy ta'sir etish usul va yo'llari yig'indisidir. I.P.Pidkaskiyning ta'kidlashicha tarbiya metodi - bu dunyoga va o'ziga munosabatni shakllantirishga qaratilgan pedagog va tarbiyachi faoliyatini tashkil etish modelidir. Stolyarenko «tarbiya metodi pedagogik maqsadga erishish uchun tarbiyachi ongiga, hissiyotiga, xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatish yo'li va usullaridir» - deb hisoblaydi. Uning fikricha tarbiya metodi pedagog faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Pedagoglar tarbiyalanuvchilarning turli faoliyatlarini tashkil etib, ishontirish, namuna, mashq, talab, jazolash va rag'batlantirish orqali ta'sir etadilar. Mutaxassislar tarbiya metodlarini va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodlarini bir-biridan farqlaydilar. Taniqli pedagog Yu.K.Babanskiy va bir qator olimlar ta'lim va tarbiyani yagona bir butun pedagogik jarayon sifatida ifodalab, tarbiyasiz ta'lim mavjud emas deb hisoblaydilar. Shuning uchun butun pedagogik jarayon uchun yagona metodlar tizimini taklif etadilar.

Tarbiya usullari odatda metodni ajralmas bo‘lagi sifatida ifodalanib, aniq vaziyatlarda qo‘llaniladi. Masalan, rag‘batlantirish metodida maqto‘v, tashakkur- noma, taqdirlash usullaridan foydalaniladi.

12.2. Tarbiya metodlari klassifikatsiyasi

Metodlarni bilish ularni biror asos, belgi bo‘yicha guruhlarga ajratishga olib keladi. Pedagogikada biron bir asos bo‘yicha metodlarni qat‘iy klassifikatsiyasi ishlab chiqilmagan. Mutaxassislar metodlarni ko‘p qo‘llanishiga qarab ishonitirish, mashq, namuna, taqdirlash, jazolash metodlarini o‘rganganlar. Albatta pedagogik amaliyotda ushbu metodlarni ko‘p uchratamiz. Pedagog o‘quvchilar bilan birgalikda axloqiy normalarni muhokama qilib, tushuntirib, ularni faoliyatga jalb etib, ularga namuna bo‘lib tarbiyalaydi. Va nihoyat u o‘quvchilarni xatti- harakatlarini muhokama qilib, ularni stimullashtiradi hamda xulq-atvorini tuzatib, rivojlantiradi.

Ilmiy tavsiflash obyektlarni bir-biridan farqlash uchun qat‘iy asos va belgiga ko‘ra ajratishni talab etadi. Shuning uchun metodlar klassifikatsiyasi ularni bilishni, ikkinchidan ularni ongli, samarali qo‘llashni ifodalaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, klassifikatsiyalar asosini shaxsning u yoki bu sohasiga (ongiga, xulqiga, hissiyotiga) ta‘sir etish yo‘naltirilishi bilan xarakterlanadi. Boshqacha aytganda shaxsni bilimini, qarashlarini, idrokini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodlar bor. Ular ongni shakllantiruvchi metodlar deyiladi. Bundan tashqari, shaxsni xulq-atvoriga va faoliyatiga yo‘naltirilgan metodlar mavjud. Bularni xulqni shakllantiruvchi va faoliyatni tashkil etuvchi metodlar deyiladi. Yana xulqni stimullashtirishga va tuzatishga yo‘naltirilgan metodlar mavjud bo‘lib, ular xulqni stimullashtiruvchi metodlar deyiladi.

Yu.K.Babanskiy tomonidan tavsiya etilgan ta‘lim va tarbiya metodlari klassifikatsiyasining asosini faoliyat konsepsiyasi tashkil etadi. Unga ko‘ra har qanday faoliyat komponentlarini anglash, tashkil etish, stimullashtirish va nazorat tashkil etadi.

Faoliyat tarbiya jarayoni tuzilishida muhim o‘rin egallab, butun pedagogik jarayonni umumiy metodlarini to‘rt guruhga ajratishning asosi hisoblanadi.

Shunday qilib, an‘anaviy pedagogika fanida tarbiya metodlarini to‘rt guruhga ajratilganligini ko‘plab mutaxassislar tomonidan guvohi bo‘lamiz:

ongni shakllantirish metodlari: hikoya, suhbat, ma‘ruza, munozara, muhokama;

faoliyatni tashkil etish va xulq-atvorni shakllantirish metodlari: mashq, o'rgatish, topshiriq, talab va tarbiyaviy vaziyatlarni yaratish;

xulqni stimullashtiruvchi metodlar: musobaqa, o'yin, taqdirlash va jazolash;

nazorat, o'z-o'zini nazorat va baholash metodlari: kuzatish, so'rov, faoliyat natijalarini tahlil qilish.

Metodlarni guruhlar bo'yicha ajratish mumkin, lekin shaxs qismlar bo'yicha emas, balki bir butun holda shakllanadi, nimagaki ong, munosabatlar, xulq, atvor har qanday holatda mo'ljalli va tasodifiy harakatlar ta'sirida butunlikda shakllanadi. Psixologiyada ong va faoliyat birligi prinsipi mavjud, ya'ni ong faoliyatda shakllanadi. Birinchi guruh metodlarining asosiy vazifasi tarbiyalanuvchilarda munosabatlarni, yo'nalganlikni, ishonch va qarashlarni shakllantirish hisoblanadi. Bular asosida xulq-atvor normalari, ijtimoiy qadriyatlar to'g'risidagi bilimlar yotadi. Birinchi navbatda insonni ishonchi uning xatti-harakatlarida ifodalanadi.

Ikkinchi guruh metodlari tarbiyani faoliyatda amalga oshishi prinsipiga amal qilishni talab etadi. Shaxsda u yoki bu sifatlarni sharoit yaratmasdan shakllantirib bo'lmaydi. Pedagoglarni vazifasi ana shunday sharoitlarni hosil qilish hisoblanadi. Uchinchi guruh metodlari yordamida pedagoglar va tarbiyalanuvchilarni o'zlari o'z xatti-harakatlarini nazorat qilib, tarbiyalanuvchilarni faoliyat motivlariga ta'sir etadilar.

Nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari tarbiya natijalarini baholashga va tahlil etishga yo'naltirilgan bo'lib, tarbiyalanuvchilarni shakllanishiga ta'sir etadi. Agar tarbiya natijalari tarbiyalanuvchilar bilan birga tahlil etilsa, samaradorlikka erishiladi hamda ularni o'z-o'zini tarbiyalashi stimullashadi.

Tarbiya metodlari tasnifi

A. Ongni shakllantiruvchi metodlar.

Ushbu metodlar nomlanishiga va mohiyatiga ko'ra ta'limning og'zaki metodlari bilan mos kelib, ularning asosiy vazifasi ijtimoiy-axloqiy munosabatlar, me'yor, odamlarni xulq qoidalari, qarash va qadriyatlarni shakllantirish sohalariga oid bilimlarni shakllantirish hisoblanadi. Bu metodlar birinchi navbatda shaxsning ongiga, uning aqliy, intellektual, hissiy sohalariga murojaat qiladi. Ishontirishning asosiy manbai, instrumenti bu - so'z, xabar, ma'lumot va ma'lumot muhokamasi. So'z orqali ta'sir etish obro'li o'qituvchining o'quvchilarning aql va hissiyotiga ta'sir etadigan eng kuchli metod hisoblanib, tarbiyachidan yuqori darajadagi madaniyatni va kasbiy mahoratni talab etadi. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod, dunyoqarashni shakllantirish maqsadida

ularning ongi, his- tuyg'usi, irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar sanaladi. Mazkur metodlar yoshlar tomonidan hayot mazmunining tushunib olinishini ta'minlaydi.

Ma'ruza, hikoya, tushuntirish — bu og'zaki metodlar, ma'lumotni tahlil qilish va xabar berish bo'lib, tarbiyaviy mazmun va mohiyat kasb etadi. Pedagogik amaliyotdan shu ma'lumki, mashg'ulot, uchrashuvlarda o'quvchilar bilan ijtimoiy- axloqiy mavzularda suhbatlar tashkil etilishini uchratishimiz mumkin. Ma'ruza muammoni sistemali tarzda bayon qilinishi bilan yuqori sinf o'quvchilariga mosdir.

Hikoya va tushuntirish kichik va o'rta yoshli o'quvchilar uchun qo'llaniladi. Ularning har biri moslikni, emotsionallikni, ishonchlilikni, axborotlilikni talab etadi. Mavzular har xil: ijtimoiy hayot, axloqiy, estetik muammolar, muomala, o'z- o'zini tarbiyalash, nizolarga oid bo'lishi mumkin. Hikoya o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa, voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishini ifodalovchi metod sanaladi. Tushuntirish ijtimoiy ongni shakllantirishda ko'p ishlatiladigan usul bo'lib, u orqali ta'lim oluvchilarni jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar, shaxslararo munosabatlar mazmuni, ijtimoiy-axloqiy va huquqiy me'yorlar, ularga amal qilish, shaxs tomonidan o'zligini anglash hamda jamiyatda, jamoada muayyan o'rinni egallashga oid ma'lumotlar bilan tanishtirishga xizmat qiladi.

Tarbiyachi metodik adabiyotlardan mavzularni, material mazmunini va o'quvchilar bilan tarbiyaviy suhbatlarni o'tkazish bo'yicha tavsiyalarni topadi. Tarbiyachi o'quvchilar bilan suhbat uchun mamlakat, dunyo, yoshlar hayotining turli tomonlarini ifodalovchi materiallarini ommaviy axborot vositalaridan ham olishlari mumkin.

Tarbiyaviy suhbatlarga tayyorgarlik vaqtida mazmunni tanlash, materialni yetkazib berish yo'llari, uning tuzilishi, stili, suhbat toni, psixologik muhitni yaratishda mas'uliyat bilan yondashish talab etiladi.

Suhbat munozara, muhokama sifatida o'quvchilarni o'zlaridan intellektual va emotsional faollikni talab etuvchi metod hisoblanadi. Tarbiyaviy suhbat, munozara qoidasi bo'yicha tarbiyachining qisqa kirish so'zidan va muammoli xarakterdagi savollarni qo'yishdan iborat. Suhbat metodi o'quvchi shaxsini g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli nutqi, o'quvchi bilan o'zaro munosabati ta'sirchan usullardan hisoblanadi. Suhbat jarayonida o'quvchi shaxsini yaqindan anglash mumkin, u haqidagi tasavvurlar yanada boyiydi. Ta'lim oluvchi bilan suhbatlashish jarayonida uning shaxs sifatida

shakllanishiga yordam beradigan ma'lumotlar beriladi, ijtimoiy va tabiiy borliqqa nisbatan munosabat baholanadi, ijobiy sifatlar rag'batlantirilib, salbiy holatlar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo'l-yo'riqlari ko'rsatiladi.

Ta'lim oluvchining ijtimoiy ongini shakllantirish uchun tashkil etiladigan suhbatlar uchun quyidagi mavzular yo'nalish sifatida tanlanadi:

yetik mavzular (ijtimoiy ma'naviy-axloqiy me'yorlar, jamiyatda ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy munosabatlar, jamoa orasida o'zini tutish qoidalari va boshqalar);

estetik mavzular (tabiat go'zalligi, shaxslararo munosabatlar, inson go'zalligi);

siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, xalqaro munosabatlar va hokazolar);

ta'lim va bilishga oid mavzular (koinot, hayvonot va o'simliklar dunyosi, elektronika va boshqalar).

Muhokama— tarbiyaning maxsus metodi bo'lib, qarama-qarshi fikrlarning to'qnashuvini ifodalaydi. Muhokamani tashkil etish mavzu nomini shakllantirishni, muhokama uchun savollarni tayyorlashni, boshlovchini tanlashni, muhokama qoidalari bilan ishtirokchilarni tanishtirishni, ko'rgazmali materiallarni tayyorlashni talab etadi.

Tarbiyalanuvchilar bilan ijtimoiy-axloqiy savollar bo'yicha muhokamalar tashkil etish tarbiyachilardan bilim va tajribani, uslubiy ko'nikmalarni talab etadi. Muhokamada bacha ishtirokchilani ishtirok etishlariga erishish talab etiladi. Buning uchun kichik guruhlarda ishlashni, blits so'rovlarini tashkillash hamda keys stadiylardan foydalanish zarur. Tarbiyalanuvchilar bilan axloqiy mavzularni muhokama qilishda qat'iy faktlarni, aniq vaziyatarni muhokama qilish ko'p hollarda samarali hisoblanadi.

Namuna - shaxsga atrofdagilar (xususan, o'qituvchilar, ota-onalar, yoshi katta kishilar)ning yurish-turish, muomala, tartib-intizom qoidalariga rioya qilish, kundalik faoliyatni tashkil etishda o'rnak, ibrat bo'la olishlarini ifodalovchi metod sanaladi.

Yosh avlod uchun quyidagi pedagogik hodisalar namuna bo'la oladi:

ota-onalarning yurish-turishi, bir-birlari bilan o'zaro munosabatlari, kundalik faoliyatni tashkil etishlari, atrofdagilarga nisbatan yondashuvlari;

o'qituvchilarning hamkasblari, rahbarlari, shuningdek, o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlari, nutq va muomala odobi, kasbiy faoliyatni olib borishdagi mas'uliyatlari;

ishlab chiqarish ilg'orlari, umuminsoniy hamda milliy ilm-fan, madaniyat ravnaqiga munosib hissa qo'shgan shaxslarning hayoti va faoliyatlari;

badiiy asarlar, kinofilmlar, spektakllar qahramonlarining xatti-harakatlari, ma'naviy qiyofasi;

afsonaviy va tarixiy milliy qahramonlar, Vatan ozodligi uchun kurashgan shaxslarning jasoratlari;

favqulodda vaziyatlarda fuqarolik, insoniylik burchini sidqidildan ado etgan shaxslarning xatti-harakatlari;

tengdoshlarning ijtimoiy munosabatlar jarayonida, turli vaziyatlarda o'zlarini tuta olishlari, irodali, matonatli, axloqli ekanliklarini namoyon eta olishlari va boshqalar.

B. Xulqni shakllantirish va faoliyatni tashkil etish metodlari.

Xulqdagi ijobiy tajribaga tarbiyalanuvchilar faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilganda erishiladi. Tarbiyaning faoliyatda mavjudligi qonuniyati asosida tashkillashga bo'lgan talablar shakllanadi. A.N.Leontevning ta'kidlashicha, faoliyat tarbilanuvchi uchun ahamiyatli, shaxsiy mohiyat kasb etganda tarbiyalanuvchi shaxsini tarbiyalaydi. Bunda tarbiyalanuvchi faoliyatda faol ishtirok etsa, ularni vazifalari almashib turishi kerak. Tarbiyalanuvchilar faoliyatini boshqarish pedagogik vaziyatarga mos bo'lishi zarur.

An'anaviy pedagogikada tarbiyalanuvchi faoliyatini tashkil etish tarbiyaning asosiy metodlari hisoblanadi. Ushbu metodlar guruhiga pedagogik talab, mashq, ijtimoiy fikr, tarbiyalovchi vaziyat kiradi.

Pedagogik talab jamiyat va uning a'zolari tomonidan qabul qilingan aniq xulq-atvor normalarini, qoidalarini, qonunlarini, an'analarni bajarishga qo'yilgan talablar sifatida ifodalanadi. Talab ijtimoiy xulq qoidalari yig'indisi, real vazifalar, biror xatti-harakat bo'yicha aniq ko'rsatmalar, iltimos, maslahat, ko'rsatma sifatida ifodalanadi. Shakliga ko'ra talab bevosita va bilvosita turlarga bo'linadi. Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish, muayyan faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari va tarbiyaviy ta'sirning muhim usullaridan biri bo'lib, u ma'lum harakatlarni rag'batlantirish yoki to'xtatish, shaxsni ijobiy harakatlarga undash xarakteriga ega bo'ladi.

Talab o'quvchilarni xulqi qoidalariga, maktab Nizomiga, ta'lim muassasasining kun tartibiga nisbatan qo'yiladi. Talabda hech qanday majburlash, avtoritarizm bo'lmasligi kerak. Barcha amal talablarga bo'ysunadilar, demak, o'quvchilar ham talablarga amal qilishi zarur. Demak, xulq normalariga maktab- ning ichki tartib-qoidalariga birinchi navbatda o'qituvchilarni o'zlari amal qilishlari kerak. Masalan, maktabda chekish mumkin emas, shuning uchun o'quv- chilar orasida ko'chada,

burchak-burchaklarda bolalarni chekishini kuzatishimiz mumkin, ammo ayrim o'qituvchilar maktab hududida o'zlari chekadilar.

Jamoatchilik fikri — bu guruh talablarini ifodalaydi. Ular rivojlangan jamoalarda butun jamoaning xatti-harakatlarini baholashda qo'llaniladi. Bu barcha guruh a'zolarining hayotga bo'lgan qarashlarida, qadriyatlarida, me'yorlarida ifodalanadi. Pedagoglar jamoada sog'lom ijtimoiy fikrni shakllantirishga e'tibor berishlari kerak. Bunga sinf hayotiga oid faktlarni muhokama qilish, unda ular faoliyatini baholashda o'quvchilar ishtirokini stimullashtirish orqali erishiladi. Jamoatchilik fikri - ijtimoiy voqealarga, turli guruhlar, tashkilotlar, ayrim shaxslar faoliyatiga bo'lgan yashirin yoki oshkora munosabatlarni o'z ichiga oladigan ijtimoiy ong shakli bo'lib, u yordamida jamiyat a'zolarining xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, yurish-turishlari, faoliyatlari, atrofdagilar bilan muomalalari, munosabatlari ijtimoiy axloq me'yorlariga muvofiq baholanadi va tartibga solinadi. Mohiyatiga ko'ra jamoatchilik fikri muayyan ijtimoiy masalalarni, taniqli shaxslar yoki umuman olganda, jamiyat a'zolaridan ixtiyoriy birining xatti-harakati, xulq-atvori, yurish-turishi, faoliyati, atrofdagilar bilan muomalasi hamda munosabatining ma'qullanishi yoki qoralanishini ifodalaydi. Ana shu jihatiga ko'ra jamoatchilik fikri tarbiyalovchi xarakter kasb etadi.

Mashq — xulq-atvor asosi sifatida harakatlarni ko'p marotaba takrorlash orqali xulqni shakllanishi bilan xarakterlanadi. Keng ma'noda bu tarbiya-lanuvchilar faoliyati va hayotini jamiyat normalariga moslashtirish uchun sharoit yaratishni ifodalaydi. Mashq - aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko'nikmalarini egallash yo'lida muayyan amal, harakatni ko'p marta takrorlash.

Mashq - muayyan xatti-harakatlarni ko'p marotaba takrorlashga qaratilgan harakat mohiyatini ifodalovchi metod hisoblanadi. Mashq natijasida muayyan ko'nikma, odat, yangi bilimlar hosil qilinadi, o'quvchining aqliy qobiliyati o'sadi, axloqiy sifatlari boyiydi, hayotiy tajribasi ortadi.

Tarbiya amaliyotida mashqning quyidagi turlari mavjud:

faoliyatda mashq qilish;

kun tartibi doirasida bajariladigan mashqlar;

maxsus mashqlar.

Faoliyatda mashq qilish mehnat, ijtimoiy va jamoa faoliyatini tashkil etish, o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish odatlarini tarbiyalashga qaratilgan.

Kun tartibi mashqlari ta'lim oluvchilarni belgilangan kun tartibiga amal qilishga odatlantirish, u bilan bog'liq ravishda muayyan harakatlarni

bajarish, ish va bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

Maxsus mashqlardan tanlangan soha bo'yicha nazariy bilim, amaliy hamda xulqiy ko'nikma, malakalarni hosil qilishda foydalaniladi.

Tarbiyaviy vaziyatlar — bu harakatga undov, tanlash holati bo'lib, tarbiyachi tomonidan maxsus tashkil etilishi ham mumkin. Uning vazifasi ongli, faol faoliyat uchun sharoit yaratish hisoblanib, yangi xulq-atvor normalari va qadriyatlar shakllanishi bilan xarakterlanadi. Tarbiyalovchi vaziyatlar - tabiiy ravishda sodir bo'ladigan yoki sun'iy hosil qilinib, shaxsda u yoki bu ma'naviy- axloqiy sifat, xulq-atvor, ko'nikma, malakalarni shakllantirishga yo'naltiriladigan holat, sharoit hisoblanadi.

V. Xulq va faoliyatni stimullashtiruvchi metodlar.

Taqdirlash — bu tarbiyalanuvchi va guruh a'zolarini xulq-atvorini, xatti-harakatlarini, fazilatlarini ijobiy baholash, ma'qullashda ifodalanadi. U o'z kuchiga ishonish, ijobiy o'z-o'zini baholash, qoniqish hissini uyg'otib, tarbiyalanuvchilarni o'z xatti-harakatlarini ijobiy o'zgarishiga stimullashtiradi. Tarbiya jarayonida rag'batlantirishning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

- o'quvchining zimmasiga mas'uliyatli vazifani yuklash;
- maqtash;
- estalik sovg'asini berish;
- maqtov yorlig'i bilan taqdirlash;
- maxsus stipendiyalar tayinlash;
- qo'llab-quvvatlash;
- fotosuratni hurmat taxtasiga qo'yish;
- jamoada nomidan minnatdorchilik bildirish;
- safda birinchi o'rinda turishini ta'minlash;
- musobaqalarda bayroqdor bo'lishiga imkoniyat yaratish;
- nomini maktab devoriy gazetasi yoki radiosi orqali qayd etish.

Tarbiya jarayonida rag'batlantirish metodlarini samarali qo'llay olish uchun rag'batlantirishning mavjud pedagogik talablarga muvofiq bo'lishi; ketma-ket bo'lmasligi; o'quvchini yoki uning xatti-harakatlarini haddan oshirib maqtamaslik; ularni boshqa o'quvchilarga taqqoslab ko'rsatmaslik; o'quvchini kamsitmaslik; talabchanlikni bo'shashtirmaslik kabilarga e'tibor qaratilishi lozim.

Jazolash — bu xulq normalariga qarama-qarshi bo'lgan xatti-harakatlarni salbiy baholashda ifodalanadi. Jazolash metodi salbiy xatti-harakat sabablarini tahlil etishni, o'quvchi shaxsini kamsitmaslikni, obdon o'ylab chiqilgan xatti-harakatlarni talab etadi. Jazolash tanbeh, ogohlantirish, suhbat, boshqa guruhga o'tkazib yuborish, maktabdan

chetlatish shakllarida bo'lishi mumkin. Jazolash o'quv tarbiyaviy muassasadagi tarbiyaviy holat, pedagoglarni madaniyati va jamoaning rivojlanganlik darajasi bilan uzviy bog'liq. Tarbiya jarayonida jazolash metodini qo'llashda quyidagi jazo choralari qo'llaniladi:

- tanbeh berish;
- ogohlantirish;
- uyaltirish;
- hayfsan berish.

Tanbeh berish eng muhim jazo chorasi bo'lib, o'qituvchi o'quvchiga yuzma- yuz turib tanbeh beradi va buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin.

Ogohlantirish - sodir etilishi mumkin bo'lgan muayyan xatti-harakatlarning oldini olish maqsadida qo'llaniladigan tarbiyaviy usul.

Uyaltirish - o'quvchining ma'lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan subyektlar (ota-onalar, vasiylar, jamoatchilik vakillari va boshqalar) oldida baho berish usuli. Bolalarni tarbiyalashda shu his- tuyg'ularni ehtiyotkorlik bilan o'stirish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish, qizartiraverish yaramaydi.

Hayfsan berish o'quvchining ma'lum xatti-harakatlarini qat'iy choralar asosida baholash bo'lib, u tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermagan holatlarda qo'llaniladi.

Jazolash metodini qo'llashda jismoniy jazoni qo'llash, o'quvchilarni urish, kaltaklash, qo'rqitish, g'azablantirish, jismonan va ruhan azoblash, tahqirlash, sha'nini yerga urish kabilar taqiqlanadi.

O'quv tarbiyaviy muassasalarda stimullashtiruvchi metodlardan biri musobaqa keng qo'llaniladi. Bu metod g'oyaviy-siyosiy va formal xarakterga ega bo'lib, u yordamchi metod sifatida qo'llaniladi.

Ta'kidlash joizki, har qanday metod ta'lim muassasasining tarbiyaviy tizimi bilan uzviy bog'liq. Tarbiya amaliyoti tarbiyachilar oldiga tarbiyalanuvchilarga ta'sir etish uchun tarbiya metodlarini tanlash va qo'llash vazifasini qo'yadi. Tarbiya metodlarini tanlash va qo'llash o'z navbatida: tarbiya maqsadi va mazmuniga, tarbiyalanuvchilarni tarbiyalanganlik darajasiga, shaxslararo munosabatlarning rivojlanganlik darajasiga, tarbiyachining obro'siga va tajribasiga, tarbiyalanuvchlarning yosh va individual xususiyatlariga bog'liq.

Shu bilan birgalikda tarbiyachini tarbiya metodlarini tanlashi uning tajribasiga, madaniyatiga, yoshiga, xarakteriga, temperamentiga ham bog'liq.

D. Nazorat, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini baholash metodlari.

Ushbu metodlar tarbiya natijasini tahlil qilish va baholashga yo'naltirilgan bo'lib, bularga so'rov metodlari (suhbat, anketa,), test, faoliyat natijalarini tahlil qilish kabi metodlar kiradi. Nazorat metodlarining asosiy vazifasi tarbiya jarayonining maqsadiga erishilganlik darajasini va tarbiya natijasi bo'yicha uning samaradorligini baholash.

Ushbu natijalar bo'yicha tarbiyachini kasbiy tayyorgarligi ham baholanadi. Ikkinchi tomondan bu metodlar yordamida tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanganligi to'g'risidagi olingan ma'lumotlar bilan o'quvchilarni tanishtirib, muammolarni muhokama qilish, ularga psixologik pedagogik yordam berish mumkin. O'z-o'zini nazorat va baholash metodlari o'z-o'zini tarbiyalash metodlari hisoblanadi.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari o'quvchilarning o'zini-o'zi idora qilishlari, turli o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo'llaniladigan usullardir. O'z-o'zini tarbiyalash metodlarining tarbiyalovchilik xarakteri o'quvchilarning o'zini-o'zi idora qilishlar, o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, shuningdek, ijtimoiy mavqeini oshirishning ta'sirchan vositasi ekanligida aks etadi. Mazkur metodlar o'quvchilarni tashabbuskorlikka, mustaqillikka undaydi.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish metodi. O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish o'z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usulidir.

O'z-o'zini baholash metodi. O'z-o'zini baholash shaxs tomonidan mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish orqali o'ziga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat usuli bo'lib, u shaxsning qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O'z-o'zini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin. O'z-o'zini baholash o'quvchi uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o'ziga obyektiv baho berish, o'zidan qoniqishiga yordam beradi.

Zamonaviy tarbiyachi uchun dunyoning rivojlangan davlatlarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tarbiyani qaysi metodlari ko'p qo'llanilayotganini bilishi ahamiyatlidir. Tarbiyaga bo'lgan g'arbcha yondashuvda, asosan metodlar tizimini shakllantirishda bixeviorizm psixologiyasi va psixoanalizga asoslaniladi.

12.3. Tarbiya vositalari va shakllari

Tarbiya vositasi — kam o'rganilgan pedagogik kategoriya hisoblanadi. Biroq oxirgi yillarda ushbu muammoni o'rganish dolzarbligi

oshganligi kuzatilmoqda. Sababi maktab, o'qish, kitob, o'qituvchi nutqi, ota-ona so'zi bolaga ta'sir etishning, shaxs rivojlanishi va shakllanishining asosiy omili, yagona manbai bo'lmay qoldi. Pedagoglar shaxsni ijtimoiylashuvi, muhitni pedagoglash- tirilayotganligi, ta'limiy muhitni yaratilishi to'g'risida ko'plab fikrlar bildirmoq- dalar. Bu o'z navbatida yoshlarni shakllanishida maktab va o'qituvchidan tashqari boshqa omillarni ta'siri yuqori bo'layotganligidan dalolat beradi. Bularga ommaviy axborot vositalari ma'lumotlari, kompyuter va internet, reklama va ommaviy madaniyat, yoshlar madaniyati, globallashuv, axborotlashuv jarayonlari kiradi.

Boshqacha aytganda zamonaviy bola, o'smir, o'spirin axborotlar makonida yashayapti va shakllanmoqda. Pedagogik maqsadlarga erishishda tarbiyachilardan barcha manbalarni, omillarni, vositalarni mazmun-mohiyatini bilish talab etiladi. «Vosita» tushunchasi izohli lug'atlarda bir necha ma'nolarni bildiradi. Vosita bu birinchidan - maqsadga erishishdagi harakat usuli, ikkinchidan - biror narsa uchun qo'llaniladigan predmetlar, moddiy qadriyat, uchinchidan - falsafa, iqtisodda «vosita» xomashyo, inson faoliyati obyekt, ishlab chiqarish uchun dastlabki material, to'rtinchidan, pedagogikada ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan mehnat qurollari, narsa va predmetlar yig'indisi.

Taraqqiyot natijasida bolaga pedagogik ta'sir etish vositalari ko'lami ortib borganligini ko'rishimiz mumkin. O'z davrida taniqli rus pedagogi K.D. Ushinskiy tarbiya vositalarini (o'qish, mehnat, o'yin, oiladagi va maktabdagi bola hayoti, uni tashqi olam bilan munosabati, hamkorlikdagi ish va muloqot)dan iborat deb ta'kidlagan edi. XX asr boshlarida amerikalik pedagog Dj. Dyui va rus pedagogi A.S. Makarenko o'zlarining tarbiyaviy yondashuvlarida, pedagogik amaliyotlarida tarbiya vositalariga o'qish bilan birgalikda mehnat, bolalarni ijtimoiy-jamoaviy faoliyati, o'yin, san'atni ham kiritganlar. Makarenkoning ta'kidlashicha, «maktab, kun tartibi, maktab hayotidagi barcha narsalar» tarbiya vositasidir deb fikr bildirgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib tarbiya vositasi deganda birinchidan- umumiy ma'noda barcha ijtimoiy, madaniy, tabiiy borliqni, barcha ijtimoiy institutlar va sivilizatsiyani yaratishni, ikkinchidan-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan narsa va predmetlarni tushunamiz.

O'z navbatida narsa va predmetlar o'z joyida turganda tarbiya vositasi bo'la oladimi degan savol tug'iladi. V.I.Juravlevning fikricha, buyum va narsa tarbiya vositasi emas, u qachonki tarbiyalanuvchi faoliyatida ishtirok etsagina tarbiya vositasi bo'la oladi.

V.S. Selivanovanning fikricha, tarbiyalanuvchilarning faoliyat turlari (o'qish, mehnat, o'yin, muloqot) bu tarbiyaning fundamental vositalaridir. Pedagogika va psixologiya inson o'z malakalarini, xulq-atvor modelini, qadriyatlarini, hissiyotini odamlar bilan muloqot qilish jarayonida shakllantiriladi va rivojlantiradi deb ta'kidlaydi. Shuning uchun pedagog, sinf rahbari tarbiya maqsadiga erishish uchun tarbiyalanuvchlarni turli faoliyatlarini tashkil etishni bilishi kerak.

Har qanday maktabda bolalarni darsdan tashqari faoliyatlarini tashkil etish o'qituvchining asosiy ish sohasi hisoblanadi.

Maktablarimizda sinfdan tashqari faoliyatning quyidagi turlari: bilish, qadriyatga yo'naltirilgan, ijtimoiy, estetik, dam olish, texnik, sport, sog'lomlashtirish faoliyatlari tashkil etiladi.

Bilish faoliyati o'quvchilarda bilishga qiziqishni rivojlantirish, bilishlarni to'plash, aqliy qobiliyatni shakllantirish maqsadida ekskursiya, olimpiada, konkurs, ilmiy konferensiya shakllarida tashkil etiladi.

Qadriyatlarga yo'naltirilgan faoliyat mohiyatiga ko'ra dunyoga bo'lgan munosabatni shakllantirish jarayonidir. Bunda e'tiqod va qarashlar shakllandi. Sinf rahbari ijtimoiy axloqiy muammalar bo'yicha suhbatlar, sinf majlislari, munozaralar tashkil etib, o'quvchilarda hayotga bo'lgan qarash va munosabatlarni shakllantirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Ijtimoiy faoliyat o'quvchilarni maktabni boshqarish organlarida, o'z-o'zini boshqarish organlari ishida, maktabdagi turli o'quvchilar va yoshlar tashkilotlarida, mehnat, ijtimoiy, iqtisodiy aksiyalarda ishtirok etishlarini, ifodalaydi. Bu o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, maktab hududini tozalash, kecha va bayramlar shaklida tashkil etiladi.

Estetik faoliyat bolalarni badiiy hissiyotini, qiziqishlarini, madaniyatini, qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu konkurs, konsert, festival, teatrga borish shakllarida amalga oshiriladi.

Dam olish faoliyati mazmunli, rivojlantiruvchi dam olishni ifodalab, dam olish kechalari, musabaqa, o'yin, bayramlar kechalarini tashkil etish shakllari amalga oshiriladi.

Tarbiya shakllari

O'quvchilar faoliyati turlari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish shakli bilan uzviy bog'liq. Shakl hodisa va jarayonni ichki mazmunini tashqi tomondan uning tuzilishini tashkil etishni ifodalaydi. Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro aloqador faoliyati sifatida aniq tashkiliy shakllarda amalga oshiriladi. Ta'limni tashkil etish shakli muammosi tarbiya jarayonini tashkil etish shakliga nisbatan ko'p o'rganilgan soha hisoblanadi. Shakl tashkiliy tomonni aniqlab, tarbiyalanuvchilar bilan

tarbiyaviy ishlarni qanday sharoitlarda kim, qayerda, qanday, qachon tashkil etilishini ifodalaydi. Demak, tarbiyaviy ishlar shakli - bu aniq tarbiyaviy jarayonni vazifasi, mazmuni, metodlari amalga oshiriladigan tadbir, pedagogik ta'sirning tashkiliy tuzilishidir.

Shakl tarbiya jarayonining qismi sifatida uning maqsadiga, mazmuniga, metodlariga bog'liq. Shuning uchun tarbiya shakli aniq tarbiyaviy vaziyatlarga bog'liq bo'lib, ular turli xil, ijodiy takrorlanmas xarakterga ega.

Tarbiya jarayonini tashkil etish shaklini turkumlashga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan: N.E.Shurkova tarbiya shaklini asosiy faoliyat turi bo'yicha, bilish faoliyati, mehnat faoliyati, ijtimoiy foydali faoliyat, estetik faoliyat, jismoniy-sog'lomlashtirish, qadriyatli faoliyat shakllariga ajratgan.

N.I.Boldirev tarbiyaviy ishlar shaklini tarbiyaviy ta'sirni metodlarga bog'liqli- giga asosan tarbiya shaklini: og'zaki - (suhbatlar, ma'ruza, konferensiya, uchrashuv);

amaliy - (ekskursiya, spartakadialar, olimpiada, konkurslar, shanbaliklar);

kuzatish - (devoriy gazeta, muzeyga borish, ko'rgazma, stendlar) shakllariga bo'lgan.

An'anaviy pedagogikada tarbiya shaklini o'quvchilar miqdoriga ko'ra: yakka, guruhli, jamoa, ommaviy.

Vazifasiga ko'ra: madaniy, sport, huquqiy.

O'tkazish xususiyatiga ko'ra: ma'ruza, suhbat, munozara, uchrashuv, madaniy tadbirlar.

O'tkazish joyiga ko'ra: o'quv-tarbiyaviy, mehnat-tarbiyaviy, maktabdan tashqari, sport-tarbiyaviy.

O'tkazish vaqtiga ko'ra: rejali, profilaktik, yakuniy shakllariga ajratilgan.

Zamonaviy tadqiqotchilar maktabdagi tarbiyaviy vazifalar bo'yicha darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar shakllarni quyidagi uch guruhga ajratmoqdalar:

maktab hayotini boshqarish va o'z-o'zini boshqarish shakllari - majlis, sinf soati, lineyka, namoyish, o'z-o'zini boshqaruv organlari majlisi;

bilish shakllari — ekskursiya, poxodlar, festivallar, mavzuli kechalar, ko'rgazmalar;

dam olish shakllari —ertaliklar, kechalar.

Yuqoridagilardan ma'lumki, tarbiya jarayonini tashkil etish shakli klassifi- katsiyasida yagona fikr mavjud emasligini kuzatishimiz mumkin. Tarbiyachi tomonidan nomigagina hisob-kitob uchun o'tkazilgan tadbirlar

salbiy oqibatlariga olib kelishi ham mumkin. Tarbiya shaklini tashlash omillariga quyidagilar kiradi; tarbiya maqsadi, tarbiya mazmuni, tarbiyachilar yoshi, tarbiyalanuvchilarning tarbiyalanganlik darajasi, hudud xususiyatlari va an'analar, maktabning texnik va moddiy imkoniyatlari, o'qituvchining pedagogik mahorati.

Tarbiya jarayonini tashkil etishning og'zaki-mantiqiy shakllarida tarbiya- lanuvchilarga ta'sir etishning asosiy vositasi o'quvchilar hissiyotini uyg'otuvchi, unga emotsional tus beruvchi so'z bilan ishontirish, ya'ni so'z hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor ma'lumot almashishga, muammoni muhokama qilishga, o'quvchilarni xabardor qilishga e'tibor beriladi.

tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda tarbiyachi tomonidan quyidagilarga e'tibor berilishi maqsadga muvofiq:

- tadbirning nomlanishini, vazifalarini, shaklini aniqlash;
- mazmun bo'yicha materiallarni to'plash;
- ish ketma-ketligini rejalashtirish;
- ishtirokchilarni tayyorlash;
- tadbirni o'tkazish;
- tahlil va o'z-o'zini tahlil qilish.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Tarbiya metodlariga ta'rif bering.
2. Tarbiya shakllari, metodlari, vositalari o'rtasida qanday aloqadorliklar mavjud?
3. Tarbiya metodlari, vositalari, shakllari klassifikatsiyalarini izohlang?
4. Tarbiyaning asosiy metodlarini tavsiflang?
5. Ijtimoiy ongning shakllantiruvchi metodlarga nimalar kiradi?
6. Rag'batlantirish metodi nima?
7. Tarbiya vositalarini izohlang.

13-MAVZU: TARBIYA JARAYONIDA SHAXSNING SHAKLLANISHI. TARBIYA TURLARI

Tayanch tushunchalar: tarbiya mazmuni, ilmiy dunyoqarash, aqliy tarbiya, fuqarolik tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, estetik tarbiya, jismoniy tarbiya.

13.1. Tarbiya mazmuni muammosi.

Pedagogik adabiyotlar tahlilidan ma'lumki, mutaxassislar hozirgi paytda ta'lim va tarbiya mazmunini butun bir pedagogik jarayon mazmuni sifatida qarashmoqda. Ta'lim dasturi va standartlarida maktab o'quv fanlari

mazmuni (dastur va darsliklarda) bilim fan asosi sifatida va ijtimoiy normalar, qadriyatlar, munosabatlar sifatida birgalikda berilmoqda. Ta'lim jarayoni ta'limiy rivojlantiruvchi funksiya bilan birga tarbiyalovchi funksiyani ham bajarishini unutmasligimiz kerak. Ta'lim nazariyasida tarbiyalovchi ta'lim prinsipi mavjud. Bularning barchasi ta'lim va tarbiyaning jarayoniy va mazmuniy jihatdan bir butunlikni ifodalaydi.

Biroq yaqin o'tmishgacha maktablar sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkillashga asos bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash dasturlari mavjud edi. Bu shundan dalolat beradiki, ta'lim mazmuni bilan birga tarbiya mazmuni borligini anglatadi. Zamonaviy pedagogik nazariya ta'lim va tarbiyani yagona pedagogik jarayonda birlashtiradi.

Pedagogikada «tarbiya mazmuni» nimani anglatadi?, maktabdagi, oiladagi, maktabdan tashqari muassasa va tashkilotlarda tarbiyaviy ishlar mazmuni qanday bo'lishi kerak? Sinf rahbari va pedagoglarning tarbiyaviy ishlari uchun asos sifatida o'quvchilar tarbiyasi dasturi zarurmi? degan savolga qanday javob berayotganini ko'rib chiqaylik.

Tarbiya mazmuni — bu shaxsning individual ichki dunyosiga aylanadigan, o'zlashtirishi lozim bo'lgan jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyati elementlari, g'oya va ideallar, qadriyatlar, xulq-atvor normalari, bilimlar yig'indisi. Mohiyatiga ko'ra bu insonni shaxs va jamiyat a'zosi sifatida shakllanadigan barchasi madaniyat hisoblanadi. Tarbiya mazmuni to'g'risida gap borganda ko'pincha turli qarashlar tushuniladi. Birinchidan, bu butun insoniyatning hamda odamlarni xulq-atvor normalari va hayot tajribasi, madaniy ijtimoiy qadriyatlari. Ikkinchidan tarbiya mazmuni shaxsiy yondashuv pozitsiyasini individ sifatleri, tajribasi, ehtiyojlar, insonni ijtimoiy ma'qullangan va individual qabul qilingan uning madaniyati va qadriyatlar tizimi yig'indisi sifatida ochib beradi. Uchin- chidan, tarbiya mazmuni deganda tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar faoliyatining maqsadini, vazifalarini, shakllarini aniqlovchi muassasaning tarbiyaviy faoliyati.

Maktab, oila, jamiyatda tarbiyaviy ishlarni olib borish va tashkil etish uchun shaxs shakllanishi uchun xizmat qiluvchi madaniyat elementlarini tarbiya mazmuni deb qabul qilish zarur. Tarbiya mazmunini tanlash, tarbiyaviy ishlar dasturini tuzish ishlarini yengillashtiradi.

Bugungi kunda o'quv tarbiyaviy muassasalarda tarbiya mazmunini aniqlash va tanlashga bo'lgan bir qator yondashuvlar mavjud.

Birinchi, an'anaviy yondashuv: tarbiya mazmunini tarbiya maqsadi orqali belgilash. Ya'ni shaxsni har tomonlama garmonik jihatdan rivojlantirish, aqliy, axloqiy, mehnat, estetik, jismoniy tarbiya. XX asrning 90-yillariga kelib, bu yondashuv tanqidga uchradi. Tanqidchilarning

ta'kidlashicha, tarbiya jarayoni, shaxsni bir butun shakllanishi sun'iy qismlarga ajratilganligidir. Bundan tashqari, tarbiya mazmuni kommunistik g'oyalarga, davlat qiziqishlariga yo'naltirilgan edi. Shaxs qiziqishlari, imkoniyatlari, ehtiyojlariga kam e'tibor berilganligi bilan xarakterlanar edi.

Shuning uchun XX asrning 90-yillarida tarbiya mazmunini aniqlashga bo'lgan ikkinchi yondashuv paydo bo'ldi. Bu yondashuvning mohiyati shuki, bunda tarbiya mazmuni shaxsning madaniyati elementlari asosida shakllantiriladi. Shaxsning aqliy madaniyati, jismoniy madaniyati, axloqiy madaniyati v.b.

Tarbiya mazmunini aniqlashga bo'lgan uchinchi yondashuv mohiyati shuki, bunda tarbiya mazmuni qadriyatlarga munosabat sifatida qarash bilan xarakterlanadi. Bu yondashuv rus pedagogi N.E.Shurkova, mamlakatimizda O.Musurmonova, S.Mamajonovalar tomonidan asoslangan.

Yuqoridagi barcha tarbiya mazmunini tanlash, aniqlashga bo'lgan yonda- shuvlar tarbiyaning asosiy vazifalarini inkor etmagan holda bir-birini to'ldiradi.

Shunday qilib, tarbiya mazmuni tarbiya maqsadi, vazifalari, ijtimoiy qadriyatlar hamda ideallar asosida shakllanadi. Tarbiya jarayoni mazmuni qadriyatlarga bo'lgan munosabatlarni va shaxs madaniyatini shakllantirish faoliyati sifatida ifodalanadi. Tarbiyaviy jarayon mazmunini alohida yo'nalishlar bo'yicha ko'rib chiqamiz.

13.2. O'quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va aqliy tarbiyasi.

Aqliy tarbiya shaxsda tabiat, jamiyat, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni hosil qilish, bilish qobiliyati, tafakkur, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish jarayoni bo'lib, u yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega shaxsni tarbiyalashda yetakchi o'rin tutadi.

Shaxs tomonidan bilimlarning o'zlashtirilganligini, ma'lumotga ega bo'lganlikni, shuningdek, uning aqliy qobiliyati darajasini ifodalovchi sifatlarga aqliy sifatlar deyiladi. Shaxsda bilimdonlik, zukkolik, topqirlik, tezkor fikrlash, tasavvurning boyligi, ijodkorlik, geniallik, boy dunyoqarashga egalik kabi aqliy sifatlar namoyon bo'ladi.

Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika va texnologiya sohasida erishilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan xabardor qilish, ijtimoiy va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarni berish orqali ularda tafakkur, dunyoqarashni rivojlantirish maqsadini amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Aqliy tarbiya vazifalari:

1. O'quvchilarga ilmiy bilimlarni berish.

2. O'quvchilarda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga ongli munosabatni qaror toptirish.

3. O'quvchilarda mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

4. O'quvchilarda o'z bilimlarini doimiy boyitib borishga intilish tuyg'ularini shakllantirish.

5. O'quvchilarda bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

6. O'quvchilarga zamonaviy bilimlarni berish asosida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

Dunyoqarash shaxsning tabiatga, jamiyatga, o'zining ijtimoiy muhitdagi o'rniga, o'z-o'ziga, turli voqeliklarga munosabatini belgilab beradigan qarashlari, e'tiqodi, hayotiy tajribasi va faoliyat tamoyillarining tizimidir.

Dunyoqarash — inson faoliyati yo'nalishini aniqlovchi va uning ongida dunyoning umumiy ko'rinishini ifodalovchi falsafiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, estetik qarashlar tizimidir. Zamonaviy psixologiya dunyoqarashni shaxs rivojlanishining bir qismi deb hisoblaydi. Dunyoqarashning asosini ilmiy bilimlar tashkil etadi. Shaxs dunyoqarashi izchil, tizimli, uzluksiz, maqsadga muvofiq tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yish orqali uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlash, o'z-o'zini tarbiyalab borishi uchun zarur shart-sharoitni asosida shakllantiriladi. Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega jarayon sanaladi. Dunyoqarashni shakllantirish uchun bilimlarni o'zlashtirish, mazmuni tanlash, o'qitish metodlarini, bilim va faoliyat sohasidagi fundamental g'oyalarni ajratib olish bilan, predmetlararo aloqa bilan ta'minlanadi. Har qanday ta'lim tizimi dunyoqarashni shakllantiradi. Sobiq ittifoq davrida o'quvchilarda tabiat, jamiyat, inson, bilish to'g'risidagi dialektik materializm nazariyasini shakllantirishga e'tibor berilar edi. Hozirda ilmiy materialistik qarashlarni shakllantirishga e'tibor berilmoqda.

Dunyoqarashning mifologik, diniy, ilmiy turlari mavjud.

Mifologik dunyoqarash - ibtidoiy jamoa tuzumida borliqni obrazli qabul qilish asosida shakllangan tasavvurlar majmuasini ifodalovchi dunyoqarash.

Diniy dunyoqarash - borliqning ilohiy kuchga, ilohiyotga ishonish asosida qabul qilinishini ifodalovchi tasavvurlar, urf-odatlar, marosimlar majmui.

Ilmiy dunyoqarash - ilmiy metodlar yordamida ko'p bor tekshirish, umumiy holda insoniyat tajribasi bilan tasdiqlanish qonunlariga tayanuvchi dunyoqarash.

Ilmiy dunyoqarash uzluksiz, izchil ravishda insoniyat tomonidan orttirilgan, mavjud ilmiy bilimlarni puxta o'zlashtirish, hayotiy tajriba orttirish asosida shakllanadi. Ilmiy dunyoqarash ta'lim jarayonida shakllanadi. Ilmiy qarash muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya bo'lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o'zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. Ilmiy qarash ilmiy dunyoqarashdan farqlanib, uning shakllanishi uchun asos vazifasini o'taydi.

Ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs:

- tabiat, jamiyatda ro'y berayotgan voqea, hodisalar mohiyatini to'g'ri talqin eta oladi;

- o'ziga va atrofdagilarga nisbatan oqilona munosabatda bo'ladi;

- hech qachon dalillar bilan isbotlanmagan voqelik, hodisalarni haqiqat sifatida qabul qilmaydi;

- ilmiy dunyoqarashga egalik shaxsda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;

- zamonaviy sharoitda inson ongini boshqarish ilinjida yurgan turli oqimlar, ularning missionerlik faoliyatlari ta'siriga, mistik g'oyalarga berilmaydi;

- shaxsiy hayotida, shuningdek, ijtimoiy jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarning muayyan qonuniyatlarga asoslanishiga ishonadi va ularni tabiiy qabul qiladi;

- o'zining va jamiyat hayotida sodir bo'layotgan salbiy hodisalarni o'tkinchi sifatida qabul qiladi, kelajakka ishonch bilan qaraydi.

13.3. Yoshlarni fuqarolik tarbiyasi.

Huquq va majburiyatlarni anglaydigan fuqaroni tarbiyalash har qanday jamiyat ijtimoiy institutlarining vazifasidir. Fuqaro - fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan davlat a'zosi bo'lgan shaxsdir. Fuqarolik tarbiyasi - bu davlat a'zosi uchun zarur sifatlarni, ya'ni siyosiy madaniyat, huquqiy madaniyat hamda vatanparvarlik, millatlararo munosabatlardagi madaniyatni shakllantirish bo'yicha tarbiyaviy ishlar tizimidir. Demak fuqarolik tarbiyasi — bu davlat a'zosi uchun zarur

bo'lgan sifat va fazilatlarni shakllantirish bo'yicha tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayoni hisoblanadi. Fuqarolik tarbiyasi - o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlarini uchun kurashuvchi fuqaro sifatida tarbiyalashga qaratilgan pedagogik jarayon sanaladi. Fuqarolik tarbiyasi orqali shaxsning siyosiy va huquqiy madaniyati, unda vatanparvarlik va millatlararo munosabatlar shakllantiriladi. Fuqarolik tarbiyasi o'quvchilarga fuqaroning burch va majburiyatlari, huquqlari to'g'risidagi bilimlarni berish asosida ularni fuqarolik madaniyatini shakllantirish maqsadini ifodalaydi. Pedagoglar tomonidan siyosat, fuqarolik, vatanparvarlik, huquq tushunchalarining mazmun-mohiyatini bilishliklari yoshlar orasida fuqarolik tarbiyasini tashkil etishlarida yordam beradi.

Siyosat — qonun va huquq yordamida davlatni boshqarish san'ati bilan bog'liq bo'lgan, hukumat va insonlar guruhi orasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi faoliyat sohasidir. Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarida fuqarolik ongi shakllangan, siyosiy va huquqiy madaniyatli bo'lishlari talab etiladi.

Fuqarolik - huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish, burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondashish, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Shaxsning fuqarolik madaniyati uch qismdan, ya'ni bilim (siyosat va qonun sohasidagi qarashlar, nazariyalar, tushunchalar), munosabat (mamlakatning siyosiy-ijtimoiy hayotiga ongli munosabat), xulq (siyosiy hayotda ishtirok etish, faol fuqarolik pozitsiyasini egallash, mamlakat qonunlariga bo'ysunish)dan iborat. Bugungi globalashuv jarayonida mamlakat qonunlariga amal qilish, qonunga bo'ysunuvchi fuqaro bo'lish, mamlakatning siyosiy va ijtimoiy hayotiga ongli munosabatda bo'lish, siyosat va huquq sohasidagi bilimlarga ega bo'lish jamiyatning har bir a'zosi qo'yilgan talabdir.

Ushbu talablardan kelib chiqqan olda, fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

1. Yosh avlodni jamiyatda ustuvor bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya etishga o'rgatish.

2. O'quvchilarga fuqarolik huquq, burchlari to'g'risida ilmiy jihatdan asoslangan bilimlar berish, ularni fuqarolik faoliyati ko'nikma, malakalarini hosil qilish.

3. O'quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat, muhabbatni qaror toptirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish.

4. O'quvchilarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga muhabbat hissini uyg'otish, ulardan g'ururlanish, faxrlanish, iftixor tuyg'ularini rivojlantirish.

5. Vatan, xalq, millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoyi fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish.

6. Vatan, yurt ozodligi, mustaqilligini e'zozlaydigan, uni himoya qilishga tayyor fuqarolarni tarbiyalash.

Ta'lim muassasalarida o'qituvchilar asosan yoshlarda siyosiy faollikni shakllantirish, ularni mamlakatni ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtiroklarini ta'minlashga e'tibor berishlari zarur. Yuqoridagi vazifalarni hal etish uchun ta'lim muassasalarida fuqarolik tarbiyasining quyidagi shakllarida tarix, jamiyatshunoslik kabi fanlar o'qitilishida hamda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar tashkil etilishi orqali erilishiladi.

Fuqarolik tarbiyasida vatanparvarlikning o'rni beqiyosdir. Vatanparvarlik — bu insonni tug'ilib o'sgan joyiga ona vataniga muhabbati, unga sodiqlik, o'z vatani qiziqishlarini himoya qilishiga intilishi, uni o'tmishi va hozirgi kundan mag'rurlanishidir. Vatanparvarlik - shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi, uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat. Vatanparvarlik - imon, e'tiqod, vijdon amri bilan, Vatan va millat oldidagi mas'uliyat va burchni anglashdir. Vatanparvarlik oldin. Vatanga hurmat va muhabbat bilan bog'langan tuyg'u sifatida shakllanadi. Demak, vatanparvarlik - o'z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog'lagan, barcha kishilarga xos fazilatdir. Vatanparvarlik har bir o'quvchini qalbida, ongida, faoliyatida vatanning o'tmishi hozirgi kundagi holati va manfaatlari, istiqboli haqidagi fikrlar uyg'unlashib bir tizimga kelishi, uning faoliyatiga maqsad va yo'nalish beruvchi ichki ma'naviyatga aylanishidir.

Vatanparvarlik bo'yicha tarbiyaviy ishlar mazmuniga o'quvchilarni o'z mamlakatlari tarixini o'rganishlari hamda o'z xalqi madaniy merosini avaylab- asrashi hamda o'z ona tilisini saqlash faoliyati kiradi. Shuning uchun maktabning vazifasi o'quvchilarga vatanparvarlikning mohiyatini, vatanparvarlik his-tuyg'usini mazmun-mohiyatini tushuntirishdan iborat. Vatanparvar - o'z Vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevadigan, vatan manfaatlari uchun kurashadigan, bu yo'lda fidoyilik ko'rsatadigan shaxs.

Vatanparvar shaxs o'zida quyidagi sifatlarni namoyon etadi:

Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, unga sadoqat;

- o'zi mansub bo'lgan millat o'tmishi, urf-odatlari, an'analari,

qadriyatlariga sodiqlik;

- Vatan va millat tarixidan g'ururlanish;
- yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish borasida g'amxo'rlik qilish;
- Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo'lida mehnat faoliyatini tashkil etish;
- yurt ozodligi va millat erkiga qilinayotgan har qanday tahdidga qarshi kurashish;
- Vatan va millat obro'yi, sha'ni, or-nomusini himoya qilish;
- yurt ravnaqi va millat taraqqiyotiga ishonish.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni vatan himoyasi va harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulodda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma, malakasini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon sanaladi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi yoshlarni vatan himoyasi hamda harbiy mudofaaga tayyorlash, ularda favqulodda holatlarda harbiy mudofaani tashkil etish ko'nikma, malakalarini shakllantirishdan iborat.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- o'quvchilarga fuqaro mudofaasi, harbiy bilim asoslari bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarni berish orqali ularda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish;
- o'quvchilarni milliy mustaqillik, O'zbekiston Respublikasining davlat qurilishi va konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi uyushtiriladigan tahdidlarning oldini olishga tayyorlash;
- o'quvchilarda g'oyaviy onglilik, terrorizm, diniy ekstremistik g'oyalarga qarshi nafrat tuyg'usini tarbiyalash;
- o'quvchilarning Vatan himoyasini ta'minlashga oid harbiy-texnik tayyorgarlikka ega bo'lishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
- o'quvchilarda favqulodda vaziyatlarda tegishli chora-tadbirlarni ko'ra olish, qurolli xurujlardan himoyalani ko'nikma, malakalarini shakllantirish; ularda hushyorlikni oshirish va hokazolar.

Fuqarolik tarbiyasining yana bir ajralmas qismi huquqiy madaniyatni shakllantirish hisoblanadi.

Prezidentimiz huquqiy madaniyat xususida «Huquq madaniyatning darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas, u qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir» deb ta'kilaganlar. Insonda huquqiy ong va

madaniyat o'z-o'zidan shakllanmaydi. U jamiyatda, oilada, jamoatchilik o'rtasida, ta'lim-tarbiya natijasida shakllanadi.

Huquqiy madaniyat — bu mamlakatning huquqiy tizimi, asosiy huquqiy me'yorlari, huquqiy normalarga amal qilishga intilish to'g'risidagi bilimlar. Huquqiy madaniyat shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning samarali o'zlashtirilishi va huquqiy faoliyatni samarali tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi. Huquqiy tarbiya shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma, malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish, huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Huquqiy tarbiya o'quvchilarga huquqiy bilimlarni berish orqali ularda huquqiy madaniyatni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Huquqiy ta'lim - o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar, ijtimoiy-huquqiy munosabatlar to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar, ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, ularning ijtimoiy ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlarni berish;
- o'quvchilarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni hosil qilish;
- o'quvchilarda huquqiy ongni shakllantirish;
- o'quvchilarda huquqiy faoliyat ko'nikma va malakalarni hosil qilish;
- o'quvchilarda huquqiy madaniyat (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy savodxonlik, huquqiy tafakkur, huquqiy mas'ullik, huquqiy faollik, huquqiy e'tiqod, huquqiy salohiyat)ni, huquqiy madaniyat elementlari (huquqiy me'yor, qonunlarning ijtimoiy ahamiyatini to'g'ri baholash, ijtimoiy harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarliklarga qarshi murosasiz kurashni tashkil etish kabilar)ni shakllantirish.

Fuqarolik tarbiyasining yana bir ajralmas qismi millatlararo totuvlik, baynalmilallikni shakllantirish hisoblanadi. Baynalmilallik - o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlarini, an'analari, turmush tarzi,

tili, vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilatlardan biridir.

Baynalmilallik tarbiyasi o'quvchilarda o'zga millat va elatlarning haq- huquqlari, erki, urf-odatlarini, an'analari, turmush tarzi, tili, vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning milliy manfaatlariga ziyon yetkazmaslik kabi sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni sanaladi.

Baynalmilallik tarbiyasining maqsadi o'zga millat va elatlarning haq- huquqlari, erki, urf-odatlarini, an'analari, turmush tarzi, tili, vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning milliy manfaatlariga ziyon yetkazmaslik kabi sifatlarni shakllantirish, o'zga millat va elatlarning vakillari bilan o'zaro do'stlik aloqalarini o'rnatishga tayyorlashdan iborat.

Baynalmilallik tarbiyasini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- o'quvchilarni o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlarini, an'analari, turmush tarzi, til xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish;

- o'quvchilarga o'zga millat va elatlarning tarixi, bugungi taraqqiyoti, umuminsoniyat madaniyatiga qo'shgan hissasi, jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni, vijdon erkinligiga oid ma'lumotlarni berish;

- o'quvchilarda o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlarini, an'analari, turmush tarzi, til xususiyatlari, vijdon erkinligiga hurmat, milliy manfaatlariga ziyon yetkazmaslik kabi sifatlarni shakllantirish;

- o'quvchilarni o'zga millat va elatlarning vakillari bilan o'zaro do'stlik aloqalarini o'rnatishga amaliy jihatdan tayyorlash.

13.4. Ma'naviy-axloqiy tarbiya.

Mamlakatning ta'lim tizimi, ya'ni maktab, oliy ta'lim muassasalari nafaqat ilmiy jihatdan intellektual rivojlangan, jismonan sog'lom, balki ma'naviy pok, axloqan tarbiyalangan bitiruvchilarni yetishtirib chiqarishi davr talabidir. Mamlakatimizda axloqiy tarbiya mazmuni professor Malla Ochilov tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Uning yaxshilik qilish, sabr-qanoatli bo'lish, rostgo'ylik, adolatlilik, mehr-oqibat, saxiylik, poklik, kabi insoniy-axloqiy fazilatlar to'g'risidagi qarashlari yoshlar tarbiyasida ahamiyatlidir. O'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirishda o'tmish axloqiy merosini, ayniqsa ulug' mutafakkirlarning fikrlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki ularning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya sohasidagi fikrlari, axloqiy qarashlari

bugungi taraqqiyot uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Ularning hayot yo‘li, axloq haqidagi fikrlari har bir o‘quvchini axloqiy madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Sharq allomalarining axloqiy qarashlari o‘quvchilar qalbida insoniylikni shakllanishiga yordam beradi.

Butun dunyoda, jamiyatda axloqiy tarbiyaning ahamiyati ortib bora-yotganini, lekin shu bilan birga ommaviy axborot vositalari, keng jamoatchilik, turli soha mutaxassisleri hayotning turli sohalarida axloqiy normalarni pasayishi kuzatilayotganligi haqida fikr bildirilayotganini kuzatishimiz mumkin. Nima uchun aynan yoshlar, bolalar orasida axloqiy normalarni buzilish holatlari kuzatilmoqda? Ushbu savolning javobi axloqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

Axloqning vujudga kelishi va mohiyati, odamlarni axloqiy ongi va xulqi to‘g‘risidagi muammolarni etika fani o‘rganadi.

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, ijtimoiy munosabatlar va shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan, rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot, xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sanaladi.

Axloq tarixiy, o‘zgaruvchan xarakterga ega bo‘lib, axloqiy qoidalar odamlar hayotining ijtimoiy sharoitlarida aniqlanadi va jamiyatning turli qatlamlarida turlicha bo‘ladi.

Axloqiy me'yor jamiyat tomonidan tan olingan bo‘lib, uning a'zolari tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bo‘lgan qoida hisoblanadi.

Axloqiy odat - axloqiy xatti-harakatlarning mukammallashtirishga bo‘lgan ehtiyoj bo‘lib, u o‘quvchilarda qulay vaziyatlarda ijobiy mazmunga ega xatti-harakatlarning izchil, doimiy, tizimli takrorlanishi hisobiga hosil bo‘ladi.

Axloqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, milliy istiqlol g‘oyasining o‘quvchilar ongida aks etishi.

Axloqiy xulq motivlari va nazorat joyiga ko‘ra, axloqiy rivojlanish darajasi amerika olimi Ya.Kolbergning ta'kidlashicha, uchta guruhga bo‘linadi.

1. Axloqgacha (bola axloq talablarini jazodan, ya'ni tashqi nazoratdan qo‘rqib bajaradi).

2. Konvensional (axloq talablariga yaxshi yashash uchun amal qiladi).

3. Avtonom (hayot qoidasiga aylanib bo‘lgan, o‘z ixtiyori bo‘yicha amal qiladi).

Axloqiy tarbiya bu tarbiyalanuvchilarda axloqiy bilimlar, axloqiy his-tuyg‘u, axloqiy xulqni shakllantirish bilan bog‘liq pedagogik

faoliyatdir. Axloqiy tarbiyaning ijtimoiy aspekti bu jamiyatda qabul qilingan axloq me'yorlari va prinsiplaridir.

Axloqiy tarbiya o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarni singdirish jarayoni.

Axloqiy tarbiyani maqsadi o'quvchilarni ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy me'yorlarning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, ularda ijtimoiy-axloqiy me'yorlarga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida axloqiy ong va madaniyatni shakllantirish hisoblanadi.

Axloqiy tarbiyani vazifalari:

1. O'quvchilarni odob-axloq qoidalari va ijtimoiy axloq me'yorlari bilan tanishtirish.

2. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish.

3. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ularini tarbiyalash va rivojlantirish.

4. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifat (ota-onani, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehnatsevarlik, bilim olishga intilish, kamtarlik, halollik, rostgo'ylik, olijanoblik, muruvvatlilik, rahmdillik, moddiy va ma'naviy ne'matlarni asrash, kelajakka ishonch bilan qarash va h.o.)larni tarbiyalash.

5. O'quvchilarda axloqiy xulq-atvor ko'nikma, malaka va odatlarini tarkib toptirish.

Hozirda zamonaviy dunyo insoniylik prinsiplariga asoslangan, axloq normalariga va insoniylik axloqiga tayangan qadriyatlarga muhtojlik sezmoqda. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

Insoniylik insonni axloqiy fazilati hisoblanib, insonni insonga hurmatini, insonni oliy qadriyat sifatida qarashni, uni tushunishni, unga yordam berishni ifodalaydi.

Insonga, uning qarashlari, qadriyatlariga ishonish, ushbu ideallarga xizmat qilish.

O'z mas'uliyatini bajarishda erkinlik, maqsadga erishishni bilish, o'z o'ziga talabchan bo'lish va jamiyat talablarini bajarish hamda intizomli bo'lish.

O'z xatti-harakati uchun javob berish, o'z xatolarini tan olish va tuzatish.

Yer yuzidagi barcha jonzotlarga, tabiatga nisbatan hurmatda bo'lish.

Halollik, adolatlilik, prinsipiiallik, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchan hamda sabrli bo'la olish.

Yuqoridagilar O‘zbekiston xalqini axloq kodeksi emas, balki oiladagi, maktabdagi, jamiyatdagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etish uchun asos bo‘la oladigan axloqiy normalardir.

Axloqiy tarbiyani tashkil etishning asosiy shakli bu umumta'lim maktablrimizda adabiyot, tarix, jamiyatshunoslik darslaridir. Bundan tashqari, sinfdan va maktabdan tashqari axloqiy mavzularda tashkil etilgan tadbirlar,

uchrashuvlar ham o‘quvchilarda axloqiy sifat va fazilatlarni shakllantirilishida muhim o‘rin tutadi. Shaxsning tabiiy va ijtimoiy borliqqa, o‘ziga hamda atrofdagilarga ijobiy munosabatini, shaxslararo munosabatda axloqiy me'yorlarga qat'iy amal qilishini ifodalovchi sifatlar ma'naviy-axloqiy sifatlar deb yuritiladi.

Shaxsning axloqiy sifatlariga xushmuomalalik, axloqlilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, mehribonlik, rahmdillik, saxovatlilik, oqko‘ngillilik, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, baynalmilallik, sabrlilik, bilimlilik, e'tiqodlilik, adolatparvarlik, haqiqatgo‘ylik, o‘zgalarni tushuna olish, muhtojlarga yordam ko‘rastish kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko‘rsatish, intizomlilik v.b.

Maktabda, oilada axloqiy tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgandagina shaxsga xos quyidagi salbiy axloqsizlik, odobsizlik, manmanlik, kibrlilik, dangasalik, maqtanchoqlik, ko‘ngli qoralik, xasislik, vatanfurushlik, sabrsizlik, bilimsizlik, e'tiqodsizlik, adolatsizlik, yolg‘onchilik, qahri qattqlik, berahmlik, kattalarni hurmat qilmaslik, kichiklarga izzat ko‘rsatmaslik, intizomsizlik kabi axloqiy sifatlni shakllanishining oldini olinishiga erishiladi.

Axloqiy tarbiya umuminsoniy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Axloqiy tarbiya o‘quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarni singdirish jarayoni.

Ushbu tarbiya asosini ijtimoiy axloqiy me'yorlar hamda shaxsni ulardan xabardor etish tashkil qiladi. Axloqiy me'yor jamiyat tomonidan tan olingan bo‘lib, unda yashovchi kishilar tomonidan bajarilishi majburiy-ixtiyoriy bo‘lgan qoida hisoblanadi

Axloq axloqiy tarbiyaning asosiy kategoriyasi sanaladi. Axloq (lot. «moralis» - xulq-atvor) ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, ijtimoiy munosabatlar va shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan, rioya qilinishi zarur bo‘lgan tartib, odob, o‘zaro munosabat, muloqot, xulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sifatida aks etadi

Qur'oni karim va Hadisi shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar asrlar davomida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar mazmunida o'z ifodasiga ega bo'lgan. Sharq mutafakkirlari Muhammad al- Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al- Farg'oniy, Imom Ismoil al-Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Nahshband, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning axloq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov aytganidek: «Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillik, millatidan qat'i nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi - kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vatanga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlariga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom O'zbekiston aholisiga xos fazilatlaridir».

Amir Temur - yaxshi xulqlar egasi bo'lgan. U oqil va tadbirli hukmdor sifatida kishilarni turli lavozimlarga tayinlash va vazifasidan ozod etishda ham 155

shoshma-shosharlik va adolatsizlikka yo'l qo'ymagan, balki yetti o'lchab, bir kesgan.

Imom Ismoil al-Buxoriy «Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik - mana shu to'rt xislatni Alloh taolo senga bergan bo'lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham, zarari yo'qdir», degan edi.

Demak, axloqiy tarbiya barkamol inson tarbiyasida yetakchi bo'g'in, insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukammalikka erishtiruvchi vosita hisoblanadi. Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, axloqiy tarbiya insonlarni yaxshilik- ka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir omildir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligi, yomon xulqlarning yomonligini dadil va misollar bilan bayon qiladurg'on kitobdir.

Axloq kishining xulq-atvori, e'tiqod-imoni, yurish-turishi, fikr-mulohazalari, mushohada va muloqotida namoyon bo'ladi. Axloqli inson o'zini qattiq hurmat qiladi, intizomli bo'ladi. Suhbatdoshning ko'ngliga qarab gapiradi, kishi dilini og'ritmaydi, muloqot odobiga rioya qiladi.

13.5. Mehnat tarbiyasi.

Mamlakatimizda mehnat tarbiyasining mazmuni va bolalarni mehnatga tayyorlash muammolari Rahima Mavlonova, Mamat

Haydarovlar tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Rahima Mavlonovaning fikricha, bolalarni mehnatga tayyorlash - bu mehnatga nisbatan ularning yoshiga muvofiq keluvchi ongli va ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, ularda amaliy ko'nikma va malakalarini egallashga qiziqishni shakllantirish demakdir. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga yoshligidan boshlab mehnat - bu har bir insonni vijdoni va burchi ekanligini, inson o'z mehnati bilan sharaflanishini, faqat Vatan farovonligi yo'lida qilingan mehnatdagina insonning eng yaxshi fazilatlari rivojlanishi hamda takomillashishi mumkinligi anglashlariga yordam berishdir.

Oilada, maktabda, jamiyatda mehnat tarbiyasi — bu mehnat ko'nikmalarini va axloqiy sifatlarni shakllantirish, tanlagan mutaxassislik bo'yicha ishlashni bilish, mehnatni va o'zgarar mehnati natijasini hurmat qilish, mehnat qilishga ehtiyojni tushunadigan, his eta oladigan insonni shakllantirish tizimidir. Mehnat tarbiyasi shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnat va mehnat faoliyatiga ongli munosabatni, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma, malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Mehnat tarbiyasini tashkil etish shaxsda mehnat va mehnat faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirish maqsadini amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Ta'lim muassasalarida mehnat tarbiyasini tashkil etishda mehnatning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

- 1) o'quv mehnati;
- 2) ijtimoiy-foydali mehnat;
- 3) o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish;
- 4) ishlab chiqarish mehnati.

O'quv mehnati - o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlar, o'quv fanlari asoslarini o'zlashtirish orqali ularni amaliyotga tatbiq etishga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan amaliy faoliyati.

Ijtimoiy-foydali mehnat - o'quvchilar guruhi (jamoasi) tomonidan tashkil etilib, ijtimoiy ahamiyat kasb etgani holda bevosita shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning muayyan ijtimoiy ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan mehnat faoliyatining alohida turi sanaladi. O'quvchilar ijtimoiy-foydali mehnatini tashkil etishda sinf xonasi yoki oshxonada navbatchilikni tashkil qilish, hasharlar, mehnat bayrami, ko'kalamzorlashtirish, maktab binosini ta'mirlash, fermer hamda jamoa xo'jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yig'ib olishda dehqonlarga ko'maklashish kabi shakllardan samarali foydalanish

mumkin. O‘z- o‘ziga xizmat - o‘quvchilar tomonidan oilada, ta‘lim muassasasida, omma uchun xizmat ko‘rsatiladigan muassasalarda o‘z ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, zimmalaridagi vazifalarni ado etish maqsadida tashkil etiladigan mehnat faoliyatidir. O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishning eng oddiy ko‘rinishlari umumiy ovqatlanish muassasalarida xodimlar xizmatidan foydalanmaslik, oilada yotoqxonani tartibga keltirish, kiyim-kechaklarni ozoda, o‘quv qurollarini esa tartibli saqlash, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish yo‘lida muayyan harakatlarni bajarish kabilar sanaladi. O‘quvchilarning ishlab chiqarish mehnati ta‘lim muassasalarida o‘quvchilarni muayyan yo‘nalishlar bo‘yicha kasb yoki hunar asoslaridan xabardor qilish, ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish yo‘lida olib borilayotgan pedagogik faoliyat ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Mehnat tarbiyasining asosiy qismi kasbga yo‘naltirish hisoblanadi. Kasbga yo‘naltirish — bu o‘quvchiga mehnat bozoriga va imkoniyat va ehtiyojlariga mos keluvchi kasbni tanlashlariga yordam berish jarayoni hisoblanadi. O‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirish ta‘lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik faoliyat hamda o‘quvchilar ishlab chiqarish mehnatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra o‘quvchilar muayyan kasb yoki hunar borasidagi bilim, ko‘nikma, malakalar bilan qurollantiriladilar.

Kasbga yo‘naltirish tizimi quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- kasbiy ta‘lim — o‘quvchilarni mehnat, kasblar dunyosi, kasb tanlash muammolari bilan tanishtirish;

- kasbiy tashxis—o‘quvchilarni kasb tanlashga tavsiyalar berish uchun o‘rganish. Tashxis tibbiy, psixologik, pedagogik bo‘lishi mumkin;

- kasbiy maslahat — kasb tanlash bo‘yicha maslahat va tavsiyalar berish;

- kasbiy tanlov — biror bir kasbga nomzodlarni tanlash;

- kasbiy moslashuv — ishlab chiqarish sharoitlariga va kasb talablariga yoshlarni moslashish jarayoni.

O‘quvchilarni kasblar dunyosi bilan tanishtirish suhbat, ekskursiya, uchrashuvlar, anjumanlar, konkurslar shaklida tashkil etiladi. O‘quvchilarni kasblarga bo‘lgan qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishda to‘garaklarni, klublar faoliyatini, bolalar markazlarini o‘rni beqiyosdir.

O‘quvchilarni kasb tanlashga tayyorgarlik ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat. Kasb va uning shaxsga nisbatan talablari to‘g‘risidagi bilimlari, o‘zining individual xususiyatlarini bilishi, tanlagan

mutaxassislik bo'yicha o'quv va amaliy ishlar, umumiy mehnat ko'nikmalari ko'lami.

13.6.O'quvchilarni estetik tarbiyasi.

Estetik qadriyatlar, ideallar, ommaviy madaniyat kabi masalalar keng jamoatchilik, olimlar, mutaxassislar tomonidan muhokama qilinayotganligini guvohi bo'lmoqdamiz.

Jamiyat a'zolarining estetik madaniyati masalalari barcha davrlarda o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Demak, bugungi kunda ham yoshlarni estetik jihatdan tarbiyalash o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Estetik tarbiya - shaxsni tabiat va jamiyatdagi go'zalliklarni ideal nuqtayi nazardan idrok etishga o'rgatadi. Estetik tarbiya - o'quvchilarda estetik bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirishni hamda estetik his-tuyg'u, qiziqish, ehtiyoj, baho berish kabi xislatlarni tarbiyalash masalalarini o'z ichiga oladi. Estetik tarbiya mohiyati asosan quyidagilardan iborat:

- tabiat va voqelikdagi go'zalliklarni idrok etish va zavqlanish;
- san'at asarlarini to'g'ri tushuna bilish va baholash;
- o'zining qobiliyat va iste'dodlarini namoyon etishga intilish;
- hamma narsada, ya'ni tabiatda, munosabatda, mehnatda, go'zallik uchun kurashish;
- xunuklik va tartibsizlikka murosasiz bo'lish.

Shunday qilib, estetik tarbiya —bu san'at va hayotdagi go'zalliklarni tushunish va his eta olish qobiliyatlarini shakllantirish, san'at sohasidagi qobiliyatlarni rivojlantirish, estetik bilim va his-tuyg'uni shakllantirish jarayonidir. estetik tarbiyaning maqsadi shaxsda estetik madaniyatni shakllantirish hisoblanadi. Estetik tarbiyani tashkil etishda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- o'quvchilarga ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari, turmush go'zalliklari, ularni anglash to'g'risidagi bilimlarni berish;
- o'quvchilarni badiiy-estetik madaniyatini boyitish;
- o'quvchilarda musiqiy, badiiy ziyraklikni, ijodiy tafakkurni rivojlantirish;
- o'quvchilarda ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari, turmush go'zalligini anglash, his qilish qobiliyatini tarbiyalash;
- o'quvchilarda mavjud go'zalliklarni qadrlash hissi, estetik didni shakllantirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish;
- o'quvchilarda go'zallikni yaratish ehtiyojini qaror toptirish, estetik qobiliyat va madaniyatni shakllantirish.

Estetik madaniyat elementlari quyidagi komponentlardan iborat:

- estetik qarash - estetik ongning g'oyaviy negizi, tabiat, hayot, san'at mohiyati haqidagi estetik fikr-mulohazalar va g'oyalar tizimi;

- estetik idrok - ijtimoiy voqelik, buyum, hodisalarning go'zalligini ongda yaxlit aks etishi bo'lib, u go'zallik his etilganda yuzaga keladi va aniq maqsadga yo'naltiriladi;

- estetik ong - shaxsga nazariy tushunchalar berish asosida predmet, buyum, voqelik va hodisalar mohiyatini estetik baholay olish imkonini yaratadigan his-tuyg'ular, sezgilar, tasavvur va qarashlar shakli;

- estetik ong - estetik his-tuyg'u, estetik idrok, estetik bilim, estetik mulohaza, estetik baho, estetik did, estetik ideal kabilardan tarkib topadi.

Estetik faoliyat ko'nikmalari deb estetik ehtiyojlarni qondirish yo'lida muayyan xatti-harakatni amalga oshirishga imkon beradigan ko'nikmalarga aytiladi.

Estetik madaniyat - go'zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go'zalliklarni asrash va boyitish yo'lida o'zlashtirilgan bilim, amalga oshiriladigan estetik faoliyat sifat darajasini belgilovchi ko'rsatkich.

O'quvchilarni estetik madaniyatligini quyidagi mezonlarga ko'ra aniqlash mumkin:

- estetik bilimlarning tarkib topganligi;

- estetik madaniyatning tarbiyalanganligi;

- estetik va madaniy meros namunalaridan xabardor bo'lish;

- estetik tuyg'uning rivojlanganligi;

- ijtimoiy hayot, tabiat va mehnat go'zalliklarini his etish;

- go'zallikka intilish ehtiyojining rivojlanganligi;

- estetik idealning shakllanganligi;

- fikrlash, faoliyat, xatti-harakat va tashqi ko'rinishda go'zal bo'lishga intilish.

Estetik tarbiyaning asosiy vositalarini tabiat, mehnat, madaniy-maishiy turmush shart-sharoitlari, insoniy munosabatlar va madaniyat (shu jumladan, san'at) tashkil etadi. Estetik tarbiya umumta'lim maktablarida ta'lim jarayonida, ya'ni adabiyot, rasm, musiqa darslarida amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish orqali ham estetik tarbiya ishlari olib borildi. Bularga konkurslar, konsertlar, festivallar tashkil etish, muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish, tabiatga, tarixiy va badiiy yodgorliklarga sayohatlar tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Estetik tarbiyaning asosiy vositalari mehnat, o'yin, tabiat, san'at, muloqot kabilari hisoblanadi.

Estetik tarbiya asosan tushuntirish, suhbat, ma'ruza, namuna, mashq, rag'batlantirish metodlari orqali amalga oshiriladi.

13.7. Yoshlarni jismoniy tarbiyasi.

Jismoniy tarbiya —bu sog'lom turmush tarzini va gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirishga, salomatlik va jismoniy kuchlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan, sog'lomlashtirish va bilish faoliyatlarini tashkil etish jarayoni. Jismoniy madaniyat—jamiyat qadriyati bo'lib, insonni garmonik rivojlanishi, tana va ruh to'g'risidagi bilimlar hamda salomatlikni saqlash bo'yicha faoliyat tizimi, ma'naviy va jismoniy rivojlanish kuchlari to'g'risidagi tasavvurlar yig'indisidir. Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino birinchilardan bo'lib, jismoniy tarbiyani bir butun tizimini (jismoniy mashqlar, to'g'ri ovqatlanish, uyqu, badanni toza tutish, kun tartibi) yaratgan edi. To'g'ri tashkil etilgan jismoniy tarbiya shaxsning me'yoriy, jismoniy taraqqiyotini ta'minlaydi, salomatligini mustahkamlaydi, yoshlarni mehnatga, turmushga tayyorlaydi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida yosh avlodni jismonan sog'lom bo'lishini ta'minlovchi uch bosqichli tizim ishlab chiqildi. Ya'ni:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilar o'rtasida «Umid nihollari» sport musobaqasi tashkil etiladi.

2. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari o'rtasida «Barkamol avlod» sport musobaqasi tashkil etiladi.

3. Oliy o'quv yurtlarining talabalari o'rtasida «Universiada» sport musobaqasi tashkil etiladi.

Jismoniy tarbiya o'quvchilarda jismoniy-irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy, jismoniy jihatdan mehnat va Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan jarayon sanaladi.

Jismoniy tarbiyani tashkil etishda o'quvchilarning o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanish, uning ishchanlik qobiliyatini oshirish to'g'risida g'amxo'rlik qilish tuyg'ularini tarbiyalash, ularda yangi harakat turlari borasida ko'nikma, malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, o'quvchilarning yoshi, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, mehnat, chidam, iroda, xarakterni qaror toptirish kabi) jismoniy sifatlarni rivojlantirish, shaxsiy gigiyenani saqlashga nisbatan ongli munosabatlarni tarbiyalash maqsadi ko'zlanadi.

Jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- o'quvchilar sog'lig'ini mustahkamlash, ularni jismonan

rivojlantirish;

- o'quvchilarning aqliy va jismoniy ish qobiliyatlarini oshirish;
- o'quvchilarda tabiiy harakatchanlikni rivojlantirish va mustahkamlash;
- o'quvchilarni harakatning yangi turlariga o'rgatish;
- o'quvchilarda irodaviy sifatlar (kuch, chaqqonlik, dadillik, chidamlilik, qat'iyatlik va b.)ni rivojlantirish;
- o'quvchilarda axloqiy sifatlar (intizomlilik, mas'uliyatlik, jamoa bilan bo'lish kabilar)ni tarbiyalash;
- o'quvchilarda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy, muntazam shug'ullanish ehtiyojini shakllantirish;
- o'quvchining jismonan sog'lom bo'lishini ta'minlash, shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilishga odatlantirish, o'z sog'ligiga ongli munosabatni tarbiyalash.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida tashkil etiladigan jismoniy tarbiya uning chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik bilan bog'liqligiga ko'ra o'ziga xos xarakter kasb etadi.

O'quvchilarning jismoniy madaniyat (kamolot)ga erishganlik darajasini quyidagi mezonlar asosida belgilash mumkin:

- 1) jismoniy harakat ko'nikmalariga egalik;
- 2) jismoniy mehnat qilish qobiliyatining rivojlanganligi;
- 3) jismoniy kamolotning aks etishi;
- 4) o'quvchilar tomonidan jismonan rivojlangan idealning tanlanganligi va undan namuna olish yo'lida amaliy harakatlarning tashkil etilayotganligi.

Chaqqonlik, epchillik, chopqirlik, egiluvchanlik, kuchlilik, chidamlilik, sabrlilik, irodalilik, kuchli xarakterga egalik kabi sifatlar shaxsning jismonan kamolotga yetganligini ifodalaydi.

Jismoniy tarbiya vositalariga gimnastika, o'yin, turizm, sport, tabiat shu bilan birga tabiiy kuchlar (quyosh, havo, suv), bundan tashqari gigiyenik omillar (kun tartibi va dam olish, ovqatlanish) tashkil qiladi. Jismoniy tarbiya metodlariga jismoniy mashqlar, trenirovka, tushuntirish, namuna hamda musobaqa kiradi. Jismoniy tarbiya metodlari yordamida o'quvchilarda jismonan to'g'ri rivojlanishlari uchun zarur bo'lgan bilim, ehtiyoj va shaxsiy sifatlar shakllanadi.

Jismoniy tarbiyani tashkil etishning asosiy shakli bu jismoniy tarbiya darslari hisoblanadi. Jismoniy tarbiya darslarida harakatli, xalq va sport o'yinlaridan keng foydalaniladi.

Jismoniy tarbiya o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish bilan uzviy bog'liq. Bolalar va o'smirlar orasida chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, narkotik moddalarni qabul qilish kabi salbiy odatlarni shakllanishini oldini olishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati katta.

13.8. Oila tarbiyasi

Oila -bu o'zini himoya qilish, zurriyot qoldirishga ehtiyojni qondirish uchun, har bir a'zoni o'z-o'zini tadiqlash, o'z-o'zini hurmat qilishini ta'minlaydigan odamlarning ijtimoy-pedagogik guruhiga aytiladi.

Oila muammosini iqtisod, huquq, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika fanlari o'rganadi. Oila quyidagi vazifalarni bajaradi. a) generativ-tug'ilishni davom ettiruvchi; b) ijtimoiylashuv - insonni ijtimoiy muhitga moslashuvi; d) iqtisodiy- mablag' to'plash, o'z mulkiga ega bo'lish; e) gedonostik-sog'lom munosabatlarni shakllantirish; f) psixoterapevtik oilani himoyalash vazifalarini bajaradi. Oila - kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat, o'zaro yordamga asoslanadigan kichik guruhi. Ota-onalar yoki mas'ul shaxslar (buva-buvilar) hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiladigan munosabatlar oilaviy munosabatlar deb ataladi. I.A.Karimov o'z asarlarida oilaning jamiyatdagi roli xususida «oilaning jamiyatdagi o'rni, tarbiyaviy axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetmasdan, oilaga millat manfaati nuqtayi nazaridan yondashmasdan turib, xalqchil mafkura yarata olmaymiz» degan fikrlarni ta'kidlab o'tganlar. Inson oilada dunyoga keladi va oilada kamol topadi. Farzandni tarbiyalash avvalo ota-onaning muhim insoniy burchidir. Ularning vazifasi farzandlarida odob-axloq asoslarini shakllantirishdan iborat. Insondagi eng yaxshi fazilatlarni shakllanishi oiladan boshlanadi. Oiladagi tarbiya har qanday holatda ham avvalo ijtimoiy manfaatga bo'ysundirilgan bo'lmog'i lozim.

Mamlakatimizda oilaviy tarbiya muammolari Oysha To'rayeva, Abdurashid Munavvarov, Oynisa Musurmonovalar tomonidan o'rganilgan. Oilaviy tarbiyaning o'ziga xosligi shundaki, u bolalarga ota-onalarning ota-onalik, qon-qarindoshlik xislatlarini uzatib, shaxsning umumiy va hissiy rivojlanishinigina ta'minlab qolmay, balki shaxsning mavjud imkoniyatlarini va axloqiy kamolotini ham o'stiradi deb ta'kidlaydi. Oilaviy tarbiyada asosiy vazifani xalq, odobga doir tadbirlarni bolaga to'g'ri o'rgatish, maslahat berish, ota-onaning kasb-kori, oila a'zolarining ma'naviy-ruhiy munosabatlari o'ynaydi.

Oilaviy tarbiyada obyektiv va subyektiv omillar muhim rol o'ynaydi. Obyektiv omillarga oilaning moddiy farovonligi, daomadlarning turlari, o'ziga xosligi va saviyasi, uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi, oila a'zolarining soni, subyektiv omillarga oiladagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligi, ma'lumoti, oila a'zolarining ma'naviy-madaniy saviyasi, ota-onaning muomala madaniyati kiradi. Har bir oila o'ziga xos bir olam, jamiyatning kichik bir uyushmasi bo'lib, tarbiya ishida o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Shuning uchun oilaviy tarbiyani shakl va metodlarini umumlashtirish va unga biror bir tavsiyalar berish qiyin. Ota-onalar qanchalik ma'naviy boy, e'tiqodli va yuqori darajadagi ma'lumotga ega bo'lsalar, shu darajadagi takomillashgan uslub orqali o'z farzandlarini tarbiyalaydilar. Ular faqat maslahat berish, ma'qullash, taqdirlash, jazolash, suhbat, hikoya, fikr almashish bilangina emas, balki shaxsiy namunalari, bolalari bilan birgalikda ishlash, ularni mehnat faoliyatiga tortish orqali ham tarbiyalaydilar.

Oila tarbiyasi ota-onalar yoki mas'ul shaxslar tomonidan tashkil etilib, bolalarni har tomonlama yetuk, sog'lom etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Oilaviy tarbiya deganda, ota-onalarning o'z hayotlari, turmush tarzlari asosda bola shaxsida, dunyoqarash asoslari, siyosiy, axloqiy, estetik va boshqa ijtimoiy omillarni shakllantirish maqsadida muntazam, izchil, g'oyaviy va ma'naviy ta'sir ko'rsatish jarayoni tushuniladi. O'rta Osiyoda yashab ijod etgan mutafakkirlarimizdan Ibn Sino oila tarbiyasi xususida «agar oila tarbiya uslubini to'g'ri qo'llay olsa, oiladagi bolalar o'z baxtlariga tez erishadilar» degan fikrni ilgari suradi. Oilaviy tarbiya - bu ota-ona qarindoshlar kuchi bilan, aniq oilaviy sharoitlarda amalga oshiriladigan, ko'p qirrali, murakkab ta'lim-tarbiya tizimi hisoblanadi. Unga irsiyat, bola salomatligi, ota-onalar, moddiy-iqtisodiy ta'minlanganlik, oila a'zolari soni, yashash joyi, bolaga munosabat ta'sir qiladi. Oilaviy tarbiya - bolalarni hurmat qilishga asoslangan, maqsadga yo'naltirilgan, oiladagi kattalami kichiklarga ta'sir etish jarayonidir.

Oilaviy tarbiya maqsadi - shaxsda hayot davomida uchraydigan qiyinchiliklarni, qarshiliklarni hal qila oladigan xislatlarni shakllantirish hisoblanadi. Oilaviy tarbiya vazifalariga:

- bolani rivojlanishi uchun maksimal sharoit yaratish;
- oilani qurish, uni saqlash tajribasini o'rgatish;
- bolalarga foydali bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatish;
- bolada g'urur, shaxsiy qadr-qimmatni tarbiyalash kabilar kiradi.

Oilaviy tarbiya prinsiplari deganda, oilaviy tarbiyada ota-onalar va farzandlar amal qilishi kerak bo'lgan talab va qoidalar yig'indisini tushunamiz. Oilaviy tarbiya prinsiplariga;

- bolaga insoniy munosabatda bo'lish va g'amxo'rlik qilish;
- maqsadga yo'naltirilganlik;
- madaniyatlilik va insoniylik;
- tarbiyani bola hayoti va ehtiyoji bilan bog'liqligi;
- bola shaxsi rivojlanishining xususiyatlarini hisobga olish;
- olani oilaviy hayotdagi ishtirokini ta'minlash;
- oilaviy munosabatlarda ishonish va ochiqlik;
- munosabatlarda maqsad bo'lishini ta'minlash;
- kattalarni talabchanligi;
- bolaga yordam berish, savoliga javob qaytarish.

Oilada uyushtiriladigan axloqiy tarbiyaning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar ota-ona va oilaning boshqa a'zolari, atrofdagilarga nisbatan mehr- muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, kamtarlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, saxovat, insonparvarlik, adolat, vijdon, or-nomus, g'urur, intizom, ijtimoiy burchni anglash va hokazolarni shakllantirishdan iborat.

Oilada aqliy tarbiyani tashkil etishda bolaning qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olgan holda uni tasavvuri, idroki, xotirasi, diqqati, tafakkurini takomillashtirishga yordam beradigan mashg'ulotlarga jalb etishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go'zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go'zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg'u, idrok, tasavvur va qarashlarni yuzaga keltirish, hayotni sevishga o'rgatish kabi vazifalarni hal etadi.

Ota-ona va oilaning boshqa a'zolari tomonidan bolalarni oila xo'jaligini yuritishga jalb etish, ishni rejali olib borish, vaqtdan unumli foydalanish, tejamkor bo'lish, uy-ro'zg'or hamda shaxsiy buyumlarni asrash, o'zgalar mehnatining mahsuli bo'lgan ne'matlarni asrab-avaylashga, yoshlikdan pul bilan muomala qilishga o'rgatish, oila mulkiga nisbatan mas'uliyatli yondashishga ko'niktirib borish bolalar tomonidan iqtisodiy tushunchalarni yoshlikdanoq o'rganilishi uchun sharoit yaratadi.

Oilada ekologik tarbiyani tashkil etishda bolalarni tabiatni sevishga, mhollami parvarishlashga, suvni ifloslantirmaslikka, hovli va ko'chalarga axlat tashlamaslikka, uni maxsus qutiga tashlashga, gulzorlarni payhon

qilmaslikka o'rgatish, odatlantirish orqali ularda ekologik ongni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Yosh avlodni tarbiyalashda ta'lim muassasalari tomonidan oilalarga, eng avvalo, metodik yordam ko'rsatiladi. Bu yordam maslahat, suhbat yoki amaliy ishlar shakllari (masalan, psixologik treninglarni tashkil etish ko'rinishi)da bo'lishi mumkin.

Oila an'analari (yoki oilaviy an'analari) - oilaning tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, avloddan avlodga meros sifatida o'tish orqali oila a'zolarining ma'naviy shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy-madaniy hodisa sanaladi.

Oilaning moddiy, ma'naviy, milliy, psixologik, pedagogik imkoniyatlari oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini ifodalaydi. Oiladagi moddiy qadriyatlarga hurmatsizlik, ota-onalarning axloqsizligi, oiladagi avtoritarizm, liberalizm, psixologik muhitning yomonligi oilaviy tarbiyaga ta'sir etuvchi salbiy omillar hisoblanadi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Tarbiya mazmuni va unga bo'lgan yondashuvlarni ochib bering?
2. Axloqiy va estetik tarbiya vazifalarini va uni hal etish yo'llarini izohlang?
3. Yoshlarni fuqarolik tarbiyasi muammolari va ularda siyosiy va huquqiy madaniyatini shakllantirishni izohlang?
4. Mehnat tarbiyachi va yoshlarni kasb tanlashga o'rgatish xususiyatlari?
5. Jismoniy tarbiya va yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari?
6. Bola tarbiyasida oilaning roli qanday? Oilaning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
7. Oilaviy tarbiyaning maqsadi va vazifalarini izohlang.
8. Pedagogik jamoaning oilaviy tarbiya bo'yicha asosiy faoliyat yo'nalishlarini tavsiflang.
9. O'zbekistonda oila va bolalikni himoyalashning ta'minlanishini qonuniy darajasi?

14-MAVZU. TA'LIM MUASSASASI MENEJMENTI.

Tayanch tushunchalar: *boshqarish, menejment, boshqaruv funksiyalari, boshqaruv metodlari, boshqaruv uslublari, Pedagogik Kengash, Metodika Kengashi, Metodika birlashmasi, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish, metodik xizmat ko'rsatish, yosh o'qituvchilar bilan ishlash.*

14.1. Ta'lim menejmenti tushunchasi.

Ilmiy boshqaruv nazariyasining paydo bo'lishiga va rivojlanishiga butun dunyoga mashhur ilmiy menejment amaliyotchi va nazariyachilari F. Teylor, G. Ford, G. Emerson, A. Fayol, E. Meyolar katta hissa qo'shganlar. Masalan, o'z davrida Anri Fayol boshqarish bu - holatni ko'rish, kelajakni o'rganish harakat dasturini tuzishdir deb ta'kidlagan edi. Boshqaruv nazariyasi vakillarining qarashlari tahlili natijasida boshqaruvga quyidagi ta'rifni berishimiz mumkin. Boshqaruv deganda - boshqaruvchi va boshqariluvchi tizim o'rtasidagi rejalashtirilgan, maqsadga yo'naltirilgan o'zaro ta'sirni tushunamiz.

XX asrning oxirgi o'n yilligida ijtimoiy va iqtisodiy hayotda insonni shaxsiy va kasbiy sifatlarini, umumiy va maxsus ilmiy bilimlarini roli oshdi. Bu holat ta'lim sohasida inson faoliyati turli yo'nalishlarda rivojlanishini talab etdi. Ta'lim paradigmasi o'zgarib, yangi ta'lim mazmuni, ta'lim va tarbiyani texnologiyalari ishlab chiqilmoqda. Axborot makonining kengayishi boshqaruvning yangi vositalarini, metodlarini, shakllarini rivojlanishini taqozo etdi. Ijtimoiy tizimlarni jumladan ta'lim tizimini boshqarishda inson omilining va ijtimoiy fanlarning roli oshib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Mamlakatimizda ta'lim tizimida bozor munosabatlarini qo'llanilishi maktabni boshqarish nazariyasining rivojlanishini asosiy omili hisoblanadi. Mutaxassislar «boshqaruv» va «menejment» tushunchalari orasida farq yo'q deb hisoblasalarda, menejment tushunchasidan foydalanishni afzal ko'radilar. Menejment - bu faoliyat turi, boshqaruv apparati, boshqaruv san'ati, o'quv predmeti ma'nolarida qo'llanilmoqda. Menejment o'quv predmeti sifatida 1881-yilda amerika kollejlari Djozef Varton tomonidan o'qitila boshlangan. Bugungi kunda olimlar menejment ijtimoiy tashkilotlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini ifodalashini ta'kidlamodalar. Dunyoda tan olingan amerikacha, fransuzcha va yaponcha menejment maktablari mavjud.

Amerikacha boshqaruvda — tashabbuskorlik, yuqori kasbiy tayyorgarlik, tashkilotchilik, ishchanlik;

Yaponcha boshqaruvda — har bir xodimga g'amxo'rlik, ishlab chiqarishning ijtimoiy xavfsizligi, shakllanish istagi, ichki go'zallik;

Fransuzcha boshqaruvda—boshqaruv tizimini shakllantirish uchun insoniy madaniyat, yuqori darajadagi aloqadorlik madaniyati, milliy, tarixiy, madaniy an'ana elementlaridan foydalanish.

Menejmentning asosiy prinsiplarini quyidagilar tashkil etadi:

- maqsadga yo'naltirilganlik va uzluksizligi;

- ilmiylikni san'at elementlari bilan uyg'unligi;
- markazdan boshqaruvni o'z-o'zini boshqarish bilan uyg'unligi;
- xodimlarni individual xususiyatlarini hisobga olish;
- huquq va mas'uliyat birligini ta'minlash;
- doimiylik va ketma-ketlik;
- harakatlarni nazorat qilish va boshqarish;
- shaxslararo munosabatlarni qonuniyat sifatida hisobga olish.

Pedagogik menejment — bu: birinchidan; pedagogik tizim sifatini rivojlantirishga yo'naltirilgan boshqaruv prinsiplari, metodlari, shakllari va texnologik usullari yig'indisini, ikkinchidan, pedagogik jamoa va o'quvchilar faoliyatini ilmiy boshqarishni ifodalaydi.

Pedagogik menejment xususiyatlari ta'lim menejeri mehnatining natijasida, mehnat qurolida, mahsulotida, mehnat predmetida ifodalanadi.

Ta'lim jarayoni menejeri mehnati predmeti u boshqarayotgan odamlar faoliyatidir.

Mehnat xomashyosi bu - o'quv tarbiyaviy jarayon to'g'risidagi ma'lumot.

Mehnat quroli - so'z, nutq.

Ta'lim jarayoni menejeri mehnati natijasi menejment obyekti, ya'ni o'quvchilarni ta'lim olganlik, tarbiyalanganlik, rivojlanganlik darajasidir. Pedagogik menejment pedagogik tizimni rivojlanishining samaradorligini oshirishga yo'naltiriladi.

14.2. Ta'lim tizimini boshqarish prinsiplari.

Pedagogik tizimni boshqarish ta'lim muassasasining faoliyat xususiyatiga ko'ra pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilish maqsadida amalga oshiriladigan boshqaruv faoliyatidir. Pedagogik tizimni boshqarishda davlat-jamoatchilik boshqaruviga erishish ta'lim muassasalarining dolzarb masalalarini davlat va jamoatchilik hamkorligida hal qilish, o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalarga ta'lim dasturlarini, ularning turlarini, ta'lim muassasalarini tanlashda huquq va erkinlik berishni kengaytirish ahamiyatlidir.

Pedagogik tizimni boshqarishda quyidagi prinsiplarga asoslaniladi. Boshqaruv prinsiplari - bu boshqaruvda amal qilinadigan asosiy talab va qoidalardir. Prinsiplar boshqaruv qonuniyatlarini ifodalaydi.

Pedagogik tizimni boshqarishning asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi:

- boshqaruvni demokratizatsiyalashtirish va insonparvarlashtirish;
- boshqarishni tizimlilik va yagonaliligi;
- boshqarishda markaz va hudud uyg'unligi;
- boshqaruvda yakka boshqaruv va jamoatchilik uyg'unligi;
- boshqaruvni ilmiy asoslanganligi;
- boshqarishda ma'lumotlarni to'liqligi va haqqoniyligi.

Quyida ushbu prinsiplar mohiyatini ko'rib chiqamiz.

Boshqaruvni demokratizatsiyalashtirish va insonparvarlashtirish prinsipi. Pedagogik tizimni boshqarishni demokratlashtirish kadrlarni tanlov, shartnoma asosida ishga qabul qilish, qabul qilinayotgan qarorlarni ochiq muhokama etish, axborotlarning barcha uchun ochiq, tushunarli bo'lishiga erishish, ta'lim muassasasi jamoatchiligi oldida ma'muriyatning muntazam hisobot berishi, o'qituvchi va o'quvchilarga ta'lim muassasasi hayotiga oid o'z fikrlarini bildirishlariga imkon berish, ta'lim muassasasida demokratik g'oyalarning ustuvor o'rin tutishini anglatadi.

Ta'lim tizimini boshqarishda shaxsga alohida hurmat bilan munosabatda bo'lish, unga ishonish, pedagogik faoliyatda subyektning subyektga munosabati darajasiga erishish, o'quvchi va o'qituvchining huquq, manfaatlarini himoya qilish, o'qituvchilar va o'quvchilarning o'z iste'dodlari, kasbiy mahoratlarini erkin namoyon etish uchun sharoit yaratish esa pedagogik tizimni boshqarishning insonparvarlik tamoyiliga asoslanganligini bildiradi.

Boshqarishni tizimlilik va yagonaliligi prinsipi. Rahbar ta'lim muassasasini boshqarishga nisbatan tizimli yondashuv asosida ta'lim muassasasini bir butun yaxlit tizim sifatida ko'ra oladi, uning belgilari haqida aniq tasavvurga ega bo'ladi. Tizimning birinchi belgisi uning yagonaligi hamda bo'laklar, tarkibiy qismlarga ajratish mumkinligi; ikkinchi belgisi tizim ichki tuzilishining mavjudligi; uchinchi belgisi tizimning integratsiyalanishi sanaladi (yagona tizimning har bir tarkibiy qismi o'ziga xos sifatga ega bo'lishi bilan birga o'zaro harakat orqali qaytadan integratsiyalanishi bilan yangi sifat hosil bo'ladi); to'rtinchi belgisi esa ta'lim muassasalarining tashqi muhit bilan chambarchas bog'liqligidir (ta'lim muassasalari tashqi muhitga moslashib, ta'lim jarayonini qayta quradi va belgilangan maqsadlarga erishish uchun tashqi muhitni o'ziga bo'ysundiradi). Boshqaruvdagi tizimlilik va yagonalik rahbar bilan pedagogik jamoa o'rtasidagi o'zaro harakat va aloqani ta'minlaydi, bir yoqlama boshqaruvning oldini oladi.

Boshqarishda markaz va hudud uyg'unligi prinsipi. Boshqaruvni markazlashtirish keragidan ortiq bo'lganda, albatta, ma'muriy boshqaruv kuchayadi. Bu holat o'qituvchilar va o'quvchilarning ehtiyojlari, talab-istaklarini hisobga olmaslikka, rahbar va o'qituvchilarning keraksiz mehnat, vaqt sarflashlariga olib keladi. Shuningdek, birga boshqarishni markazlashtirilmalik ham pedagogik tizim faoliyatini susaytiradi. Shu bois boshqarishni markazlashtirish va markazlashtirmaslik o'rtasida o'zaro uyg'unlikka erishish zarur. Ta'lim muassasasi ichidagi boshqaruvda markazlashtirish va markazlashtirmaslikni uyg'unlashtirish ma'muriy hamda jamoatchilik boshqaruvi rahbarlarining faoliyatini jamoa manfaatiga qaratib, kasb malakasi darajasida qarorlarni qabul qilishga sharoit yaratadi.

Boshqaruvda yakka boshqaruv va jamoatchilik uyg'unligi prinsipi.

Tamoyilning afzalligi ta'lim muassasasini boshqarishda yakka hokimlikka yo'l qo'ymaslik bilan belgilanadi. Boshqarish faoliyatida o'quvchilarning tajribalari, bilimlariga tayangan holda turli qarashlarni taqqoslash, oqilona xulosalar chiqarish muhim sanaladi. Vazifalarni jamoa yordamida hal qilish har bir a'zoning javobgarligini yo'qqa chiqarmaydi. Shu bilan birga boshqaruvda yakkahokimlikning namoyon bo'lishi ham ma'lum afzalliklarga ega. Ya'ni yakkahokimlik pedagogik jarayonda tartib-intizom, vakolat doirasi va unga amal qilishni ta'minlaydi. Shu sababli qarorni qabul qilishda kollegial yondashuv ma'qul sanalsa, qarorning ijrosini ta'minlashda yakkahokimlikka bo'ysunish zarurdir. Ta'lim tizimini boshqarishning davlat-jamoatchilik xarakteri bu tamoyilni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitni yaratadi.

Boshqaruvning ilmiy asoslanganligi prinsipi. Ushbu prinsip boshqaruv tizimini boshqaruv fanining so'nggi yutuqlari asosida tashkil etishni ifodalaydi. Rahbar pedagogik tizim va jamiyat rivojlanishining obyektik tendensiyalarini, qonuniyatlarini tushunishi va hisobga olishi zarur. Boshqaruvni ilmiy asoslanganligi prinsipiga amal qilish pedagogik tizimni boshqarish holati to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liqligiga va ishonchliligiga bog'liq.

Boshqarishda ma'lumotlarni to'liqligi va haqqoniyligi prinsipi.

Ta'lim tizimini boshqarish samaradorligi axborotlarning qanchalik aniq va to'liqligiga ham bog'liq. Agar axborotlar aniq bo'lib, to'liq yig'ilsa-da, biroq ular haddan ziyod ko'p bo'lsa ham qaror qabul qilishda yanglishishga olib keladi. Ko'p holatlarda ta'lim muassasalarida o'quvchilarning o'zlashtirishlari to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi.

Biroq ularning qiziqishlari, xulq-atvorlari, shaxs sifatida shakllanayotganliklarga e'tibor berilmaydi. Xuddi shu sababli, tarbiya jarayonida o'quvchilar xulqida ko'plab og'ishlar kuzatiladi.

14.3. Ta'lim muassasalarining Nizomi.

Ta'lim to'g'risidagi qonunga ko'ra: Ta'lim muassasasining Nizomi ta'lim muassasasi faoliyatiga rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjatdir.

Ta'lim muassasasining Nizomida muassasaning joylashgan o'rni, turi, ta'lim tili, guruh rahbarlari, o'qituvchilarning huquq va burchlari, ta'lim oluvchilar, ota-onalarning huquq va burchlari, ta'lim muassasasining iqtisodiy tuzilishi, xo'jalik faoliyati, boshqarish tartibi kabi ma'lumotlar yoritiladi.

Ta'lim muassasasining Ustavida ta'lim jarayonining quyidagi ikki muhim tarkibiy jihati ajratib ko'rsatiladi:

davlat ta'lim standartida belgilangan bilimlar zaxirasini egallash yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish tartibi;

ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilishni tashkil etish (savodxonlik, mustaqil fikrlash, masalalarni yecha olishga o'rgatish).

Shuningdek, ta'lim muassasasining Ustavida muassasani boshqarishga qo'yiladigan talablar, o'qituvchi, o'quvchilar, ta'lim muassasasi rahbarlarining huquq va burchlari ham alohida ajratilib ko'rsatiladi.

Ta'lim muassasasining Ustavi quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega:

Ta'lim muassasasi haqidagi qisqacha ma'lumotlar.

Ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari.

Ta'lim muassasasini boshqarish:

a) ta'lim muassasasini boshqarishning oshkoralik, demokratik va o'z-o'zini boshqarish asosida amalga oshirilishi;

b) pedagogik jamoa Kengashi;

d) direktorning huquq va burchlari;

e) direktorning o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha o'rinbosarining huquq va burchlari;

f) ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining huquq va burchlari.

O'quv-tarbiya va ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etish:

a) ta'lim mazmunining davlat ta'lim standartlari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlari asosida belgilanishi;

b) o'quv jarayonini tashkil etish;
d) iqtidorli yoshlar bilan ishlash;
e) ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish tartibi;
f) qo'shimcha pulli mashg'ulotlarni joriy etish;
g) kunlik ish tartibi (seminar, mashg'ulotlarning davom etishi, tanaffuslar, uy vazifalarini berish tartibi va h.o.).

O'qituvchining huquq va burchlari.

O'quvchining huquq va burchlari.

O'quv-ishlab chiqarish ta'limi ustalari, ma'muriy hamda yordamchi xodimlarning huquq va burchlari.

Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning huquqlari, majburiyatlari va mas'uliyatlari.

Ta'lim muassasasining moddiy va moliyaviy xo'jalik ta'minoti.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim:

maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim kabilarni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlash, unda o'qishga intilish hissini uyg'otish, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlash maqsadini ko'zlaydi.

Maktabgacha ta'lim oilalarda, maktabgacha ta'lim muassasalarida va mulk shaklidan qat'i nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi.

Umumta'lim muassasalarining quyidagi turlari tashkil etilishi mumkin:

boshlang'ich maktab (o'qitish muddati 4 yil: I — IV sinflar);

umumiy o'rta ta'lim maktabi (o'qitish muddati 11 yil: I — XI sinflar);

ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab (o'qitish muddati 7 yil: V — XI sinflar);

ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internat (o'qitish muddati 5 yil: VII — XI sinflar);

ijod maktabi (o'qitish muddati 5 yil: VII — XI sinflar);

Prezident maktabi (o'qitish muddati 7 yil: V — XI sinflar);

olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati (o'qitish muddati 7 yil: V — XI sinflar);

jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat (o'qitish muddati 11 yil: I — XI sinflar);

psixik (intellektual) rivojlanishida nuqson bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan (yordamchi) maktab, maktab-internat (o'qitish muddati 9 yil: I — IX sinflar);

sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internat (o'qitish muddati 11 yil: I — XI sinflar);

respublika ixtisoslashtirilgan o'quv-ta'lim muassasasi (o'qitish muddati zaruriyatga ko'ra).

Umumiy o'rta ta'limning maqsadi o'quvchilarga fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim berish, ularda o'quv-ilmiiy, umummadaniy bilimlarni, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash qobiliyatini, atrof-muhitga bo'lgan ongli munosabatni shakllantirishdan iborat.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining maqsadi ishlab chiqarishning birinchi bo'g'inidagi tashkilotchi va ish boshqaruvchilarni, oliy toifali mutaxassislarning yordamchilarini, yuqori ko'nikma, malakalarni talab qiluvchi ma'lum bir turdagi ishni mustaqil bajara oladigan, o'z ishining ustalari bo'lgan - texnik, agronom, boshlang'ich sinf va jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari, feldsher, stomatolog, konsertmeyster kabi mutaxassislarni tayyorlashdan iborat.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiy xarakterga egaligi umumiy o'rta ta'lim maktablarining bitiruvchilari akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarda ta'lim olishga majbur ekanliklarini anglatadi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining ixtiyoriy xarakterga egaligi esa umumiy o'rta ta'lim maktablari bitiruvchilarining o'z xohishlariga binoan o'qish yo'nalishini - akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarda ta'lim olishni ixtiyoriy tanlash huquqiga egaliklarini bildiradi.

Akademik litseylar o'quvchilarning imkoniyatlari, qiziqishlariga ko'ra ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beradigan, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Oliy ta'lim tizimida turli yo'nalishlar bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash vazifasi hal qilinadi.

Oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlash oliy o'quv yurtlari (universitet, aka- demiya, institut va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalari)da amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqich (bakalavriat va magistratura)da tashkil etiladi.

14.4. Pedagog kadrlar malakasini oshirish.

O‘quv-tarbiya jarayonini malakaviy talablarga muvofiq yuqori ilmiy-metodik darajada ta‘minlash, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari, shuningdek, o‘qitishning interaktiv usullari bo‘yicha kasbiy va pedagogik mahoratni doimiy ravishda rivojlantirishga ko‘maklashish uchun zarur bo‘lgan kasbiy bilim va ko‘nikmalarni muntazam ravishda yangilab borish, o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning yangi tamoyillari va zamonaviy usullari, malaka talablari, normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishtirib borish — pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarining maqsadi hisoblanadi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining asosiy vazifalari: pedagog xodimlarning kasbiy bilimi, ko‘nikmasi va mahoratini uzluksiz yangilab borish, zamonaviy talablarga muvofiq ta‘lim sifatini ta‘minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish;

mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini singdirish, pedagogik nufuz va kompetentlikni rivojlantirish;

o‘z pedagogik faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish;

ilmiy-pedagogik ijodkorlik metodologiyasi hamda pedagogika fani va sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha bilimlarni singdirish;

o‘quv-tarbiyaviy va ma‘naviy-axloqiy ishlarni amalga oshirishda ilg‘or ta‘lim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasidan foydalanish ko‘nikmalarini mustahkamlash;

pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot hamda o‘quv-metodik ishlarni olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish;

qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining to‘g‘ridan to‘g‘ri shakllarini amaliyotga joriy etish;

pedagog xodimlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni o‘zlashtirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish;

oliy ta‘lim muassasalari kafedralarining maktabgacha, umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta‘lim muassasalari bilan o‘zaro integratsiyasini ta‘minlash, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimiga quyidagilar kiradi:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi;

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi tarkibida Maktabgacha, umumiy o‘rta hamda maktabdan tashqari ta’lim muassasalari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash (keyingi o‘rinlarda Muvofiqlashtiruvchi kengash deb ataladi);

Buyurtmachi;

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

tasarrufida xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari tashkil etilgan oliy ta’lim muassasalari;

Xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari.

Pedagog xodimlarning malakasini oshirish to‘g‘ridan to‘g‘ri (ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘qitish) va bilvosita (ta’lim dasturlarisiz o‘qitish) shakllari bo‘yicha tashkil etiladi.

Pedagog xodimlarning malakasini oshirishning quyidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri malaka oshirish shakllari qo‘llaniladi:

malaka oshirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasida o‘qitish;

“ustoz-shogird” usuli bo‘yicha o‘qitish;

mustaqil o‘qib bilim orttirish;

masofaviy ta’lim;

stajirovka shaklida tajriba orttirish.

Malaka oshirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasida o‘qitish — hududiy markazda yakka tartibdagi topshiriqlar yoki aniq yo‘naltirilgan dasturlar asosida, ta’limning tegishli turi o‘quv-tarbiya jarayonining monitoringi natijalarini va kadrlar tayyorlash sifatini hisobga olib, malaka talablariga, shuningdek, ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan fanlar bo‘yicha maqsadli kasbiy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish.

Malaka oshirish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasasida o‘qitish 2+2 yoki 3+1 sxemalari bo‘yicha (tegishli ravishda 50 yoki 75% — yashash joyi bo‘yicha mustaqil ravishda bilim orttirish, 50 yoki 25% — bevosita ta’lim muassasasida) masofadan malaka oshirish shaklida

tashkil etilishi mumkin. O‘qitishning bunday shakllari axborot uzatishning zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari va pedagog xodimlarning malakasini oshirish bo‘yicha maxsus virtual kurslar mavjud bo‘lgan taqdirda qo‘llaniladi.

“Ustoz-shogird” usuli bo‘yicha o‘qitish — tanlov asosida saralab olingan, mamlakatda (mintaqada), ilmiy va pedagogik jamoatchilik o‘rtasida o‘zining yuqori natijalari, kasbiy faoliyatining yuqori ko‘rsatkichlari, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bo‘yicha o‘z maktabi bilan mashhur bo‘lgan yuqori malakali pedagog-ustozlar rahbarligida tegishli ta‘lim muassasalarida fanlar bo‘yicha pedagog xodimlarning malakasini maqsadli oshirish.

Mustaqil o‘qib bilim orttirish — pedagog xodimlar tomonidan kasb mahoratini oshirishga, kasbiy layoqat va ilmiy dunyoqarashni kengaytirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularning o‘z lavozimi va mutaxassisligi bo‘yicha yangi bilim, ko‘nikma va malakalarni uzluksiz ravishda mustaqil o‘zlashtirishini nazarda tutadi.

Mustaqil ravishda bilim olish ta‘lim muassasalari pedagog xodimlari uzluksiz ta‘limining (malaka oshirishining) ajralmas tarkibiy qismidir, u axborot texnologiyalarining egallab olinishini rag‘batlantiradi. Mustaqil ta‘lim, belgilangan tartibda, malaka oshirishning tegishli ta‘lim dasturlari bo‘yicha amalga oshirilgan bo‘lsa, bilimlarning yakuniy nazorati natijalari asosida pedagog xodimga hududiy markaz tomonidan malaka oshirganlik haqida belgilangan namunadagi hujjat (sertifikat) beriladi.

Malaka oshirishning ushbu shakli ta‘lim dasturini ta‘lim oluvchi tomonidan tuzilgan va hududiy markaz tomonidan tasdiqlangan yakka tartibdagi reja asosida mustaqil o‘qish vositasida o‘zlashtirishni nazarda tutadi.

Mustaqil o‘qib bilim orttirish shaklida malaka oshirish barqaror yuqori professional reytingga ega bo‘lgan, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishlashning amaliy ko‘nikmalarini egallagan, o‘zini o‘zi kamol toptirish jarayoniga tanqidiy va ijodiy yondasha oladigan tinglovchilar uchun tavsiya etiladi.

Masofaviy ta‘lim — onlayn (videoma‘ruzalar, maslahatlar, nazorat turlarini masofadan turib real vaqt rejimida o‘tkazish) va offlayn (masofaviy ta‘lim tizimidagi tegishli o‘quv-metodik resurslarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish) shaklida amalga oshiriladi.

Stajirovka shaklida tajriba orttirish — ta‘lim muassasalarida, ta‘limni boshqaruv organlarida pedagog xodimlarni ta‘lim va uni

boshqarish sohasidagi fan va texnika taraqqiyotining eng yangi yutuqlari, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirishni, rahbarlik salohiyatini oshirishni nazarda tutadi.

Stajirovka xizmat safariga yuborish tarzida amalga oshiriladi.

Stajirovka tamom bo'lgandan keyin kadrlarga stajirovka muddati ko'rsatilgan holda ularning stajirovkadan o'tganligi to'g'risida tajriba orttirilgan muassasa rahbarining imzosi va muhri bilan tasdiqlangan ma'lumotnoma beriladi.

Qisqa muddatli kurslar malaka oshirish ta'lim dasturlari asosida tashkil etilgan innovatsion menejment, pedagogik yoki axborot texnologiyalarini o'zlashtirish kurslarida o'qish bo'lib pedagog xodimlarning malakasini oshirishning to'g'ridan to'g'ri shakllari tarzida amalga oshiriladi. Ushbu kurslar majburiy bo'lmagan holda pedagog xodimlarning kasbiy o'sishiga ko'maklashadi.

Mazkur kurslarning ta'lim dasturlari malaka oshirish ta'lim dasturlarining muayyan qismini (fan bloklari yoki modullarini) qamrab olgan va hududiy markaz tomonidan (yoki u bilan hamkorlikda) ushbu kurslar o'tkazilgan bo'lsa, kurslarni tamomlagandan keyin berilgan sertifikatlarda ko'rsatilgan o'qish soatlari hajmi navbatdagi malaka oshirish bo'yicha zarur soatlarning jami hajmiga kiradi (hisobga olinadi).

Pedagog xodimlarning malakasini oshirishning bilvosita shakllari quyidagilardan iborat:

ochiq o'quv mashg'ulotlari;

ilmiy, ilmiy-metodik va ilmiy-amaliy seminarlarda, konferensiyalarda, avgust o'qishlarida ma'ruzalar bilan qatnashish.

Ochiq o'quv mashg'ulotlari — zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'qitishning interaktiv usullari qo'llanilgan holda akademik guruhlarda jadval bo'yicha o'tkaziladigan oldindan e'lon qilingan muammo yoki innovatsiya mavzusi bo'yicha mashg'ulotdir.

Ochiq o'quv mashg'ulotlariga tegishli sohadagi tajribali pedagoglar, olimlar va mutaxassislar taklif etiladi.

Ushbu mashg'ulotlarning sifati oliy ta'lim muassasasi va hududiy markaz kafedralarining qo'shma yig'ilishida muhokama qilinadi.

Ilmiy, ilmiy-metodik va ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalar, avgust o'qishlarida ma'ruzalar bilan qatnashish — ta'lim-tarbiyaning dolzarb muammolari, shuningdek o'quv jarayonining yuqori sifatini ta'minlashga yo'naltirilgan pedagogika fani va amaliyoti, o'qitish metodologiyasi va texnologiyasining muhim masalalari bo'yicha ilmiy va ilmiy-metodik ma'ruza (axborot)lar bilan chiqishlari orqali ta'minlanadi.

Malaka oshirishning bilvosita shakllari pedagog kadrlarning navbatdagi malaka oshirish kursigacha bo'lgan davrda o'z ustida mustaqil ishlashi natijalarini baholash va uning kasbiy malaka darajasini aniqlashga xizmat qiladi, shuningdek, pedagog kadrlarni malaka toifalariga attestatsiya qilish jarayonida hisobga olinadi.

Pedagog xodimlarning malakasini oshirish quyidagi ko'rinishlarda amalga oshiriladi:

asosiy ishdan bo'shagan holda;

asosiy ishdan qisman bo'shagan holda (uyg'unlashtirilgan usul);

asosiy ishdan bo'shamagan holda (masofaviy ta'lim).

Asosiy ishdan bo'shagan holda va asosiy ishdan qisman bo'shagan holda (uyg'unlashtirilgan usulda) malakani oshirish oliy ta'lim muassasasi va hududiy markaz bazasida o'tkaziladi.

Asosiy ishdan qisman bo'shagan holda (uyg'unlashtirilgan usulda) malaka oshirish kursi umumiy davomiyligining 50 yoki 25 foizi — hududiy markazda auditoriya mashg'ulotlariga ajratiladi. Kursning qolgan qismi maktabgacha, umumiy o'rta, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari bazasida yakka tartibdagi topshiriqlarni bajargan holda amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishini nazarda tutadi. Amaliy mashg'ulotlarni asosiy ish joyida o'tkazishga yo'l qo'yiladi. Amaliy mashg'ulotlarning har bir o'zlashtirilgan moduli bo'yicha test sinovlari, referat topshirish, amaliyot bo'yicha hisobot va shu kabilar shaklidagi nazorat nazarda tutiladi.

Asosiy ishdan bo'shamagan holda o'qitishning masofaviy ta'lim shakli qo'llaniladi.

Quyidagilar qayta tayyorlashning asosiy turlari hisoblanadi:

pedagogik qayta tayyorlash;

kasbiy qayta tayyorlash (ixtisoslashuv).

Pedagogik qayta tayyorlash — oliy ma'lumotli nopedagog mutaxassislarning bazaviy kasbiy ma'lumotini ta'limning tegishli turi malaka talablari bilan belgilanadigan o'quv-tarbiya jarayonining talab etiladigan sifatini ta'minlaydigan darajada pedagogik faoliyatni yuritish uchun zarur va yetarli bo'lgan pedagogik tayyorgarlik talablariga muvofiqlashtirish maqsadida mutaxassislarni qayta tayyorlash.

Kasbiy qayta tayyorlash (ixtisoslashuv) — oliy pedagogik ma'lumotli mutaxassislarning tomonidan ta'limning tegishli turi malaka talablari bilan belgilanadigan o'qitishning talab etiladigan sifatini ta'minlaydigan darajada o'quv fani yoki kurs bo'yicha pedagogik

faoliyatni yuritish uchun zarur va yetarli hajmda yangi kasbiy bilimlar, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish.

Pedagog xodimlarni kasbiy qayta tayyorlash, qoida tariqasida, kadrlar tayyorlash o'quv rejalariga yangi o'quv fanlari yoki kurslar joriy etilishi, kadrlarning buyurtmachilari yoki mehnat bozorining talablari bilan belgilanadigan ayrim pedagoglarning qayta ixtisoslashuvi yoki yangi mutaxassislikka ega bo'lishi munosabati bilan hududiy markaz tashabbusiga ko'ra shartnoma asosida tashkil etiladi.

Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash asosiy ishidan ajralgan va ajralmagan holda amalga oshiriladi.

Ta'lim dasturlarining mazmuni va o'qitishning davomiyligi malaka talablarida ko'rsatilgan tartibda belgilanadi. Qayta tayyorlashdan muvaffaqiyatli o'tgan pedagog xodimlarga belgilangan namunadagi diplom beriladi.

Qayta tayyorlashga ikkinchi oliy ta'limni olish sifatida qaralmaydi. Qayta tayyorlash natijasida beriladigan hujjat (diplom) faqat muayyan lavozimda faoliyat ko'rsatish yoki muayyan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari olib borish huquqini beradi.

14.4. Pedagogik tizimni boshqarishning metodlari

Boshqaruv faoliyati - maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyatini ikkita sub'ektning, ya'ni rahbar bilan ta'lim tizimining o'zaro bog'lik faoliyati sifatida karash mumkin. Bunday holatda rahbarning boshqaruv ob'ekta boshqarish va o'zini-o'zi boshqarish kabi zaruriy xususiyatlarga ega bo'lgan ta'lim tizimi hisoblanadi, turli xil ta'sirlar asosida, boshqarilayotgan ta'lim muassasasi ham o'z urnida boshqaruv natijalariga va boshqaruv sub'ektiga ta'sir ko'rsatadi.

Boshqaruv pog'onasi - tashkiliy tuzilishga ko'ra ta'lim muassasasining yuqori bo'g'ini (rahbarlar) bilan quyi bo'g'ini (ijrochilar) o'rtasidagi masofaning katta-kichikligi - pog'onaviyligi, ya'ni bu bir zvenoning (xodimning) boshqasiga bo'ysunish ketma-ketligidir.

Rahbar bilan oddiy ijrochi o'rtasidagi masofa qanchalik katta bo'lsa (darajalar soni) ta'lim muassasalaridagi pog'onaviylik darajasi shunchalik katga bo'ladi.

Boshqaruv metodlari

Iqtisodiy metodlar. Bu metodlar o'zaro bog'lik bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning yig'indisini tavsiflab, har bir ishchi va butun muassasa uchun talablar belgilash bilan bir-galikda zamonaviy talablar darajasida faoliyat ko'rsatishlari uchun sharoitlar yaratadi. Ta'lim muassasasi faoliyatini takomillaigirish, iinovasion jarayonlarni kuchaytirish, ya'ni

xodimlarning innovasion faoliyatlarini tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faolliklarini rivojlantirishda iqtisodiy metodlardan foydalaniladi. Rahbarlar tomonidan boshqaruv jarayonida, xodimlarning faoliyati tashkil etilganidan keyin, faoliyatni takomillashtirish va rivojlantirish uchun bajariladigan vazifalar rejalashtiriladi. Bunda rahbarlar o'z xodimlarini faoliyatlari natijalariga ko'ra ragbatlantirish, mukofotlash, jazolash (jarima solish) yoki moddiy yordam ko'rsatishlarida boshqarishning mazkur metodlardan foydalanishlari zarur bo'ladi. Iqtisodiy qayta tashkil etishlar mazkur metodlarni kuchaytirishga yo'naltiriladi.

Tashkiliy-ma'muriy metodlar. Ushbu metodlar ham iqtisodiy metodlar bajaradigan vazifalarni bajaradi. faqat ularning ta'sir ko'rsatish usullari va shakllari o'zaro farq qiladi. Iqtisodiy metodlarda belgilangan masalalarni hal qilish uchun rahbarlar ta'sir ko'rsatishning turli xil usul va shakllarini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Tashkiliy-ma'muriy metodlar qarorlar, buyruqlar, farmoyishlar va ko'rsikmalar tayyorlash, ularni o'z vaqtida tegishli shaxslarga yetkazish va bajarilishini nazorat qilish orqali ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadi.

Mazkur metod rahbarlar va xodimlar, o'qituvchilar va o'quvchilar, umuman olganda barcha jamoa a'zolari o'rtasidagi mavjud munosabatlarni inobatga olgan holda, ularning qiziqishi, manfaatlari, ko'nikma va malakalari, bilimi xamda qobiliyatlarini o'rganib, jamoadagi mavjud sharoitlarni yaxshilash va boshqa zaruriy choratadbirlarni amalga oshirish orqali jamoa a'zolarining faoliyatlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Tashkiliy-ma'muriy metoddan foydalanishdan ko'zlangan maqsad belgilangan maqsadlarga erishishda jamoada mavjud bo'lishi zarur bo'lgan o'zaro munosabatlar, aloqalar, tashkiliy barqarorlik, intizom, o'zaro mutanosiblik va kelishuvchanlik, tartibli xamda uzluksiz rivojlanishni xuquqiy va me'yoriy xujjatlarga muvofiq ravishda ta'minlashdan iborat.

Ijtimoiy-psixologik metodlar. Jamoa a'zolari o'rtasida shunday munosabatlarni vujudga keltirishni nazarda tutadiki, bunda rahbar bo'ysunuvchilarning bemalol, erkin harakat qilishi, o'zini-o'zi namoyon qilishi. turli jarayonlarda erkin ishtirok etishi, fikr bildirishi uchun sharoitni va ijodiy muxitni yaratishi zarur.

Demak, ijtimoiy-psixologik metodlarning asosiy maqsadi ta'lim muassasasi jamoasida sog'lom muxitni yaratishdan iborat, deb aytishimiz mumkin.

Mazkur metod ta'lim muassasasi faoliyatining rivojlanishi, xodimlar faoliyatining tekmillashishi, ularning o'z faoliyatlari- dan qoniqishlar xosil qilishida, shuningdek, jamoada tarbiyaviy munosabatlarning shakllanishi, rahbar-xodim, o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarning ijobiy taraqqiy etishida muxim axdmiyat kasb etib, pedagogii xodimlar va o'quvchilarning qiziqishlari, intilishi va tashabbuslarini ragbatlantirish, ularning dunyokarashini kengay- tirish, madaniy, ma'naviy va ma'rifiy tushunchalarini rivojlan- tirish. shuningdek, bilim, ko'nikma va malakalarining ortib borishini xamda ularda ijodiy qobiliyatlarning shakllanishini ta'minlaydi.

Bu metod kishilar o'rtasidaga ijtimoiy-psixologik munosa- batlarga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan bo'lib, bir necha usullarni o'z ichiga oladi.

Mazkur usullarga quyidagilar kiradi:

1. Ijtimoiy me'yorlash yo'llari:

- ichki tartib-qoidalar;
- jamoat tashkilotlarining nizomi;
- ishchi sharafi kodeks»;
- ishlab chiqarish odob qoidalari;
- ishtirokchiga ta'sir etish shakllari.

2. Ijtimoiy-siyosiy (tarbiyaviy) usullar:

- siyosiy targibot;
- mexnatkashlarni siyosiy tarbiyalash va ishontirish;
- ma'muriy faoliyatni nazorat kilish;
- mexnatkashlarni boshqarishga jalb kilish shakllari.

3. Ijtimoiy tartibga solish usullari:

- shartnomalar, o'zaro majburiyatlar;
- ma'naviy talab va manfaatlarni qondirish navbati (tartibi) va boshkalar.

4. Ma'naviy ragbatlantirish usullari ikki xil bo'ladi: Jamoaviy va shaxsiy ma'naviy ragbatlantirishlar. Bular:

- "Faxriy yorliqlar" bilan mukofotlashlar;
- faxriy unvonlar berish;
- orden va medallar berish;
- minnatdorchilik izxor kilish;
- hurmat taxtasiga ko'yish;
- ko'shimcha ijtimoiy imtiyozlar berish va xokazolar.

Psixologik usullarga kuyidagilar kiradi:

- kichik guruh va jamoalarni shakllantirish;
- mehnatni insonparvarpashtirish (gumanizasiya);

- psixologik ragbatlantirish;
- kasb-malaka bo'yicha tanlash va o'qitish;
- kasbga bo'lgan manfaatni ta'minlash (bu xodimlarda mehnat faoliyatiga ichki qizikish uyg'otadi);
- xodimlarni bajarayotgan ishiga psixologik mos kelishi bo'yicha tanlash.

Axborotlar to'plash metodlari. Barcha metodlar qatori axborotlar to'plash metodlari ham ta'lim muassasasining faoliyatini takomillashtirish uchun rahbarlarning boshqaruv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishda pedagogik jarayonning holati to'g'risida ishonchli axborotlar to'plash va ta'lim jarayoni ishtirokchilarining faoliyatini ob'ektiv baholashni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv faoliyatida qo'llaniladigan metodlarning ichida muxim ahamiyat kasb etuvchi metodlardan biri hisoblangan mazkur metod me'yoriy hujjatlarni va ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, ta'lim- tarbiya jarayonini taxlil qilish, so'rovnomalar o'tkazish, xodimlarni atgestasiyadan o'tkazish, taxliliy baxolash, umumlashtirish va tizimlashtirish, statistik va matematik taxlil va boshqa ko'pgina usullarni o'z ichiga oladi

14.6. Pedagogik Kengash va uning vazifalari.

Boshqaruv faoliyatining tashkiliy shakllariga Pedagogik kengash, metodik kengash, Vasiylik kengashi, direktor huzuridagi majlis, metodik seminarlar v.b. kiradi.

Pedagogik kengash - ta'lim muassasasining boshqaruv organi sanaladi.

Pedagogik kengash maqsadi o'quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish, muassasa faoliyati bilan bog'liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish, o'qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy mahoratlari, ijodkorlik darajalarini oshirish maqsadida pedagogik xodimlarni birlashtirishdan iborat.

Pedagogik kengash quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- ta'lim muassasasi (umumiy o'rta ta'lim maktabi, akademik litsey, kasb- hunar kolleji) faoliyatiga oid muhim hujjatlarni muhokamadan o'tkazadi, tasdiqlaydi va ularda belgilangan vazifalarning bajarilishini nazorat qiladi;

- ta'lim muassasasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilaydi;

- ta'lim muassasasida o'quv, tarbiya jarayonini tashkil etish, ta'lim samaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan qarorlarni qabul qiladi;

- ta'lim muassasasi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha yo'l- yo'riqlarni ishlab chiqadi;

- pedagogik jamoaning ma'lum yo'nalishlardagi faoliyatini tahlil qiladi va yakuniy xulosa chiqaradi;

- ta'lim muassasasi pedagogik jamoasi uchun o'z vakolati doirasida me'yoriy talablarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.

Pedagogik kengash quyidagi huquqlarga ega:

- ta'lim muassasasini rivojlantirish yo'nalishlarini istiqbol rejasini belgilash;

- ta'lim muassasasi jamoasi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarining bajarilishini amalga oshirish;

- o'quv rejada maktab ixtiyoriga berilgan soatlarni taqsimlash, yillik va taqvimiy ish rejasi mazmuni hamda dars jadvalini muhokama qilish;

- o'quv jarayonini tashkil qilishning turli shakl va metodlarini muhokama qilish, amaliyotga tatbiq etish;

- ta'lim muassasasi ta'lim jarayoniga oid barcha masalalarni o'z vakolati doirasida muhokama etish va tegishli qaror qabul qilish;

- pedagoglar malakasini oshirish tizimi, ularning ijodiy tashabbuskorliklarini rivojlantirish bo'yicha o'z takliflarini berish;

- o'quvchilarning bilim darajasini aniqlashda oraliq nazorat bo'yicha qaror qabul qilishda qatnashish, uni o'tkazish shakli va vaqtini belgilash;

- ta'lim oluvchilarni sinfdan-sinfga (kursdan-kursga ko'chirish),

bituvchilarni yakuniy attestatsiyaga qo'yish bo'yicha qaror qabul qilish;

- ta'lim jarayonini tashkil qilish, ta'lim muassasasini rivojlantirishga doir masalalar bo'yicha maktab rahbariyatining hisobotlarini tinglash;

- ta'lim maqsadiga muvofiq holda o'quvchilarni rag'batlantirish va jazolash bo'yicha masalalarni hal etish;

- chorak, yarim yillik «semestr», yil yakuniga doir xulosalar chiqarish;

- pedagogik kengash a'zolaridan pedagogik faoliyatni bir xil tamoyillarga asosan amalga oshirishni talab qilish;

- ta'lim-tarbiya jarayonida alohida xizmat ko'rsatgan ta'lim muassasasi xodimlarini rag'batlantirishga tavsiya qilish;

- yakuniy attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan o'quvchilarga o'rnatilgan tartibda hujjatlar berish to'g'risida qaror qabul qilish.

Pedagogik kengash faoliyati quyidagi hujjatlarda yoritiladi:

1. Ish rejasi.

2. Kengash bayonnomasi yoziladigan muhrlangan daftar.

3. Kengash materiallari.

4. Hisobot.

Pedagogik kengash faoliyatiga ta'lim muassasasining direktori (oliy o'quv yurtlarida rektor) rahbarlik qiladi.

Metodik Kengash va uning vazifalari.

Metodik kengash ta'lim muassasasida ta'lim jarayonining sifatini ta'minlash, o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariy jihatdan tayyorgarligi, pedagogik va metodik mahoratlarini takomillashtirilib borilishiga nazariy-metodik jihatdan rahbarlik qiluvchi organ sanaladi.

Metodik kengash faoliyati «Umumiy o'rta ta'lim maktabi Metodik kengashi to'g'risida»gi Nizomda o'z aksini topadi.

Metodik kengash quyidagi vazifalarni hal qiladi:

ta'lim jarayonining metodik ta'minot holatini o'rganadi, ta'lim muassasasi metodik ishlarini tashkil etadi va muvofiqlashtirib boradi;

ta'lim muassasasida olib borilayotgan metodik ishlarning istiqbolini aniqlaydi;

yo'nalish va fanlar bo'yicha metodika birlashmalariga umumiy rahbarlik qiladi, ularning faoliyatlarini muvofiqlashtiradi;

ta'limga doir me'yoriy va metodik hujjatlarni o'rganadi, ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari yuzasidan tavsiyalar beradi;

ta'lim muassasasi o'quv-metodik ishlariga ekspert sifatida baho berishni amalga oshiradi;

o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariy bilim darajasini oshiradi, ularni fan yutuqlari, pedagogik innovatsiyalar, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan muntazam tanishtirib boradi;

o'qituvchilarga ish rejalarining tuzilishi va bo'limlari mazmuni bo'yicha tavsiyalar beradi;

ta'lim jarayonida qo'llash uchun ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqib, ularning amaliyotga joriy etilishini nazorat qilib boradi;

o'qituvchilarning pedagogik va metodik mahoratini oshirishga doir ishlarni amalga oshiradi;

davlat ta'lim standartlari talablari, o'quv rejasi va dasturlarining bajarilish holatini tahlil qiladi, tegishli tadbirlarni belgilaydi;

tashqi va ichki nazorat natijalariga davlat ta'lim standarti talablarining bajarilishida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

o'quv jarayoniga o'qitish metodikasining zamonaviy va samarali usullarini olib kirish, pedagogik kadrlarni metodik jihatdan bilimlarini oshirish maqsadida o'quv seminarlarini tashkil qilish;

ta'lim jarayonida milliy mafkura va yoshlarda siyosiy ongning shakllantirishga doir ko'rsatmalar berib borish;

o'quvchilar bilimini nazorat qilish va ularning mustaqil ishlarini tashkil qilishga doir ko'rsatmalar berish;

yo'nalish va fanlar bo'yicha metodika birlashmalari hisobotini eshitish, muhokama qilish, ularning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish;

o'qituvchilarning samarali mehnatlarini inobatga olgan holda ma'naviy va moddiy rag'batlantirishga tavsiya qilish;

pedagogik xodimlarning attestatsiyadan o'tkazish bo'yicha materiallarni tayyorlash;

ta'lim muassasasi miqyosida fan oyliklari (haftaliklari), fanlar bo'yicha darsdan tashqari (fakultativ, to'garak) ishlari, fan olimpiadalarining 1-bosqichlari, ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi va ularning samarasini nazorat qilib borish.

Metodik kengash faoliyati quyidagi hujjatlarda yoritiladi:

1. Ish rejasi.
2. Kengash yig'ilishi bayonnomasi.
3. Kengash tomonidan tahlil qilingan materiallar.
4. Ekspert qilingan materiallar va ishlab chiqilgan metodik ishlar.

14.6. Maktab direktori va uning o'rinbosarlari vazifalari.

Ta'lim muassasasining o'quv-tarbiya jarayoni va kundalik faoliyatiga bevosita rahbarlikni ta'lim muassasasi direktori olib boradi.

Ta'lim muassasasi direktorining vazifasi quyidagilardan iborat:

davlat va jamoat tashkilotlari oldida ta'lim muassasasining manfaatlarini ifodalash;

- o'quv-tarbiya jarayoni muvaffaqiyatini ta'min etish;
- o'quv dasturlarining bajarilishini nazorat qilish, ta'lim-tarbiya ishlarining sifati va samaradorligi, bolalik va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya qilinishi, shuningdek, ta'lim muassasasidan tashqarida

ma'naviyat ishlarini tashkil qilinishi uchun zamrshart-sharoitlarni yaratish;

- pedagogik va rahbar kadrlarni tanlab joy-joyiga qo'yish, ularning vazifalarini belgilash. pedagogik kadrlar, kabinet va ustaxona mudirlarini belgilash, sinf va guruh rahbarlarini tanlash, pedagog va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni ishga qabul qilish hamda bo'shatish;

- ta'lim muassasasi pedagogik xodimlarini attestatsiyadan o'tkazuvchi koinissiyaga rahbarlik qilish;

- ta'lim muassasasi pedagogik xodimlarining ijodiy ishlari, ta'lim- tarbiyaning ilg'orshakl va usullarini qo'llashlari uchun shart-sharoitlarni yaratish;

- ta'lim muassasasiga ajratilgan moliyaviy mablag'lar. sarf-xarajat hisobini yuritish;

- ta'lim muassasasi me'yoriy hujjatlarining to'g'ri yuritilishini ta'minlash;

- ta'lim muassasasi pedagogik Kengashi, mahalliy hokimlik organlari oldida o'z faoliyati to'g'risida hisob berib turish.

Ta'lim muassasasi direktorining o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha o'rinbosarining vazifalari:

- o'quv haftasi va o'quv mashg'ulotlarining davomiyligini ta'minlash;

- dars jadvalini tuzib chiqish va shu jadvalga binoan darslarning o'z vaqtida samarali o'tkazilishini ta'minlash;

- har bir chorak oxirida, semestr davomida direktor va ta'lim muassasasi pedagogik Kengashi a'zolariga o'quv jarayonining borishi xususidagi axborot va ma'lumotlarni berib borish;

- yosh mutaxassislariga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish;

- sinf va guruh jumallarini to'g'ri yuritish va saqlanishiga javob berish;

- o'quvchilarning bilim darajasini reja asosida tahlil qilib borish;

- o'quvchilar tomonidan davlat dasturlarining bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish.

Ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari:

- ta'lim muassasasida o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish, jamoat tashkilotlari va mahalla, ota-onalar bilan aloqani ta'minlash;

- ta'lim muassasasi va undan yuqori miqyosda o'tkaziladigan darsdan tashqari tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish;

- ta'lim muassasasi o'quvchilarining sinf, guruh yoki ta'lim muassasasidan tashqari olib borayotgan mashg'ulotlarini kuzatib borish. ularga amaliy va metodik yordam uyushtirish;

- ta'lim muassasasidagi «Yosh etakchining ishini nazorat qilish va unga yo'l-yo'riq ko'rsatish.

14.7. Rahbar madaniyati.

«Madaniyat» tushunchasi rivojlanishi darajasining umumlashtiruvchi ko'rsatkichi bo'lib, bir qancha ma'noni bildiradi. Masalan, jamiyat madaniyati, ayrim shaxs madaniyati va nihoyat, inson faoliyatining ayrim turi madaniyati xaqida so'z yuritish mumkin. Inson faoliyati moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi turlarga bo'linadi. SHu sababli, moddiy va ma'naviy madaniyat farq qilinadi. Moddiy madaniyat inson tomonidan tabiatni bo'ysundirish darajasi ko'rsatkichidir. Unga ishlab chiqarish vositalari va mehnat predmetlari kiradi. Ma'naviy madaniyatga fan, axoli ma'lumot darajasi, meditsina xizmati darajasi, san'at darajasi, odamlar axloqiy me'yorlari, ma'naviy extiyojlar va manfaatlar rivojlanishi darajasini kiritish mumkin. SHunday qilib, madaniyat insonning ham madaniy ishlab chiqarish, ham ma'naviy xayot sohasida rivojlanishi jarayonidagi yutuqlarini qamrab oladi. U insoniyat bilimlari, uning mehnati mohiyatidan iborat bo'lib, kishilarning avvalgi avlodlari tomonidan yaratiladi.

Insoniyat madaniyati o'suvchan, o'zgaruvchan, chunki xozirgi avlod avvalgi avlodlar madaniy qadriyatlaridan ijodiy foydalanish asosidagina yanada rivojlanishi mumkin.

O'zbekistonning noyob madaniyati yillar, asrlar davomida shakllanib, uni saqlash, rivojlantirish ko'p millatli respublikaning yuqori ma'lumotli insonlari -fan, adabiyot, san'at arboblari vazifasidir.

Inson xayoti faoliyatining muhim tarkibiy qismi butun insoniyat tomonidan jamlangan madaniy boylikka ega bo'lishi, shu jumladan boshqaruv madaniyatini egallashdir.

Boshqaruv madaniyati. Boshqaruv madaniyati juda muhimdir. Insoniyat o'z rivojlanish jarayonida juda katta boshqaruv tajribasini jamlagan. Bozor sharoitida bu tajriba boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilishi kerak. Boshqaruvning vujudga kelishi va rivojlanishi, avvalo boshqaruv madaniyati darajasi yuksalishi bilan bog'liqdir. chunki, boshqaruv yo'llari, usullari, vosita va uslublariga tanqidiy baho berish yo'li bilan, ularning eng yaxshilari jaxon tajribasida qo'lanishi uchun ajratib olindi.

Boshqaruv madaniyati inson madaniyatining tarkibiy qismi bo'lish bilan bir qatorda o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Madaniyatga ega bo'lish menejer uchun faqat zarur emas, balki shartdir, chunki har bir tashkilotning har bir bo'linmasi samarali ishlashi uchun uning xodimlari yuksak madaniyatga ega bo'lishlari kerak.

Boshqaruv madaniyati darajasi xodimlar, ayniqsa, menejerlar madaniyatini, menejment jarayoni madaniyati, boshqaruv texnikasi, mehnat sharoitini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar bo'yicha baholanadi. menejment madaniyati unsurlarining turli-tumanligi boshqaruv jarayonida turli-tuman me'yorlarga, jumladan, axloqiy, xuquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, estetik me'yorlarga rioya qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Axloqiy me'yorlar insonning axloq va odob sohasidagi xulqini tartibga soladi. Ular jumlasiga ijtimoiy burchni to'g'ri tushunish, kishi o'rtasida insoniy munosabat va o'zaro xurmat, vijdonlilik, xaqiqatgo'ylik, kamtarlik va x.k.lar kiradi. Boshqaruv jaaryonida axloqiy me'yorlarga rioya qilish uning madaniyati yuqori darajasidan dalolat beradi.

Menejmentda xuquqiy me'yorlar davlat-xuquqiy va tashkiliy-xuquqiy me'yoriy hujjatlarda aks etadi. Uning jumlasiga davlat korxonasi to'g'risida qonun, tadbirkorlik xaqida, mulk to'g'risida qonunlar kiradi. Lekin qonunlar xar bir korxonaning o'ziga xos xususiyatlarini xisobga ololmaydi. SHu sababli, har bir korxonada, qonunga asoslangan xolda, korxonada ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini xisobga oluvchi me'yoriy qoidalar o'rnatiladi.

Estetik talablar va me'yorlar ham boshqaruv jarayonida qo'llaniladigan texnika vositalari va uskunalari, ham boshqaruv xodimlarini o'rab turuvchi tashqi muhit uchun belgilanadi.

Rahbar madaniyati. Rahbar madaniyati tarkibiga boshqaruv xodimlari madaniyati, boshqaruv jarayonlari madaniyati, mehnat sharoiti madaniyati va hujjatlar yuritish madaniyati kiradi.

Menejment madaniyatining barcha unsurlari o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir etuvchidir. SHu bilan birga ular orasida boshqaruv xodimlari madaniyati etakchi ahamiyatga ega. Menejer boshqaruv jarayoni madaniyatining yuqori darajasiga erishish va o'z mehnatini tashkil etishni takomillashtirib borishi kerak. Buning uchun Rahbar o'z faoliyatini doimo tanqidiy taxlil qilib borishi va Rahbarlik madaniyatini uzluksiz takomillashtirib borishi lozim.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *Ta'lim menejmenti deb nimani tushunasiz?*
2. *“Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning qaysi bobi ta'lim tizimini boshqarishga qaratilgan?*
3. *Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga nimalar kiradi?*
4. *Pedagogik tizimni boshqarish prinsiplarini tavsiflang.*
5. *Boshqaruvni demokratizatsiyalashtirish va insonparvarlashtirish prinsipini tushuntiring.*
6. *Boshqarishda ma'lumotlarni to'liqligi va haqqoniyligi prinsipini izohlang.*
7. *Ta'lim muassasalarining Nizomi haqida ma'lumot bering.*
8. *Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?*
9. *Pedagog kadrlar attestatsiyasi haqida ma'lumot bering.*
10. *“Men rahbar bo'lganimda.....” mavzusida esse yozing. Boshqarish deb nimaga aytiladi?*
11. *Ta'lim muassasasini boshqarish va menejment tushunchalarini izohlang.*
12. *Boshqaruv funktsiyasi deganda nima tushuniladi?*
13. *Boshqaruvning qanday funktsiyalari mavjud?*
14. *Boshqaruv metodlari deganda nima tushuniladi?*
15. *Boshqaruv metodlariga izoh bering.*
16. *Boshqaruv uslublari tushunchasini izohlang.*
17. *Boshqaruv uslublarini tahlil qiling*

15-MAVZU: XALQARO BAHOLASH DASTURLARI

Tayanch tushunchalar: *Xalqaro baholash , xalqaro dastur, ta'lim sifatini baholash, PISA, birlik, klaster, testlet va buklet, xalqaro monitoring*

15.1. Xalqaro baholash dasturlarining me'yoriy asoslari.

Mamlakatimiz innovastion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standartlari asosida shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish

muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2017- 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" doirasida O'zbekistonda ta'lim sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllantirilmoqda.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi qoshida "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi" tashkil etildi.

O'z navbatida, "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi"ga ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovastion metodlarini ishlab chiqish hamda joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish, ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish kabi vazifalar yuklatildi.

Shu bilan bir qatorda, Milliy markaz direktori – Xalqaro tadqiqotlarning milliy loyiha menejeri hisoblanib, xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etishi belgilab qo'yildi.



PISA – o‘quvchilarni ta’limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi



PIRLS – matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot



TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring



ICILS - kompyuter va axborot savodxonligi bo‘yicha xalqaro tadqiqot

Mazkur vazifalarning amaliy ifodasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o‘rtasida o‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro dasturda (Agreement for participation programme for international student assessment - PISA 2021) ishtirok etish to‘g‘risidagi kelishuvga erishildi.

15.2.PISA – o‘quvchilarni ta’limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi.

PISA (Programme for International Student Assessment) – o‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi bo‘lib, dasturning asosiy maqsadi 15 yoshli o‘quvchi yoshlarning o‘qish, (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajalarini hamda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini turli xil testlar yordamida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihalar o‘quvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashi, egallagan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqatiga baho berish va keyinchalik bu ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Har uch yilda amalga oshiriladigan PISA dasturi mamlakatlarga ta’lim tizimining yutuq va kamchiliklari yuzasidan o‘z vaqtida axborot berish, tegishli dasturlarning ta’sirini tahlil qilish imkoniyatini yaratib, ta’lim siyosati sohasida qarorlar qabul qilishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Ta'lim sifatini baholashga yo'naltirilgan PISA kabi xalqaro tadqiqotlar O'zbekiston ta'lim tizimida ilk marta o'tkazilayotganligi sababli ularni to'g'ri, samarali va ob'ektiv o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

PISA—o'quvchilarning o'qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlardan bilim darajalarini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo'lib, o'quvchilarning maktab davrida orttirgan bilim va ko'nikmalarini aniqlashga mo'ljallangan.

PISA xalqaro baholash dasturi shuningdek, o'quvchilar munosabati va motivastiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar to'playdi, o'quvchilarda muammoni hal qila olish kabi ko'nikmalarni ham baholaydi. Masalan, global ahamiyatga ega masalalarni hal etishda o'quvchi-yoshlarning fikr- mulohazalari, ular bergan taklif va echimlarni baholaydi.

PISA—xalqaro baholash dasturlarining natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan talablar doirasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlariga baho beriladi.

PISA hech qanday o'quv dasturini belgilamaydi yoki targ'ib qilmaydi yoki umumiy e'tirof etishni taqozo etmaydi.

Ishtirokchi mamlakatlar ekspertlari va iqtisodchilarining fikricha, o'quvchilarda tabiiy fanlardan o'zlashtirilgan bilim va ko'nikma darajalari shakllanishi, mustahkamlanishi davlatlarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhim dastlabki qadamlar deb hisoblanishini e'tirof etadi.

PISA – o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur,

PISA (*inglizcha - Programme for International Student Assessment*) – turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. **PISA** bo'yicha bahoning 50 ballga oshishi har yillik Yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning 1% ga o'sishini ta'minlaydi.

PISA-ni so'ngi yillardagi vazifalarining asosiy jihati nimalardan iborat?

Bu proektda test sinovlari o'quvchiga qiyinchilik tug'dirmaydi, bunda o'quvchining bilimlari asosiy o'rin tutmaydi, faqatgina bolaning ongini ishlatishni talab qiladi.

PISA- ning interaktiv vazifalari nimadan iborat:

2012 yilda birinchi marotaba ommaviy test sinovlari ishtirokchilariga maxsus turdagi vazifalar, ya'ni interaktiv turdagi vazifalar kiritilishi taklif qilingan. Interaktiv - o'quvchidan yangi qiyin sistemani oldindan xususiyatini bilmay turib mustaqil tadqiqot qilishni talab qiladi, tizim bilan bevosita amaliy hamkorlik orqali gipotezalarni (xayoliy) o'rta tashlaydi, ularni eksperimental tarzda sinab, ob'ektning tekshirishga harakat qiladi.

PISA –bu eng katta Xalqaro o'quvchilar bilimining tadqiqot qilish programmasi .

PISA- natijalari butun dunyo yoshlarining qanday bilim va ko'nikmalarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Umumta'lim fanlari bo'yicha kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishda xalqaro tajribadan foydalanish,

Timss (Trends in Mathematics and Science Study) – matematik va tabiiy-ilmiy ta'lim sifatini tadqiqot etadigan xalqaro monitoringdan iborat. Unda 4-, 8-, 11- sinf o'quvchilari ishtirok etadilar. 1995 y., 1999 y., 2003 y., 2007 y., 2008., 2011 y., 2015 yillarda o'tkazilgan. 2008 yilda Timss Advanced monitoring tadqiqotlari **matematika va fizikani** chuqur o'rganadigan maktablarning o'quvchilari o'rtasida o'tkazgan. Bu ikki predmet o'sib kelayotgan avlodning yangi texnologiyalardan foydalanish va takomillashtirish qobiliyatlarini hamda mamlakatning intellektual potensialini baholashda ustuvor soha hisoblanadi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) - matnning o'qish va tushunish sifatini o'rganish deb nomlangan xalqaro loyiha bo'lib, unda 4-sinf o'quvchilari ishtirok etadi. 2001 y., 2006 y., 2011 y., 2016 yillarda o'tkazilgan.

• O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018 yil 8 dekabrda 997-son qarori talablaridan kelib chiqadigan vazifalarimiz, PISA tadqiqotlarini amalga oshirish bo'yicha texnik talablar, unga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish tartibi haqida ma'lumot berib o'tamiz

• PISA 1990 yillar oxirida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tomonidan muntazam ravishda xalqaro qiyosiy tadqiqotlar olib borish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, u IHTTga a'zo mamlakatlarda 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini baholashning yuqori sifatli indikatorlarini yaratish uchun mo'ljallangan loyihadir.

- PISA, IHTTga a'zolik maqomiga ega bo'lgan davlatlar, ya'ni IHTTga a'zo, hamkor va ishtirokchi davlatlar bilan birgalikda hamda Parij shahrida joylashgan kotibiyat orqali boshqariladi

PISA tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish, amalga oshirish muddati 5 yilga mo'ljallangan bo'lib, xalqaro pudratchilar tomonidan 2018 yilda sinov materiallari ishlab chiqildi, 2019 yil sinov materiallarini moslashtirish ishlari olib boriladi, unga tayyorgarlik holatini tahlil qilish maqsadida milliy darajada baholashlar, 2020 yil **PISA sinov baholashlari** va 2021 yilda **asosiy baholash tadqiqotlari** bo'lib o'tishi belgilangan. Mazkur yillardagi olingan tahlillar natijalari 2022 yilda **yakunlanadi va xalqaro hisobotlar** tayyorlanadi.

- Umumiy o'rta ta'lim maktablari xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik darajasini o'rganish va amaliy tavsiyalar berish maqsadida, (*Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi*) Milliy markaz va xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorligida 2019 yil davomida xalqaro tadqiqotlarga mos, o'quvchilarning ijodiy fikrlash salohiyatlarini aniqlashga qaratilgan sinov materiallari bazasini shakllantirish va Respublikamiz hududlaridagi maktablarda tayyorgarlik sinovlarini o'tkazish rejalashtirilmoqda. Mazkur sinovlar kamchiliklarimizni tahlil qilish va ularni yaxshilash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

PISA tadqiqoti - Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti IHTT(OECD – Organisation for Economic Co-operation and Development) tomonidan amalga oshiriladigan dastur hisoblanadi.

Tadqiqot ilk bor 2000 yilda o'tkazilgan bo'lib, har uch yilda bir marotaba o'tkazib boriladi. Navbatdagi tadqiqotlar 2021 yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan.

PISA tadqiqoti o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan:

- ta'lim sohasidagi eng yirik, keng ko'lamli xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri sanaladi;

- tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan 15 yoshli o'quvchilar ishtirok etadi;

- tadqiqotda o'quvchilarning "hayotga tayyorlik" darajasi, ya'ni ularning maktabda egallagan bilim va ko'nikmalarini hayot qo'llay olish layoqati baholanadi;

- tadqiqotda o'quvchilarning matematika, o'qish (matnni tushunish), tabiiy yo'nalishdagi fanlar va global muammolarni hal etish sohasidagi funkstional savodxonligi baholanadi;

- tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradigan kontekst axborot to'planadi.

O'zbekistonning PISA tadqiqotida ishtirok etishi uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

- O'zbekistonda umumta'lim maktablari bitiruvchilarining ta'lim olishni davom ettirishga qay darajada tayyorligini aniqlash;

- mamlakatdagi umumiy o'rta ta'limni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash;

- o'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlari, shuningdek, turli mamlakatlarning ta'lim tizimlari haqidagi qiyosiy ma'lumotlarni olish.

PISA tadqiqoti haqida qo'shimcha ma'lumotlarni O'zbekistonda mazkur tadqiqotni o'tkazishga mas'ul hisoblangan Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining rasmiy veb-sayti (markaz.tdi.uz) va IHTT (www.oecd.org/pisa) dan olish mumkin.

Nima uchun PISA tadqiqotlari har uch yilda bir marotaba o'tkaziladi va nega aynan 15 yoshli o'quvchilarning bilim darajalari aniqlanadi?

PISAning asosiy vazifasi – mamlakatlarni ta'lim siyosatiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash va qarorlar qabul qilishda ularni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Tadqiqotning har uch yilda o'tkazilishi esa mamlakatlarga siyosiy qarorlarni va tegishli dasturlarning ta'sirini hisobga olish uchun ma'lumot va tahlillarni o'z ichiga olgan holda, o'z vaqtida axborot berish imkoniyatini yaratib beradi.

Agar tadqiqotni o'tkazish davriyligi qisqa muddatda amalga oshirilsa, o'zgarishlar va yangilanishlar uchun etarli vaqt hamda kerakli ma'lumotlarni to'play olmaslik muammosini vujudga keltiradi.

Tadqiqot doirasi 15 yoshli o'quvchi yoshlar orasida o'tkazilishiga asosiy sabab aksariyat *Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IHTT)* a'zo davlatlarda ushbu yosh majburiy ta'lim bosqichining yakuniy davri hisoblanadi.

PISA dasturining o'ziga xosligi. PISA xalqaro baholash dasturi butun dunyoda keng qamrovli va muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan dastur sifatida o'ziga xos ahamiyatga ega.

PISA xalqaro baholash dasturida qariyb 80dan ortiq davlatlar

ishtirok etishgan. Tadqiqotni har uch yilda bir marotaba o'tkazilishi esa, davlatlarga o'z ta'lim tizimida kelajakda erishish ko'zda tutilgan asosiy maqsadlarni aniqlab olish imkoniyatini yaratib beradi.

Shuningdek, dastur 15 yoshdagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash bo'yicha yagona xalqaro baholash loyihasi hisoblanadi.

Dasturda quyidagi masalalarga e'tibor qaratiladi:

Davlat siyosati masalalari: "Maktablar o'quvchi yoshlarni katta hayot yo'liga o'tishiga munosib ravishda tayyorlay olishyaptimi?", "Ayrim turdagi o'quv dasturlari boshqalariga nisbatan samaraliroqmi?", "Maktablar muhojirlar yoki og'ir ijtimoiy sharoitga ega o'quvchilar kelajagini yaxshilanishiga yordam beradimi?" kabi ba'zi bir savollarga javob topishdan iboratdir.

Savodxonlik: PISA muayyan maktab o'quv dasturlarining ustunligini o'rganish o'rniga, o'quvchilarning asosiy mavzularda bilim va ko'nikmalarini qo'llay olish qobiliyati, muammolarni tahlil qilish, sharhlash va samarali hal qilish, fikrlash, muloqot qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqadi.

Hayot davomida o'rganish: O'quvchilar maktabda o'rganishi lozim bo'lgan hamma narsani to'liq o'zlashtira olmaydi. Samarali o'rganuvchi bo'lish uchun nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki ular qanday hamda nima uchun o'rganilishi haqida xabardor bo'lishi lozim. PISA o'quvchilarning o'qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonligini oshirish bilan bir qatorda o'quvchilarning ta'lim olishga qiziqishi, o'zlari haqida ma'lumotlar hamda ta'lim strategiyasi haqida fikrlarini s o'raydi.

PISA va TIMSS o'rtasidagi asosiy farq. PISA va TIMSS dasturlarining asosiy farqi eng avvalo ularning turli xil yosh va sinflar toifasida o'tkazilishidan iboratdir. Masalan, PISA 15 yoshli o'quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan bo'lsa, TIMSS esa muayyan yoshdagi o'quvchilarning emas, balki to'rtinchi va sakkizinchi sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholaydi. Shu bilan birga, TIMSS baholashlari o'quv dasturlariga asoslangan bo'lsa, PISA esa, o'quvchilar egallagan bilim va ko'nikmalarini real muammolarni hal qila olishlarini baholashga qaratiladi. TIMSS aynan maktab bilimlarni o'zlashtirish darajalarini baholasa, PISA bilim va ko'nikmalarni maktabda, uyda va jamoatchilik orasida qo'llay olish darajalariga alohida e'tibor qaratadi.

PISAni boshqarish

PISA boshqaruvi. PISA dasturining faoliyati PISA boshqaruv kengashi qarori asosida, loyihada ishtirok etayotgan davlatlarning ta'lim sohasidagi boshqaruv organlari mas'ulligida ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan dastur asosida tashkil etiladi.

Kengash tarkibiga barcha IHTTga a'zo davlatlar, shuningdek sherikchilik maqomidagi hamkor davlatlar kiradilar. Bugungi kunda sherikchilik maqomga faqatgina Braziliya sazovordir. Davlatlar Kengashga o'zlarining ta'lim siyosati va amaliyoti hamda o'quvchilarni baholash borasida yuqori ilmga ega bo'lganlarni vakillikka tavsiya etadi. Kengash tarkibi hukumatning rasmiylari va ilmiy-pedagog, tadqiqot xodimlari hamda akademik institutlardan tashkil topgan.

Kengash PISA uchun siyosatning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi va amalga oshirish jarayonida ushbu ustuvorliklarga rioya etilishini nazorat qiladi.

Bu faoliyat ma'lumotlar tayyorlash, tahlil qilish va hisobot berishning ustuvor yo'nalishlari, standartlarini belgilash, shuningdek, PISAni amalga oshirish uchun asos bo'ladigan ish hajmini aniqlashni o'z ichiga oladi.

PISAning texnik to'g'riligini ta'minlash maqsadida o'zida namunalashtirish, so'rovnomalar tuzish, o'lchash va tahlil qilish kabi PISA tadqiqot usullarini qo'llab-quvvatlaydigan dunyoga mashhur ekspert va mutaxassislar jalb qilingan. Bu texnik maslahat guruhi(TMKG) Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan tayinlangan. Texnik maslahat guruhi muntazam ravishda PISA ma'lumotlarda o'zga mamlakatlarning natijalari va PISA usullariga ma'lumotlarning ishonchliligi va xalqaro miqyosda taqqoslanishiga oid qarorlar qabul qilinishida ishtirok etadi.

PISA boshqaruvi kengashi. Boshqaruv kengashi IHTT va PISA a'zolari vakillaridan iborat. PISAda rasmiy ishtirokchi maqomiga ega bo'lmagan, lekin qatnashadigan mamlakatlar PISA yig'ilishlarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etishlari mumkin. Kengashdagi mamlakatlar vakillari ularning ta'lim vazirliklari tomonidan, kengash raisi esa PISA boshqaruvi kengashi tomonidan tanlab olinadi. IHTTning ta'lim maqsadlari asosida boshqaruv kengashi PISA uchun ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi hamda ularning har birlari PISA tadqiqotlarini amalga oshirish davomida o'zaro hurmat ruhida va vijdonan yondashuvlariga e'tibor qaratadi.

IHTT kotibiyati. IHTT kotibiyati PISA tadqiqotini amalga

oshirilishi hamda uzluksiz boshqaruv jarayonini tashkil etish uchun mas'ul hisoblanadi. Bunda PISA jamoasi so'rovnomalarni amalga oshirilishini nazorat qiladi, PISA boshqaruv kengashinomidan ma'muriy jarayonlarni boshqaradi, mamlakatlar o'rtasida xalqaro kelishuvlar o'rnatadi va PISA boshqaruvi kengashi hamda PISA konsorstiumi o'rtasida vositachilik vazifasini bajaradi.

PISA Milliy loyiha boshqaruvi menejerlari. IHTT kotibiyati, PISA boshqaruv kengashi va xalqaro pudratchilar hamda Milliy loyiha menejerlari bilan ish faoliyatlarini olib boradi. PISA milliy loyiha menejerlari mamlakatlarning o'z hukumatlari tomonidan tayinlanadi.

Xalqaro tashkilotchilar ("PISA konsorstiumi"): Har bir PISA so'roviga ko'ra, xalqaro tashkilotchilar (odatda sinov va baholash organlaridan iborat) test-so'rovlarni loyihalashtirish va amalga oshirish uchun javob beradi.

Tashkilotchilar PISA boshqaruv kengashi tomonidan xalqaro tender tanlovi orqali tanlanadi. Pudratchi odatda PISA Konsorstiumi (tadbirkorlarning yirik operastiyalarini birgalikda amalga oshirish maqsadida birlashishi) deb nomlanadi.

Ta'lim organlari. PISA xalqaro baholash dasturini amalga oshirish ishtirokchi davlatlar va ta'lim vazirliklari ko'magisiz va ularning qo'llab- quvvatlashisiz amalga oshirishning imkoni yo'q.

PISA fanlar bo'yicha ekspert guruhlar. PISA mavzuga oid masalalar bo'yicha ekspert guruhlariga ega bo'lib, ular sinovlarning uchta asosiy yo'nalishlari - o'qish, matematika va tabiiy fanlar savodxonligi, shuningdek, zarur bo'lgan hollarda boshqa fan masalalari bo'yicha vakolatlariga ega. Ushbu guruhlar har bir soha bo'yicha malakali ekspertlardan tashkil topgan. Ular har bir PISA test-so'rovining nazariy asoslarini yaratadi.

PISA so'rovnomasi bo'yicha ekspertlar guruhi. Test-so'rovi bo'yicha ekspertlar guruhi PISA kontekstiga oid so'rovnomalar tuzishda etakchilik qilishi va metodik yordam berishi nazarda tutilgan. Test-so'rovi bo'yicha mutaxassislar guruhining a'zolari PISA boshqaruv kengashi tomonidan tanlanadi.

PISA tadqiqotlarini amalga oshirishning moliyaviy manbai. PISA unda ishtirok etayotgan davlatlarning badallari hisobidan moliyalashtiriladi.

Tadqiqotni o'tkazish jarayoni

Barcha o'quvchilar uchun bir xil test savollari berilmaydi. PISA tadqiqotlarida qo'llaniladigan test savollari odatda mamlakat

ta'lim tizimi samaradorligini baholash uchun ishlab chiqiladi. Tadqiqot savollari o'quvchilarni individual baholash uchun mo'ljallanmagan. Shu sababli, har bir o'quvchiga bir xil namunadagi savollar to'plami tarqatilishi talab etilmaydi. Shunday qilib, PISA test materiallari to'plami testda qatnashgan o'quvchilar orasida tasodifiy tanlov tarzida taqsimlanadi.

PISA - 2015 tadqiqoti kompyuter tizimidan foydalangan holda o'tkazildi. Buning o'ziga xos ahamiyati: Kompyuter va kompyuter texnologiyalari kundalik hayotimizning bir qismiga aylanib ulgurgan. PISA xalqaro baholash dasturini kompyuterda o'tkazish an'anasi ham ijobiy ma'noda yaxshi yo'lga qo'yilgan.

2015 yilda PISA xalqaro baholash dasturida qatnashish istagini bildirgan ko'plab davlatlarda ilk marta kompyuter yordamida test jarayonlari o'tkazilgan. Faqat kompyuterda o'tkazishga tayyor bo'lmagan ayrim davlatlardagina test sinovlari qog'oz ko'rinishida o'tkazilgan.

Mamlakatlarda PISA tadqiqotlarida ishtirok etish uchun maktablar qanday tanlab olinadi? PISA tadqiqotida ishtirok etuvchi maktablarni tanlab olish uchun qat'iy texnik standartlarni qo'llaydi. Maktablarni tanlab olish jarayoni sifati ta'minlanadi va erishilgan namunalarda va tegishli javob stavkalari belgilangan normalarga rioya qilganligini tasdiqlaydigan qaror qabul qilish jarayoniga bog'liq.

Agar biron-bir davlatning javob darajasi belgilangan chegaradan pastga tushsa, bu xabar qilinadi. PISA natijalari haqida qo'shimcha ma'lumotlarni IHTT tashkiloti rasmiy veb-saytidan (www.oecd.org/pisa) olinishi mumkin.

IHTT ma'lumotlar anomaliyasiga qanday e'tibor beradi? Quyida ba'zi bir davlatlarning PISA tadqiqotlari konsorsiumi texnik talablariga javob bermagan yoki to'g'ri kelmagan vaziyatlarda IHTT tashkiloti ba'zi bir davlatlarning milliy ma'lumotlar hisobotlarini hisobga olishmaganini ko'rishimiz mumkin:

Avstriya. PISA-2000 Texnik Ma'ruza (IHTT, 2002)da ta'kidlanganidek, PISA-2000 baholash texnik standartlari talablariga muvofiq qo'shma maktab va kasbiy dasturlarga kiritilgan o'quvchilar etarlicha ta'minlamadi. Shunday qilib, Avstriya uchun chop etilgan PISA-2000 hisobotlari noto'g'ri ma'lumotlar bazasi deya ta'riflandi (IHTT 2001). Faqatgina, ushbu xatolikni PISA-2003 tadqiqotida to'g'rilashga erishildi.

Niderlandiya. PISA-2000 Texnik Xabarnomasi (IHTT, 2002)da

ta'kidlanganidek, Niderlandiya maktablarning javob darajasi PISA-2000 ma'lumotlar bazasiga kiritilishi uchun etarli emas deb topilgan. Shuning uchun, Niderlandiya PISA-2000 bilan bog'liq tadqiqotlardan chetlashtirildi.

Lyuksemburg. PISA-2000 va PISA-2003 o'rtasidagi test topshiriqlari sharoitida Iqtisodiy standartlarga muvofiqlikni takomillashtirish va maktab tizimining milliy xususiyatlarini yaxshiroq aks ettirish maqsadida tashkiliy va lingvistik jihatlar bo'yicha o'zgarishlar amalga oshirildi.

PISA-2000 yilda Lyuksemburg o'quvchilarigaboholash kitobi har bir o'quvchi tanlagan sinov tillarida baholashdan bir hafta oldin berildi.

Biroq, amalda baholash tili bilan tanishish Lyuksemburgdagi PISA-2000da o'quvchilarining sezilarli qismi uchun muhim to'siq bo'ldi. PISA-2003 va PISA-2006da shuning uchun o'quvchilarga ikki tillik baholash varaqchasi berildi. O'quvchilar baholashdan oldin o'zlari uchun maqbul til tanlash imkoniyatiga ega bo'lishdi.

Bu faqatgina bir tilda o'qitiladigan davlatlar bilan ko'proq taqqoslanishiga hamda natijada o'qish, matematika, tabiiy fanlar va muammoni hal qilishda o'quvchilarning ko'rsatkichini adolatliroq baholashga olib keldi. Jarayonlardagi bu o'zgarish natijasida PISA-2000 va PISA-2003 o'rtasidagi Lyuksemburg uchun baholash jarayonlari hamda baholash natijalarini taqqoslab bo'lmaydi. PISA-2003 va PISA-2006 o'rtasidagi baholash holatlari o'zgartirilmaganligi sababli taqqoslansa bo'ladi.

Amerika Qo'shma Shtatlari. PISA-2006 tadqiqot doirasida AQShda PISA tadqiqoti savollarini nashr etishda xatolik mavjud bo'lib, natijada sahifalar raqamlari o'zgarishiga va o'qish savodxonligi bo'yicha ham qo'llanmalarni noto'g'ri talqin etilishi holatlari kuzatilgan hamda o'quvchilarda test savollariga javob berishda noqulayliklarni keltirib chiqargan.

Tadqiqot natijalari

PISA tadqiqoti natijalari ochiq ma'lumot hisoblanadimi? PISA tadqiqotlari natijalari onlayn tarzda mavjud. Avvalgi davrlarda olingan natijalarni www.oecd.org/pisa veb-saytning **“Asosiy natijalar”** ruknidan va natijalar bo'yicha barcha ma'lumotlarni **“Ma'lumotlar”** ruknidan topish mumkin.

Sinov natijalari ballari nimani anglatadi? PISA ballari PISA tomonidan sinovdan o'tkazilgan umumiy vakolatlarni ko'rsatish

uchun mo'ljallangan har bir fan doirasida ishlab chiqilgan ma'lum miqyoslarda joylashtirilishi mumkin.

Bu o'lchovlar PISA test savollarini guruhlarda ifodalovchi ikki darajaga bo'linadi: 1-daraja bosqichida faqatgina asosiy ko'nikmalardan murakkabgacha va har bir bosqichda qiyinchilik darajasiga qarab o'sib boradi. Testda o'quvchilarning natijasi tekshirilganda uning o'qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlar bo'yicha olgan natijasi mos o'lchovga joylashadi. Misol uchun, PISA testida eng oddiy savollarni to'g'ri to'ldirish uchun zarur bo'lgan mahoratga ega bo'lmagan talaba 1-darajali sinfga kiradi, biroq o'quvchilarning ushbu ko'nikmalari yuqori darajada bo'lishi kerak. Har bir fan bo'yicha testda ishtirok etayotgan mamlakatning bali o'sha mamlakatdagi barcha o'quvchilarning o'rtacha ballaridan iborat bo'ladi.

Har bir fan testida davlatlardan qatnashayotgan o'quvchini baholash o'sha davlatning barcha o'quvchilar balining o'rtachasini bildiradi. Mamlakatlarning o'rtacha bali **500 ballni** tashkil etadi va standart og'ish esa **100 ballni** tashkil etadi. IHTT davlatlari o'quvchilarining taxminan uchdan ikki qismi **400 dan 600 gacha ball** to'plagan.

Ishtirokchi mamlakatlar PISA reytingida qanday baholanadi?

PISA o'qish (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlar bo'yicha natijalarga ko'ra ishtirokchi mamlakatlarni baholaydi. PISA barcha fanlarga umumiy ball bermaydi, aksincha, u har bir fan sohasi uchun baho beradi va har bir hudud uchun o'rtacha ball darajasini belgilaydi. Biroq, har bir mamlakatga har bir fan bo'yicha aniq bir daraja berish mumkin emas.

PISA testlari va natijalarining ishonchliligini ta'minlash uchun qanday qadamlar qo'yiladi? PISAning shaffofligiga ishonish, faqat vaqt o'tishi bilan rivojlanib, bundan keyin ham davom etadigan statistik model haqida emas, balki, tadqiqotni loyihalashtirish, amalga oshirish va tahlil qilishning barcha texnik jihatlariga tatbiq etiladigan qat'iylik asosida amalga oshiriladi. Xususan, testlarni ishlab chiqishda, baholashning ishonchliligi ularni ishlab chiqish, tanqid qilish, tahlil qilish, ko'rib chiqish va tanlashda qo'llaniladigan tartiblarning qat'iyligi bilan bog'liq.

Ekspertlar uchun bu masala yuzasidan barcha jihatlarni hisobga olinganligini ta'minlash va ushbu jihatlarga etarlicha mos muvozanatda bo'lgan test materiallari to'plamini tanlab olishda

ekspert fikrini berishdan iborat. PISA da bu ish xalqaro ekspertlardan tashkil topgan maslahat guruhlar bilan ishlaydigan baholash mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu materialni tanlash jarayonida ishtirok etuvchi mamlakatlar va iqtisodchilar ham muhim rol o'ynaydi.

O'quvchilar PISA dasturida yolg'on ishlatishlari mumkinmi? PISA- dunyodagi eng ilg'or xalqaro, yuqori sifatli va yuqori samarali ta'limni baholash dasturi hisoblanadi va shuning uchun PISA ma'lumotlarining 100% to'g'ri va haqiqiy ekanligi juda muhimdir.

Shu maqsadda, IHTT o'quvchining qobiliyatlarini, o'zi haqidagi ma'lumotlar va faoliyatini aniq aks ettirishi hamda har qanday aldov shakllarini ishlatmasligi uchun barcha darajalarda juda qattiq shartlarni qo'llaydi. Ushbu ishonch IHTT va har bir davlat o'rtasida ishtirok etish shartlari talablariga rozilik bilan mustahkamlanadi. Rozilik shartnomasining 4-moddasi davlatlardan sinov materiallari xavfsizligini nazorat qilish va baholashni xavfsiz boshqarish kabilarni o'z ichiga olgan PISA uchun keng qamrovli texnik standartlarni talab qiladi.

Ushbu talablar keyinchalik "PISA-Harakatlar qo'llanmasi", "Maktab koordinatorlari qo'llanmasi" va "Test ma'muriyati qo'llanmasi" orqali takomillashtiriladi. Ushbu qo'llanmalar barcha test materiallarini xavfsiz tarzda qabul qilish, ularni saqlash hamda test o'tkazish jarayonini xavfsiz boshqarish uchun aniq ko'rsatmalarga ega. Tasdiqlangan loyiha xodimlaridan boshqa hech kim PISA xavfsizligiga oid ma'lumotlar va foydalanish ta'qiqlangan materiallardan foydalana olmaydi. Tasdiqlangan loyiha xodimlari uchun rasmiy konfidensiallik qoidalar mavjud.

Nima uchun Xitoy Xalq Respublikasining barcha a'zolari PISA da ishtirok etmaydilar? So'nggi yillarda milliy vazirlik PISA dasturini Xitoyning bir necha viloyatlarida to'liqroq ishtirok etishga tayyorlash maqsadida sinovlarni o'tkazmoqda. Shanxay PISA-2009dan buyon ishtirok etib keladi. Pekin hamda Stzyansu va Guandun provinistiyalari esa PISA-2015 tadqiqotlarida ishtirok etdi.

PISA tadqiqoti darslari mamlakatlarning ta'lim tizimi rivoji uchun qanday yordam bergan? PISA da ishtirok etgan mamlakatlar bo'yicha IHTTning 2012 yilgi so'rovnomasida respondentlarning aksariyati yuqori darajadagi davlatlar yoki rivojlanayotgan tizimlarning ta'lim siyosati o'zlarining faoliyatini amalga oshirish jarayonlarida samarali ta'sir ko'rsatganini ta'kidladilar.

Yana ko'plab mamlakatlar PISA milliy yoki federal baholash strategiyasining yangi tarkibiy qismlarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatganini aytib o'tishadi. Dasturlarni o'rnatish va standartlarga nisbatan ko'plab mamlakatlar PISA tizimining ta'sirini quyidagilarga qaratdi: milliy o'quv dasturlarini PISA me'yorlari va baholashlari bilan taqqoslash; milliy standartlarni shakllantirish; ularning ta'lim tizimiga ta'siri; PISAgaga o'xshash vakolatlarni o'quv dasturlariga kiritish; milliy talablarga javob beruvchi standartlarni belgilashga qaratilgan.

PISA-2015 tadqiqot doirasida o'quvchilar bilimni baholash inson resurslaridan foydalanmagan holda kompyuterga asoslangan baholash tizimi asosida amalga oshirildi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarning qobiliyatlarini izchillik bilan aniqlash imkonini berdi. Xususan, o'quvchilarning turli guruhlar bilan hamkorlikda ishlashi ishonchli tarzda taqqoslanishi mumkin.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. Xalqaro baholash dasturlari haqida ma'lumot bering
2. Pisa dasturning asosiy maqsadi ?
3. PISA- ning interaktiv vazifalari nimadan iborat?
4. PISA – o'quvchilarning qanday yutuqlarini baholaydi?
5. PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) - matni o'qish va tushunish sifatini o'rganish deb nomlangan xalqaro loyihasida nechanchi sinf o'quvchilari ishtirok etadi ?
6. PISA tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish, amalga oshirish muddati necha yilga mo'ljallangan?
7. Nima uchun PISA tadqiqotlari har uch yilda bir marotaba o'tkaziladi va nega aynan 15 yoshli o'quvchilarning bilim darajalari aniqlanadi?
8. PISA dasturining o'ziga xosligini tahlil qiling?
9. Mamlakatlarda PISA tadqiqotlarida ishtirok etish uchun maktablar qanday tanlab olinadi?
10. PISA natijalari o'quvchilarning boshqa insonlar bilan muloqot o'rnatish qobiliyatlarini baholay oladimi?

**16-MAVZU: KORREKSION PEDAGOGIKA VA
INKLYUZIV TA'LIM ASOSLARI**

Tayanch tushunchalar: korreksion pedagogika, defektologiya, nuqson, anomal, inklyuziv, inklyuziv ta'lim, korreksion-tarbiyaviy ish.

16.1. Korreksion pedagogika pedagogika fanining tarmog'i sifatida.

Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lar bo'lgan o'quvchilarni korrekson o'qitish va tarbiyalash bilan korrekson pedagogika (defektologiya) shug'ullanadi. Korrekson (maxsud) pedagogika (defektologiya — yunoncha defectus — nuqson, kamchilik, logos — fan. ta'limot) — rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega. Maxsus individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.

Ilmiy tushuncha sifatida korrekson pedagogika zamonaviy pedagogika fanida rasman e'tirof etilganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Uzoq vaqt davomida pedagogikada «defektologiya» tushunchasi qo'llanib kelingan.

Korreksion pedagogika (defektologiya) tarkibiga quyidagi sohalari kiradi: Pedagogik lug'atda «korreksiya» tushunchasi (yunoncha «korrektio» tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi.

Ana shu lug'atda «korrekson pedagogika»ning jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga muhtoj bo'lgan, sog'lig'i imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi va shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan ekanligi qayd etiladi.

Korreksion pedagoikaning asosiy maqsadi - belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o'rtasidagi nomuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirishdan iborat.

Korreksion-pedagogik faoliyat yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Diagnostika korrekson, korrekson-rivojlantiruvchi, korrekson-profilaktik faoliyatlar bilan birqatorda tarbiyaviy va korrekson-o'qitish, psixokorreksion faoliyatni ham amalga oshirilishini ta'minlaydi. Korrekson-pedagogik faoliyat maxsus ta'lim dasturiga muvofiq

mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayon.

Korrekson pedagogikaning asosiy vazifalari. Turli kategoriyali anomal bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlari mavjud. Korrekson pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

- rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolaning nuqsonlarini tuzatish va korrekson-kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash;
- differentsiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;
- anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;
- rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;
- bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;
- anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

16.2.. Korrekson pedagogikaning kategoriyalari.

Korrekson pedagogika quyidagi pedagogik kategoriyalarga ega:

Anomal bolalarni o'qitish va rivojlantirish ularni ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli jarayondir. Anomal bolalar uchun ta'lim tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqishi vaqti hisobga olinadi. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatini yo'qotish vaqti alohida ahamiyatga ega.

Anomal bolaning rivojlanishi normal boladan ko'ra ko'proq darajada o'qitishga bog'liq. Shuning uchun anomal bolalar o'qitilmasa yoki o'qitish kech boshlansa uning rivojlanishiga jiddiy zarar etkaziladi. psixik funktsiyalarning shakllanishi ortda qoladi, normal tengdoshlaridan ortda qolishi darajasi oshadi, nuqsonlar o'ta jiddiy bo'lsa aqliy rivojlanishi imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolishi mumkin.

Maxsus didaktikaning markaziy muammosi mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish masalasi hisoblanadi. Maxsus maktablarda uni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu jarayonda o'quvchilar ijtimoiy hayot, shuningdek, imkoniyat darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlash buzilgan funktsiyalarini tiklash, shuningdek, aqliy

va jismoniy rivojlanish nuqsonlarining darajasini pasaytirishga yordam beradi.

Anomal bolalarni tarbiyalash — korrekson pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarifii qo'llab-quvvatlash, bir-biriga yordam ko'rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olish asosida ularda mustaqillik, o'ziga xizmat ko'rsatish, mehnat ko'nikmalari, xulq madaniyati, shuningdek, ijtimoiy muhitda yashash va ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Anomal bolani tarbiyalash atrofdagilarning uning psixik yoki jismoniy kamchiliklariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Bunday bolalarda optimizm va ishonchni tarbiyalash, qobiliyatini shakllantirish yoki uning o'rnini bosuvchi imkoniyatni rivojlantirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalash hamda harakatlari va xulqini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim.

Korrekson-tarbiyaviy ishlar kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimidan iborat. Korrekson - tarbiyaviy masalalarida sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalaniladi. Korrekson —tarbiyaviy ishlar anomal bolalarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi va mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Mehnat ta'limi jarayonida faqat kasbiy malakalari emas, balki o'z ishlarini rejalashtirish ko'nikmalari, og'zaki ko'rsatmalarga amal qilish malakasi, ishning sifatini tanqidiy baholash va boshqa malakalari tarbiyalanadi. Kamchiliklarini tuzatish yordamida anomal bolalarning normal rivojlangan bolalar bilan aloqalari uchun sharoitlaryaratish muhimdir. Bir qator hollarda anomal bolalar uchun davolash-korrekson tadbirlar (davolash jismoniy mashqlari, masala, artikulyar va nafas olish gimnastikasi, dori-darmonlar qabul qilish va boshqalar) ni tashkil etish zarur bo'ladi.

Kompensatsiya (yunoncha «compensatio» — o'rnini to'ldirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funktsiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayanadi.

Ijtimoiy rehabilitatsiya (yunoncha «rehabilitas» — layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunida anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayoti va mehnatiga jalb etishni anglatadi. Bu korrekson pedagogika nazariyasi va amaliyotida asosiy vazifa hisoblanadi.

Rehabilitatsiya nuqsonlarini yo'qotish va yumshatishga yo'naltirilgan maxsus tibbiy vositalar hamda maxsus ta'lim, tarbiya va kasbiy tayyorlash yordamida amalga oshiriladi. Rehabilitatsiya jarayonida kasallik oqibalida buzilgan funktsiyalarning o'rnini to'ldiriladi. Rehabilitatsiya vazifalari anomal bolalarning turli kategoriyalari uchun maxsus o'quv muassasalari tizimida hal etilib, unda o'quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari bolalarning anomal rivojlanishi xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Ijtimoiy adaptatsiya (yunoncha «adapto» — moslashish) — anomal bolalarning individual va guruhli xulqlarini jamoatchilik qoidalari va qadriyatlarini tizimiga mos kelishini ta'minlash. Anomal bolalar uchun ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish qiyin, sodir bo'layotgan o'zgarishlarga mos ravishda javob qaytarish qobiliyati past, shu bois murakkab talablarni bajarishga ularning layoqati etmaydi. Ijtimoiy adaptatsiya bolalarga ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi.

Oilaviy tarbiya rehabilitatsiyani samarali tashkil etish omili. Oila va maktabning hamkorlikdagi harakatlari anomal bolani ijtimoiy faoliyatga jalb etish, uning mehnat qobiliyatlarini aniqlash va imkoniyat darajasida kasb ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydi.

16.3. Alohida yordamga muhtoj o'quvchilar bilan individual ta'limni tashkil etish.

Anomal o'quvchilar bilan olib boriladigan korrekson ishlarning asosiy yo'nalishlari. Psixofiziologik rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish — murakkab ijtimoiy-pedagogik muammo hisoblanadi. Rivojlanishida nuqsoni bolgan bolalar bilan korrekson ishlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

Bolalarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlar tabiati va mohiyatini aniqlash, ularning yuzaga kelishi sabablari va sharoitlarini o'rganish.

Rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan korrekson-pedagogik faoliyatning tashkil etish va rivojlanishi tarixini o'rganish.

Bolalarning rivojlanish va xulqidagi nuqsonlarning oldini olishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar va psixofiziologik rivojlanishi etimologiyasi (sabab-oqibatli asoslari)ni aniqlash.

Rivojlanishida kamchilik va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarga korrekson-pedagogik ta'sir ko'rsatish texnologiyasi, shakl-, metod va vositalarini ishlab chiqish.

Ommaviy umumiy o'rta ta'lim manbalari sharoitlarida rivojlanishi va xulqida nuqsonlar bo'lgan bolalarning umumiy va maxsus ta'limi mazmunini tahlil qilish.

Bolalarni reabilitatsiya qilish va himoyalash markazlari, maxsus muassasalarining maqsadi, vazifa va asosiy yo'nalishlarini aniqlash.

Anomal bolalar bilan korreksion-pedagogik faoliyatni tashkil etuvchi o'qituvchilarni tayyorlashda zarur o'quv-metodik bazasini yaratish.

Korreksion-tarbiyaviy ishlar anomal bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni yo'qotish yoki kamaytirishga qaratilgan maxsus pedagogik chora-tadbirlar tizimidir. Korreksion-tarbiyaviy ishlar faqat alohida nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan bo'lmay, balki umumiy rivojlanti- rishga qaratilgan.

O'quvchilarning rivojlanishi va xulqidagi nuqsonlarni tuzatish bolaning shakllanayotgan shaxsini o'zgartirishga qaratilgan yaxlit pedagogik hodisa sanaladi.

Korreksion-tarbiyaviy faoliyat bolaning idrok etish imkoniyatlarini o'zgartirish, uning emotsional-irodaviy, individual-shaxsiy sifatlarini yaxshilash, qiziqish va layoqatlari, mehnat, badiiy, estetik va boshqa qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik xatti-harakat.

Korreksion-rivojlantiruvchi ta'lim o'qishda va maktabda anomal bolalarga o'z vaqtida malakali yordam ko'rsatishni ta'minlovchi differensial ta'lim tizimi bo'lib, uning asosiy vazifasi bola rivojlanishining umumiy darajasini oshirishga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirish, uning rivojlanishi va o'qishidagi kamchiliklarni yo'qotish, etarlicha shakllanmagan malaka va ko'nikmalarni shakllantirish hamda bolaning idrok etish borasidagi kamchiliklarni tuzatish.

Korreksion-pedagogikaning paydo bo'lishi, tashkil topishi va rivojlanishi. Rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korrekson-pedagogik faoliyat boy tarixiy tajribalarga ega. Anomal (yunoncha anomalos — noto'g'ri) bolalarga jismoniy yoki psixik

nuqsonlari umumiy rivojlanishini buzilishiga olib keladigan bolalar kiradi.

Ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti tarixi anomal bolalarga bo'lgan munosabatlarning uzoq vaqt davomida evolyutsion tarzda shakllanib kelganligini ko'rsatadi.

Antik davrda qadimgi Spartada bir necha yuz yilliklar davomida sog'lom tana, kuch, chidamlilik yuqori o'ringa qo'yilib, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar yo'q qilinardi. Mazkur davrda yangi tug'ilgan chaqaloqlarni qabila boshliqlariga olib kelardilar, ular bolalarni sinchiklab ko'rib agarda ijtimoiy talablarga javob bera olsalar, ular otalariga tarbiyalash uchun qaytarilar edi. Agarda bolada birorta nuqson topilsa uni qabila boshliqlari Tayget jarligiga tashlab yuborar edilar (eramizdan avvalgi 4-5 asrlar).

Evropada o'rta asrlarda bolaning rivojlanishidagi har qanday nuqson qora, yovuz kuchlarning namoyon bo'lishi sifatida e'tirof etilib, psixik kasalliklari bo'lgan kishilar inkvizitsiya gulxanida yondirilganlar.

Uyg'onish davridan boshlab XIX asrning o'rtalarigacha Evropa defektologiya fani va amaliyotida bolaning aqliy rivojlanishidagi nuqsonlar muammosi borasidagi qarashlarning evolyutsion xarakterini anglash mumkin.

Ruhiy kasallarga nisbatan insonparvarlik vondashuvi ilk bor fransuz shifokori, psixiatri Filipp Pinel (1745— 1826-yillar) tomonidan ilgari surilgan. U ruhiy kasalliklarni klassifikatsiyalagan (turlarga ajratgan).

Rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalarga nisbatan pedagogik yondashuv 18 asr oxirlari — 19 asr boshlarida yuzaga keladi. Aqli zaif bolalarni maxsus usullar vordamida o'qitish va tarbiyalash g'oyasini Iogan Genrix Pestalotssi (1746— 1827-yillar) asoslagan bo'lsada, biroq, o'z davrida bu fikr qo'llab-quvatlanmadi. I.G.Pestalotssi «aqli zaiflar» bilan ishlash tamoyilining mohiyatini asoslab berdi: bolaning imkoni etgan bilimlarni berish, didaktik materiallardan foydalanishda aqliy va jismoniy tarbiya uyg'unligiga erishish, ta'limni ishlab chiqarish mehnati bilan bog'liq holda tashkil etish.

Aqli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalashga nisbatan tibbiy-pedagoeik yondashuv asoschisi fransuz psixiatri Jan Itar (1775—1838-yillar) hisoblanadi. U aqli zaifligi murakkab bo'lgan bolaga ta'lim va tarbiya berishga urindi. Garchi kutilgan natijaga erisha olmasada, bunday toifa bolalarni sezgi va motorika organlarini mashq qildirish yordamida rivojlantirish yo'lini ko'rsatib berdi.

Anatomik-fiziologik yondashuv rivojiga nemis psixiatri Emil Krepelin (1856—1926-yillar) katta hissa qo'shdi.

Frantsuz psixologi Alfred Bine va vrach-psixiatr Tomas Sjmon test sinovlari metodini asoslaydilar. Shu bois ular intellektual zaiflikni o'rganishning psixometrik yo'nalishi asosch5kukkuqilari hisoblanadilar.

Yuqorida qayd etilgan yondashuvlar asosida XX asr boshiga kelib quyidagi uch asosiy yondashuv qaror topdi:

Tibbiy-klinik yondashuv aqli zaiflarning etimologiyasini bilish, intellektning buzilishiga sabab bo'lgan omillar, shuningdek, anatomik-fiziologik va genetik buzilishni o'rganish g'oyasini ilgari suradi.

Psixologik yondashuv psixikasi buzilgan bolalarning psixik faoliyati, emotsional holati hamda shaxsini o'rganishga yo'naltirilgan.

Pedagogik yondashuv intellekti buzilgan bolalarni o'qitish hamda tarbiyalashning pedagogik tamoyillari, metodlari, shuningdek, nuqsonlarni bartaraf etish yo'llarini o'rganish g'oyasiga tayanadi.

Rossiya korrekson pedagogikasi tarixi Evropa defektologik fani bilan uzviy bog'liq.

Petr I., Ekaterina I.I. lar anomal bolalar uchun davolash muassasalari, mehribonlik uylari va maxsus maktablarni barpo etish haqida farmon chiqarganlar.

19 asr oxiri 20 asr boshlarida anomal bolalarni o'qitish va tarbiyalashni yo'lga qo'yuvchi ko'plab jamiyat hamda ijtimoiy tashkilotlar tashkil etildi.

Sobiq Sho'ro davrida bolalikni himoya qilish va bolalar nuqsonlari bilan bog'liq muammolarni o'rganishga alohida e'tibor qaratildi.

1918-yilda maxsus dekret qabul qilindi. Unda anomal bolalarga yordam berishda asosiy vazifa ularni alohida ajratish emas, balki ularni o'qitish va tarbiyalashga e'tiborni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Shu yili Rossiyada birinchi maxsus ta'lim-tarbiya muassasasi (V.P.Kashenko uyi) tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasida korrekson pedagogika (defektologiya)-ning rivojlanish tarixi Rossiya defektologiya fani bilan uzviy bog'liq bo'lib, ayni vaqtda u o'z xususiyatlariga ham ega. Bu xususiyatlar dinning o'zbek xalqi hayoti va turmushiga chuqur singganligi va o'zbek milliy mentaliteti bilan tavsiflanadi. O'zbek xalqi anomal bolalarga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lib, ularga rahmdillik, mehribonlik ko'rsatgan.

O'tgan asrning 60—70-yillarida respublikada korrekson pedagogika bo'yicha tadqiqotlar olib borish hamda defektolog

pedagoglarni tayyorlash yo'lida ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, 1967-yili Nizomiy noniidagi Toshkent davlat pedagogika instituti pedagogika va psixologiya fakultetida defektologiya bo'limi ochilib, ixtisoslashtirilgan muassasalar uchun pedagog-defektologlarni tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Hozirgi kunda respublika olini defektologlari ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida korrekson-rivojlantirish sinflarini tashkil etish, anomal bolalarning maktabga moslashishlari uchun yordam ko'rsatish hamda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash borasidagi muammolarni o'rganmoqdalar.

Rivojlanishidagi nuqsonlarni klassifikatsiyalash, ularning sabablari va omillari. Olib borilgan tadqiqotning ko'rsatishicha, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning soni ko'p bo'lib, ayni vaqtda yanada oshib bormoqda.

«Anomaliya» tushunchasi yunonchadan tarjima qilinganda me'yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto'g'ri rivojlanishni anglatadi.

Rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda iismoniv voki psixik kamchiliklar (nuqsonlar) bo'ladi, ular bolalarning umumiy rivojlanishida chetlanishlaming sodir bo'lishiga sabab bo'ladi. Nuqsonning xususiyati, paydo bo'lishiga qarab ayrim kamchiliklarni to'la yo'qotish, ayrimlarini esa tuzatish, uchinchi xillarining o'rnini to'ldirish mumkin. Anomal bolaning rivojlanishida uni o'qitish va tarbiyalash asosiy muammo hisoblanadi.

Ayni vaqtda rivojlanishidagi chetlanishlaming klassifikatsiyasi bo'yicha yagona qarash mavjud emas.

M.A.Vlasova va M.S.Pevznerlar anomal bolalarning quyidagi guruhlarini ko'rsatadilar:

Sensor xislati etishmaydigan (noraso) bolalar (eshitish, ko'rish, nutqi qobiliyatlari, tayanch-harakat apparat va sensomotorikasining funktsiyasi buzilgan).

Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar.

Astenik yoki reaktiv holati hamda nizoli tashvishlanishga ega bo'lgan bolalar.

Psixopatik xulqli bolalar (xulqning emotsional buzilishi).

Aqli zaif bolalar (debillik, imbetsillik, idiotiya darajasidagi oligofrenlar).Psixik kasallikning boshlang'ich ko'rinishi (shizofreniya, epilepsiya, isteriya va boshqalar) namoyon bo'ladigan bolalar.

N.Usanova anomal bolalarni quyidagi guruhlaiga ajratishni taklif

etadi:

Organik buzilishlar sababli rivojlanishida chetlanish bo'lgan bolalar.

Funksional etuk emasligi sababli rivojlanishida kamchilik bo'lgan bolalar.

Psixik deprivatsiyalar asosida rivojlanishida kamchiliklar bo'lgan bolalar.

Defektolog V.S.Raxmanova rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalarni quyidagicha guruhlarga ajratishni taklif etadi:

Intellectual buzilishga ega bolalar (aqli zaif va psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar).

Nutqi buzilgan bolalar.

Sensorli nuqsonlarga ega bolalar (ko'rish va eshitish qobiliyatlari buzilgan)

Tayanch-harakat apparati buzilgan bolalar.

Rivojlanishida kompleks buzilish bo'lgan bolalar.

Anomal bolalarda nutqiy qobiliyatning buzilishi umumiy qonuniyat hisoblanadi.

Bolaga korrekson ta'sir ko'rsatishning samaradorligi mavjud nuqson xususiyati, ayrim psixik jarayon yoki funktsiyalarining buzilganlik darajasi, bolaning yoshi, nuqsonlar o'mini to'ldirishga imkon bemo'vchi qobiliyati, tibbiy-pedagogik ta'sir ko'rsatish, bola yashayotgan muhit hamda uni tarbiya sharoitlarining mavjud ahvoli va boshqa omillarga bog'liq. Anomal bolalarning ma'lum guruhi faqat psixologik-pedagogik ta'sirga muhtoj bo'lsalar, boshqa guruhlari ularga esa davolash-sog'lomlashtirish tadbirlarining amalga oshirilishini talab etadi. Rivojlanishdagi nuqsonlarning barvaqt diagnostika qilinishi ma'lum muvaffaqiyatlarga erishishning garovidir.

Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni diagnostika qilishda korrektsion ishlar tamoyillari va metodlari. Rivojlanishida kamchiliklar bo'lgan bolalar maxsus, korrektsion-rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiyaga muhtoj bo'ladilar. Anomal bolalarga yondashishda u yoki bu nuqsonni aniqlash emas, balki uning xususiyati, tuzilishi, bolani tegishli muassasaga joylashtirish, korrektsion ishlarni amalga oshirishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan sonli va sifatli ko'rsatkichlarini aniqlash muhimdir.

Anomal bolalarni maxsus muassasalarda o'qitish va tarbiyalash, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korrektsion-rivojlantiruvchi sinflarni tashkil etish masalasi bilan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyalar (PMPK) shug'ullanadilar. Bu borada

mutaxassislaming quyidagi tamovillarga amal qilishlari maqsadga muvofiqdir:

Insonparvarlik tamovili har bir bola uchun o'z qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantira oladigan zarur sharoitlarni o'z vaqtida yaratib berishdan iborat bo'lib, u bolani izchil va batafsil o'rganish, uning yo'lida uchraydigan qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llari va vositalarini izlashni talab etadi.

Bolalarni kompleks o'rganish tamovili bolaga tashhis qo'yishda zarur mutaxassisliklar (tibbiy, defektologik, psixologik va pedagogik) bo'yicha olingan ma'lumotlarga tan ish ni nazarda tutadi. Agar shifokor, defektolog, psixolog va pedagoglarning fikrlari turlicha bo'lsa, bola qayta tekshiruvdan o'tkaziladi.

Bolani har tomonlama va yaxlit o'rganish tamovili bolaning idrok etish, emotsional-irodaviy sifatlari va xulqini tekshirishni ko'zda tutadi. Unga ko'ra bolaning rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jismoniy holati ham hisobga olinadi. Bolani har tomonlama va yaxlit o'rganish uning o'quv, mehnat va o'yin kabi faoliyati jarayonidagi harakatlarini kuzatishga asoslanadi.

Bolani dinamik o'rganish tamoyiliga binoan tekshirish davomida ular biladigan va bajara oladigan ishlarni emas, balki ularning o'qitishdagi imkoniyatlarini ham hisobga olish muhim ekanligini nazarda tutadi. L.S.Vigotskiyning «yaqin rivojlanish zonasi» - bolalarning o'qishdagi mavjud imkoniyatlari haqidagi ta'limoti mazkur tamoyilning asosini tashkil qiladi.

Sifatiy-miqdoriy yondashuv tamovili bola bajargan topshiriqni baholashda yakuniy natijanigina emas, balki usuli, masalani echish uchun tanlangan yo'lning ratsionalligi, harakatlarning mantiqiy ketma- ketligi, maqsadga erishishdagi qat'iylik va tirishqoqlikni ham hisobga olish zarurligini asoslaydi.

Ma'lum turdagi patologivali bolalarni boshqa bolalar guruhlaridan airatish tamovili har bir maxsus ta'lim muassasasi o'zi qoidalariga egaligini tavsiflaydi.

Rivojlanishida maviud bo'lgan chetlanishlar daraiasiaa ko'ra differensatsiyalashtirilgan ta'limni tashkil etish tamoyili rivojlanishida bir xil, lekin darajasiga ko'ra turli chetlanishga ega bolalarni ajratgan holda o'qishlarini nazarda tutadi, binobarin, ulami o'qitish metodikasida sezilarli farqlar mavjud (masalan, ko'zi ojiz bolalar taktil asosda (Brayn tizimi bo'yicha), yomon ko'ruvchilar esa ko'rish asosida o'qitiladi).

Yoshi tamoyili har bir guruh yoki sinfga ma'lum yoshdagi bolalarning qabul qilinishini ifodalaydi. Turli yoshdagi rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalarni tekshirish va ularga korreksion yordam ko'rsatish malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

PMPKning tarkibida quyidagi mutaxassislar faoliyat ko'rsatadilar: pcdagog, psixolog, shifokor, psixiatr, nevropatolog, otolaringolog, ortoped, oftalmologlar, oligofrenopedagog, surdopedagog, tiflopedagog hamda logoped. PMPK ishlariga defektologik ta'lim va anomal bolalar bilan ishlashda amaliy tajribaga ega mutaxassis rahbarlik qiladi.

Psixologik-pedagogik tekshirishlar quyidagi metodlari yordamida tashkil etiladi:

Suhbat metodi. Suhbat bola bilan aloqa o'rnatish vositasi bo'lib, anomal bolaning shaxsi, emotsional-irodaviy sifatleri, xulqi, shuningdek, rivojlanishidagi chetlanishlarning sabablari haqidagi ma'lumotni to'plashga inikon beradi. Agarda bolaning nutqida, eshitish qobiliyatida nuqsonlari bo'lsa, yoki munosabatga qiyin kirishsa suhbatni tashkil qilish tavsiya etilmaydi. Bunday hollarda bolani qiziqtiradigan ko'rgazmali materialdan foydalanish mumkin.

Kuzatish metodi. Kuzatish bolaning konsultatsiyaga kelishidan avval boshlanadi va yaxlit tekshirishlarni o'tkazish jarayonida davom ettiriladi. Kuzatish har doim aniq maqsad asosida o'tkaziladi. Bolani o'yin faoliyatini tashkil etish jarayonida kuzatish alohida ahamiyatga ega, ular bola bilan aloqa o'rnatishga imkon beradi. Ayrim hollarda o'yinchoqlar yordamida maxsus tekshirishlar o'tkaziladi.

Rasmlarini o'reanish metodi. Rasmlar bolani o'lganishda muhim difTerensial-diagnostik vosita hisoblanadi. Bolada pedagog tomonidan tavsiya etilgan rasmlar xavotir uyg'otsa, bolaga erkin rasm chizishni taklif etish maqsadga muvofiqdir. Uning mavzu tanlay olishi, tasvirlash xususiyatlari, rasm chizish jarayoni yakuniy tashhis uchun qimmatli ma'lumot hisoblanadi. Aqli zaif bolalar odatda mavzuni tanlashga qiynaladilar, ular sujetlar yaratmay, alohida odatiy predmetlarni tasvirlashga harakat qiladilar.

Tajriba-psixoloieik tadaiaotlar metodlari. Ular maxsus o'rganilishi kerak bo'lgan psixik jarayonni qo'zg'atuvchi ma'lum vaziyatlarni yaratishni ko'zda tutadi. Tajriba metodikalari yordamida u yoki bu holatlarning sabablari va mexanizmlarini ochib ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Testlar metodi. Bu metod bolalarning psixodiagnostik maqsadlarda tekshirishda qo'llaniladi. D.Veksler tomonidan asoslangan

moslashtirilgan test ommaviylashgandir. Undan foydalanish individual-psixologik tekshirishlarni o'tkazishda bola haqida zarur qo'shimcha ma'lumotlarni olishga imkon beradi.

Aqliy va psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Psixik rivojlanishdan ortda qoluvchi bolalarning psixologik-pedagogik tavsifnomalari. Tadqiqotlar predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar orasida psixik rivojlanishi ortda qolgan. yaqqol ifodalanmaydigan sensorli, intellektual, nutqiy buzilishlarga ega bolalar mavjudligi, buning sababi markaziy nerv tizimi shikastlanishining asorati, minimal miya diafunktsiyalari ekanligini ko'rsatadi. Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilarning taxminan 50 foizini tashkil etadi.

PROQni bolalar rivojlanishini ko'rsatuvchi anomaliya sifatida o'rganish XX asrning 50-yillarining oxirida boshlanib, 60-70-yillarda keng ommalashdi.

Tadqiqotchilar (G.B.Shoumarov, K.S.Lebedinskaya) PROQning quyidagi to'rt variantini keltiradilar:

- konstitutsional kelib chiqish;
- somatogen kelib chiqish;
- psixogen kelib chiqish;
- serebral-organik kelib chiqish.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan maktabga borayotgan bolalar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladilar. Ular maktabda o'qishga to'la tayyor emaslar, ularda maktabda o'qish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar shakllanmagan, dastur talablarini o'zlashtirish uchun layoqati etarli emas. Ular maxsus yordamsiz hisoblash, o'qish va yozishni, shuningdek, maktabdagi tartibni o'rigana olmaydilar. Faoliyatlarni tashkil etishda qiyinchilikni his etadilar. Ularda ruhiy toliqish kuzatilib, tez charchash, ish bajarish qobiliyatining pasayishi, boshlagan ishini bajarmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Ko'pincha boshlari og'riydi.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalarning xulqi ham o'ziga xos. Maktabda ular o'zlarini maktabgacha yoshdagi bolalar kabi tutishadi. Ularda o'qishga nisbatan qiziqish yo'q yoki juda past bo'lib, maktabga nisbatan ijobiy munosabat kuzatilmaydi. O'z yin ular uchun asosiy faoliyat bo'lib qoladi.

PROQli bolalarni ko'pincha aqli zaif deb hisoblab xato qiladilar. Ularni o'zaro farqlashda ayrim omillar qo'l keladi. Chunonchi, PROQ bolalarda oddiy bilimlarni o'zlashtirish, hisoblash ko'nikmalarini egallab olishda qiyinchilik ko'zga tashlanishi bilan birga she'r yoki ertaklarni

eslab qolish qobiliyati va idrok etish faolligi ancha yuqori bo'ladi. Bunday xususiyatlar aqli zaif bolalarda kuzatilmaydi.

Ko'pchilik hollarda PROQ (ZPR) o'quvchilar ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladilar. Ular bilan individual korreksion ishlar olib borilmaydi, shu bois ular amalda o'quv jarayonidan chetda qoladilar va predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar qatoriga kiritiladilar. Ular maxsus tashkil etiluvchi korreksion-rivojlantiruvchi ta'limga muhtojlar. Ularga alohida e'tibor ko'rsatish talab etiladi.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar bilan korreksion ishlar olib borishning xususiyatlari. O'zbekistonda XX asrning 60-yillarida ilk bor psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar bilan maxsus pedagogik ishlar amalga oshirilgan.

Hozirgi kunda psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar uchun maktab intematlar va maxsus ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, ular ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan korreksion-rivojlantiruvchi sinflarda ham o'qitishlari mumkin.

Ta'lim jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Boshlang'ich umumiy o'rta ta'lim (ta'lim muddati — 4—5 yil).

Asosiy umumiy o'rta ta'lim (ta'lim muddati - 5 yil).

Bolalarni korreksion muassasalarga qabul qilish PTPKning xulosasi bo'yicha ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning roziligiga ko'ra amalga oshiriladi. Sinf 12 nafar o'quvchidan iborat bo'ladi. Ular rivojlanishidagi nuqsonlarning bartaraf etilishiga ko'ra ommaviy umumiy o'rta ta'lim muassasalariga o'tkazilishlari mumkin.

Ikkinchi bosqichda ta'lim 5-9 sinflar) ayrim o'zgartirishlar (muayyan o'quv mavzulari yoki ulardagi materiallar hajmini qisqartirish) bilan ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarining dasturlari asosida amalga oshiriladi. Korreksion-rivojlantiruvchi sinflarda, ta'limning 1-bosqich muddati zarur holatlarda 1 yoki hatto 2 yilga uzaytirilishi mumkin.

Ular bilan ishlashda asosiy vazifa - bolalar tomonidan atrof-muhit haqidagi bilimlarni egallab olinishiga yordam berish, ularda kuzatuvchanlik va amaliy o'quv faoliyati tajribasini hosil qilish, mustaqil ravishda, bilimlarni egallash va amaliyotda ulardan foydalanish malakasini shakllantirishdan iborat.

Bunday o'quvchilar individual yondashishni talab etadilar. Ularni korreksion o'qitish davolash-sog'lomlashtirish tadbirlari bilan birga amalga oshirilishi zarur. O'zquv materiali hamda ta'lim metodi PROQ bolalarning rivojlanish darajalariga mos holda tanlanishi zarur.

Aqli zaiflikning psixologik-pedagogik xususiyatlari, uning paydo bo'lishi sahlari. Aqli zaiflikni o'rganish bilan bog'liq masalalar korreksion pedagogikada (defektologiyada) eng muhim masalalar qatoriga kiradi.

Aqliy rivojlanishi buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, ijtimoiy moslashtirish va o'rganish muammolari korreksion (maksud) pedagogikaning muhim sohasi — oligofrenopedagogika tomonidan o'rganiladi. «Oligofreniya» (yunoncha olygos — kam va phren - aql) termini 19 asrda mashhur nemis psixiatri Emil Krepelin tomonidan qo'llanilgan.

Oligofreniya — bu natal (tug'ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

Oligofreniyaning sabablari bosh miyani buzilishiga olib keluvchi ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) otshag bo'lishi mumkin. Ekzogen omillarsirasiga onaning homiladorlik davrida turli infeksiyon kasalliklar bilan kasallanishi (virusli kasalliklar, qizilcha, qizamiq, kor, Botkin kasalligi va boshqalar), chaqaloqning ona organizmidagi turli parazitlar bilan zararlanishi (toksoplazmod) hamda turli tug'ma shikastlar (asfiksiya) kiradi. Onaning yurak-qon tomir tizimi, buyrak, jigar kasalliklari bilan og'rishi, homiladorlik davrida ruxsat etilmagan dori-darmonlarni qabul qilishi, homiladorlik davrida turli jismoniy va psixik jarohatlarni olishi, ayo'llarning zararli ishlab chiqarishda ishlashlari, atrof-muhitning yomon sharoitlari, chekish, alkogolizm, ota-onalari giyohvand moddalarni is'temol qilishlari ham chaqaloq bosh miyasining zararlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Aqli zaif shaxslar rivojlanish va nuqson darajasiga ko'ra turlicha bo'ladi. Ularni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

Ona qornida miyasi shikastlangan bolalar.

Tug'lishi paytida yoki tug'ilgandan keyin uch yil davomida miyasi shikastlangan bolalar.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ) 1994-yilda aqli zaiflikning quyidagi to'rt darajasini e'tirof etgan: sezilmas (kam), o'rtacha og'ir va chuqur darajalar.

Kam darajadagi aqli zaiflik o'quvchilar maktabni bitirish davrida o'zlarining psixometrik va klinik namoyon bo'lishi bilan normal rivojlanayotgan odamlardan kam farq qiladilar hamda muvaffaqiyat bilan ishga joylashadilar.

Aqli zaiflik tuzatib bo'lmaydigan hodisa sifatida e'tirof etilsa ham, uni korreksiya qilib bo'lmaydi degan ma'noni anglatmaydi. Aksariyat tadqiqotlarda maxsus (korreksion) ta'lim muassasalarida metodik jihatdan to'g'ri yo'l tutilishi aqli zaif bolalarning rivojlanishida ijobiy natijaga erishish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar. Aqli zaif bola bilan korreksion ishlarni erta boshlash nuqsonni maksimal darajada tuzatish va ikkilamchi chetlanishlarning oldini olishga imkon beradi. Aqliy qoloqlikni psixologik-pedagogik diagnostika qilishni o'z vaqtida o'tkazish juda muhimdir.

Aqli zaif bolalar oila yoki sog'liqni saqlash tizimiga qarashli maxsus yashilarida tarbiyalanadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar aqli zaif bolalar uchun maxsus bolalar bog'chalarida amalga oshiriladi. Aqli zaif bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalar ommaviy bolalar bog'chalaridagi maxsus guruhlarga qabul qilinishlari mumkin. Ularda o'qitish maxsus bolalar bog'chasidagi kabi maxsus dastur bo'yicha olib boriladi.

Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar maxsus (korreksion) maktablarda o'qitiladilar, bu erda o'qitish davlat ta'lim standarti asosida maxsus dastur bo'yicha olib boriladi. Bunday maktablarda umumiy o'rta ta'lim fanlari (ona tili, o'qish, matematika, geografiya, tarix, tabiat, jismoniy tarbiya, rasm, musiqa, chizmachilik) bilan birga maxsus korreksion fanlar ham o'qitiladi. Maxsus maktablarda mehnat ta'limi muhim o'rin egallaydi. Mehnat ta'limi 4 sinfdayoq professional xususiyatga ega bo'lib, bolalar o'zlari bajara oladigan kasbni o'zlashtiradilar. Tarbiyaviy ishlar ham katta ahamiyatga ega bo'lib, asosiy maqsad tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirish, bolalarda ijobiy sifatlarini tarbiyalash, atrofdagilar va o'zlariga to'g'ri baho berishga o'rgatiladilar. Ayni vaqtda respublikada aqli zaif bolalar uchun maxsus maktablarning 90 % ini maktab-internatlari tashkil etadi.

Goho aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabiga jalb etilish holati ko'zga tashlanadi. Bunday holatda bolaning taqdiri, uni o'qitish va tarbiyalash mas'uliyatini ota-onalar o'qituvchi-defektologlar bilan kelishib olishlari zarur. Nonnal rivojlanuvchi bolalar bilan bir sinfdan o'qiydigan aqli zaif bola alohida munosabatni talab etadi. Bola kuchi etganicha, darsning borishiga xalaqit qilmay sinf faoliyatida ishtirok etishi kerak. Unga biror narsaning tushunarsiz bo'lishiga yo'l qo'yish mumkin emas. Bu holat keyin o'quv materialining mutlaqo tushunmasligiga olib keladi. Aqli zaif bolani

ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qitish ota-onalarining bevosita ishtiroklarini talab etadi.

Nutqida nuqson bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Nutqiy buzilishlar sabablari va ularning turlari. Nutq faqatgina insonga xos bo'lgan muhim psixik funktsiyadir. Nutqiy munosabatlar yordamida, shaxs ongida borliqni aks ettiruvchi bilimlar doimiy ravishda to'ldirilib va boyitib boriladi.

Nutqiy nuqsonlarni o'rganish, oldini olish va korreksiya bilan korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi — logopediya (yunoncha logos — so'z va paideia — tarbiyalash) shug'ullanadi. Patogen omil ta'sirida yuzaga kelgan nutqiy buzilishlar o'z-o'zidan yo'qolmaydi va u maxsus tashkil etilgan korreksion-logopedik choralarsiz bolaning keyingi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nutqiy buzilishini keltirib chiqaruvchi sabablar orasida ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar asosiy rol o'ynaydi. Bundan tashqari (anatomik-fiziologik, morfologik), funktsional (psixogen), ijtimoiy-psixologik (atrof-muhitning salbiy ta'siri), psixonevrologik (psixik funktsiyalarining buzilishi (aqli zaiflik, xotira yoki diqqatning buzilishi va boshqalar) sabablarning ham ta'siri sezilarli bo'ladi.

Ekzogen-organik omillar sirasiga: bolaning niarkaziy nerv tizimi va uning organizmiga salbiy ta'sir etuvchi omillar (infeksiya, jarohatlar, intoksikatsiya), turli akusherlik patologiyalari (bel torligi, tug'ilishning cho'zilib ketishi yoki tez sodir bo'lishi, yo'ldoshga o'ralib qolishi, bolaning noto'g'ri joylashishi va boshqalar), malakali akusherlik yordamining ko'rsatilmashligi, chala tug'ilish kabi holatlar sabab bo'ladi.

Hozirgi kunda logopediyada nutqiy buzilishlarni ikki turi ajratiladi:

- tibbiy-psixologik nutqiy buzilish:
- psixologik-pedagogik nutqiy buzilish.

Tibbiy-psixologik turda ko'riladigan hamma nutqiy buzilishlarni quyidagi ikki yirik guruhga ajratish mumkin:

- og'zaki nutqning buzilishi:
- yozma nutqning buzilishi.

Og'zaki nutqning buzilishi o'z navbatida quyidagi ikki turga ajratiladi:

- nutq ifodalanishi fonatsion tuzilishi (nutq talaffuzi) ning buzilishi;
- fikr strukturali-semantik (ichki) tuzilishi (nutqning tizimli yoki polimorf)ning buzilishi

Psixologik-pedagogik (pedagogik) klassifikatsiyalash uni pedagogik jarayonda qo'llashga yo'naltirilgan bo'lib, bolalar jamoasi

bilan nutqiy nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan korrektsion-rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatish metodlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Psixologik-pedagogik (pedagogik) klassifikatsiyalashga ko'ra nutqning buzilishi quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

- Muomala vositalari (fonetik-fonematik va nutqning umumiy rivojlanmaganligi)ning buzilishi.
- Muomala vositalarini qo'llashdagi buzilishlar.

Maktab o'quvchilarida nutqi buzilishini psixologik-pedagogik tuzatish. Nutqiy buzilishi bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari. Nutqiy buzilish, nutqiy buzilishning sabablari, mexanizmlari, simptomatikasi, borishi va tuzilishi uning oldini olish, maxsus (korrektsion) o'qitish va tarbiya masalasi bilan logopediya shug'ullanadi. «Logopediya» terminining yunonchadan tarjimai «to'g'ri nutqni tarbiyalash» ma'nosini anglatadi. Nutqiy buzilish turli mutaxassislar — fiziolog, nevropatolog, psixolog, lingvist va boshqalar tomonidan o'rganiladi.

Nutqiy buzilishi bo'lgan bolalarning markaziy nerv tizimi faoliyatida funktsional yoki organik chetlanishlar ko'zga tashlanadi. Miyaning organik zararlanishi sababli issiq, transportda yurish, arg'imchoqda ko'p vaqt tebranish bolalarga yomon ta'sir ko'rsatadi, boshlari og'riydi ko'ngillari ozadi va boshlari aylanadi. Tez charchab qoladilar, qattiq ta'sirlanishlari. jahllari chiqishi bilan ajralib turadilar. Ular emotsional barqaror emaslar, ularning kayfiyatlari tez o'zgaradi, serjahl, agressiv, bezovta bo'ladilar. Shuningdek, ularda sustlik va lanjlik kuzatiladi. Bunday bolalar tinch o'tira olmaydilar, butun dars davomida ishchanlik va diqqatini saqlab turish qiyin bo'ladi. Juda tez xafa bo'ladilar, gapga quloq solmaydilar. Tanaffusdan keyin sa darsda diqqatlarini jamlashlari qiyin bo'ladi. Odatda bunday bolalarda diqqat va xotira, ayniqsa, nutqiy xotiraning bo'shligi, yaxshi tushunmaslik holatlari kuzatiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari qoshida logopedik punkt faoliyat yuritadi. Logopedik punkt vazifalari quyidagilardan iborat:

Logopedik punkt o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlaridagi buzilishlarni tuzatish mavjud bo'lgan nutqiy buzilishlari natijasida kelib chiqish ehtimoli bo'lgan ikkilanichi nuqsonlarning oldini olish, nutqidagi buzilishlarni o'z vaqtida aniqlash pedagog va ota-onalar o'rtasida korrektsion-logopedik bilimlarni tashviqot qilish. O'quvchilar bilan logopedik punktda korrektsion ishlar butun o'quv yili davomida

individual va guruhli shaklda olib boriladi. Nutqi buzilganlik o'ta jiddiy bo'lsa o'qitish maxsus ta'lim muassasalarida olib boriladi. Bunda o'quvchi bilan davolash-sog'lomlashtirish va psixologik - pedagogik ishlarni birga olib borish nutqiy buzilishni tuzatishning muhim sharti hisoblanadi.

Logopedik yordam ko'rsatish sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy ta'minlash tizimlarida ham amalga oshiriladi. Poliklinikalarda va psixonevrologik dispanserlarda logopedik kabinetlari mavjud bo'lib, bu erda nutqida buzilishi bo'lgan bolalarga logopedik yordam ko'rsatiladi. Eshitish qobiliyati buzilgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Eshitish qobiliyatining buzilishi sabablari, ularni turlarga ajratish. Anomal bolalar orasida eshitish qobiliyati turli darajada nuqsonli bo'lgan bolalar ko'pchilikni tashkil etadilar. Eshitish — borliqni tovushli hodisalar shaklida aks ettirilishi, inson (tirik jonzod)ning tovushlarni anglash va farqlash qobiliyati. Eshitish eshitish organi voki tovush analizatori (tovush ta'sirini qabul qiluvchi va airatuvchi murakkab nerv tizimi) yordamida amalga oshiriladi.

Eshitish qobiliyatining buzilishi ko'p hollarda muddatli bo'ladi. Masalan, o'rta qulog'ning tashkil topishi. shamollash, oltingugurt to'siqlarining yuzaga kelishi, tashqi va o'rta qulog'ining anomal tuzilishi (quloq suprasining bo'lmasligi yoki etarlicha rivojlanmaganligi, eshitish yo'llarining bitib qolishi, quloq pardasidagi nuqsonlar va boshqalar) kabi holatlarda. Zamonaviy meditsina ularni davolashning samarali metodlariga ega. Ularqatoriga konservativ va operativ metodlarni kiritish lozim. Odatda samarali davolash, ba'zan uzoq vaqt davolash tadbiri olib borilganda eshitish qobiliyati tiklanadi.

Eshitish qobiliyatining buzilishiga yuqumli kasalliklar bilan og'rish, zaharlanish, akustik yoki kontuziyali jarohatlar ham sabab bo'lishi mumkin. Qulog'i og'irlik yoki karlik kelib chiqish sabablariga ko'ra: nasliy tug'ma va kelib chiqqan tarzda turlarga ajratiladi. Yoshlikda eshitish qobiliyatining buzilishiga olib keluvchi sabablar orasida quyidagilari alohida ko'rsatiladi: homiladorlikning birinchi uch oyida onaning virusli kasalliklar bilan og'irishi (qizamiq, kor, gripp. gepatit viruslari va boshqalar), rivojlanishdagi tug'ma nuqsonlari (masalan, labi va tanglayidagi yoriq), chala tug'ilish, kichik vaznli tug'ilishi (1500 dan kam) hamda yomon tug'ilishi kabilar. Eshitish qobiliyatining buzilishiga homiladorlik davrida onaning spirtli ichimlik, giyohvand moddalar iste'mol qilishi, antibiotiklarni qabul qilishi ham sabab bo'lishi mumkin. Karlikning nasliy o'tishi holati juda kam kuzatiladi.

Eshitish qobiliyatidagi kamchiliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- eshitish qobiliyatining zararlanganlik darajasi;
- eshitish qobiliyati zararlanganda nutqiy rivojlanish darajasi;
- eshitish qobiliyatida buzilishning yuzaga kelish vaqti.

Yuqorida ko'rsatilgan mezonlarga ko'ra eshitish qobiliyatining buzilishi qulog'i og'irlik va karlik kabi guruhlarga ajratiladi.

Karlik bu eshitish qobiliyatining qattiq yo'qotilishi bo'lib, bola mustaqil ravishda nutqni egallay olmaydi va qulog'iga juda yaqin masofadan gapirilganda ham aniq eshitmaydi. Ammo baland tovushlar, yaqin masofadan nutqning ba'zi tovushlarini qabul qilishga imkon beruvchi eshitish qobiliyati saqlanib qoladi.

Qulog'i og'irlik - bu eshitish qobiliyatining qattiq pasayishi (80 detsibaldan kam) bo'lib, eshitish qobiliyati qoldig'i yordamida qulog'i oldida baland ovoz bilan gapirilganda bola nutqni eshita oladi. Bola minimal nutq boyligini mustaqil ravishda egallay oladi.

Karlar va qulog'i og'irlik (yomon eshituvchilar) nutqni qabul qilish usuli bo'yicha farq qiladilar. Karlar so'z nutqini ko'rib (suhbatdoshining lablari va yuziga qarab) va eshitib ko'rish (tovushni kuchaytirish apparati yordamida) qabul qiladilar.

Yomon eshitadiganlar atrofdagilar bilan tabiiy munosabatlar jarayonida baland ohangda so'zlashish asosida nutqni eshitib qabul qiladilar.

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy, umumiy o'rta ta'lim maktablarida korreksion o'qitish. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan surdopedagogika shug'ullanadi. Surdopedagogika (yunoncha «surdus» — kar) — eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rganuvchi korreksion (maxsud) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Eshitish analizatorining normal ishlashi bolaning umumiy rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Eshitish analizatori buzilganda bolaning nutqi, psixologik rivojlanishi yomonlashadi, idrok etish faoliyati, umumiy rivojlanishi ortda qoladi. Statistik ma'lumotlariga qaraganda eshitish organi funktsiyasi buzilgan va eshitmaydigan bolalar soni doimiy ravishda ortib bormoqda.

Ayni vaqtda surdopedagogika oldida quyidagi vazifalar turibdi: eshitish qobiliyati buzilgan shaxslar, ularning individual xususiyatlari, shuningdek, eshitishi, nutqi buzilishi xususiyatiga ko'ra ularni o'qitish qonuniyatlarini pedagogik jihatdan o'rganish;

eshitish qobiliyati buzilgan turli kategoriyadagi bolalar uchun maxsus ta'lim mazmunini ishlab chiqish, uni ilmiy jihatdan asoslash va amaliy amalga oshirish;

eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarni o'qitishning didaktik va maxsus metodikalarini yaratish;

qoldiq eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha maxsus ta'lim texnologiyalarini yaratish, pedagogik sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish va boshqalar.

Ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabida eshitish qobiliyati bir oz pasaygan bolalar o'qishi mumkin. O'qituvchi bola tomonidan darsda bildirilayotgan fikrlarni yaxshi eshita olishiga e'tibor berishi. buning uchun bolani birinchi yoki ikkinchi partaga, iloji bo'lsa o'rta qatorga o'tkazish kerak. Shuningdek, o'qituvchi bola uning gaplarini to'g'ri tushuna olganligi, topshiriqni to'g'ri bajarayotganligini nazorat qilib turishi kerak. Ba'zida eshitmaydigan yoki yomon eshitadigan bolalar ommaviy, umumiy o'rta ta'lim maktablarida eshitadigan tengdoshlari bilan birga muvaffaqiyatli o'qiydilar.

O'qituvchi eshitmaydigan yoki yomon eshitadigan bola sinfga qabul qilinganda ularning psixofiziologik hamda nutq rivojlanishi xususiyatlarini bilishi talab etiladi.

Ko'rish qobiliyati buzilgan o'quvchilarni korrektsion o'qitish. Ko'rish qobiliyati buzilishi turlari, ularning sabab va oqibatlarini. Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash xususiyatlari bilan tiflonedaeogika shug'ullanadi (yunoncha «tiflos» — ko'r) — korrektsion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasi.

Ko'rish — ko'rish analizatori yordamida borliqni sezish va qabul qilishdir. Miya ko'rish orqali tashqi dunyo haqidagi ma'lumotlarni oladi.

Bolaning ko'rish qobiliyati buzilganda uni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash jarayonlarida jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Bolalarda ko'rish qobiliyati buzilishining sabablari turlicha bo'lib, ular nasliy kasalliklar, homila ona qornida rivojlanayotganda ko'rish organlari patologiyasining yuzaga kelishi, homiladorlik paytida onaning tokeplazmoz, qizamiq va boshqa og'ir kasalliklar bilan og'rishi va hokazo omillardan iborat bo'lishi mumkin.

Ko'rish qobiliyatining buzilishi tug'ma yoki orttirilgan bo'ladi.

Tug'ma ko'r bo'lish homilaning zararlanishi sababli yuzaga keladi. Ko'rish nuqsonlarining yuzaga kelishida naslivlik ham ko'zga tashlanadi.

Orttirilgan ko'rlik odatda ko'rish organlari — to'r pardasi shoh parda yoki markaziv nerv tizimining kasallanishi (meningit miya shishi.

Meningo ensifalit). o'rganizmining umumiy kasallanishidan kevinei asoratlari (kor. gripp. skorlatina). Shuningdek. miya yoki ko'zning jarohatli shikastlanishi (boshi yaralanishi shikastlanishi) oqibatida bo'lishi mumkin.

Ko'rish qobiliyatining buzilgan bolalar quyidagi guruhlaiga ajratiladi:

Ko'r tug'ilganlar.

Erta ko'r bo'lib qolganlar.

Uch yoshidan keyingi ko'r bo'lib qolganlar.

Ommaviy maktablarda, ta'lim olganda yomon ko'ruvchi bola jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Idrok etishning aniq emasligi, sekinligi, torligi kabi xususiyatlar predmetlarni tanib olish, ularning shaklini ajratish, o'ziga xos belgilarini bilib olishda ma'lum qiyinchiliklariga olib keladi. Bolalar satrlar, harflar va raqamlarni adashtiradilar. Bular o'qish texnikasini egallab olish, o'qilganlarning mazmunini tushunishga xalaqit beradi. Oddiy maktabda yomon ko'ruvchi bolalar doskada nima yozilganligini ko'rmaydilar. qarab bajariladigan ishlarni tashkil etishda yomon ko'radigan bolalar tez charchaydilar, bu ularning ish qobiliyatlarini pasaytiradi. Pedagoglarning oldidagi eng muhim vazifa yomon ko'radigan bolani o'z vaqtida aniqlash, unga maxsus ta'lim va tarbiya berish masalasini hal etish uchun PMPKga yuborishdan iborat. Yomon ko'radigan bolalarni o'qitish va tarbiyalash asosan maxsus (korreksion) maktablarda amalga oshiriladi.

Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy, umumiy o'rta ta'lim inaktablarida korreksion o'qitish va tarbiyalash. Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan tiflopedagogika (yunoncha «tiflos» — ko'r) — korreksion pedagogika (defektologiya)ning yana bir sohasi shug'ullanadi.

Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan ish olib borayotgan o'qituvchi korreksion ishlarning o'ziga xos jihatlarini bilishi zarur.

Refraksiyasi anomaliyali bolalar tuzatuvchi ko'zoynak taqishlari kerak. Lekin ko'zoynak taqishda bolalar pedagogning ularga diqqat bilan munosabatda bo'lishlariga muhtojlik sezadilar. Maktabda va uyda o'quv ishlarini bajarishda sanitar-gigienik talablarga amal qilish lozim. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bola uchun ish o'rni to'g'ri va etarlicha yoritilgan bo'lishi kerak. Bunday bola deraza yonidagi birinchi yoki ikkinchi qatorga o'tkazilishi kerak. Yaqinni ko'radigan bola ham doskaga yaqinroq birinchi yoki ikkinchi partaga o'tkazilishi zarur. Uzoqni

ko'radigan bola esa, aksincha, doskadan uzoqroqqa oxirgi partaga o'tkazilishi talab etiladi.

O'qituvchi o'quvchining doska, jadval va xaritada o'quv materiallarini qabul qilishi va tushunishini nazorat qilib borishi kerak. Anomal refleksiya bolalarda ko'zi charchashi ko'p kuzatiladi. Shuning uchun dars paytida ularga ko'rish ishlarini boshqa turdagi ishlar uyg'unlashtirib berishi zarur. Anomal refleksiya bola 10-15 minut davomida intensiv ko'rish ishlarini bajargandan keyin bir necha minut uzoqqa (doska yoki derazaga) qarashi kerak, bu ko'rish charchog'ining bartaraf etilishiga yordam beradi.

Ko'rish qobiliyati ancha og'ir bo'lgan — ko'r va yomon ko'radigan bolalarni o'qitish maxsus ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Ba'zan ko'rish qobiliyati og'ir buzilgan bolalar ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablariga qabul qilinadilar. Bunday vaziyatda anomal bolalar uchun maxsus sharoitlarni yaratish zaruriyati yuzaga keladi.

O'z sinflarida og'ir ko'rish qobiliyati buzilgan bola bo'lgan o'qituvchilar bolaga differentsial yondashuv asosida munosabatda bo'lishlari zarur. Buning uchun sinfdagi o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi, sinf xonasi yaxshi yoritilgan, ko'rish qobiliyatida nuqsoni bo'lgan bolaning ish o'rni esa qo'shimcha yoritilgan bo'lishi kerak. O'quv-tarbiyaviy ishlar jarayonida o'qituvchining nutqi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Uning nutqi aniq, tushunarli, ifodali bo'lishi zarur. O'qituvchi o'zining har bir harakati mohiyatini so'z yordamida sharhlab borishi kerak.

Sinfida ko'r yoki yomon ko'radigan bola bo'lgan o'qituvchi ularning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini bilishi, ular normal ko'radigan tengdoshlaridan farq qilishlarini yaxshi anglashi maqsadga muvofiqdir.

Tayanch-harakat apparati buzilgan o'quvchilarni korreksion o'qitish. Tayanch-harakat apparatlari buzilishining turlari va yuzaga kelish sabablari. Tayanch-harakat apparatidagi turli buzilishlar bolalarni o'qitish va tarbiyalashda muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Tayanch-harakat apparati funktsiyalarining buzilishi tug'ma voki orttirilgan bo'lishi mumkin. Tayanch-harakat apparati patologiyasi quyidagi turlarga ajratiladi:

- nerv tizimining kasallanishi (bolalar serebral paralichi (BTSP), poliomielit);
- tayanch-harakat apparatining tug'ma patologiyasi; sonning tug'ma chiqqanligi; bo'yin qiyshiqqligi; qiyshiq oyoqlik va oyoqning boshqa

- nuqsonlari; umurtqa pog'onasi rivojlanishidagi nuqsonlar (skolioz); qo'l yoki oyoqlarning rivojlanmaganligi va nuqsonlari; qo'li barmoqlarining anomal rivojlanishi; artrogripoz (tug'ma mayiblik);
- orttirilgan kasalliklar va tayanch-harakat apparatining zararlanishi; orqa miya, bosh miya va qo'l-oyoqlarning travmatik jarohatlanishi; poliatrit; skelet kasalliklari (tuberkulez, suyaklardagi shishlar, osteomielit), skelet tizimi kasalliklari (raxit, xondodistrofiya).

Tayanch-harakat apparati patologiyasi bo'lgan bolalarda asosiy buzilish harakatlanishdaai nuason hisoblanadi. Bunday nuqsonlarga ega bolalarning 89 % ini serebral paralichli bolalar tashkil etadilar. Ularda harakat buzilishi psixik va nutqiy buzilishlar bilan birga namoyon bo'ladi. Shu bois bu kabi bolalar nafaqat davolash va ijtimoiy yordamga, balki psixologik-pedagogik va logopedik korrektsiyaga ham muhtoj bo'ladilar.

Harakatlanish buzilishlari o'rtacha darajada bo'lgan bolalar yurishni o'rganib olsalarda, biroq, shonch bilan yura olmaydilar, ular uchun maxsus moslamalar zarur. Harakatlanish buzilishining engil shaklida bolalar uyda va ko'chada mustaqil, qo'rqmay yura oladilar, o'zlariga to'la xizmat ko'rsatadilar.

16.4.. Inklyuziv ta'lim va uning o'ziga xosliklari.

Ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus tashkillangan maktablar bor. Ularning vazifasi bolalarni maxsus o'quv yurtlariga tayyorlashdir.

Bolalarni himoya qilish xalqaro tashkiloti Konvensiya tizimiga o'zining asosiy maqsadi etib bola huquqlarini asos etib oladi. Bola huquqlari xalqaro Konvensiya hamma bolalarning ehtiyojini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan ta'lim tizimini yaratish g'oyasini ilgari surdi. Chunki har bir bolada – u sog'lommi yoki nogironmi – takrorlanmaydigan xarakter, qiziqish, imkoniyat va bilimga ehtiyoj bor.

Hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta'lim tizimi inklyuziv ta'lim deyiladi.

Inklyuziv ta'lim nogiron bolalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda umumta'lim maktablarini nogiron bolalarga moslashtirishni ko'zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir.

Inklyuziv ta'lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta'lim tizimiga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritishni taqazo etadi. Bunda har

bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o'quv rejalari tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog'liq tomonlari to'g'ri yo'lga qo'yiladi. Inklyuziv ta'lim hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron bolalarni ham o'zlari xohlagan maktabda o'qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi.

Bolaning nogiron bo'lib qolishiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo'l qo'yilgan xatolar sababchi bo'lgan. Demak, uning o'qishi uchun ham shu jamiyatning o'zi jon kuydirishi shart.

Bola huquqlari xalqaro Konvensiyadan kelib chiqib, yaxshi maktab ta'limini uch xil ibora bilan ta'riflash mumkin, ya'ni:

- **mos keluvchi;**
- **rivojlantiruvchi;**
- **inklyuziv;**

Konvensiyaning 6-moddasida shunday satrlar bor: "Tirik qolish va rivojlanish". Bu modda mos keluvchi ta'limga taalluqli. Rivojlantiruvchi ta'lim 29-moddada ko'rsatilgan: "Ta'lim shaxsning yuqori darajada rivojlanishiga, iqtidorli, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini o'stirishga yo'naltirilgan bo'lishi, bolani erkin jamiyatda faol yashashga tayyorlash kerak".

2-va 28-moddalar inklyuziv ta'limga tegishli bo'lib, ularda kamsitishning olsini olish, ta'lim hamma uchun qobiliyatiga yarasha ekanligi belgilab qo'yilgan.

Maxsus ehtiyojli bolalar, boshqa bolalar, o'qituvchi va tarbiyachilar faoliyati inklyuziv ta'limda o'ziga xos o'rin tutadi. Bunday ta'lim tufayli maxsus ehtiyojli bolalar:

- jismoniy va ruhiy ehtiyojlarini qondiradilar;
 - ijtimoiy xulq va o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish malakalarini yaratadilar;
 - ularning imkoniyatlarini hisobga olgan o'quv materiallarini o'zlashtiradilar;
 - tengqurlari bilan turli o'yinlarda ishtirok etib rivojlanadilar;
 - jismoniy tarbiya darslarida shaxmat-shashka o'yinlari, turli sport musobaqalarida vaqtni kuzatuvchi hakam yoki darvozabon bo'lishlari mumkin;
 - do'stona muhitda do'st orttiradilar;
 - turli ko'ngilochar va bayramona dasturlarda ishtirok etadilar.
- Boshqa bolalar esa;
- do'stona muhitni yaratadilar;

- maxsus ehtiyojli bolalarga g'amho'rlik qiladilar, ularni turli o'yinlarga jalb qiladilar;
- sinf tadbirlarida ishtirok etadilar;
- tozalik va ozodalikni ta'minlaydilar;
- jamoa oldida ma'suliyat hissini rivojlantiradilar;
- didaktik va o'yin vositalarini tayyorlashda birgalikda ishtirok etadilar;
- o'qituvchi va tarbiyachilar bolalarni bir-birlarining ichki dunyolarini tushunishga o'rgatadilar;
- har bir bolaning qobiliyati va imkoniyatini hisobga oladilar;
- har bir bolada hayotiy malaka va mustaqillikni shakllantiradilar;
- ishlarni tahlil qiladilar va baholaydilar;
- ota-onalarga amaliy yordam ko'rsatadilar;
- barcha bolalarga birdek bilim berib, tarbiyalaydilar;

Demak; ***inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli, nogiron bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas, balki sog'lom bolalar o'qiydigan umumta'lim maktablarida ham ta'lim-tarbiya olishlari mumkin ekanligini e'tirof etadi.*** Buning uchun esa maktab ham, o'qituvchi-tarbiyachilar ham inklyuziv ta'lim tizimiga tayyor bo'lishi, maktab darajasi, jismoniy sharoit va o'qishga imkon omillari shu ta'lim talablariga to'la javob berishi kerak.

Maktab darajasida integratsiyani muvaffaqiyatli kiritishga bir necha o'zaro bog'liq omillar ta'sir ko'rsatadi. Markaziy omil o'quv dasturiga kiritish imkoniyatidir. Shuningdek, binolarning jismoniy joylashuvi, o'qish uchun imkoniyat va moliyalashgan imkon ham asosiy omillardandir.

Inklyuziv ta'limda maktabdagi jismoniy sharoit ham katta o'rin tutadi. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak, barcha maktablar eshigiga o'quvchilar zinapoyalar orqali kirib boradilar. Lekin bu zinapoyalardan maxsus aravachalarda yuradigan nogiron bolalar ko'tarila olmaydilar, hatto qo'ltiqtayoqda yuradigan bolalar ham, qiynalishlari mumkin. Demak, zinapoyalardan ham, eshiklardan ham sog'lom bolalar bilan birga nogiron bolalar ham bermalol o'tishlari uchun qulay sharoit yaratilishi shart. Bundan tashqari, sinf xonalari va laboratoriyalardagi maxsus o'rindiqlar hamda moslamalar ham nogiron bolalarga mos bo'lishi kerak.

O'qishga imkon yaratish ham juda muhimdir. Yozish qobiliyatlarida buzilish mavjud bo'lgan bolalarga tovush va tasvirni kattalashtirish etarli bo'lmaydi. Bunda o'quvchilar imo-ishora yoki Brayl xatini puxta o'rganishlari kerak.

Aqliy nuqsoni bor bolalar soddalashtirilgan yozma yoki og'zaki informatsiyani olishlari kerak. O'quv rejasini bunday differensiyalash o'qituvchilarda o'z ishlariga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Maktab ma'muriyati buning uchun o'qituvchilarga imkon yaratib berishi kerak. Bunday ijodiy yondashuv o'quv rejasiga qattiq talab qo'yilgan joylarda birmuncha qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

16.5. Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari.

Ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- 1). Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi.
- 2). Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.
- 3). Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.
- 4). Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.
- 5). Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili.
- 6). Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.
- 7). Malakaviylik tamoyili.

Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990 yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqiyosida deklarasiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko'plab muammolar mavjud. Ba'zi davlatlarda esa umumiy ta'lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta'lim masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'liq bo'lmaydi. Diskriminasiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. Ya'ni inklyuziv ta'limni e'tirof etgan holda, aholi o'rtasida targ'ibat-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir.

Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.

O'tgan yigirma yil davamida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta'limi tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqiyosida bo'lib qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta'limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar nogiron farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta'minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus

ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab olgan bo'lishi ta'minlanishi lozim.

Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.

“Bog'lanish”-bu so'zning zaminida-ommaviy binolarning sifati, ayniqsa nogiron bolalar uchun maktablarga kirishning oson bo'lishi kabilar yotadi. Bola maktab binosiga (zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli) kira olmaganmi yoki maktab xojatxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun oddiy maktabdan chiqarib tashlamasligi kerak. Bu kabi qulayliklarni yaratish unchalik katta mablag' talab qilmaydi. Yangi maktab binosi nogiron bolalarning ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda rejalashtirilgan paytdan boshlab qurilishi kerak. Alatta nogiron bolalar uchun yaxshi bo'lgan qulayliklar normal rivojlanishdagi bolalar uchun hech bir muammo keltirib chiqarmaydi. Jismonan bog'lanishlarni yaratish inklyuziv ta'limning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni quyidagi ikkita aspekt yordamida ifodalanadi:

A). Inklyuziv ta'lim xizmatlari umumiy ta'lim tizimining integrasiya qilingan qismi bo'lishi kerak.

B). Inklyuziv ta'lim tizimidagi vazifalar mahalliy ta'lim organlariga jaqyabgarlik va boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi kerak va imkoniyatlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi lozim.

Optimal integrasiya erishish uchun markazlashtirilmagan bo'lish muhimdir. Bu ayniqsa qishloq sharoitlarida ayni muddao bo'ladi. Inklyuziv ta'limning vazifalari nogiron bolalarga o'z ota-onalari bilan birga bo'lish, ularga xuddi tengdoshlari kabi o'zlariga yaqin bo'lgan maktablarda ta'lim olish imkonini beradi. Bu ularning shaxsiy sifatilarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Nogiron bolaning normal rivojlanishiga halaqil berish, nogironlikdan ham og'irroq holatlarga olib kelishi mumkin.

Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili.

Nogiron bolalarga ularga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashishi emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta'lim masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari inklyuziv ta'limda nogiron boladagi mavjud nuqonlarni bartaraf etish,

korreksiyalash, kompensasiya qilish bilan bir qatorda bilim ko'nikmalarga ega qilish, kasb hunarga o'rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta'limi boshlang'ich va o'rta-maxsus ta'limni olishlari bilan yakunlanmasligi kerak. Nogiron bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi ham amalga oshirilishi ta'lab etadi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir.

Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, o'quv reja, dastur va darsliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo'lishi kerak. Bolaning maxsus ta'limga bo'lgan ehtiyojlari har qanday integrasiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo'lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan o'zgaruvchan bo'lishi talab etiladi.

Malakaviylik tamoyili.

Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o'qitilayotgan sinflarda yuqori malakali o'qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari inklyuziv sinf o'qituvchisi defektlogiya sohasi bo'yicha ham malaka oshirgan bo'lishi kerak.

1). Izlab topish va jalb qilish bosqichi.

Nogiron odamlarning hayoti asosan yakkalab qo'yishlar bilan bog'liq. Ko'plab davlatlarda nogiron odamlarga past nazar bilan qaralib, ular hamjamiyatdan chetlashtirilmogda. Buning oqibatida nogiron bolalarning ta'lim olish imkoniyatlari yanada chegaralanib qolmogda. Millatning etnopsixologik xususiyatlaridan biri bo'lmish nogiron farzandini boshfalardan bekitish hollari esa nogiron bolalar kelajak hayoti uchun juda fojeali holatdir. Mana shunday salbiy oqibatlarni oldini olish maqsadida aholi o'rtasida targ'ibo-tashviqot ishlarini olib borish lozim. Oilaga, ya'ni asosan ota-onalarga nogiron bola ham maktab ta'lim-tarbiyasini olishi shart ekanligini to'g'ri tushintirib bera olish kerak. Shunday usullar bilan ta'limdan chetda qolib ketgan nogiron bolalarni izlab topish imkoni yaratiladi. Ro'yxatga olingan bolalar o'z yaqin arofidagi umumta'lim maktablariga jalb etiladi.

2). Maxsus ehtiyojli bolalar bilan shug'illanish bosqichi. Bu bosqichda umumta'lim muassasalari tizimiga kiritilgan maxsus ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan o'quv-tarbiyaviy, korreksion-rivojlantiruvchi vazifalar rejasi tuzib chiqiladi.

3). Reabilitasiya bosqichi. Bu bosqichda bolalarning nogironligi tufayli bajara olmaydigan faoliyatlarini bajarish qobiliyatlari va ularning imkoniyatlari darajasini kengaytirish ishlari amalga oshiriladi. Shu sababali bu bosqichda nogiron odamlar nafaqat ta'lim tarbiya, balki ularning ishlab chiqarish faoliyatlarini oshiruvchi treninglar ham olib boriladi. Ular "obyekt" emas, balki "subyekt" vazifasini o'taydi. Natijada nogiron bolalarning nima qila olmasligi emas, balki ular nimalar qilisha qodir ekanligi diqqat markazda turadi.

4). Intergasiya bosqichi. Bu bosqich inklyuziv tarzida o'qitilgan, reabilitasiya jarayoni malga oshirilgan nogiron bolalarni ijtimoiy jamiyatga to'la kiritish bosqichidir. Integrasiya bosqichida nogiron bolalar to'laligicha ijtimoiy jamiyatga kiritiladi. Ya'ni bu bosqichda nogiron bolalarning ham o'zlarining teng imkoniyatlari va huquqlaridan foydalangan holda kasb va ishlash joyini mustaqil tanlash imkoniyati beriladi.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish ularni o'ziga xos xususiyatlari, nuqson turi, darajasi va sinfdagi bolalar sonini e'tiborga olgan holda tashkil qilinadi. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarning yoshlari bir xil bo'lsada, lekin ular bir birlariga o'xshamaydilar. Barcha bolalarning individual psixologik shaxs xususiyatlari, qabul qilish darajasi, zehn va idroki turlichadir. Shu bois maxsus ehtiyojga ega bo'lgan bola ta'lim olayotgan inklyuziv sinflardagi o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish masalasi yanada murakkabroq muammolarni hal etishni talab etadi. Inklyuziv sinfda o'qituvchi bolalarning ikoniyatini e'tiborga olib, darslarni shunga muvofiq rejalashtira olsa, bolalarning nogironligi bilim olishiga qanday ta'sir qilishini bilib, bu qiyinchiliklarni bartaraf etishning uslubiy yo'llaridan foydalansa, maktab va oila hamkorligini to'la yo'lga qo'ya olsa hamda nogiron bolaning kelajagiga ishonch bilan qarasagina dars jarayoni muvaffaqiyatli kechishiga erishish mumkin. Har bir bola o'z imkoniyat darajasida rivojlanadi, buni L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlariga ko'ra **"Har qanday ruhiy yoki jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi"** fikri bilan ham tasdiqlash mumkin.

Inklyuziv ta'limga yangicha fikrlarning talqin etilishi milliy, tashkiliy va uslubiy islohotlarni talab etadi. Maxsus ta'limga muhtoj bolalar hozirgi maktab tizimida ehtiyojlari qondirilmayotgan bolalardir. Shu sababdan maktablar barcha bolalarning turli xildagi

va umumiy maqsadlari, intilishlari, qiziqishlariga javob berishi va ularning bilim olishlarini ta'minlashi lozim.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun umumiy ta'lim tizimiga tarkibiy o'zgartirishlar kiritish muhimdir. "Umum ta'lim" va "maxsus ta'lim" o'rtasidagi to'siqlar olib tashlanishi kerak. Maxsus ta'lim oddiy ta'limning bir qismi bo'lishiga qaramasdan, o'zining o'quvchilari, o'qituvchilari, boshqaruv jamoasi va ta'minot tizimidan tashkil topgan ikkita ta'lim tizimi amalda qo'llanilib kelinmoqda. Barcha o'quvchilarning talablariga javob beruvchi "Inklyuziv maktab"da bunday tizimga ehtiyoj qolmaydi.

Islohotlar ta'lim maqsadlarining amaliyotini boshqarish mumkin, lekin ularning pedagogik amaliyotini to'g'ridan-to'g'ri boshqara olmaydi. Shu sababdan samarali bo'lishi uchun islohotlar yaxshi muhokama qilinishi va ta'lim tizimi boshqaruvchilar hamda uni amalda qo'llovchilar tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.

Inklyuziv ta'lim quyidagi shart-sharoitlarda tashkil etilishi mumkin: ommaviy maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktab sinflari (guguhlari)da umumiy va alohida yordam olish, logoped xonalarida korreksion pedagogik yordam olish, korreksion sinf (guruh)larda maxsus ta'lim olish shaklida.

Inklyuziv ta'lim tizimiga maxsus yordamga muhtoj bolalarni viloyat (shahar, tuman) halq ta'limi bo'limlari tomonidan tibbiy-psixologo-pedagogik komisiya faoliyatida "Respublika, viloyat, tuman tibbiy- psixologo-pedagogik komissiyalar to'g'risida"gi Nizom asosida qabul qilinadi.

Umumta'lim tizimida inklyuziv ta'limni joriy qilishda muassasa hodimlarini ish vazifalarida ham ko'zga ko'rinarli darajada islohotlar amalga oshirishi kerak.

Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim tizimida o'qitish o'qituvchilardan ikki karra ma'suliyat bilan ishlashni talab etadi. Shuning uchun ham oliy pedagogik ma'lumotli va malaka oshirish kurslarini o'tab inklyuziv ta'lim pedagogik kvalifikasiyasni olgan o'qituvchilargina inklyuziv sinf o'qituvchisi etib tayinlanishi mumkin. Inklyuziv sinf o'qituvchisi umumiy o'rta ta'lim mussasa Ustavida belgilangan vazifalar bilan bir qatorda

-tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini korreksiyalash va me'yorga keltirish ishlarini olib boradi;

-bolalarni faolligini, ta'lim samaradorligini oshiruvchi metodlarni qo'llaydi;

-diqqat-e'tibor, xotirani, kuzatuvchanliq sinchikovlik va boshqa qobiliyatlarni tarbiyalaydi;

-o'z-o'zini nazorat qilish malakalarini, bolalarning bilishga doir qiziqishlarini va qobiliyatini rivojlantiradi.

Inklyuziv ta'lim jarayonida muassasa tarbiyachisi ham alohida o'rin egallaydi.

Tarbiyachi ish faoliyatini tashkil etishda o'qituvchi-defektologlar, ota-onalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda sog'lom va alohida ehtiyojli bolalar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarni rejalashtirishi hamda shu asosida olib borishi kerak. Shuningdeq tarbiyachi alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash masalasida ota-onalarga va qonuniy vakillarga metodik yordam ko'rsatadi, kerakli ish hujjatlarini yuritadi.

Inklyuziv ta'lim joriy qilingan muassasada albatta psixolog faoliyat yuritishi lozim.

Psixologning faoliyati har bir bolaning ruhiy salomatligini himoyalash, ruhiy rivojlanishidagi kamchilklarini bartaraf etish va korreksiyalashga qaratiladi. Muassasa psixologi har bir bolani psixologik jihatdan tekshiradi, doimiy ravishda psixologo-pedagogik jihatdan o'rganib boradi, individual rivojlantirish dasturlarini tuzadi, alohida ehtiyojli bolani oilada tarbiyalash bo'yicha ota-onalarga maslahatlar beradi, inklyuziv ta'lim muassasasining pedagogik hodimlariga psixologik rivojlantirish masalalarida metodik yordam ko'rsatadi.

Inklyuziv ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya olayotgan maxsus yordamga muhtoj bolalarning ayrimlari doimiy ravishda tibbiy xizmatga muhtoj bo'lishi mumkin. Inklyuziv ta'lim muassasasi shifokor-pediatri (psixonevrolog) har bir bolaning ruhiy asab holatini doimiy ravishda tekshirib boradi, zarurat bo'lganda davalash muolajalarini tavsiya etadi, korreksion pedagogik ta'lim jarayonida bolalar sog'lig'ini nazorat qiladi, aqliy va jismoniy yuklamaning me'yorini belgilaydi, ota-onalarga bolaning somatik hamda ruhiy salomatligini saqlash yuzasidan maslahatlar beradi.

Shunday qilib, inklyuziv ta'lim muassasasida ta'lim - tarbiya jarayoni har tomonlama amalga oshirilgan islohotlar asosidagina samarali kechadi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda topshiriqlar:

1. *Korreksion pedagogika nima?*
2. *O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish haqidagi moddalar mazmunini ochib bering.*
3. *Korreksion pedagogikaning tarkibiy qismlarini tavsiflang.*
4. *Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?*
5. *Korreksion pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?*
6. *Anomal bolalarning qaysi darajalari bor?*
7. *Anomal bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning asosiy yo'nalishlari haqida ma'lumot bering.*
8. *Inklyuziv ta'limning o'ziga xos xususiyatlarni aytib bering.*
9. *Inklyuziv ta'limning tarixi va rivojlanishi haqida ma'lumot bering.*
10. *Zamonaviy jamiyatda inklyuziv ta'limni rivojlantirish yo'llari mavzusida referat yozing.*
11. *Inklyuziv ta'lim siyosatining huquqiy asoslari tahlil qiling?*

GLOSSARIY

Amaliyotda (praktikada) qo'llash - hayotda bir necha bor qo'llangan o'zining ijobiy hosilasini bergan, ishonchli muammolar yechimi bilan solishtirib, xulosa qilish so'ng tafakkur saviyasiga tayanib yagona echimini tanlash va undan amaliyotda foydalanishdir.

Anglash - biror bir g'oyani (fikrni) tub mazmuniga tushunib yetish.

Anomal bolalarni tarbiyalash — korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, bir-biriga yordam ko'rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi.

Anomaliya (yunoncha — anomal) — me'yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto'g'ri rivojlanish.

Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Axloq - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

Axloq (lotincha «moralis» — xulq-atvor ma'nosini bildiradi) — ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

Axloqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, shuningdek, milliy istiqlol g'oyasining o'quvchilar ongida aks etishidir.

Axloqiy tarbiya - muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.

Baho – ta'lim oluvchilarga ularning ta'lim olishi, bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijodiy yondoshishini rag'batlantirish maqsadida ta'sir ko'rsatish vositasi.

Baholash -ko'nikma va malakalarni o'quvchilarning o'qish va o'rganish jarayonida ko'rsatilgan e'timot (ko'rsatki, qolip, o'lchagich)lar bilan solishtirish.

Bashoratlash - bo'lajak darsni tashkil etilishining turli variantlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.

Bilim — shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui;

Bilim olish — idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

Bilish - Ob'ektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni.

Boshqarish ma'lum bir obyektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko'rsatish demakdir.

Dars - aniq maqsadni ko'zlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagi o'quvchi, yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotlardir. Dars - o'z oldiga qo'yilgan aniq maqsad va tugal mazmundan iborat.

Darslik – muayyan fan bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba.

Darsning maqsadi o'qituvchining rejalashtirgan aniq bir mavzusini o'quvchilarga bildirishi va o'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirib ko'rish hamda yangi mavzuga zamin yaratish.

Darsning mazmuni - uni o'qituvchi tomonidan rejalashtirilgan tugal ma'noga ega matn tashkil etadi. Uni o'quvchilar ongiga singdirish jarayonida manba, xulosa va hikoyalardan foydalanadi.

Dastur – bajariladigan ish yoki biror faoliyat rejasi bo'lib, uning yordamida ta'lim oluvchilarga ta'lim – tarbiya berishda o'quv rejasi va dasturlarini o'qituvchi amalga oshirilishida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Davlat ta'lim standarti – 1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari zarur bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; 2) o'quv fani bo'yicha ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; 3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablar.

Davlat va jamiyat – ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

Demonstratsiya metodi - kinoapparat, televizor eshittirishlardan foydalanib, turli tasvirlarni namoyish qilish.

Didaktik tashxis maqsadi – o’quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.

Diniy dunyoqarash mifologiya (afsona) negizida shakllangan va rivojlangan, voqelikning kelib chiqishi, rivojlanishi, istiqbolini xayoliy obrazlar, tasavurlar va tushunchalarda aks ettiruvchi dunyoqarashdir.

Dogmatik o’qitish – bu jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo’lib, u o’rta asrlarda keng tarqalgan.

Dunyoqarash kishilarda olam haqida yaxlit umumlashtirilgan bilimlar, g’oyalar turkumini hosil qiladigan, ulami muayyan ijtimoiy guruhlar, sinflar, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, davlatlar maqsadidan kelib chiqib baholaydigan va shunga qarab hayotdagi o’z o’mini, amaliy faoliyat yo’nalishlarini, maqsadlarini aniqlab olishga imkoniyat beradigan ko’p qirrali va sermazmun tushunchadir.

Falsafiy dunyoqarash - bu olam haqidagi yaxlit va tizimlashtirilgan bilimlar yig’indisidir.

Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;

Fanning ob’ekti - shu fan tadqiq etadigan voqe’lik qismi ya’ni, o’rganish sathi, maydoni hisoblanadi.

Fanning predmeti- ob’ektdagi bevosita o’rganiladigan aniq soha bo’lib, u o’z xususiyatlari, sifatlari va jihatlariga ega.

Faoliyat - shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko’rinishi.

Faollik – tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak muhit bilan o’zaro ta’sirda bo’lishida namoyon bo’ladi.

Fazilat - alohida shaxs, el, elat, xalq ulusga taalluqli bo’lgan ijobiy axloqiy sifat majmuyi.

Fikr - inson faoliyati uning o’zligini kuch - qudratini o’zagini tashkil qiluvchi ma’naviy-insoniy sifatdir.

Fuqarolik – huquqiy va axloqiy me’yorlarga ongli rioya etish, ma’lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas’ullik

bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy etuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasi – fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoiy fuqarolar etib tarbiyalashdan iborat.

Guruh – odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo'lish xarakteri kabi qator belgilarga asoslangan ijtimoiy jamoa.

Hisobga olish — bu o'qitishning muayyan bir davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Huquqiy faoliyat - huquqiy me'yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e'tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui.

Huquqiy madaniyat – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Huquqiy ong - muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Huquqiy ta'lim - o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risidagi tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni.

Huquqiy tarbiya - shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, unda ijobiy huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Idrok – aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.

Idrok- borliqni odam ongiga aks ettirish.

Ijtimoiy reabilitatsiya (yunoncha “rehabilitas” — layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunida anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayoti va mehnatiga jalb etishni anglatadi.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar - o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasiga ta'sir ko'rsatish usullari.

Ijtimoiylashuv – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

Illustratsiya metodi - bilimlarni ogzaki bayon kila turib, rasmlar, chizmalar, jadvallar doskadagi yozuvlarga bolalar diqqatini tortish.,

Individ (lotincha “individium” bo’linmas, yagona, alohida degan ma’nalarni anglatadi) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik - shaxsning o’ziga xos xususiyatlari.

Innovatsion ta’lim – bu bo’lajak mutaxassislarni joylarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo’lib, u avval olgan bilimlar asosida ta’limni takomillashtirish va samarali yangicha yondashuv qilishdan iborat.

Interaktiv -so’zi ingliz tilidan olingan bo’lib «Inter» - o’zaro, «act» - harakat, ya’ni o’qituvchi va o’quvchi(talaba)ning o’zaro hamkorlikdagi faoliyati.

Iqtisodiy ta’lim - o’quvchilarga xo’jalik yuritish tizimi (oila byudjetini shakllantirish, xo’jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko’paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to’g’ri tashkil etish va hokazolar) to’g’risidagi nazariy bilimlarni berishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon.

Iqtisodiy tarbiya - o’quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila byudjetini shakllantirish, xo’jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko’paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to’g’ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko’nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo’lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo’yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta’minlash jarayonining faol ishtirokchisi.

Izohlash — tarbiyalanuvchiga hissiy-og’zaki ta’sir etish usuli. Izohlashning hikoya va tushuntirishdan farqlanadigan muhim belgisi muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo’naltirilganligidir.

Jamoa – maqsadlari jamiyat maqsadiga mos keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.

Jamoa-insonparvarlik va javobgarlik ma’suliyatlariga bogliqligi bilan xarakterlanadigan munosabatlar xamda xamkorlikdagi ijtimoiy ijobiy faoliyatiga asoslangan, kishilarning tashkil etilgan umumiyliigi, jamoasidir.

Jamoaning negizi – umumiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishga taalluqli qarorlarni shakllantiruvchi jamoa a’zolari.

Jazolash tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Joriy nazorat o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning har bir o‘quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o‘rganilgan mavzularni o‘zlashtirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini tekshirishni o‘z ichiga oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli - shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta‘lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o‘zaro hamkorligi, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik asosida «yuksak ma‘naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha Uning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Ko‘nikma — olingan bilimlarga asoslanib qo‘yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig‘indisi;

Ko‘rgazmali metod - ko‘rgazmalilik didaktikada eng asosiy printsip bo‘lib, uning yordamida ko‘ruv o‘quvi va tafakkur o‘zaro uygunlashtiriladi. Ko‘rgazmali metodlarning quyidagicha turlari mavjud.

Kompensatsiya (yunoncha “compensation” — o‘rnini to‘ldirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o‘rnini to‘ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayanadi.

Korreksion (maxsus) pedagogika— rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o‘qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda

Korreksion pedagogikaning asosiv maqsadi — belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o‘rtasidagi nomuvofiqlikni yo‘qotish yoki kamaytirishdan iborat.

Korreksion-pedagogik faoliyat yaxlit ta‘lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik choratadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Korreksiya (yunoncha “correctii” — tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to‘liq) sifatida tushunilishi ta‘kidlab o‘tiladi

Korreksiya (yunoncha tuzatish) bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo‘qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

Ma'naviyat (arabcha “ma'naviyat” — ma'nolar majmui) - mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui.

Ma'rifat — shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim-tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Madaniyat - jamiyat va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi.

Mafkura (arabcha «mafkura» - nuqtayi nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmuyi) - jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmuyi.

Malaka — ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi;

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Mehnat tarbiyasi - shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy arbiyaning tarkibiy qismi.

Menejment (yoki boshqarish) mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muavvan xodim yoki guruhga ta'sir etish. ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir.

Metod - yunoncha tarjimasida «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi.

Metod- so'zining yunoncha tarjimasida «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi. Falsafa lug'atida ushbu tushuncha umumiy tarzda «maqsadga erishish usullari» deya sharhlangan.

Ta'lim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materialini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi.

Metodika (fan sifatida)– xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Mifologik (yunoncha - mifos-naql, rivoyat, logos-tushuncha, ta'limot) dunyoqarash ijtimoiy taraqqiyotning eng boshlang'ich davriga xos bo'lgan xalq og'zaki ijodi-naql va afsonalarda gavdalantirilgan ijtimoiy ongning asosiy shaklidir.

Milliy ong - bevosita har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e'tiqodlari, madaniyati, boshqa xalqlarning o'zaro ta'siri tufayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy va madaniy-ma'naviy sohalarda faollik darajasi.

Muammoli izlanish metodi - Muammoli izlanish metodi tipiga o'quvchilar tafakkuriga, binobarin, ularning ijodiy faoliyatiga yo'nalgan ta'lim metodlaridir. Bu metodlar asosida o'quv - tarbiya ishlari tashkil etilganda o'qituchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siri, faolligi ko'zda tutiladi (muammoli hikoya, muammoli lektsiya)

Munozara (tarbiya metodi sifatida) - tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli.

Mustaqil ishlash metodi. Mustakil ishlar ta'limning turli zvenolari, tsikllarida, darsning barcha etaplarida o'tkaziladigan, o'qituchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalari, rahbarligida bajariladigan intellektual va amaliy topshiriklardir.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi.

O'quv dasturi – muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtning mavzularni o'rganilishi bo'yicha taqsimlanishi, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat.

O'quv fani – ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi manba.

O'quv qo'llanmasi – 1) ma'lum o'quv fanlari bo'yicha metodik materiallar, tushuntirishlar, tavsiyalarni yorituvchi hamda o'qituvchi yoki o'quvchilar uchun mo'ljallangan manba; 2) muayyan fan bo'yicha tayyorlangan hamda metodik jihatidan o'quv-tarbiyaviy jarayonda bevosita foydalanish imkonini beruvchi qo'shimcha o'quv materiallari.

O`quv rejasi – ta`lim muassasida o`qitiladigan o`quv fanlarining tartibi, ularning o`quv yili bo`yicha taqsimlanishi, har bir o`quv faniga ajratiladigan haftalik va yillik o`quv soatlari, shuningdek, o`quv yili tuzilishini belgilovchi me`yoriy hujjat.

O`z-o`zini baholash mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o`z shaxsiga baho berishga yo`naltirilgan faoliyat usuli.

O`z-o`zini tahlil (nazorat) qilish o`z shaxsi, mavjud fazilatlari, hatti harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatلامي boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli. O`z -o`zini tahlil (nazorat) qilish uchun o`quvchi o`zining yurishturishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O`z-o`zini tarbiyalash metodlari o`quvchilarning o`zini o`zi idora qilishlari, turli o`quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta`minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo`llaniluvchi usullardir. O`z-o`zini tarbiyalash o`quvchilarning o`zini o`zi idora qilish va o`quvchilarning turli organlari faoliyatida faol ishtirok etishni ta`minlash, ularning ijtimoiy mavqeini oshirishning ta`sirchan vositasidir.

O`qitish metodlari ta`lim jarayonida ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchi faoliyatining qanday bo`lishi, o`qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta`lim oluvchilar qanday ish harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi.

O`qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari – bu mutaxassislar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va predmetdagi tegishli mavzular bo`yicha dars jarayonini takomillashtirishga imkon beruvchi intellektuallashtirilgan dasturlar va uni amaliyotga joriy etishga sharoit yaratuvchi dasturiy – texnik vositalardir.

O`qitishning asosiy vositalari – bu asosiy o`quv mazmuniga ega bo`lgan rejalar, o`quv dasturlari, darslik va o`quv qo`llanmalaridir.

O`qitishning qo`shimcha vositalari – bu ta`lim oluvchilardagi bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantiruvchi masalalar, mashqlar to`plami, ma`lumotnomalar, tarqatma materiallar, ko`rsatmali va ko`rgazmali vositalar, disketlar, EHM va boshqalardir.

O`zlashtirish – ta`lim jarayonida ustuvor o`rin tutuvchi ijtimoiy talablarga muvofiq shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat va xulq usullarining egallanishi.

O'z-o'zini qayta tarbiyalash – **shaxsning o'zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo'qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayoni.**

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish - o'z shaxsi, mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini tarbiyalash 1) shaxsga xos bo'lgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning o'z jismoniy, ruxiy va axloqiy sifatlarini tinmay amalga oshirish.

Odob - har bir insonning o'zi bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish-turishida o'zini tuta bilishidir.

Og'zaki bayon metodi - Hikoya, tasvir, suhbat, leksiya ta'limining bilimlarni ogzaki bayon qilish metodlari sanaladi. Bu metodlar evristik suhbatni hisobga olmaganda, asosan o'quvchilarning hotirasiga mo'ljallab tashkil qiladi. Kurilishi jihatidan ularning tarkibi bir hil: o'qituchi tushuntiradi, bolalar tinglaydi.

Oligofreniya — bu natal (tug'ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

Oraliq nazorat — bu o'quvchilar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo'limlarining o'zlashtirilganini tekshirish.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari – shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, ob'ektiv va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning o'ziga xosligi: tarbiya ob'ekti bir vaqtning o'zida tarbiya sub'ekti ham hisoblanadi.

Pedagogik jarayonning rivojlanish dinamikasi uning ichki harakati, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xarakteriga, o'zaro ta'sir kuchiga bog'liq.

Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari.

Pedagogik tizim - tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'zaro tashkiliy hamkorlikda faoliyat ko'rsatuvchi barcha ko'rinishdagi maktabgacha tarbiya, o'rta umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus o'quv yurtlari, oliy o'quv yurtlari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalarining o'zaro uzviylikdagi tizimi.

Pedagogika (yunoncha «paidagogike» bo'lib, «paidagogos» - bola, etaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.

Pedagogika o'zining ob'ektini – rivojlanayotgan, doimiy yuksalish sharoitidagi insonda anglaydi. Bu inson doimiy ravishda tabiat hamda jamiyat qonuniyatlariga bo'ysunib, ular bilan uyg'unlikda faoliyat ko'rsatadi.

pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirish.

Predmet – bu tadqiqotchi (sub'ekt) tomonidan mazkur ob'ektda qo'yilgan vazifani o'rganish sohasi hisoblanadi.

Rag'batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'nglini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usulidir.

Reyting (baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) - muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.

SHaxs-kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi

Shaxsni ijtimoiylashtirish - uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o'zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.

Shkalalash - aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Shkalalash — aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Shu nuqtai nazardan, **pedagogika fanining ob'ekti**- pedagogik jarayonda kechadigan tarbiyalash, ta'lim berish, rivojlantirish asosida shakllanadigan **inson** hisoblanadi.

Sinf - yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lgan o'quvchilar guruhi tushuniladi.

Ta'lim muassasasining Ustavi ta'lim muassasasi faoliyatiga rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjatdir.

Ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya.

Ta'lim mazmuni – davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) – ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Ta'lim va tarbiya mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta'lim va tarbiya mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta'lim — o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon;

Ta'lim jarayoni — o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon;

Ta'lim mazmuni — davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati;

Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) — ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi;

Ta'lim vositalari - ta'lim samaradorligini ta'minlovchi obektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, komputer va boshqalar) va subektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar;

Ta'lim kontseptsiyalari (lotin tilidan «conceptio» –tizim) – ta'lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yahlit qarashlar tizimi; uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida ta'lim muassasalari faoliyati yo'nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) — ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi etakchi g'oya;

Ta'lim mazmuni — shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot ta mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati;

Ta'lim menejeri – ta'lim muassasasi faoliyatini zamonaviy menejment qonuniyatlariga muvofiq boshqaruvchi mutahassis.

Ta'lim metodlari — ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui;

Ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish - pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilishga aytiladi.

Ta'lim shakli – ta'lim jarayonining tashkiliy tuzilmasi.

Ta'lim tizimi – davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta'lim muassasalari majmui.

Ta'lim tizimini jamoatchilik asosida boshqarish o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik vakillaridan iborat pedagogik Kengashning umumiy o'rta ta'lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyatidir.

Ta'lim va tarbiya mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, hulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta'lim vositalari - O'quv ko'rgazmali vositalar, o'quv texnika vositalari, o'quv axborot texnorlogiyalariga bo'linadi.

Ta'limni boshqarish — ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarni belgilash;

Ta'limning maqsadi mustaqil jamiyatimizning ravnaqiga nazariy va amaliy hissa qo'sha oladigan "barkamol avlod"ni tarbiyalash.

Ta'limning sinf-dars tizimi - dars shaklida muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'quv rejasiga muvofiq tuzilgan aniq jadval bo'yicha olib boriladigan ta'lim jarayoni.

Ta'limning vazifasi - yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirish.

Tabiiy ko'rgazma - narsalarning o'z, predmeti, turli jonivorlarning mo'ljallarini ko'rsatish.

Tafakkur - inson ongidagi mavjud ilmiy va hayotiy bilimlar majmualaridan keragini saralab olish va amaliyotga qo'llash.

Talim vositasi – U yoki bu o'quv faoliyatini amalga ashirish uchun zurrur bo'lgan barcha narsalar.

Tarbiya — muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni - o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni — shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi (yunoncha “metodos” - yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi — pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Tashxis — bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash

Tayzik o'tkazish - uyatga qo'yish, aybdorlik xissi èki ko'ngli chukkanlarning fikri, xissièti, intilishi va moyiliggi ularning ongidan xalos qilish.

Tekshirish — nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida aks aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdir.

Test — aniq maqsad asosida, muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) o'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlikdir.

Uzluksiz ta'lim – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

Yakuniy nazorat— choraklik, yarim yillik, yillik va davlat attestatsiyasi sinovlari singari turlarga bo'linadi. Yakuniy nazorat og'zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari asosida o'tkaziladi.

Yosh xususiyatlari - muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.

TESTLAR

1-savol.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta'lim to'g'risida” qonuni qachon qabul qilindi?

2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son

2020-yil 7-avgust, O'RQ-637-son

2020-yil 19-may, O'RQ-637-son

2020-yil 23-sentabr, O'RQ-507-son

2-savol.

“Ta'lim to'g'risida” qonunida professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha qanday darajalarni o'z ichiga oladi?

boshlang'ich professional ta'lim; o'rta professional ta'lim; o'rta maxsus professional ta'lim.

boshlang'ich professional ta'lim; o'rta professional ta'lim; oliy professional ta'lim.

boshlang'ich professional ta'lim; umumiy professional ta'lim; o'rta maxsus professional ta'lim.

dastlabki professional ta'lim; o'rta professional ta'lim; o'rta maxsus professional ta'lim.

3-savol.

“Ta’lim to’g’risida”gi qonunda umumiy o’rta ta’lim qanday bosqichlardan iborat?

boshlang‘ich ta’lim (I — IV sinflar); tayanch o’rta ta’lim (V — IX sinflar); o’rta ta’lim (X — XI sinflar).

boshlang‘ich ta’lim (I — IV sinflar); o’rta ta’lim (V — IX sinflar); yuqori ta’lim (X — XI sinflar).

boshlang‘ich ta’lim (I — IV sinflar); oraliq ta’lim (V — IX sinflar); yakuniy ta’lim (X — XI sinflar).

quyi ta’lim (I — IV sinflar); o’rta ta’lim (V — IX sinflar); yuqori ta’lim (X — XI sinflar).

4-savol.

..... ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni olishga qaratilgan bo‘lib, ularning nazariy qismi ta’lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta’lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring.

Dual ta’lim

Inklyuziv ta’lim

Eksternat tartibidagi ta’lim

Masofaviy ta’lim

5-savol.

..... o‘quv rejalari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring.

Masofaviy ta’lim

Dual ta’lim

Inklyuziv ta’lim

Eksternat tartibidagi ta’lim

6-savol.

..... alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng

imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.
Inklyuziv ta'lim
Masofaviy ta'lim
Dual ta'lim
Eksternat tartibidagi ta'lim

7-savol.

..... o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishni o'z ichiga olib, uning yakunlari bo'yicha ta'lim oluvchilardan davlat ta'lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o'tishni talab etadi. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.
Eksternat tartibidagi ta'lim
Inklyuziv ta'lim
Masofaviy ta'lim
Dual ta'lim

8-savol.

Davlat ta'lim standartlari - bu
davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui
davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa
ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar
malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi

9-savol.

Davlat ta'lim muassasasi – bu
davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa
ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy,

intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan majburiy talablar
malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi
davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui

10-savol.

Davlat ta’lim talablari – bu
ta’limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta’lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan majburiy talablar
davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta’lim standartlariga va davlat ta’lim talablariga muvofiq ta’lim beradigan muassasa
malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi
davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui

11-savol.

Malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turi?
Mutaxassislik
Ixtisoslik
Daraja
Malaka

12-savol.

Oliy ta’lim qanday bosqichlarga ega?
Bakalavriat va magistratura
Oliy va yuqori
Doctor of Philosophy (PhD) va Doctor of Science (DSc)
Magistratura va Doctor of Philosophy (PhD)

13-savol.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida" qonuni necha bob va moddadan iborat?
11-bob, 75-modda
7-bob, 72-modda
11-bob, 82-modda
9-bob, 65-modda

14-savol.

Pedagogika so'zining lug'aviy ma'nosi
yunoncha paidagogike bo'lib, paidagogos «bola» va «yetaklayman»
yunoncha paidagog bo'lib, paidagogos «o'qitaman» va «yetaklayman»
yunoncha paido bo'lib, paidagogos «ilm» va «ma'lumot»
yunoncha paidagogike bo'lib, paidagogos «o'rganaman» va «o'qiyman»

15-savol.

Pedagogika qanday fan?
ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.
<u>inson</u> faoliyati va <u>hayvonlar</u> xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, hislatlar to'g'risidagi fan.
bir butun tizim hisoblangan jamiyat haqidagi va ayrim ijtimoiy tartibotlar, jarayonlar, ijtimoiy guruhlar, shaxs va jamiyat munosabatlari to'g'risidagi fan.
eng umumiy <u>fan (nazariya)</u> , <u>dunyoqarash</u> shakllaridan biri, inson <u>faoliyati</u> sohalaridan biri.

16-savol.

Didaktika so'zining lug'aviy ma'nosi
ta'lim nazariyasi. yunoncha didaktikos «o'rgatuvchi», didasko «o'rganuvchi»
ta'lim nazariyasi. yunoncha didaktikos «bola», didasko «yetaklayman»
ta'lim nazariyasi. yunoncha didaktikos «ta'lim», didasko «tarbiya»
ta'lim nazariyasi. yunoncha didaktikos «ilm», didasko «ta'lim»

17-savol.

Ta'limning nazariy jihatlarini, ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyatlari, ta'limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi

Didaktika

Pedagogika

Falsafa

Sotsiologiya

18-savol.

Pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o'rganadi

Tarbiya nazariyasi

Didaktika

Pedagogika

Falsafa

19-savol.

Muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni

Tarbiya

Ta'lim

Ma'lumot

Mutaxassis

20-savol.

Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha

Kategoriya

Talab

Ma'lumot

Mutaxassis

21-savol.

Pedagogikaning eng muhim kategoriyalar
shaxs, tarbiya, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish
shaxs, tafakkur, ta'lim, bilim, idrok, malaka, ma'lumot, rivojlanish
jamiyat, tarbiya, ta'lim, fikr, tabiat, malaka, ma'lumot, olam
tamoyil, tarbiya, ta'lim, idrok, ko'nikma, malaka, ma'lumot, faoliyat

22-savol.

Psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulqatvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi
Shaxs
Tarbiya
Ta'lim
Ma'lumot

23-savol.

Muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'qitish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni
Tarbiya
Ta'lim
Ma'lumot
Shaxs

24-savol.

O'quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'qitish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon
Ta'lim
Ma'lumot
Shaxs
Tarbiya

25-savol.

Shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

Bilim

Ko'nikma

Malaka

Ma'lumot

26-savol.

Shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati

Ko'nikma

Malaka

Ma'lumot

Bilim

27-savol.

Muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli

Malaka

Ma'lumot

Bilim

Ko'nikma

28-savol.

Ta'lim -tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui

Ma'lumot

Bilim

Ko'nikma

Malaka

29-savol.

Shaxsning fiziologik va intellektual o'zgarishlar mohiyatini ifodalovchi murakkab jarayon

Rivojlanish

Bilim

Ko'nikma

Malaka

30-savol.

Maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish masalalarini o'rganadi

Umumiy pedagogika

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi

Korreksion pedagogika

31-savol.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi

Korreksion pedagogika

Umumiy pedagogika

32-savol.

Rivojlanishida turli psixologik va fiziologik nuqsonlari bo'lgan bolalarni tarbiyalash va o'qitish bilan bogliq muammolarni o'rganadi

Korreksion pedagogika

Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi

Maktabgacha ta'lim pedagogikasi

Umumiy pedagogika

33-savol.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini oshirish, takomillashtirish muammolarini o'rganadi
Pedagogik mahorat
Pedagogik texnologiya
Pedagogika tarixi
Ijtimoiy pedagogika

34-savol.

Fransuzcha – tekshirish degan ma'noni anglatadigan pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodi
Anketa metodi
Suhbat metodi
Intervyu metodi
Test metodi

35-savol.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari
kuzatish, suhbat, anketa, intervyu, pedagogik tahlil, test
shaxs, tarbiya, ta'lim, bilim, ko'nikma, malaka, ma'lumot, rivojlanish
kuzatish, suhbat, anketa, shaxs, tarbiya, ta'lim
intervyu, pedagogik tahlil, test, malaka, ma'lumot, rivojlanish

36-savol.

Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi
Test metodi

Anketa metodi
Suhbat metodi
Intervyu metodi

37-savol.

Respondent tom onidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta'minlaydi
Intervyu metodi
Test metodi
Anketa metodi
Suhbat metodi

38-savol.

Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi
Anketa metodi
Suhbat metodi
Intervyu metodi
Test metodi

39-savol.

Pedagogik tairiba
eksperiment — lotincha «sinab ko'rish». «tairiba qilib ko'rish»
eksperiment — lotincha «izlanish». «o'rganish»
eksperiment — lotincha «tadqiqot». «tairiba»
eksperiment — lotincha «o'qish». «o'rganish»

40-savol.

Uni qo‘llash jarayonida, ta‘lim muassasalarining o‘quv-tarbiya ishlari jarayonini o‘rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba - avvali va yakunida qo‘lga kiritilgan ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq to‘g‘risidagi ma‘lumotga ega bo‘linadi

Pedagogik kuzatish metodi

Anketa metodi

Suhbat metodi

Intervyu metodi

41-savol.

Pedagogik tajriba turlari

Tabiiy tajriba, laboratoriya tajribasi, tajriba ishi

Suhbat, tajriba ishi, eksperiment

Intervyu, tabiiy tajriba, laboratoriya tajribasi

Anketa, laboratoriya tajribasi, tajriba ishi

42-savol.

Mazkur metod o‘quvchilarning muayyan yo‘nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma‘lum fan sohalari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi

Bolalar ijodini o‘rganish metodi

Pedagogik tajriba

Pedagogik tahlil metodi

Test metodi

43-savol.

Qaysi javob variantida pedagogika fanlari tizimi to'g'ri ko'rsatilgan ?
umumiy pedagogika, maktabgacha ta'lim pedagogikasi, korreksion (maxsud) pedagogika, metodika, pedagogika tarixi, ta'limni boshqarish, ijtimoiy pedagogika va boshqalar;
umumiy pedagogika, maktabgacha ta'lim pedagogikasi, korreksion (maxsud) pedagogika; surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika va logopediya;
umumiy pedagogika, ijtimoiy pedagogika, kasb ta'limi;
umumiy pedagogika, metodika, ta'limni boshqarish; axloq tuzatish pedagogikasi;

44-savol.

Mazkur g'oya qanday tushuncha mohiyatini yoritadi: «... shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari bo'lib, ular asosida muammoni ijobiy hal etishga yordam beruvchi tamoyillari, obyektiv va subyektiv omillari aniqlanadi»?
pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarining
ta'lim nazariyasining
tarbiya nazariyasining
pedagogik fanlar tizimining

45-savol.

Individ so'zining lug'aviy ma'nosi
lotincha «individium» so'zidan olingan bo'lib, «bo'linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi
lotincha «individium» so'zidan olingan bo'lib, «mavjud», «yagona shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi

lotincha «individium» soʻzidan olingan boʻlib, «yagona», «aqli shaxs», «ulkan» maʼnolarini anglatadi

lotincha «individium» soʻzidan olingan boʻlib, «bogʻliq», «yagona shaxs», «boʻlinmas» maʼnolarini anglatadi

46-savol.

Shaxsning fiziologik va intellektual oʻsishida namoyon boʻladigan miqdor va sifat oʻzgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon

Rivojlanish

Faoliyat

Muhit

Munosabat

47-savol.

Shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakat larining muayyan shakli, koʻrinishi

Faoliyat

Muhit

Munosabat

Rivojlanish

48-savol.

Muayyan bir yosh davriga xos boʻlgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar nima deb ataladi?

Yosh xususiyatlari

Faoliyat

Munosabat
Rivojlanish

49-savol.

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar nima deb ataladi?
Yosh xususiyatlari
Faoliyat
Munosabat
Rivojlanish

50-savol.

Temperament so'zining lug'aviy ma'nosi
lot. «temperamentum» «qismlarning bir-biriga munosabati» m a'nosini anglatadi
lot. «temperamentum» «o'zaro munosabat» m a'nosini anglatadi
lot. «temperamentum» «harakatlar birligi» m a'nosini anglatadi
lot. «temperamentum» «xos xususiyat» m a'nosini anglatadi

51-savol.

Shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmui
Temperament
Faoliyat
Munosabat
Rivojlanish

52-savol.

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar nima deb ataladi?

Yosh xususiyatlar

Individual xususiyatlar

Psixologik xususiyatlar

Fiziologik xususiyatlar

53-savol.

Muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni

Tarbiya

Ta'lim

Ma'lumot

Faoliyat

54-savol.

Shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, shaxs tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi

Aqliy tarbiya

Jismoniy tarbiya

Axloqiy tarbiya

Estetik tarbiya

55-savol.

O'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi

Jismoniy tarbiya

Aqliy tarbiya

Axloqiy tarbiya

Estetik tarbiya

56-savol.

Muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish maqsadida tashkil etiluvchi pedagogik jarayon

Axloqiy tarbiya

Aqliy tarbiya

Jismoniy tarbiya

Estetik tarbiya

57-savol.

Shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon

Mehnat tarbiya

Aqliy tarbiya

Jismoniy tarbiya

Estetik tarbiya

58-savol.

Shaxsni ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish, t o'g'ri tushunishni o'rgatish, ularning estetik didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat u yg'otish, shuningdek, go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalash jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi sanaladi

Nafosat tarbiya

Aqliy tarbiya

Jismoniy tarbiya

Estetik tarbiya

59-savol.

O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni

Tarbiya jarayoni

Ta'lim jarayoni

Faoliyat

Rivojlanish

60-savol.

Ta'lim oluvchilarni fan asoslariga oid bilimlar tizim i bilan qurollantirish ijtimoiy tarbiyaning qaysi yo'nalishi asosida amalga oshiriladi?

Aqliy tarbiya

Axloqiy tarbiya

Jismoniy tarbiya

Estetik tarbiya

61-savol.

Qaysi javob variantida tarbiya jarayonining xususiyatlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

aniq maqsadga yo‘naltirilgan, ko‘p qirrali, uzoq muddatli, yaxlit tizimli, ikki tomonlama aloqa, qarama-qarshiliklardan iborat jarayon

aniq maqsadga yo‘naltirilgan, texnologik, uzoq muddatli, yaxlit tizimli, diagnostik, qarama-qarshiliklardan iborat jarayon

dialektik, ko‘p qirrali, uzoq muddatli, yaxlit tizimli, texnologik, qarama-qarshiliklardan iborat jarayon

aniq maqsadga yo‘naltirilgan, gnostik, dialektik, yaxlit tizimli, ikki tomonlama aloqa, qarama-qarshiliklardan iborat jarayon

62-savol.

O‘quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda am aliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o‘stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon

Ta’lim

Tarbiya

Ma’lumot

Dars

63-savol.

Bevosita o‘quvchi rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli

Dars

Ta’lim

Tarbiya

Ma’lumot

64-savol.

Idrok etish, o‘rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko‘nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni

Bilim olish

Ta’lim

Tarbiya

Ma’lumot

65-savol.

O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga y o‘naltirilgan pedagogik jarayon

Ta’lim jarayoni

Tarbiya jarayoni

Rivojlanish

Ma’lumot

66-savol.

Ta’lim muassasalarida o‘qitilishi yo‘lga qo‘yilgan hamda o‘zida muayyan fan sohasi bo‘yicha umumiy yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba

O‘quv fani

Ta’lim jarayoni

Tarbiya jarayoni

Ma’lumot

67-savol.

Davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati
--

Ta'lim mazmuni

Ta'lim jarayoni

Tarbiya jarayoni

Ma'lumot

68-savol.

Olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi
--

Ko'nikma

Malaka

Ta'lim

Tarbiya

69-savol.

Ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi

Malaka

Ko'nikma

Ta'lim

Tarbiya

70-savol.

Ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui
--

Ta'lim metodlari

Ta'lim mazmuni

Ta'lim vositalari

Ta'limni tashkiliy shakli

71-savol.

Shaxsning aqliy va jism oniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati

Ta'lim mazmuni

Ta'lim vositalari

Ta'limni tashkiliy shakli

Ta'lim metodlari

72-savol.

Ta'lim samaradorligini ta'minlovchi obyektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, komputer va boshqalar) va subyektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar
--

Ta'lim vositalari

Ta'limni tashkiliy shakli

Ta'lim metodlari

Ta'lim mazmuni

73-savol.

Ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya
--

Ta'lim maqsadi

Ta'limni tashkiliy shakli

Ta'lim metodlari

Ta'lim mazmuni

74-savol.

Ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi

Ta'lim natijasi

Ta'lim maqsadi

Ta'limni tashkiliy shakli

Ta'lim metodlari

75-savol.

Ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollari belgilash
--

Ta'limni boshqarish

Ta'lim maqsadi

Ta'limni tashkiliy shakli

Ta'lim metodlari

76-savol.

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lida davlat tamoyillari asosida faoliyat yuritayotgan barcha turdagi o'quv-tarbiya muassasalari majmui

Ta'lim tizimi

Ta'lim maqsadi

Ta'limni tashkiliy shakli

Ta'lim metodlari

77-savol.

Ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayonining yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish
Didaktik tizim
Ta'lim maqsadi
Ta'limni tashkiliy shakli
Ta'lim metodlari

78-savol.

Pedagogika fani rivojining ma'lum bosqichida ta'limiy va tarbiyaviy muammolarni hal etish namunasi (modeli, standarti) sifatida ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan nazariy hamda metodologik ko'rsatmalar to'plami bo'lib, u ta'limning konseptual modeli sifatida qo'llaniladi
Pedagogik paradigma
Pedagogik diagnostika
Pedagogik texnologiya
Pedagogik mahorat

79-savol.

Madaniyat inson hayotining mazmuni sifatida tushuniladi
Qadriyatli yondashuv
Faoliyatli yondashuv
Shaxsiy yondashuv
Ma'naviy yondashuv

80-savol.

Asosan madaniyat moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratishga yo'naltirilgan faoliyatning sinalgan usullari sifatida talqin etiladi
--

Faoliyatli yondashuv

Shaxsiy yondashuv

Ma'naviy yondashuv

Qadriyatli yondashuv

81-savol.

Madaniyat muayyan shaxs tim solida nam oyon bo'ladi
--

Shaxsiy yondashuv

Ma'naviy yondashuv

Qadriyatli yondashuv

Faoliyatli yondashuv

82-savol.

Didaktika deb nimaga aytiladi?

ta'lim mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi ta'lim pedagogik nazariyasi, pedagogikaning sohasi
--

bola shaxsini shakllantirish qonuniyatlari haqidagi fan

tarbiyalovchi ta'lim mohiyatini o'rganadigan soha

didaktika bu shaxsning rivojlanishi qonuniyatlari haqidagi fan
--

83-savol.

Borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni

Bilim olish

O'quv harakatlari
Nazorat qilish
Tahlil etish

84-savol.

Bilimlarni egallash bosqichlari
Idrok etish, anglab etish, mustahkamlash, bilimlarni qo'llash
Tushunish, anglab etish, bilim olish, bilimlarni qo'llash
Ilmiy bilish, anglab etish, taqqoslash, bilimlarni qo'llash
Idrok etish, tushunish, mustahkamlash, taqqoslash

85-savol.

Gnoseologiya so'zining lug'aviy ma'nosi
yunoncha — «gnosis» («gnoseos») — bilim, ong, o'rganish, logiya – fan, ta'limot
lotincha — «gnosis» («gnoseos») — anglash, ong, taqqoslash, logiya – fan, ta'limot
yunoncha — «gnosis» («gnoseos») — tushunish, ong, o'rganish, logiya – fan, maqsad
grekcha — «gnosis» («gnoseos») — bilim, ong, tafakkur, logiya – ilm, ta'limot

86-savol.

Bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlari, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo'lgan borliqni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta'limot
Gnoseologiya
Texnologiya
Sotsiologiya

Psixologiya

87-savol.

Biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi
--

Tamoyil

Tizim

Qoida

Qonun

88-savol.

Pedagogik qonuniyatlar qaysi jihatlarga ko'ra guruhlangan
--

Ijtimoiy-tarixiy, tabiiy-tarixiy, psixologik
--

Ijtimoiy-tarixiy, tabiiy-ilmiy, texnologik
--

Ijtimoiy-tarixiy, falsafiy, psixologik
--

Ilmiy-nazariy, tabiiy-tarixiy, psixologik

89-savol.

Shaxsni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o'zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni

Shaxsni ijtimoiylashtirish

Shaxsni rivojlantirish

Shaxsni takomillashtirish

Shaxsni kamol toptirish

90-savol.

Ilmiy bilimlarni o'zlashtirilishi turi va sifatiga ko'ra

Biologik, matematik, fizik, iqtisodiy, filologik ta'lim va shu kabilar
Nazariy va amaliy, gumanitar va boshqalar
Musiqiy, badiiy, texnik, texnologik, pedagogik-tibbiy va shu kabilar
An'anaviy ta'lim, badiiy-estetik, diniy ta'lim va boshqalar

91-savol.

Ta'limni ustuvor mazmuniga ko'ra
Nazariy va amaliy, gumanitar va boshqalar
Musiqiy, badiiy, texnik, texnologik, pedagogik-tibbiy va shu kabilar
An'anaviy ta'lim, badiiy-estetik, diniy ta'lim va boshqalar
Biologik, matematik, fizik, iqtisodiy, filologik ta'lim va shu kabilar

92-savol.

Ta'limni ijtimoiy faoliyatlarni egallashi turi va mahoratiga ko'ra
Musiqiy, badiiy, texnik, texnologik, pedagogik-tibbiy va shu kabilar
An'anaviy ta'lim, badiiy-estetik, diniy ta'lim va boshqalar
Biologik, matematik, fizik, iqtisodiy, filologik ta'lim va shu kabilar
Nazariy va amaliy, gumanitar va boshqalar

93-savol.

Ta'limni madaniy qadriyatlarni o'zlashtirishga ko'ra
An'anaviy ta'lim, badiiy-estetik, diniy ta'lim va boshqalar
Biologik, matematik, fizik, iqtisodiy, filologik ta'lim va shu kabilar
Nazariy va amaliy, gumanitar va boshqalar
Milliy, yevropa, xalqaro, global ta'lim va boshqalar

94-savol.

Ta'limni kishilik jamiyatining madaniy qadriyatlarini o'zlashtirish ko'lamiga ko'ra
--

Milliy, yevropa, xalqaro, global ta'lim va boshqalar
--

An'anaviy ta'lim, badiiy-estetik, diniy ta'lim va boshqalar

Biologik, matematik, fizik, iqtisodiy, filologik ta'lim va shu kabilar
--

Nazariy va amaliy, gumanitar va boshqalar

95-savol.

Ta'lim tizimi turiga ko'ra

Universitet, akademiya, litsey, gimnaziya, ta'limi va boshqalar

An'anaviy ta'lim, badiiy-estetik, diniy ta'lim va boshqalar

Biologik, matematik, fizik, iqtisodiy, filologik ta'lim va shu kabilar
--

Nazariy va amaliy, gumanitar va boshqalar

96-savol.

Ta'lim mazmuni yo'nalishining ustuvorligiga ko'ra
--

Formal va moddiy, ilmiy va elementar, gumanitar va tabiiy fanlar, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy va boshqalar

An'anaviy ta'lim, badiiy-estetik, diniy ta'lim va boshqalar

Biologik, matematik, fizik, iqtisodiy, filologik ta'lim va shu kabilar
--

Nazariy va amaliy, gumanitar va boshqalar

97-savol.

Ta'lim darajasiga ko'ra

Boshlang'ich, to'liqsiz o'rta, o'rta maxsus, oliy ta'lim
--

An'anaviy ta'lim, badiiy-estetik, diniy ta'lim va boshqalar

Biologik, matematik, fizik, iqtisodiy, filologik ta'lim va shu kabilar
--

Nazariy va amaliy, gumanitar va boshqalar

98-savol.

Muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtni muhim bilimlarni o'rganilishi bo'yicha taqsimlash, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat
O'quv dasturi
O'quv rejasi
Davlat ta'lim standarti
O'quv fani

99-savol.

«Metod» so'zining lug'aviy ma'nosi
yunoncha tarjimasi «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi
yunoncha tarjimasi «meyor, mezon» kabi ma'nolarni anglatadi
yunoncha tarjimasi «talab, taklif» kabi ma'nolarni anglatadi
yunoncha tarjimasi «mazmun, mohiyat» kabi ma'nolarni anglatadi

100-savol.

Mazkur ijaravonda aniq vazifa, ya'ni, ma'lum sharoitda muayyan hodisalarni kuzatish yuklanadi.
Laboratoriya ishlari
Mashq
Ijodiy mashq
Darslik

101-savol.

Monologik metodlar
Ma'ruza, hikoya, namoyish, jamoaviy
Individual, guruhli, frontal
Suhbatlar, intervyu
Ilyustratsiya, demonstratsiya, tabiiy

102-savol.

Hamkorlik shakllari
Individual, guruhli, frontal
Ma'ruza, hikoya, namoyish, jamoaviy
Suhbatlar, intervyu
Ilyustratsiya, demonstratsiya, tabiiy

103-savol.

Diologik metodlar
Suhbatlar, intervyu
Ma'ruza, hikoya, namoyish, jamoaviy
Individual, guruhli, frontal
Ilyustratsiya, demonstratsiya, tabiiy

104-savol.

O'qishga qiziqishni rag'batlantiruvchi metodlar
biluv o'yinlari; o'quv bahsi; hissiy-axloqiy kechinmali vaziyatlar yaratish; appersepsiyali (idrokning tajribaga bog'liqligi) vaziyatlarni yaratish; biluv yangiliklari vaziyatlarini yaratish

o'qish va mehnatining muhimligiga ishontirish; talablarni ifodalash; talablarni bajarish uchun mashq; o'qishdagi rag'bat; o'qishdagi kamchiliklar uchun tanbeh

g'oliblarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish; o'quvchilarning ishlab chiqarish vositalarini mustaqil boshqarishga intilishlarini rag'batlantirish

o'quv-bilish faolivatining mo'ljal asoslarini vujudga keltirish; o'quv-bilish faoliyatini bajarish; mehnatda va mehnatda nazorat va o'z-o'zini nazorat

105-savol.

O'qish va mehnatda burch hamda javobgarlikni rag'batlantiruvchi metodlar

o'qish va mehnatining muhimligiga ishontirish; talablarni ifodalash; talablarni bajarish uchun mashq; o'qishdagi rag'bat; o'qishdagi kamchiliklar uchun tanbeh

biluv o'yinlari; o'quv bahsi; hissiy-axloqiy kechinmali vaziyatlar yaratish; appersepsiyali (idrokning tajribaga bog'liqligi) vaziyatlarni yaratish; biluv yangiliklari vazivatlarini yaratish

g'oliblarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish; o'quvchilarning ishlab chiqarish vositalarini mustaqil boshqarishga intilishlarini rag'batlantirish

o'quv-bilish faolivatining mo'ljal asoslarini vujudga keltirish; o'quv-bilish faoliyatini bajarish; mehnatda va mehnatda nazorat va o'z-o'zini nazorat

106-savol.

Mehnatga va muayyan kasbga qiziqishni rag'batlantiruvchi metodlar

g'oliblarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish; o'quvchilarning ishlab chiqarish vositalarini mustaqil boshqarishga intilishlarini rag'batlantirish

biluv o'yinlari; o'quv bahsi; hissiy-axloqiy kechinmali vaziyatlar yaratish; appersepsiyali (idrokning tajribaga bog'liqligi) vaziyatlarni yaratish; biluv yangiliklari vazivatlarini yaratish
o'qish va mehnatining muhimligiga ishontirish; talablarni ifodalash; talablarni bajarish uchun mashq; o'qishdagi rag'bat; o'qishdagi kamchiliklar uchun tanbeh
o'quv-bilish faolivatining mo'ljal asoslarini vujudga keltirish; o'quv-bilish faoliyatini bajarish; mehnatda va mehnatda nazorat va o'z-o'zini nazorat

107-savol.

Ta'limiy faoliyat qanday tarkibiy qismlardan iborat?
tashkiliy; rag'batlantiruvchi; nazorat
hikoya; suhbat; tushuntirish; ma'ruza; yo'riqnoma
mashq; o'quv-ishlab chiqarish tajribasi; o'quv-unumli mehnat; kitob bilan ishlash; yozma ish
qisman-izlanuvchi; tadq iqotchilik; algoritmlik; tashxisli

108-savol.

Og'zaki bayon qilish metodlari
hikoya; suhbat; tushuntirish; ma'ruza
mashq; o'quv-ishlab chiqarish tajribasi; o'quv-unumli mehnat; kitob bilan ishlash; yozma ish
qisman-izlanuvchi; tadq iqotchilik; algoritmlik; tashxisli
tashkiliy; rag'batlantiruvchi; nazorat

109-savol.

O'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi

Hikoya

Suhbat

Tushuntirish

Ma'ruza

110-savol.

Savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi bo'lib, u fanga qadimdan ma'lum, xatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan

Suhbat

Tushuntirish

Ma'ruza

Hikoya

111-savol.

Qanday suhbat turlari mavjud?

Kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat

Kirish, oraliq, yakuniy va guruhli suhbat

Asosiy, yakuniy, individual va tushuntirish

Jorit, oraliq, individual va guruhli suhbat

112-savol.

O'quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir

Tushuntirish

Ma'ruza

Hikoya
Suhbat

113-savol.

Yirik hajmdagi o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish metodi
Ma’ruza
Hikoya
Suhbat
Tushuntirish

114-savol.

Ko‘rgazmali metodlar
namoyish; tasvir
hikoya; suhbat; tushuntirish; ma'ruza
qisman-izlanuvchi; tadq iqotchilik; algoritmlik; tashxisli
tashkiliy; rag‘batlantiruvchi; nazorat

115-savol.

O‘rganilayotgan ob‘yekt harakat dinamikasini ochib berishda qo‘l keladi va ayni chog‘da predmetning tashqi ko‘rinishi va ichki tuzilishi haqida to‘laqonli ma’lumot berishda keng qo‘llaniladi
Namoyish metodi
Tasvir metodi
Hikoya metodi
Suhbat metodi

116-savol.

O‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo‘naltirilgan jarayonda qo‘llashni taqozo etadi
--

Amaliy ish metodlari

Ko‘rgazmali metodlar

Og‘zaki bayon qilish metodlari

Namoyish metodi

117-savol.

Amaliy metodlar

mashq, laboratoriya, amaliy ishlar

hikoya; suhbat; tushuntirish; ma‘ruza

qisman-izlanuvchi; tadq iqotchilik; algoritmlik; tashxisli
--

tashkiliy; rag‘batlantiruvchi; nazorat
--

118-savol.

Aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko‘nikmalarini egallash yo‘lidagi ko‘p marta takrorlanish

Mashq

Laboratoriya

Amaliy ishlar

Tushuntirish

119-savol.

Mashq qanday turlarga bo‘linadi?

og‘zaki, yozma, grafikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy

kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat

qisman-izlanuvchi; tadq iqotchilik; algoritmlik; tashxisli
--

o'quv-ishlab chiqarish tajribasi; o'quv-unumli mehnat; kitob bilan ishlash; yozma ish

120-savol.

Ta'limning tarkibiy qismi sifatida zaruriy ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida qo'llaniladi

Yozma mashqlar

Grafikaviy mashqlar

Og'zaki mashqlar

Jismoniy mashqlar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. - T., 2020.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston”, 2017.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi - inson manfaatlarini ta’minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston”, 2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida» 2001 yil 16 avgustdagi 343-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 10 yanvardagi 3-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 2-son, 21-modda
6. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakat strategiyasi. 7 fevral 2017 yil.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-sonli «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, Toshkent sh., 2017 yil 20 aprel
8. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017yil, 6-son,70-modda.
9. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 14-son, 230-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.10.2018 y., 09/18/858/2095-son
10. Abdullayeva. SH., Axatova. D.A Pedagogika. Toshkent. «Fan» 2004-y.
11. Абдуллаева Ш., Асқаров А. Умумий педагогика. Нопедагогик олий таълим муассасалари учун ўқув қўлланма. -Т: Фан

ва ахборот технологиялари, 2019. -280 б.

12.Б

13. Alexander R. Essays on pedagogy. – Routledge, 2013.

14. Alex Moore. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. USA, 2012 Routledge.

15. Asqarova O‘.M., Hayitboev M., Nishonov S. – T.: Talqin, 2008.

16. Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari. Toshkent. 2001. 11-bet.

17. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006.

18. адмаев, Б.Ц. Методика преподавания психологии [Текст]: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Б.Ц. Бадмаев. – М.: Владос, 2001. – 304 с.

19. Беспалко В.П. Слагаемые педагогической технологии. М, педагогика 1999

20. Benjamin L. D. A Brief History of the Psychology Course in American High Schools // American Psychologist. — 2001. — November. — P. 951-960.

21. Bristol, A. S., & Gillis, J. M. Recent developments in high school psychology education: An extension of Hakala (1999). Teaching of Psychology, 2001. - 28, p. 62-64.

22. Davronov I.E., Jurayev B.T. Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi. –B.: Durдона, 2019

23. Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika. – T.: Fan, 2006.

24. Hasanboev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N.. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. T.: “Fan va texnologiya”, 2009, 464-bet

25. Hasanboeva O., Djamilova N. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi. - T.: 2008.

26. Heather Fry, Steve Ketteridge, Stephanie Marshall. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education. USA, 2009 Routledge.

27. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati / Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2009.

28. Hasanboev J., To‘raqulov X.A., Alqarov I., Usmonov N.O‘., Is‘yanov R.G., Iuzlikaev F. Pedagogika nazariyasi (Didaktika): Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2011. - 420 b.

29. Ibragimov X.I. Pedagogika-psixologiya – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007

30. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
31. Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. – T.: Fan, 2001.
32. Ivanov R.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya / Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 480 b.
33. Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari – T.: TDPU, 2006.
34. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya / Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. – Toshkent: "Fan va texnologiyalar", 2007.– 176 b.
35. Лернер И.Я. Дидактическая система методов обучения. –М.; «Знание», 14-15-ст.
36. Лихачев Б. Т. Педагогика. - М.: Юрайт, 2003.
37. Ляудис В. Я. Методика преподавания психологии. — М.: Изд-во МГУ, 1989.
38. Мавлонова Р. ва бошқалар. Умумий педагогика//дарслик. -Т.: 2016 й. -538 б.
39. Махмутов М. И. Современный урок. — 2-е изд. — М., 1985.
40. Mahkamov U.I., Xo'jayev B.Q., Tilabova N., Didaktika vositalar majmui. Toshkent 2009
41. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdieva K. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2001.
42. Mirsolieva M., Pedagogika kolleji o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi – T.: Fan va texnologiyalar, 2011.
43. Muhiddinov A.G. O'quv jarayonida nutq faoliyati. – T.: O'qituvchi, 1995.
44. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2004.
45. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013.
46. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znanie, 1996.
47. Neil Selwyn. Education and Technology: Key Issues and Debates. Australia, 2011 Continuum

48. Nishonova S., Imomova M., Xasanov R. Pedagogika tarixi. Darslik T.: O'qituvchi 1996-yil
49. O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
50. Ochilov M., Ochilov N. Oliy maktab pedagogikasi (darslik) –T. "Aloqachi", 2008.
51. *Ochilov M. Muallim qalb me'mori. – T.: O'qituvchi, 2001.*
52. Ochilov M., Ochilova N. Oliy maktab pedagogikasi. Darslik. -T., «Aloqachi», 2008, 7-bet,
53. Omonov X., Xo'jayev N., Madyarova S., Eshchonov E. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009.
54. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi) oily o'quv yurtlari uchun darslik. J. Hasanboyev va boshqalar Toshkent: "Nashr" 2011
55. Pedagogika (Pedagogika nazariyasi va tarixi): o'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani bakalavriat yo'nalishi uchun darslik (M.X Taxtaxodjayeva, S. Nishonova, J. Xasanboyev, va boshqalar) –Toshkent, 2010
56. Psixologiya. Qisqacha izohli lug'at / Tuzuvchilar: M.G.Davletshin va boshq. Mas'ul muharrir M.G.Davletshin. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 1998. – 46 b.
57. Pedagogika fanidan izohli lug'at / Tuzuvchilar J.Hasanboev va boshq. – Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2009. – 671 b.
58. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Met. qo'll. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Inog'omova. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – 193 b.
59. Пидкасистый И.П. Педагогика. – Ростов-на-Дону.: Педагогика, 2003.
60. Подласый И. П. Педагогика. В 2-х кн. - М.: ВЛАДОС, 2003.
61. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari / OO'Yu uchun o'quv qo'll.
62. Quronov M. , Qurboniyozova Z. Ijtimoiy pedagogika. T., «Universitet», 1994, 42-b.
63. R.A.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma T.: Fan va texnologiya 2012-yil
64. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat J- T.: INNOVATSJYA-ZIYO, 2019
65. Roziqov O. va boshqalar "Didaktika" darsligi –T.: UzR F A "Fan", 1997

66. Roziqov O.R., Adizov B.R., Najmiddinova G.N. Umumiy didaktika. –T.:2012
67. Saidahmedovning N. Yangi pedagogik texnologiyalar nazariya va amaliyot. –T.: “Moliya” nashriyoti, 2003
68. Tolipov O’., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 205 b.
69. Xarlamov I.F. Pedagogika. – M.: Gardariki, 2005.
70. Xo‘jayev B.Q. Didaktik vositalar majmui. –Buxoro. 2017.
71. Xodjayev B.X., Choriyeva A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. - T.: IQTISOD1YOT DUNYOS1, 2018.
72. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011.
73. Ziyomuxammedov B. Pedagogika. – T.: Turon-Iqbol, 2006.
74. Zunnunov A, Maxkamboyev U, Didaktika: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma.-T.: “sharq” 2006
75. Egamberdieva N., Ijtimoiy pedagogika. Darslik. Alisher Navoiy nomidagi O‘zMKN.T.: 2009-yil.
- 76.
77. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf, 2000. – 80 b.
78. Ochilov M.. Muallim qalb me‘mori. O‘quv qo‘llanma T.:O‘qituvchi. 2004-yil
79. Пидкасистый И.П. Педагогика. – Ростов-на-Дону.: Педагогика, 2003.
80. Подласый И. П. Педагогика. В 2-х кн. - М.: ВЛАДОС, 2003.
81. Расулев А. А., Хайдаров М. М. Ўқитишнинг интерфаол методлари: Ўқув-услугий қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015.– 47 б.
82. Рахимов О.Д., Мустафаев Қ.О., Н.И.Зоиров Масофавий таълимнинг дидактик таъминоти. Ўқув қўлланма. Қарши-2012й
83. Селевко Т.К. Современный образовательный технология - М ; “Народный образовани“, 1998
84. Селиванов В.С. Основы общей педагогики: теории и методики. – М.: Академия, 2000.
85. Слостенин В.А., Исаев И.Ф. Педагогика. – М.: Академия, 2005.
86. Слостенин В.А., Исаев И. Ф., Шиянов Е. Н. Общая педагогика. В 2-х кн. – М.: ВЛАДОС, 2003.

87. Столяренко А.М. С81 Психология и педагогика: Учеб. пособие для вузов. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. - 423 с.
88. Столяренко Л.Д. Общая педагогика. – Ростов-на-Дону, Феникс,
89. Умарова М. Теория и история педагогики. Учебное пособие. - Т.: “Издательско-полиграфический дом имени Чулпана”, 2018 г.. - 348 б.
90. Харламов И.Ф. Педагогика: учеб. пос. 2- изд Высшая школа, 1990, 194-195-ст
91. Ходжаев Б.Х. Умумий педагогика. Дарслик.-Тошкент, “Sano-standart”, 2017 й.434 б.
92. Ҳасанбоев Ж., Тўракулов Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева О., Н.Усманов. Педагогика фанидан изоҳли луғат. Т.: “Фан ва технология”, 2009, 464-бет
93. Ҳасанбоев Ж., Тўракулов Х.А., Алқаров И., Усмонов Н.Ў., Исыянов Р.Г., Юзликаев Ф. Педагогика назарияси (Дидактика): Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2011. 105-бет.

MUNDARIJA:

KIRISH
1- MAVZU. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI
1.1. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi islohotlar.
1.2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni
1.3. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari.
1.4. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz ta’lim tizimi
2- MAVZU: PEDAGOGIKA SHAXS TARBIYASI VA RIVOJLANISHI TO‘G‘RISIDAGI FAN. ILMIY-PEDAGOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI VA METODLARI
2.1. Pedagogika fani va uning asosiy kategoriyalari
2.2. Pedagogika fanining paydo bo‘lishi va rivojlanishi.
2.3. Pedagogik fanlar tizimi
2.4. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi
2.5. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish
3- MAVZU. SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI
3.1. Insonni biologik va ijtimoiy rivojlanishi hamda uning shaxsini shakllanishi
3.2. Shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari va harakatlantiruvchi kuchlari
3.3. Shaxs shakllanishining yosh davrlari va ularning o‘ziga xos
4- MAVZU. YAXLIT PEDAGOGIK JARAYON
4.1. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va tuzilishi
4.2. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va prinsiplari
4.3. O‘qituvchi va o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faoliyatlari.
4.4. Yaxlit pedagogik jarayonni jadalashtirish
5- MAVZU. DIDAKTIKA - PEDAGOGIK TA’LIM NAZARIYASI.
5.1. “Didaktika” tushunchasining mohiyati
5.2. Didaktika pedagogika fanining tarkibiy qismi sifatida
5.3. Yan Amos Kamnskiyning "Buyuk didaktika" asari
5.4. Didaktikaning maqsadi, vazifalari va asosiy tushunchalari
5.5. Didaktik nazariyalar va ularning falsafiy asoslari.
5.6. Ta’lim paradigmalari.
5.7. Shaxsga yunaltirilgan ta’lim.
5.8. Ta’lim jarayonining qonuniyatlari.
5.9. Ta’lim jarayonining prinsiplari. Ta’lim prinsiplarining guruhlanishi.
6- MAVZU: TA’LIM MAZMUNI
6.1. Ta’lim mazmuni tushunchasi va mohiyati
6.2. Ta’lim mazmunini shakllantirishning asosiy nazariyalari
6.3. Ta’lim mazmunini tanlash prinsiplari va mezonlari
6.4. Davlat ta’lim standarti
6.5. O‘quv reja, o‘quv dastur va darsliklar tavsifi
7- MAVZU: TA’LIM METODLARI VA VOSITALARI
7.1. Metod tushunchasi va mohiyati.

7.2. Ta'lim metodlari klassifikatsiyasi
7.3. Ta'lim vositalari.
7.4. Ta'lim metodlari va vositalarini tanlash.
8-MAVZU: TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA TURLARI
8.1. Ta'lim shakli va uni tashkil etish tushunchasi.
8.2. Ta'lim shaklini rivojlanish bosqichlari.
8.3. O'quv jarayonining tashkil etish shakllari.
8.4. Ta'lim turlari.
8.5. STEAM ta'lim
9-MAVZU: O'QUVCHILAR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKLARINI TASHXIS ETISH
9.1. Ta'lim sifatini tashxislash
9.2. O'quv faoliyati natijalarini baholash va qayd etish
10-MAVZU: TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI. TARBIYA QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI
10.1. Tarbiya tushunchasi, tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari
10.2. Tarbiya jarayoni qonuniyatlari va prinsiplari
11-MAVZU: JAMOA TARBIYA OBYEKTI VA SUBYEKTI SIFATIDA
11.1. Jamoa nazariyasining shakllanishi va uning mohiyati
11.2. O'quvchilar jamoasining rivojlanish bosqichlari
12-MAVZU: TARBIYANING UMUMIY METODLARI, VOSITALARI VA SHAKLLARI
12.1. Tarbiya metodlari to'g'risida tushuncha
12.2. Tarbiya metodlari klassifikatsiyasi
12.3. Tarbiya vositalari va shakllari
13-MAVZU: TARBIYA JARAYONIDA SHAXSNING SHAKLLANISHI. TARBIYA TURLARI
13.1. Tarbiya mazmuni muammosi.
13.2. O'quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va aqliy tarbiyasi
13.3. Yoshlarni fuqarolik tarbiyasi
13.4. Ma'naviy-axloqiy tarbiya
13.5. Mehnat tarbiyasi.
13.6. O'quvchilarni estetik tarbiyasi
13.7. Yoshlarni jismoniy tarbiyasi
13.8. Oila tarbiyasi
14-MAVZU. TA'LIM MUASSASASI MENEJMENTI.
14.1. Ta'lim menejmenti tushunchasi.
14.2. Ta'lim tizimini boshqarish prinsiplari.
14.3. Ta'lim muassasalarining Nizomi.
14.4. Pedagog kadrlar malakasini oshirish.
14.5. Pedagogik tizimni boshqarishning metodlari
14.6. Pedagogik Kengash va uning vazifalari.
14.7. Rahbar madaniyati.
15-MAVZU: XALQARO BAHOLASH DASTURLARI
15.1. Xalqaro baholash dasturlarining me'yoriy asoslari.
15.2. PISA – o'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi.

16- MAVZU: KORREKSION PEDAGOGIKA VA INKLYUZIV TA'LIM ASOSLARI
16.1. Korreksion pedagogika pedagogika fanining tarmog'i sifatida.
16.2.. Korrekson pedagogikaning kategoriyalari.
16.3. Alohida yordamga muhtoj o'quvchilar bilan individual ta'limni tashkil etish.
16.4.. Inklyuziv ta'lim va uning o'ziga xosliklari.
16.5. Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari.
GLOSSARIY
TESTLAR
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

**RAXMONOVA GULLOLA SHAVKATOVNA
HAKIMOVA NARGIZA SUPHONOVNA**

UMUMIY PEDAGOGIKA

*5111800-maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv
qo'llanma*

Muharrir:	E. Eshov
Tex.muharrir:	S. Turayev
Musahhih:	M.Shodiyeva
Badiiy rahbar:	M.Sattorov

**Nashriyot litsenziyasi № 022853. 08.03.2022.
Original maketdan bosishga ruxsat etildi: 21.06.2022. Bichimi 60x84.
Kegli 16 shponli. "Times New Roman" garniture 1/16.
Ofset bosma usulida. Ofset bosma qog'ozi.
Bosma tabog'i 23. Adadi 20. Buyurtma №34**



**"BUXORO DETERMINANTI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahar Namozgoh ko'chasi 24 uy
Tel.: + 998 98 778 47 27**